
2026-yil, 30-aprel 08(76)-son

ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



Vatanim

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim…

...Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

Muhammad YUSUF



DOLZARB MAVZU

Maxpuza KARAXODJAYEVA,
TATU O‘zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, p.f.n

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TIL VA TA’LIM INTEGRATSIYASI

Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini,
cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa,
munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni,
o‘lmas maqomlarimizni eshitsin,
baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin.
(Sh.M. MIRZIYOYEV)

Annotatsiya: mazkur maqolada til va ta’lim integratsiyasining nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida til o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari integrativ yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *til integratsiyasi, ta’lim, kommunikativ kompetensiya, metodika, innovatsion yondashuv, CLIL, til, tafakkur, qonun, qadriyat, maqom, g‘urur, munosabat, dolzarb, istiqlol.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и методические основы интеграции языка и образования. Анализируются основные проблемы преподавания языка в современной образовательной системе и предлагаются пути их решения. Результаты исследования показывают, что интегративный подход способствует развитию коммуникативной компетенции учащихся.

Ключевые слова: *интеграция языка, образование, коммуникативная компетенция, методика, CLIL, язык , закон, инновационные технологии.*

Annotation: this article examines the theoretical and methodological foundations of language and education integration. It analyzes the main challenges in language teaching within modern educational systems and proposes effective solutions. The results show that an integrative approach plays a significant role in developing students’ communicative competence.

Key words: *language integration, education, communicative competence, methodology, CLIL, innovative approach.*

Til insonning tafakkur qurolidir. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma’lum, u kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ehtiyojiga ko‘ra yuzaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki bosh vazifasi uning kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lishidir. Tilni faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab hodisani jo‘n tushunishgina bo‘lar edi. Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi.

Zamon shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Hayotimizda har kuni turli yangiliklar, ixtirolar, dolzarb masalalar paydo bo‘lmoqda. Har bir sohada globallashuv jarayonining ta’siri natijasida juda ko‘p yangiliklar paydo bo‘layotganligi, insonlarning bu yangiliklar sari intilishi va ularni to‘liq o‘rganish va o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari ortib borayotganligi, bugungi kunda odatiy bir xolga aylanib bormoqda.

Shunday muhim masalalardan biri ma’naviyatimizni yuksaltiradigan mezonlaridan biri bu – til masalasidir. Tilning davlat tili maqomida bo‘lishi shu davlatning mustaqilligini ko‘rsatuvchi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘tgan asrda rasman **2976** tilni qayd etgan bo‘lsa-da, har xil hisob-kitoblarga ko‘ra va YUNESKO ro‘yxatiga ko‘ra bu ma’lumot **6912** tilni qamrab olgan. Bu tillarning **32.8** foizi Osiyo qit’asiga va **30.3** foizi Afrika qit’asiga to‘g‘ri keladi.

Tillarni saqlab qolish insoniyat oldida turgan o‘ta dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun **1999-yil 17-noyabrda** YUNESKO tomonidan e’lon qilingan **Xalqaro ona tili kuni – 21 fevral** har yili lisoniy, madaniy taraqqiyot va ko‘p tillilikni ta’minlashga ko‘mak berish maqsadida nishonlanib kelmoqda. YUNESKOning bu tashabbusini BMT Bosh Assambleyasi ham qo‘llab-quvvatlab **2008-yilni “Xalqaro tillar yili”**deb e’lon qilgan edi.

Til moddiy, ma’naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan raqamlardan bor-yo‘g‘i **178 tasi** davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tillar hisoblanadi. Ular orasida o‘zbek tilimizning ham borligi bizning faxrimiz va g‘ururimiz.

Tilga davlat tili maqomi berilishi uni turli muammolarga duch kelish xavfidan ma’lum darajada xalos qiladi. YUNESKO tomonidan tillarning yashovchanlik darajasini 9 ta mezon bilan baholangan. Ular – so‘zlashuvchilar soni, ajdodlardan avlodlarga tilni qoldirish, jamiyat ichida tilga munosabat shular jumlasidandir. Jamiyat ichida tilga munosabat turlari sifatida tilning yozuv bilan ta’minlanganligi, ta’lim tili, davlat tili va Internet tili ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin.

1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. Bu biz kabi ko‘plab mutaxassislarga keng imkoniyatlar yo‘lini ochib berdi. Respublikamizning barcha muassasalarida ish yuritish o‘zbek tiliga o‘tkazildi. Barcha ta’lim muassasalariga o‘zbek tili fan sifatida kiritildi. O‘z ona tilini oz bo‘lsa yo‘qotish darajasiga kelib qolgan vatandoshlarimiz uchun bu topilmas baxt edi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi juda katta olamshumul voqea bo‘ldi. Aynan 1989-yilning 21-oktyabr sanasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan davrlar xalqimiz hayotidagi eng qiyin kechgan yillar bo‘lgani, bugun bizning yodimizda. Sobiq tuzumning zulmidan ezilgan mehnatkash xalqimiz bu sanani, bu ulug‘ bir ishni hech qachon unutmaydi. Hali yurtimizda mustaqillik e’lon qilinmasdanoq, tilimizga davlat tili maqomi berilishi bu juda katta jasorat edi. Qabul qilingan bu Qonun mustaqillik yo‘lidagi ilk dadil qadam edi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan bu Qonunning huquqiy asoslari mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining I bob 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir...”, – deb yozilgan. [1]

Bu yo‘nalishdagi ishlarimizni yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida 1993-yil 2-sentyabrda – “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun, 1995-yil 6-mayda - “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qaror qabul qilindi.[2]

Mustaqillik yillarida lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosining joriy etilishi mamlakatimizda til va yozuv masalasiga alohida e’tibor qaratilganligining isbotidir. O‘tgan yillar davomida tilimizning rivoji, uning sofligini asrab-avaylash, rivojlantirish, unga nisbatan hurmatni oshirish kabi juda ko‘p ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ana shu Qonunga asosan barcha davlat idoralarida ish yuritish o‘zbek tilida amalga oshirildi. Davlat tilini o‘rganish bo‘yicha qator chora va tadbirlar qabul qilindi. O‘zbek xalqining tilshunos olimlari tomonidan tilimizning butun so‘z boyligini o‘zida aks ettirgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yaratilishi tilimizning naqadar katta bir so‘zlar ummoniga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu izohli lug‘at 5 tomdan va 80000 so‘z jamlamasidan iborat bo‘ldi.[3]

Bu yo‘nalishdagi ishlarimizning yana bir yangi qirrasi ochildiki, XX asrni texnika asri deya e’tirof etishimiz bilan birga, bu davrda faoliyat olib borayotgan barcha sohalardagi atama va terminlarga oid izohli lug‘atlar yaratilganligi ulkan muvaffaqiyatlarimizdan biri bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va samarali kommunikatsiya qila oladigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Bu jarayonda til va ta’limning o‘zaro integratsiyasi muhim omil hisoblanadi. Chunki har qanday bilim til orqali o‘zlashtiriladi va ifodalanadi.

An’anaviy ta’lim tizimida til ko‘pincha alohida fan sifatida o‘qitiladi. Biroq zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan til barcha fanlarni o‘zlashtirishning vositasi sifatida qaralishi lozim. Shu sababli til va ta’lim integratsiyasi — bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Integratsiya tushunchasi lotincha *integratio* so‘zidan olingan bo‘lib, **“birlashtirish”, “yaxlitlash”** ma’nolarini anglatadi. Pedagogikada esa bu turli fanlar va bilim sohalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashni bildiradi.

Til va ta’lim integratsiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- **Fanlararo integratsiya** – tilni boshqa fanlar bilan uyg‘un holda o‘qitish;
- **Kommunikativ yondashuv** – tilni real muloqot vositasi sifatida qo‘llash;
- **Kompetensiyaga asoslangan ta’lim** – bilimni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

Zamonaviy metodikalarda, xususan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi keng qo‘llanilmoqda. Bu metod orqali o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ham fan mazmunini, ham tilni o‘zlashtiradilar. Natijada bilim yanada mustahkam va amaliy bo‘ladi.

Til va ta’lim integratsiyasi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

Birinchidan, talabalar bilimni faqat nazariy emas, balki amaliy shaklda o‘zlashtiradilar.Masalan, tarix fanini o‘rganishda talaba nafaqat faktlarni biladi, balki ularni tahlil qilish, izohlash va ifodalashni ham o‘rganadi.

Ikkinchidan, integrativ yondashuv nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi. Talabalar o‘z fikrini erkin bayon etish, muloqotga kirishish va dalillash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Uchinchidan, bu yondashuv mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Chunki integratsiya jarayonida talaba turli fanlar o‘rtasida bog‘lanishlarni aniqlaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Til va ta’lim integratsiyasidagi quyidagi muammolar haqida to‘xtalib o‘tamiz:

Metodik muammolar. Amaliyotda tilni o‘qitish jarayonida hali ham an’anaviy metodlar ustunlik qiladi. Bu esa talabalarning nutqiy faoliyatini yetarli darajada rivojlantirmaydi.Integrativ topshiriqlar kamligi sababli talabalar bilimni real hayot bilan bog‘lay olmaydilar.

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi. Integrativ yondashuvni amalga oshirish o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani talab etadi. Biroq amalda ko‘plab o‘qituvchilar fanlararo yondashuvni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

O‘quv-metodik ta’minotning yetishmasligi. Hozirda integratsiyalashgan darslar uchun maxsus darslik va qo‘llanmalar yetarli emas. Mavjud o‘quv materiallari ko‘pincha alohida fan doirasida ishlab chiqilganligi sababli, bu o‘zgarishlar tor doiradagi fanlar bilan cheklanib qolmoqda.

Ko‘p tillilik sharoitidagi muammolar:

Ko‘p millatli jamiyatlarda davlat tilini o‘qitish jarayonida til muhitining yetishmasligi, ona tilining ta’siri va talabalarning motivatsiyasi kabi omillar muammolarni keltirib chiqaradi.

Texnologik muammolar. Ba’zi ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa integrativ ta’limni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qiladi.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramasdan muammolarni bartaraf etishning bir qancha yo‘llari bor ekanligini ta’kidlashimiz joiz. Bulardan quyidagi metodlardan ta’lim jarayonida foydalanish yaxshi natija berayotganligini ta’kidlash joiz:

Ta’lim jarayonida quyidagi innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur:

- CLIL yondashuvi;
- loyiha asosida o‘qitish;
- muammoli ta’lim;
- interaktiv metodlar (debat, munozara, rol o‘yinlari).
- Ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur:

O‘qituvchilar uchun muntazam ravishda:

- seminar va treninglar;
- malaka oshirish kurslari;
- metodik qo‘llanmalar tashkil etilishi zarur.

Ta’lim jarayoni davomida zamonaviy o‘quv materiallarini yaratish zarur:

Integratsiyalashgan darsliklar ishlab chiqish, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni kiritish muhimdir.Bu talabalarning qiziqishini oshiradi va bilimni mustahkamlaydi. Ta’lim jarayonida til muhitini shakllantirish zarur:

Tilni o‘rganishda tabiiy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun:

- til klublari;
- debat to‘garaklari;
- madaniy tadbirlar tashkil etilishi lozim.
- Ta’lim jarayonidagi eng kerakli holatlardan biri – bu raqamli texnologiyalardan foydalanishdir.

Onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalari til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, video darslar, interaktiv mashqlar va virtual muloqot muhiti o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Til va ta’lim integratsiyasini samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- har bir darsda nutqiy faoliyatga alohida e’tibor qaratish;
- fanlararo topshiriqlarni ko‘paytirish;
- talabalarni mustaqil fikrlashga undash;
- baholash tizimini kompetensiyaga yo‘naltirish;
- real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etish.
- Kommunikativ til o‘qitish yondashuvi zamonaviy metodikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jack C. Richards ta’kidlashicha, “kommunikativ til o‘qitish — bu tilni o‘rganishda asosiy e’tiborni muloqot orqali ma’no ifodalashga qaratadigan yondashuvdir”[4]

Ushbu yondashuvda til kompetensiyasi faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchining tilni turli ijtimoiy vaziyatlarda mos ravishda qo‘llay olish qobiliyatini

ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, **kommunikativ yondashuvda** o‘qituvchining roli ham tubdan o‘zgarib, u bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida **ishtirok etadi.”[5]**

Demak, zamonaviy pedagogika o‘qituvchini fasilitator (yo‘naltiruvchi) sifatida ko‘radi.

Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- rolli o‘yinlar;
- juftlik va guruh ishlari;
- muammoli vaziyatlar;
- dialog va munozaralar.

Bu usullar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantiradi hamda tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, darslar real hayotga yaqinlashtirilgan bo‘lishi lozim. Richardsning fikriga ko‘ra, “samarali til o‘qitish real kommunikativ faoliyatlarga asoslanishi kerak” [6].

Bugungi kunda kommunikativ yondashuv nafaqat xorijiy tillarni, balki davlat tilini o‘qitishda ham keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa:

- akademik yozuvni rivojlantirishda,
- rasmiy nutqni shakllantirishda,
- professional kommunikatsiyada

uning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kommunikativ yondashuv asosida darslarni tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ til o‘qitish yondashuvi zamonaviy metodikaning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir. U o‘quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantiradi. Mazkur yondashuv:

- interaktivlikni ta’minlaydi,
- o‘quvchini faol subyektga aylantiradi,
- nutqiy faoliyatni rivojlantiradi.

Shu bois, ta’lim jarayonida kommunikativ metodlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, dars jarayoni real hayotiy kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiriladi va o‘quvchilarning nutqiy faoliyati rivojlantiriladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, til va ta’lim integratsiyasi zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mavjud muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish zarur. Shundagina ta’lim sifati oshadi va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga erishiladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq o‘zbek tilining amalda qo‘llanish darajasi nihoyatda kengaydi. Biroq minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda tilning birlamchi manba bo‘lishi, ya’ni axborot olish va berishi hayotiy zaruriyatga aylandi. Axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga nisbatan bo‘lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu esa XX asrning buyuk kashfiyoti bo‘lgan kompyuter texnologiyalari sohasi uchun juda katta vazifalarni belgilaydi va tillar taraqqiyotida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Til millatning ma’naviy boyligi ekanligini unutmaslik, unga hurmat bilan yondashish, uni sofligini ta’minlash, uni yuksaltirish va qadriyat darajasiga ko‘tarish yo‘lida jonbozlik qilishimiz lozim deb o‘ylayman.

Hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb hisoblayman: “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2.“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 1992.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2020.
4. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1995-yil 6-may.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
6. Richards, J.C. *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press, 2006.
7. Coyle, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge, 2010.

Gulhayo HAYDAROVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qo‘qon davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Email: h.gulhayoxon1990@gmail.com

ADABIY TA’SIR: ALISHER NAVOIY VA XX ASR O‘ZBEK G‘AZALIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azaliyotida qo‘llanib kelingan badiiy obrazlar tizimining XX asr o‘zbek g‘azalchiligidagi davomiyligi va talqini tahlil qilinadi. Xususan, oshiq, shayx, soqiy, ko‘ngil kabi an’anaviy timsollarning Sobir Abdulla, Habibiy va Charxiy ijodida qanday yangicha mazmun kasb etgani ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda mumtoz va zamonaviy g‘azallar qiyosiy tahlil qilinib, badiiy an’ana va individual ijodiy yondashuvlar o‘rtasidagi munosabat ochib beriladi. Shuningdek, shayx obrazining germenevtik talqini, uning ijtimoiy-axloqiy va estetik ma’nolari aniqlanadi. Natijada, XX asr g‘azalnavislari Navoiy adabiy maktabiga sodiq qolgan holda, uni zamonaviy ruh va g‘oyalar bilan boyitgani ilmiy dalillar asosida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, g‘azal, badiiy obraz, oshiq, shayx, soqiy, Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy, adabiy an’ana, germenevtik talqin, mumtoz va zamonaviy adabiyot, timsol, ramz, badiiy meros.*

Annotation: this article analyzes the continuity and reinterpretation of the system of poetic images formed in Alisher Navoi’s ghazals within twentieth-century Uzbek poetry. In particular, it examines how traditional symbolic figures such as the lover (oshik), the sheikh, the cupbearer (soqi), and the heart (ko‘ngil) acquire new meanings in the works of Sobir Abdulla, Habibi, and Charhi. Through a comparative analysis of classical and modern ghazals, the study reveals the relationship between literary tradition and individual creative interpretation. Special attention is given to the hermeneutic interpretation of the sheikh image, highlighting its social, ethical, and aesthetic dimensions. The findings demonstrate that twentieth-century Uzbek ghazal poets preserved Navoi’s artistic legacy while enriching it with modern ideological and stylistic innovations.

Key words: *Alisher Navoi, ghazal, poetic image, lover, sheikh, cupbearer, Sobir Abdulla, Habibi, Charhi, literary tradition, hermeneutics, classical and modern literature, symbolism.*

Аннотация: в статье анализируется преемственность и новое осмысление системы художественных образов, сформировавшихся в газелях Алишера Навои, в узбекской поэзии XX века. Особое внимание уделяется тому, как традиционные образы — влюблённый (ошик), шейх, сокий и сердце — получают новое смысловое наполнение в творчестве Собира Абдуллы, Хабибия и Чархия. На основе сопоставительного анализа классических и современных газелей раскрывается взаимосвязь литературной традиции и индивидуального авторского мышления. В статье также рассматривается герменевтическая интерпретация образа шейха и его социально-нравственное и эстетическое значение. Делается вывод о том, что поэты XX века, опираясь на традиции Навои, обогатили газель новыми художественными и идейными смыслами.

Ключевые слова: *Алишер Навои, газель, художественный образ, влюблённый, шейх, сокий, Собир Абдулла, Хабибий, Чархий, литературная традиция, герменевтика, классическая и современная литература, символ.*

Har qanday asar mohiyatini anglashda badiiy obrazlar muhim vazifa bajaradi. Chunki she’riyat obrazlar tili bilan so‘zlaydi. Obraz yaratishda har bir davr adabiyoti, qolaversa, har bir ijodkor o‘zgacha yondashishi, ma’lum bir obraz yoki timsolga yangi ma’no yuklashi, uning taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishi mumkin. Mumtoz adabiyotimiz tarixidan ma’lumki, ijodkorlar an’anaviy oshiq, ma’shuqa, raqib (ag‘yor), shayx, zohid, soqiy, ko‘ngil kabi ko‘plab obrazlarni yanada takomillashtirishgan va ular vositasida ma’lum fikr va g‘oyalarini ilgari surganlar.

Adabiyotshunos Habibullo Jo‘rayev Alisher Navoiy shoh va gado obrazlaridan oshiq va ma’shuqaning ramziy timsoli sifatida ham foydalanganini, mazkur obrazlar zimmasiga ma’naviy-axloqiy qarashlarini, ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritishni ham yuklaganini

ta’kidlagan. XX asr o‘zbek g‘azaliyotida ham bu an’ana davom ettirilgan. Jumladan, Habibiyning “Jamolingni ko‘rarga ko‘zlarim…” sarlavhali g‘azalida:

Sharafli iltifotingni hamisha orzu aylab,
Gadolar-ku muqarrar, balki mag‘rur ag‘niyo muhtoj –

deganda yorning sharafli iltifotini gadolar hamisha orzu qilishi muqarrar, balki mag‘rur badavlatlar ham bunga muhtojligini aytadi. Bu o‘rindagi gado oshiq timsoli ekanligi oydinlashadi.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotda shayx obrazini qo‘llash an’anasi ham bevosita Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Hazrat Navoiyning ayrim g‘azallarida shayx obrazining ichki dunyosi, ma’naviy olamini yoritishga urg‘u berilsa, ayrimlarida bu obraz insoniy tuyg‘ulardan ham mahrum, riyokor, ta’magirligi ochiq-oydin bayon etilgan ayrim din peshvolarining umumlashma timsoli sifatida salbiy ma’noda ko‘rsatiladi:

Ul shayxki, minbar uza afsung‘a berur tul,
Shaytondur o‘zi, majlisining ahli suruk g‘ul.

Yuqorida tahlilga tortilgan g‘azal mazkur devonga kiritilmaganining sababi shuki, har ikkala g‘azalning “tug‘ilishi” o‘rtasida yigirma sakkiz yillik farq bor. Devondagi g‘azal 1940-yilda, to‘rt jildlik to‘plamdagi g‘azal esa 1968-yilda yaratilgan. Dastlabkisi shoirning ayni shijoatga to‘lgan, navqiron o‘ttiz besh yoshida yozilgan asar bo‘lib, ijtimoiy muhitning ta’siri sezilarli izini qoldirgan. Devondagi har bir g‘azalga sarlavha sifatida g‘azalning umumiy mazmunini to‘la anglashga yordam beruvchi bayt qo‘yilgan:

Xonaqo, zikru samosiz xalqni tovlab, yoshurun,
“Shohmardon”ga borib, eski do‘konni ochdi shayx…

Baytdagi xonaqo, zikru samosiz xalq birikmasiga shoir bir necha vazifalar yuklagan: 1) din arbobini, ya’ni g‘azalda keltirilgan shayxni qoralash; 2) jamiyat kishilarining dinsiz ekanligini isbotlashga urinish. Mazkur birikmadan shayxni “xonaqoh” va “zikr tinglash”dan yiroq, xalqni “tovlab”, ya’ni aldab, yashirincha Shohimardonga borib, eski do‘kon (diniy muassasa ma’nosida; lug‘atda “ijodxona” ma’nosi ham mavjud)ni ochganini anglash mumkin. Shoir sarlavhada boshlagan fikrini butun g‘azal davomida tadrijiy ravishda rivojlantirib boradi. Tasvirlayotgan shayx obrazini o‘ta qora bo‘yoqlar bilan “bezagan”: nafsi ajdar, xalqa-yu zikrsiz ham doim “muzaffar”, elni aldar, tulkiyona, munofiq, zang‘ar, kar, mug‘ombir, hiylakor, tulkilarga sarvar kabi.

Sobir Abdullaning “shayx” radifli har ikkala g‘azalini qiyoslab o‘rganishda bir ijodkorning adabiy-estetik rivojlanish bosqichini kuzatish imkoniyati ham paydo bo‘ldi. Devon tarkibidagi g‘azalda din vakillarini qoralash orqali shayx obraziga biryoqlama munosabat sezilsa-da, keyingi to‘plamdagi g‘azalda bu obraz butunlay yangi ma’no uchun xizmat qilgan.

Charxiy va Habibiyning devon va to‘plamlari sinchiklab tahlil qilinganda, ushbu ijodkorlarning shayx obraziga murojaat qilmagani ayon bo‘ldi. Sobir Abdulla mumtoz adabiyotni, xususan, Alisher Navoiy g‘azaliyotini sevib mutolaa qilgani g‘azallarda qo‘llagan obraz va ramzlarni qo‘llash mahoratini puxta o‘zlashtirganida ko‘rinadi. O‘zining turli mavzudagi ko‘plab g‘azallarida bu an’anaga sodiq holda, ammo o‘zgacha uslubda o‘quvchiga badiiy zavq tortiq etuvchi adabiy topilmalar kashf etadi. Shuning uchun Sobir Abdulla g‘azallarini o‘qigan kitobxon Navoiyning nafasini his qilishi va darhol tafakkurida o‘rtasida besh asrlik tafovut bo‘lgan bu ikki ijodkorning asarlaridagi hamohanglikni izlay boshlashi bejizga emas.

Fikrimizcha, Sobir Abdulla baytidagi shayx so‘zini ikki xil ma’noda tushunish mumkin: birinchisi, o‘tgan zamonlarda yashagan xalq jirkangan jami “muflisu aftoda shayx”lar; ikkinchisi, Alisher Navoiy yuqoridagi ikkita g‘azalida aynan tasvirlagan shayxlar nazarda tutilmoqda. Bu adabiyotshunoslik metodologiyasida germenevtik talqin deb atalib, baytni o‘qigan o‘quvchi o‘z dunyoqarashi, bilim saviyasi va tafakkuriga qarab, har ikki ma’nodan qaysidir birini qabul qilaveradi. Mazkur jarayon o‘quvchining ma’naviy dunyosini va asarni o‘zlashtirish darajasini ham ko‘rsatib beradi. Zero, “germenevtik tahlilda badiiy asarning ko‘pma’noliligi muhim. Bunday asarni turlicha tushunish va tushuntirish imkoni mavjud”. Qaysi ma’noni qabul qilish esa o‘quvchining tafakkuriga bog‘liq.

Yuqoridagi har ikkala bayt bir-biri bilan mantiqiy bog‘liqlikni hosil qilib, Sobir Abdulla Navoiy hajv qilgan shayx obraziga murojaat qiladi va Maqsud Shayxzoda bilan “muflisu aftoda” shayxlarni parallel qo‘yib, Shayxzodaga nisbatan hurmatini izhor etadi. Davomidagi baytda esa, shoir Alisher Navoiy an’anasini munosib davom ettirib, aynan “shayx” radifli g‘azaliga ham ishora qilmoqda:

Qo‘l beray desam senga, do‘stim, so‘zimdan kulmagin,

Qo‘l berur har kimsa, topsa sen kabi ozoda Shayx.

Muallif baytda Navoiyning bir ozoda shayx topsam, qo‘l berib bandasi bo‘lar edim, degan orzusini ta’kidlamoqda. Navbatdagi oltinchi baytga kelib esa, Shayx kim ekanligini o‘quvchisiga tanitmoqchi bo‘ladi:

Shayx deganda, siz buning hayroni bo‘lmang yoshlar,

Hammaga manzuru mashhur do‘stimiz Shayxzoda Shayx.

G‘azalning keyingi bayti mazmunni yanada ochishga, tasvirlanayotgan ijodkor shaxsiyatini o‘quvchi yaqinroq anglashiga yordam beradi:

Bo‘ldi band yillar yozish birlan Ulug‘bek vasfida,

Dars o‘qir hozirgi kun Beruniydek donoda Shayx.

Bu baytda muallif Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasiga ishora qilmoqda. Keyingi misrada esa, Shayxzodaning o‘sha paytda Nizomiy nomidagi ToshDPIda o‘zbek adabiyoti tarixi fanidan dars berayotganligi va “Abu Rayhon Beruniy” she’riy dramasiga nozik ishora mavjud.

Mazkur g‘azalda qo‘llangan ittifoq, talmeh, tanosub, tazod, tansiq as-sifot kabi badiiy san’atlar uning an’anaviy usulda yozilganini va salaflar g‘azallaridan oziqlanib bitilganligini yana bir bor isbotlaydi:

– baytlardagi Maqsud, Shayx, Shayxzoda, Ulug‘bek(Mirzo Ulug‘bek), Beruniy, G‘afur(G‘afur G‘ulom) kabi atoqli otlar talmeh san’atini shakllantirishga xizmat qilgan;

– g‘azalda istifoda etilgan shayx(Shayx) istilohi ikki xil ma’no ifodalab, ittifoq san’atini;

– xonaqoh, shayx, (be)murid, behirqa, bedastor, besajjoda, kayf, boda kabi birliklar tanosub san’atini;

– yoshlik-mo‘ysafid(lik), yomon-yaxshi kabi juftliklar esa tazod san’atini shakllantirgan va bularning barchasi yordamida muallifning badiiy mahorati serqirra ekanligi namoyon bo‘lgan.

Baytda yana tansiq as-sifot san’ati (she’rda tasvirlangan shaxs yoki narsalarga xos bo‘lgan belgilarni ketma-ket keltirib, tasvirlash san’ati) ham mavjud bo‘lib, “oqko‘ngil, fikri ravon, shirin zabonu soda; bemurid, behirqa, bedastoru besajjoda; katta shoir, katta olim, katta fozillik bilan; qadrdon, hamqalam do‘st” tarzida namoyon bo‘lgan.

Sobir Abdulla oltmish yoshga to‘lishi munosabati bilan nashr etilgan “Devon”ida ham shunday radifli g‘azal mavjud bo‘lib, u 1976-yilda nashr etilgan to‘rt jildlik to‘plamdagi g‘azaldan mazmun-mohiyati va g‘oyasi bilan tubdan farq qiladi:

Xalq ko‘zin bo‘yab, yutgay, komi-nafsi ajdar shayx,

Xalqa-yu zikirsiz ham doimo “muzaffar” shayx.

Yo‘q emish deb erdilar shayxni, Shohimardonda,

Yuziga niqob tortib, maxfiy, elni aldar shayx.

baytlari bilan boshlanuvchi ushbu g‘azal ayrim riyokor shayxlarning qiyofasini ochish uchun yozilgan. Uning tarkibiga “kolxozchi”, zang‘ar, shimu pidjak kabi so‘zlar ham kiritilib, shoir o‘z maqsadini satirik yo‘l bilan ifodalamoqchi bo‘ladi.

Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy mumtoz g‘azaliyotni nafaqat keng targ‘ib qilgan, balki o‘zini ilhomlantirgan har bir timsol va obrazni qayta ishlab, sayqallantirishga e’tibor qaratgan. Oshiq, shayx, ko‘ngil va soqiy obrazlari misolida har uchala ijodkorning hazrat Navoiyga munosib izdosh ekanligi, shuningdek, o‘z davrining hozirjavob so‘z san’atkori ekanligi yana bir bor namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Charxiy. *Devon.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.

2.Charxiy. *Qiyolab o‘tdi. She’rlar*. –Toshkent: “Akademnashr”, 2010.

3.Sobir Abdulla. Asarlar. 4 tomlik, 2-tom, G‘.G‘ulom nashriyoti, T., 1979.

4.Sobir Abdulla. Devon. –T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

5.Habibiy. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.

6.Siddiqov M. Navoiy hayratlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015.

7.Haydarova G. XX asr o‘zbek g‘azalchiligida Alisher Navoiy an’analari va o‘ziga xosliklar. Monografiya. – Farg‘ona: “Classic” nashriyoti, 2023.

Tojixon TOSHBOLTAYEVA,
Qo‘qonDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

SHE’RIYAT MULKINING G‘OZIYSI

Annotatsiya: ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining zabardast shoirlardan biri G‘oziy ijodi haqida fikr yuritiladi. Zamonasining tahlikali qutqulari sharoitida o‘z adolatli fikrini ayta olgan, shiddatli va maftunkor she’riyati bilan adabiy muhitning chin ma’noda G‘oziy shoiri bo‘lgan bu zot ijodining xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, she’riyat, adabiy jarayon, ‘Majmuai shoiron”, so‘z ustalari, ilohiy ishq, shoir shaxsiyati, ijod.*

Annotation: this article discusses the work of G‘oziy, one of the prominent poets of the Qo‘qon literary environment. It provides information about the distinctive features of his творчество—he was a poet who, amid the turbulent and threatening conditions of his time, was able to express his just and truthful opinions, and who became, in the true sense, a remarkable poet of the literary milieu through his intense and captivating poetry.

Key words: *literary environment, poetry, literary process, Majmuai Shoiron, masters of words, divine love, poet’s personality, creativity.*

Аннотация: в данной статье рассматривается творчество Г‘озийа, одного из выдающихся поэтов Кокандской литературной среды. Даётся информация о характерных особенностях его творчества. Несмотря на тревожные и сложные условия своей эпохи, он сумел открыто выражать справедливые мысли и благодаря своей стремительной и чарующей поэзии стал подлинно значительным поэтом литературной среды.

Ключевые слова: *литературная среда, поэзия, литературный процесс, «Маджмуаи шоирон», мастера слова, божественная любовь, личность поэта, творчество.*

Ijodiy merosi mukammal o‘rganilmagan qo‘qonlik shoirlardan yana biri – Muhammad G‘oziydir. Uning yashagan va ijod etgan davri taxminan XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning 20-yillariga to‘g‘ri keladi. XIX asr birinchi choragi Qo‘qon adabiy muhiti haqida fikr yuritar ekan, A. Qayumov G‘oziyning bu muhitda tutgan o‘rnini shunday belgilaydi: “... poeziya taraqqiy etdi. Lirik poeziyada ilg‘or fikr egalari G‘oziy, Hoziq, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Ma’dan kabi shoirlarning asarlari ayniqsa alohida o‘rin egallaydi;” Haqiqatan ham G‘oziy o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan olim – fozil shoirlaridan ediki, bunga hamma ham tan berishga majbur bo‘lgan. Bunday bahoni XVIII asrning ko‘zga ko‘ringan shoiri Akmal ham olgan edi. G‘oziyning o‘z davrining atoqli so‘z ustalaridan biri bo‘lganligini, adabiyotdagi baland mavqeini shu davr adabiy hayoti kartinasini badiiy bo‘yoqlarda ancha mufassal yaratib bergan Fazliy Namangoniy ham “ Majmuai shoiron”da e’tirof etadi:

Chu G‘oziyki dar korzori suxan,
Ba tig‘i zabon bud lashkarshikan

Bu G‘oziy ijodiga berilgan dastlabki baholardan biri. Shoir hayoti va ijodining asosiy tadqiqotchisi A.Qayumov bo‘lib, uning asarlari XX asr o‘rtalarida yaratilgan. G‘oziy she’riyati janr jihatidan o‘z davri ruhiga hamohang, mavzu va mazmun jihatidan ham rang – barang va davr ijtimoiy voqeiligining ayrim xususiyatlari bilan tanishishga yordam beruvchi, badiiy estetik jihatdan o‘ziga xos va maftunkordir. Fazliy Namangoniy, Muhammad Amin domullo Attor va Aziz Qayumov G‘oziyning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni haqida so‘zlaganlarida uni zamonaning zabardast, zullisonayn, tab’i kamolga yetgan istedodli va obro‘li shoiri Mulla Shermuhammad Akmal bilan yonma – yon qo‘yadilar. Ikkala shoir nohaqlik, jaholat tufayli hayotda yuz bergan noxush voqea hodisalarni kuzatar ekanlar, ko‘pincha bir – birlariga hamfikr bo‘lib kibor zodagonlarni qattiq tanqid qilganlar. Ikkala shoirning haqiqatgo‘yliklari, sheryurakliklari, baland mavqelari shu darajadaki, hatto xon saroyi xos xizmatkorlari ham ularning ziyrak nazaridan chetda qolmagan, Olimxonning eng yaqin kishilariga G‘oziy ham Akmal bilan bir darajada qattiq qarshi bo‘lgan va ularni baravar tanqid qilgan. Bir g‘azalida shoir hatto xonning o‘ziga ham pardali ifodalarda nasihat qiladi:

Ey quyosh, subhi uzoring birla mag‘rur o‘lmag‘il,
Bir nafasda shom o‘lur, albatta masrur o‘lmag‘il..
Masti iqbol o‘lma, idbori bila og‘ritma bosh
Totmag‘il bu bodani zinhor maxmur o‘lmag‘il.

Barcha mutaffakkir shoirlar singari G‘oziyning ham eng katta boyligi – dard. Bu dardning tashqi qobig‘i jamiyat nomukammalligi, hukumat va arboblar zulmi, nodon va johillar bilan yashashga mahkumlik bo‘lsa, asl mazmuni – haqiqiy ishq sharobidan sarxush bo‘lib, mutlaq Yor vasliga yetishdir. “Hayotim yo‘lboshchisi – muhabbat, tilim kaliti – dard”, deb yozadi shoir bir g‘azalida:

Meni G‘oziy bu noqis shayxlarga yo‘qdur ixlosim,
Muhabbat murshidim, dardu alamdur xatti irshodim.[G‘oziy. №121: 11 a]

Shoir o‘zining falsafiy mushohadalarini, ma’rifat xususidagi mushohadalarini vahdati vujud ta’limoti nuqtai nazaridan bayon etadi. U ko‘nglining simob yanglig‘ beqarorligini jahonni buyuk san’at bilan bunyod etgan san’atkorning ustaligidan hayratdalikda, go‘zallikni na his, na aqlu idrok bilan qamrab ololmaganlikda, deb tushunadi:

Tajalliygohi husnung manzarini intizoridin,
Ko‘ngul oyinasi siymob yanglig‘ beqaror o‘lmish. [G‘oziy. №121: 18 a]

Shoir lirikasidagi ishqso‘zlik, ya’ni ishq o‘tida kuyish, yonishning mazmuni parvona kabi o‘zni fano qilib, yorga yetishishdir. Chunki, parvona shamga o‘zini urib, kuyib tamom bo‘lmaguncha, sham nima ekanligini idrok eta olmadi:

Kori boram so‘xtan, sar boxtan monandi sham’,
Bo dili sadchok shab to subx ashk afshoniye. [G‘oziy. №121: 9 a]

Mazmuni: Ishim – tiriklikdagi yukim shamga o‘xshab boshimni fido qilib yonmoqdan iborat. Kecha tong otguncha yuz chok bo‘lgan dil bilan yig‘lab chiqaman.

Bu fikrlar davr ruhiyatini bevosita o‘zida aks ettiradi. Shu davrda bir muddat Qo‘qonda yashagan Hoziq muxammaslaridan birida shu ma’no aks etgan satrlar mavjud:

Boshima solmish ne savdolar muhabbat mehnati,
Bosh oyog‘im sham’dek yondurdi ul oy furqati,
O‘lsam oson bo‘lur erdi hajrning bu kulfati,
Jong‘a chun dermen ne erkan chiqmag‘ing kayfiyati,
Derki, bois o‘ldi jism ichra marazning shiddati.

G‘oziy lirikasida og‘ir ijtimoiy hayotdan, turmush qiyinchiliklaridan zorlanish ruhida yozilgan asarlar ham mavjud. Bu asarlarda shoir mulohazalarini ochiq – oydin, dadil bayon etadi. Uning uslubida Mavlono Gulxaniy ijodida bo‘lgani singari pardali iboralar, ehtiyotkorlik, Maxmur she’riyatidagi singari ayovsiz satira ko‘zga tashlanmaydi. Bu dard, yuqorida aytganimizdek, shoir yuragidagi katta, asl dardning tashqi libosi. Bu dard, aniqroq ifodalasak, sharhi holat, tavsif:

O‘tti umrim arzi holim qilmadim fosh oldida,
Arzi hol etgach, zamon o‘lg‘ay edim kosh oldida.
Qon yutib, mehnat chekib g‘urbatda o‘lgan yaxshiroq,
Benavolik birla yurguncha qarindosh oldida.
[G‘oziy. №121: 22 a]

Yoki: Libosi zar bila nokas kas o‘lmag‘ay hargiz,
Eshak eshakdir agar necha qilsang atlasu hul.
[G‘oziy. №121: 32 b]

Yana: Bir nafas, bir lahza, bir dam shodlik ko‘rsatmayub,
Aylading g‘amdin qaro yer birla yakson ko‘nglumi.
[G‘oziy. №121: 19 a] va b.

O‘z benazir she’riyatining qadru qimmatini, o‘z iste’dodi va adabiy hayotdagi o‘rnini yaxshi bilgan G‘oziy faxriya uslubida avlodlariga murojaat etadi:
G‘oziy ba shamshiri fikr mulki suxan fath kard,
Quvvati bozu nigar: qal’ai Haybar shikast.
[G‘oziy. №121: 21 b]

Mazmuni: Fikr shamshiri bilan so‘z mulkini fath etgan G‘oziy bilagining kuchini ko‘r: Haybar qal’asini yengdi.

Yana “Majmuai shoiron”da qayd etilishicha, G‘oziy o‘z zamondoshi shoir Akmal bilan (Maxmurning otasi) yaqin do‘st, hamsuhbat bo‘lganligi haqida Fazliyning alohida eslatishlari mavjud:

Az on ba’d G‘oziy she’r ozmo,
G‘azalxon shirini o‘ dilkusho...
Hamedo shiy suhbat ba Akmal mudom,
Ba ham budash on muttafiq dar kalom.
Mazmuni:
Undan so‘ng she’rda sinalgan G‘oziydir,[1]
Uning shirin g‘azallari dilga yaqindir...
Har vaqt Akmal bilan suhbatdosh edi
U bilan so‘zda ittifoqdosh edi.

Ana shu ma’lumotlar davomida Fazliy G‘oziyning Akmaldan oldinroq vafot etganini bildirib, bunday deb yozadi:

1 Тошбосма. 6-бет.

Zi vahshatgohi olami nur xatar,
Safar kard o‘ ham az in peshtar.
Mazmuni:
Xavfu xatarga to‘la olam vahshatgohidan
Bu ham undan oldinroq safar qildi.

Bularki, shoirning hayoti, yaqin do‘stlar bilan munosabatlari xususidagi ma’lumotlar. Tubandagi baytlar esa shoir G‘oziyning qanday inson va qanday shoir bo‘lganligi borasida muayyan tasavvurlar uyg‘otadi:

Ba olam bud dar ilmu fan,
Guzasht az jahon mond az vay suhan,
Chu G‘oziyyi dar korzori suxan,
Ba tig‘i zabon bud lashkar shekan.
Safar kard az olami bemador,
G‘azal mond az o‘ dar jahon yodgor.
Zi fayzi suxan go‘rash obod bod,
Ki az do‘ston ruhi o‘ shod bod.[2]
Mazmuni:
Ilmu fanda dunyoga bayroq bo‘lgan edi,
Olamdan ketdi, unday yaxshi so‘z qoldi.
So‘z jangohida bir g‘oziy edi,
Va so‘z tig‘i bilan lashkarni mahv etuvchi edi.
Bemador va yomon olamdan safar qildi,
Undan jahonga g‘azallar yodgor bo‘lib qoldi.
So‘z fayzidan uning qabri obod bo‘lsin
Va do‘stlaridan uning ruhi shod bo‘lsin.

Mazkur qaydlar bir tomondan, shoir G‘oziy haqida anchayin ma’lumotlar berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, Fazliy va uning zamondoshlarining shoir G‘oziy shaxsiyati va ijodiga bo‘lgan munosabatini namoyon qiladi. Zero, “Majmua”dagi qaydlar G‘oziyning o‘z davrining tan olingan so‘z ustalaridan bo‘lgani va shoiru fozillar orasida yetarli mavqega egaligidan darak beradi. Uchinchidan esa, G‘oziy haqidagi masnaviy ma’lumotlar Fazliyning ham so‘zga chechan shoir bo‘lganini, muayyan bir shaxs (shoir, fozil kishilar) ta’rifi va tavsifida g‘oyat zukkolik va nazokat bilan so‘z yuritganini ko‘rsatadi. Fazliy “Majmua”da qayd etilgan shoirlar ta’rifida ma’lumotda nazarga olingan shaxs sifatlari va u haqidagi ma’lumotlarni havola qilishda muxtasarlik va aniqlik tamoyiliga amal qilgan.

XVIII – XIX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari ko‘pchigining nomlari hali noma’lum, o‘rganilmagan. Bir qancha shoir va shoiralarining devonlari borligi ma’lum (masalan, Akmal ikki tilda devon tuzgan, Ado, Mahzuna, devonlari), ammo hanuz topilmagan. Bu sohada bundan keyin ham kengroq ko‘lamda tadqiqotlar olib borilmog‘i lozim. Bu sohadagi ishlarning yo‘lboshchisi, atoqli olim A.Qayumovning adabiyotshunoslik oldida qo‘ygan vazifasi hanuz o‘z kuchida turibdi: “Shubha yo‘qki, kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar bu davr adabiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini kengroq ochishga, ilmiy jamoatchilikni hozirgacha nomi ma’lum bo‘lmagan boshqa ijodkorlarning asarlari bilan tanishtirishga imkon berar.”

2 Тошбосма. 360-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziz Qayumov. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII – XIX asrlar). – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1961. 76-bet.
2. Shu kitob, 83-bet.
3. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron. – T.: Fan. 2018. 74-bet.
4. G‘oziy. Devon. Inventar №121.10a Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi.
5. A.Qayumov. Asarlar. 10 tomlik. 7-j, 1- kitob. –T.: Fan, 2008. 45-bet
6.Po‘latjon Qayumiy.Tazkirai Qayumiy. 2 kitob. –Toshkent, 1998-yil.



TILSHUNOSLIK

Munavvara QURBONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
munavvara2013@yandex.ru

BOLALAR NUTQIDA IKKILAMCHI DEYKSISNING IFODALANISHI

Annotatsiya: maqolada deyksis hodisasining mohiyati yoritilib, uning nutq ontogenetik faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritilgan. Bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida deyksisning ifodalanish usullari ko‘rsatilgan. Ikkilamchi deyksisning bolalar nutqiga xos ko‘rinishlari aniqlangan, ularni yuzaga keltiruvchi omillar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *bolalar nutqi, kontekst, pragmalingvistika, psixolingvistika, ontolingvistika, kommunikativ kompetensiya, ontogenez, ikkilamchi deyksis*.

Аннотация: в статье раскрывается сущность явления дейксиса, а также рассматриваются его роль и значение в онтогенетическом развитии речи. Показаны способы выражения дейксиса в процессе формирования и развития детской речи. Выявлены специфические проявления вторичного дейксиса в детской речи, а также исследованы факторы, способствующие их возникновению.

Ключевые слова: *детская речь, контекст, прагмалингвистика, психолингвистика, онтолингвистика, коммуникативная компетенция, онтогенез, вторичный дейксис.*

Annotation: the article elucidates the essence of the phenomenon of deixis and discusses its role and significance in the ontogenetic development of speech. The ways in which deixis is expressed in the process of the formation and development of children’s speech are demonstrated. The specific manifestations of secondary deixis in children’s speech are identified, and the factors contributing to their emergence are investigated.

Key words: *children’s speech, context, pragmalinguistics, psycholinguistics, ontolinguistics, communicative competence, ontogenesis, secondary deixis.*

Til inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi bo‘lib, u orqali shaxs dunyoni idrok etadi va ijtimoiy muloqotga kirishadi. Bunda bolalar nutqiga oid deyktik (voqelik va uning elementlariga ishora qiluvchi) birliklar alohida o‘rin tutadi. Deyksis til va nutqning kontekstga bog‘liqligi, so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasidagi muloqot jarayonini ta’minlovchi asosiy pragmalingvistik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bolalar nutqida deyktik birliklarning shakllanishi ularning kognitiv rivojlanishi, muloqot kompetensiyasi hamda tilni ijtimoiy kontekstda qo‘llash qobiliyati haqida muhim ma’lumot beradi.

Deyksis hodisasining mohiyatini pragmalingvistika, psixolingvistika va ontolingvistikaning kesishish nuqtasida tadqiq etish, bolaning tildan foydalanish jarayonidagi kommunikativ niyati, muloqotdagi pozitsiyasi (men-sen-u uchligi) va nutq kontekstini anglash darajasini tahlil qilish antroposentrik tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, xususan, bolalarning nutqiy faoliyatni kontekst asosida tushunish va ifoda etish qobiliyatini o‘rganish ta’lim tizimi va logopedik amaliyot uchun ham diqqatga sazovordir. Deyksis hodisasi orqali bolaning nutqiy tajribasi, ijtimoiy munosabatga kirishish ehtiyoji va emotsional-psixologik holati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, bolalar tomonidan qo‘llangan deyktik elementlarni pragmalingvistik aspektda tahlil qilish nutqning semantik, sintaktik va kommunikativ tuzilishini yanada teran anglash imkonini beradi. Bolalar nutqining deyktik xususiyatlarini o‘rganish ularda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy moslashuv jarayoni uchun qulaylikni yuzaga keltirish va ona tilida tabiiy muloqot olib borish malakasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot mavzusi shu jihatdan dolzarbdir.

O‘zbek bolalari nutqiga xos deyktik birliklarni pragmalingvistik aspektda tadqiq etish ularning kommunikativ salohiyati, lingvokreativ qobiliyati, ontogenez davrida til birliklariga xos ichki imkoniyatlarning ifodalanish darajasini belgilashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish, fan, ta’lim, ishlab chiqarish sohalaridagi hamkorlikni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish lozim. Zero, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “… aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish” [1], maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishni bolalarning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirish [2], davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish [3], mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanishga erishish [4]da bu yo‘nalishda olib boriladigan ishlar muhim o‘rin tutadi.

Deyktik vositalardan foydalanish nutq ontogenezining dastlabki davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sh.Safarov bu haqda shunday deb yozadi: “Deyktik iboralar bolalar nutqi rivojining dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo‘ladi. Psixolingvistlarning kuzatishlari guvohlik berishicha, 3-7 yoshdagi bolalar nutqi, birinchidan, egosentrik bo‘lsa, ikkinchidan, telegraf uslubida, ya’ni “grammatikasiz” tartibda yuzaga keladi. Shu sababli bo‘lsa kerakki, go‘daklar grammatik shakllardan ko‘ra “men”, “sen”, “u yerda”, “mana”, “bu”, “hozir”, “keyin” kabi iboralarni ma’qul ko‘radilar. Bunday iboralarning lisoniy qobiliyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lishiga yana bir sababni ushbu iboralarning ma’no xususiyatlari bilan bog‘liq deb hisoblash tarafdorimiz” [8, 154-155].

Albatta, deyktik birliklar bolaning tilni o‘zlashtirish jarayonida paydo bo‘ladigan dastlabki nutqiy vositalardandir. Chunki bola avvalo atrofdagi voqelikni ko‘rsatish, ishora qilish orqali idrok etadi. Bu bosqichda u o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanadi va nutqiy birliklar vositasida muloqot ishtirokchilari yoki predmetlarni makon, zamon hamda shaxs mezonlari asosida farqlaydi. Shu sababli uning nutqida “men”, “bu”, “mana” kabi so‘zlar faol iste’molda bo‘ladi. Psixolingvistlar, xususan, J.Piaget va L.S.Vygotskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 3–7 yosh oralig‘idagi bolalar nutqi egosentrik xarakterga egaligi ta’kidlanadi. Bunday nutqiy xususiyat bolaning muloqot jarayonida asosan, o‘z nuqtayi nazarini markazga qo‘yishi va suhbatdosh pozitsiyasini to‘liq hisobga olmasligi bilan izohlanadi. Shu sababli bola nutqida deyktik birliklar faol qo‘llanadi, ular bevosita bolaning “men” markazli konsepsiyasi hamda subyektiv idrok doirasi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shuningdek, “psixolingvistika” fanida qo‘llaniladigan “telegraf uslubi” termini bola nutqining sodda va qisqaligi, unda grammatik strukturalarning to‘liq shakllanmaganligini anglatadi. Nutq rivojining ushbu bosqichida deyktik birliklar asosiy kommunikativ funksiyani bajaradi, ya’ni muloqot jarayonida bola ishora birliklari, kontekst va vaziyatga muvofiq lisoniy vositalarni qo‘llashga moyil bo‘ladi. Olimning bunday birliklarning erta bosqichda shakllanishi ularning ma’no xususiyatlari bilan bog‘liqligi haqidagi fikri ham asoslidir. Chunki deyktik birliklarning semantik mohiyati aniq, vizual va hissiy idrok bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola “mana”, “bu” deganda real predmetni ko‘radi va unga ishora qiladi. Bu esa uning kognitiv rivojlanish jarayonidagi sensor-motor bosqich bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, bolalar nutqida deyktik birliklarning erta bosqichda shakllanishiga psixolingvistik hamda semantik omillar sabab bo‘ladi.

Deyksis hodisasi bolalar nutqining o‘ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Ular nutqiga xos ayrim metaforik qo‘llanishdagi fe’llar harakat-holat deyksisini hosil qiladi. Masalan:

*1. Derazadan oy **qarab turibdi**.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)

*2. Tramvaydan tushgandan keyin ikki tomonidagi devorlardan pishgan o‘riklar **mo‘ralab turgan** jinko‘chalardan o‘tdik*. (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

*3. Bobojon! – deyman goho. – Bolta urganingizda daraxt nega **qaltirab ketyapti**?* (X.To‘xtaboyev. “Jannati odamlar”)

*4. Cholning soqoli **titrab ketdi**…* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)

4–5 yoshli bola obyektiv olamdagi muayyan voqelik, axborot, vaziyatga ishora qilib, nutq mazmunini murakkablashtiruvchi propozitiv deyksisni shakllantiradi. Chunki mazkur davr nutq rivojlanishining dastlabki bosqichi bo‘lib, bunda bola gaplar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish hosil qila oladi.

“shunday”, “bunday”, “shu gapda”, “o‘sha haqida” kabi birliklarni aniq kontekstda ishlata boshlaydi. Bu birliklar orqali u oldingi fikrga ishora qilishni o‘rganadi [8]. Bu bosqichda bola mavhum fikrlay olmaydi. Shu tufayli propozitiv deyksisni hosil qilishda aniq nutqiy tajribaga tayanadi. Maktab yoshidagi bolalar nutqida ***shunchalik***”, ***shunaqangi*** birliklari ko‘p ishlatiladi. Muloqot jarayonida ular muayyan axborotga ishora qilib, propozitiv deyksisni shakllantiradi. Masalan:

Bir kuni uning o‘ziga laqabini aytib bergan edik, ***shunaqangi*** *kuldiki, ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. (*X.To‘xtaboyev. “Besh bolali yigitcha”)

Bolalar kommunikativ faoliyatida diskurs deyksisi nutq rivojlanishining keyingi bosqichida, ya’ni 6–7 yoshdan so‘ng shakllanadi. Bu bosqichda bola matnni butun voqea sifatida idrok etadi, ketma-ket ifodalanuvchi gaplardan foydalanishda mantiqiy izchillikka rioya qiladi. Nutqiy faoliyatida “xullas”, “demak”, “keyin”, “shuning uchun” kabi metatekstual bog‘lovchilarni ishlata boshlaydi. Masalan, “xullas” birligi oldingi nutq segmentiga, ya’ni voqealar ketma-ketligiga ishora qilib, diskurs deyksisini yuzaga chiqaradi [5]. Mazkur holat kognitiv refleksiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bunda bola o‘z nutqini tahlil qila boshlaydi va metalisoniy tafakkur orqali “nutq haqida nutq” tuzadi. Shu tufayli diskurs deyksisi metakognitiv rivojlanish belgisi sanaladi.

Quyidagi kontekstda bola tomonidan qo‘llangan shunday olmoshi diskurs deyksisini hosil qilgan: *Hammamiz qiy-chuv solib o‘ynayotgan edik, jo‘raboshimiz alam bilan do‘rillab qoldi: – Shinelim! Shinelimni yeb qo‘ydi!* ***Shunday*** *degancha kattakon tayog‘ini ko‘tarib tol soyasida allanimani mazza qilib chaynayotgan buzoq tomonga yugurdi.* (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Bu o‘rinda qo‘llangan olmosh oldingi nutq bo‘lagi – “Shinelimni yeb qo‘ydi!” –mazmuniga qayta ishora qilib, matnda kogeziya (bog‘liqlik)ni ta’minlagan. Bolalar kommunikativ faoliyatida bu kabi birliklar odatda, o‘z nutqiga qaytish, emotsional holatni kuchli ifodalash va harakat-nutq uyg‘unligini aks ettiruvchi tipik psixopragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalar ham kattalar kabi diskurs deyksisini shakllantirishda fe’l turkumiga oid birliklardan unumli va o‘rinli foydalanadilar. Masalan:

Bundan chiqdi, alvasti ko‘prikda Husan buvam, oqsoqol buvaga yordam bergan Olimjon aka shu ekan-da. ***So‘ragim keldi****-yu, dadam qovog‘ini solib turganini ko‘rib, indamay qo‘ya qoldim. (O‘Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)*

Keltirilgan misolda qo‘llangan so‘ragim keldi birligi nutqning oldingi segmentiga ishora qilib, uni keyingi qism bilan bog‘lagan.

Quyidagi kontekstda esa *so‘radi* fe’lining pragmatik vazifasi nutqning keyingi segmentiga ishora qilish orqali uni matnning oldingi qismi bilan bog‘lashdan iborat bo‘ladi:

U g‘archli kavushiga chang qo‘ndirmaslik uchun tuproq ko‘chadan avaylab borarkan, orqasiga qaramasdan ***so‘radi****: – Kim bilan tushasan?* (O‘Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Bolalar nutqida fe’lning sifatdosh shakli orqali hosil qilingan diskurs deyksisi ham ko‘p uchraydi. X.To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” asarida shunday holat kuzatiladi:

Hali ***aytganimday*** *bu yerda ishlarimiz gumbur bo‘lib ketdi, dadam magazinni qabul qilib olgandan keyin oyijonimni o‘ziga yordamchi qilib oldi.*

Ushbu misolda bola *aytganimday* sifatdoshi yordamida eslatish orqali oldingi vaziyatga ishora qilib, nutq segmentlarini bir-biri bilan bog‘lagan. Shu tariqa uning nutqida diskurs deyksisi yuzaga kelgan.

Bolalar nutqida yordamchi so‘zlar ham ishora birligi sifatida xizmat qiladi. Bunda ayniqsa, *lekin* bog‘lovchisi faol qo‘llanib, nutqning oldingi segmentiga ishora qiladi va diskurs deyksisini yuzaga chiqaradi. Masalan:

Rostini aytsam, shu paytda mening ham ana shu bolalar bilan egatlarga yonma-yon tushib olib, musobaqalashib, ketmon chopgim kelib ketdi. ***Lekin*** *o‘zimni bosib, jiddiy bir ohangda: – Bu, sizlarga agronom kerak emasmi? Deb so‘radim.* (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

Ko‘rinadiki, nutqiy muloqotning rivojlanish bosqichida bola kattalar kabi murakkab turdagi deyktik elementlarni ham istifoda eta boshlaydi. Biroq uning nutqida deyksis turlarining qo‘llanilishiga ko‘ra faollik darajasi, ifodalanish usuli ko‘p jihatdan yosh omili va shunga muvofiq tarzda bilish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi tabiiy holdir. Muloqotning shakllanish bosqichlarida yuzaga chiqadigan shaxs, zamon, makon, predmet, miqdor deyksislari real nutqqa tayanadi va birlamchi usulda ifodalanadi. Nutqning rivojlanish bosqichlarida hosil qilinadigan belgi, ijtimoiy, harakat-holat, emotsional, propozitiv,

diskurs deyksislari jonli muloqotga emas, balki muayyan kontekstga asoslanadi va ikkilamchi usulda shakllantiriladi. Deyksisni ikkilamchi usulda ifodalash bola uchun birmuncha murakkab jarayon hisoblansa-da, uning o‘yin faoliyatini tashkil etishida muhim o‘rin tutadi. N.Musayeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishida qayd etilganidek, nutqning rivojlanish bosqichida bola tomonidan sahnalashtirilgan kvazidialoglarda ikkilamchi usuldagi deyksis ifodasi ko‘p kuzatiladi. Chunki bu shakldagi muloqot jarayonida bola kattalar va o‘zi bilan kechgan voqeliklarni qayta tiklaydi. Bunda muloqot ishtirokchilari ham, nutq ifoda etilayotgan zamon va makon ham real bo‘lmaydi, bola tasavvuri asosida qayta bunyod etiladi [7, 95]. Bizningcha, bu turdagi deyksisni rekonstruktiv deyksis yoki tasavvuriy kontekstual deyksis sifatida ham talqin qilish mumkin. Bunda til birligi yordamida lisoniy xotira va tafakkur jarayonida qayta yaratilgan kontekstga ishora qilinadi.

Xullas, deyksis hodisasi bolalar nutqining shakllanishida markaziy psixolingvistik va pragmalingvistik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Deyktik birliklar yordamida bola atrof-muhitni idrok etadi, voqelikni til vositasida modellashtiradi va o‘zining “nutqiy men”ini shakllantiradi. Ontogenez jarayonida deyksis bolaning idrok, diqqat, xotira va tafakkur faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Avval shaxs va makonga ishora qiluvchi birliklar o‘zlashtiriladi, keyinchalik zamon, propozitiv va diskurs deyksislari shakllanadi. Bu jarayon til va tafakkurning o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlanishidan dalolat beradi. Bolaning egosentrik nutqdan ijtimoiy yo‘naltirilgan muloqotga o‘tishida shaxs deyksisi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shaxsga ishora qiluvchi olmoshlar orqali bola muloqotdagi rollarni farqlash, suhbatdosh pozitsiyasini anglashni o‘rganadi. O‘zbek bolalari nutqida ijtimoiy va emotsional deyksisning erta shakllanishi milliy-madaniy omillar, hurmat va odob-axloq me’yorlari bilan bevosita bog‘liqdir. Deyktik birliklar bolaning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida bola kommunikativ vaziyatni to‘g‘ri baholaydi, diqqatni yo‘naltiradi, suhbatdosh niyatini anglaydi va nutq strategiyasini ongli ravishda tanlay oladi. Deyksis shu tariqa muloqotda ma’no, kontekst va niyat uyg‘unligini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Deyktik birliklarning ontolingvistik va pragmalingvistik tahlili bola tafakkurining rivojlanish qonuniyatlari, kommunikativ strategiyalar va nutqiy kompetensiyaning shakllanishini tadqiq etish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Bolalar nutqini o‘rganishda belgi, ijtimoiy, emotsional, harakat-holat, propozitiv, diskurs kabi ikkilamchi deyksis ko‘rinishlarini alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilish, bu orqali bolaning ijtimoiy rolni anglash, emotsional holatlarni ifodalash va kommunikativ vaziyatni baholash qobiliyatini aniqlashga e’tibor qaratish lozim. Bunday yondashuv bola tafakkuri va pragmatik kompetensiyasining rivojlanish qonuniyatlarini aniq belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-5058351

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-sonli “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7776360.

4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-4327235

5. Diessel H. Demonstratives, frames of reference, and semantic universals of space. https://doi.org/10.1111/lnc3.12066.

6. Musayeva N. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. d-ri. – Qarshi, 2024. 130-b.

7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.300 б.

8.Tomasello M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. https://www.hup.harvard.edu/books/978067401764

Eldorbek XUSANOV,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD
eldarkhusanov@gmail.com



HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA ADABIY TILI VA UMUMXALQ TILI TUSHUNCHASI. DUNYO TILLARI

Annotatsiya:ushbu maqolada o‘zbek tilining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va adabiy tilning yuzaga kelish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy til va adabiy til o‘rtasidagi farqlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda til me’yorlarining shakllanishi masalalari yoritilgan. Maqolada o‘zbek tilining shevalari va lahjalari (qarluq, qipchoq, o‘g‘uz) hamda ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Bundan tashqari, adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari, ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Ishda, shuningdek, til tipologiyasi (genetik va morfologik tasnif) haqida ham umumiy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, adabiy til, milliy til, sheva, lahja, qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, til me’yorlari, til tipologiyasi, genetik tipologiya, morfologik tipologiya

Аннотация: в данной статье рассматриваются процессы формирования и развития узбекского языка, а также становление литературного языка. Особое внимание уделяется соотношению национального и литературного языка, а также вопросам нормирования языка. В работе подробно анализируются диалекты и говоры узбекского языка (карлукский, кипчакский, огузский), их фонетические, лексические и грамматические особенности. Кроме того, освещаются устная и письменная формы литературного языка, их роль в обществе. Также приводится краткий обзор лингвистической типологии (генетической и морфологической классификации языков).

Ключевые слова: узбекский язык, литературный язык, национальный язык, диалект, говор, карлукский диалект, кипчакский диалект, огузский диалект, языковые нормы, лингвистическая типология, генетическая типология, морфологическая типология

Annotation: this article examines the formation and historical development of the Uzbek language, as well as the emergence of the literary language. Special attention is given to the relationship between the national and literary language and the process of establishing linguistic norms. The study analyzes the dialects of the Uzbek language (Karluk, Kipchak, and Oghuz), highlighting their phonetic, lexical, and grammatical features. In addition, the paper discusses the oral and written forms of the literary language and their social functions. The article also provides an overview of linguistic typology, including genetic and morphological classifications of languages.

Key words: uzbek language, literary language, national language, dialect, Karluk dialect, Kipchak dialect, Oghuz dialect, language norms, linguistic typology, genetic typology, morphological typolog

O‘zbek tili qadimiy va boy tillardan biridir, uning shakllanishi o‘zbek millatining shakllanish jarayoni bilan bog‘liq. Hozirgi adabiy tilimiz o‘zbek xalqining milliy tili, davlat tili darajasiga yetguncha uzoq va katta tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab og‘zaki muloqotni ta’minlagan o‘zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo‘ldi. Yozma nutq esa til hodisalaridan foydalanishning ma’lum me’yorlarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirgan. Til hodisalaridan ma’lum me’yor asosida foydalanish esa o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga olib kelgan.

Qayerda yashashidan qat’iy nazar o‘zbek millatiga mansub barcha kishilar tomonidan ishlatiladigan til o‘zbek milliy tili yoki umumxalq tili deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargon, argo, vulgarizm va varvarizm kabi so‘zlar guruhini qamrab oladi. Shunga ko‘ra u adabiy tildan hajm va imkon jihatidan kengroq hisoblanadi.

Milliy tilning ma’lum qoida va me’yorlarga buysuntirilgan, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan oliy shakli adabiy til deyiladi. U tilning fonetik, leksik va grammatik qurilishida mavjud

qonuniyatlarni ma’lum me’yorga solib turadi. Bu me’yor shu tilda so‘zlovchi barcha kishilar uchun umumiy va zaruriy hisoblanadi. Me’yor adabiy til va adabiy nutqqa xos bo‘lgan va ijtimoiy til amaliyotida tanlab olingan barqaror xususiyatlardir.

Adabiy tilning quyidagi 3 ta sharti mavjud:

1. Ma’lum qonun qoida va me’yorlarga bo‘ysinishi kerak.

2. Adabiy til yozuv bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

3. Adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiy bo‘lishi kerak.

Aynan oxirgi xususiyatiga ko‘ra, ya’ni millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘lish zaruriyati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi o‘zbek adabiy tiliga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili muayyan qolipga solingan, o‘zbek xalqining madaniy ehtiyoji va talablarini qondirishga xizmat qiladigan milliy adabiy tildir. Fan va texnika, matbuot va adabiyot, davlat va idoralar, ta’lim va televideniye adabiy til asosida ish olib boradi. Adabiy til doim o‘zgarib va sayqallanib boradi. Adabiy til rivojlana borib, navbatdagi bosqichga davlat tili darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Bunda tilning vazifasi yanada kengayib, mavqei ortib boradi. Ba’zan jamiyatda davlat tili va adabiy til aynan bir tildan iborat bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday sharoitda tilning rivojlanishi sekinlashadi va u kundalik turmush tiliga aylanib qoladi. Sobiq ittifoq davrida o‘zbek adabiy tili ham ana shunday holatni o‘z boshidan kechirgan. Bu til siyosati masalasining noto‘g‘ri yuritish oqibatidir.

O‘zbek milliy tili ko‘p dialektli tillardan bo‘lib, qator shevalarni o‘z ichiga oladi, bu xol uning o‘ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o‘zbek millatining o‘tmishdagi xilma-xil etnik sostavi bilan izohlanadi. Ana shu davrda o‘zbek xalqining muayyan sharoiti bilan bog‘liq ravishda o‘zbek tilining dealekt va shevalari o‘zaro umumiylik kasb etib, yagona umumiy xalq tili bo‘lib birika borgan va uning ajralmas qismiga hamda quyi formasiga aylanib qolgan, lekin ayrim lahja va shevalar orasidagi farqlar hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Masalan, qipchoq shevalarida singarmonizm xususiyatining to‘liq saqlanib qolganligi, 9 ta unli fonemaning mavjudligi “F” tovushining deyarli qo‘llanmasligi, checha (yanga), bo‘la (xola), lochira ... kabi ko‘plab o‘ziga xos so‘z va terminlarning saqlanib qolganligi yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Ana shunday o‘ziga xos tafovutlarga qaramay o‘zbek tilining hamma dealekt va shevalari o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbek tili shevalari 3 ta katta lahjaga qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga birlashtiriladi.

Sheva – bir millatga mansub bo‘lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Bir etnik guruhga mansub shevalarning o‘zaro yaqin bo‘lgan guruhlari esa – lahja deb ataladi. Dialekt so‘zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.

Shevashunos olimlar **(V.V.Reshetov va Sh.Shoabduraxmonovlar**) lahjalarni quyidagicha tavsiflaydilar:

1. Qarluq lahjasi (Janubiy-Sharqiy guruh) bunga ko‘pchilik shahar shevalari kiradi: Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan. Bu dialektning muhim morfologik va fonetik belgilari:

1) so‘z oxirida “k” tovushi “y” tarzida aytiladi: kerak-keray, elak-elay.

2) “o” lashish yuz beradi: aka-oka, naxor-noxor.

3) “ning” qaratqich kelishigi o‘rnida doim ni tushum kelishigi qo‘llaniladi: ukamni (ng) kitobi.

2. Qipchoq lahjasi (Shimoliy-G‘arbiy guruh) – bunga Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm, Toshovuz (Turkmaniston) viloyati shevalari kiradi. Belgilari:

1) “y” o‘rnida “j” ishlatiladi: yo‘l-jo‘l, yo‘q-jo‘q;

2) “g‘” o‘rnida “v” ishlatiladi: tog‘-tov, sog‘-sov;

3) “k”, “q” tushumlari: quru(q), sovu(q);

4) eski o‘zbek tilidagi singormonizm qonuniyati saqlangan: olgan (adabiy tilda) – alg‘on (qipchoq lahjasi shevalari) kelgan-kelgun, 9 ta unli fonemaning mavjudligi.

3. O‘g‘uz lahjasi (Janubiy-G‘arbiy guruh) bunga Xorazm, O‘rganch, Xiva, Xozarasp, Qo‘shko‘pir, shovot, Qozog‘iston va Turkmanistonda yashovchi ba’zi o‘zbek-o‘g‘uz shevalari kiradi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho‘ziq aytiladi: at (hayvon), aad (ism).

2) “t” tovushi “d”, “k” esa “g” tarzida aytiladi: tog‘-dog‘, keldi-galdi.

3) ning qo‘shimchasi ing tarzida, ga esa a, na tarzida aytiladi: akamning-akaming, yorimga-yorima.

4) singarmonizm xodisasi saqlangan: uyimga (adabiy tilda), uyuma (o‘g‘uz lahjasida).

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg‘ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning (**V.V.Reshetov, SH.Abduraxmonov**) fikricha, Toshkent dialekti fonetik jihatdan, Farg‘ona dialekti morfologik jihatdan adabiy tipga asos bo‘lgan.

Lekin professor **X.Doniyorov, B.To‘ychiboev** kabi olimlar fikricha qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham adabiy tilning tarkib topishida faol qatnashgan. Chunki kelishiklarning adabiy tildagi kabi 6 talik tizimi qipchoq lahjasining “j” lovchi shevalarida saqlangan. Umuman olganda adabiy til barcha shevalarga tayanadi:

Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy til ta’sirida asta sekin zaiflashadi va yo‘qola boradi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ikki xil og‘zaki va yozma shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi.

1. Adabiy tilning og‘zaki shakli to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning tarixiy ildizlari xalq og‘zaki ijodi namunalari: doston, qo‘shiq, ertak, latifa, maqollar negizida rivojlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan. Ana shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me’yorlari shakllangan.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining yozma shakli, avvalo yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini ko‘rish va o‘qishga asoslanadi. Yozuv sistemasi, ma’lumki, grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi.

Adabiy tilning yozma formasi kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi bo‘lmay, balki boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan ham aloqa bog‘lash vositasidir. Lekin ma’lum ma’noda yozma nutq imkoniyatlari og‘zaki nutqqa nisbatan chegaralangan.

Hozirgi vaqtda yer yuzi aholisi 7000 dan ortiq tilda gaplashadi. Bu tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o‘rni, ularda gaplashuvchilarning soni turlichadir. 100-200 kishidan tashkil topgan qabilaning tili ham, yuz millionli xalq gapiradigan til ham alohida til hisoblanadi.

Miqdor jihatdan ko‘p bo‘lishiga qaramay, tillar, o‘zaro o‘xshashlik xususiyatlariga ham ega. Bu esa tilllarni turlarga ajratish bilan shug‘ullanuvchi mustaqil soha lingvistik tipologiyaning shakllanishiga sabab bo‘ldi. XIX asrdan boshlab ish yuritayotgan tipologiyada tillar asosan uch xil tasniflanadi: genetik tipologiya, morfologik tipologiya, struktual tipologiya.

Genetik tipologiya tillarni qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillarga ajratib o‘rganadi. Bir umumiy manbadan tarqalgan tillarni qarindosh tillar deb ataydi va ularni bir tillar oilasiga kiritadi.

Zamonaviy tilshunoslik ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Bulardan eng kattasi Hind-Yevropa tillari oilasidir. U o‘z navbatida bir necha (ba’zi tasnifda 6 ta, ba’zisida 8 ta) guruhga bulinadi. Va har bir guruh o‘zaro yaqin bo‘lgan yana bir necha tilni birlashtiradi.

Oltoy tillar oilasiga kiruvchi turkiy tillar guruhi 24 ta tilni o‘z ichiga oladi. Bu oilada 5 ta turkiy, mo‘g‘ul, manjur, yapon, koreys kabi til guruhlari mavjud.

Morfologik tipologiya tillarni qarindoshlik munosabatidan qat’iy nazar, grammatik tuzilishi asosida turlarga ajratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 1980.
2. Tursunov U., Muxtorov J., SH.Rahmatullayev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1992.
3. Jamolxonov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2005.
4. Baskakov N., Sodiqov A., Abduazizov S. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 1979.
5. Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. – T., 1992.
6. Ne’matov H. Tarixiy fonetika. –T., 1992.
7. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –T., 1996.
8.Reshetov V., SHoabdurahmonov SH. O‘zbek shevashunosligi. –T., 1975.

Umidjon YIGITALIYEV,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti



TILSHUNOSLIKDA LINGVO-GNOSEOLOGIK TAHLIL MUAMMOSI
(konsept va tashkil etuvchi tushunchalari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada til birliklari misolida lingvo-gnoseologik tahlil masalasi tadqiq etilgan. Bunda konsept va tashkil etuvchi tushunchalariga oydinlik kiritilgan.
Kalit so‘zlar: *til, lingvistika, gnoseologiya, konsept, tashkil etuvchi.*
Аннотация: в данное данной статье рассматриваетя вопрос лингво-гносеологического анализа на примере языковых единиц. Разъясняются понятия концепт и составлящих.
Ключевые слова: *язык, лингвистика, гносеология, концепт, составляющая.*
Annotation: this article examines the issue of linguistic and epistemological analysis using linguistic units as an example. The concepts of concept and constituents are explained.
Key words: *language, linguistics, epistemology, concept, component*

Tafakkur, jumladan, til (lison) tashqi borliqni ifodalaydi. Shunday ekan, til bilan borliq (olam) uzviy aloqadadir. Til va olam munosabati falsafadagi markaziy muammolardan biridir, shuning uchun ham bu masalaga bag‘ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi[1:129]. Faylasuflar bu masala yuzasidan turlicha fikrlarni bayon qiladilar. Shu sababli faylasuflarning til va olam aloqasiga bo‘lgan munosabatiga yondashuv bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlar vujudga keldi. ularning bir guruhi til va olam aloqasiga bo‘lgan munosabatiga yondashuv masalasida ular uzviy aloqador, til bevosita obyektiv olamni ifodalaydi, degan tezisni bayon qilsalar, boshqa faylasuflar tilning borliq bilan bo‘lgan munosabatini rad etadilar[1:132].

Tilning olam bilan bo‘lgan munosabatini e’tirof etuvchilarning o‘zi ham til borliqni bevosita ifodalaydimi yoki bilvosita ifoda etadimi, degan masalaga turlicha javob beradilar. Bir guruh faylasuflar obyektiv olamni ifodalashda subyektning rolini tan oladilar, obyektiv olam ong (tafakkur) orqali tilda o‘z ifodasini topishini bayon qiladilar. Boshqa yo‘nalishdagi faylasuf – tilshunoslar esa, til obyektiv olamni bevosita ifodalashini e’tirof etadilar. Ular jodugar, suv parisi, dev singari afsonaviy tushunchalar borliqda yo‘qligini, ammo uning tilda ifodalanishini, borliq elementlari (*tashkil etuvchilari* – ta’kid bizniki U.Y.) bilan til unsurlari o‘rtasida nomuvofiqlik mavjudligini asos qiladilar.[6:27]

Til bilan olam o‘rtasidagi munosabat haqida gap ketganda, mutaxassislarning bu munosabatini yoritishdagi ikki xil yo‘nalishda bo‘lgan yondashuvlarini ko‘rsatib o‘tish lozim: til shakllaridan borliqqa va aksincha, borliqdan til shakllariga. Jumladan, yosh grammatikachilar, asosan, “shakldan ma’noga” tamoyiliga asoslanadilar. G.Paulning “Til tarixi tamoyillari” asarida yosh grammatikachilarning bu tamoyili erkin bayon qilinadi.[6:28]

Tilshunoslik tarixida katta yutuqlarga erishgan A.Potebnya, A.Shaxmatov, L.Shcherba, V.Vinogradov singari olimlar borliq – til munosabatini yoritishda ikki tomonlama yondashuvga – *mazmundan shaklga* – *shakldan mazmunga* tamoyiliga amal qilganlar. Bugungi kunda falsafiy adabiyotlarda til va borliq munosabatiga bag‘ishlangan asarlarda borliqni tilda ong orqali o‘z ifodasini topishi e’tirof etiladi. Shuning uchun ham nomlash jarayoni borliq elementlarining ongda aks etishi va bu aks etgan, umumlashgan obrazni tilda o‘z ifodasini topishi bosqichlarini o‘z ichiga oladi [2:34].

Bizni qurshab turgan borliq inson ongida turli shakllarda aks etadi (tushuncha va hukm) va u til orqali o‘z ifodasini topadi [2: 35]. Sistem-struktur tilshunoslikda borliq haqida muayyan axborot tashuvchi vositalar *belgi* sanaladi [6:39]. Til belgilar sistemasi hisoblanadi, uning belgilar sistemasidan iboratligi juda oz birliklar vositasida cheksiz axborot berish imkoniyatiga yo‘l ochadi. Zero, moddiy borliqdagi nimaiki narsa olib tekshirilsa (*tashkil etuvchilarga* ajratilsa – U.Y.) hammasi moddiy olamning turli shakldagi ko‘rinishi, bo‘lagi hisoblanadi, ularni tahlil qilsak tarkibida, albatta, tashkil etuvchilari bo‘ladi.

Bu masalani mazmun va shakl dialektikasi aspektida tahlil qilganimizda narsani – *butunni* tashkil qilgan elementlarning, bir tomondan, o‘zaro bog‘liqligini, ularning o‘zaro ta’siri va shu ta’sir tufayli narsalardagi o‘zgarishlarni, ikkinchi tomondan, narsaning tuzilishini tashkil qilgan, nisbatan to‘g‘ri bog‘lanishlar sistemasini nazarda tutgan edik. Ammo moddiy narsaning murakkablik-butunlik mohiyatini mufassal tekshiradigan bo‘lsak, bu murakkablikning alohida tomonlari va tuzilishi o‘rtasidagi munosabatlarni ochish zaruriyati vujudga keladi. Bunday munosabatlardan, masalan, narsani tashkil etuvchi elementlar bilan ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarning turg‘un

sistemasini olish mumkin. Bu munosabatlar dialektikasi “element” va “struktura” kabi falsafiy kategoriyalarida o‘z aksini topadi [2:125].

Ma’lumki, *element* – bu o‘zaro aloqada bo‘ladigan, bir butun sistemani tashkil etuvchi narsa va hodisalarning tarkibiy qismi. *struktura* esa, butunni (narsani) tashkil qiladigan elementlarning bog‘lanish usuli, qonuni, butun guruhidagi munosabatlar sistemasidir.[3:41]

Biz yuqorida borliqda struktural munosabatlarning tashkil etuvchisi muammosini konsept tushunchasi bilan bog‘ladik.

Konsept, xususan, lisoniy konsept boshqa lisoniy birlik (lb)lar singari shu tilda so‘zlashuvchilar uchun *ajralish*, *alohidalik* xususiyatiga ega. Chunonchi, “*hurmat”* lisoniy konsepti (qisq.- LK) ini olib ko‘raylik. “*Hurmat”* ma’nosi o‘zining semantik strukturasida bo‘lgan alohida shaxsga nisbatan qo‘llanilgan. *Siz* olmoshida hurmat ma’nosini voqelanishi uchun u *maxsus ohang* bilan aytilishi va maxsus qurshovda qo‘llanishi zarur. “*Hurmat”* oxangi (fonetik-fonologik sath) va *hurmat* qurshovi (sintaktik sath) dan boshqa ohang va qurshovidan *siz* olmoshi *kesatish, tahqirlash, kamsitish*, hatto *xo‘rlash* ma’nolariga ega bo‘lishi mumkin. Demak, “*hurmat”* ma’nosi semantik strukturasida ifodalangan leksemaning qo‘llanishida ham “*hurmat”* ma’nosi bilan mustahkamlanishi, ta’kidlanishi zarur va so‘zlovchilar ham fonetik-fonologik, ham leksik-semantik sathlarda voqelangan “*hurmat”* konseptini *hurmatsizlik*, *kesatish*, *ko‘plik* va h.k. konseptlardan farqlaydilar. Xuddi shunga o‘xshash, ota-*otajon*, dada-*dadajon*, dadam-*dadajonginam*, ota-q*iblagoh*, kelmoq-*tashrif buyurmoq* kabi leksemalar va so‘z shakllarida so‘zlovchilar *hurmat* ma’nosi borligini bemalol farqlaydilar. Shuningdek, direktor buyurdi va direktor buyurdilar kabi sintaktik qurilmalarida ham “*hurmat”* ma’nosi ifodalangan yoki ifodalanmaganligi bilan farqlanishi ravshan ko‘rinib turibdi.

Demak, *lisoniy konsept* tilning barcha sathlarida voqelanganda til jamiyati a’zolari tomonidan bemalol ajratiladi. bundan xulosa qilish mumkinki, *lisoniy konsept* sistemaviy tilshunoslikda ajratiladigan tilning qurilish birliklari – fonema, morfema, leksema va qolip (model, qurilma) lar singari *tayyorlik* va shu jamiyat a’zolari uchun *umumiylik* belgisiga ega [6:31;7:16]. *Lisoniy konsept takrorlanuvchanlik* xususiyatiga ham ega. buni “*hurmat”* ma’nosining yuqorida ko‘rib o‘tgan fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlarning qator birliklarida takrorlanishida ko‘rish mumkin [6:31;8:100].

Lisoniy konsept ning til struktur – qurilish birliklaridan va hatto bu struktur birliklarning komponent tahlili asosida ajratiladigan *differensial belgi, sema, grammema, oppozitsion belgi, konsept* va hokazolardan tub farqi shundaki, mazkur qurilish birliklari va ularning tarkibiy qismlari tilning alohida sathlari birliklariga xos bo‘lsa, lisoniy konsept (LK) esa *tilning barcha sathlari semantik-funksional tomoniga* xosdir. Mana shu birgina xususiyati bilan lisoniy *konsept* boshqa lisoniy birliklardan keskin farq qilib turadi. Bu farqni kimyodagi molekula va atom orasidagi tafovut bilan qiyoslash mumkin. Shuning uchun ma’lum darajadagi ishonch va jur’at bilan taxmin qilib ayta olamizki, LK tilning semantik-funksional tomoni uchun moddiy borliqda demokrit kimyoviy atomidek *real* va *haqiqiy* hodisadir. Bir LK atrofida birlashuvchi tilning turli xil sath birliklari va vositalarini shartli ravishda *lisoniy konseptual guruh* atamasi bilan nomlashga jur’at etdik. Bu atama tilimizda bo‘lgan shu hodisani fanimizda xususiy ma’nolarga ega bo‘lgan *to‘plam*, *guruh* va *qurshov*dan ajratib turishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Darhaqiqat, bu yerda – kichik ilmiy axborotda ilgari surilgan fikrlar ma’lum darajada faraz va hali ko‘p marta sinovdan o‘tmog‘i, amaliyot bilan tasdiqlanishi, tilning, tilshunoslik fani uchun tabiatdagi moddiy borliqning hodisalari bilan mustahkamlanishi lozim.

LK tushunchasi ham *til tabiati bilan tasdiqlangach*, “valentlik” singari lisoniy haqiqatga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аверянов А.М. Методологические проблемы типологии диалектических противоречий // Вопросы философии, 1981, № 2, с. 56-57.;

2. Есперсен О. Философия грамматики.-М.: Изд-во Иностранной литературы , 1958. 404 с.

3. Панфилов В.З. Взаимоотношение языка и мышления, М.:Наука, 1971.

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2007. 256-b.

5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 92-b.

6. Yigitaliyev U. O’zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi. (Monografiya). – Toshkent: LESSON-PRESS, 2023. 130-b.

7. Yigitaliyev U. “Odam” konsepti bilan assotsiativ bog‘langan morfologik hodisalar // // – Toshkent, 2020. Jurnal: Til va adabiyot ta’limi, 8-son. 15-17-b.

8. Yigitaliyev U. Gapning kommunikativ qurilish jarayonida “shaxs” tushunchasining deyktik ifodalanishi // – Toshkent, 2020. Jurnal: O’zbek tili va adabiyoti, 5-son. 99-103-b.

Akmal ZIYODULLAYEV,
Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Shaxzoda SAMADOVA,
Buxoro Davlat universiteti, ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi 1- kurs magistranti



ILMIY VA TEXNIK TERMINOLOGIYADA EPONIMLARNING TUZILISHI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QIYOSIY DIAXRON TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilish usullari qiyosiy-diaxron aspektda tahlil qilinadi. 50 dan ortiq manbalar asosida aniqlanishicha, ingliz tilida eponimlar asosan egalik (‘s) va -ian/-an qo‘shimchalari orqali, o‘zbek tilida esa izohli birikmalar va -iy qo‘shimchasi orqali yasaladi. Diaxron jihatdan ingliz tilida brend eponimlari kuchaygan, o‘zbek tilida mustaqillikdan keyin milliy eponimlar faollashgan.

Kalit so‘zlar: *eponimlar, ilmiy-texnik terminologiya, tuzilish usullari, ingliz tili, o‘zbek tili, diaxron tahlil.*

Annotation: this article analyzes the structural patterns of scientific and technical eponyms in English and Uzbek from a comparative-diachronic perspective. Based on over 50 sources, findings show that English primarily forms eponyms via the possessive (‘s) and adjective-forming suffixes (-ian/-an), while Uzbek uses explanatory compounds and the suffix -iy. Diachronically, English shows a growing trend of brand-based eponyms, whereas Uzbek has seen a revival of national eponyms after independence.

Key words: *eponyms, scientific and technical terminology, structural patterns, English, Uzbek, diachronic analysis.*

Аннотация: в данной статье анализируются структурные модели научно-технических эпонимов в английском и узбекском языках в сравнительно-диахроническом аспекте. На основе более 50 источников установлено, что в английском языке эпонимы образуются преимущественно через притяжательный суффикс (‹s) и суффиксы *-ian/-an, а в узбекском — через пояснительные словосочетания и суффикс -ий. В диахронии в английском языке усилилась тенденция брендовых эпонимов, тогда как в узбекском после обретения независимости активизировались национальные эпонимы.*

Ключевые слова: *эпонимы, научно-техническая терминология, структурные модели, английский язык, узбекский язык, диахронический анализ.*

1. Kirish. Ilmiy-texnik terminologiya tilning eng dinamik qatlamlaridan biri bo‘lib, yangi kashfiyotlar va texnologiyalar bilan bog‘liq nomlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan eponimlar — kashfiyot, qonun yoki asbobni muallif nomi bilan atash — muhim terminologik hodisa hisoblanadi. Masalan, Ohm (Om), Watt (Vatt), Volt (Volta), Newton (Nyuton), Boolean (Bul), Turing (Tyuring) kabi atamalar xalqaro terminologik fondni tashkil qiladi.

Beretta (2019)[1] ta’kidlaganidek, eponimlar G‘arb ilm-fanida eng ta’sirchan mukofot mexanizmlaridan biriga aylangan va ularning kelib chiqishi antik davrga borib taqaladi. O‘zbek tilshunosligida eponimlarni o‘rganish nisbatan kech boshlangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bu sohaga qiziqish ortib bormoqda. Okhunov[2] (1974) o‘zbek antroponimikasining shakllanishida tarixiy shaxslar nomlarining tutgan o‘rnini birinchilardan bo‘lib tahlil qilgan. Enazarov[3] (1990) atoqli nomlarni tizimli o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratgan. Azimova[4] (2025) esa ingliz va o‘zbek tillaridagi eponimlarning shakllanishi, lingvistik xususiyatlari va semantik vazifalarini qiyosiy tahlil qilgan.

Tadqiqot muammosi: ingliz va o‘zbek tillarida ilmiy-texnik eponimlarning tuzilish usullari qanday farqlanadi? Bu farqlar til tipologiyasi va tarixiy rivojlanish bilan qanday bog‘liq?

Tadqiqot maqsadi: ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilish usullarini qiyosiy-diaxron

1 Beretta, M. (2019). Names as Rewards: The Ambiguous Role of Eponyms in the History of Science. Nuncius-Journal of the History of Science, 34(2), 219–235.

2 Okhunov, N. O‘zbek antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 1974.
3 Enazarov, T. O‘zbek onomastikasi. –Toshkent: Fan, 1990.
4 Azimova, N. M. (2025). Ingliz va o‘zbek tillarida eponimlarning qiyosiy tipologiyasi (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Samarqand davlat universiteti.

tahlil qilish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy terminologik jarayonlardagi o‘rnini belgilash.Tadqiqot vazifalari:

Ingliz tilidagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilish turlarini aniqlash va tasniflash;

O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilish usullarini o‘rganish;

Ikkala tildagi eponimlarning diaxron rivojlanish bosqichlarini qiyoslash;

Eponimlarning semantik (meliorativ va peyorativ) turlarini tahlil qilish;

Zamonaviy terminologik jarayonlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Adabiyotlar tahlili.Eponimlarga oid ilmiy tadqiqotlar asosan uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchisi — aniq va tabiiy fanlardagi eponimlarning tarixiy rivoji (Beretta, 2019). Ikkinchisi — terminologiya va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish (Colantonio, 2023; Burdan va boshq., 2016). Uchinchisi — bibliometrik va statistik tahlil (Valderrama-Zurian va boshq., 2019), natijada Hirsch, Lotka, Bradford kabi eponimlar eng ko‘p qo‘llanilishi aniqlangan.

O‘zbek tilshunosligida eponimlarga oid maxsus tadqiqotlar kam. So‘nggi yillarda G‘ulomova (2024), Sayidiraximova (2023), Rajabov (2025) va Xakimbayeva (2025) tomonidan ayrim jihatlari o‘rganilgan. Biroq ilmiy-texnik terminologiyada eponimlarning tuzilishi masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

3. Materiallar va tadqiqot metodologiyasi

3.1. Tadqiqot materiali

Tadqiqotda fizika, kimyo, matematika, kompyuter fanlari va texnikaga oid 50 dan ortiq ingliz va o‘zbek terminologik lug‘atlari, Web of Science bazasidan olingan 30 ta ilmiy maqola (2000–2025), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va oliy o‘quv yurtlari jurnallaridagi terminologiyaga oid maqolalar, nufuzli xorijiy lug‘atlar (Merriam-Webster, Oxford Dictionary of Physics, Cambridge Dictionary of Mathematics) hamda o‘zbek tilidagi “Fizika atamalarining izohli lug‘ati” kabi manbalardan foydalanilgan.

3.2. Tadqiqot usullari

Kontent-tahlil (eponimlarning qo‘llanish chastotasi va semantik o‘zgarishlarini aniqlash), qiyosiy-tipologik tahlil (ingliz va o‘zbek tillaridagi eponimlarning tuzilishi va shakllanishini solishtirish), diaxron tahlil (eponimlarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish) hamda morfologik tahlil (so‘z yasalish usullarini aniqlash) usullari qo‘llanilgan.

3.3. Tanlov mezonlari

Eponimlar quyidagi mezonlar asosida tanlab olingan: atama fizika, kimyo, matematika, kompyuter fanlari yoki texnika sohasiga oid bo‘lishi; bir yoki bir necha shaxs nomidan yasalganligi; ilmiy adabiyotlarda termin sifatida qo‘llanilishi; ingliz yoki o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarda qayd etilganligi.

4. Tadqiqot natijalari

4.1. Ingliz tilidagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilishi

Ingliz tilidagi ilmiy-texnik eponimlarni tuzilish usullariga ko‘ra besh asosiy turga ajratish mumkin:

4.1.1. Oddiy (sodda) eponimlar

Bunda olim yoki ixtirochining nomi hech qanday o‘zgarishsiz, qo‘shimchasiz atama sifatida qo‘llaniladi. Bu tur asosan o‘lchov birliklari nomlarida keng tarqalgan:

Eponim	Olim nomi	Soha
Ohm	Georg Simon Ohm	elektr qarshiligi birligi
Volt	Alessandro Volta	elektr potensiali birligi
Watt	James Watt	quvvat birligi
Hertz	Heinrich Hertz	chastota birligi
Newton	Isaac Newton	kuch birligi
Joule	James Prescott Joule	energiya birligi
Pascal	Blaise Pascal	bosim birligi
Farad	Michael Faraday	elektr sig‘imi birligi

Bu turdagi eponimlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular xalqaro birliklar tizimi (SI) tarkibiga kirgan va butun dunyo olimlari uchun universaldir.

4.1.2. Egalik qo‘shimchasi bilan tuzilgan eponimlar (‘s)

Ingliz tilida eng mahsuldor usul — shaxs nomiga ‘s egalik qo‘shimchasini qo‘shish orqali atama yasashdir. Bu tur asosan qonunlar, teoremalar, usullar va effektlar nomlarida keng qo‘llaniladi:

Eponim	Izoh
Ohm’s law	Om qonuni
Newton’s laws of motion	Nyuton harakat qonunlari
Hooke’s law	Guk qonuni
Faraday’s law of induction	Faradey induksiya qonuni
Moore’s law	Mur qonuni
Euler’s formula	Eyler formulasi
Pythagoras’ theorem	Pifagor teoremasi
Fourier transform (transformatsiya)	Furye o‘zgartirishi

Ba’zi hollarda apostrof tushirib qoldirilishi mumkin (Ohms law), ammo standart ilmiy uslubda saqlanadi.

4.1.3. Sifatdosh shaklidagi eponimlar (-ian, -an, -ic, -ish)

Ushbu turda shaxs nomiga sifat yasovchi qo‘shimchalar qo‘shiladi:

Qo‘shimcha	Misol	Izoh
-ian	Boolean (George Boole)	mantiqiy algebra
-ian	Cartesian (René Descartes)	Dekart koordinatalari
-ian	Newtonian	Nyuton fizikasi
-ian	Euclidean (Euclid)	Evklid geometriyasi
-ian	Lagrangian (Joseph Lagrange)	Lagranj mexanikasi
-an	Gaussian (Carl Gauss)	Gauss taqsimoti
-ic	Gigantic (Giant — metaforik)	metaforik eponim
-ish	Cartish (Descartes)	kam qo‘llaniladi

Boolean eng mashhur misol bo‘lib, kompyuter fanlari va matematik mantiqda asosiy termin hisoblanadi.

4.2. O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik eponimlarning tuzilishi

O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik eponimlar tuzilish jihatidan ingliz tilidan sezilarli farq qiladi. Asosiy tuzilish usullari quyidagilardan iborat:

4.2.1. Izohli birikma usuli (eng mahsuldor)

O‘zbek tilida eponimlarning aksariyati “shaxs nomi + termin” yoki “termin + shaxs nomi” shaklidagi izohli birikmalar orqali tuziladi:

Eponim	Tuzilishi	Soha
Om qonuni	Om + qonun	fizika
Nyuton qonunlari	Nyuton + qonunlar	fizika
Pifagor teoremasi	Pifagor + teorema	matematika
Eyler formulasi	Eyler + formula	matematika
Furye qatori	Furye + qator	matematika
Mendeleyev jadvali	Mendeleyev + jadval	kimyo
Joule effekti	Joule + effekt	fizika
Faradey qonuni	Faradey + qonun	fizika
Bernulli tenglamasi	Bernulli + tenglama	gidrodinamika
Karnot sikli	Karnot + sikl	termodinamika

Bu usul o‘zbek tilining analitik va agglyutinativ tabiatiga to‘liq mos keladi. Ingliz tilidagi Newton’s laws o‘zbek tilida Nyuton qonunlari shaklida ifodalanadi.

4.2.2. -iy qo‘shimchasi bilan tuzilgan eponimlar

Ilmiy va rasmiy uslubda shaxs nomiga -iy qo‘shimchasini qo‘shish orqali sifatdosh shaklidagi eponimlar yasaladi:

Eponim	Asos	Izoh
Nyutoniy mexanika	Nyuton + -iy	Newtonian mechanics
Galiley inersiyasi	Galiley + -iy (inersiya bilan)	fizika atamasi
Eynshteyniy nisbiylik	Eynshteyn + -iy	Einstein's relativity
Mendeleyeviy davr	Mendeleyev + -iy	kimyoviy davrlar
Beruniy astronomiyasi	Beruniy + -iy	astronomiya

Bu qo'shimcha asosan arab va fors tillaridan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida ilmiy terminologiyada faol qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi ilmiy-texnik eponimlarning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinganda, sovet davrida rus olimlari nomlari ustunlik qilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin milliy allomalar va qahramonlar nomiga asoslangan atamalar faollashgan. Zamonaviy davrda IT sohasiga oid yangi eponimlar paydo bo'layotgani, shu bilan birga xalqaro eponimlarning izohli birikmalar shaklida saqlanib qolayotgani kuzatilmoqda. Ammo bu atamalarning ayrimlari asosan so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, ilmiy terminologiya uchun xos emas.

5. Muhokama.

5.1. Tuzilish farqlarining sabablari

Ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlar tuzilishidagi farqlarning asosiy sabablari: tipologik (ingliz tili analitik, 's qo'shimchasi bilan ifodalaydi; o'zbek tili esa agglyutinativ bo'lsa-da, izohli birikmani afzal ko'radi — G'ulomova, 2024), tarixiy (sovet davrida rus olimlari nomi ustunlik qilgan, mustaqillikdan keyin milliy eponimlar faollashgan) va madaniy omillar (o'zbek tilida aniq tushunchani ta'minlash, ingliz tilida tezkor kommunikatsiyaga moslashish).

5.2. Diaxron tendensiyalar

Ingliz tilida kompaniya va brend nomlarining eponimga aylanishi kuchaygan (Google, Uber, Tesla, SpaceX). O'zbek tilida esa milliy allomalar nomlarining qayta tiklanishi — "onomastik renessans" (Sayidiraximova, 2023) kuzatilmoqda: Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek kabi nomlar faol qo'llanilmoqda.

5.3. Meliorativ va peyorativ eponimlar

Eponimlarning semantik bahosi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, "Sovxoz" sovet davrida neytral/ijobiy bo'lsa, hozir peyorativ tus olgan. Peyorativ eponimlarga uch yondashuv mavjud: saqlash, o'zgartirish (deskriptiv termin bilan almashtirish) yoki izoh bilan qo'llash. O'zbek terminologiyasida bu masala yetarlicha o'rganilmagan.

5.4. Amaliy tavsiyalar

Xalqaro eponimlarni qabul qilishda izchillik (Om, Nyuton), milliy eponimlarni rasmiy lug'atlarga kiritish (Beruniy algoritmi, Xorazmiy matematikasi), peyorativ eponimlarni izoh bilan qo'llash yoki deskriptiv terminlar bilan almashtirish, terminologik lug'atlarni yangi eponimlar bilan boyitish va tasniflash.

6.Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-texnik eponimlar tuzilish jihatidan farqlanadi: ingliz tilida egalik qo'shimchasi ('s) va -ian/-an/-ic, o'zbek tilida izohli birikmalar va -iy qo'shimchasi ustunlik qiladi.

Diaxron tahlil ingliz tilida XVII asrdan boshlab eponimlar soni o'sib, so'nggi yillarda kompaniya va brend eponimlari faollashganini ko'rsatdi. O'zbek tilida sovet davrida rus olimlari nomlari ustunlik qilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin milliy allomalar nomlariga asoslangan eponimlar qayta tiklangan.

Xakimbayeva (2025) ta'kidlaganidek, eponimlarni kompleks tadqiq etish va korpus lingvistikasi metodlarini qo'llash dolzarb vazifa. Kelgusida qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni rus, turk, qozoq, tojik tillarini qamrab olgan holda kengaytirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Azimova, N. M.Ingliz va o'zbek tillarida eponimlarning qiyosiy tipologiyasi. – Samarqand davlat universiteti.2025.

2.Beretta, M. (2019). Names as Rewards. Nuncius, 34(2), 219–235.

3.Burdan, F. va boshq. (2016). Anatomical eponyms. Folia Morphologica, 75(4), 413–438.

4.Colantonio, C. (2023). Medical eponyms: a challenge for translators? LFE-Revista, 29, 125–137.

5.Enazarov, T.O'zbek onomastikasi. –Toshkent: Fan, 1990.

6.G'ulomova, Sh.O'zbek tilidagi tibbiy eponimlarning lingvistik tahlili. O'zbek tili va adabiyoti.2024. 3, 54–61.

7.Okhunov, N. O'zbek antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 1974.

8.Rajabov, DTarixiy onomastika.—Qo'qon:Qo'qon universiteti.2025.

9.Sayidiraximova, N. (2023). O'zbek tilidagi atoqli nomlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filologiya masalalari, 2(102), 89–95.

10.Valderrama-Zurian, J. C. va boshq. (2019). Eponyms in bibliometric literature. Journal of Informetrics, 13(1), 434–448.

11.Xakimbayeva, S.O'zbek onomastik tadqiqotlarining istiqbollari. O'zMU xabarlari. 2025. 1(2), 45–50.

12.Xolboyev, M.O'zbek tili leksikasidagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi va tasnifi. Buxoro davlat universiteti.2025.

Xolisxon AKBAROVA,
Qo‘qon davlat universiteti Fakultetlararo tillar kafedrasi o‘qituvchisi, (PhD)
E-mail: xolisxonakbarova799@gmail.com.

BADIIY MATNDA ILMIY TERMINLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asarda qo‘llaniladigan matematik terminlarning badiiy-estetik vazifalari haqida misollar orqali tushuntirib berilgan. Ilmiy nutqda anglatadigan ma’nosidan tashqari badiiy asarda anglatadigan ma’nosining ekspressiv ta’sir kuchi izohlangan.

Kalit so‘zlar: *ilmiy terminlar, kasr, surat, maxraj, matematik ifodalarning badiiy-estetik vazifalari.*

Аннотация: в данной статье на примерах объясняются художественно-эстетические функции математических терминов, используемых в художественном произведении. Помимо своего научного значения, раскрывается их выразительная сила и экспрессивное воздействие в художественном тексте.

Ключевые слова: *научные термины, дробь, числитель, знаменатель, художественно-эстетические функции математических выражений.*

Annotation: this article explains, through examples, the artistic and aesthetic functions of mathematical terms used in literary works. In addition to their scientific meaning, their expressive power and impact in a literary context are also interpreted.

Key words: *scientific terms, fraction, numerator, denominator, artistic and aesthetic functions of mathematical expressions.*

Ilmiy matnda maxsus tushunchalarni nomlashda qo‘llanuvchi, matnning semantik-sintaktik qurilishida tayanch birliklar vazifasini o‘tovchi lug‘aviy birliklar, ya’ni terminlar bo‘lib, qaysi fan tarmog‘iga tegishli ekanligiga ko‘ra shu fan sohasining terminlar tizimini tashkil qiladi. Jumladan, terminlarni qanday fan sohasiga taalluqli ekanligiga ko‘ra aniq va tabiiy fanlar terminlari farqlanadi. Bu sohaviy terminlar boshqa nutq uslublarida, xususan, badiiy matnlarda qo‘llashda muayyan poetik maqsad nazarda tutiladi. Bunda badiiy uslubning terminlarni qabul qilish xususiyati muhim ahamiyatga ega. Badiiy uslubning bu kabi o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritar ekan, N.Mahmudov quyidagilarni qayd etadi: “…badiiy uslub alohida va o‘ziga xos uslub hisoblansa-da, uning o‘ziga xosligi tildagi boshqa vazifaviy uslublarning ham unda bemalol harakatda bo‘laverishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham mutaxassislar badiiy nutqning ko‘p uslubligini alohida ta’kidlaydilar, ilmiy va badiiy uslublarning o‘zaro hamkorligi, bir-biriga o‘tishi holatlarini tahlil qiladilar[1]”.

Badiiy uslubning mana shu imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy matnda aniq va tabiiy fan sohalariga oid terminlar, asosan, lingvopoetik maqsadlarda ishlatiladi. Ijodkor bu turdagi terminlardan ko‘chma ma’nolarni hosil qilishda yoki narsa-predmetlarni bir-biriga o‘xshatish, orqali badiiy tasvirni hosil qilishda foydalanar ekan, ushbu terminlarga lingvopoetik vazifa yuklaydi. Ba’zan bu turdagi terminlar yordamida muallif o‘zi yoki qahramonining voqelikka nisbatan ijobiy munosabatini ifodalaydi, ayrim terminlar yordamida piching, kinoya va boshqa shu kabi salbiy munosabat va bahosini oshkor qiladi. Bunday holat mazkur tipdagi terminlar badiiy-estetik yuk oladi.

Shunisi e’tiborliki, ijodkor o‘z she’rlariga har qanday terminologik birlik yoki kasbiy atamani olib kirgan emas, balki muayyan badiiy maqsadga yo‘naltirilgan terminlarni tanlab olib, ulardan lingvopoetik maqsadda foydalangan. Bu holat uning “ ½ ¼ ” deb nomlangan she’rida ham kuzatiladi. She’rda matematik terminlar yordamida o‘ziga xos badiiy-estetik tasvirlar hosil qilingan:

Lev Tolstoy bilan yurgan emishman.
Ko‘ksi to‘la kumush soqol, qo‘lda kumush uzuk.
Emishki, o‘zi ham yaxlit kumushdan.
Tush ekan-da, qarang, adabiyot qolib,
U menga hisobni o‘rgatar emish.
***Kasr** nima? – dermish menga qovoq solib,*
Har savoli do‘lday terlatar emish.
Axir anglatganmish menga kasrni u:
***Kasr** – odam emish shu turgan ko‘yi.*
***Surat** – uning asl salmog‘i- yu,*

1 Маҳмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва такомили // Ўзбек тили ва адабиёти. – №2. – Тошкент, 2020. – Б.5.

***Mahraj** – o‘z haqida o‘ylagan o‘yi!*
Ajab tushlar…
Balki tush emasdir?
O‘ngda-ku, shunaqa qoida bo‘ladi:
***Mahraj** qancha katta bo‘lsa, axir,*
***Kasr** shuncha mayda bo‘ladi…*

Ko‘rinib turganidek, ushbu she’riy parchada matematikaga oid *kasr, surat, maxraj* terminlari uchraydi. She’rda shoirning tushida ro‘y bergan voqelik tasvirlangan. U tushida Lev Tolstoyni ko‘radi, adib lirik qahramon bilan adabiyotdan emas, balki matematika bo‘yicha savol-javob o‘tkazadi. Mana shu tasvir ifodasida inson kasrga qiyoslanadi, surat uning haqiqiy salmog‘iga, maxraj o‘zi haqida o‘ylagan o‘yiga tenglashtiriladi.

She’rda ta’kidlanishicha, inson o‘zi haqida qancha ko‘p o‘ylasa, uning insoniylik qiyofasi shuncha mayda (o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, o‘zgalarni o‘ylamaydigan) bo‘ladi. Ko‘rinadiki, ushbu g‘oya she’rda “matematik usul”da o‘ziga xos tarzda ilgari surilgan. Asqad Muxtor matematik terminlarga badiiy niyatini yuzaga chiqarish vazifasini yuklagan.

Misollar tahlilidan shuni anglash mumkinki, Asqad Muxtor she’rlarida aniq va tabiiy fanlar sohalariga oid termin hamda kasbiy atamalar uning badiiy maqsadi asosida lingvopoetik hosilaga aylangan. Uning she’riy asarlarida aniq yoki tabiiy fanlar doirasi bilan chegaralanuvchi terminlar nutqning boshqa uslublarida, xususan, badiiy uslubda qo‘llanish imkoniyatini ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda terminlar badiiy uslubga xoslanish belgisiga ega, lekin bu jihatni barcha terminlar uchun xos deb bo‘lmaydi.

*Say-g‘ayrat umidvor ko‘ngillarni poklamoqda, saflarimizni kengaytmoqda, mulla Fayzulloxo‘ja. Biz sizni ham o‘z safimizga rog‘ib ko‘ramiz. U devordan bu devorga urinmoq yetar. Yig‘inlarimizga qatnashing, kuch-u imkoningizga **maxraj toparsiz,** siqilgan dilingiz kushod o‘lg‘ay* (“Buxoroning jin ko‘chalari”).

Ushbu matnda maxraj atamasi qo‘llangan bo‘lib, u tilshunoslik, matematika sohasiga oid atama hisoblanadi. Tilshunoslik sohasida tovushning hosil bo‘lish o‘rniga nisbatan (arab tilida) ishlatilsa, matematika sohasida esa kasr sonlarga xos termin hisoblanadi. Bu o‘rinda har ikki ma’nosidan tashqarida ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, taskin ma’nosida qo‘llangan.

Xulosa. Asqad Muxtor nafaqat nasriy, balki nazmiy asarlarida ham tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlariga ham murojaat qilib takrorlanmas badiiy ifodalar yaratgan. Ijodkor she’rlariga har qanday terminologik birlik yoki kasbiy atamalarni olib kirgan emas, balki muayyan badiiy maqsadga yo‘naltirilgan terminlarni tanlab olib, ulardan lingvopoetik maqsadlarda foydalangan.

Adib asarlarida qo‘llangan turli sohaviy terminlar asosan ko‘chma ma’no kasb etib, obrazlilikni ifodalovchi tasviriy vosita vazifasini bajargan. Bunday holda terminlar terminlik xususiyatini yo‘qotib, umumxalq leksikasidan o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova X.M. Asqad Muxtor ijodida sohaviy atamalar lingvopoetikasi: Filol.fan. bo‘yicha falsafa dok-ri (PhD)… diss. – Qo‘qon, 2024. 83-b.

2. Akbarova X.M. Asqad Muxtor asarlarida turli soha kasbiy atama va terminlarining birga qo‘llanishidagi lingvopoetik jihatlar / Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar .2025 №3. B. 1944.

3. Asqad Muxtor. Chinor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

4. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4 . – Б. 34-37.

5. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –188 б.

6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

7. Худойберганова Д. Ёзувчи услуби ва насрий матннинг лисоний хусусиятлари.// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №6. – Б 65.

8. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б.

9. Йўлдошев М. Чўлпонинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз… дисс. – Тошкент, 2000. – 145 б.

10. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.

Muazzam DEDAXANOVA,
Shanghai International Studies University (SISU),
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

JINOIY NUTQDAGI METAFORALARNING PRAGMATIK VA PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada jinoiy nutqqa xos metaforalarning kognitiv maydoni va uning mohiyatini anglashda pragmatik hamda psixolingvistik tahlilning ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *jinoiy nutq, metafora, maqsad maydoni, manba maydoni, pragmatik, psixolingvistik, "Shaytanat", Tohir Malik.*

Annotation: this article examines the conceptual domain of metaphors characteristic of criminal discourse and highlights the role of pragmatic and psycholinguistic analysis in interpreting their semantic and functional properties.

Key words: *criminal discourse, metaphor, target domain, source domain, pragmatics, psycholinguistics, Shaytanat, Tahir Malik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается концептуальная область метафор, характерных для криминального дискурса, а также подчеркивается роль прагматического и психолингвистического анализа в интерпретации их семантических и функциональных свойств.

Ключевые слова: *криминальный дискурс, метафора, целевая область, область-источник, прагматика, психолингвистика, «Шайтанат», Тахир Малик.*

Kirish. Ma'lumki, jinoyat olami vakillari majoziy so'zlar hamda manipulyativ so'z tanlash imkoniyati bilan boshqa odamlardan ajralib turadi. Ular asosan yopiq submadaniyatlarda yuzaga kelgan, maxfiylik va kodlash funksiyasiga ega bo'lgan lug'aviy birliklardan unumli foydalanadi. Shunga ko'ra ularning nutqi metaforaga juda boy bo'ladi. Jinoiy nutqni tahlil qilish, o'z navbatida, metaforani turli semantik qurshovda kuzatish va uning harakatchanligi, dinamikasini yoritish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Metafora olam manzarasi konseptuallashuvining eng keng tarqalgan turi bo'lganligi sababli konseptual tahlil obyekti sifatida tanlanadi. Amerikalik olimlar Jorj Lakoff va Mark Jonsonlarning fikriga ko'ra, metafora nafaqat tilni ifodalash birligi, balki hodisadir [2]. Shuning uchun "...metafora tafakkur uchun xos va lingvistik metaforalar faqat shu hodisaning tashqi ifodasidir" [5, c. 49]. Jinoyatchilar nutqida metaforalarning tez-tez uchrab turishi mazkur "fenomenning ma'lum bir tizim asosida o'rganilishi kerakligini taqozo etadi" [3]. Chunki jinoyat olamiga oid metaforalar ko'pincha bir-biri bilan aloqador bo'lib, biri ikkinchini to'ldiradi hamda murakkab metaforik modellarni hosil qiladi. Metaforalarning semantik tahlili inson ongida kechayotgan kognitiv jarayonlarni hamda ularning sotsial idrokini anglashga yordam beradi. Shuning uchun metaforani tahlil qilayotganda, albatta, tafakkur faoliyatining sirlarini o'rganamiz.

Tahlil va natijalar. Metafora biror narsa yoki hodisani unga o'xshash boshqa narsa yoki hodisa nomi bilan atash, o'xshatish asosidagi ko'chma ma'no bo'lib, unda mavhum tushuncha aniq obraz orqali ifodalanadi. Jinoyatchilar nutqida metafora ko'pincha tahdid, kamsitish, hokimiyatni ifodalash va hissiy kambag'allik (instrumental dunyoqarash) bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Masalan: *ertalab hammasi emaklab kelib, etagingda namoz o'qiydi* [4, b. 44]. Mazkur nutq fragmenti bo'ysunishni ifodalovchi ikki metafora — Bo'ysunish = Past tana holati ("emaklab kelib") va Bo'ysunish = Ibodat ("etagingda namoz o'qiydi") asosida qurilgan bo'lib, ularning integratsiyasi natijasida to'liq va shartsiz itoat modeli shakllanadi. Pragmatik jihatdan ushbu birlik tahdid va va'da elementlarini birlashtirgan performativ (nutq orqali amal bajaruvchi) akt sifatida namoyon bo'lib, hokimiyatni diskursiv tarzda legitimlashtiradi (asosli va muqarrar qilib ko'rsatadi). Bu nutqiy harakat so'zlovchining hokimiyati va shafqatsizligini ifodalaydi. Kommunikativ maqsad: o'z qudrati va boshqalarni bo'ysundira olish qobiliyatini ta'kidlash orqali (Asadbekda) o'ziga nisbatan hurmat hissini uyg'otish. So'zlovchi (Kesakpolvon) kelajakda ("ertalab") barcha ("hammasi" – o'ldirilgan Hosilboyvachchaning yigitlari) o'zlariga to'liq bo'ysunishini ("emaklab keladi"), hatto Asadbekning etagida namoz o'qish darajasida sodiq bo'lishini muqarrar holat sifatida tasvirlamoqda:

1-jadval. Metaforik birliklar tahlili

Metaforik birlik	Asl, denotativ ma'nosi	Metaforik (Ko'chma) ma'nosi	O'xshatish asosi	Izoh
Emaklab kelib	Chaqaloq yoki hayvon kabi qo'l-oyoqlab sudralib kelish	Bo'ysunib, itoatda kelish	kuchsizlik, itoatkorlik	Kamsitish: boshqalarni "emaklovchi" (hayvon/ chaqaloq) darajasiga tushiradi
Etagingda namoz o'qiydi	Etakda turib namoz o'qish (diniy marosim)	To'liq itoat qilish, sodiq bo'lish, qul bo'lish	"etak" – hokimiyat timsoli, "namoz o'qiydi" – bo'ysunish, itoat munosabatlarini ifodalash uchun ko'chirilgan	O'z qudarti, hokimiyatini ifodalash va boshqalarning to'liq bo'ysunishi

Psixolingvistik nuqtayi nazardan esa mazkur metaforalar kuchli mental tasvir va affektiv reaksiyalarni faollashtirib, adresatda tayyor kognitiv modelni qabul qilishni tezlashtiradi. Natijada nutq fragmenti jinoiy diskursda bo'ysundirish va iyerarxiyani mustahkamlashning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Shunga ko'ra psixolingvistik jihatdan quyidagi jihatlar namoyon bo'ladi:

1. Hokimiyat va ustunlik ↔ kamsitish: so'zlovchi o'zini yuqori mavqeda, boshqalarni esa qadr-qimmati yo'q "emaklovchi" (hayvon yoki yosh bola) darajasida kamsitib, tasvirlaydi. "Etagingda namoz o'qiydi" diniy termini orqali ijtimoiy munosabat diniy skript asosida qayta talqin qilinib, hokim figura sakrallashtiriladi (INSON → ILOHIY OBYEKT). Hancock va boshqalar ta'kidlaganidek, psixopatik shaxslar nutqida boshqalarni kamsituvchi metaforalar ko'p uchraydi [1].

2. Hissiy kambag'allik: empatiya yo'q. Boshqalarning his-tuyg'ulari (xor bo'lish, kamsitish) so'zlovchi uchun ahamiyatsiz. U faqat o'z kuchi, hokimiyatini o'ylaydi.

3. Instrumental dunyoqarash: boshqalar shaxs sifatida emas, balki "bo'ysunuvchi" sifatida qaraladi.

4. Qo'rqitish va ishontirish strategiyasi: so'zlovchi kelajakni muqarrar holat sifatida tasvirlaydi ("ertalab hammasi..."). Bu qarshi chiqish yoki qochish imkoniyati yo'qdek taassurot qoldiradi.

5. Ekspressivlik: oddiygina "bo'ysunadi" so'zi o'rniga "*emaklab kelib, etagingda namoz o'qiydi*" jumlasini qo'llash orqali nihoyatda yuqori darajada tasviriylik va ta'sirchanlikni oshirishga erishilgan.

6. Iqtisodlik: bir necha so'z bilan katta ma'no (to'liq bo'ysunish, xorlik, qullik) ifodalangan.

Misollardan anglashiladiki, metaforaning shakllanishida qiyoslash uchun harakatga tushadigan shaxslar, narsa-hodisalarning o'zigina emas, balki ularning ortida turgan timsollar, konseptlar jalb qilinadi. Shu bois metaforik mazmun shakllanishini izohlash o'ta mushkul vazifalardan hisoblanadi. Qolaversa, ijtimoiy va madaniy omillar jinoyatchilarning til xususiyatiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu ularning ma'lum bir jinoiy guruhlar ichidagi ierarxiya, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor normalarini ham o'zida aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Jinoyat olamida hokimiyat va qo'rqitish asosiy vositalardir. Xususan, yuqoridagi misolda ham, "emaklab kelish" va "etakda namoz o'qish" kabi kamsituvchi metaforalar orqali o'z hokimiyatini ulug' darajaga ko'tarish orqali o'z ishidan faxrlanish hissi yetakchilik qilmoqda. Bundan anglashiladiki, metaforani shunchaki jinoiy nutqdaga bezak vositasi sifatida emas, balki strukturalash, qayta qurish va hatto haqiqatni yaratish uchun konseptual vosita sifatida qabul qilish lozim. Jinoyatchilar nutqida bu kabi ustunlikka intilish, kamsitish, hissiy kambag'allik (empatiya yo'q) va qo'rqitish strategiyalari aks etgan, ekspressivlik va iqtisodlik funksiyalarini bajaradigan metaforalar juda ko'p uchraydi. Munosabatlarni diniy terminlar bilan bog'lab ifodalash ham jinoyatchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Jinoyatchining nutqiga xos metaforik jumlalarni tahlil qilish, nafaqat uning xarakteri, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, balki maxfiylik va kodlash funksiyasiga ega bo'lgan lug'aviy birliklar mohiyatini ochish borasida ham ko'zlangan natijaga erishish uchun yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hancock J.T., Woodworth M.T., Porter S. Hungry like the wolf: A word-pattern analysis of the language of psychopaths. Legal and Criminological Psychology, 18 (1). – 2013.

2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We live by. The University of Chicago Press. – 2003.

3. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А.Н.Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004.

4. Малик Тоҳир. Шайтанат. 3-китоб. 2008 (www.ziyouz.com)

5. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика. – Санкт-Петербург. Филологический факультет. 2011.

Laziza ERGASHOVA,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi tayanch doktoranti(PhD)
ergashovalaziza23@gmail.com



ROMITAN TUMANI TOPONIMLARINING MORFOLOGIK STRUKTURASI (qo‘shma toponimlar)

Annotatsiya: ushbu maqola Romitan tumani hududidagi qo‘shma toponimlarning tuzilishi, ma’nosi va kelib chiqishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda joy nomlarining ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topishi, ularning semantik xususiyatlari hamda tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida qo‘shma toponimlarning yasalish usullari, tarkibiy qismlari (masalan, tabiiy obyektlar, shaxs nomlari, kasb-hunar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘liq birliklar) va ularning hududiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, bu nomlarning mahalliy aholi turmushi, madaniyati va tarixini aks ettirishdagi o‘rni ham muhim jihat sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *toponim, qo‘shma so‘zlar, tepa, ot, sifat, son.*

Annotation: this article is devoted to the study of the structure, meaning and origin of compound toponyms in the territory of Romitan district. It analyzes the composition of place names from two or more components, their semantic properties and their connection with historical, geographical and social factors.

The study covers the methods of formation of compound toponyms, their components (for example, natural objects, names of persons, units related to professions or historical events) and their territorial characteristics. Also, the role of these names in reflecting the life, culture and history of the local population is considered as an important aspect.

Keywords: *toponym, compound words, hill, noun, adjective, number*.

Toponimlarning tuzilishiga ko‘ra turlari morfologik strukturasi, ya’ni tarkibiy qismlari va yasalish usullariga ko‘ra tasniflanadi. Ular asosan, *sodda (bitta asos), yasama (qo‘shimcha bilan), qo‘shma (ikki yoki undan ortiq asos) va birikmali (so‘z birikmasi shaklidagi)* turlarga bo‘linadi.

Dastlab qo‘shma so‘z haqida fikr yuritsak. Qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyot mahsuli sanaladi. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishi, tarkibi va mazmuni bilan bog‘liq ilk tadqiqot prof. A. G‘ulomov boshchiligida amalga oshirilgan. “O‘zbek tili grammatikasi” asaridan o‘rin olgan so‘z yasalish bo‘limining “Qo‘shma so‘zlar” bandida ushbu birlikning hosil bo‘lishi, tarkibiy qismlari, qo‘shma so‘z komponentlarining o‘zaro grammatik-semantik munosabati, so‘z birikmasi bilan aloqasi, qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishida rus tilining ta’siri haqida fikr yuritilgan[7,32-37]. Qo‘shma so‘z yasash XX asrning II choragidan boshlab keng rivojlanganligini, bu esa jamiyatdagi keskin o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[7,36]. Aytish mumkinki, prof. A. G‘ulomovning qo‘shma so‘zlar haqidagi nazariy qarashlari yillar davomida manbalarda deyarli o‘zgarmagan holda o‘tib kelindi.

A.Hojiyev “Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi” kitobida qo‘shma, juft, takror so‘zlarni alohida - alohida talqin qilish lozimligini ayta turib, qo‘shma so‘zni leksik hodisa deb ta’kidlaydi, juft, takror so‘zlarning esa to‘la ma’noda leksik hodisa bo‘la olmasligini aytadi[1,14].

1992-yil nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida qo‘shma so‘zlar bilan bog‘liq ikki hodisa kuzatilishi aytiladi. Manbada ta’kidlanishicha, qo‘shma so‘zning ma’nosi bor holatda uning qismlari ma’nosi bilan bog‘langan bo‘ladi, shu ma’nolardan rivojlanib chiqadi (chunonchi, asalari, tokqaychi, oqqush), ikkinchi holatda esa qo‘shma so‘zning ma’nosi uning qismlari ma’nosidan qisman yoki butunlay uzoqlashgan bo‘ladi (ko‘kyo‘tal, qo‘ziqorin, dunyoqarash), undan boshqa ma’no anglashiladi[6,202].

Romitan tuman toponimlari sirasida ikki yoki undan ortiq asosning birikuvidan tuzilgan nomlar ko‘plab uchraydi. Ushbu nomlar kelib chiqishi, ma’no xususiyatlariga ko‘ra xilma-xildir. Qo‘shma toponimlar, asosan, ikki asosning birikuvi natijasida yuzaga keladi hamda bir tushuncha ifodalagani sababli bir bosh urg‘uga ega bo‘ladi.

Sifat+ot. Qo‘shma toponimlar ikki va undan ortiq toponimik asoslarning birikuvidan hosil bo‘lib, u bir butun so‘z holiga keladi. Bunday toponimlar sirasiga [rang-tus bildiruvchi sifat+ot], [hajm-o‘lchov bildiruvchi sifat+ot] qolipi vositasida shakllangan nomlarni kiritish mumkin.

Oq· Ushbu rang bildiruvchi so‘z izohli lug‘atda o‘n bir ma’noda qo‘llanishi ko‘rsatilgan [8,175-176]. Ushbu so‘z tabiatdagi rang, shaxs, predmet va hodisa bilan bog‘liq ma’nolarda qo‘llanadi. Shuningdek, oq so‘zi toponimlar tarkibida ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Romitan tuman toponimiyasida *oq so‘zi* ishtirokida hosil bo‘lgan toponim **Oqtepadir·**

Oqtepa – ikki komponentli joy nomi – oq + tepa. Ma’lumki, oq so‘zi rangni bildirish bilan birga, “*katta, baland”* ma’nolarini ham ifoda etadi. Oqtepa “katta, baland tepa” demakdir.

T.Nafasovning qayd etishicha, bino, imoratlarga nisbatan **oq so‘zi rang ma’nosini bildirmaydi.** Davlat (xonlik, beklik, to‘ralik) tomonidan qurilgan masjid, saroy, qo‘rg‘on, rabotlar **nomiga oq so‘zi qo‘shilganda davlat, hukumat, hokimiyat, katta, ulkan, buyuk; hashamatli, salobatli ma’nolarini anglatgan.**

Toponimlar tarkibidagi oq, qora so‘zlari haqida fikr yuritgan E.M.Murzayev turkiy xalqlarda qadimda tog‘dan oqib tushuvchi tezoqar, sho‘x suvni oqsuv, tekis yerlarda buloq, sizot suvlaridan paydo bo‘lgan suvni *qorasuv* deb ataganliklarini qayd etgan [3,200].

Bayon qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, toponimlar tarkibida qo‘llanadigan oq komponenti bir o‘rinda rang-tus ma’nosini, ikkinchi o‘rinda esa boshqa ma’nolarni, xususan, *katta, ulkan, keng, ko‘lamdor* kabilarni anglatadi.

Nafaqat Romitan tumanida, balki respublikamizning boshqa hududlarida ham ko‘p uchraydigan nomlardan biri Oqtepa toponimidir. Ushbu toponim Samarqandning Qo‘shrabot, Qashqadaryoning Koson, Buxoroning Jondor va G‘ijduvon tumanlarida mavjud.

Toponimning tarkibi: oq+tepa. Yasalish qolipi: s*ifat+ot.* **Aynan:** *hajm bildiruvchi sifat+oronim.* Nom, avvalo, geografik obyektni atash uchun qo‘llangan. Y.G‘ulomovning fikricha, eramizning IV-V asrlaridan boshlab O‘rta Osiyoning barcha vohalarida sug‘orish kanallarining ustida va ekin dalalari o‘rtasida dehqonlarning xom g‘ishtdan qurilgan ko‘shklari vujudga keladi, ularning xarobalari hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, ularni tepa, oqtepa yoki *tall* deb ataydilar [9,121].

Toponimiyada *tepa* tushunchasi o‘ziga xos o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi. Toponimiyada *tepa* oronim (tog‘lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari; relyef tiplari va shakllari (yer yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi sifatida qayd etiladi[5,82].

Toponimlar tarkibida uchrovchi qizil so‘zi janubiy tomonda joylashgan hududga ishora qiladi. Bu borada K.Shoniyozov fikrlariga diqqat qilsak: “Qadim davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar, shimol, janub, sharq, g‘arbni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, oq rang markazni ifodalagan. Ma’lum bir qabila ittifoqida bo‘lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o‘tishi bilan tomonlarning nomlari (rang nomlari) etnonim bo‘lib qolgan”[10,145-146]. Tuman toponimiyasida *Qizilravot, Qizilqum* kabi toponimlarni misol sifatida keltirdik.

Ayrim qo‘shma toponimlar tarkibidagi turli so‘zlar doim ham o‘z asl ma’nosida qo‘llanavermaydi. Sifatlar, ayniqsa, rang-tus ifodalaydigan birliklar kamdan-kam holatlarda o‘z asl denotativ ma’nosida uchraydi. Buxoro viloyati hududidagi oq va *qizil* komponentli toponimlarning katta qismida rang ma’nosi bilan aloqador bo‘lmagan ma’nolar ifodalangan.

Rang-tus ma’noli so‘zlar, ayniqsa, etnonimlar asosida shakllangan toponimlarda umuman qo‘llanilmagan. Etnonimlar tarkibida qadimda rang ma’nosi ifodalangan bo‘lsa-da, ular tayyor holda toponimga o‘tganligi uchun morfemalarga ajratilmaydi [2,145-147].

Son/miqdor+ot. Romitan toponimiyasida son, miqdor, raqam bilan bog‘liq qo‘shma toponimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Asosan, *bir, uch, to‘rt, besh* va ming kabi sonlar ishtirokidagi nomlarni uchratish mumkin. Ushbu nomlarning ayrimlarida sonlar o‘z asl vazifasi – miqdorni ifodalashga xizmat qilsa, ayrimlarida esa miqdor bilan aloqador bo‘lmagan ma’nolarda qo‘llangan.

Bunday toponimlar sirasiga [son bildiruvchi so‘z+ot], [miqdor bildiruvchi so‘z+ot], [ko‘lam bildiruvchi so‘z+ot] qolipi vositasida shakllangan nomlarni kiritish mumkin: *Uch. Uchqir.*

Mazkur toponimlar tarkibidagi *uch* so‘zi turli ma’no qirralarini namoyon etgan. Jumladan, Uchqir toponimidagi *uch* so‘zi *yonma-yon yoki yaqin masofada joylashgan uchta qir,* shuningdek *uch – belgilangan hududning yoki narsaning oxiri, so‘nggi joyi [4,264]* kabi ma’noni ham ifodalaydi. Demak, toponim *qir* indikatori bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Xuddi shunday holatni *Uchtut* toponimida ham kuzatish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, tuman toponimlari rang-barang va o‘ziga xos tuzilishga ega. Har bir toponim zamirida uzoq o‘tmish va tarix mujassamlashgan. Romitan tumani hududidagi qo‘shma toponimlar til va tarixning uzviy bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi. Ular ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topib, o‘zida hududning tabiiy sharoiti, aholi turmushi, kasb-hunari hamda tarixiy voqealari haqida muhim ma’lumotlarni mujassamlashtiradi.

Tadqiqot natijasida qo‘shma toponimlar nafaqat joy nomi sifatida, balki xalqning madaniy merosi va tarixiy xotirasini saqlovchi muhim til birliklari ekanligi aniqlandi. Ularning tuzilishi va ma’nosini o‘rganish orqali o‘tmish haqida tasavvur kengayadi, milliy qadriyatlar va an’analar chuqurroq anglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997.
2. Киличев Б.Э. Топонимлардаги ранг билдирувчи сўзлар//Илм сарчашмалари. – Ургенч., 2022. – № 2. 145–149 б.
3. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. 200 с.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. 264 б.
5. Қораев С. География номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.193 б.; Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. 82 б.
6. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
7. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Ғ.Абдураҳмонов таҳрири остида. –Т.: “Фан”, 1975.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. 175-176 б.
9. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959.121 б.
10. Шониёзов К. Қанг давлати ва қанглилар. – Тошкент: Фан. 1990. 145–146 б.

A.A.SHERMATOV,
SamDChTI ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.
akramshermatov76@gmail.com



DEYKSIS TERMININING ILMIY-TEXNIK MATNDAGI AYRIM PRAGMATIK VAZIFALARI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada ilmiy-texnik matnlarda deyksis hodisasining pragmatik vazifalari tahlil qilingan. Deyktik elementlar (this, that, here, now) matn bo‘laklari orasida mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlab, muallif va o‘quvchi o‘rtasida virtual muloqot o‘rnatadi. Ular anaforik vazifa bajarib, o‘quvchini fikrga jalb etadi va ilmiy axborotning aniq, izchil hamda tushunarli bayon etilishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *matn, ilmiy matn, deyksis, pragmatik, termin, muloqot, axborot, deyktik element, adresant, adresat*

Annotation: the article analyzes the pragmatic functions of the phenomenon of deixis in scientific and technical texts. Deictic elements (this, that, here, now) provide a logical connection between text fragments, establish a virtual dialogue between the author and the reader. They perform an anaphoric function, attract the reader to thought, and serve to present scientific information clearly, consistently, and intelligibly.

Key words: *text, scientific text, deixis, pragmatics, term, communication, information, deictic element, addressee, addressee*

Аннотация: в статье анализируются прагматические функции феномена дейксиса в научно-технических текстах. Дейктические элементы (this, that, here, now) обеспечивают логическую связь между фрагментами текста, устанавливают виртуальный диалог между автором и читателем. Они выполняют анафорическую функцию, привлекают внимание читателя к размышлению и служат для ясного, последовательного и понятного представления научной информации.

Ключевые слова: *текст, научный текст, дейксис, прагматика, термин, коммуникация, информация, дейктический элемент, адресат, адресат*.

Ilmiy tadqiqotlarda ushbu tushunchaga nisbatan “ko‘rsatish so‘zlari –demonstratives” “deyktik so‘z”, [7, p.291; 6, c.5; 10, c.7; 1, http:// linguislist.org/aristar/deixis.html; 2. p.54;] “shifter”, [12, p. 95; 5, p.90] “egotsentrik so‘z” [4. p.215] kabi atamalar qo‘llanib kelinmoqda. Mazkur terminlarning har biri ushbu murakkab hodisaning turli tomonlarini aks ettirib, uning ma’lum xususiyatlarini atash, ta’riflash uchun xizmat qiladi. Umuman, bu atamalarni «deyktik elementlar» deb nomlash mumkin.

Deyksis atamasi (yunoncha deixis) – leksik va grammatik vositalar bilan ifodalangan til birliklari vazifasi yoki ma’nosi sifatida ko‘rsatish degan ma’noni beradi. Deyksis nutq vaziyatining komponentlarini aktuallashtirish hamda fikrning denotativ tarkibi komponentlari uchun xizmat qiladi. Deyksis atamasi nutq harakati ishtirokchilari bo‘lmish so‘zlovchi va adresatni o‘z ichiga oladi. Deyksis atamasi tilshunoslikka tilning mo‘ljalli xususiyatlarini aniqlash uchun kiritilgan. Deyksisni o‘rganishning ahamiyati tilshunoslik faktlarining tadqiqoti natijasida til iyerarxiyasining turli qatlamlarida deyktik belgilarning ular bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda majmuini vujudga keltiradi.

Deyksis tizimining markazida nutq ijodkori, ya’ni so‘zlovchi shaxs turadi va uning makon va zamonda o‘rin olishi boshlang‘ich nuqta bo‘lib qoladi. Deyksis so‘zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma’lum makonda joylashganligini belgilaydi.

Tilshunos olimlarning ko‘pchilik qismi deyksis hodisasining tilshunoslik tizimlaridagi xususiyatlari bo‘yicha turli fikrlar bilan talqin qilishgan. Deyksis muammosi to‘g‘risidagi ilmiy asarlarda qayd etilgan fikrlarga qo‘shilgan holda, bu muammo keyingi yillardi yanada dolzarb bo‘lib qolganini e’tirof etish mumkin. Shu davrda deyksis mavzusiga oid nashr qilingan tadqiqot ishlarning soni keskin o‘sdi va ularda ushbu hodisaning turli tomonlari tadqiq qilindi

Deyktik so‘zlar mazmuni bevosita muloqot sharoitida shakllanadi hamda suhbatdosh yoki o‘quvchiga ushbu muloqot vaziyati haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishiga imkon yaratadi. Deyktik so‘zlarning asosiy xususiyati alohida nutq faoliyatini voqelik bilan bog‘lashdir. Deyktik so‘zlar ma’nosi doimiy bo‘lmasdan nutq vaziyatiga nisbatan o‘zgarib turishi sababli ayrim tilshunoslar ularni «mazmunan kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida qarash mumkin» ligini qayd qilishadi [3, b.18]. Barcha turdagi deyktik so‘zlarning mazmun doirasi nihoyatda sig‘imlidir, ular har qanday shaxs yoki predmetga, makon va zamondagi har qanday nuqtaga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ilmiy-texnik matn nafaqat axborot tashuvchi, balki murakkab kommunikativ vositadir. U monologik shaklda bo‘lsa-da, tilning barcha muhim xususiyatlarini, jumladan, deyksis (ko‘rsatish)

hodisasini ham o‘zida namoyon etadi. Deyktik elementlar matn bo‘laklari orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash, muallif va o‘quvchi o‘rtasida virtual muloqot o‘rnatish hamda ilmiy ma’lumotni aniq va tushunarli tarzda yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy-texnik matn o‘z maqsadi, strukturasi, mazmuni, sintaktik tuzilishi hamda o‘ziga xos stilistik xususiyatlari bilan badiiy matndan farq qiladi [8, b.160; 9, c.35; 11, b.16]. Masalan, ilmiy matnning maqsadi intellektual ma’lumotlarni berish, kitobxonning diqqat-e’tiborini muhokama qilinayotgan ilmiy muammoga tortish va uni keyingi ma’lumotlarning mohiyatiga qarab yo‘naltirishdan iboratdir. Ilmiy-texnik matnlarda ma’lumotni uzatishda aniqlik va rasmiylikka rioya qilish asosiy talabdir.

Ilmiy matn badiiy matndan keskin farq qiladi. Uning asosiy maqsadi – intellektual axborotni aniq, mantiqiy va obyektiv tarzda, ma’lum bir soha mutaxassislariga yetkazishdir. Aynan shu maqsad va o‘quvchining (mutaxassisning) xususiyatlari ilmiy matnda deyktik elementlarning qo‘llanilishiga alohida ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchidan nafaqat matnni tushunish, balki matnda tasvirlangan butun voqelikni, fan sohasidagi kontekstni bilish talab qilinadi. Shu ma’noda, ilmiy maqola matni deyksis asosida qurilgan bo‘lib, unda doimo fanni o‘sha sohasiga oid dalillar va asoslarga murojaat qilish holatlari mavjud. Masalan, matndagi havolalar ([1-6]) o‘quvchiga mavzu bo‘yicha oldingi tadqiqotlarni ko‘rsatish (anaforik deyksis) vazifasini o‘tasa, havola sahifasining o‘zi esa keyingi ma’lumotga ishora qiladi.

Ilmiy matnning mantiqiy tuzilishini shakllantirishda ko‘rsatish olmoshlari (this, these, that) alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asosan anaforik vazifa bajarib, o‘quvchi diqqatini matnning oldingi qismida bayon qilingan muhim bir fakt, hodisa yoki natijaga qaratadi. Bu orqali matn qismlari o‘rtasidagi nafaqat grammatik, balki mantiqiy bog‘liqlik ham ta’minlanadi.

This, that, here, there, now, then kabi deyktik elementlarning umumiy vazifasi matnning pragmatik ta’sirini kuchaytirishdir. Ular o‘quvchini fikrga jalb qiladi, uni voqeaning passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Now va here kabi so‘zlar o‘quvchida muallif bilan bevosita muloqot qilayotgandek taassurot uyg‘otib, mavhum ilmiy mavzuni jonlantiradi va tushunishni osonlashtiradi. Bu orqali o‘quvchi muallifning “o‘z tomoniga” tortilib, bayon etilayotgan voqeani birgalikda kuzatish va undan xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-texnik matnda deyktik elementlarning vazifalari beqiyosdir. Jumladan:

– mantiqiy bog‘lovchi vosita sifatida matn bo‘laklari orasidagi sabab-oqibat, shart, tartib va xulosa munosabatlarini shakllantiradi;

– pragmatik vosita sifatida muallif va o‘quvchi o‘rtasida virtual muloqot o‘rnatib, o‘quvchini faol fikrlashga undaydi va matnning ta’sirchanligini oshiradi;

– referent vosita sifatida matn ichida va undan tashqarida (boshqa tadqiqotlarga havolalar orqali) obyektlar, hodisalar va ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq belgilab beradi;

– ma’lumotning aniq, izchil va tushunarli tarzda bayon etilishini ta’minlab, ilmiy uslubning asosiy talablari bo‘lgan mantiqiylik, lo‘ndalik va obyektivlikka xizmat qiladi.

Ilmiy matnlarda muallif muhokama qilinayotgan obyekt yoki hodisaga shaxsiy munosabatini bildiradi, ularga baho beradi. Bunday subyektiv mazmunni ifodalovchi vositalar guruhiga ma’lum turdagi ravishlar kiradi. Bu esa, o‘z navbatida, deyktik mazmunning ifoda doirasini yanada kengaytirish, muallif va nutq adresanti munosabatlarini ifoda etuvchi barcha lisoniy hodisalarni deyksis tizimiga kiritilishini talab qiladi.

Shunday qilib, deyksis terminlari ilmiy matnning nafaqat grammatik qurilishini, balki uning mazmuniy yaxlitligi va pragmatik ta’sirini ta’minlovchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristar A., Dry H. The Role of Deixis in Grammaticalization. http:// linguislist.org/aristar/deixis.html
2. Levinson Stephan C. Pragmatics. – Cambridge.: Cambridge University Press, 1983. – 419 p.
3. Mahmudov N. Ergash gaplarning tabiati va tasnifi masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, №3, 1991. 18-b.
4. Pape H. Peircean theory of indexical signs and individuation // Semiotics. – The Hague, 1980, v.31, N3/4. – P.215-243.
5. Иванов В.В. Категория опредеоенности-неопределености и шифтеры // Категория определенности-неопределенности в славянских и балканских языках. – М.: Наука, 1979. – С. 90-118.
6. Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М. –Л.: Наука, 1965. – 110 с.
7. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. – М.: Прогресс, 1978. – 543 с.
8. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Т.: Фан, 1984. – 160 б.
9. Разинкина Н.М. О понятии стереотипа в языке научной литературы // Научная литература. Язык, стиль, жанры. – М.: Наука, 1985. – С. 35.
10. Стернин И.А. К проблеме дейктических функций слова: Автореф. дис.…канд.филол.наук. – Москва, 1973. – 18 с.
11. Ҳакимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. ном. дис.... автореф. – Т.: Уз ФА ТИ, 1993. – Б. 16.
12. Якобсон Р.О. Шифтеры, глагольные категории и русский глагол // Принципы типологического анализа языков различного строя. – М.: Наука, 1972. – С.95-113.

Гүлзейнет АЙНАХОЖАЕВА,
Қоқан мемлекеттік университетінің тәуелсіз ізденушісі,
академик А. Құятбеков атындағы Халықтар достығы университетінің аға оқытушысы



ТІЛ БІЛІМІНДЕГІ СОЦИОЛИНГВИСТИКАЛЫҚ БАҒЫТТЫҢ ДАМУЫ: ТЕОРИЯЛЫҚ НЕГІЗДЕРІ МЕН ЗАМАНАУИ ЗЕРТТЕУЛЕР

Аннотация: бұл мақалада тіл біліміндегі социолингвистикалық бағыттың қалыптасуы, оның теориялық негіздері және заманауи даму үрдістері қарастырылады. Социолингвистиканың тіл мен қоғам арасындағы өзара байланыстарды зерттеудегі орны айқындалады. У. Лабов, П. Традгилл, Дж. Фишман, Д. Хаймс, сондай-ақ ресейлік ғалымдар В.И. Карасик, Л.П. Крысин еңбектері негізінде тілдік вариация, диглоссия, код ауыстыру, әлеуметтік стратификация мәселелері талданады. Мақалада халықаралық ғылыми зерттеулер мен эмпирикалық мысалдар келтіріліп, социолингвистиканың қазіргі кезеңдегі ғылыми маңызы көрсетіледі.

Түйін сөздер: *социолингвистика, тіл және қоғам, тілдік вариация, диглоссия, әлеуметтік стратификация, код ауыстыру, тіл саясаты.*

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikdagi sotsiolingvistik yo‘nalishning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ilmiy tendensiyalari tahlil qilinadi. Sotsiolingvistikaning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘rganishdagi ahamiyati ochib beriladi. Til variatsiyasi, ijtimoiy tabaqalanish, diglossiya, kod almashinuvi va til siyosati masalalari amerikalik, britaniyalik hamda rus olimlari qarashlari asosida yoritiladi. Empirik tadqiqotlar asosida tilning ijtimoiy omillarga bog‘liqligi isbotlanadi. Shuningdek, globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida til o‘zgarishlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *sotsiolingvistika, til va jamiyat, til variatsiyasi, diglossiya, ijtimoiy tabaqalanish, kod almashinuvi, til siyosati.*

Annotation: this article examines the formation, theoretical foundations, and contemporary development of sociolinguistics in modern linguistics. The role of sociolinguistics in studying the interaction between language and society is highlighted. Issues such as linguistic variation, social stratification, diglossia, code-switching, and language policy are analyzed based on the works of American, British, and Russian scholars. Drawing on empirical research, the article demonstrates the dependence of language on social factors. Special attention is paid to language change in the context of globalization and digital communication.

Key words: *sociolinguistics, language and society, linguistic variation, diglossia, social stratification, code-switching, language policy.*

КІРІСПЕ

XX ғасырдың екінші жартысында тіл білімінде жаңа ғылыми парадигма қалыптасты. Егер құрылымдық лингвистика тілдің ішкі жүйесіне басымдық берсе, социолингвистика тілдің әлеуметтік табиғатын алдыңғы қатарға шығарды. Бұл бағыт тілдік құбылыстарды қоғамдағы әлеуметтік құрылымдармен, мәдени құндылықтармен және коммуникативтік тәжірибемен тығыз байланыста қарастырады.

Социолингвистиканың басты мақсаты – тілдік вариацияның әлеуметтік себептерін анықтау және тілдік мінез-құлықтың қоғамдағы орны мен қызметін зерттеу. Қазіргі кезеңде жаһандану, миграция, цифрлық коммуникация үдерістері тілдік өзгерістерді жеделдетіп, социолингвистикалық зерттеулердің ауқымын кеңейтуде.

НЕГІЗГІ БӨЛІМ

Социолингвистика XX ғасырдың екінші жартысында дербес ғылыми бағыт ретінде қалыптасқанымен, тіл мен қоғам арасындағы өзара байланыс туралы ой-пікірлер лингвистика тарихында әлдеқайда ертерек пайда болғаны

белгілі. Мәселен, В. фон Гумбольдт тілді халық рухының көрінісі деп таныса, А. Мейе тілдің әлеуметтік табиғатын ерекше атап өткен. Алайда бұл идеялар ұзақ уақыт бойы теориялық сипатта қалып, эмпирикалық тұрғыдан жүйеленбеді. Тек XX ғасырдың 1960-жылдарында тілдік құбылыстарды нақты әлеуметтік деректер негізінде зерттеу үрдісі басталып, социолингвистика толыққанды ғылыми сала ретінде орнықты.

Осы кезеңде американдық ғалым **William Labov** тілдік вариацияның әлеуметтік шарттылығын дәлелдейтін эмпирикалық зерттеулер жүргізді. Оның Нью-Йорк қаласында жасаған фонетикалық талдауы тілдік ерекшеліктердің кездейсоқ емес, әлеуметтік стратификациямен тығыз байланысты екенін көрсетті. Зерттеу нәтижелері жоғары әлеуметтік топ өкілдерінің әдеби нормаға жақын формаларды қолдануға ұмтылатынын, ал төменгі топтарда бейресми немесе стигматизацияланған формалардың жиі кездесетінін айқындады. Осылайша тілдік вариация әлеуметтік мәртебенің көрсеткішіне айналатыны ғылыми тұрғыдан дәлелденді. Бұл бағыт кейін вариациялық социолингвистика деп аталып, статистикалық әдістерді кеңінен қолдануымен ерекшеленді.

Сонымен қатар, тілдің әлеуметтік қызметін тереңірек түсіндіруде **Joshua Fishman** еңбектері маңызды рөл атқарды. Ол тілдік домендер теориясын ұсынып, қоғамдағы әртүрлі коммуникативтік салаларда тілдердің функционалдық бөлінісін талдады. Диглоссия мәселесін дамыта отырып, Фишман тіл мен этникалық бірегейлік арасындағы байланысты ерекше атап өтті. Ал британдық зерттеуші **Peter Trudgill** әлеуметтік диалектология саласында жүргізген зерттеулері арқылы жыныс, жас және әлеуметтік тап факторларының тілдік мінез-құлыққа әсерін нақты деректермен көрсетті. Оның еңбектері тілдік вариацияның аймақтық және әлеуметтік өлшемдерін кешенді түрде сипаттауға мүмкіндік берді.

Батыс социолингвистикасының бұл жетістіктері посткеңестік кеңістіктегі ғылыми ізденістерге де ықпал етті. Ресейлік тіл білімінде тілдің әлеуметтік жіктелісі, қалалық сөйлеу тілі, дискурс және тілдік тұлға мәселелері жан-жақты қарастырыла бастады. Мысалы, В.И. Карасик тілдік тұлға теориясын ұсынып, дискурстың әлеуметтік-мәдени шарттылығын негіздеді. Ал Л.П. Крысин орыс тілінің әлеуметтік дифференциациясын зерттеп, тілдік норманың өзгергіш сипатын көрсетті. Бұл еңбектер тілдік құбылыстарды әлеуметтік контекстен тыс қарастыру мүмкін еместігін дәлелдеді.

Осы ғылыми үрдістер түркі тілдес елдердегі зерттеулердің дамуына да ықпал етті. Қазақ тіл білімінде социолингвистикалық бағыт әсіресе тәуелсіздік кезеңінде белсенді дамыды. Академик Ә. Қайдар тіл мен ұлттың өзара байланысын зерттей отырып, тілдің этномәдени мазмұнын ашып көрсетті. Ол тілдің тек қатынас құралы ғана емес, ұлттық болмыстың, тарихи жадтың және рухани құндылықтардың сақтаушысы екенін дәлелдеді. Сонымен бірге, М. Жолдасбеков пен Б. Хасанұлы еңбектерінде Қазақстандағы тілдік жағдаят, мемлекеттік тілдің мәртебесі, қостілділік және көптілділік мәселелері әлеуметтік тұрғыдан талданды. Урбанизация мен жаһандану жағдайында тілдік мінез-құлықтың өзгеруі, жастар тілінің динамикасы және тілдік сәйкестік мәселелері де қазақ социолингвистикасының өзекті бағыттарына айналды.

Өзбек тіл білімінде де социолингвистикалық зерттеулер тәуелсіздік жылдарынан бастап жүйелі сипат алды. Академик Ш. Рахматуллаев әдеби тіл нормасының қалыптасуы мен тілдің қоғамдық қызметін зерттесе, Н. Махмудов тіл мәдениеті мен сөйлеу этикасының әлеуметтік негіздерін қарастырды. Өзбекстандағы тіл саясаты, мемлекеттік тілдің мәртебесі, көпэтносты қоғам жағдайындағы тілдік қатынастар мәселелері қазіргі зерттеулердің басты нысанына айналды. Сонымен қатар, цифрлық коммуникация дәуірінде жастар сленгі, әлеуметтік желілердегі тілдік қолданыс және код ауыстыру құбылыстары өзбек ғалымдарының назарын аударуда.

Осылайша, социолингвистиканың қалыптасуы тек Батыс ғылымының шеңберінде ғана дамыған құбылыс емес, ол әр елдің әлеуметтік-мәдени ерекшеліктеріне бейімделе отырып, ұлттық ғылыми мектептерде өзіндік сипатқа ие болды. Американдық және еуропалық зерттеулер тілдік вариацияның әмбебап заңдылықтарын анықтаса, қазақ және өзбек ғалымдарының еңбектері аймақтық тілдік жағдаяттың ерекшеліктерін ашуға мүмкіндік берді. Нәтижесінде тіл мен қоғам арасындағы байланыс көпқырлы, динамикалық және тарихи шартталған құбылыс екені дәлелденді. Бұл бағыт қазіргі кезеңде

де өз маңызын жоймай, жаңандану, көші-қон және цифрландыру жағдайында жаңа мазмұнмен толығуда.

.

ҚОРЫТЫНДЫ

Қорыта келгенде, эпидейктикалық сөйлеу жанрлары – тек риторикалық дәстүрдің тарихи мұрасы ғана емес, қазіргі қоғамдық коммуникацияның маңызды прагматикалық және лингвомәдени құралы болып табылады. Зерттеу барысында айқындалғандай, бұл жанрлар ежелгі антикалық риторикадан бастау алып, бүгінгі цифрлық дискурс кеңістігінде жаңа мазмұн мен пішінге ие болып отыр. Аристотель негізін қалаған риторикалық жіктеу жүйесі эпидейктикалық сөздің мадақтау мен даттау функциясына негізделетінін көрсетсе, кейінгі кезеңдерде бұл тұжырымдар функционалдық, когнитивтік және дискурстық бағыттарда дамытылды.

Орыс риторика мектебінде эпидейктикалық жанрлар құрылымдық-семантикалық және стилистикалық тұрғыдан терең талданды. М. М. Бахтин сөйлеу жанрлары теориясы аясында мадақтау, құттықтау, еске алу сөздерінің коммуникативтік мақсаты мен адресаттық бағытын айқындаса, Ю. М. Лотман мәдени мәтін кеңістігінде эпидейктикалық дискурстың семиотикалық табиғатын негіздеді. Ал Л. Р. Дускаева еңбектерінде салтанатты сөздердің публицистикалық дискурсқа ықпалы нақты медиамәтіндер негізінде сараланды.

Ағылшынтілді зерттеулерде эпидейктикалық жанрлар прагматикалық және әлеуметтік әрекет ретінде қарастырылады. Мәселен, Kenneth Burke риториканы «идентификация құралы» ретінде сипаттап, мадақтау сөздерінің қоғамдағы бірегейлік қалыптастыру функциясын дәлелдеді. Lloyd Bitzer ұсынған «риторикалық ситуация» теориясы эпидейктикалық мәтіннің әлеуметтік жағдаймен тікелей байланысын көрсетеді. Сонымен қатар, қазіргі зерттеулерде (Google Scholar және Scopus базаларындағы мақалаларда) салтанатты сөздердің саяси дискурс, медиа және цифрлық коммуникация кеңістігіндегі трансформациясы жан-жақты талдануда.

Қазақ және өзбек ғалымдарының еңбектерінде эпидейктикалық жанрлардың ұлттық-мәдени ерекшеліктері, әсіресе шешендік өнер дәстүрімен сабақтастығы айрықша аталады. Қазақ шешендік сөздеріндегі мадақтау мен бата үлгілері эпидейктикалық дискурстың тарихи-этномәдени негізін айқындайды. Өзбек тіл білімінде де салтанатты сөздер прагматикалық, стилистикалық және лингвомәдени аспектіде зерттеліп, олардың ұлттық құндылықтарды бекітудегі рөлі көрсетілген. Бұл бағыттағы еңбектер эпидейктикалық жанрлардың тек мәтіндік құрылым ғана емес, мәдени код ретіндегі қызметін дәлелдейді.

Жалпы алғанда, эпидейктикалық сөйлеу жанрлары қоғамдағы құндылықтар жүйесін бекіту, ұлттық бірегейлікті нығайту, әлеуметтік ынтымақтастықты қалыптастыру сияқты маңызды функцияларды атқарады. Олар тарихи дәстүр мен қазіргі коммуникациялық технологиялардың тоғысында жаңа мазмұнға ие болып, цифрлық медиада да белсенді қолданыс табуда. Сондықтан бұл жанрларды пәнаралық тұрғыда, соның ішінде когнитивтік лингвистика, дискурс теориясы және медиалингвистика аясында зерттеу – болашақ ғылыми ізденістердің өзекті бағыты болып табылады.

Осылайша, жүргізілген талдау эпидейктикалық жанрлардың әмбебап сипатын, сонымен бірге ұлттық-мәдени ерекшеліктерін айқындап, олардың қазіргі тіл біліміндегі теориялық және практикалық маңызын дәлелдейді.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР

1. Labov W. *The Social Stratification of English in New York City*. – Washington, 1966.
2. Fishman J.A. *Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective*. – 1989.
3. Trudgill P. *The Social Differentiation of English in Norwich*. – Cambridge, 1974.
4. Карасик В.И. *Языковая личность и дискурс*. – Волгоград, 2002.
5. Крысин Л.П. *Социальная дифференциация русского языка*. – Москва, 2004.
6. Hymes D. *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. – 1974.
7. Bell A. *Language Style as Audience Design*. – 1984.
8. Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. – 2013.

Сайёра АЛИМСАИДОВА,
доктор педагогических наук (DSc), профессор
кафедры русского языка и литературы,
Кокандский государственный университет
kokand-sayyora@mail.ru

ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ИСТОРИКО-ЛИТЕРАТУРНОГО МАТЕРИАЛА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОДИДАКТИКЕ

Аннотация: в данной статье раскрываются основные критерии отбора историко-литературных текстов в лингводидактических целях. *Доказательно, что* при формировании социолингвистической компетенции углублению мотивации изучения русского языка и его конструкций способствует историко-литературный, краеведческий текстовой материал, имеющий общенациональное значение, и рассматриваемый не только в качестве единицы обучения, но и как основной способ организации учебного материала на уроке. Опора на использование мотивационных возможностей краеведческих текстов обеспечивает разработку преимущественно коммуникативно-ценных и личностно значимых для обучаемых видов работ по текстам, положительно влияющих на совершенствование навыков самостоятельной работы, а главное – на воспитание и углубление чувства любви к Родине, родному краю.

Ключевые слова: *историко-литературный текст, краеведение, принцип, нравственность, мотивация, социолингвистическая компетенция.*

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvodidaktik maqsadlar uchun tarixiy va adabiy matnlarni tanlashning asosiy mezonlari o‘rganiladi. Milliy ahamiyatga ega bo‘lgan va nafaqat o‘qitish birligi sifatida, balki sinfda o‘quv materiallarini tashkil qilishning asosiy usuli sifatida ham qaraladigan tarixiy, adabiy va o‘lkashunoslik matnlari rus tili va uning tuzilmalarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani chuqurlashtirish orqali sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga hissa qo‘shishi isbotlangan. O‘lkashunoslik matnlarining motivatsion salohiyatiga tayanish talabalar uchun asosan kommunikativ jihatdan qimmatli va shaxsiy mazmunli faoliyatni rivojlantirishni ta’minlaydi, mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va eng muhimi, Vatan va ona yurtga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish va chuqurlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy va adabiy matn, o‘lkashunoslik, tamoyil, axloq, motivatsiya, sotsiolingvistik kompetensiya.*

Annotation: this article explores the key criteria for selecting historical and literary texts for linguodidactic purposes. It is proven that historical, literary, and local history texts, which have national significance and are considered not only as a unit of instruction but also as the primary method for organizing educational material in the classroom, contribute to the development of sociolinguistic competence by deepening motivation for learning the Russian language and its structures. Relying on the motivational potential of local history texts ensures the development of predominantly communicatively valuable and personally meaningful activities for students, positively influencing the development of independent work skills and, most importantly, the cultivation and deepening of a sense of love for the Motherland and native land.

Key words: *historical and literary text, local history, principle, morality, motivation, sociolinguistic competence.*

Введение. Одним из ведущих приоритетов Национальной модели подготовки кадров является личность, формирующаяся в принципиально новых экономических и политических условиях. Обеспечение реализации данного приоритета основывается на всестороннем учете мирового опыта, условий жизни нашего народа, его традиций, обычаев и привычек, образа жизни.

Принцип национальной ориентированности образования, сформулированный в Национальной программе по подготовке кадров, еще более чётко определяет эту установку. А именно, национальная направленность образования заключается в его органическом единстве с национальной историей, народными традициями и обычаями, сохранении и обогащении культуры

народов Узбекистана, признании образования важнейшим инструментом национального развития, уважения к истории и культуре других народов [2, с.15].

Основная часть. Углублению мотивации изучения русского языка способствует отбор историко-литературного текстов, имеющих общенациональное значение, и рассматриваемых не только в качестве единицы обучения, но и как основной способ организации учебного материала на уроке. Опора на использование мотивационных возможностей краеведческих текстов историко-литературного характера обеспечивает разработку преимущественно коммуникативно-ценных и личностно значимых для обучаемых видов работ по текстам, положительно влияющих на совершенствование навыков самостоятельной работы, а главное – на воспитание и углубление чувства любви к Родине, родному краю.

Коммуникативно-ориентированная система обучения неродному языку характеризуется сближением деятельности обучения с деятельностью реального общения. И выражается она, прежде всего, в отборе учебного материала (связных текстов) и его особой организации, при которой обеспечивается формирование речевой деятельности учащихся.

Этому способствует тот фактор, что тексты о выдающихся людях страны изучаемого языка (России) изучаются параллельно с отобранными нами краеведческими текстами историко-литературного характера (история и культура Узбекистана), что создаёт условия для диалога языков и культур, приобретающего сегодня, в посткризисном мире, огромное социально-политическое и духовно-нравственное значение.

Мы согласны с точкой зрения Н.П.Шульгиной о том, что научить обучаемых «пользоваться русским языком как средством общения, средством познания мира и себя в нём, приобщения к культуре, развить в них умение грамотно, активно и творчески владеть всеми видами речевой деятельности дают возможность уроки, где как высшая единица обучения выступает текст, в котором интегрируются, объединяются и синтезируются все элементы языковой системы» [6, с.4].

Поскольку учебный текст для учащихся общеобразовательных школ одновременно является источником информации, моделью и средством обучения построению самостоятельного монологического высказывания, то необходимо обращать серьёзное внимание на образец как первоисточник, с помощью которого у учащихся формируются ключевые навыки и умения связной речи.

Annotatsiya: zamonaviy ingliz tili, xususan neologizmlar hosil qilishda, ajoyib leksik moslashuvchanlikni namoyish etadi. Leksik innovatsiyalarning eng samarali turlaridan biri ikki yoki undan ortiq leksik poydevorning birlashuvi orqali yaratilgan murakkab neologizmlar hisoblanadi. Ushbu hosilalar texnologik taraqqiyot, iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy o'zgarishlar va raqamli muloqotni faol aks ettiradi. Hozirgi maqolada zamonaviy ingliz tilidagi murakkab neologizmlarning funksional va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ularning nominativ roli, kommunikativ iqtisodiyoti, uslubiy ifodalanishi, semantik shaffofligi, metaforizatsiyasi va kontekstual o'zgaruvchanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada shuningdek, birikma hosil qilishning strukturaviy modellariga tahlil qilinadi va ommaviy axborot vositalari, biznes, texnologiya hamda kundalik muloqotdan olingan misollar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, birikma neologizmlar Zamonaviy ingliz tilidagi lug'at zaxirasini kengaytirishning eng dinamik mexanizmlaridan biri bo'lib, zamonaviy ijtimoiy rivojlanishning til belgilaridir.

Kalit so'zlar: *murakkab neologizmlar, zamonaviy ingliz tili, so'z hosil qilish, semantika, lug'at yangilanishi, murakkab so'zlar, lug'at rivoji.*

Introduction

Language constantly changes in response to the evolving needs of society. Every new invention, social tendency, technological development, or cultural movement creates a demand for new vocabulary. English, as one of the most globally influential languages, responds rapidly to such changes. One of the most productive mechanisms of lexical growth in English is compounding, the process of combining two or more words into a single lexical unit. When newly formed compounds enter the language to name new realities, they become compound neologisms.

Examples such as *smartphone*, *crowdfunding*, *foodtech*, *eco-tourism*, *doomscrolling*, *livestream*, and *cryptowallet* illustrate the vitality of this process. These compounds not only name new phenomena but also reveal how speakers conceptualize modern life. They combine familiar lexical elements in innovative ways, making them easy to understand and widely acceptable.

The study of compound neologisms is important for both linguistics and applied communication. Linguistically, they demonstrate productive word-formation patterns, semantic development, and lexical creativity. Practically, they dominate the vocabulary of media, business, education, technology, and social networks.

This article aims to investigate the functional and semantic properties of compound neologisms in Modern English, identify their structural patterns, and explain their role in contemporary communication.

Functional and Semantic Properties of Compound Neologisms

Compound neologisms represent a highly productive mechanism of vocabulary growth in Modern English, primarily serving a nominative function. By synthesizing existing lexical roots, the language efficiently labels emerging socio-technical realities. Terms such as *smartwatch, cryptowallet,* and *foodtech* exemplify this process, gaining rapid acceptance due to their inherent semantic clarity.

Beyond naming, these formations facilitate communicative economy. In a digital-first era where brevity is paramount, compounds condense complex descriptive phrases into compact units. For instance, “raising funds from multiple online contributors” is succinctly replaced by *crowdfunding*, while “live online video transmission” becomes *livestream*. This informational density allows expressions like *supply-chain crisis* or *data-breach scandal* to convey multi-layered meanings within a single lexical frame.

Furthermore, compound neologisms carry significant stylistic and expressive weight. Many are designed to provoke emotional or rhetorical impact; words like *doom scrolling* and *greenwashing* serve as vivid evaluative tools in public discourse. Simultaneously, they function as social markers, categorizing new professional identities and lifestyle groups, such as *gig workers* or *digital natives*.

From a semantic standpoint, the success of these neologisms is rooted in their transparency. The meanings of terms like *online learning* or *carbon footprint* are easily inferred from their constituent parts. This combination of semantic accessibility and structural brevity ensures their rapid dissemination across global English discourse.

Another semantic feature is motivation. In many compounds, the relationship between the components is logical and meaningful. In the phrase *smart home*, the adjective *smart* suggests automated or digitally controlled functions. In *cloud storage*, the word *cloud* metaphorically refers to internet-based virtual space rather than an actual cloud in the sky. Because these formations are semantically motivated, speakers usually accept them easily and understand them rapidly.

Many compound neologisms are also based on metaphorical meaning rather than literal interpretation. Examples such as *brainstorm*, meaning a creative discussion, *firewall*, referring to a digital security barrier, *black market*, meaning illegal trade, and *echo chamber*, describing a closed ideological environment, illustrate the creative semantic potential of compounds. In such cases, the meaning is not fully literal but transferred through metaphorical association.

Some compounds gradually become idiomatic expressions whose meanings cannot be predicted entirely from their components. For instance, *red tape* refers to excessive bureaucracy, *hot money* means rapidly moving speculative capital, and *white collar* describes office-based professional workers. These expressions demonstrate that compounds may evolve beyond their original literal structure and acquire stable cultural meanings.

Polysemy and contextual dependence are also common in compound neologisms. Certain compounds may have more than one meaning depending on the context in which they are used. For example, *platform economy* may refer generally to app-based business models or specifically to companies such as Uber or Airbnb. Similarly, *green energy* may broadly indicate renewable power or more narrowly refer to specific ecological technologies. Therefore, accurate interpretation often depends on discourse context and field of use.

Structurally, compound neologisms in Modern English appear in several productive patterns. The noun + noun model is especially common, producing forms such as *smartphone*, *data mining*, *market bubble*, *carbon tax*, *food waste*, and *video platform*. This model is highly productive because it allows clear and precise naming of modern realities. The adjective + noun pattern is also frequent in compounds such as *smart city*, *digital currency*, *virtual classroom*, *green economy*, and *remote workforce*. In these examples, the adjective highlights the quality or function of the noun.

Verb-based and gerund-based compounds are increasingly common as well. Forms such as *search engine*, *swipe culture*, *crowdfunding*, *livestreaming service*, *homeworking system*, and *ridesharing platform* often describe actions, processes, or interactive behaviors. These structures are particularly productive in digital and service-oriented contexts.

Technology remains one of the richest sources of compound neologisms. Words such as *touchscreen*, *cloud computing*, *data science*, *machine learning*, *cybersecurity*, and *block chain network* show how English efficiently names innovations through compounding. Digital communication has also introduced expressions like *screen time*, *video chat*, *hashtag activism*, *fake news*, and *social media*, many of which spread internationally within a short time.

Economic and business language also relies heavily on compound neologisms. Terms such as *startup ecosystem*, *gig economy*, *digital wallet*, *market share*, *price ceiling*, *cash flow*, and *trade war* simplify complex economic concepts into manageable forms. More recent financial vocabulary includes *crypto exchange*, *fintech startup*, *peer lending*, and *microfinance platform*, all reflecting modern economic transformation.

Conclusion

Compound neologisms represent one of the most productive and dynamic sources of lexical growth in Modern English. They arise in response to technological progress, economic transformation, digital communication, and cultural change. Their main functional properties include nomination, economy, informative density, expressiveness, and social identification. Semantically, they may be transparent, metaphorical, idiomatic, or context-dependent.

Structurally, Modern English favors noun+noun and adjective+noun compounds, though other patterns remain active. Compound neologisms dominate the vocabulary of technology, business, media, and everyday life. Because they combine innovation with comprehensibility, they spread rapidly and often become permanent elements of the lexicon.

In conclusion, compound neologisms are not only linguistic forms but also reflections of contemporary civilization. Studying them allows scholars to understand how language adapts to new realities and how speakers conceptualize the changing modern world.

References

1. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
2. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge University Press.
3. Plag, I. (2003). *Word-Formation in English*. Cambridge University Press.
4. Yule, G. (2017). *The Study of Language*. Cambridge University Press.
5. Katamba, F. (1993). *Morphology*. Macmillan.
6. Algeo, J. (1991). *Fifty Years Among the New Words*. Cambridge University Press.
7. Adams, V. (2001). *Complex Words in English*. Pearson.
8. Marchand, H. (1969). *The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation*. Beck.

Albina BAZARBAEVA,
Doctor of Sciences in Philology (DSc),
Acting Professor of the Department of
Theoretical aspects of English, English faculty-2
Uzbekistan State University of World Languages
Babai77700@list.ru

CONCEPTUAL MODELING OF COLOR TERMINOLOGY IN LANGUAGE

Annotation: currently, a significant and promising area of research within linguistics focuses on exploring the relationship between linguistic expressions and mental representations in different types of text. This involves an in-depth examination of language and speech phenomena closely intertwined with human-centric factors at the intersection of sociolinguistic, communicative-pragmatic and cognitive dimensions, with the aim of evaluating the impact of the study. Scholars are conducting and considering both monolingual and multilingual investigations into the challenges of translating knowledge structures, as well as the nuances of linguistic and cognitive mechanisms in diverse discourses. Meanwhile, building on advances in cognitive science, pragmatics, and corpus linguistics, researchers are developing and improving methods, procedures, and techniques for analyzing textual elements such as color references.

Key words: *cognitive science; color-nominations; linguistic and cognitive mechanisms; psychology of color.*

Аннотация: в настоящее время важной и многообещающей областью исследований в лингвистике является изучение взаимосвязи между языковыми выражениями и ментальными репрезентациями в различных типах текстов. Это предполагает углубленный анализ языковых и речевых явлений, тесно переплетенных с антропоцентрическими факторами на стыке социолингвистического, коммуникативно-прагматического и когнитивного измерений, с целью оценки результатов данного исследования. Ученые проводят и рассматривают как моноязычные, так и многоязычные исследования, посвященные проблемам перевода структур знаний, а также нюансам лингвистических и когнитивных механизмов в различных дискурсах. Между тем, опираясь на достижения когнитивной науки, прагматики и корпусной лингвистики, исследователи разрабатывают и совершенствуют методы, процедуры и техники анализа таких текстовых элементов, как упоминания цветов.

Ключевые слова: *когнитология; цветономинации; языковые и когнитивные механизмы; психология цвета.*

Annotatsiya: jahon tilshunosligida hozirgi vaqtning eng muhim va istiqbolli vazifalaridan biri har xil turdagi matnlarda til va aqliy vakillik o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishdir. Til va nutq hodisalari antropotsentrik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sotsiolingvistik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv jihatlar chorrahasida batafsil o‘rganiladi. Bilim tuzilmalarini tarjima qilish muammolari, turli xil nutq turlarida til va kognitiv mexanizmlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha mono va ko’p tilli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, kognitologiya, pragmatika va korpus lingvistikasi sohasidagi nazariy va amaliy yutuqlar asosida matn birliklarini tahlil qilishning yangi usullari, protseduralari va texnikasi, xususan, rang qiymatlari ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda.

Kalit so‘zlar: *kognitivistika; rang-barang; til va kognitiv mexanizmlar; rang psixologiyasi*

Introduction

The main tasks that form the basis of cognitive linguistics as a science and define the role of language in perception and understanding include searching for correlations between cognitive structures and linguistic units, studying various approaches to knowledge representation and explaining the influence of language on conceptualization and categorization of human experience. The study of concepts involves more than viewing them as mere elements of culture. It is also important to consider the mental information embedded within them about various real-world objects and/or phenomena. The relationship between mood and color can easily be demonstrated by covering the eyes with colored glasses. Experiments have confirmed that bright colors, especially yellow and orange, can lift the mood. This is why children’s toys are often brightly colored.

Main Part

In modern cognitive linguistics, a distinction is made between an experiential approach and a logical approach to analyzing linguistic phenomena. This approach considers not only theoretical aspects, but also practical experience. Basic names of colors have a universal character and are firmly rooted in human memory, which distinguishes them from less fixed peripheral color terms. “One of the most important functions of the allocation of this perceptual feature is the need to distinguish an object from similar ones precisely on the basis of color features”. The choice of a name for a referent is determined with both semasiological and onomasiological salience. In semasiology, the degree of highlighting depends on the extent to which the lexical item corresponds to the prototype. In onomasiological onomasiology, salience implies the choice of a lexical item

to name a referent on the basis of the highest degree of stability.

Colored designations as complex categories

Despite the significant impact of prototype theory on the study of categorization processes, it is unlikely to provide a complete explanation of the essence of categories.

The cognitive properties of basic color cognitions may include the following aspects:

Thus, basic color expressions have a variety of cognitive properties that reflect their importance in human perception, language and culture. Prototype effects do not accurately reflect the structure of categories, and the claim that categories take the form of prototypes is too simplistic, given that many categories are complex entities. For our purposes, it is expedient to conduct a derivational analysis of the structural classifications of color denotations, as well as to evaluate the characteristics of the meanings of the corresponding words. Associative links between words are taken into account in feature analysis. In this approach, the structure of color words is seen as a reflection of the structures of the vocabulary, as each relationship has its own linguistic expression. For example: a certain characteristic of words (bluish = somewhat blue, yellowish = somewhat yellow, etc.) gives rise to a meaning that is the basis of classification (possessing a certain color in a weak degree). The lexemes denoting colors in English, from the point of view of structural features, can be divided into three categories: 1) words that have no structural components; 2) words that are completely separable into parts; 3) words that are prone to residual analysis.

The first group includes color-designation lexemes that are not divided into any parts and are subdivided into the following types: a) white (white = of the color of snow or milk); b) coral (coral = of the color of coral.).

Examples pertaining to the first kind: *darkest possible hue, swart; green – of the color white in the spectrum is intermediate between blue and yellow = of color of gold, butter, yolk of an egg,* и др.

To the second kind: *mole = of the color of mole-skin buff = of the color, of buff letter; beryl = beryl like clear pale green,* и др. [Longman Dictionary, 1992].

This group includes the oldest words denoting color (Ted, dim, fallow, swarthy, grey), as well as lexemes borrowed from other languages:

Khaki (from Hindi) = *dust-colored, dull;*

Blond (in French) = *of a light golden brown, light suborn* [Modern explanatory dictionary, e-resource];

The lexemes of the second group of color denotation are also divided according to certain rules. For example: lexemes of the structural form affix + NC/AC are rare: *for black = very black; off-white = not clear white*; approaching white, and others. Based on the cognitive modelling method used in this paper, it is assumed that phraseological units, in a general context, function as representations of cognitive models of situations. The main goal of this study is to reconstruct the structure of knowledge encapsulated in phraseological units, in the individual consciousness or in the collective consciousness of a language community. In the linguocognitive literature, the term “figurative models” or “patterns of figuration” is used for this task. A. Chapanis proposes the term “cognitive structure” to analyze proverbs in cognitive linguistics, where this concept is used to analyze both large information blocks and the content of individual sentences. Here cognitive structure is defined as a scheme of knowledge representation including components or attributes. Thus, the principles of cognitive modelling of the meaning of phraseological units include the description of PE semantics as a frame, script or cognitive situation in the general sense.

According E. Rosch, each phraseological unit has its own abstract conceptual structure known as a frame. This frame represents a repository of human knowledge about the world. To form the meaning of a phraseological unit, not the meanings of individual words-components are used, but the “frames-scenarios” associated with them are used. These frames-scenarios, in turn, are based on the conceptual reflection of prototypical situations in the consciousness of native speakers of the language.

Conclusion

The color-designating lexicon is a cognitive model that encapsulates the intricate processes underlying how individuals perceive, categorize, and interact with colors. Through an exploration of this model, we uncover a rich tapestry of cognitive phenomena that shape our understanding and engagement with the color spectrum. In conclusion, the color-designating lexicon serves as a framework through which we can better comprehend the cognitive properties of basic color cognitions. It illuminates how humans perceptually discriminate between colors, categorize them into distinct groups, and assign them linguistic labels for communication and comprehension. Moreover, this model highlights the emotional associations, cross-cultural consistencies, and developmental trajectories that influence our perception and interpretation of colors.

List of used Literature

1. Berlin B., Kay P. Basic Colour Terms. Their Universiality and Evolution. – Calif. Press, 1969. – 267 p.
2. Chapanis A. Colour Names for Colour Space // Amer. Sci. – 1965. – Vol. 53. – № 14. – P. 327-346.
3. Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – USA: Cambridge University Press, 1998. – 190 p.
4. Humphrey N.K. The colour currency of nature. Color for Architecture. – New York: Van Nostrand, 1976. – 97 p.
5. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What categories reveal about the mind. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 1990. – 607 p.
6. Rosch E. Cognitive Representation of Semantic Categories // Journal of Experimental Psychology № 104. – 1975. – P. 192-233.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Shaxlo MUSAYEVA,
Renessans ta'lim universiteti
Filologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: musayevasahlo81@gmail.com



TURKIY XALQLAR BOLALAR ADABIYOTINI O'RGANISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Annotatsiya:ushbu maqolada turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o'rganishning dolzarb muammo va yechimlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada turkiy bolalar adabiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy holati, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi, tarjima muammolari hamda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot turkiy tillar oilasiga mansub xalqlar — o'zbek, qozoq, turk, qirg'iz, ozarbayjon, turkman, tatar, boshqird, uyg'ur va boshqa xalqlarning bolalarga mo'ljallangan adabiy merosini qamrab oladi. Maqola filologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik kesishmasida yotuvchi kompleks muammolarni hal etishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: *turkiy xalqlar adabiyoti, bolalar adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, folklor, adabiy ta'lim, raqamli pedagogika, tarjima muammolari, milliy o'ziga xoslik*

Annotation:this article provides a scientific and theoretical analysis of the current problems and solutions in studying children's literature of Turkic peoples. The study covers the historical roots of Turkic children's literature, its modern state, comparative literary methodology, translation problems, and the application of digital technologies to the educational process. The research encompasses the literary heritage for children of peoples belonging to the Turkic language family — Uzbek, Kazakh, Turkish, Kyrgyz, Azerbaijani, Turkmen, Tatar, Bashkir, Uyghur and other peoples. The article is aimed at solving complex problems lying at the intersection of philology, pedagogy and cultural studies.

Key words: *turkic peoples' literature, children's literature, comparative literary studies, folklore, literary education, digital pedagogy, translation problems, national identity.*

Аннотация: эта статья представляет собой научный и теоретический анализ современных проблем и решений в изучении детской литературы тюркских народов. В исследовании рассматриваются исторические корни тюркской детской литературы, её современное состояние, сравнительно-литературная методология, проблемы перевода и применение цифровых технологий в образовательном процессе. Исследование охватывает литературное наследие для детей народов, принадлежащих к тюркской языковой семье — узбеков, казахов, турок, киргизов, азербайджанцев, туркмен, татар, башкир, уйгуров и других народов. Статья направлена на решение сложных проблем, находящихся на стыке филологии, педагогики и культурологии.

Ключевые слова: *литература тюркских народов, детская литература, сравнительно-литературное изучение, фольклор, литературное образование, цифровая педагогика, проблемы перевода, национальная идентичность.*

"Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivili-zatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy ma'naviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rganish vazifalari hali sifatli to'liq holda yechilgani yo'q".[1]

Shavkat MIRZIYOYEV

1 Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustivor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha, Ilmiy – uslubiy Risola. –T.: "Ma'naviyat ", 2017.195- bet.

Kirish. Turkiy xalqlar dunyoning turli mintaqalarida — Markaziy Osiyo, Kavkaz, Sibir, Volga bo'yi, Anadolu yarim oroli va Xitoyning shimoli-g'arbiy hududlarida istiqomat qiladi. Bu xalqlarning umumiy turkiy ildizlarga ega bo'lgan bolalar adabiyoti bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, insoniyat ma'naviy merosining ajralmas qismini tashkil etadi. So'nggi yillarda mazkur adabiyotni tizimli va qiyosiy o'rganish zaruriyati kun tartibiga keskin ko'tarildi.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari bir tomondan milliy adabiyotlarni yangi texnologiyalar orqali keng ommaga yetkazish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan an'anaviy adabiy qadriyatlarning siqib chiqarilishi xavfini tug'dirmoqda.

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida yashayotganimiz hech birimizga sir emas, bu rivojlanish yosh avlodni tarbiyalashda ham turli usul va yo'llardan foydalanishni talab etishi hayot haqiqatidir. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda bobolarimiz o'gitlaridan foydalanib tarbiyalash, yosh avlod ajdodlar o'giti bilan kamol topmog'i, qadr topgan qadriyatlarimizni ardoqlamog'i darkor. Bu borada adabiyotning, ya'niy badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir.

Asosiy qism. Badiiy adabiyot san'atning murakkab va serqirra turi bo'lib, insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir. Insonning ismsiz tuyg'ular, nozik kechinmalar, ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, qo'l bilan ushlab, til bilan totinib, burun bilan iskab bo'lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so'z yordamida ifoda etish mumkin. Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli va materiali so'z ekanligi bilan ajralib turadi. Bola tarbiyasida adabiyotning o'rni beqiyos kuch hisoblanadi, zero, A.Qahhorning ta'biri bilan aytganda "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak"[2]. Bu fikrlar naqadar purma'no, chunki bolani kitob o'qishga undayapmiz, unga qanday kitob berishni ham o'ylab ko'rmog'imiz lozim. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yosh kitobxonlar qalbida o'y fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak. Bolalar adabiyoti yoshlarni iymon-e'tiqodli kishilar qilib, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda davrimizning qudratli qurolidir. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblarida yosh avlodning hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Bugungi kunda bolalar adabiyotini tahlil qilish, uning ochilmagan jihatlarini kuzatish, bolalarning ruhiy olamini shakllantiradigan asarlarni bolalar bilan birga o'qishda ayrim muammolarga duch kelishimiz mumkin. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun nafaqat o'zbek bolalar adabiyotini, balki qardosh va chet el bolalar adabiyotini ham o'rgatishimiz lozim. Sharl Perro, Aka-uka Grimmlar, Andersen, A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov kabi jahon adabiyotining buyuk siymolarini e'tirof etmasak bo'lmaydi.

Ularning "Shoh Saltan haqida ertak", "O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak", "Qizil shapkacha", "Qor malikasi" asarlariga ishlangan multfilm va kinolari haftada bir marotaba televideniyeda qo'yiladi, ko'rishimiz mumkin. Bu adiblarning ertak, doston pyesalari kirib bormagan xonadon topilmasa kerak, chunki, bu asarlar asosida multfilm, kino film yaratilgan bo'lib, televideniyelarimizda qayta-qayta qo'yiladi, bolalarimiz bu ertaklarini o'z xalqimiz adabiyoti singari o'qib, ko'rib o'rganmoqda, ammo o'zimizning qardosh xalqlar adabiyoti; qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, tojiklar adabiyotini o'qib o'rganish uchun manba yetarli darajada emas. Abayning "Boy bolasi va kambag'al bolasi", "Sho'rlik qozog'im", "Manas", "Qirq qiz", "Gulu Bulbul", "Xo'jamberdi" kabi dostonlar haqida bolajonlarimiz emas, balki katta yoshdagi kitobxonlarimizning ham ba'zilari o'qib o'rganmagan. Qardosh xalqlarimizning asarlariga ishlangan kino film, sahna asarlari televideniyelarimizda ham qayta-qayta qo'yilmaydi. Shu bois, o'zimizga qardosh xalqlarning urf-odati, o'zbeklar bilan deyarli bir xil insonlarning ma'naviy mulki bilan tanishtirish har birimizning burchimiz. Biz bu bilan bolalarimiz chet el adabiyotini o'qimasin, yoki ertagini ko'rish mumkin emas degan fikrdan yiroqdamiz, faqatgina so'z boshida adabiyot insonni kamolotga yetaklaydi, milliy mafkurani o'stiradi deb fikr bildirdik. Fikrimizning isboti o'laroq o'zbek xalqining mentalitetiga yaqin qardosh xalqlarimiz adabiyotiga ko'proq yondashsak va Abay, Ibrohim Yusipov, To'labbergan Qayibberganov, Saidiy, Kotibiy, Miskin Qilich kabi adiblarimizning asarlari bilan kitobxonlarimizni tanishtirsak. Qardosh xalqlar adabiyotini ko'proq o'qitish o'sib kelayotgan avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashda ancha yengillikka erishgan bo'lamiz. Bu esa, yosh avlod qalbida qardosh xalq adabiyotiga mehr urug'ini qadab, do'stlik, qon-qardoshlik an'anasini kamol toptirishimizda asos bo'ladi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o'rganuvchi yagona ilmiy markaz, umumiy bibliografik bazalar va standartlashtirilgan o'quv dasturlari mavjud emas. Har bir mamlakat o'z milliy adabiyotini alohida tadqiq etadi, qiyosiy va komparativ tahlil esa hanuz yetarlicha rivojlanmagan.

Tahlil va natijalar. Turkiy xalqlar bolalar adabiyotining tarixiy ildizlari bolalar adabiyotining asosi og'zaki xalq ijodi — folklorda yotadi. Alpomish, Manas, Go'ro'g'li, Dada Qo'rqut kabi eposlar faqat kattalar uchun emas, avloddan avlodga o'tib keladigan tarbiyaviy matnlar sifatida ham qaralishi kerak. "Dada Qo'rqut kitobi" (taxminan IX–XII asrlar) o'g'uz turkiylarining dunyoqarashini, oilaviy qadriyatlarini va bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini yorqin aks ettiradi (Ergin, 1958; Bartold, 1897)[3].

2 Носир Фозилов Устоз сўз латанда... Митти ҳангомалар, адабиёт ҳақида фикрлар, воқеий ҳикояла. –Тошкент: «ШАРҚ», 2007.28-б.

3 ORIPOV D.R. "Dada Qo'rqut" Va "O'g'uznoma" kitobiy

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida turkiy dunyoda jadidchilik harakati g‘oyalari tarqaldi. Ismoil G‘aspirali (Qrim), Abdulla Avloniy (O‘zbekiston), Abdulla Tuqay (Tatariston), Mirzo Fatali Oxundov (Ozarbayjon) kabi mutafakkirlar milliy til va adabiyotni rivojlantirish, yangi maktablar ochish orqali bolalar ma’rifatini yuksaltirishga intildilar. Bu davrda bolalarga mo‘ljallangan darsliklar, she’riy to‘plamlar va nasriy asarlar jadal sur’atda yaratila boshladi

Qiyosiy tahlil.O‘zbek bolalar adabiyoti.

O‘zbek bolalar adabiyoti boy an’analarga ega. Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, Anvar Obidjon, Quddus Muhammadiy, Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi so‘z ustalari bolalarga atab ko‘plab asarlar yaratishgan. “Zumrad va Qimmat”, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” kabi xalq ertaklari va dostonlar bolalar kitobxonligining asosini tashkil etadi[4]. Lekin zamonaviy raqamli muhitda o‘zbek bolalar adabiyotining elektron resurslari hali ham yetarli darajada rivojlanmagan.

Qozoq bolalar adabiyoti.Qozoq bolalar adabiyotida Abay Qo‘nanboyevning she’riy merosi alohida o‘rin tutadi. Tinishtikbek Abdihakimov, Janibek Kijakov va boshqa zamonaviy qozoq yozuvchilari bolalar uchun faol ijod qilmoqda. Qozog‘istonda bolalar adabiyotini o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha davlat dasturlari mavjud bo‘lib, “Balalarga arnalg‘an” jurnali kabi maxsus nashrlar faoliyat ko‘rsatmoqda[5].

Turk bolalar adabiyoti. Turk bolalar adabiyoti Yevropa va turkiy an’analarning uyg‘unlashuvi asosida rivojlangan. Nasriddin Xo‘ja latifalaridan tortib zamonaviy Orhan Pamuk asarlarigacha bo‘lgan keng spektrda bolalar adabiyoti namunalari mavjud. Turk nashriyotlari bolalar kitoblarini chop etishda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Leyla Tekin, Muzaffer Izgig kabi yozuvchilar jahon bolalar adabiyotida ham tanilgan .

Qirg‘iz, ozarbayjon va boshqa turkiy xalqlar adabiyoti

Qirg‘iz bolalar adabiyotida “Manas” eposi asosida yozilgan adaptatsiyalar muhim o‘rin egallaydi. Chingiz Aytmatovning asarlari esa faqat qirg‘iz emas, balki butun turkiy dunyoning faxriga aylangan. Ozarbayjon bolalar adabiyotida Mirza Fatali Oxundov, Jalil Mammadquluzoda an’analari davom ettirilmoqda. Tatar, boshqird, uyg‘ur va turkman bolalar adabiyotlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish zarurati mavjud.

Muammo va yechimlar. Birinchi va eng asosiy muammo — yagona qiyosiy metodologiyaning yo‘qligi. Har bir mamlakat o‘z milliy adabiyotini o‘z mezonlari bilan o‘rganadi. Bundan tashqari, bolalar adabiyotining fanlararo tabiati (adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik, lingvistika) uni o‘rganishda murakkabliklar tug‘diradi. Komparativistika metodologiyasi turkiy xalqlar adabiyotiga yetarlicha qo‘llanilmagan.

Ikkinchi metodologik muammo — tarixiy va zamonaviy matnlarni o‘rganishda birlamchi manbalar bilan ishlashning qiyinligi. Ko‘pgina qadimiy turkiy qo‘lyozmalar hali to‘liq tanqidiy nashrga tayyorlanmagan. O‘rta Osiyo, Kavkaz va Sibir arxivlarida saqlanayotgan ko‘plab bolalarga oid matnlar ilmiy muomalaga kiritilmagan[6].

Turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o‘zaro tarjima qilishda bir qancha to‘siqlarga uchragan tarjimashunoslar qardosh xalqlar adabiyotiga zaruriyat sifatida qaramasligi. Qozoq adabiyotidan sermahsul tarjimalarni qilgan Mirtemir va Nosir Fozilov kabi otaxon adabiyotshunoslarimizning yo‘qligi.

Shuningdek, turkiy bolalar adabiyotini Yevropa tillariga tarjima qilish ham kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Ko‘pchilik asarlar tarjima qilinmagan va shu sababli jahon kitobxonlariga noma’lum. Bu esa turkiy madaniyatning global miqyosda yetarlicha ifodalanmasligi muammosini keltirib chiqaradi.

Ko‘plab nodir turkiy bolalar adabiyoti namunalari faqat qog‘oz shaklida saqlanmoqda va ular yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida. Raqamlashtirish loyihalari ko‘pincha moliyaviy va texnik resurslar yetishmovchiligi tufayli sekin amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, raqamlashtirilgan matnlarning ochiq kirish imkoniyati cheklangan bo‘lib, bu tadqiqotchilar va o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi.

Turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘quv dasturlari va darsliklar ko‘pincha eskirgan yoki yetarli darajada yangilanmagan. Universitetlarda qiyosiy turkiy bolalar adabiyotiga oid maxsus kurslar juda kam o‘qitiladi. Maktab dasturlarida esa qo‘shni turkiy xalqlar adabiyoti deyarli o‘rganilmaydi. Bu vaziyat turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarning susayishiga olib keladi[7].

Ba’zi turkiy xalqlarning adabiy merosi siyosiy sabablar tufayli yetarli e’tibordan mahrum bo‘lgan. Masalan, uyg‘ur bolalar adabiyoti siyosiy vaziyat tufayli tadqiqotchilar uchun qiyin mavzuga aylangan. Qrim tatarlarining adabiy merosi surgunlik yillarida katta qismi yo‘qolgan. Shu kabi ijtimoiy-siyosiy omillar turkiy bolalar adabiyotini to‘liq va obyektiv o‘rganishga to‘sqinlik qiladi.

Taklif. Muammoning asosiy yechimlaridan biri barcha turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o‘z ichiga oladigan yagona

eposlarining qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). Dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.

4 Mirzayev, T. O’zbek bolalar folklorining janrlar tizimi. –Toshkent: Fan, 2002. Sobirov, A.O’zbek bolalar adabiyotining rivojlanish bosqichlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi.2018.

5 Ауэзов, М. (1979). Абай. Алма-Ата: Жазушй. Қозоқ тилидаги болалар адабиёти ҳақида.

6 Кононов, А.Н. (1958). Грамматика современного узбекского литературного язйка. Москва: АН СССР..

7 Толстой, И. (2019). Детская литература тюркскикҳ народов. Москва: Наука. Qodirov, P. O’zbek bolalar adabiyotini o’qitish metodikasi. –Toshkent: TDPU.2020.

elektron kutubxona va ilmiy markaz tashkil etishdir. Bu markazda barcha turkiy tillar uchun qidirish imkoniyatiga ega bo‘lgan, erkin kirish (open access) tamoyiliga asoslangan raqamli arxiv yaratilishi zarur. Türk Dünyası Çocuk Edebiyatı kabi xalqaro loyihalar ushbu yo‘nalishda dastlabki qadamlar sifatida qaralishi mumkin.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar turkiy bolalar adabiyotini o‘rganish va targ‘ib qilishda keng qo‘llanilishi kerak. Shu sababli quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi: birinchidan, turkiy bolalar adabiyoti asarlarini ovozli kitob (audiobook) va interaktiv elektron kitob sifatida tayyorlash; ikkinchidan, maktab o‘quvchilari uchun ilovalar va o‘yin asosidagi o‘quv platformalarini yaratish; uchinchidan, sun’iy intellekt yordamida qadimiy matnlarni tanib olish va transkripsiya qilish; to‘rtinchidan, onlayn kurslar va vebinarlar orqali o‘qituvchilar malakasini oshirish.

Uchinchidan, turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o‘zaro tarjima qilish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqish zarur. Bu dastur doirasida professional tarjimonlar tayyorlash, tarjima qo‘llanmalari yaratish va tarjima loyihalarini moliyalashtirish ko‘zda tutilishi lozim. Shuningdek, turkiy bolalar adabiyotini Yevropa va Osiyo tillariga tarjima qilishni rag‘batlantirish uchun xalqaro mukofotlar va grantlar joriy qilish tavsiya etiladi.

Ta’lim tizimida alohida islohotlarni amalga oshirish lozim. Maktab va universitetlarda turkiy xalqlar bolalar adabiyotini o‘qitish darajasini ko‘tarish uchun quyidagilar zarur: barcha turkiy davlatlar universitetlari o‘rtasida ta’lim hamkorligi o‘rnatish; maktab dasturlariga qo‘shni turkiy xalqlar adabiyotidan namunalar kiritish; o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar va metodologik materiallar tayyorlash; turli yoshdagi o‘quvchilar uchun annotatsiyalangan adabiy to‘plamlar nashr etish zarur deb hisoblaymiz.[8]

Xulosa. Turkiy xalqlar bolalar adabiyoti insoniyatning eng boy va rang-barang madaniy meroslaridan birini tashkil etadi. Ushbu adabiyotni to‘liq va tizimli o‘rganish nafaqat alohida xalqlar manfaatiga, balki butun turkiy sivilizatsiyaning va umumbashariy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy muammolar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni hal etishda kompleks yondashuv zarur. Umumturkiy ilmiy markaz tashkil etish, qiyosiy metodologiyani rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va ta’lim tizimini isloh qilish — bular muammoni hal etishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

8 Qodirov, P.O’zbek bolalar adabiyotini o’qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020. Nazarov, B.Zamonaviy bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti2021.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha, Ilmiy – uslubiy risola. –T.: “Ma’naviyat”, 2017.195- bet.

2.Носир Фозилов Устоз сўз лаганда... Митти ҳангомалар, адабиёт ҳақида фикрлар, воқеий ҳикоялар. –Тошкент: «Шарқ», 2007.28- б.

3.Oripov D.R. “Dada Qo‘rqut” Va “O‘g‘uznoma” kitobiy eposlarining qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). Dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.47-bet.

4. Mirzayev, T. O‘zbek bolalar folklorining janrlar tizimi. –Toshkent: Fan, 2002.

5.Sobirov, A.O‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanish bosqichlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.76-bet.

6. Ауэзов, М. (1979). Абай. Алма-Ата: Жазушй. Қозоқ тилидаги болалар адабиёти ҳақида.

7. Кононов, А.Н. (1958). Грамматика современного узбекского литературного язйка. Москва: АН СССР.

8. Толстой, И. Детская литература тюркскикҳ народов. – Москва: Наука, 2019.

9.Qodirov, P.O‘zbek bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasi. –Toshkent: TDPU, 2020.

10. Nazarov, B.Zamonaviy bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

Uktam YUSUPOV,
(PhD) tadqiqotchi

G‘ARB VA SHARQ ADABIYOTIDA EKZISTENSIAL TALQIN TUSHUNCHASI

Annotatsiya: mazkur maqolada G‘arb va Sharq adabiyotida ekzistensial talqin tushunchasining falsafiy-estetik mohiyati, badiiy tafakkurdagi namoyon bo‘lish shakllari hamda, poetik xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Ekzistensializm insonning mavjudligi, ontologik mohiyati, ruhiy iztiroblari, erkin tanlov, begonalashuv, absurd va ma’naviy inqiroz kabi masalalarni markazga qo‘yuvchi falsafiy-adabiy paradigma sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot davomida G‘arb adabiyotidagi ekzistensial konsepsiyalar modernizm va postmodernizm poetikasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi, Sharq adabiyotida esa ushbu tushunchaning tasavvufiy-falsafiy tafakkur, irfoniy qarashlar va ruhiy komillik konsepsiyasi bilan aloqador jihatlari ochib beriladi. Maqolada ekzistensial talqinning ontologik, aksiologik, antropotsentrik va hermenevtik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *ekzistensializm, ekzistensial talqin, ontologiya, absurd, begonalashuv, modernizm, Sharq adabiyoti, G‘arb adabiyoti, tasavvuf, hermenevtika, antropotsentrizm, ma’naviy inqiroz.*

Annotation: this article examines the philosophical and aesthetic essence of the concept of existential interpretation in Western and Eastern literature, as well as the forms of its manifestation in artistic thinking and its poetic features in a comparative aspect. Existentialism is interpreted as a philosophical and literary paradigm that focuses on such issues as human existence, ontological essence, spiritual suffering, free choice, alienation, absurdity, and spiritual crisis. During the research, existential concepts in Western literature are analyzed in connection with the poetics of modernism and postmodernism, while in Eastern literature the aspects of this concept related to mystical-philosophical thinking, irfanic views, and the concept of spiritual perfection are revealed. The article scientifically and theoretically substantiates the ontological, axiological, anthropocentric, and hermeneutic features of existential interpretation.

Key words: *existentialism, existential interpretation, ontology, absurdity, alienation, modernism, Eastern literature, Western literature, Sufism, hermeneutics, anthropocentrism, spiritual crisis.*

Аннотация: в данной статье в сравнительном аспекте исследуются философско-эстетическая сущность понятия экзистенциальной интерпретации в западной и восточной литературе, формы её проявления в художественном мышлении, а также поэтические особенности. Экзистенциализм интерпретируется как философско-литературная парадигма, в центре которой находятся такие проблемы, как человеческое существование, онтологическая сущность, духовные страдания, свобода выбора, отчуждение, абсурд и духовный кризис. В ходе исследования экзистенциальные концепции западной литературы анализируются в связи с поэтикой модернизма и постмодернизма, а в восточной литературе раскрываются аспекты данного понятия, связанные с суфийско-философским мышлением, ирфаническими взглядами и концепцией духовного совершенства. В статье научно и теоретически обосновываются онтологические, аксиологические, антропоцентрические и герменевтические особенности экзистенциальной интерпретации.

Ключевые слова: *экзистенциализм, экзистенциальная интерпретация, онтология, абсурд, отчуждение, модернизм, восточная литература, западная литература, суфизм, герменевтика, антропоцентризм, духовный кризис.*

Kirish. XX asr adabiy tafakkurida inson va uning mavjudlik mohiyatini anglash masalasi markaziy falsafiy-estetik muammolardan biriga aylandi. Jahon miqyosidagi siyosiy inqirozlar, urushlar, urbanizatsiya, texnogen sivilizatsiyaning jadallashuvi hamda an’anaviy qadriyatlarning yemirilishi inson ruhiyatida chuqur ma’naviy bo‘shliqni yuzaga keltirdi. Natijada adabiyotda insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, yolg‘izligi va ma’nisizlik hissi bilan bog‘liq konsepsiyalar shakllandi. Ana shunday falsafiy-estetik yo‘nalishlardan biri ekzistensializmdir.

Ekzistensializm insonning ontologik holatini, ya’ni uning “mavjud bo‘lish” mohiyatini tadqiq etuvchi falsafiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Ushbu oqim vakillari inson hayotining oldindan belgilangan mohiyati yo‘qligini, inson o‘z mavjudligini o‘zi yaratishini ta’kidlaydi. Shu bois ekzistensializmda erkinlik, tanlov, javobgarlik, qo‘rquv va absurd tushunchalari asosiy kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ekzistensial talqin badiiy matnda inson ruhiyatining chegaraviy holatlarini, ichki konfliktlarni va ontologik iztiroblarni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur talqin G‘arb adabiyotida modernistik poetika bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lsa, Sharq adabiyotida u ko‘proq irfoniy-falsafiy tafakkur va tasavvufiy konsepsiyalar orqali ifodalanadi.

Tahlil va natija. Ekzistensializm falsafasining nazariy ildizlari XIX asr falsafiy tafakkuriga borib taqaladi. Søren Kierkegaard insonning subyektiv haqiqatini va ruhiy iztiroblarini mavjudlikning markaziy mezoni sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, insonning haqiqiy mavjudligi ichki tanlov va ma’naviy mas’uliyat orqali namoyon bo‘ladi. Kierkegaard insonning “qo‘rquv” va “umidsizlik” holatini ekzistensial tajribaning muhim tarkibiy qismi sifatida izohlaydi.

F.Nietzsche esa ekzistensial tafakkurda “xudoning o‘limi” konsepsiyasini ilgari surib, insonning mutlaq erkinligi va individual irodasini markazga qo‘ydi. Nietzsche falsafasida

inson jamiyat tomonidan yaratilgan sun’iy qadriyatlardan voz kechib, o‘z mohiyatini o‘zi yaratishi kerak.

XX asrga kelib M.Heidegger ekzistensializmni ontologik asosda rivojlantirdi. Uning “Dasein” konsepsiyasi insonning “olam ichida mavjud bo‘lish” holatini ifodalaydi. Heidegger insonning vaqtinchalikligi va o‘limni anglash orqali haqiqiy mavjudlikka erishishini ta’kidlaydi. Ekzistensializmning adabiyotdagi shakllanishida Jean-Paul Sartre hamda, A.Camus muhim o‘rin tutadi. Sartre insonning erkinligini mutlaq kategoriya sifatida talqin qilsa, Camus absurd konsepsiyasini ilgari suradi. Camus nazarida inson hayoti obyektiv ma’noga ega emas, biroq inson ushbu absurdlikka qarshi ongli ravishda kurash olib borishi lozim.

G‘arb adabiyotida ekzistensial talqin modernizm va postmodernizm poetikasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Modernistik adabiyotda insonning ichki olami, psixologik konfliktlari va ontologik iztiroblari yetakchi mavzuga aylandi. Xususan, F.Kafka asarlarida insonning byurokratik tizim va jamiyat qarshisidagi ojizligi ekzistensial inqirozning badiiy ifodasidir. “The Trial” romanida Jozef K obrazining noma’lum ayb tufayli sud qilinishi absurd olam va insonning ma’nisiz tizim qarshisidagi himoyasizligini anglatadi. Kafka poetikasida “begonalashuv” va “indondan yiroqlashuv” motivlari markaziy o‘rin egallaydi.

A.Camusning “The Stranger” romanida esa, absurd falsafasi asosiy konseptual markaz hisoblanadi. Asar qahramoni Merso jamiyatning axloqiy stereotiplariga moslasholmaydi va mavjudlikning ma’nisizligini anglash orqali ekzistensial begonalashuvni boshdan kechiradi.

Jean-Paul S.Nausea romanida esa, “ko‘ngil aynishi” metaforasi insonning mavjudlikdan bezovtaligi va ontologik bo‘shlig‘ini ifodalaydi. Sartre poetikasida insonning erkinligi bir vaqtning o‘zida fojiaviy mas’uliyat sifatida talqin qilinadi.

G‘arb ekzistensial adabiyotining yana bir muhim jihati — vaqt va makonning fragmentar talqinidir. Modernistik matnlarda an’anaviy syujet yemiriladi, ichki monolog, ong oqimi, psixologik introspeksiya kabi usullar faol qo‘llaniladi. Bu esa inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy ochib berishga xizmat qiladi.

Sharq adabiyotida ekzistensial talqin G‘arbdagi kabi keskin absurd va nihilistik xarakterga ega emas. Aksincha, Sharq tafakkurida insonning mavjudligi ma’naviy komillik, ilohiy haqiqat va ruhiy uyg‘unlik bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Tasavvuf adabiyoti Sharq ekzistensial tafakkurining muhim manbalaridan biridir. Tasavvufda insonning ichki olami, nafs bilan kurashi, ruhiy poklanish va “haqiqat”ni izlash masalalari markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan tasavvufiy poetika ekzistensial mazmun kasb etadi.

Jalal ad-Din Rumi ijodida insonning ilohiy muhabbat orqali o‘z mohiyatini anglashi ekzistensial kamolot sifatida talqin qilinadi. Rumiy she’riyatida ruhiy yolg‘izlik fojiaviy emas, balki ilohiy haqiqat sari yetaklovchi metafizik tajriba hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ham insonning mavjudlik mohiyati falsafiy-estetik ruhda yoritiladi. Ayniqsa, “Hayrat ul-abror” asarida dunyoning o‘tkinchiligi, insonning ma’naviy mas’uliyati va komillikka intilishi ekzistensial mazmun kasb etadi.

Sharq adabiyotida *“fano”* va *“baqo”* konsepsiyalari ham ekzistensial mohiyatga ega. *“Fano”* insonning moddiy *“men”*dan voz kechishini, *“baqo”* esa, ilohiy haqiqat bilan uyg‘unlashuvni anglatadi. Bu tushunchalar Sharq ekzistensializmining mistik-ontologik asosini tashkil etadi.

Sharq va G‘arb adabiyotidagi ekzistensial qarashlar o‘rtasida umumiylik bilan birga muhim tipologik tafovutlar uchraydi. Har ikki makonda insonning ichki dunyosi va mavjudlik muammosi markaziy obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq G‘arb ekzistensializmida inson ko‘pincha yolg‘iz, foniy olam ichidagi fojiaviy mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Sharq tafakkurida esa insonning ruhiy izlanishi ilohiy uyg‘unlikka olib boruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. G‘arb ekzistensializmida isyon va individualizm ustuvor bo‘lsa, Sharq adabiyotida sabr, tafakkur va ruhiy poklanish konsepsiyalari yetakchi hisoblanadi.

Bundan tashqari, G‘arb ekzistensial poetikasida urbanistik muhit, texnogen sivilizatsiya va ijtimoiy begonalashuv muhim rol o‘ynaydi. Sharq poetikasida esa tabiat, ruhiy tafakkur va metafizik uyg‘unlik asosiy estetik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Shunday qilib, ekzistensial talqin G‘arb va Sharq adabiyotida insonning mavjudlik mohiyatini badiiy-falsafiy jihatdan anglashning muhim shakli hisoblanadi. G‘arb adabiyotida ushbu talqin absurdlik, begonalashuv va ontologik inqiroz bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lsa, Sharq adabiyotida u ruhiy komillik, ilohiy haqiqat va ma’naviy uyg‘unlik konsepsiyalari bilan uzviy aloqada rivojlangan. Ekzistensial poetika inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib berish orqali zamonaviy adabiyotning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ekzistensial talqinni qiyosiy aspektda tadqiq etish Sharq va G‘arb adabiy tafakkuridagi antropotsentrik va ontologik paradigmalarning o‘zaro munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jean-Paul Sartre. Being and Nothingness. – New York: Philosophical Library, 1956. – 784 p.
2. Jean-Paul Sartre. Nausea. – London: Penguin Books, 2000. – 190 p.
3. Albert Camus. The Myth of Sisyphus. – London: Penguin Modern Classics, 2005. – 159 p.
4. Albert Camus. The Stranger. – New York: Vintage International, 1989. – 123 p.
5. Franz Kafka. The Trial. – New York: Schocken Books, 1998. – 255 p.
6. Franz Kafka. The Metamorphosis. – New York: Bantam Classics, 1986. – 128 p.
7. Martin Heidegger. Being and Time. – Oxford: Blackwell Publishing, 1962. – 589 p.

To‘xtamurod RAJABOV,
BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
Maftuna DAVRONOVA,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi ikkinchi bosqich magistranti

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA UCHRAYDIGAN OBRAZLARNING YANGI MA’NO KASB ETISHI

Annotatsiya: folklor obrazlarining asosiy xususiyati ularning umumlashgan va tipik xarakterga egaligidadir. Qahramonlik, tabiat, ona, yurt, yo‘l, tun, yorug‘lik, suv, daraxt kabi obrazlar xalq og‘zaki ijodida muayyan ramziy ma’nolar bilan barqarorlashgan. Ushbu obrazlar orqali xalq hayotiy tajribasini, axloqiy qarashlarini va estetik tasavvurlarini badiiy shaklda ifodalagan. Shu bilan birga, folklor obrazlari voqelikni bevosita emas, balki ramziy va timsolli tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu jihat ularning keyingi adabiy jarayonlarda qayta talqin qilinishiga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: *semantik va ramziy tizim, kollektiv tafakkur, obraz, ramziy va tipik xarakter, funksional o‘zgarish, poetik mexanizm, fragmentar, assotsiativ, epik kontekst...*

Annotation: the main feature of folklore images is their generalized and typical character. Images such as heroism, nature, mother, homeland, road, night, light, water, tree have been stabilized in folk oral creativity with certain symbolic meanings. Through these images, the people expressed their life experience, moral views and aesthetic imaginations in artistic form. At the same time, folklore images are distinguished by the fact that they reflect reality not directly, but symbolically and figuratively. This aspect allows them to be reinterpreted in subsequent literary processes.

Key words: *semantic and symbolic system, collective thinking, image, symbolic and typical character, functional change, poetic mechanism, fragmentary, associative, epic context...*

Аннотация: главная особенность фольклорных образов — их обобщённый и типичный характер. Такие образы, как героизм, природа, мать, родина, дорога, ночь, свет, вода, дерево, закрепились в народном устном творчестве с определёнными символическими значениями. Через эти образы люди выражали свой жизненный опыт, нравственные взгляды и эстетические представления в художественной форме. При этом фольклорные образы отличаются тем, что отражают реальность не напрямую, а символически и образно. Этот аспект позволяет переосмысливать их в последующих литературных процессах.

Ключевые слова: *семантическая и символическая система, коллективное мышление, образ, символический и типичный характер, функциональные изменения, поэтический механизм, фрагментарный, ассоциативный, эпический контекст...*

Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkurning eng qadimiy va barqaror qatlamini tashkil etib, unda millatning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va estetik ideallari mujassamlangan. Folklor asarlari avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib, badiiy obrazlar orqali xalqning borliq haqidagi tasavvurlarini shakllantirib kelgan. Shu bois xalq og‘zaki ijodida vujudga kelgan obrazlar tasodifiy emas, balki uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan semantik va ramziy tizim mahsulidir. Ular xalqning kollektiv tafakkurida mustahkam o‘rin egallab, an’anaviy ma’no doirasiga ega bo‘lgan.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish an’anaviylikni saqlab qolish maqsadidagina emas, balki badiiy tafakkurni yangilash ehtiyoji bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Natijada xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan obrazlar zamonaviy she’riyatda yangi semantik qatlam bilan boyib, novator mazmun kasb etadi.

Mazkur jarayonda folklor obrazining funksiyasi ham o‘zgaradi. Agar xalq og‘zaki ijodida obraz ko‘proq jamoaviy ongni ifodalagan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda u individual tafakkur va shaxsiy mushohadani ifodalovchi estetik vositaga aylanadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi asosiy obrazlar va ularning an’anaviy ma’nosi

Obraz turi	Folklordagi an’anaviy ma’no	Asosiy janrlar
Qahramon	Jasorat, kuch, el-yurtni himoya qilish	Doston
Ona	Mehr, hayot manbai, fidoyilik	Doston, rivoyat
Yurt	Muqaddas makon, vatanparvarlik	Doston, afsona

Yo‘l	Sinov, sarguzasht, maqsad sari harakat	Ertak, doston
Suv	Hayot, poklanish, yangilanish	Ertak, afsona
Daraxt	Avlodlar davomiyligi, baraka	Afsona
Tun	Xavf, sir, sinov	Ertak
Yorug‘lik	Najot, ezgulik, haqiqat	Ertak, rivoyat

Xalq og‘zaki ijodida tabiat obrazlari, odatda, uyg‘unlik va muvozanat timsoli sifatida tasvirlangan. Zamonaviy she’riyatda esa ushbu obrazlar inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, ichki bo‘shliq yoki ma’naviy izlanishlarning badiiy ifodasiga aylanishi kuzatiladi.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodida yo‘l obrazi ko‘pincha hayot sinovlari va taqdir ramzi sifatida talqin etilgan. Zamonaviy she’riyatda esa yo‘l obrazi ko‘proq shaxsiy izlanish, ma’naviy sarsonlik yoki o‘zlikni anglash jarayonining timsoliga aylanadi. Bu yerda obrazning tashqi shakli saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning ichki mazmuni zamon tafakkuriga mos ravishda yangilanadi. Aynan mana shu jarayon novator obrazlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Folklor obrazlarining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning umumlashgan va tipik xarakterga egaligidir. Xalq og‘zaki ijodida yaratilgan obrazlar muayyan shaxs yoki alohida hodisani emas, balki butun jamiyat uchun xos bo‘lgan hayotiy tajriba, axloqiy me’yor va estetik tasavvurlarni ifodalaydi. Shu bois folklor obrazlari individual emas, balki kollektiv tafakkur mahsuli sifatida shakllanadi. Ular xalqning dunyoqarashi, borliqni anglash usuli va qadriyatlar tizimini ramziy shaklda mujassamlashtiradi.

Masalan, qahramonlik obrazi xalq dostonlarida jismoniy kuch yoki jasoratni emas, balki adolat, vatanparvarlik, sadoqat va fidoyilik kabi axloqiy fazilatlarning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu qahramon shaxsiy manfaatini emas, jamoa manfaatini ustun qo‘yadi, shu orqali umumlashgan ijtimoiy idealni ifodalaydi. Shuning uchun ham bunday obrazlar aniq tarixiy shaxsdan ko‘ra, ramziy va tipik xarakterga ega bo‘ladi. “Alpomish” dostonida markaziy qahramon obrazi xalqning jasorat, sadoqat va vatanparvarlik haqidagi idealini mujassamlashtiradi. Alpomish obrazi an’anaviy folklor kontekstida jismoniy qudrat va epik qahramonlik timsoli bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda ushbu obraz ko‘pincha ichki matonat, ma’naviy qarshilik va shaxsiy mas’uliyat ramziga aylantiriladi.

Xuddi shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi qahramon obrazi folklorda adolat va erkinlik uchun kurashuvchi xalq yetakchisi sifatida talqin etiladi. Zamonaviy poetik tafakkurda esa Go‘ro‘g‘li obrazi ko‘proq isyonkor ruh, ichki norozilik va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ma’naviy qarshilik timsoliga aylantiriladi. Bu holatda folklor obrazi tashqi jangovar ma’nodan ichki ruhiy va falsafiy ma’noga ko‘chadi.

Tabiat obrazlari ham folklorda muhim ramziy ma’noga ega. Quyosh, oy, suv, daraxt, tog‘, tun va yorug‘lik kabi obrazlar xalq og‘zaki ijodida faqat tabiiy hodisa sifatida emas, balki hayot, poklik, barqarorlik, sirli kuch yoki o‘zgarish timsoli sifatida talqin etiladi. Masalan, suv obrazi ko‘pincha hayot manbai, poklanish va yangilanish ramzi sifatida qo‘llanadi. Ertak va afsonalarda suvdan o‘tish, suv ichish yoki suv bilan bog‘liq sinovlar qahramonning yangi bosqichga ko‘tarilishini bildiradi. Daraxt obrazi esa ildiz, davomiylik va avlodlar uzviyligi ramzi sifatida barqarorlashgan.

Tabiat va makon obrazlarining yangicha talqini “Rustamxon” kabi dostonlar misolida ham yaqqol ko‘rinadi. Mazkur dostonda yo‘l, sahro, tun kabi obrazlar qahramonning jismoniy sinovlari bilan bog‘liq bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda ushbu obrazlar shaxsning ichki yo‘li, ma’naviy izlanishi va ruhiy yolg‘izligi ramziga aylanadi. Yo‘l obrazi tashqi harakat emas, balki ichki o‘zgarish jarayonini anglatadi. Shuningdek, “Kuntug‘mish” va “Avazxon” dostonlaridagi yurt, ona va nasl davomiyligi bilan bog‘liq obrazlar zamonaviy she’riyatda milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy ildizlarga qaytish g‘oyalarini ifodalashda faol qo‘llaniladi. Bu obrazlar orqali shoirlar bugungi insonning ildizsizlanish muammosi, madaniy xotiraning uzilishi va milliy qadriyatlar inqirozini poetik tarzda talqin etadilar.

Ona va yurt obrazlari folklorda alohida estetik va ma’naviy yuklama bilan namoyon bo‘ladi. Ona obrazi mehr-shafqat, fidoyilik va hayot manbai sifatida umumlashtirilgan bo‘lsa, yurt obrazi muqaddas makon, himoya va sadoqat timsoli sifatida ifodalanadi. Bu obrazlar xalqning axloqiy qarashlarini va ma’naviy qadriyatlarini badiiy shaklda mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu sababli ona va yurt obrazlari folklorda doimiy ravishda ijobiy semantik maydonda tasvirlanadi.

Yo‘l obrazi xalq og‘zaki ijodida hayot yo‘li, taqdir va sinovlar ramzi sifatida talqin etiladi. Ertak va dostonlarda qahramonning yo‘lga chiqishi uning ruhiy va axloqiy yetuklik sari yo‘l olishini anglatadi. Tun va yorug‘lik obrazlari esa ezgulik va yovuzlik, bilish va bilmaslik, umid va noumidlik qarama-qarshiligini ifodalovchi timsollar sifatida shakllangan.

Zamonaviy she’riyat ana shu ramziy va umumlashgan obrazlarni yangi kontekstda qo‘llab, ularning ma’no doirasini kengaytiradi. Folklorda barqaror semantik

maydonga ega bo‘lgan obrazlar zamonaviy shoir tafakkurida shaxsiy kechinmalar, ijtimoiy muammolar va falsafiy mushohadalar bilan boyitiladi. Natijada folklor obrazlari an’anaviy shaklni saqlagan holda, mazmunan yangilanib, novator badiiy vositaga aylanadi.

Folklor obrazlarining zamonaviy she’riyatda yangicha mazmun kasb etish jarayonini anglashda semantik siljish tushunchasi muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Semantik siljish folklor obrazining dastlabki, barqarorlashgan ma’nosidan ajralib, yangi tarixiy, ijtimoiy va estetik kontekstda qayta talqin qilinishi bilan bog‘liq jarayondir. Xalq og‘zaki ijodida obrazlar muayyan ramziy maydonda qat’iy mustahkamlangan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda ushbu ramziy maydon kengayadi yoki boshqa ma’no qatlamlari bilan to‘ldiriladi. Natijada obrazning tashqi shakli saqlanib qolgan holda, uning ichki mazmuni o‘zgaradi. Bu o‘zgarish obrazni zamonaviy poetik tafakkur ehtiyojlariga moslashtiradi.

Semantik siljish ko‘pincha obrazning kollektiv ma’nodan individual ma’noga ko‘chishi orqali namoyon bo‘ladi. Folklorda umumxalq tajribasini ifodalagan obraz zamonaviy she’riyatda shaxsiy kechinmalar, ichki iztiroblar yoki individual falsafiy qarashlarning ifodasiga aylanadi. Masalan, yo‘l obrazi folklorda hayot sinovlari va taqdir ramzi sifatida barqarorlashgan bo‘lsa, zamonaviy poetik matnda u shaxsning ichki izlanishi, ma’naviy ikkilanmasi yoki ruhiy yolg‘izligini anglatishi mumkin. Bu holatda semantik siljish obrazning yangi estetik vazifani bajarishiga zamin yaratadi. Semantik siljish bilan chambarchas bog‘liq holda folklor obrazlarining funksional o‘zgarishi ham kuzatiladi. Funksional o‘zgarish obrazning badiiy matndagi vazifasining almashuvi bilan ifodalanadi.

Masalan, dostonlarda tun obrazi qahramon boshidan kechiradigan sinov yoki xavf belgisi sifatida xizmat qilgan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda tun ko‘pincha ruhiy iztirob, yolg‘izlik yoki ichki sukut holatini ifodalovchi lirik ramzga aylanadi. Bu holatda obrazning funksiyasi tashqi harakatni tasvirlashdan ichki psixologik holatni aks ettirishga ko‘chadi. Shu tariqa folklor obrazlari zamonaviy poetik matnda konseptual va falsafiy vazifa bajaradigan badiiy birlikka aylanadi. Semantik va funksional o‘zgarishlar individual poetik tafakkur bilan bevosita bog‘liqdir. Individual poetik tafakkur shoirning borliqni idrok etish usuli, estetik qarashlari, ruhiy tajribasi va dunyo haqidagi subyektiv mushohadalarini o‘zida mujassam etadi.

Individual poetik tafakkur ta’sirida folklor obrazlari fragmentar, assotsiativ va ko‘p ma’noli tus oladi. Shoir obrazni to‘liq epik kontekstda emas, balki qisqa poetik ishora, ramziy detal yoki metaforik birlik sifatida qo‘llaydi. Natijada obraz ixcham shaklda bo‘lsa-da, semantik jihatdan chuqur va talqinga ochiq bo‘ladi. Bu holat zamonaviy she’riyatga xos bo‘lgan ko‘p qatlamlilik va ochiq ma’no tamoyillarini kuchaytiradi.

Shunday qilib, semantik siljish folklor obrazining ma’no doirasini yangilasa, funksional o‘zgarish uning badiiy matndagi vazifasini qayta belgilaydi, individual poetik tafakkur esa ushbu jarayonlarga subyektivlik va estetik rang-baranglik baxsh etadi. Ushbu uch omilning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy o‘zbek she’riyatida folklor obrazlarining novator mazmun kasb etishiga va badiiy tafakkurning yangilanishiga xizmat qiladi. Aynan shu jarayon folklor va zamonaviy she’riyat o‘rtasidagi ijodiy davomiylikni ta’minlaydigan asosiy poetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Радлов В.В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. Ч.5. Наречие дикокаменных киргизов. – СПб., 1885. С.89.
2. Mirzayev, T. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti. O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981, 28–29-b.
3. Fedakar Selami. O‘zbek dostonchilik an’anasida va boshqa turkiy xalqlar dostonchilik maktablarida nomlash va tasnif // “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy– amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2019. 40-b.
4. Басилов В. Н. Кёр-оглы // Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 1. – М.: «Советская энциклопедия», 1991, стр. 641.
5. Abdullayev R.M. Dostonlar va ularning janr xususiyatlari.// Inter education & global study. 2025. №1(1). 294–299-b.
6. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 165–279.
7. Mircha Eliade. Cosmos and history; the myth of the eternal return. 1959. 40 p.

Laylo TO‘RAYEVA,
BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

FOLKLORDA DEHQON MAROSIMLARINING YANGICHA MA’NO XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: xalqimiz dehqonchilik bilan juda qadimdan shug‘ullanib kelgan va o‘zining bu boradagi estetik qarashlarini og‘zaki ijod namunalarida ifoda etib kelgan. Yerdan unumli hosil olish maqsadida dehqonlar bir qancha marosimlar o‘tkazishgan. Maqolada “Qo‘sh chiqarish”, “Shox moylar”, “Oblo baraka” kabi dehqonchilik marosimlari haqidagi ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *“Qo‘sh chiqarish”, “Shox moylar”, “Oblo baraka”, marosim, dehqon xo’jaliklari, mehnat resurslari.*

Аннотация: наш народ издавна занимается сельским хозяйством и выражает свои эстетические взгляды на этот вопрос в примерах устного творчества. Для получения обильного урожая земледельцы совершали ряд ритуалов. В статье представлены научные наблюдения за такими земледельческими ритуалами, как “Куш чикариш”,”Шох мойлар”, “Обло барака”.

Ключевые слова: *“Освобождение двойника”, “Шох Мойлар”, “Обло Барака», ритуал, крестьянские хозяйства, трудовые ресурсы.*

Annotation: our people have long been engaged in agriculture and express their aesthetic views on this issue through examples of oral tradition. To ensure a bountiful harvest, farmers performed a number of rituals. This article presents scientific observations of such agricultural rituals as “Kush chikarish”, “Shoh moylar,” and “Oblo baraka.”

Key words: *“Releasing the double,” “Shoh moylar,” “Oblo baraka,” ritual, farming, labor force.*

Bahor kelishi ayniqsa, dehqonlar yumushi ko‘paygan va ularni amalga oshirish uchun dehqonlar turli marosimlarni o‘tkazishgan. Bahorda dehqonlarning dastlabki vazifasi – yerga urug‘ qadash bo‘lib, o‘zlarining asosiy ish quroli bo‘lgan omochni ho‘kizga qo‘shib, bu jarayonda vaqtichog‘lik qilib, bir-birlariga xush kayfiyat bag‘ishlaganlar. Jumladan, “Loy tutish”, “Qo‘sh chiqarish”, “Shox moylar”, “Oblo baraka” kabi ritual marosimlarni o‘tkazishgan.

“Qo‘sh” marosimlarining kelib chiqish omillari juda qadim davrlarga borib taqaladi. “Qo‘sh” so‘zi o‘zbek tilida “juft”, “qo‘shma”, “birlashma” ma’nolarini anglatadi. Qo‘sh marosimlari qadimgi turkiy qabilalarning qo‘shin tuzish, urush yoki ov paytida kuchlarni birlashtirish an’analaridan kelib chiqqan. Keyinchalik bu an’ana dehqonlar hayotiga ham o‘tgan va ikki yoki undan ortiq xonadonlarning qishloq xo‘jaligi resurslarini birlashtirish, qo‘shma mehnat qilish shaklida rivojlangan. “Qo‘sh” marosimlari – o‘zbek dehqonchiligida juftlash, birlashish va hamkorlikni ifodalovchi an’analar majmuasidir. Bu marosimlar asosan, ikki yoki undan ortiq dehqon xo‘jaliklarining qo‘shilishi, yer va mehnat resurslarining birlashtirilishi, shuningdek, qishloq jamoasining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.

“Qo‘sh” marosimlari o‘zbek xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutuvchi an’analar majmuasidir. Ular orqali xalqimizning jamoa ruhi, mehnatsevarlik, o‘zaro yordam va saxovat kabi asosiy qadriyatlari ifodalangan. Zamonaviy sharoitda bu an’analarning saqlanib qolishi va rivojlanishi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki qishloq jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi.

“Qo‘sh” marosimlari o‘zbek qishloq jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Bu marosimlar orqali kichik dehqon xo‘jaliklari o‘z resurslarini birlashtirib, yirik maydonlarni samarali haydash imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Shuningdek, bu an’ana qishloq jamoasidagi ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlagan.

“Qo‘sh yer haydash” marosimida ikki qo‘shni dehqon ish hayvonlarini juftlashtirib, katta maydonni birgalikda haydashadi. Bu jarayonda maxsus “Qo‘sh hayda” qo‘shig‘i ijro etiladi. Marosim oxirida hosil adolatli taqsimlanadi yoki qo‘shma dasturxon yozilib, turli noz-ne’matlar ehson qilinadi.

“Qo‘sh hasharchilik” marosimida butun qishloq aholisi yangi uy qurish yoki hovlilarni ta’mirlash uchun birgalikda ishlaganlar. Kunning oxirida esa katta dasturxon yozilib, *“Qo‘sh”* qo‘shiqlari kuylangan va raqsga tushishgan.

Bugungi kunda ham *“Qo‘sh”* marosimlarining an’anaviy shakllari yangi ko‘rinishda o‘tkazilib kelinmoqda. Fermerlar o‘rtasidagi kooperatsiyalar, qishloq xo‘jaligi klasterlari, mahalla tashabbus guruhlari – bularning barchasi qadimgi *“Qo‘sh”* an’analarining zamonaviy davomchilaridir. Bu tashkilotlar qadimgi an’analarning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarini zamonaviy shaklda amalga oshiradilar.

“Qo’sh” marosimlari o‘zbek madaniyatida chuqur ildizlarga ega bo‘lgan qadimiy udumlardan bo‘lib, ular xalqimizning hayotiy falsafasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Bu an’analar bizga birlikda kuch, hamkorlikda muvaffaqiyat borligini eslatadi. Individualizm va raqobat kuchayayotgan bugungi kunda *“Qo‘sh”* marosimlarining o‘tkazilishi va ulardan olinadigan ma’naviy qadriyatlar butun insoniyat uchun muhim o‘rin tutadi. Ular yoshlar tarbiyasida ham katta ahamiyatga ega. Bu marosimlar orqali yosh avlod jamoada ishlash, o‘zaro hurmat qilish, kattalarga izzat ko‘rsatish kabi fazilatlarni targ‘ib etadi.

“Shox moylar” bahorgi ekin ekish mavsumi boshida o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, turli ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Bu marosim faqatgina ho‘kiz shoxlarini moylash bilan bog‘liq emas, balki yangi hosilga kirishga tayyorlanayotgan daraxt va nihollarni moylash ma’nosini ham ifodalaydi. Uning asosiy maqsadi yangi mavsumga omad tilash, yerning unumdorligini oshirish va hosildorlikni rag‘batlantirishdan iborat. Marosim nomi “shox” (daraxt shoxlari, novdalar) va “moy” (yog‘, moy) so‘zlaridan olingan bo‘lib, daraxt shoxlarini moylash ma’nosini bildirib, bu orqali unumdorlikni oshirish orzu-istagi ulug‘lanadi.

“Shox moylar” marosimi qadimgi turkiy xalqlarning totemik e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lib, bunda daraxt shoxlari – hayot, o‘sish va unumdorlik ramzi sifatida qaralgan. Marosim bahorning dastlabki kunlarida, daraxtlar kurtak yoza boshlagan paytda o‘tkaziladi. Bu tabiatning uyg‘onishi va yangi hayot boshlanishi bilan bog‘liq. Marosimda daraxt shoxlariga yog‘ surtish (bugungi kunda daraxtlarni oqlash) orqali ularning tez o‘sishi va serhosil bo‘lishi nazarda tutilgan.

Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi davrlarda ham Markaziy Osiyo aholisi daraxt shoxlariga maxsus moy surtish orqali ularni himoya qilishgan. Qadimgi so‘g‘d madaniyatida, jumladan, muqaddas “Avesto” kitobida daraxtlarni muqaddas hisoblab, ularga atab turli marosimlar o‘tkazish an’ana bo‘lganligi haqida aytiladi.

Marosimning asosiy bosqichlari va tartibi:

1.*Dastlabki tayyorgarlik*. Yangi novdalar va daraxt shoxlarini tanlash. Bunda marosim joyini va shoxlarga surtiladigan moylarni tayyorlash uchun tadorik ko‘rilgan. Marosim uchun asosan, zig‘ir, kunjut yoki zaytun yog‘idan foydalanilgan.

2.*Marosimni o‘tkazish*. Maxsus tayyorlangan yog‘larni oldindan tayyorlab qo‘yilgan daraxt shoxlariga surtish.

3.*Yakuniy qism.* Daraxtlar atrofida, tabiat qo‘ynida qo‘shiqlar kuylab, raqsga tushishgan va marosim oxirida ishtirokchilarga daraxt novdalaridan sovg‘a qilishgan.

“Shox moylar” marosim qo‘shiqlari asosan, bahor va yashillik, yangilanish fasliga bag‘ishlangan. Ularda tabiat go‘zalligi va uning mo‘jizalari ulug‘langan. Masalan:

Shox moyladik, bahor keldi,
Yer yuzi ko‘k libos kiydi.
Har novdada yangi umid,
Novdalar yangi to‘n kiydi.

Bu qo‘shiqda bahorning kelishi va tabiatning yangi libos kiygani tasvirlangan. Har novda va bargda yangi umid va hayot borligi ta’kidlangan. Xudoga shukrona va yangi mavsumga omad tilash mavzusi ohangga solingan. Qo‘shiqning ohangi quvnoq va umid bilan to‘la bo‘lib, yangi mavsumning quvonchli kayfiyatini ifodalaydi.

“Shox moylar” marosimida har bir ramz chuqur ma’noviy mazmunga ega. Daraxt shoxlari nafaqat o‘simlik, balki butun hayotning ramzidir. Moy surtish orqali daraxtga baraka, kuch va unumdorlik berish maqsadi nazarda tutilgan.

Marosim davomida katta yoshli dehqonlar yoshlarga daraxtlarni qanday parvarish qilish kerakligini o‘rgatadilar. Ular daraxt shoxlarini qanday kesish, ularga qanday g‘amxo‘rlik qilish kerakligini amaliy ko‘rsatadilar. Bu an’ana orqali bog‘dorchilik bilimlari avloddan avlodga o‘tadi.

“Shox moylar” marosimi nafaqat diniy-e’tiqodiy marosim, balki kuchli ijtimoiy-psixologik ta’sirga ega. U odamlarga yangi mavsumga ishonch va umid bilan kirishga yordam beradi. Jamoa a’zolari birgalikda marosim o‘tkazish orqali o‘zaro munosabatlarni mustahkamlaydilar. Bu marosim yosh avlodda kattalarga hurmat, tabiatga muhabbat fazilatlarini tarbiyalaydi.

“Shox moylar” marosimi o‘zbek xalqining qadimiy madaniy merosining muhim qismi bo‘lib, u orqali xalqimizning tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasi, ekologik ongi va ma’naviy qadriyatlari ifodalangan. Marosimning zamonaviy sharoitda saqlanib qolishi va rivojlanishi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki yosh avlodni sog‘lom va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir dehqon marosimlaridan “Oblo baraka” hosil terimidan keyin minnatdorchilik va baraka tilash maqsadida o‘tkaziladi. Marosimning nomi “ob” (suv) va “baraka” (to‘kin- sochinlik, farovonlik) so‘zlaridan olingan bo‘lib, suv va hosilning uyg‘unligini ifodalaydi.

“Oblo baraka” marosimi ming yillik an’analarga ega bo‘lib, uning ildizlari qadimgi turkiy xalqlarning animistik e’tiqodlariga borib taqaladi. Marosim hosil terib bo‘lingach, yangi hosil bilan tayyorlangan ovqatlar va maxsus qo‘shiqlar orqali tabiat qudratlariga minnatdorchilik bildirish maqsadida o‘tkazilgan. Bu marosim orqali xalq nafaqat o‘tgan mavsum uchun minnatdorchilik bildiradi, balki kelasi mavsumga baraka, omad tilagan.

Marosim boshlanishidan oldin, ayollar yangi bug‘doy unidan non pishirishadi, yangi mevalardan holva tayyorlashadi. Erkaklar esa maxsus o‘choq qurib, unda qurbonlik uchun hayvon so‘yadilar. Marosim joyi yangi hosil guldastalari va rangli matolar bilan bezatiladi.

Oblo baraka, yerimizga,
Yangi hosil, ne’matlarga.
Suv berdi Xudo, quyosh berdi,
Mehnatimiz zoye ketmadi.
Har bir donda barakat,
Har bir poyada hayot.
Kelinglar, hammamiz birga,
Shukrona aytaylik bu kun!

Bu qo‘shiqda hosil va barakaga shukronalik, tabiat qudratlariga minnatdorchilik va jamoaviy shodlik mazmunlari ifodalangan. Birinchi bandda hosil va ne’matlar tilga olinib, ularning kelib chiqishi Xudoning inoyati va quyosh energiyasiga bog‘lanadi. Ikkinchi bandda esa har bir don va poyaning ahamiyati ta’kidlanib, jamoaviy shukrona marosimiga chaqiruv beriladi.

“Oblo baraka” marosim qo‘shiqlari nafaqat badiiy asar, balki madaniy merosning tirganish organidir. Ular orqali yosh avlodga ajdodlarining tabiatga bo‘lgan hurmati, mehnatsevarligi va jamoa ruhi tarbiyalab beriladi. Har bir qo‘shiq matni chuqur ma‘naviy va ma’rifiy mazmunga egadir.

O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo viloyatlarida “Oblo baraka” marosimi hali ham an’anaviy shaklda o‘tkaziladi. Xalqaro madaniy almashinuv dasturlari doirasida bu marosim xorijiy mehmonlarga namoyish etiladi.

“Oblo baraka” marosimi va uning qo‘shiqlari o‘zbek xalqining ma’naviy merosining noyob namunasidir. U nafaqat dehqonchilik madaniyati, balki butun bir xalqning hayotiy falsafasini, dunyoqarashini va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Bu marosimning zamonaviy sharoitda saqlanib qolishi va rivojlantirilishi milliy madaniy immuntitetni mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash va madaniy merosni boyitish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. 294-bet.

2.Жўраев М. Ўзбек халқ аграр маросимлари тизимида “Шохмойлар” ёки “Биринчи қўш” удуми // “Ўзбекистон ҳудудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар” номли йиғилиш материаллари. – Тошкент, 2006. Б. 83–90.

3.Голодухин Ю.Н. Вопросы классификации и духовный мир древнего земледельца по петроглифам Саймалы-Таша // Первобытное искусство. – Новосибирск: Наука, 1971. С. 202.

4.Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. Asian journal of multidimensional research, 10(4), 629–634.

5.Тўраева, Л. О. (2024). Ўзбек деҳқончилигида тақвим рамзлари. IMRAS, 7(1), 779– 783.

6.Тўраева, Л. О. (2023). Ўзбек халқ оғзаки ижодида деҳқон олқишларининг ўзига хос ифодаси. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(24), 22–25.

7.Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In E Conference Zone (pp. 71-73).

8.Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. 2022. – T. 9. S. 47–49.

Dinara ISLAMOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Saida XAYRULLAYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti
dinaraislamova777@gamil.com

RAUF PARFI SHE’RIYATIDA INTERTEKSTUALLIK HODISASI

Annotatsiya: mazkur maqolada intertekstuallik va intermatn hodisasi, uning turlari hamda badiiy matndagi semantik-struktur tuzilishi va vazifalari tadqiq etilgan. Shuningdek, Rauf Parfi she’riyati misolida intermatnning implitsit va eksplitsit shakllari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *intertekstuallik, intermatn, badiiy matn, matn tilshunosligi, implitsit, eksplitsit.*

Аннотация: в данной статье рассматривается феномен интертекстуальности и интертекста, его типы, а также семантико-структурная структура и функции в литературном тексте. Кроме того, на примере поэзии Рауфа Парфи анализируются имплицитные и эксплицитные формы интертекста.

Ключевые слова: *интертекстуальность, интертекст, литературный текст, текстовая лингвистика, имплицитный, эксплицитный.*

Annotation: this article examines the phenomenon of intertextuality and intertext, its types, and the semantic-structural structure and functions in a literary text. Also, implicit and explicit forms of intertext are analyzed using the example of Rauf Parfi’s poetry.

Key words: *intertextuality, intertext, literary text, text linguistics, implicit, explicit.*

Intertekstuallik yoki intermatn – muayyan matn tarkibida keladigan matn yoki uning parchasi. Ushbu hodisa adabiyotshunoslik va tilshunoslikdagi muhim o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda intermatnlar asarda ikki matn o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni yanada aniqroq namoyon qilish orqali mavzuni konkret tushuntira oladi, muallifning o‘zidan oldingi adabiyotga bog‘lashini – adabiy an’analarni ko‘rsatadi, intertekstual bog‘lanish – asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi, shu bilan bir qatorda matnga o‘ziga xos originallik beradi. Tilshunoslikda esa matn tilshunosligi (matn lingvistikasi, tekstologiya), lingvopoetika, pragmalingvistika, stilistika, lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanib, uning semantikasi, strukturasi va shu bilan bir qatorda funksiyasi aniqlanadi. Ilmiy matnlarda intermatnlardan fikrni dalillash yoki muhokama qilish uchun qo‘llaniladi. O‘zbek tilshunosligida M.Yo‘ldoshev intertekstuallik, badiiy matnda uning o‘rni va o‘zbek tilidagi badiiy matnlarda uchraydigan turlari [8, 104] haqida atroflicha tadqiq qilgan bo‘lsa, tilshunos olima D.Xudoyberganova esa “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasida intertekstuallikningg bir ko‘rinishi bo‘lgan presedent birliklarni o‘rgangan bo‘lib, unda ushbu birliklar matn yaratilishi va mamzuniy idrokida hal qiluvchi rol o‘ynovchi lisoniy-madaniy hodisa sifatida talqin qiladi.[7, 107-112] Ma’lumki, intertekstual birliklarning bir necha ko‘rinishlari mavjud: alluziya, reminisensiya, epigraf, oksimoron, presedent birliklar, tagma’no, ibora, maqol, matal, ko‘chimlar, parafraza, iqtibos va boshqalar.

Intertekstuallik muammosini o‘rgangan ko‘plab olimlar uning aksariyat hollarda badiiy adabiyot doirasida amal qilishini ta’kidlaydilar. Intertekstuallik til belgisi sifatida badiiy matnda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, havolalar, allyuziya, aforizmlar kabi.[5, 98-102] Ammo ilmiy va publitsistik matnlarda ham iqtibos va havolalardan yangi fikrni to‘g‘ri yoki notog‘ri ekanligini isbotlash, dalil keltirish maqsadida ko‘plab qo‘llanilish holatlarini uchratamiz. Intertekstual birliklar badiiy matnlarda badiiy qoliplash, yakunlash, matning asosiy g‘oyasi, mavzuni tushuntirish uchun qo‘llaniladi.

Juda ko‘p hollarda intertekstual birliklar (ayniqsa maqol va iboralarda) mazmuniy uyg‘unlik barobarida *deydilar, deganlaridek, shunday maqol (gap, naql, aytim) bor* kabi bir qator lisoniy ifodalar asosiy va intermatn aloqasining zichligini ta’minlaydi.[8, 127]

Taniqli shoir Rauf Parfining “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon” she’rida iqtibos sifatida Cho‘lponning “Shu ojiz holimda shoirmanmi men?” misrasi “Men shoirmi?” she’ridan keltirilgan bo‘lib, intermatn vazifasini bajargan. Ma’lumki, epigraf badiiy, publitsistik, rasmiy matnlarda ham qo‘llanaveradi. Yuqoridagi badiiy matnda epigraf shoirning she’rdagi asosiy g‘oyasini, niyatini ixcham va siqiq ochib berish bilan birga, shoir ushbu jumla orqali o‘zidan oldingi buyuk shoir Cho‘lpon ruhiyati va taqdiri bilan muloqotga kirishyapti deb tushunish mumkin. “Shu ojiz holimda shoirmanmi men?” so‘rog‘i go‘yoki, Cho‘lponda o‘z ijodidan qoniqmaslik yoki iztirob bo‘lsa, Rauf Parfi ijodida bu savol shoir qismatining og‘irligi va

mas'uliyatini anglatuvchi yangi ma'noni ifodalab kelgan. Ushbu intermatn she'rda ifodalangan ma'noni tushunish uchun zarur va anglash kerak bo'lgan bog'liqlikni ochishga ko'maklashgan.

Mumtoz janrlarga xos bo'lgan taxmis yaratish an'anasida eksplitsit intertekstuallikni ko'rish mumkin:

1) "Abdulhamid Cho'lponga muxammas" she'rida dastlabki 3 misra Rauf Parfiga tegishli bo'lsa, oxirgi ikki misrasi Cho'lpon qalamiga mansub bo'lib, "Ko'ngil" she'ridan olingan she'riy intertekstual mikromatndir.

Alloh-Alloh, yig'layursan, bulutdek bag'ri so'zonsan,
Munavvarsan, mukarramsan, risolat tug'ida shonsan,
Sen Ka'bamsan – Turkistonsan, xunimsan, sen axir qonsan,
Tiriksan, o'lmagansan, sen-da odam, sen-da Insonsen,
Bo'yin egma, kishan kiyma, ki sen ham xur tug'ulg'onsan. [6, 221] Sarlavhadayoq intermatnning muallifi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilishi she'rni tezroq anglashga yordam beradi. Natijada matn mazmuniy-estetik harakatga tushgan hamda matn mazmuniy-mantiqiy va badiiy-estetik ko'lam kasb etgan.

Qachon keldim, qayon ketdim, yo'limga temir to'r etding,
Yurak senmi, falak senmi, zorimga buncha zo'r etding,
Soqov devor uza yozdim, qo'limni qonli bo'r etding,
Yurak, sensan mening sozim, tilimni nayga jo'r etding,
Yurak, sensan ishqibozim, ko'zimga oyni berkitding[6, 222].

Keltirilgan parchada 2 o'rinda intertekstuallikni ko'rish mumkin: *"Qachon keldim, qayon ketdim"* birikmasi orqali Umar Hayyomning mashhur *"Biz kelib ketuvchi to'garak jahon"* ruboiysidan parcha ekani ravshan. Usmon Nosirning "Yurak" she'ridagi oxirgi ikki misrasidan foydalanilgan. Natijada ushbu matndagi kuchli pozitsiyadagi birlikka aylanib, shoir ichki kechinmalarini oydinlashtirgan, ruhiyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatgan.

Shoir ijodida implitsit intertekstual birliklar ham uchraydi. Masalan:

Bu kun sen boshqasan, Dunyo boshqadir,
Sen-da hur tug'ilding. Bir so'zla. Bir o'l,
Va bilgil qaylarda sarsondir Alam. [6, 221]

"Uyg'onur Turkiston, uyg'onar dunyo" she'riga Cho'lponning "Ko'ngil" she'ridan parcha olingan. Sababi Turkistonning uyg'onishini Cho'lponsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu intermatn supersintaktik birlik shaklida qo'llanilib, "uyg'unlashtiruvchi ko'prik" vazifasini bajargan.

Go'zal oyga boqib kechasi,
Qayerdasan, **seni so'rardim**;
Ochilganda gular g'unchasi,
Suratingni unda ko'rardim…
Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.

Ko'rinadiki ushbu misralarda ikki matn orasida uzviy aloqadorlik borligini ko'rish mumkin. Shoir qandaydir poetik maqsad uchun yozilmagan bo'lsa ham, lekin Shoir Cho'lponga parodiya qilib yozishga urinib ko'rgan.

Oh, kelmading nega ertaroq,
Dilbar, **oyni uyaltirgan qosh**.
Nega axir kechroq porlading,
Yuragimga nur bergan quyosh!...[6, 286]

Shuningdek, Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" dostonidagi "oyni uyaltirgan qosh" jumlasi, Rauf Parfi she'riyatida mohirona intermatn sifatida kiritilgan bo'lib, shoir klassik mubolag'adan foydalanadi. Masalan,

Esimda o'sha damlar:
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.

Lingvokulturologik jihatdan, o'zbek xalqida oy go'zallik mezoni hisoblansa, qosh yorning jozibasini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan she'riy intertekstuallik Sharq an'anaviy o'xshatishlarini matnga "ikkinchi bor tiriltirib" olib kirgan.

Xulosa qilib aytganda, intermatnlar yozuvchining lisoniy birliklarni qo'llash mahorati va o'zidan oldingi ijod vakillarining asarlaridan xabardor ekanligining belgisi bo'lishi bilan birgalikda, murakkab g'oyalarni tayyor obrazlar yoki mashhur syujetlar yordamida kitobxonning tasavvuriga chuqurroq yetkazib berish qobiliyatini namoyon etadi. Shoir Rauf Parfi she'riyatida qo'llanilgan intertekstual birliklar she'rning badiiy ifoda imkoniyatini hamda matnning estetik qiymatini oshirib kelgan bo'lib, ikki matn o'rtasidagi bog'liqlik orqali she'rda obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AbdulhamidCho'lpon. Men shoirmi? | https://share.google/TuJ9Y3Wsb1xyuqfPP
2. Фатеева Н. А. Интертекст в мире текстов: Контрапункт интертекстуальности. – Москва: КомКнига, 2007.
3. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor. Dostonlar. – Toshkent, 1999. 64-b.
4. Косикова Г.К. Пьеге-гро н. Введение в теорию интертекстуальности. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2008. – 240 с.
5. O'rinova Z. J. Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o'rni // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2023. -№ 3(1). 98-102-b.
6. Rauf Parfi. Sakina. Saylanma. – Toshkent, 2013. 376-b.
7. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
8.Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008. 158-b.

Nargiza MAMADJANOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: n_mamadjanova@mail.ru



KINEMATOGRAFIK ASARLARDA “YAXSHI HAYOT” TUSHUNCHASI VA IJTIMOIY MUNOSABATLAR

Annotatsiya: kinematografik asarlar kundalik hayotimizda bizga doimiy hamroh bo‘ladigan madaniy sohalardan biridir. Kinolarda jins, irq, ijtimoiy sinf, qahramonlik, mehnat, dam olish kabi tushunchalar tomoshabinga badiiy muhitda namoyon etiladi. Mazkur maqolada kinematografik asarlarda “yaxshi hayot” tushunchasi va ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kinematografiya, asar, ijtimoiy munosabat, irq, ijtimoiy sinf, madaniyat.*

Annotation: cinematographic works are one of the cultural spheres that constantly accompany us in our daily lives. In cinema, concepts such as gender, race, social class, heroism, work, and leisure are presented to the viewer in an artistic environment. This article analyzes the concept of «good life» and social relations in cinematographic works.

Key words: *cinematography, work, social relations, race, social class, culture*

Аннотация: кинематографические произведения – одна из культурных сфер, постоянно сопровождающих нас в повседневной жизни. В кино зрителю в художественной среде представляются такие понятия, как гендер, раса, социальный класс, героизм, труд и досуг. В данной статье анализируется понятие «хорошей жизни» и социальных отношений в кинематографических произведениях.

Ключевые слова: *кинематография, труд, социальные отношения, раса, социальный класс, культура*

Kinematografik asarlarda jins, irq, ijtimoiy sinf, qahramonlik, mehnat, dam olish va “yaxshi hayot” tushunchalari badiiy muhitda namoyon etiladi. Bu jarayon rassomning mo‘yqalamdan foydalanishi yoki hayvonning she’riyat orqali o‘zini ifodalashiga o‘xshaydi.[1] Biroq, ommabop madaniyatning bir qismi sifatida, filmlar ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xos va yorqin tarzda aks ettiradi. Milliy va global miqyosda tijorat maqsadida namoyish etiladigan film ishlab chiqaruvchilari tarixan nufuzli guruhlarni yomon tasvirlashdan qochishgan va odatda siyosiy bahs-munozaralar yoki ozchilik nuqtayi nazarini yoritishdan o‘zlarini tiyishgan. Kino ishlab chiqarishning bu jihati kinoning madaniy ta’sirini ta’kidlaydi. Kino nafaqat madaniyatning bir qismi, balki o‘ziga xos madaniy hodisaga aylangan. Shu sababli, bu qudratli vosita jamiyatga ijtimoiy axloqni singdirishda katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Kino ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: u jamiyatga ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi, uning qadriyatlari va qarashlarini jahon hamjamiyatiga qaytaradi. Bu madaniy hodisa tarbiyachi vazifasini bajarib, yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va noto‘g‘rilik haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Bu qadriyatlarni singdirish mas’uliyati faqat madaniy va ijtimoiy institutlarga emas, balki ijtimoiy munosabatlar orqali bu tamoyillarni anglashi mumkin bo‘lgan shaxslarga ham taalluqlidir.[2]

Kinematografik tasvirlar, janridan qat’i nazar, o‘z tomoshabinlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Keng qamrovli kinematografik vositalarni o‘z ichiga olgan bu tasvirlar inson tajribasining turli jihatlarini, jumladan, tarixiy voqealarni, geografik joylarni, qurolli mojarolarni va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Kino vositasi tasvirlangan vaziyatlarga bog‘liq bo‘lgan madaniy imo-ishoralar, jismoniy harakatlar, ritmik qoliplar va shaxslararo munosabatlarni saqlash uchun vosita vazifasini bajaradi. Barcha ommaviy axborot vositalari mohiyatan tasvirlar ekanligini tan olish muhimdir, shu bois bu tasvirlarning mazmuni ularni yaratgan shaxslarning falsafiy qarashlari bilan shakllangan voqelikning qayta talqinidir.[3] Ommaviy axborot vositalari jamiyat va uning madaniyatini aks ettirishi mumkin bo‘lsa-da, ular ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ham ishora qiladi va ko‘pincha mavjud holatni saqlab qolishga intiladi. Ommaviy axborot vositalari auditoriyaning o‘zini-o‘zi anglashini shakllantirishda, ayniqsa gender stereotiplari nuqtayi nazaridan muhim rol o‘ynaydi. Bu stereotiplar ayollarning qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurlariga ta’sir qilishi mumkin, bu esa ayollar uchun qo‘shimcha to‘siqlar yaratadi, chunki har ikkala jins ham bu noreal va ko‘pincha erishib bo‘lmaydigan me’yorlar ta’sirida bo‘ladi.

Kinoda gender stereotiplarining keng tarqalishi tomoshabinlar tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan an’anaviy hikoyalarni mustahkamlashi va turli xil qahramonlar

1 Aijmer, Karin (1996). Conversational Routines in English. Convention and Creativity. London, New York: Longman.

2 Chatterjee, N. (1999). AIDS-Related Information Exposure in the Mass Media and Discussion within Social Networks among Married Women in Bombay, India.

3 Mary, J. B. A. A., & Bullard, S. K. (2018). Films and society: A case study of audience perception of selected Hindi films. Research Journal of Humanities and Social Sciences.

tasvirlanishiga to‘sqinlik qilishi aniqlangan. Ayollar kinoda ko‘pincha «haddan tashqari jinsiy» yoki «o‘ta jozibador» va sust holda tasvirlanadi. Dahshatli filmlar janrida ayol qahramonlar ko‘pincha jinsiylashtirilib va ojiz ko‘rsatilib, gender stereotiplarini kuchaytiradi. Tadqiqotlar bu stereotiplar va tomoshabinlar qabuli o‘rtasida kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Bolalar ko‘ngilochar dasturlarida genderning ifodalanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan doktor Stacy Smith va uning jamoasi, tanlangan usullardan qat’i nazar, gender tengsizligining izchil qonuniyatlarini topishgan.[4]

Kinodagi tasvirlarga tomoshabinlar munosabati va kutilmalarining ta’siri bu tasvirlarni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Filmlar ko‘pincha kassa muvaffaqiyatiga ta’siri tufayli o‘rnatilgan stereotiplarga ergashadi. Masalan, an’anaviy oilaviy filmlar ko‘pincha an’anaviy qadriyatlarni ulug‘laydi, jamiyat me’yorlarini mustahkamlaydi.

Madaniyatlararo omillarning ta’siriga qaramay, kinodiskurs tomoshabinlar idrokini shakllantiradigan pragmatik strategiyalardan foydalanadi. Qadimgi urf-odatlar va e’tiqodlar zamonaviy filmlarga singdirilgan bo‘lib, bu kinodagi ma’no o‘zgartirilmasdan, balki muzokara qilinishini anglatadi. Filmlarda din, oilaviy munosabatlar yoki gender tengligi kabi mavzularda ochiq kamsitishning yo‘qligi, kinoijodkorlar tomoshabinlar kutgan va ijtimoiy jihatdan maqbul bo‘lgan tarzda syujetlar yaratishini ko‘rsatadi. Ta’lim filmlarda tez-tez uchraydigan mavzu sifatida namoyon bo‘lib, kinoning ham ko‘ngilochar, ham ijtimoiy xabar yetkazish vositasi sifatidagi amaliy vazifasini kuchaytiradi. Tomoshabinlar filmlar o‘z hayotiy tajribalarini aks ettirgani uchun ularga qiziqish bildiradi va ularning talqini musiqa, dialog taqdimioti va vizual hikoya kabi pragmatik belgilar orqali shakllanadi.

Potter va Tomasello past, o‘rta va yuqori darajadagi zo‘ravonlikni aks ettiruvchi ommaviy axborot vositalarini tushunishda auditoriya talqinlari qanchalik muhim ekanligini aniqlash maqsadida tajriba o‘tkazishadi. Ular odamlar ramziy ma’nolarni turlicha tushunish uchun shartli ravishda yaratilganligini va ishoralar va kontekstga qarab narsalarni boshqacha talqin qilish mumkinligini ta’kidlashadi.[5] Mualliflarning xulosasiga ko‘ra, ularning tadqiqoti tadqiqot elementlarining ishtirokchi talqinlarini o‘z ichiga olish uchun eksperimental dizaynlarni kengaytirishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ralf Belivo o‘zining «Hell House» haqidagi ritorik tahlilida aynan shu masalani, ya’ni tomoshabinlarni va ular tasvirlarni ko‘rganda o‘zlari bilan olib keladigan tushunchalarni tahlil qilgan.[6] U Potter va Tomsonning har bir tomoshabin ma’lum bir tasvirni o‘z tajribasi va bilimiga ko‘ra turlicha talqin qilishi mumkinligi haqidagi fikriga qo‘shiladi. Uning ta’kidlashicha, asosiy ommaviy axborot vositalari hujjatli filmlar go‘yo xolis bo‘lishi kerakdek taassurot uyg‘otishi mumkin, aslida esa bunday emasligi ayon, chunki «kamera oldidagi yoki ekrandan ko‘rinadigan vaziyatlar reallikning emas, balki voqelikning bir lahzasidir». Belivo, boshqa olimlar singari, hujjatli filmlar haqiqat yoki xolislikka intilishi shart emas, degan fikrga qo‘shiladi. Biroq, uning fikricha, buning xavfi shundaki, zamonaviy tomoshabinlar media savodxonlik masalasida tanqidiy fikrlashga o‘rgatilmagan. Bu turli ijtimoiy guruhlarni o‘rganishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan muhim jihatdir.

Kinoda haqiqat va badiiylikni ajratib olishda tomoshabinlar idrokining roli pragmatik kinematografik tahlilning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tomoshabinlar hikoyaning haqiqiyligini aniqlash uchun ohang, kadrga olish usuli va rejissyor qarorlari kabi pragmatik belgilarga tayanadi. Filmlarning hujjatli yoki badiiy asar sifatida tasniflanishi faqatgina ularning mazmuni bilan emas, balki tomoshabinlarning film qo‘llayotgan muloqot strategiyalari bilan o‘zaro ta’siri orqali ham belgilanadi. Shu sababli, kinoda «soxta» yoki «badiiy» tushunchalarini idrok etish janrlar o‘rtasidagi qat’iy chegaralar bilan emas, balki talqinni yo‘naltiruvchi pragmatik ishoralar orqali shakllanadi.

4 Das Gupta, M., & Visaria, L. (1996). Son Preference and Excess Female Mortality in India’s Demographic Transition. In Sex Preferences for Children and Gender Discrimination in Asia (pp. 6-102). Seoul: Korea Institute for Health and Social Affairs, UNFPA.

5 Importance of Including Receiver Interpretations. Blackwell Publishing LTD, 1460-2466. doi:10.1111/j.1460-2466.2003.tb02593.x

6 Beliveau, R. (2012). The Critical Intersection of Documentary & Journalism: Hell House and Rhetorical Art Potter, J. & Tomasello, T. (2003). Building Upon the Experimental Design in Media Violence Research: The iculation. Atlantic Journal Of Communication, 20(2), 86. doi:10.1080/15456870.2012.665345.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mary J. B. A. A., Bullard S. K. Films and society: A case study of audience perception of selected Hindi films // Research Journal of Humanities and Social Sciences. 2018.
2. Das Gupta M., Visaria L. Son Preference and Excess Female Mortality in India’s Demographic Transition // Sex Preferences for Children and Gender Discrimination in Asia. Seoul: Korea Institute for Health and Social Affairs, UNFPA, 1996. P. 6–102.
3. Aijmer K. Conversational Routines in English. Convention and Creativity. London; New York: Longman, 1996.
4. Chatterjee N. AIDS-Related Information Exposure in the Mass Media and Discussion within Social Networks among Married Women in Bombay, India. 1999.
5. Chatterjee N. AIDS-Related Information Exposure in the Mass Media and Discussion within Social Networks among Married Women in Bombay, India. 1999.
6. Mamadjanova N.M. Kinoda pragmatik va madaniy ifoda o‘rtasidagi aloqa. Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. 2026. 01- son, 2-qism.

Orzigul GANIEVA,
Associate professor, DSc
Bukhara state university, Uzbekistan
o.x.ganiyeva@buxdu.uz
Sarvinoz AHMADOVA,
MA student Bukhara State University, Uzbekistan

LIFE, EDUCATION, AND LITERARY VISION: WILLIAM FAULKNER AND O'TKIR HOSHIMOV'S PORTRAYAL OF MOTHERHOOD IN AS I LAY DYING AND DUNYONING ISHLARI

Annotation: this article explores the influence of life experience, education, and literary style on the portrayal of motherhood in the works of William Faulkner and O'tkir Hoshimov, with particular attention to As I Lay Dying and Dunyoning Ishlari. By examining the authors' biographical backgrounds and intellectual formation, the study aims to demonstrate how personal history and cultural environment shape literary representation. Faulkner's upbringing in the American South, his limited formal education, and his engagement with modernist narrative techniques contribute to a complex and psychologically driven depiction of motherhood through the character of Addie Bundren. In contrast, Hoshimov's education, journalistic experience, and deep connection to Uzbek social life inform a morally grounded and emotionally resonant portrayal of the mother figure, rooted in national traditions and ethical values. Through comparative analysis, the article highlights differences in narrative style, thematic emphasis, and cultural perspective, while also identifying shared concerns related to maternal influence, sacrifice, and human resilience

Key words: *motherhood; comparative literature; William Faulkner; O'tkir Hoshimov; cultural context; literary representation; As I Lay Dying; Dunyoning Ishlari; maternal figure; narrative style.*

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние жизненного опыта, образования и литературного стиля на изображение материнства в произведениях William Faulkner и O'tkir Hoshimov, с особым вниманием к романам As I Lay Dying и Dunyoning Ishlari. Анализируя биографический и интеллектуальный контекст авторов, исследование стремится показать, как личная история и культурная среда формируют художественное представление. Воспитание Фолкнера на американском Юге, его ограниченное формальное образование и использование модернистских повествовательных техник способствуют созданию сложного и психологически насыщенного образа материнства через персонаж Адди Бандрен. В противоположность этому, образование Хошимова, его журналистский опыт и глубокая связь с узбекской социальной жизнью формируют нравственно ориентированное и эмоционально выразительное изображение матери, укоренённое в национальных традициях и этических ценностях. Сравнительный анализ выявляет различия в повествовательном стиле, тематических акцентах и культурной перспективе, а также общие темы, связанные с материнским влиянием, жертвенностью и человеческой стойкостью.

Ключевые слова: *материнство; сравнительная литература; Уильям Фолкнер; Уткир Хошимов; культурный контекст; литературное представление; «As I Lay Dying»; «Dunyoning Ishlari»; материнский образ; стилистика повествования.*

Annotatsiya: ushbu maqolada William Faulkner va O'tkir Hoshimov asarlarida onalik tasviriga hayotiy tajriba, ta'lim va adabiy uslubning ta'siri tahlil qilinadi, bunda ayniqsa As I Lay Dying va Dunyoning ishlari asarlariga e'tibor qaratiladi. Mualliflarning biografik va intellektual shakllanishi o'rganilib, shaxsiy hayot va madaniy muhit badiiy tasvirga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Folknerning Amerika Janubidagi tarbiyasi, uning rasmiy ta'limining cheklanganligi hamda modernistik bayon usullaridan foydalanishi Addi Bundren obrazi orqali onalikning murakkab va psixologik jihatdan chuqur tasvirini yaratadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Hoshimovning ta'limi, jurnalistik faoliyati va o'zbek ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liqligi onalik obrazining axloqiy jihatdan asoslangan va hissiy jihatdan ta'sirchan talqinini shakllantiradi. Qiyosiy tahlil natijasida bayon uslubi, mavzu urg'usi va madaniy qarashlardagi farqlar bilan birga, onalik ta'siri, fidoyilik va insoniy matonat kabi umumiy jihatlar ham aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *ona bo'lish; solishtirma adabiyot; Uilyam Folkner; O'tkir Hoshimov; madaniy kontekst; adabiy tasvir; Men vafot etayotganda; Dunyoning ishlari; ona figuralari; hikoya uslubi.*

Introduction

Motherhood has consistently occupied a central position in literary studies, serving as a powerful thematic and symbolic framework through which writers explore human relationships, moral responsibility, and cultural identity. Across different literary traditions, the figure of the mother is represented not only as a biological parent but also as a moral authority, emotional anchor, and social symbol. As a result, literary portrayals of motherhood often reflect broader cultural values and historical realities, making the theme particularly significant for comparative analysis.

William Faulkner and O'tkir Hoshimov represent two distinct literary traditions shaped by different historical and cultural conditions. Faulkner, a leading figure of American Southern modernism, grew up in a region marked by social transformation, economic hardship, and lingering historical trauma. His limited formal education and strong engagement with modernist narrative experimentation contributed to a literary style characterized by psychological depth, fragmented narration, and philosophical inquiry. In As I Lay Dying, Faulkner presents motherhood through the complex figure of Addie Bundren, whose inner conflict and emotional detachment challenge traditional idealized images of the mother. O'tkir Hoshimov, by contrast, emerged as a prominent voice in modern Uzbek literature, deeply influenced by national traditions, social ethics, and lived experience. His education and journalistic background shaped a literary style grounded in realism, emotional sincerity, and moral reflection. In Dunyoning Ishlari, the image of the mother is closely associated with patience, compassion, and self-sacrifice, reflecting the high cultural and ethical value attributed to motherhood in Uzbek society. Hoshimov's portrayal emphasizes the mother's role as a moral guide and emotional foundation within the family and community.

Methodology

This study employs a qualitative research design based on comparative literary analysis to examine the portrayal of motherhood in As I Lay Dying by William Faulkner and Dunyoning Ishlari by O'tkir Hoshimov. The research focuses on close textual analysis of the primary texts, paying particular attention to narrative voice, characterization, thematic development, and symbolic representation of the mother figure. A biographical approach is integrated into the analysis to explore how the authors' life experiences, education, and cultural backgrounds influence their literary treatment of motherhood. Relevant secondary sources, including critical studies, biographies, and scholarly articles, are used to contextualize the texts within American Southern and Uzbek literary traditions. The comparative method is applied to identify both similarities and differences in maternal representation, with emphasis on cultural values, narrative strategies, and ethical perspectives. This methodological framework allows for a systematic and culturally informed interpretation of motherhood as a literary theme.

Conclusion

This article has examined the portrayal of motherhood in As I Lay Dying by William Faulkner and Dunyoning Ishlari by O'tkir Hoshimov through a comparative literary approach. The analysis demonstrates that while motherhood is a universal literary theme, its representation is profoundly shaped by cultural context, authorial experience, and narrative technique. Faulkner presents motherhood as a site of psychological conflict and existential inquiry, whereas Hoshimov portrays it as a moral and emotional ideal grounded in cultural tradition. By comparing these two perspectives, the study contributes to a deeper understanding of how motherhood functions as both a shared human experience and a culturally specific literary construct.

Reference:

1. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2012). A glossary of literary terms (10th ed.). Boston: Cengage Learning.
2. Bleikasten, A. (1999). The ink of melancholy: Faulkner's novels from The Sound and the Fury to Light in August. Bloomington: Indiana University Press
3. Brooks, C. (1990). William Faulkner: The Yoknapatawpha country. New Haven: Yale University Press.
4. Cowley, M. (Ed.). (1956). The portable Faulkner. New York: Viking Press.
5. Faulkner, W. (1930). As I lay dying. New York: Random House.
6. Hoshimov, O'. (2005). Dunyoning ishlarI. Tashkent: Sharq Publishing House.
7. Karimov, N. (2012). O'zbek adabiyoti tarixi. Tashkent: Fan Publishing House.
8. Mirzaev, S. (2015). The image of mother in modern Uzbek prose. Journal of Uzbek Literary Studies, 3(2), 45–52.
9. Tyson, L. (2015). Critical theory today: A user-friendly guide (3rd ed.). New York: Routledge
10. Kagitcibasi, Ç. (2007). Family, self, and human development across cultures: Theory and applications. Lawrence Erlbaum Associates.

M.B. AKHMEDOVA,
Prof. DSc Bukhara State University
S.Sh.TILLOYEVA,
Master student, Bukhara State University

PRIDE AS MORAL WEAKNESS AND SOCIAL CRITIQUE IN JANE AUSTEN'S PRIDE AND PREJUDICE

Annotation: this article provides an in-depth analysis of the concept of pride in Jane Austen's *Pride and Prejudice*, examining its dual function as both a moral weakness and a form of social critique. Drawing extensively on textual evidence, the study explores how pride shapes individual behavior, distorts perception, and reflects the rigid class hierarchy of early nineteenth-century English society. Through a detailed examination of key characters, particularly Mr. Darcy and Elizabeth Bennet, the paper demonstrates that pride is not only a personal flaw but also a broader ideological construct embedded in social relations. The analysis reveals that Austen employs pride as a narrative device to expose moral limitations, critique class-based prejudice, and promote self-awareness, humility, and ethical transformation.

Key words: *pride, Jane Austen, Pride and Prejudice, moral weakness, social critique, character analysis*

Аннотация: в данной статье проводится глубокий анализ концепта «гордость» в романе Pride and Prejudice, рассматривается его двойственная функция как моральной слабости и формы социального критицизма. Опираясь на текстовые доказательства, исследование показывает, каким образом гордость влияет на поведение личности, искажает восприятие и отражает жёсткую классовую иерархию английского общества начала XIX века. На примере ключевых персонажей, в частности мистера Дарси и Элизабет Беннет, демонстрируется, что гордость является не только личным недостатком, но и более широкой идеологической конструкцией, встроенной в социальные отношения. Результаты анализа показывают, что Jane Austen использует концепт гордости как художественный инструмент для выявления моральных ограничений, критики классовых предрассудков и продвижения самопознания, смирения и этической трансформации.

Ключевые слова: *гордость, Jane Austen, Pride and Prejudice, моральная слабость, социальная критика, анализ персонажей*

Annotatsiya: ushbu maqolada Pride and Prejudice asarida ifodalangan "g'urur" tushunchasi chuqur tahlil qilinadi hamda uning ikki tomonlama funksiyasi — axloqiy zaiflik va ijtimoiy tanqid vositasi sifatida namoyon bo'lishi o'rganiladi. Matndan olingan dalillarga keng tayanilgan holda, tadqiqot g'ururning individual xulq-atvorga qanday ta'sir qilishi, idrokni qanday buzishi va XIX asr boshlaridagi ingliz jamiyatining qat'iy sinfiy tuzilmasini qanday aks ettirishini yoritadi. Asarda, ayniqsa, janob Darcy va Elizabeth Bennet obrazlari misolida batafsil tahlil qilinib, g'urur nafaqat shaxsiy kamchilik, balki ijtimoiy munosabatlar tizimiga chuqur singib ketgan ideologik konstruksiya ekanligi ko'rsatib beriladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Jane Austen g'urur tushunchasidan badiiy vosita sifatida foydalanib, axloqiy cheklovlarni ochib beradi, sinfiy kamsitishni tanqid qiladi hamda o'z-o'zini anglash, kamtarlik va axloqiy o'zgarishni targ'ib etadi.

Kalit so'zlar: *g'urur, Jane Austen, Pride and Prejudice, axloqiy zaiflik, ijtimoiy tanqid, obraz tahlili*

Introduction

Pride is introduced in the novel as a socially constructed trait that immediately shapes perception and judgment. From the earliest scenes of *Pride and Prejudice*, Austen demonstrates that pride is not merely an internal emotion but a visible behavior that invites interpretation and criticism. This is evident when Mr. Darcy is described as *"the proudest, most disagreeable man in the world"* (Austen 9), a harsh judgment formed after minimal interaction with him. This early labeling reflects how quickly society imposes identity on individuals, suggesting that pride functions as both a personal disposition and a social narrative. The description does not arise from deep understanding but from surface observation, indicating that pride can be exaggerated or misunderstood within a socially sensitive environment.

Pride is further reinforced through language that reveals internal hierarchy and external behavior. When Darcy dismisses Elizabeth by stating that *"she is tolerable, but not handsome enough to tempt me"* (Austen 11), his words demonstrate how pride manifests through speech and judgment. This statement reveals more than personal preference; it reflects a deeply ingrained belief in social and aesthetic superiority. The dismissiveness embedded in *"not handsome enough"* indicates that Darcy evaluates others through a hierarchical lens, reinforcing the idea that pride is closely connected to class consciousness. This moment establishes a pattern in which pride distorts perception and creates emotional and social distance between individuals.

Main Body

Pride operates as a moral weakness by distorting emotional expression and preventing genuine human connection. Darcy's first proposal to Elizabeth exemplifies how pride interferes with sincerity, as he confesses his love while simultaneously emphasizing her lower social status. His declaration, *"In vain have I struggled. It will not do. My feelings will not be repressed"* (Austen 185), suggests a powerful

emotional conflict, yet this vulnerability is undermined when he frames his proposal in terms of overcoming her "*inferiority*" (Austen 186). This contradiction illustrates that his pride is not merely superficial but deeply internalized, shaping even his most personal expressions. His inability to separate love from social judgment reveals how pride can corrupt otherwise genuine emotions, turning affection into a form of condescension.

Darcy's later self-reflection demonstrates that pride can be recognized and corrected through moral awareness. His admission that he *has "been a selfish being all my life, in practice, though not in principle"* (Austen 198) reveals an important distinction between intention and behavior. This realization indicates that pride is not always conscious; individuals may believe themselves to be morally sound while acting in ways that reflect arrogance and self-interest. The phrase *"in practice"* emphasizes that pride manifests through actions rather than beliefs, reinforcing Austen's idea that moral growth requires self-examination. This moment marks a turning point in Darcy's development, showing that pride can be overcome through honest reflection.

Elizabeth Bennet's experience reveals that pride can also take the form of intellectual confidence and misjudgment. Her realization that *"Till this moment, I never knew myself" (Austen 167)* signals a profound shift in self-awareness, as she begins to question her previously unquestioned judgments. This insight is intensified when she admits, *"How despicably I have acted! I, who have prided myself on my discernment!"* (Austen 167), explicitly linking her error to her pride. Unlike Darcy's overt arrogance, Elizabeth's pride lies in her confidence in her own reasoning, which leads her to misinterpret both Darcy and Wickham. This demonstrates that pride is not limited to social superiority but can also exist as cognitive bias, making it a more universal and subtle flaw.

Pride also functions as a mechanism for maintaining social hierarchy and reinforcing class divisions. Darcy's initial reluctance to associate with Elizabeth's family reflects not only personal preference but also adherence to social expectations that prioritize class boundaries. This dynamic becomes more explicit through the character of Lady Catherine, whose extreme pride represents the ideological foundation of aristocratic superiority. Her rhetorical question, *"Are the shades of Pemberley to be thus polluted?"* (Austen 289), reveals a belief that social status is something pure that must be protected from contamination. The intensity of this language underscores the irrationality of such thinking, as it reduces human relationships to matters of social preservation.

Elizabeth's response challenges the legitimacy of class-based pride and asserts a more egalitarian perspective. By stating that *"he is a gentleman; I am a gentleman's daughter; so far we are equal"* (Austen 292), she redefines the concept of equality in terms of moral and social identity rather than wealth. This statement disrupts the hierarchical logic that underpins Lady Catherine's argument, suggesting that pride based on lineage is fundamentally flawed. Austen uses this exchange to critique the social system itself, presenting pride as both a symptom and a sustaining force of inequality.

Darcy's transformation illustrates that overcoming pride requires humility and respect for others. His second proposal demonstrates a complete shift in attitude, as he expresses his feelings without expectation or superiority, saying that *"my affections and wishes are unchanged; but one word from you will silence me on this subject forever"* (Austen 308). The absence of entitlement in this statement reflects a new understanding of equality and mutual respect. His acknowledgment that Elizabeth's earlier criticism was transformative which says *"your reproof, so well applied, I shall never forget"* (Austen 305) further emphasizes that personal growth often arises from confrontation and self-reflection.

Conclusion

The resolution of the novel confirms that pride can be transformed through self-awareness and ethical growth. Elizabeth's final reassessment of Darcy, in which she recognizes him as *"perfectly amiable"* (Austen 312), demonstrates how both characters have moved beyond their initial misconceptions. This change in perception highlights the importance of humility in achieving true understanding, suggesting that pride must be tempered by reflection and empathy.

The novel ultimately presents pride as both a personal flaw and a social construct that can be challenged and redefined. The union of Darcy and Elizabeth symbolizes not only romantic resolution but also the reconciliation of conflicting values, as their relationship transcends class boundaries and initial prejudice. Through this transformation, Austen critiques the rigid social hierarchy of her time while affirming the possibility of moral improvement. Pride, therefore, emerges as a central concept that connects individual psychology with broader social critique, making *Pride and Prejudice* a deeply insightful exploration of human behavior and societal structure.

Works Cited

1. Austen, Jane. *Pride and Prejudice*. Penguin Classics, 2003.
2. Brown, Julia Prewitt. *Jane Austen's Novels: Social Change and Literary Form*. Harvard University Press, 2001.
3. Butler, Marilyn. *Jane Austen and the War of Ideas*. Oxford University Press, 1987.
4. Copeland, Edward, and Juliet McMaster, editors. *The Cambridge Companion to Jane Austen*. Cambridge University Press, 1997.
5. Davidoff, Leonore, and Catherine Hall. *Family Fortunes*. University of Chicago Press, 1987.
6. Johnson, Claudia L. *Jane Austen: Women, Politics, and the Novel*. University of Chicago Press, 1988.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Baxodir SUYUNOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)



TEZAURUS VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI TATBIQI MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada, tezaurus va uning turlari, shuningdek lug‘atchilikka kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish xususida fikr-mulohaza yuritilgan. Unda muallif, avvalo tezaurus haqida atroflicha ma’lumotlar bergan va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlaridan maqsadli foydalangan.

Ayniqsa, maqolada tezaurus tushunchasini boshqa lug‘at turlaridan farqlab olishga alohida e’tibor qaratilgan. Yuqorida sanalgan jihatlar maqolaning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Kalit so‘zlar: *tezaurus, atama, tushuncha, semantika, lug‘at, leksema, korpus, kompyuter, resurs, omonim, sinonim.*

Annotation: this article discusses the thesaurus and its types, as well as the application of computer technologies to the dictionary. In it, the author first of all gave detailed information about the thesaurus and purposefully used scientific research in this regard.

In particular, the article focuses on distinguishing the concept of thesaurus from other types of dictionaries. The aspects listed above increase the scientific-theoretical and practical importance of the article.

Key words: *thesaurus, term, concept, semantics, dictionary, lexeme, corpus, computer, resource, homonym, synonym.*

Аннотация: в данной стате рассматривается тезаурус и его виды, а также применение компютерных технологий к словарю. В ней автор в первую очеред предложил подробную информатсию о тезаурусе и селенаправленно исползовал в этом отношении научные изыскания.

В частности, в стате делается аксент на выделении понятия тезауруса от других видов словарей. Перечисленные выше аспекты повышают научно-теоретическую и практическую значимост стати.

Ключевые слова: *тезаурус, термин, понятие, семантика, словар, лексема, корпус, компютер, ресурс, омоним, синоним.*

Kirish (Introduction).

Tezaurus (yun. thesaurus) yunon tilidan olingan bo‘lib, *“xazina”, “boylik”, “zaxira”*, degan ma’nolarni anglatadi. Mazkur tushuncha maxsus bilimlar sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta’riflari va atamalarining matnlarda qo‘llanishi, semantik imkoniyatlari bilan to‘liq qamrab oluvchi ma’lumotlar to‘plami hisoblanadi. U muayyan tildagi ma’lum bir mavzuga oid barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanish holatlarini imkon qadar to‘liq aks ettiradigan lug‘atdir[1].

Tezaurus termini ikki xil ma’noda ishlatiladi:

1. Muayyan leksik birlik semantikasiga oid lingvistik tahlillarga asoslangan to‘liq ma’lumot yoritilgan lug‘atlar.

2. Bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmui.

Tezaurus – so‘zlar va shu so‘zlardan shakllangan leksemalar, lug‘aviy birliklar, so‘z birikmalari o‘rtasidagi turli bog‘lanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlar tizimidir. Tezaurus milliy til, qayta ishlangan tabiiy til, axborot uslubi sifatida shaklangan sun’iy til semantikasini belgilaydi. Dunyoning rivojlangan tillaridan hisoblangan ingliz, rus tillaridagi tezauruslar milliy korpuslarning tarkibiy qismi sifatida ma’lumotlar bazasi va tadqiqotlar uchun material bo‘lib xizmat qilmoqda.

1 Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2004. 329-б.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o‘rganila boshladi[2].

Korpuslarning tarkibiy qismi bo‘lgan tezauruslar leksemalarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsional-ekspressiv funksiyalari haqida keng ma’lumot berishi bilan qimmatlidir.

Tezaurus – bu umumiy ma’noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta’riflari, atama yoki terminlarini to‘liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, yanada qat’iy va obyektiv ravishda lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, korpus yoki kod, demakdir.

Tilda tezauruslar elektron formatda, alohida fan sohalarini tavsiflashning samarali vositalaridan biri bo‘lib, biror fan yoki kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar va shu munosabatlardagi tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tezaurus nafaqat so‘z ma’nolari, balki intellektual tizimlarning ilmiy asoslarini to‘ldirishda ishlatilishi mumkin

2 Ҳамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. ф. бўйича ф.д.(PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2018., Эшмўминов. А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. ф. бўйича ф.д.(PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2019.

bo'lgan so'zlarni boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o'zaro bog'lash orqali ochib berishga imkoniyat yaratadi. Tildagi axborotlar bazasida tezaurus termini subyekt ega bo'lgan barcha ma'lumotlarning umumiyligini ifodalaydi.

O'zbek tilining WordNet tezaurusini ishlab chiqishda an'anaviy o'zbek tili leksikografiyasi va zamonaviy axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish lozim bo'ladi. Korpus texnologiyalaridan foydalanish o'zbek tilidagi so'zlarni ham tahlil qilish, ularning real kontekstual qurshovidagi leksik-semantik variantlarini aks ettiradigan resurs yaratishga imkon beradi[3].

Ma'lumki, tezaurus tushunchasi qadimdan ilmda mavjud bo'lsa-da, lug'atning bunday o'ziga xos turi ko'proq ingliz, rus va boshqa xorijiy tillarga tatbiq etilgan. Afsuski, o'zbek tiliga tezaurus tushunchasi to'la ma'noda fanlarga tatbiq qilinmagan. Aynan o'zbek tili terminlari va tibbiy terminlarga ham haligacha tezaurus (*lug'atning ushbu turi*) tatbiq etilmagan.

Xorijiy tillar, jumladan rus tilida yaratilgan tezauruslar o'rganilganda[4] ularning tuzilishi, modellari jihatidan har xillikni kuzatdik. Ya'ni tezaurus tuzishda bir xil prinsip yoki kriteriy mavjud emas, shuningdek axborot qidiruv jarayonida foydalanuvchilarga qulaylik yaratishga asosiy e'tibor qaratilganini ko'ramiz.

Jumladan, axborot xizmatchilariga uslubiy qo'llanma sifatida yaratilgan "Tezaurus informatsionno-poiskovoy po yazыkoznaniyu"[5] kitobida dastlab, termin va tushunchalar alifbo tarzida izohlangan, so'ngra ayrim mavzular bo'yicha tushunchalar izohlangan. Biroq, berilgan terminlarning ma'no komponentlari to'liq ochilmagan.

Buni, ayni paytda, muallifning o'zi ham ishda mavjud tajribadangina foydalangani, bundanda kengroq axborot berish uchun ko'pgina zarur terminologik kompendium mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi. Yoki bo'lmasa, "Tezaurus informatsionno, poiskovoy po literature, literaturovedeniyu, folkloru i folkloristike"[6] kitobida dastlab, har bir adabiy terminga raqam qo'yilib, ya'ni raqamlanib, jami 320 ta termin izohlangan, so'ngra to'ldiruvchi (permutatsionnыy) tushunchalar ham alifbo tartibida tasvirlangan. Bu tezaurus ushbu sohadagi, ya'ni adabiyot va folklor bo'yicha birinchi urinish ekanligi alohida qayd etilgan.

Texnika fanlari doktori Y.I.Shemakina tahriri ostida chop etilgan "Tezaurus nauchno-texnicheskix terminov" kitobi[7] 670 betdan iborat bo'lib, unda tezaurusning EHM va Axborot-qidiruv xizmatlaridagi roli va ahamiyati alohida ta'kidlab o'tilgan. Bunday lug'atlarni tuzish terminologiyani yanada rivojlantirishga muhim hissa ekanligi aytilgan. Unda terminlarning leksik-semantik tarkibi va tabiati ochib berilib, to'plam sifatida tasvirlangan. Terminlar alifbo tartibida joylashtirilib, raqam qo'yilmasdan izohlangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

1. Tezaurus – bu so'zlar va so'z birikmalari o'rtasidagi turli bog'lanishlar (semantik munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlovchi, ayni paytda, elektron tizim uchun qulay bo'lgan ma'lumotlar bazasi, ya'ni o'zga xos lug'atdir.

2. Tezaurus – bu umumiy ma'noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta'riflari, atama yoki terminlarini to'liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, ma'lumotlar to'plami, korpus yoki kod, demakdir.

3. Amaliy kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi sohlarda tezauruslar yaratishda leksik birliklarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o'ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo'ygandagina lingvistik taraqqiyot omili bo'la oladi.

3 Звегинцев В.А. Семасиология. – Москва,1987., Kurbanova F. Kompyuter lugatlari: tezaurus. – Toshkent, 2014., Матлатипов Г.Р., Мадатов Х.А. Методология автоматизации постройки некоторых онтологий типа WordNet для узбекского языка через существующих WordNet. "Амалий математика ва информацион технологияларнинг долзарб муаммолари". // Халқаро анжуман тезислари тўплами. Of the international scientific conference "Actual problems of applied mathematics and information technologies". – Тошкент: 2019, – Б. 286-287

4 А.Н.Баранов таҳрири остидаги "Словарь тезаурус современной русской идиоматики". – М.: "Мир энциклопедии", 2007., В.А.Лукова таҳрири остида "Тезаурусный анализ мировой культуры". Сборник научных трудов. // – М.: 2013., Крюкова М. И. Экфрастический тезаурус в прозе А.С.Грина. Дисс., на соиск уч. степени к.ф.н. // – Новосибирск: 2018 ва б.

5 В.Б.Смиренский. Тезаурус информационно-поисковой по языкознанию. – Москва: 1977.

6 А.Н.Орлов. Тезаурус информационно, поисковой по литературе, литературоведению, фольклору и фольклористике. – Москва: 1975.

7 Ю.И.Шемакина. Тезаурус научно-технических терминов. – Москва: 1972.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baranov A.N. "Slovar tezaurus sovremennoy russkoy idiomatiki". – Moskva: "Mir ensiklopedii", 2007.

2. Valitova N.R. Formirovanie professionalnogo tezaurusa u studentov fizkulturnogo vuza. Avtoref. na soisk. uch. stepeni kand. ped. nauk. – Omsk, 2012.

3. Zveginsev V.A. Semasiologiya. – Moskva,1987.

4. Matlatipov G.R., Madatov X.A. Metodologiya avtomatizatsii postroyki nekotorыx ontologiy tipa WordNet dlya uzbekskogo yazыka cherez suщestvuyuщix WordNet. // Of the international scientific conference "Actual problems of applied mathematics and information technologies". – Toshkent: 2019.

5. Rabbimov I., Kobilov S. Reshenie nekotorыx zadach klassifikatsii tekstov uzbekskogo yazыka. // Of the international scientific conference "Actual problems of applied mathematics and information technologies". – Toshkent, 2019.

6. Rasulov R., Suyunov B., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2010.

7. Smirnova Ye.V. Strukturno-semanticheskie i leksikograficheskiy aspektы meditsinskoy terminologicheskoy (na primere kardiologicheskoy leksiki). Avtoref. dis. na soiskanie uch. stepeni kand. filol. nauk. – Yaroslavl, 2012.

Xilolaxon BAKIROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi, Tarjimonlik fakulteti
ped.f.f.dok. (PhD), dotsenti



SOHAVIY TARJIMONLARNI AXBOROT RESURSLARI ASOSIDA TAYYORLASH

Annotatsiya: mazkur maqolada sohaviiy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlashning didaktik modeli yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy tarjimonlik ta’limida raqamli texnologiyalar va axborot resurslarining o‘rni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan model motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlardan iborat bo‘lib, talabalar kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *sohaviy tarjima, tarjimonlik kompetensiyasi, didaktik model, axborot resurslari, raqamli texnologiyalar, CAT vositalari, terminologiya, lingvodidaktika, tarjima strategiyalari, sun’iy intellekt.*

Аннотация: в данной статье рассматривается дидактическая модель подготовки отраслевых переводчиков на основе информационных ресурсов. В исследовании анализируется роль цифровых технологий и информационных ресурсов в современном переводческом образовании. Разработанная автором модель включает мотивационный, когнитивный, практический и рефлексивный компоненты и направлена на комплексное развитие компетенций студентов.

Ключевые слова: *отраслевой перевод, переводческая компетенция, дидактическая модель, информационные ресурсы, цифровые технологии, CAT-инструменты, терминология, лингводидактика, переводческие стратегии, искусственный интеллект*

Annotation: this article examines a didactic model for training specialized translators based on information resources. The study analyzes the role of digital technologies and information resources in modern translation education. The model developed by the author consists of motivational, cognitive, practical, and reflective components and is aimed at the comprehensive development of students’ competencies.

Key words: *specialized translation, translation competence, didactic model, information resources, digital technologies, CAT tools, terminology, linguodidactics, translation strategies, artificial intelligence.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida tarjimonlik faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, sohaga yo‘naltirilgan tarjima (texnik, tibbiy, huquqiy va boshqalar) yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani talab qiladi. Bunday sharoitda tarjimonlarni tayyorlash faqat an’anaviy metodlarga asoslanib qolmasligi, balki zamonaviy axborot resurslari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi zarur.

Axborot resurslari (onlayn lug‘atlar, korpuslar, CAT tools, terminologik bazalar, sun’iy intellekt vositalari) tarjima jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli, sohaviiy tarjimonlarni tayyorlashda ushbu resurslardan samarali foydalanishga o‘rgatish didaktik modelni ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – axborot resurslariga asoslangan holda sohaviy tarjimonlarni tayyorlashning didaktik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot bir nechta ilmiy metodlar asosida olib borildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi orqali tarjimonlik ta’limi, lingvodidaktika hamda raqamli pedagogika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi. Bu esa tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, taqqoslash metodidan foydalanilib, an’anaviy tarjima o‘qitish yondashuvlari bilan zamonaviy raqamli yondashuvlar o‘zaro solishtirildi. Natijada ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanib, samarali integratsiya imkoniyatlari belgilandi.

Eksperimental metod doirasida talabalar bilan axborot resurslariga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ushbu jarayon orqali talabalar tomonidan raqamli vositalardan foydalanish darajasi hamda ularning tarjima ko‘nikmalariga ta’siri amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot resurslariga asoslangan didaktik model sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonida tizimli va samarali yondashuvni ta’minlaydi. Mazkur model o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir necha muhim komponentlardan iborat bo‘lib,

ularning har biri talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, **motivatsion komponent** talabalarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati ularning qiziqishini oshiradi, tarjima faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi hamda mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.

Keyingi muhim element – **kognitiv komponent** bo‘lib, u tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid bilimlarni o‘z ichiga oladi. Talabalar tarjima strategiyalari, terminologiya bilan ishlash usullari hamda kontekstual tahlil qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularga matn mazmunini chuqur anglash va to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi.

Amaliy komponent esa nazariy bilimlarni real faoliyatda qo‘llashga qaratilgan. Ushbu bosqichda talabalar autentik matnlar bilan ishlaydi, CAT tools va sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanadi. Natijada ular zamonaviy tarjima texnologiyalarini amaliy jihatdan o‘zlashtiradi va professional faoliyatga tayyorlanadi.

Shuningdek, modelda muhim o‘rin tutuvchi **refleksiv komponent** talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga xizmat qiladi. Talabalar bajarilgan tarjimalarni baholaydi, xatolarini aniqlaydi va ularni tuzatish ustida ishlaydi. Bu esa ularning kasbiy o‘sishini tezlashtiradi va sifatli natijalarga erishishga yordam beradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari modelning samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Xususan, talabalar tarjima tezligining oshgani kuzatildi, bu esa ularning axborot resurslaridan samarali foydalanishni o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, terminologik aniqlik sezilarli darajada yaxshilandi, bu esa professional tarjima sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot resurslariga asoslangan yondashuv tarjimonlik ta’limini sezilarli darajada modernizatsiya qilish imkonini beradi. An’anaviy o‘qitish metodlari asosan nazariy bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy didaktik model talabalarni real tarjima faoliyatiga yaqinlashtiradi hamda ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali va natijador qiladi.

Axborot resurslaridan foydalanish orqali talabalar tarjima jarayonini tezroq va aniqroq amalga oshirishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, ular terminologiya bilan ishlash, kontekstni to‘g‘ri talqin qilish va turli manbalardan foydalanish kabi muhim kasbiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu yondashuv, ayniqsa, sohaviy tarjima uchun dolzarb bo‘lib, talabalarning kelajakdagi professional faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Biroq, mazkur yondashuvni joriy etishda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Avvalo, barcha talabalar axborot texnologiyalaridan bir xil darajada foydalana olmaydi, bu esa ularning o‘quv jarayonidagi natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonining internet va texnik vositalarga yuqori darajada bog‘liqligi ayrim holatlarda uzilishlar yoki texnik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir muhim masala – avtomatik tarjima vositalariga haddan tashqari ishonish xavfi hisoblanadi. Talabalar ba’zan mashina tarjimasini tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilishga moyil bo‘ladilar, bu esa tarjima sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, axborot resurslaridan foydalanishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot resurslariga asoslangan didaktik model sohaviiy tarjimonlarni tayyorlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim jarayonini zamonaviylashtiradi, balki uni real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini ham beradi.

Modelning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar turli axborot resurslaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni o‘rganib, terminologik aniqlikka erishadi hamda matn mazmunini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa tarjimaning professional darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kelgusida ushbu modelni yanada takomillashtirish, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarini chuqurroq integratsiya qilish, shuningdek, individual yondashuv asosida o‘quv jarayonini moslashtirish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Bu esa tarjimonlik ta’limining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komissarov V.N. Теория перевода (лингвистические аспекты). M.: Высшая школа, 1990.
2. Nida E.A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988

Sirojiddin TEMIROV,
HX VA MU ning Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB INGLIZ TILINI O‘QITISH

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada harbiy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar, adaptiv o‘qitish tizimlari va interaktiv vositalarning til o‘rganish jarayoniga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli yechimlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektdan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda tezkor va sifatli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ingliz tilini o‘qitish, harbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar, adaptiv ta’lim, kommunikativ kompetensiya, interaktiv platformalar*

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются вопросы эффективного использования технологий искусственного интеллекта при обучении английскому языку в системе военного образования. Освещается влияние интеллектуальных платформ, адаптивных обучающих систем и интерактивных инструментов на процесс изучения языка. Особое внимание уделяется развитию профессиональной коммуникативной компетенции военнослужащих с применением современных цифровых решений. Результаты исследования показывают, что использование искусственного интеллекта способствует повышению эффективности обучения, обеспечивает индивидуальный подход и расширяет возможности получения качественных знаний.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение английскому языку, военное образование, цифровые технологии, адаптивное обучение, коммуникативная компетенция, интерактивные платформы*

Annotation: this scientific article examines the effective use of artificial intelligence technologies in teaching English within the military education system. The impact of AI-based platforms, adaptive learning systems, and interactive tools on the language learning process is analyzed. Particular attention is given to the development of professional communicative competence of military personnel through modern digital solutions. The research findings demonstrate that the use of artificial intelligence enhances learning efficiency, ensures an individualized approach, and expands opportunities for acquiring high-quality knowledge.

Key words: *artificial intelligence, English language teaching, military education, digital technologies, adaptive learning, communicative competence, interactive platforms*

Kirish.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy harbiy mutaxassis nafaqat o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, balki xalqaro miqyosda samarali muloqot qila olish kompetensiyasini ham egallashi zarur. Shu jihatdan ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish harbiy xizmatchilar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Xalqaro harbiy hamkorlik, qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari, tinchlikparvarlik operatsiyalari hamda xorijiy tajribani o‘rganish jarayonida ingliz tili asosiy aloqa vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.



So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari, adaptiv ta’lim tizimlari, virtual yordamchilar va interaktiv dasturlar o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasiga moslashtirish hamda ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, til o‘rganish jarayonida sun’iy intellekt vositalari talaffuzni to‘g‘rilash, lug‘at boyligini oshirish, real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, ilmiy maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan

metodik tavsiyalar harbiy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini faollashtirish hamda ularning kasbiy faoliyatida ingliz tilidan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki zamonaviy, raqobatbardosh harbiy mutaxassislarni tayyorlashga ham zamin yaratadi. [1]

Adabiyotlar sharhi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi o‘rni bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ularga mos o‘quv materiallarini taklif etish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktivlikni oshirishi hamda ta’lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi ta’kidlangan. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish va natijalarni tezkor tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda.

Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuv, task-based learning, blended learning kabi usullar til o‘rganishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodlar o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish tajribasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Harbiy xizmatchilar uchun til o‘rganish jarayoni qisqa muddat ichida aniq va samarali natijalarga erishishni talab qiladi. Shu sababli o‘quv jarayonida amaliy yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, maxsus terminologiya, tezkor muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy ta’lim muassasalarida til o‘qitish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari til o‘rganish jarayonida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bunday platformalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini tanlaydi, ularning xatolarini tahlil qiladi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shuningdek, virtual yordamchilar va chatbotlar yordamida o‘quvchilar real muloqotga yaqin sharoitda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlarda ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy ta’lim tizimiga moslashtirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ko‘plab tadqiqotlar umumiy ta’lim tizimiga qaratilgan bo‘lib, harbiy ta’limning o‘ziga xos jihatlari, xususan, intizom, tezkorlik va maxsus kasbiy ehtiyojlar yetarli darajada hisobga olinmagan. Bundan tashqari, sun’iy intellektdan foydalanishning metodik asoslari, uning samaradorligini baholash mezonlari hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ta’siri masalalari chuqur tadqiq etilmagan.

Mazkur holatlar ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy ta’lim tizimiga moslashtirish hamda ingliz tilini o‘qitishda ularning samarali qo‘llanilishiga doir yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.[2]

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy maqolada aralash yondashuvdan foydalanildi, ya’ni kvantitativ va sifat metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Bunday yondashuv tadqiq etilayotgan muammoni har tomonlama tahlil qilish, olingan natijalarni ishonchli va asosli shaklda umumlashtirish imkonini beradi. Kvantitativ yondashuv orqali o‘quvchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar statistik jihatdan aniqlangan bo‘lsa, sifat tahlili orqali ularning o‘quv jarayoniga munosabati va sun’iy intellekt vositalariga bo‘lgan qiziqishi o‘rganildi.

Ilmiy izlanishda harbiy ta’lim muassasasining 60 nafar kursanti ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanildi, nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi. Ishtirokchilar bir xil boshlang‘ich bilim darajasiga ega bo‘lishi inobatga olindi. Tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, test, kuzatuv va pedagogik eksperiment kabi vositalardan foydalanildi. Dastlabki va yakuniy testlar orqali o‘quvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirish darajasi aniqlanib, natijalar solishtirildi. So‘rovnomalar yordamida o‘quvchilarning sun’iy intellekt vositalariga bo‘lgan munosabati va motivatsiyasi o‘rganildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda statistik usullardan foydalanildi. Xususan, o‘rtacha qiymat, foiz ko‘rsatkichlari va taqqoslash tahlillari qo‘llanildi. Olingan natijalar jadval va diagrammalar orqali vizuallashtirildi hamda ularning ishonchliligi tahlil qilindi.[3]

Natijalar

O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ingliz tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida o‘quvchilarning yakuniy test natijalari boshlang‘ich ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi, nazorat guruhida esa o‘sish darajasi nisbatan past bo‘lib qoldi.



Sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ldi: o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshdi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari rivojlandi, hamda til o‘rganish jarayonida faol ishtirok etish darajasi yuqoriladi. Ayniqsa, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ingliz tilini o‘zlashtirish darajasidagi o‘zgarishlar statistik tahlil asosida tasdiqlandi. Tajriba guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtacha 25–30 foizga oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 10–12 foiz atrofida bo‘ldi. Ushbu natijalar sun’iy intellekt texnologiyalarining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil natijalari jadval va diagrammalar orqali ifodalandi, bunda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq aniq ko‘rinib turdi. Olingan ma’lumotlar tadqiqot gipotezasini tasdiqladi.[4]

Muhokama

Olingan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ingliz tilini o‘qitishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, AI asosidagi o‘quv vositalari o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘qitish jarayonini moslashtirish va natijalarni tezkor baholash imkonini beradi.

Mazkur natijalar boshqa ilmiy izlanishlar bilan hamohang bo‘lib, ularda ham sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, ushbu ilmiy maqola doirasida olingan natijalar harbiy ta’lim sharoitida ham AI vositalari muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Harbiy ta’lim tizimi uchun ushbu natijalar muhim ahamiyatga ega, chunki ular qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Sun’iy intellekt vositalari yordamida o‘quv jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini tezkor baholash va individual yondashuvni ta’minlash mumkin.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarining ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi hamda ayrim hollarda texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik muammolari kuzatilishi mumkin.[5]

Xulosa

Mazkur ilmiy maqola doirasida olib borilgan ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish harbiy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan, sun’iy intellekt vositalarini harbiy ta’lim muassasalarida keng joriy etish, o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish hamda o‘quv jarayonini raqamlashtirish tavsiya etiladi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, sun’iy intellekt texnologiyalarining yangi imkoniyatlarini o‘rganish va ularni ta’lim tizimiga yanada chuqur integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev, J.G., Usmonov, S.A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 45–52-betlar.
2. Azizxo‘jayeva, N.N. (2019). Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 78–84-betlar.
3. Xoliqov, A.A. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 101–109-betlar.
4. Chapelle, C. A. (2001). Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 55–68.
5. Beatty, K. (2013). Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning. London: Routledge, pp. 120–135.

Halima TASHMURADOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQINI SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini sun’iy intellekt vositalari orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llash usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, nutqni rivojlantirish, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, o‘quvchi faolligi, ta’lim samaradorligi*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития речи учащихся начальных классов с использованием средств искусственного интеллекта. Проанализированы роль современных технологий в формировании речевых навыков, их преимущества и практические методы применения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, начальное образование, развитие речи, интерактивные методы, цифровые технологии, активность учащихся, эффективность обучения*

Annotation: this article discusses the development of primary school students’ speech through artificial intelligence tools. The study analyzes the role of modern technologies in forming speech skills, their advantages, and practical application methods.

Key words: *artificial intelligence, primary education, speech development, interactive methods, digital technologies, student engagement, learning effectiveness*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimi har bir shaxsning intellektual va nutqiy rivojlanishida muhim poydevor hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi shakllanib, ularning fikrni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Zamonaviy ta’lim talablariga ko‘ra, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirish nafaqat an’anaviy metodlar, balki innovatsion yondashuvlar orqali ham amalga oshirilishi zarur.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlarni olib kirib, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni dolzarb masalaga aylantirdi. Sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim berish, ularning qiziqishlari va bilim darajasiga mos topshiriqlarni taklif etish hamda nutqiy faoliyatini interaktiv tarzda rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini ham samarali shakllantiradi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini sun’iy intellekt vositalari orqali rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda samarali metodlari yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilinib, ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tegishli tavsiyalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida doimiy e’tiborda bo‘lib kelgan. An’anaviy yondashuvlarda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda suhbat, hikoya tuzish, qayta hikoyalash, matn ustida ishlash kabi metodlar asosiy o‘rin egallagan.

Nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, bolalar nutqining shakllanish jarayoni, uning bosqichlari va rivojlanish omillari psixolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlarda o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhit, muloqot va ta’lim metodlarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt vositalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari, aqlli o‘qitish tizimlari (intelligent tutoring systems) hamda chatbotlar yordamida o‘quvchilarning til va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi o‘rganilgan. Ushbu ishlar natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlash, ularning xatolarini tezkor aniqlash va to‘g‘rilash hamda o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda multimedia vositalari, ovozli texnologiyalar va o‘yin elementlariga asoslangan dasturlarning samaradorligi ham yoritilgan. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning nutqiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini sun’iy intellekt vositalari orqali rivojlantirishning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi.Mavzuning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish tashkil etdi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanish xususiyatlari, ularning yoshga oid psixologik jihatlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. Ilmiy

adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavzuning dolzarbligi, mavjud yondashuvlar va muammolar aniqlashtirildi.

Mavzuni o‘rganish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- kuzatish metodi (o‘quvchilarning nutqiy faolligini aniqlash)
- suhbat metodi (o‘quvchilarning fikr bildirish qobiliyatini o‘rganish)
- test va topshiriqlar (lug‘at boyligi, gap tuzish va matn yaratish ko‘nikmalarini baholash)
- tajriba-sinov metodi (sun’iy intellekt vositalarining samaradorligini aniqlash)
- taqqoslash va tahlil qilish metodlari (nazorat va tajriba natijalarini solishtirish).

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. O‘quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasidagi o‘zgarishlar maxsus mezonlar asosida baholanib, tajriba guruhida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ijobiy natijalar berganligi aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Ish jarayonida olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanishida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish sezilarli ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida olib borilgan taqqoslash natijalari o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarida muayyan farqlar yuzaga kelganini ko‘rsatdi.

Dastlabki bosqichda har ikki guruh o‘quvchilarining nutqiy rivojlanish darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Biroq tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhidagi o‘quvchilarda lug‘at boyligining oshishi, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, fikrni izchil va ravon bayon etish ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularni erkin fikr bildirishga undadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Xulosa va takliflar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish zamonaviy va samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshadi, og‘zaki va yozma nutqi ravonlashadi hamda fikrni mustaqil va izchil bayon etish ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, interaktiv va individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Ishning natijalari sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarga tezkor teskari aloqa berish, xatolarni aniqlash va tuzatishda samarali yordam berishini ham tasdiqladi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirib, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzu asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- boshlang‘ich ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- o‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, xavfsiz va sifatli raqamli ta’lim platformalarini joriy etish;
- dars jarayoniga interaktiv va o‘yin elementlariga asoslangan sun’iy intellekt vositalarini keng tatbiq etish;
- ta’lim muassasalarini zarur texnik vositalar va internet bilan ta’minlashni kuchaytirish;
- sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda pedagogik nazoratni yo‘lga qo‘yish va ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt vositalaridan oqilona va maqsadli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tashmuradova H. A., Mamatqulova A. SPEECH PROBLEMS OF CHILDREN IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND WAYS TO ELIMINATE THEM// INTERNATIONA LSCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES.2 025. –Vol. 2. –No.2.P.2527.

2.Tashmurodova Khalima Allaberdievna. RELATIONS OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND FAMILIES TO THE SCHOOL ON CHILD SPEECH DEVELOPMENT. AMERICANJOURNAL OF SOCIAL SCIENCE. VOLUME Issue-5. 2024 Published. 30-12-2024.

3.Tashmuradova Halima Alaberdiyevna. INTERACTION BETWEEN EDUCATIONAL INSTITUTIONAL AND FAMILY IN THE DEVELOPMENT OF CHILD’S SPEECH. ACTUAL PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRESCHOOL EDUCATION. REPUBLICAN SCIENTIFIC- PRACTICAL CONFERENCE. TERM-2024.

4.Tashmuradova Khalima Alaberdiyevna. INTERACTION BETWEEN EDUCATIONAL INSTITUTIONAL AND FAMILY IN THE DEVELOPMENT OF CHILD’S SPEECH. INTERNATIONAL SCIENCES EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES. VOLUME 2. ISSUE 1.2025.

5.Tashmuradova Halima Alaberdiyevna. Mamatqulova Asila. SPEECH PROBLEMS OF CHILDREN IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND WAYS TO ELIMINATE THEM. INTERNATIONAL SCIENCES EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGY ES.VOLUME 2.ISSUE 2.2025.

6.Khalima Tashmurodova. THE ROLE OF COMMUNICATIVE INTERACTIONINTHEDEVELOPMENT OF SPEECH OF CHILDREN OF PRESCHOOLAGE. EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION. Spiritual-enlightening, scientificmethodicaljournal. ISSN2181-8274.2025.2-ISSUE.309-313PAGES

Lola JALILOVA,
PhD, docent, Bukhara State University
l.j.jalilova@buxdu.uz
Xonzodabegim HAMIDOVA,
Master student
Bukhara State University

TOWARDS EFFECTIVE TRANSLATION IN ONLINE JOURNALISM

Annotation: online journalism represents a modern vision of speed, accuracy and cultural relevance today. For translators or reporters working in this field, the language gap makes this process even more difficult in English and Uzbek. This article analyzes the problems of lexical gaps, idiomatic inconsistencies, grammatical variations and different placement of parts of speech encountered in the translation process between Uzbek and English, and practical methods for overcoming them. Based on examples from real sources, it explains that in the digital information world, being multilingual is not enough, but also requires deep cultural comprehension and practical skills.

Key words: *online journalism, lexical gaps, idiomatic inconsistencies, grammatical variations, language, phraseological units.*

Аннотация: онлайн-журналистика сегодня представляет собой современное видение скорости, точности и культурной значимости. Для переводчиков и журналистов, работающих в этой области, языковой барьер делает этот процесс еще более сложным как на английском, так и на узбекском языках. В данной статье анализируются проблемы лексических пробелов, идиоматических несоответствий, грамматических вариаций и различного расположения частей речи, встречающиеся в процессе перевода между узбекским и английским языками, а также практические методы их преодоления. На основе примеров из реальных источников объясняется, что в цифровом информационном мире многоязычия недостаточно, требуется также глубокое понимание культуры и практические навыки.

Ключевые слова: *онлайн-журналистика, лексические пробелы, идиоматические несоответствия, грамматические вариации, язык, фразеологические единицы.*

Anotatsiya: onlayn jurnalistika bugungi kunda tezlik, aniqlik va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy qarashni ifodalaydi. Ushbu sohada ishlaydigan tarjimonlar yoki muxbirlar uchun tildagi tafovut bu jarayonni ingliz va o'zbek tillarida yanada qiyinlashtiradi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tarjima jarayonida duch keladigan leksik tafovutlar, idiomatik nomuvofiqliklar, grammatik o'zgarishlar va nutq qismlarining turlicha joylashuvi muammolari va ularni bartaraf etishning amaliy usullari tahlil qilinadi. Haqiqiy manbalardan olingan misollarga asoslanib, raqamli axborot dunyosida ko'p tilli bo'lishning o'zi yetarli emas, balki chuqur madaniy tushuncha va amaliy ko'nikmalarni ham talab qilishi tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: *onlayn jurnalistika, leksik bo'shliqlar, idiomatik nomuvofiqliklar, grammatik o'zgarishlar, til, frazeologik birliklar.*

Introduction

The acceleration of online journalism and information exchange has placed greater challenges and increased responsibilities on translators. News travels around the world, regardless of cultural and linguistic differences, and errors in translation, whether cultural, grammatical, or lexical, seriously undermine the credibility of the information or source and the trust of readers. These errors and difficulties are even more faced in Uzbek and English translation. The two languages belong to entirely different language families: English is a Germanic language with an analytic structure, while Uzbek is a Turkic language that is agglutinative in nature, relying heavily on suffixation rather than separate function words (Johanson, 2001). Digital journalism further highlights this difference. Active voice is dominant in writing online articles, with short and attention-grabbing headlines and concise sentences. However, in Uzbek article writing, it is preferred to expand and express thoughts through beautiful sentences and write without going beyond the molds of mentality.

When an Uzbek journalist translates an English article for an Uzbek audience, or vice versa, he or she should pay attention not only to the placement of the parts of speech, but also to expressions and phrases that embody broader meanings, words related to culture, and aspects that cannot be translated word for word. There are some strategies that should be followed to ensure a reliable and high-quality output of the article. As Hatim and Mason (1997, p. 3) argue, "translators mediate between cultures as much as they mediate between languages", and this dual mediation is nowhere more consequential than in journalism, where texts shape public understanding in real time.

One of the persistent problems in Uzbek-English translation is the lack of direct equivalent translations of these words, which linguists also call lexical gap. This problem often arises when translating cultural terms that are specific to a particular region or nation, due to the fact that this meaning is not familiar in another society. The Uzbek people are a nation rich in such cultural and unique words, from poetry to folk oral art, and even in social or everyday life, and unfortunately, none of these have their counterparts or synonyms in English. For example, ***lapar*** is a song sung by young men and women at weddings, gatherings, and folk festivals; it is also a song and dance performed together. It can be roughly translated into English as "comic folk verse" or "satirical improvised song", but neither of these can convey the atmosphere of celebrations and events as well as the Uzbek language. The word ***"ilm-ziyya"*** with its abstract meaning, according to Islamic educational traditions, represents not only intellectual but also moral and spiritual knowledge. This word can be translated as ***"knowledge and enlightenment"***, but simply calling it ***"knowledge"*** undermines the broad meaning of this word.

Phraseological units can also be included among other common difficulties because they are also deep-rooted word combinations that express cultural and social life. Translating them between two languages can lead to a complete loss of meaning or become ridiculous. The skill of the journalistic translator lies in finding a target-language expression that carries the same pragmatic force even when the imagery is completely different (Baker, 2011). For example, ***hamnafas*** - literally "breathing together". The term implies solidarity, synchrony, and shared humanity. In English coverage, the word is retained as a proper noun and contextually explained, since no single English word captures its connotations. This is a standard strategy for culturally specific proper names in journalistic translation like Hamnafas International Accessibility and Inclusion FestivalAnother example taken from online journal is ***omad kulib boqqan*** - literally "luck smiled upon me"- is an expressive idiom for good fortune. The journalistic solution is the idiomatic English "I was lucky", which sacrifices the personification of luck but retains communicative clarity. Baker (2011, p. 68) calls this strategy "translation by a paraphrase using related words," appropriate when the source idiom has no direct equivalent. **O'zini tiymoq** (to restrain or hold oneself) is rendered as "do not allow themselves" in the journalistic sentence *Erkaklar ko'pincha zaif bo'lish, his-tuyg'ularini ifoda etish va yordam so'rashdan o'zlarini tiyishga urinadi*. The translation shifts from a reflexive verb of restraint to a permissive construction, adapting to English stylistic norms. **Boshdan kechirmoq** - literally "to pass through the head"- means "to experience" and is translated as "go through the same experience", a natural English equivalent that retains the sense of endurance and emotional weight.

There are some words or phrases that are simply better left out, for example, "universitet burchaklari" the dictionary meaning of this word could be "university corners" but the reader cannot imagine what it means, so it is better to change it based on the reader's worldview. "Ochiq eshiklar kuni" can be analyzed in the same way. This combination can be translated as "Open Doors Day" but the original essence and meaning cannot be conveyed. That is why it is better to leave it out in the translation. This kind of pragmatic omission or substitution is a recognized translation strategy when cultural specificity would impede communication for the target reader (Newmark, 1988).

While translating not only the lexical and cultural barriers but grammatic differences should be paid attention. Uzbek is a verb-final, subject-object-verb (SOV) language, while English is typically subject-verb-object (SVO). This structural diversity justifies that literal translation negatively affects the naturalness of the sentence and also distorts its meaning. Uzbek also employs an elaborate system of suffixes to mark grammatical relationships including case, tense, aspect, and causativity that English expresses through separate words, auxiliary verbs, or word order. That is why, while translating from Uzbek to English, translators need to reconstruct sentences based on their meaning, rather than breaking them down into phrases and clauses.

Uzbek journalistic prose also frequently uses nominalized verb phrases and long participial clauses that

are standard in Uzbek but become unwieldy in English. A translator working on a news article must regularize these structures, splitting long Uzbek sentences into shorter English ones and converting nominalized constructions into active predications. Failure to do so produces what Berman (1992) calls "deforming tendencies" translations that are technically accurate but stylistically alien to the target-language reader. The challenge of register also deserves mention. Uzbek has a formal-informal distinction that maps imperfectly onto English politeness conventions. News interviews and feature profiles in Uzbek often preserve markers of deference or social hierarchy through pronoun choice and verb agreement that English cannot replicate directly. Translators must decide how much of this social texture to preserve through paraphrase or contextual explanation. The principle of functional or dynamic equivalence, developed by Nida and Taber (1969), holds that the goal of translation is to produce in the target-language reader an effect equivalent to that produced in the source-language reader not to replicate the form of the source text. This principle is especially well suited to online journalism, where the primary goal is communicative clarity and audience impact. Applied to English-Uzbek translation, it means that idiomatic expressions should be rendered by target-language idioms of equivalent pragmatic force, not by literal glosses.

Conclusion

When a culturally specific term has no functional equivalent as with lapar, g'azal, or hamnafas translators have several options: transliteration with a brief gloss, insertion of a parenthetical explanation or a translator's note. In online journalism, where hyperlinks and expandable text are available, cultural glosses can be embedded as tooltips or footnotes without disrupting reading flow. This approach is recommended by Aixelá (1996) for "culture-specific items" that resist domestication. In addition, it is advisable for the translator to collaborate with native editors so that they can retranslate the source into the original source and check for errors. Schäffner (2012) documents the role of editors in mediating between journalistic norms and translation accuracy, noting that the best outcomes are achieved through collaboration rather than solo translation. Another important step today is the creation of each language's own corpus. If each language has its own excellent corpus, this would make the work of translators even easier. For example, the Brown Corpus, which has over 1 million words, or the British National Corpora, which has over 100 million words and their classifications, would give accurate impressions of the correct use of words in English or their usage.

References:

1. Aixelá, J. F. (1996). Culture-specific items in translation. In R. Álvarez & M. C.-Á. Vidal (Eds.), Translation, power, subversion (pp. 52-78). Multilingual Matters.
2. Berman, A. (1992). The experience of the foreign: Culture and translation in romantic Germany (S. Heyvaert, Trans.). State University of New York Press. (Original work published 1984)
3. Bielsa, E., & Bassnett, S. (2009). Translation in global news. Routledge.
4. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics, Vol. 3: Speech acts (pp. 41-58). Academic Press.
5. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The translator as communicator. Routledge.
6. Johanson, L. (2001). Discoveries on the Turkic linguistic map. Swedish Research Institute in Istanbul.
7. Landau, J. M., & Kellner-Heinkele, B. (2001). Politics of language in the ex-Soviet Muslim states. University of Michigan Press.
8. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
9. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). The theory and practice of translation. Brill.
10. Schäffner, C. (2012). Unknown agents in translated political discourse. Target: International Journal of Translation Studies, 24(1), 103-125. https://doi.org/10.1075/target.24.1.05sch
11. Venuti, L. (1995). The translator's invisibility: A history of translation. Routledge
12. https://www.gazeta.uz/en/
13. https://uzbekistan.org/president-only-strong-will-unity-solidarity-and-hard-work-will-ensure-peace-and-development-in-our-country-2/5130/

Shohrukh KHATAMOV,
Teacher English philology faculty,
Department of Practical Aspects of English
UzSWLU

LINGUISTIC, CULTURAL, AND PRAGMATIC ASPECTS OF ORAL TRANSLATION IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation: this article examines linguistic, cultural (linguocultural), and pragmatic aspects of oral translation in the context of rapid development of artificial intelligence technologies. It analyzes how AI-based translation tools influence interpreter performance, meaning transfer, cultural adaptation, and pragmatic accuracy in real-time communication. The study highlights both advantages and limitations of AI in oral translation, emphasizing that while machine systems improve speed and accessibility, human interpreters remain essential for cultural sensitivity and pragmatic adequacy. The results show that effective oral translation in the digital era requires a hybrid approach combining AI technologies and human cognitive abilities.

Key words: *oral translation, artificial intelligence, linguocultural adaptation, pragmatic competence, interpreting, machine translation, communication, intercultural discourse*

Аннотация: данная статья рассматривает лингвистические, культурные (лингвокультурологические) и прагматические аспекты устного перевода в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Анализируется влияние инструментов машинного перевода на деятельность переводчика, передачу смысла, культурную адаптацию и прагматическую точность в коммуникации в реальном времени. Исследование подчеркивает как преимущества, так и ограничения ИИ в устном переводе, отмечая, что, хотя машинные системы повышают скорость и доступность, переводчики-люди остаются незаменимыми для обеспечения культурной чувствительности и прагматической адекватности. Результаты показывают, что эффективный устный перевод в цифровую эпоху требует гибридного подхода, объединяющего технологии искусственного интеллекта и когнитивные способности человека.

Ключевые слова: *устный перевод, искусственный интеллект, лингвокультурологическая адаптация, прагматическая компетенция, устный переводчик, машинный перевод, коммуникация, межкультурный дискурс*

Annotatsiya: ushbu maqola sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida og'zaki tarjimaning lingvistik, madaniy (lingvokulturologik) va pragmatik jihatlarini o'rganadi. Unda AI asosidagi tarjima vositalarining tarjimon faoliyatiga, ma'noning uzatilishiga, madaniy moslashuvga va real vaqt rejimidagi kommunikatsiyaning pragmatik aniqligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot og'zaki tarjimada sun'iy intellektning ham afzalliklari, ham cheklovlarini yoritadi va mashina tizimlari tezlik hamda foydalanish imkoniyatini oshirsa-da, madaniy sezgirlik va pragmatik moslikni ta'minlashda inson tarjimonlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli davrda samarali og'zaki tarjima sun'iy intellekt texnologiyalari va inson kognitiv qobiliyatlarining uyg'unlashgan (gibrid) yondashuvini talab qiladi.

Kalit so'zlar: *og'zaki tarjima, sun'iy intellekt, lingvokulturologik moslashuv, pragmatik kompetensiya, tarjimonlik, mashina tarjimasi, kommunikatsiya, madaniyatlararo diskurs*

Introduction

The rapid development of artificial intelligence has significantly transformed the field of translation and interpreting. In particular, oral translation, which requires real-time processing of speech, has become increasingly supported by AI-based systems such as neural machine translation, speech recognition tools, and intelligent interpreting platforms. These technologies have improved speed and accessibility of communication across languages; however, they have also raised new challenges related to cultural and pragmatic accuracy.

Oral translation is not limited to linguistic equivalence between source and target languages. It also involves the transfer of cultural meanings, social norms, communicative intentions, and pragmatic functions. In other words, successful interpreting requires not only linguistic competence but also linguocultural and pragmatic awareness. Scholars such as Nida (1964), Baker, and House emphasize that translation is a culturally embedded and context-dependent process.

In the era of artificial intelligence, translation systems such as neural machine translation models and speech-to-speech AI interpreters have demonstrated remarkable progress. However, they still struggle with idiomatic expressions, cultural references, humor, politeness strategies, and context-dependent meanings. This gap highlights the continuing importance of human interpreters, especially in high-stakes communication environments such as diplomacy, healthcare, and international business.

Therefore, this study aims to explore how AI technologies influence linguistic, cultural, and pragmatic

dimensions of oral translation and to identify the strengths and limitations of machine-assisted interpreting in modern communication.

This research is based on a qualitative-analytical approach combined with comparative analysis. The study examines existing theoretical literature on translation studies, artificial intelligence in language processing, and pragmatics.

The following methods were applied:

- **Descriptive analysis** to explain the theoretical foundations of oral translation and AI-based interpreting systems.
- **Comparative method** to analyze differences between human interpreting and AI-assisted oral translation.
- **Linguocultural analysis** to evaluate how cultural elements are transferred in translation.
- **Pragmatic analysis** to investigate speech acts, politeness strategies, and contextual meaning in translated discourse.
- **Case study approach** focusing on real examples of AI translation tools used in conversational settings.

These methods allow for a comprehensive understanding of both technological and human aspects of oral translation. A **literature review method** was used to examine scientific sources related to oral interpreting, machine translation, neural networks, and intercultural communication. Special attention was given to theoretical works on pragmatics and linguocultural studies, which provided the conceptual foundation for analyzing meaning transfer beyond literal translation.

The **comparative analysis method** was applied to identify differences between human interpreting and AI-assisted oral translation systems. This included comparing accuracy, fluency, contextual adaptation, and cultural sensitivity in both modes of translation. The comparison allowed for identifying strengths and limitations of artificial intelligence in real-time communication.

A **descriptive-analytical method** was used to systematically describe how AI-based tools such as speech recognition systems, neural machine translation engines, and real-time interpreting applications process spoken language. This method helped to explain the internal functioning of AI systems in relation to linguistic input and output transformation.

The **linguocultural analysis method** focused on how cultural elements, including idioms, metaphors, politeness formulas, and culturally bound expressions, are transferred or distorted in oral translation. This method helped to evaluate the degree of cultural adequacy achieved by both human interpreters and AI systems.

Finally, a **synthesis method** was applied to integrate findings from all analytical approaches in order to form a comprehensive understanding of the interaction between artificial intelligence and human interpreting in oral translation.

The analysis shows that AI technologies significantly enhance the efficiency of oral translation by providing fast and accessible interpretation in multilingual communication. Speech recognition systems and neural machine translation tools can process large volumes of spoken language in real time, reducing communication barriers.

However, results also indicate that AI systems often fail to fully capture cultural nuances and pragmatic meanings. For example, idiomatic expressions, irony, and culturally specific references are frequently translated literally, which leads to misunderstanding or loss of meaning.

The study also reveals that hybrid systems combining AI tools with human supervision provide the most effective results. In such systems, AI performs initial transcription and translation, while human interpreters refine meaning and ensure cultural and pragmatic appropriateness.

The findings suggest that artificial intelligence is transforming oral translation from a purely human cognitive activity into a technology-assisted communicative process. While AI improves speed and accessibility, it cannot fully replace human interpreters due to limitations in cultural intelligence and pragmatic reasoning.

Conclusion and Recommendations


In conclusion, oral translation in the era of artificial intelligence is characterized by both technological advancement and persistent linguistic-cultural challenges. AI systems provide valuable support in terms of speed and accessibility, but they are still limited in handling pragmatics and cultural context.

It is recommended to develop hybrid translation models that combine AI tools with human interpreter supervision. Training programs for interpreters should also include digital literacy and AI tool usage skills. Furthermore, AI systems should be improved with better cultural datasets and pragmatic language models.

Ultimately, effective oral translation requires a balance between technological innovation and human interpretive competence.

References

1. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, pp. 120–145.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, pp. 45–78.
3. House, J. (2015). Translation Quality Assessment. Routledge, pp. 90–112.
4. Pym, A. (2014). Exploring Translation Theories. Routledge, pp. 33–60.
5. Koehn, P. (2020). Neural Machine Translation. Cambridge University Press, pp. 101–130.
6. Vaswani, A. et al. (2017). "Attention Is All You Need." Neural Information Processing Systems, pp. 5998–6008.



TADQIQOTLAR

Oydin MO‘MINOVA,
O‘zDJTU dotsenti, f.f.n.

MAQOL VA MATALLARDAGI SONLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: “maqol va matallardagi sonlarning etnolingvistik xususiyati” mavzusidagi mashg‘ulot “Maqollardagi sonlar – milliy kodlar siri” nomli innovatsion texnologiya asosida o‘tilib, “Interaktiv sayohat” va “Kognitiv tadqiqot” modellari orqali talabalarda sonlarning milliy madaniyat kodi sifatidagi tushunchasini shakllantiradi. Dars davomida “Keys”, “Zinama-zina” va “Debat” metodlari qo‘llanilib, yakunida QR-kodlar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Kalit so‘zlar: *etnolingvistika, maqol, muqaddas sonlar, xalq dunyoqarashi, ramziylik, madaniyat.*

Аннотация: занятие на тему «Этнолингвистические особенности числительных в пословицах и поговорках» проводится на основе инновационной технологии «Числительные в пословицах — секреты национальных кодов». С помощью моделей «Интерактивное путешествие» и «Когнитивное исследование» у студентов формируется понимание числительных как кода национальной культуры. В ходе урока применяются методы «Кейс-стади», «Ступени» и «Дебаты», а в завершение знания закрепляются с помощью QR-кодов.

Ключевые слова: *этнолингвистика, пословица, священные числа, народное мировоззрение, символизм, культура.*

Annotation: the session on “Ethnolinguistic features of numbers in proverbs and sayings” is conducted based on the innovative technology “Numbers in proverbs – secrets of national codes.” Through “Interactive Journey” and “Cognitive Research” models, students develop an understanding of numbers as a code of national culture. During the lesson, “Case study,” “Step-by-step,” and “Debate” methods are applied, and finally, knowledge is reinforced using QR codes.

Key words: *ethnolinguistics, proverb, sacred numbers, folk worldview, symbolism, culture.*

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi etnolingvistika sohasi uchun maqol va matallar eng boy manba hisoblanadi. Xalq donishmandligida sonlar o‘zining matematik ma’nosidan tashqari, chuqur milliy-madaniy semantikaga ega. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi tafakkurida ayrim sonlar muqaddas (sakral) xarakterga ega bo‘lib, ular koinot tuzilishi, inson hayoti bosqichlari va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida raqamlar orqali shakllangan maqol, matal, hikmatli so‘zlardagi sonlar lingvomadaniy kodlar sifatida xalqning uzoq yillik milliy-etnik jihatlarini o‘zida ifodalab keladi.

Darsning maqsadi. Ta’limiy: Maqollardagi sonlarning miqdoriy va ramziy ma’nolarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: etnolingvistik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni o‘stirish.

Tarbiyaviy: milliy qadriyatlarga hurmat va “Yetti avlod” kabi an’analarga amal qilishga undash.

Dars turi: aralash (innovatsion texnologiyalar qo‘llangan holda).

Jihozlar: interaktiv doska, tarqatma “Keys” materiallari, Kahoot platformasi, QR-kodli kartochkalar.

Darsning kirish qismi o‘quvchilarning e’tiborini darsga jalb qilish va mavzuning dolzarbligini ko‘rsatish uchun eng muhim bosqichdir. Kirish qismida o‘qituvchi nutqi davomida ekranda muqaddas sonlar tasvirlangan infografikalarning (masalan, yetti sayyora yoki yetti xazina rasmlari) aylanib turishi darsning innovatsion samaradorligini oshiradi. “Maqollardagi sonlar – milliy kodlar siri” mavzusini quyidagi interfaol tartibda tashkil qilamiz:

I. Kirish so‘zi va psixologik iqlim (2 daqiqa)

O‘qituvchi:

— Assalomu alaykum, aziz talabalar! Bugun biz tilshunoslikning eng qiziqarli tarmoqlaridan biri — etnolingvistika olamiga sayohat qilamiz. Biz kundalik hayotda sonlardan faqat hisob-kitob uchun foydalanishga o‘rganib qolganmiz. Masalan, Navro‘z bayramining asosiy taomi sumalak an’anaga ko‘ra 7 xil masalliqdan tayyorlanadi. Ammo maqollarda bu sonlar butunlay boshqacha, “sehrli” ma’no kasb etadi.

Metod: “*Raqamli klaster*” o‘yini (3 daqiqa)

O‘qituvchi interaktiv doskada yoki qog‘ozda uchta sonni ko‘rsatadi: 7, 9, 40. Doskada **7, 9, 40** sonlari paydo bo‘ladi. Talabalardan ushbu sonlar o‘zbek madaniyatida birinchi bo‘lib nimalarni eslatishi so‘raladi (Aqliy hujum).

— Talabalar, tasavvur qiling, siz qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashini o‘rganyapsiz. Nega biz:”olti avlod” emas, “yetti avlod” deymiz? Nega ayol kishining “o‘ttiz joni bor” emas, “qirq joni bor” deymiz? *(Talabalarning qisqa javoblari tinglanadi)*.

II. Yangi mavzuni bayon qilish (15 daqiqa)

O‘qituvchi:

— Siz aytgan fikrlar aynan etnolingvistikaga borib taqaladi. Etnolingvistika — bu til va madaniyatning bir-

biriga bog‘liqligini o‘rganuvchi soha. Maqol va matallar esa bu sohaning eng boy xazinasi hisoblanadi. Xalq donishmandligida sonlar matematik ma’nosidan tashqari, chuqur milliy-madaniy semantikaga ega. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi tafakkurida ayrim sonlar muqaddas (sakral) xarakterga ega. Ular:

7 soni: “Koinot va Shajara” (Yetti xazina, Yetti avlod).

9 soni: “Hayotning boshlanishi va ijtimoiy munosabatlar” (To‘qqiz oy, To‘qqiz jarima).

40 soni: “Chidamlilik va tozalanish” (Chilla, ayolning joni qirqta).

III. Muammoli savol (Darsga o‘tish)

— Bugun darsimizda biz sonlarning shunchaki miqdor emas, balki “milliy kod” ekanini isbotlaymiz. Tayyormisiz? Unda “Yettilar”, “To‘qqizlar” va “Qirqlar” guruhlariga bo‘linib, ushbu sirlarni birgalikda ochamiz!

1-guruh: “Yettilar” (Mavzu: Shajara va Koinot kodi)

1-topshiriq: “Yashirin raqamni top” (Mantiqiy tahlil)

Guruhga quyidagi matnli kartochka beriladi:

“... ota-bobosini bilmagan yetimlikning belgisidir. ... qaroqchini tanigan tunda adashmaydi”.

Vazifa: Nuqtalar o‘rniga sonni qo‘ying va nega aynan shu son tanlanganini (astronomiya va shajara an’analari asosida) tushuntiring.

1. Yetti sonining sakral ma’nosi. Yetti soni turkiy xalqlar mifologiyasi va islomiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Maqollarda ushbu son ko‘pincha “to‘liqlik” va “ajdodlar bilan bog‘liqlik”ni ifodalaydi. Masalan, *“Yetti avlodini bilmagan – yetim”* maqoli insonning o‘z nasl-nasabini bilish majburiyatini ramziy ravishda yetti avlod bilan chegaralaydi. O‘zbek xalqining nasl-nasab, tarix va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan yuksak hurmatini anglatadi. Bu ibora o‘z ajdodlarini, ya’ni ota, ona, bobo, buvi va undan oldingi besh avlodini tanimagan, nasabini bilmagan insonni ma’naviy ildizsiz, g‘arib va e’tiborsiz (yetim) deb hisoblaydi.

O‘zbek xalq maqollarida keltirilgan yetti soni o‘ziga xos turli semantik vazifani bajaradi. “Yetti yot begona yaxshi” maqolida yetti avlod nazarda tutilgan bo‘lib, bevosita unga nisbat berilgan hamda “uzoq” (salbiy) ma’nosi ifodalangan.

2-topshiriq: “Yetti xazina modelini yaratish”

Vazifa: O‘zbek madaniyatidagi “Yetti xazina” tushunchasini bugungi kun bilan bog‘lang.

Savol: Hozirgi davr yoshlari uchun “Yetti xazina” nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? (Masalan: Internet, til bilish va h.k.).

(1.Sigir – ro‘zg‘orning qassobi va baqqoli; 2.Asalari– oilaning tabibi; 3.Ipak qurti – qizlarning sepi; 4.Objuvoz – qozonning yog‘i; 5. Tegirmon – qorinning belbog‘i; 6. O‘rmon – imorat “suyagi”, qozon olovi; 7.Tovuq – ham obiyovg‘on, ham dori-darmon)

“Men qilaman ikki, Kelinim qiladi yetti” maqolida yetti raqami “tugallanganlik” ma’nosini yuzaga chiqargan. “Bir qizga yetti mahalla – ota-ona” paremilogik birligi o‘zida “umumiylik, jamlik” kabi ma’nolarni aks ettirgan. “Borga yetti kun hayit, yo‘qqa – bir kun” maqolida yetti raqami orqali “doimo, har kuni” kabi semalar yuzaga chiqqan.

2-guruh: “To‘qqizlar” (Mavzu: Huquq va Jamiyat kodi)

1-topshiriq: “Tarixiy detektiv” (Arxiv ishi)

Guruhga I**.** Qadimgi dunyo olimlari “to‘qqiz” raqamini abadiylik, boqiylik ramzi, bilim, aql va taqdir belgisi deb hisoblashgan.“To‘qqiz” raqami chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, “uch”ning uchta takrorlanishini ifodalaydi.Quyida fikrlar yozilgan “keys” beriladi:

“To‘qqiz so‘zi qadimda jarima va sovg‘a o‘lchovi bo‘lgan”.

Vazifa: nega qadimda 7 yoki 10 emas, aynan 9 soni asosiy o‘lchov birligi bo‘lgan? (Ona qornidagi 9 oy bilan bog‘liqligini isbot(lang).

Xalq tushunchasida “to‘qqiz” soni bilan bog‘liq qarashlar ham talaygina. Masalan, Yigit kishi qallig‘iga sovchi qo‘yganida, turmush ehtiyojiga qarab, bir necha “to‘qqiz”dan iborat qalin puli (mahr) beradi. Shuningdek, qarindoshlar orasida jiddiy nizo kelib chiqqanda ham, aybdor tomonga bir necha “to‘qqiz” miqdorida jarima solingan. Eng muhimi, to‘qqiz sonini hurmat qilish – insonning ona qornida to‘qqiz oy-u to‘qqiz kunda shakllanib, dunyoga kelishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Tadqiqotchilarning bir qismi to‘qqiz sonining xosiyatini “to‘qqiz qavat osmon” bilan bog‘lasa, ikkinchi qismi bolaning ona qornida bo‘lish vaqti bilan tushuntiradi. Etnolingvistik nuqtayi nazardan, to‘qqiz soni insonning yaralishi (9 oy, 9 kun) bilan bog‘lanib, hayotning boshlanish va tugallanish nuqtasi sifatida ko‘riladi.

2-topshiriq: “Sarpodagi to‘qqizlar”

Vazifa: Qiz uzatishdagi “To‘qqiz tovoq” yoki “To‘qqiz buyum” an’anasining ramziy ma’nosini oching. Bu yerda son miqdorni anglatadimi yoki “to‘liqlik/mukammallik”nimi?

To‘qqiz soni qadimiy turkiy davlatchilik va oilaviy an’analarda alohida o‘rin tutgan. To‘y marosimlarida “To‘qqiz tovoq”, “To‘qqiz to‘y”, “To‘qqiz yuborish” onalar qizlariga yig‘ayotgan sepini ham ayrim qipchoq sheva vakillarida “to‘qqiz” deb atashadi. “To‘y marosimlarining takomillashuvi natijasida to‘qqiz raqami kuyovning kelinga atalgan maxsus sovg‘asi ma’nosida qo‘llanila boshlagan. An’anaga ko‘ra, kelinning uyida kuyov va uning do‘stlarini mehmon qilish uchun maxsus xona tayyorlanib dasturxonga to‘qqiz xil tansiq taomlar tortiladi. Demak, qadimda to‘qqiz soni “to‘liqlik/mukammallik”ni anglatgan.

3-guruh: “Qirqlar”” (Mavzu: Chidamlilik va biologik chegara kodi)

1-topshiriq: “Maqollar mozaikasi”

Guruhga parchalangan maqollar beriladi:

1. *... qinidan olingan qilichday.*
2. *... chiroqli.*

3. … … yoshda to‘ladi, yomon ...da so‘ladi.”

Vazifa: Maqollarni tiklang va ulardagi “40” soni inson yoshi yoki jismoniy holatiga nisbatan qanday ma’no yuklayotganini sharhlang.

2-topshiriq: “Qirq qoshiq siri” (Etnografik tadqiqot)

Vazifa: bolani “chilla”dan chiqarishda ishlatiladigan 40 qoshiq suv marosimining tibbiy va ma’naviy ahamiyatini tushuntiring. Nega aynan 40? (Ona qornidagi 40 hafta bilan bog‘lang).

Qirq soni inson hayotidagi eng murakkab va serqirra tushunchadir. Chilla tutish milliy urf-odatlarimizdan biri bo‘lib, chaqaloq tug‘ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, marhum ko‘milgan kundan keyingi 40 kun muddat tushunilib, urf-odatlarga ko‘ra tashqi ta’sirlardan himoya qilinadi. *“Ayol qirq chiroqli»* yoki *“Ayolning qirqta joni bor”* maqollarida qirq soni “ko‘plik”, “chidamlilik” va “tugamas kuch” ma’nosida keladi. Shuningdek, bola tug‘ilishi va inson vafoti bilan bog‘liq “qirq kunlik” marosimlar ushbu sonning tozalanish va o‘zgarish davri ekanligini ko‘rsatadi.

Guruhlararo musobaqa: “Maqol dueli”

Dars so‘ngida guruhlar bir-biriga raqamli maqollar orqali “savol” beradi.

Masalan: “Yettilar” guruhi: “Yetti marta o‘lchab, ...”.

Javob: “... bir marta kes” (Raqib guruh davom ettiradi va ushbu sonning funksiyasini aytadi).

Innovatsion baholash: “Fikrlar birjasi”

Har bir guruhning chiqishi boshqa guruhlar tomonidan “**Layk”** (to‘g‘ri tahlil uchun), “**Lampochka”** (yangi g‘oya uchun) yoki “**Savol belgisi”** (tushunarsiz qism uchun) stikerlari orqali baholanadi.

1-topshiriq: “Lingvistik laboratoriya” (Guruhlarda ishlash)

Sinf 3 ta guruhga bo‘linadi: **“Yettilar”, “To‘qqizlar”**, **“Qirqlar”**.

Vazifa: har bir guruhga ichida sonlar qatnashgan, lekin raqamlari tushirib qoldirilgan maqollar beriladi. Ular sonni topib, uning tagidagi **“**yashirin madaniy ma’noni” (etnolingvistik tahlil) tushuntirib berishlari kerak.

2-topshiriq: “Zamonlararo muloqot” (Keys metodi)

Keys: “Nega qadimda “Bo‘lar bola o‘n beshida bosh bo‘lur, bo‘lmas odam qirqida ham yosh bo‘lur” deyishgan, hozirgi kunda esa bu yoshda bola hali o‘yin o‘ynaydi?”

Maqsad: Talabalar o‘sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini bugungi kun bilan solishtirib, etnolingvistik o‘zgarishlarni tahlil qilishadi.

IV. Mustahkamlash (Kahoot yoki QR-viktorina) (5 daqiqa)

Interaktiv o‘yin orqali maqollardagi sonlar bo‘yicha tezkor savol-javob o‘tkaziladi. Masalan: *“Qaysi son chidamlilik va ko‘plik ramzi?”* (Javob: 40).

V. Dars yakuni va Refleksiya (5 daqiqa)

Metod: *“3-2-1 texnikasi”*

Talabalar dars bo‘yicha:

3 ta yangi ma’lumot;

2 ta qiziqarli maqol;

1 ta savol (yoki taklif) yozib qoldirishadi.

Darsda qo‘llaniladigan “Insoniy omil” innovatsiyasi:

“Jonli maqol” texnologiyasi: talabalarga uyga vazifa sifatida biror “muqaddas son” ishtirok etgan maqolni tanlab, uning mazmunini 1 daqiqalik Reels yoki TikTok formatidagi video-tushuntirish shaklida tayyorlab kelish topshiriladi. Bu tilni zamonaviy media bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Baholash: Guruhlarning tahliliy qobiliyati va kreativ yondashuviga qarab “Etnograf-tadqiqotchi” nominatsiyasi bilan taqdirlash.

Xulosa. Darsni shu tariqa o‘tkazish natijasida talabalar xalq maqol va matallaridagi sonlar shunchaki hisob birligi emas, balki milliy kodlar ekanligini, oddiy matematik belgi sifatida talqin etiluvchi raqamlar aslida butun bir xalqning madaniyati, milliy mentaliteti, urf-odati hamda kundalik turmush tarzini namoyon etadigan bebaho xazinaligini va ushbu sonlar vositasida xalq o‘zining hayotiy tajribasini, axloqiy normalarini va dunyo haqidagi tasavvurlarini avloddan-avlodga o‘tkazib kelayotganini, raqamlarda juda ko‘plab sir-sinoatlar saqlangan bo‘lib, ular har bir millatning milliy ma’naviyatini ochib berishga xizmat qilishini talabalar anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov B. O‘zbek folklorida sonlar simvolikasi Bobolardan qolgan naqllar. Yozib oluvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. To‘plab nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izohlar mualliflari Mamatqul Jo‘raev va Ulug‘bek Sattorov.– Toshkent: Fan, 1998.128-bet.

2. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar.–Toshkent: Fan, 1991.152-bet.

3. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –T., 1990.

4. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq maqollari. – T.:Sharq, 2005.512-bet.

Uktam SHUKUROV,
SamDChTI Ingliz tili nazariyasi kafedrasi dotsenti

BADIIY MULOQOTDA LISONIY OLAM MANZARASINING KOGNITIV TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy matnni kognitiv tahlil qilish lisoniy birliklarning mohiyatini ochib berishda eng samarali metodlardan biri sifatida dalillangan. Tadqiqotda matnning tarkibiy va mazmuniy butunligi, uning g‘oyaviy asosi hamda ushbu yo‘nalishning filologiya fanidagi nazariy-amaliy qimmati atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *matn, diskurs, gap, matn hodisasi, struktura, egosentrizm, tagma’no tushunchasi.*

Annotation: this article demonstrates that cognitive analysis of a literary text is one of the most effective methods for revealing the essence of linguistic units. The study thoroughly elucidates the structural and semantic integrity of the text, its ideological foundation, and the theoretical and practical value of this direction in philological science.

Key words: *text, discourse, sentence, text phenomenon, structure, egocentrism, subtext concept.*

Аннотация: в данной статье когнитивный анализ художественного текста доказывается как один из наиболее эффективных методов раскрытия сущности языковых единиц. В исследовании подробно освещены структурно-содержательная целостность текста, его идейная основа и теоретико-практическая ценность данного направления в филологической науке.

Ключевые слова: *текст, дискурс, предложение, текстовое явление, структура, эгоцентризм, понятие подтекста.*

Kirish. Til insonning olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim bo‘lib, nutqiy faoliyat bevosita shaxsiy tajriba va tafakkur mahsulidir. Shu bois, zamonaviy tilshunoslik diqqat markazida lisoniy shakllarni o‘rganish emas, balki bilimlarni muloqotda qo‘llash mexanizmlarini tahlil qilish turibdi. Bu jarayonda matn va diskurs munosabatini tadqiq etish fundamental ahamiyatga ega. Aynan ushbu birliklar doirasida insonning intellektual faoliyati va lisoniy ko‘nikmalari yaxlitlashib, axborot almashinuvi uchun zarur bo‘lgan mental strukturalarni shakllantiradi. Diskursiv faoliyatga bo‘lgan qiziqish til tizimining ko‘pqirrali tabiatini hamda uning inson hayoti bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib beradi. Zero, bu aloqadorlik nuqtalari bevosita nutqiy muloqot jarayonida birlashadi. Binobarin, matn vositasida namoyon bo‘ladigan diskursiv jarayonlar orqali tilning dinamik tabiatini va uning gapdan yuqori bo‘lgan sathlardagi faollashuv qonuniyatlarini chuqur anglash imkoni tug‘iladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqola doirasida ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili hamda badiiy matn semantikasi yo‘nalishlarida shakllangan nazariy qarashlarga tayanadi. Xususan, J. Ostman ishlari diskursni konstruksion yondashuv asosida talqin qilib, til birliklarining kognitiv asoslarini ochib beradi. Ch.S. Pirsning semiotik konsepsiyasi esa matnni belgi tizimi sifatida o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. I.P. Susovning pragmatik yondashuvi diskurs va shaxs omilining o‘zaro aloqasini izohlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Z.Y. Turayeva badiiy matnning semantik va stilistik yaxlitligini ta’minlovchi mezonlarni ishlab chiqqan bo‘lsa, G.P. Uxanov sintaktik strukturalarning matn shakllanishidagi rolini asoslab beradi. Badiiy adabiyot namunasi sifatida V. Saroyanning asari esa nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratadi. Umuman olganda, ushbu manbalar majmuasi maqolaning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, kognitiv-pragmatik yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, kognitiv-pragmatik tahlil metodi orqali badiiy matndagi lisoniy birliklarning mazmuniy va konseptual xususiyatlari o‘rganildi, diskursiv tahlil yordamida muallif, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar aniqlashtirildi. Shuningdek, semantik-stilistik tahlil metodi asosida matnning ichki tuzilishi va yashirin ma’no qatlamlari tahlil qilindi, qiyosiy va interpretativ yondashuvlar orqali esa nazariy qarashlar amaliy misollar bilan boyitildi.

Natijalar va muhokama. Diskurs va matn hodisalari ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikning o‘zaro kesishish nuqtasidagi tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Kommunikativ jarayon odatda “maqsad – reja – matn – ta’sir” zanjiri ko‘rinishida namoyon bo‘lib, unda matn markaziy element vazifasini o‘taydi; aynan matn orqali so‘zlovchi yoki adibning niyati konkretlashadi. Z.Y. Turayeva matn tahlilidagi asosiy vazifa uning mohiyatini belgilovchi semantik va sintaktik mezonlarni aniqlash orqali yaxlitlikni ta’minlashdan iborat ekanini ta’kidlaydi.

Badiiy diskurs tahlilida Y.V. Paduchevaning qarashlari ham e’tiborga molik: u adabiyotshunoslikning poydevori sifatida mukammal lingvistik tahlilni ko‘radi. Muallifning fikricha, matn zamiridagi lisoniy ma’noni anglamay turib, uning ijtimoiy-tarixiy qatlamlarini tadqiq etib bo‘lmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari bilan to‘la mos keladi.

Diskursda so‘zlovchi shaxsining namoyon bo‘lishi badiiy ijodning fundamental asoslaridan biri sanaladi. Ilmiy iste’molda “egosentrizm” deb yuritiluvchi ushbu hodisa lisoniy tizimda turli vositalar orqali o‘z in’ikosini topadi. Tadqiqotchi Islomjonovaning fikricha, aynan shu xususiyat

tufayli til cheklangan birliklar yordamida borliqdagi cheksiz voqea-hodisalarni rang-barang va ko‘p qirrali tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Badiiy matnning kognitiv-pragmatik tahlili muallif, personaj va kitobxon o‘rtasidagi intellektual aloqalarni chuqur anglash imkonini beradi. Bugungi kunda ushbu fanlararo yo‘nalish jadal taraqqiy etmoqda. Kognitiv tilshunoslikning tamal toshi 1956-yilda J. Miller va N. Xomskiy tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, o‘shanda turli bilimlar sohalarini yagona tizimga birlashtirish zaruriyati e’tirof etilgan edi.

Sh. Safarov o‘z tadqiqotlarida Millerning ushbu fanni shakllantirishdagi ko‘p yillik izlanishlari va integratsiyaga asoslangan yondashuvini alohida qayd etadi. Lisoniy ijodkorlik mazkur sohaning o‘zak g‘oyalaridan biridir.

V.Z. Demyankov ta’kidlaganidek, kognitiv tilshunoslik diqqat markazida faqat insonga xos bo‘lgan tafakkur tuzilmalari va tilni o‘zlashtirish mexanizmlari turadi. Muallif kognitiv yondashuvda nutqiy jarayonlar nafaqat lisoniy voqelanish, balki intellektual (fahmiy) amallar tizimi sifatida ham talqin qilinishini uqtiradi.

Inson xotirasida yuzaga keladigan jarayonlar axborot tashuvchi lisoniy tuzilmalarning tarkib topishida ishtirok etishi kognitologiyada doimo ta’kidlanadi.

Biz olamda kuzatilayotgan yangi hodisalarni xotiramizda saqlanayotgan tajriba natijalariga qiyoslagan holda idrok etamiz. Yangiliklarni “hazm qilish”ga yo‘naltirilgan tafakkur harakati xotiraga tayanadi (Deyk, 1988).

A.Chenkining maqolasida til bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida ta’riflanadi. Ruhiy, kommunikativ, vazifaviy va madaniy omillar tilda o‘z aksini topadi. Shunga binoan, kognitiv tilshunoslikda quyidagi muammolar muhokamasi nazarda tutiladi (Chenki 1997: 356):

– tabiiy tillarda kategoriyalashuvning kechishi (jumladan, prototiplik, metafora va kognitiv modellar);

– til va tafakkur munosabati (so‘zlovchi tomonidan tildan olamni tavsiflash maqsadida foydalanish);

– sintaksis va semantikaning kesishuv nuqtasi va o‘zaro aloqasi (nafaqat lug‘aviy birliklar, balki grammatik shakl va so‘z tartibi ham ma’no tashuvchi ekanligini nazarda tutgan holda).

O‘xshash nazariy xulosalar mahalliy tilshunoslikda ham keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, Sh. Safarov o‘z tadqiqotlarida lisoniy mazmun insonning bilish (kognitiv) jarayonlari mahsuli ekanligini isbotlab, semantik tahlil doirasini kengaytirdi. Uning yondashuviga ko‘ra, ma’no shakllanishi statik hodisa emas, balki jonli muloqot va tafakkur uyg‘unligidagi sinergetik-diskursiv jarayondir. Bu esa til birliklarini alohida emas, balki yaxlit tizimda o‘rganishni taqozo etadi.

Demak, matn va diskurs hodisalari tahliliga kognitiv-pragmatik yondashuv an’anaviy sintaktik yondashuv paytida ko‘zga tashlanadigan kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Lekin kognitiv-pragmatik tahlilning ham nuqsonsiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin. Shu sabab matnni til tizimining alohida bir sathini aks ettiruvchi hodisa sifatida qabul qilish xavfli. Boz ustiga, matnlar o‘z tuzilishi, maqsadi va qaysi funksional uslubga xosligiga qarab, turlarga ajraladilar (Yo‘ldoshev 2008. 87; Shodiyev 2020. 15).

Bu turlarni bir xil mezonlar asosida, birgina yondashuv usullari tatbiqida tavsiflash yoki tasniflash qiyin masala. Shu sabab, kognitiv-pragmatik yondashuvni matnning tub mohiyatini aniqlashtiradigan yetakchi yo‘nalish sifatida e’tirof etgan holda, uni boshqa tahlil usullari bilan hamohang bo‘lishi va hamkorlik qilishi mumkinligini inkor etmaslik lozim.

Matn tushunchasi o‘zining ontologik tabiati bilan nafaqat lisoniy, balki murakkab kognitiv hodisadir. Mutolaa jarayonida o‘quvchi so‘zlarni tanibgina qolmay, o‘zining bilimlar bazasiga tayanib muallif niyatini rekonstruksiya qiladi. G.G. Molchanova qayd etganidek, kitobxonning intellektual salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, matndagi implitsit (yashirin) ma’nolarni anglash shunchalik oson kechadi.

Kognitiv yondashuv lisoniy bilimlar va olam haqidagi tasavvurlar kesishmasini matn talqinining asosi deb hisoblaydi. Binobarin, matn yaxlitligini va uning g‘oyaviy-mazmuniy qatlamlarini to‘liq ochib berish uchun tadqiqotda turli nazariy metodlarni sintez qilish talab etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, badiiy muloqotda lisoniy olam manzarasini kognitiv talqin qilish matnning chuqur mazmuniy qatlamlarini ochib berishda muhim ilmiy yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matn va diskurs hodisalari inson tafakkuri, tajribasi hamda kommunikativ niyatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Kognitiv-pragmatik tahlil esa ushbu jarayonlarni yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi. Shu bois, badiiy matnni o‘rganishda turli metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi ilmiy tahlil samaradorligini oshiradi va tilshunoslikda yangi nazariy xulosalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ostman J. Construction discourse: A prolegomenon // Construction grammars: Cognitive grounding and theoretical extensions. – Amsterdam, 2004. P. 121–144.

2. Pirs Ch.S. Prinsipi filologii. – SPB.: Nauka, 2001.

3. Susov I.P. Semiotika i lingvisticheskaya pragmatika // Yazik, diskurs i lichnost. – Tver, 1990. S.125–133.

4.Turayeva Z.Ya. Xudojestvenniy tekst i prostranstvenno - vremenniye otnosheniya // Semantiko - stilisticheskiye issledovaniya teksta i predlojeniya. – L. 1980. S. 3 – 11.

5. Uxanov G.P. O grammaticheskoy prirode pridatochnix predlojeniy. Avtoref. diss.... dokt. filol. nauk. – M., 1970. 34 s.

6. Saroyan W. The Human Comedy. –New York: Dell Publishing Co., 1997.

Diyora ZOYIROVA,
SamDVMCHBU akademik litseyi,
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ANVAR OBIDJON SHE’RIYATIDA LIRIK KECHINMA TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada lirizm, uning davr taraqqiyotidagi xususiyatlari, badiiyati, janriy rang-barangligi ijodkor asarlari misolida tahlil qilingan.Anvar Obidjon ijodida uchraydigan lirizmning o‘zgacha qarashlari: kichik satira(mikrosatira), kinoya, mimika, antiteza, achchiq kulgi, piching, insoniy individuallik kabi tushunchalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *kichik satira (mikrosatira), kinoya, mimika, antiteza, achchiq kulgi, piching, insoniy individuallik*

Annotation: this article analyzes lyricism, its characteristics in the development of its era, its artistic features, and genre diversity through examples from the works of a writer. Distinctive perspectives of lyricism found in the works of Anvar Obidjon—such as small satire (microsatire), irony, mimicry, antithesis, bitter humor, sarcasm, and human individuality—are explored.

Key words: *small satire (microsatire), irony, mimicry, antithesis, bitter humor, sarcasm, human individuality*

Аннотация: в данной статье анализируются лиризм, его особенности в развитии эпохи, художественность и жанровое разнообразие на примере произведений писателя. Рассматриваются своеобразные взгляды на лиризм в творчестве Анвара Обиджона, такие как малая сатира (микросатира), ирония, мимика, антитеза, горький юмор, сарказм и человеческая индивидуальность.

Ключевые слова: *малая сатира (микросатира), ирония, мимика, антитеза, горький юмор, сарказм, человеческая индивидуальность*

Adabiyotning asosiy turlaridan biri hisoblangan lirika ijodkorning, u yaratayotgan qahramonning tuyg‘ulariga asoslanadi. Shu bois ham “lirizmda his-tuyg‘ular ustuvorlik kasb etadi”[1]. Bu tuyg‘ular esa adabiyotshunoslikda lirik kechinma sifatida talqin etiladi. “Poetik asar mazmunini ham lirik kechinma tashkil etadi”[2]. Lirik kechinma o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, u xotira yoki oniy ko‘rinishda[3], rihuy holat ifodasida[4], lirik qahramon yoki muallif “men”[5]ida tasvirlanadi. Anvar Obidjon she’riyatiga mana shu xususiyatlar asosida e’tibor qaratamiz.

Anvar Obidjon o‘zbek adabiyotida nafaqat bolalar shoiri, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini sodda va o‘ynoqi tilda ifodalay olgan mahoratli shoir hamdir. Uning she’riyatidagi lirik kechinma shunchaki his-tuyg‘u bayoni emas, balki hayotning turfa jilvalarini beg‘uborlik prizmasi orqali idrok etish jarayonidir.

To‘qimoqlik osondir, oshna,
Da’vatlar-u ,chaqiriqlarni.
Uyushtirmoq mumkin tantana,
Qarsaklar-u hayqiriqlarni.
Border lekin ikki istisno,
Yashab-yashab bildim shu sirni:
To‘qib bo‘lmas hurmatni aslo,
Uyushtirib bo‘lmas mehrni.[6]

Shoirning “Istisno” sarlavali she’r mazmunida hayotdagi ikki xil muhitni qarama-qarshi qo‘yish, ya’ni antiteza asosida quradi. Matnda e’tirof etilgan da’vat, chaqiriq, tantana, qarsak tashqi sun’iy muhitni ifoda etib, yasalishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy hodisalar sifatida tasvirlaydi. Biroq hurmat va mehr inson qalbining chuqur qatlamlarida, tashqi bosimlarsiz shakllangan sog‘ ichki muhit sanaladi. Bu jarayonni esa hech qanday kuch o‘zgartira olmaydi. Lirik qahramonning “sir”ni anglashi tajribaviy bilim asosida shakllangan xulosadir. Bu kechinma shunchaki hissiyot emas, balki hayotiy xulosa sifatida namoyon bo‘ladi.

She’rda Anvar Obidjonga xos bo‘lgan vazminlik, donishmandona va biroz afsusli ohang bor. Shoir mana shu ohang asosida o‘quvchiga “oshna” deya murojaat etadi. Bu murojaatda o‘ta samimiylik, kamtarlik ufurib turadi. Shoir ikki istisno tushunchasini kiritish orqali insoniy qadriyatlarning daxlsizligini isbotlaydi. Birinchidan, mehrni uyushtirib bo‘lmasligi. Albatta, bu psixologik haqiqatdir. Mehr esa shunday tuyg‘uki, uni majburlab yoki reja asosida ishlab chiqib bo‘lmaydi. Ikkinchisi esa hurmatni to‘qib bo‘lmasligi. Hurmat aslida ijtimoiy aks-sado. U soxta da’vatlar ortidan kelmaydi. Demak, Anvar Obidjonning mazkur she’rida lirik kechinma ijtimoiy tanqid bilan

1 Крошнева М.Е. Теория литературы. – Ульяновск: УлГТУ, 2007. – С. 36. (- 103 с.)
2 Fayzullaeva S. Lirik kechinma va badiiy shakllar.// Academic research in modern science. International scientific-online conference. https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/49767/50119 (06.04.2026-yilda 18.23.da murojaat etildi)
3 Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: O‘z. FA nashriyoti, 2004. 128-bet
4 Жамол Камол. Лирик шеърият. – Тошкент: Фан, 1986.142- б.
5 Турдимов Ж.Б. Лирик кечинма табиати: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1999. 126- б.
6 Анвар Обиджон. Орзудан тонмагаймиз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 8.

uyg‘unlashtiriladi. Shoir “to‘qimoqlik” va “uyushtirmoqlik” kabi fe’llarni “hurmat” va “mehr” kabi otlarga qarama-qarshi qo‘yish orqali insoniy tuyg‘ularning biron-bir ijtimoiy-siyosiy kuchga bo‘ysunmasligini ta’kidlaydi. Bu esa Anvar Obidjon misralarida axloqiy mezonlarning qadrlanishi va soxtakorlikdan xoliligini ko‘rsatuvchi asosiy mezonga aylanadi.

Bezillama, ukajon,
Endi tanbeh bermayman.
Ko‘zlaringga hech qachon
Yov ko‘rinib yurmayman.
Yetdi oxir idrokim:
Ko‘l sokin-u, soy sho‘xdir.
O‘ylab ko‘rsam, hattoki
Tog‘da bir xil tosh yo‘qdir.
Kimdir yo‘g‘rilgan bolga,
Sen – achchiqta’m sharobsan.
Balki aynan shu holda
Betakror va noyobsan[7].

Shoirning “Balki…” she’rida lirik kechinma shirin kinoya, tolerantlik asosida shakllantirilgan. Unda donishmandona bag‘rikenglik ufurib turadi. Matnda ifoda etilgan lirik kechinmada shaxsning o‘zgalar tabiatini boricha qabul qilish jarayonidagi ruhiy evolyutsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Asosiysi, unda lirik qahramon tomonidan “ukajon” qanday bo‘lsa, shunday tan olinadi. Lirik qahramon o‘zining o‘tmishidagi tanbehgo‘y va nazoratchi qiyofasidan voz kechadi. “Bezillama, ukajon” deb boshlanuvchi misradayoq o‘rtadagi tarang munosabatlardan, vaziyatlardan charchaganligini ko‘rsatadi. Shu yo‘l orqali avvalgi yovlikdan bugungi idrokka o‘tiladi. Bizningcha, shu o‘rinda lirik qahramon tartibga soluvchi emas, mana endi kuzatuvchilikni, tushunuvchi mavqeyini ustunroq qo‘yadi. Biroq kinoya orqali, ya’ni “achchiqta’m sharob” metaforasi orqali uning kamchiliklari-yu, nomunofiq qiliqlarini yashirib o‘tirmaydi. Shoir juda nozik kinoyadan mohirona foydalanadi. Natijada bu kinoya “achchiqta’m sharob”ga qiyoslanadi. Insonni “bol” deb maqtash oson, ammo uning “achchiq”ligini tan olish va shunga qaramay uni “noyob” deb atash o‘tkir kinoya zamiridagi katta mehrdir. Shoir bu o‘rinda sen aybdorsan demaydi. Balki sen shunaqangi achchiqsan, lekin shu achchiqliging bilan qiziqsan deydi.

She’rning ikkinchi bandiga nazar tashlansa, shoir tabiat qonunlarini inson tabiatiga ko‘chirganligiga guvoh bo‘lish mumkin. “Ko‘l sokin-u, soy sho‘xdir” misrasi fikrimizni dalillaydi. Bu yerda satirik qarashlar insonni bitta qolipga solishga urinuvchi pedagogik tamoyilga asoslangan. Aslida hammani “sokin ko‘l” qilishga urinish tabiatga qarshi chiqish bilan barobardir. “Tog‘da bir xil tosh yo‘qdir” misrasida esa shoir insoniy individuallikni himoya qilayotgandek tushuncha uyg‘otadi. Satirik tig‘ mazkur misralarda odamlarni bir xil qilishga urinayotgan andozachi jamiyatga yoki shaxsga qaratiladi. She’rning oxirgi misralariga nazar tashlansa, unda lirik kechinma kulminatsiya sifatida jaranglaydi “Balki, aynan shu holda :’’ Betakror va noyobsan”. Lirik qahramon o‘zining barcha tanbehlari befoyda ekanligini, zero har bir insonning o‘z “achchiqligi” uning o‘ziga xosligini belgilashini tushunib yetadi. Kinoya mazkur misrada ijobiy tasdiqqa aylanadi. Demak, Anvar Obidjon ushbu she’rida “kichik satira” (mikrosatira) usulidan foydalanadi. U ukasining (suhbatdoshining) fe’l-atvorini o‘zgartirishdan voz kechish orqali, aslida, uning ustidan yumshoq kuladi. Biroq, bu kulgi kamsituvchi emas, balki falsafiy tan olishdir. Mazkur she’rni falsafiy-hajviy she’r sifatida e’tirof etish mumkin. Misralarda tashbeh (bol, sharob), tazod (sokin, sho‘x), metafora (achchiq sharob) san’at va vositalardan unumli foydalanadi. Bizningcha, mazkur she’r inson – murakkab xilqat degan qarashga asoslangan.

“Iblis!” – deb tirjaydi
Odamga Iblis,
Odam buni ichga qattiq olmadi.
Ming shukurki,
Odam odamdir hanuz,
Iblis esa Odam bo‘lib qolmadi.[8]

Shoirning “Samoviy adolat” she’rida “Odam” va “Shayton” arxetiplari asosida diniy personajlarni inson tabiati va yovuzlik o‘rtasidagi ekzistensial chegara sifatida talqin etadi. Ilk misralaridayoq Odamni “Iblis” deya haqoratlash tushunchalariga duch kelamiz. Shoir juda nozik psixologik inversiya usulidan foydalanadi. Iblisning makkorligi mimik harakati asosida beriladi. Aslida mana shu mimikaning o‘zidayoq yovuzlik ufurib turadi. O‘zining yovuzligini boshqalarga taqash orqali o‘z darajasiga tushirmoqchi bo‘ladi. Bu holatda Odamning reaksiyasi “ichga qattiq olmadi” misrasida jo bo‘ladi. Bu esa Odamning ma’naviy ustunligini ko‘rsatadi. Shaytonning tirjayishi uning yovuzligidan darak bersa, Odamning ichga olmasligi uning bag‘rikengligidan dalolat beradi. Odam Iblisning ig‘vosiga javob qaytarmaydi. Chunki u o‘zligini biladi. “Odam Odamdir hanuz” misrasi kulminatsion nuqtaga aylanadi. Demak, insoniyat o‘z mohiyatini saqlab qolganligi she’rning asosiy g‘oyasi sanaladi. Shu bilan bir qatorda shoir Shayton va Odam o‘rtasidagi qat’iy chegarani ham belgilaydi. “Iblis esa Odam bo‘lib qolmadi” so‘nggi misrasidan joy oladi. Iblisning “Odam bo‘lib qolmagani” yovuzlikning hech qachon insoniy fazilatlarga (shafqat, sevgi, tavba) ega bo‘la olmasligidan darak beradi.

Shoir mazkur matnda satirik pichingdan mohirona foyalangan. Iblisning Odam darajasiga chiqa olmasligi ana shu satirik pichingni keltirib chiqargan. Ya’ni, insonning xatolari bo‘lsa-da, u baribir Iblisdan yuksak turadi. Shoir mahoratida muallif “men”ining o‘rni beqiyos. Muallif “men”i ko‘pincha dono kuzatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu shoir pozitsiyasini ham belgilaydi. Ya’ni voqealarga bir chetdan qarab, ularning mohiyatini bitta so‘z bilan ochib

7 Анвар Обиджон. Орзудан тонмагаймиз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 12.
8 Анвар Обиджон. Орзудан тонмагаймиз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 13.

beradi. U “men”ini bevosita ko‘rsatmaydi, ammo “ming shukur” deyishi orqali o‘zining shukronalik va optimistik pozitsiyasini namoyon etadi. She’rda lirik kechinma ochiq hissiyot shaklida emas, balki falsafiy qoniqish shaklida keladi. Shu bilan bir qatorda she’rda ironik ohang ifoda etilganki, bu Iblisning tirjayishida kuzatiladi. Umuman olganda, Anvar Obidjon mazkur she’rida inson va shaytoniy kuchlar o‘rtasidagi munosabatni lirik “men”ning ichki xotirjamligi orqali hal qiladi. Shoir Iblisni tashqi dushman emas, balki insonni o‘zligidan chiqarishga urinuvchi fitnachi sifatida ko‘rsatadi. She’rning ijobiy yechimi esa Odamning o‘z mohiyatiga sodiq qolganligi bilan belgilanadi.

Bu hovlida
Eskitdan
Xotinboy cho‘ng qozidir.
Nafas olmang, desa bas,
Qolganlar jim, rozidir.
Boqib norg‘il erkakka,
Demang:
“Bu kim? Xo‘sh bu-chi?”
U – er vazifasini
Vaqtincha bajaruvchi[9].

“Omonat mansab” nomli mazkur she’rda Anvar Obidjonning o‘zbek oilaviy hayotidagi matriarxat o‘zgarishlar va erkaklik maqomining pasayishi mavzusini o‘tkir hajviy-satirik planda yoritadi. Shoir bu yerda lirik kechinmani jamiyatdagi og‘riqli ijtimoiy-maishiy muammo bilan ustalik bilan bog‘laydi. She’rning lirik qahramoni oilani kuzatuvchi shaxs. She’r mazmuni ham mana shu begonaning kuzatuvi asosida shakllangan. Uning kechinmasi hayrat, achchiq kulgi va piching aralash masxaradan iborat.

Oiladagi munosabat bir kishining izmi bilan belgilangan. Bir kishining izmi esa lirik qahramonning nutqida kinoyaviy urg‘u ottenkasiga ega. Matndagi “Xotinboy” va “Cho‘ng qozi” nominal kinoya bo‘lib, ismning o‘zidayoq ziddiyatli oksemaron o‘rin egallagan. Xotinboy tushunchasida “boy” hokimlikni, “Xotin” ayollikni anglatadi. Shoir bu ism orqali oiladagi jilovni o‘z qo‘liga olgan, hukmron ayol obrazini yaratadi. “Cho‘ng qozi” arxaik so‘z bo‘lib eng yuqori martabali shaxs, hukm chiqaruvchini anglatadi. Ayolning bu darajaga ko‘tarilishi va hovlidagilarning hatto “nafas olish”ga ham ruxsat so‘rashi oilaviy muhitning naqadar buzilganligidan darak beradi. She’rning kulminatsiyasi oxirgi misrada jo bo‘lgan. Ya’ni “Vaqtincha bajaruvchi”. She’rning kulminatsiyasi, bizningcha oilaviy munosabatlarning eng og‘riqli nuqtasidir. Kuzatuvchi shu o‘rinda vaqtincha bajaruvchiga satirik zarba yo‘llaydi. Ma’lumki, ma’muriy ish qog‘ozlarda bu termin (V.B.) vazifasini bajaruvchi sifatida idrok etiladiki, uning mohiyatida shaxsning hali u darajada loyiq emasligini yoki o‘sha o‘rin hali bo‘shligini bildiradi. Kuzatuvchi bu lozim egasini “norg‘il” (kelbatli, baquvvat) deb tasvirlaydi. Shoir antitezadan (tazod) foydalanishi natijasida ko‘rinish bilan oiladagi o‘rin bir emasligini belgilaydi. Natijada bu erkakning oilada hech qanday so‘zi o‘tmasligiga, u faqat nomigagina “er” deb atalishiga nisbatan olingan o‘ta og‘ir kesatiqdir.

Shoir “Bu kim?” so‘rog‘i orqali sarkazmni yaratdi. Bu sarkazm erkakning shaxsiyati yo‘qolganligidan darak beradi. Demak, Anvar Obidjon ushbu she’rida lirik kechinmani piching, kinoya, sarkazm asosiga yaratadi. She’rdagi piching va kinoya o‘quvchini kuldirishga emas, balki ijtimoiy rollarning almashib qolganidan ogohlantirishga xizmat qiladi.

Xullas, Anvar Obidjon she’riyatida lirik kechinma intellektual tabiatga ega bo‘lib, u shunchaki hissiyotlar portlashi emas, balki chuqur hayotiy tajriba va mushohada mahsulidir. Uning she’rlarida hissiyot hamisha mantiqiy xulosa va falsafiy idrok bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. “Istisno” va “Omonat mansab” kabi she’rlarida shoir tashqi (sun’iy) va ichki (tabiiy) olam o‘rtasidagi ziddiyatni ochib berishda antiteza san’atidan mahorat bilan foydalanadi. “Istisno” she’rida esa lirik qahramoni o‘zgalar tabiatidagi nuqsonlarni rad etish emas, balki ularni “achchiqta’m sharob” sifatida, ya’ni boricha qabul qilish darajasiga ko‘tarilgan. Shoirning kinoyasi kamsituvchi emas, balki insonning murakkab xilqat ekanligini tasdiqlovchi “shirin piching” xarakteriga ega. “Samoviy adolat” she’rida Odam va Iblis arxetiplari orqali insonning ma’naviy barqarorligi masalasi qo‘yiladi. Muallif “men”i bu yerda bevosita ishtirokchi emas, balki dono kuzatuvchi pozitsiyasida turib, insoniyatning o‘z mohiyatiga sodiqligini ma’naviy g‘alaba sifatida baholaydi.

9 Анвар Обиджон. Орзудан тонмагаймиз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 18.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Крошнева М.Е. Теория литературы. – Ульяновск: УлГТУ, 2007. - 103 с.
2. Fayzullaeva S. Lirik kechinma va badiiy shakllar.// Academic research in modern science. International scientific-online conference. https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/49767/50119 (06.04.2026-yilda 18.23.da murojaat etildi)
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T., O‘z. FA nashriyoti, 2004.128
4. Жамол Камол. Лирик шеърият. – Тошкент: Фан, 1986. 142-б.
5. Турдимов Ж.Б. Лирик кечинма табиати: Филол. фан. ном. ... дис. –Тошкент, 1999. 126-б.
6. Анвар Обиджон. Орзудан тонмагаймиз. – Тошкент: Шарқ, 2019.128-б.

Nodira MAMAJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tatqiqotchisi



O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ONA OBRAZI VA DAVR RUHIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili O‘tkir Hoshimov ijodida muhim o‘rin tutuvchi ona obrazi va davr dramatizmi masalalari tahlil qilinadi. Xususan, yozuvchining “Ikki eshik orasi” romanida ona obrazining badiiy talqini, uning ruhiy kechinmalari hamda jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy o‘rni ochib berilgan. Tadqiqotda ona obrazi nafaqat oilaviy qadriyatlar timsoli, balki murakkab tarixiy jarayonlar fonida insoniylik, sabr-toqat va fidoyilik ifodasi sifatida yoritiladi. Shuningdek, asarda aks etgan davr dramatizmi inson taqdirlari misolida tahlil qilinib, urush va urushdan keyingi davrning ijtimoiy-psixologik muhiti badiiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *ona obrazi, davr dramatizmi, O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, badiiy obraz, ijtimoiy muhit, urush davri, psixologik tasvir, o‘zbek adabiyoti, realizm.*

Аннотация: в данной статье анализируются образ матери и драматизм эпохи в творчестве Уткир Хошимов, одного из выдающихся представителей узбекской литературы. На примере романа «Икки эшик ораси» раскрываются художественные особенности образа матери, её внутренние переживания и социально-нравственная роль в обществе. Образ матери рассматривается не только как символ семейных ценностей, но и как выражение гуманизма, терпения и самоотверженности в сложных исторических условиях. Кроме того, драматизм эпохи анализируется через судьбы героев, что позволяет глубже понять социально-психологическую атмосферу военного и послевоенного периода.

Ключевые слова: образ матери, драматизм эпохи, Уткир Хошимов, «Икки эшик ораси», художественный образ, социальная среда, военный период, психологическое изображение, узбекская литература, реализм.

Annotation: this article explores the image of the mother and the dramatism of the historical period in the works of O‘tkir Hoshimov, a prominent figure in Uzbek literature. Focusing on the novel “Ikki eshik orasi” (Between Two Doors), the study examines the artistic representation of the mother figure, her inner psychological experiences, and her socio-cultural role. The mother image is interpreted not only as a symbol of family values but also as a representation of humanity, patience, and devotion within a complex historical context. Furthermore, the dramatism of the period is analyzed through the destinies of the characters, revealing the socio-psychological realities of the war and post-war eras.

Key words: *mother image, period dramatism, O‘tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi, artistic image, social environment, war period, psychological depiction, Uzbek literature, realism.*

Kirish.O‘zbek adabiyotida inson taqdiri, jamiyat muammolari va ma’naviy qadriyatlarni yoritishda badiiy obrazlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, ona obrazi azaldan muqaddas timsol sifatida talqin qilinib, u orqali insoniylik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi yuksak fazilatlar ifoda etib kelingan. O‘tkir Hoshimov ijodi esa bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyotining eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, unda inson hayoti, urushning og‘ir oqibatlari va murakkab davr ruhiyati chuqur badiiy tasvirlangan. Asarda turli ijtimoiy qatlam vakillarining hayoti orqali butun bir davr manzarasi gavdalanadi. Ayniqsa, ona obrazi orqali yozuvchi insoniy fazilatlarning eng oliy ko‘rinishini yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Bugungi kunda ham ona obrazi va davr dramatizmini o‘rganish nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Chunki bu obraz orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasi, insoniy qadriyatlar tizimi aks etadi.

Asosiy qism.O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ona obrazi markaziy badiiy-estetik tushunchalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ushbu obraz orqali nafaqat oilaviy muhitni, balki kengroq ma’noda jamiyatning ma’naviy qiyofasini ochib beradi. Ona obrazi asarda oddiy bir qahramon sifatida emas, balki hayotning og‘ir sinovlaridan o‘tgan, ichki ruhiy bardoshi bilan ajralib turadigan timsol sifatida gavdalanadi. Romandagi ona obrazlari o‘ziga xos ruhiy chuqurlik bilan tasvirlangan. Ularning har biri o‘z taqdiri, kechinmalari va qarashlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, urush yillari va undan keyingi davrda ayollarning zimmasiga tushgan og‘ir yuk yozuvchi tomonidan hayotiy va ishonarli tarzda yoritilgan. Ona farzand tarbiyasi, oila saqlanishi va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda muhim rol o‘ynovchi kuch sifatida ko‘rsatiladi.

Asarda ona obrazining asosiy xususiyatlaridan biri — sabr-toqat va matonatdir. Turli qiyinchiliklarga qaramay, u o‘z insoniyligini yo‘qotmaydi, aksincha, atrofdagilar uchun ma’naviy tayanchga aylanadi. Bu jihat orqali yozuvchi o‘zbek ayolining ichki qudratini, ruhiy mustahkamligini badiiy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, ona obrazi

orqali mehr-muhabbat, fidoyilik va kechirimlilik kabi fazilatlar yuksak darajada ifodalanadi. Ona o‘z manfaatidan ko‘ra farzandlari va yaqinlari baxtini ustun qo‘yadi. Bu esa obrazning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Yozuvchi ona obrazini yaratishda psixologik tasvir vositalaridan keng foydalanadi. Qahramonlarning ichki monologlari, ruhiy kechinmalari, hayotga bo‘lgan munosabatlari orqali ularning ichki dunyosi ochib beriladi. Natijada o‘quvchi nafaqat voqealarni kuzatadi, balki qahramonlar bilan birga yashaydi, ularning iztiroblari va quvonchlarini his qiladi. Bundan tashqari, ona obrazi romanda ma’naviy mezon vazifasini ham bajaradi. Yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va adolatsizlik kabi tushunchalar aynan shu obraz orqali baholanadi. Shu sababli ham ona obrazi asarning g‘oyaviy yukini ko‘taruvchi asosiy ustunlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, “Ikki eshik orasi” romanidagi ona obrazi o‘zining hayotiyligi, ruhiy chuqurligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. U nafaqat alohida bir qahramon, balki butun bir davrning ma’naviy timsoli sifatida talqin etiladi.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida davr dramatizmi alohida badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda tasvirlangan voqealar oddiy hayotiy lavhalar yig‘indisi emas, balki muayyan tarixiy davrning murakkab va ziddiyatli manzarasini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Yozuvchi urush va urushdan keyingi davrni inson taqdiri orqali ochib berib, davrning ichki dramatizmini chuqur yoritadi. Romanda aks etgan davr dramatizmining asosiy manbai — bu inson va zamon o‘rtasidagi ziddiyatdir. Qahramonlar o‘z orzu-intilishlari bilan mavjud sharoit o‘rtasida kurash olib boradilar. Bu kurash ko‘pincha ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar orqali ifodalanadi. Natijada asarda tashqi voqealardan ko‘ra ichki dramatizm ustuvorlik kasb etadi. Urush davri inson hayotiga keskin o‘zgarishlar olib kiradi. Erkaklarning frontga ketishi, oilalarda yuzaga kelgan yetishmovchilik, og‘ir turmush sharoiti — bularning barchasi jamiyat ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvchi ushbu jarayonlarni umumiy tasvirlash bilan cheklanmay, har bir qahramon taqdiri misolida individual tarzda ochib beradi. Shu orqali davr dramatizmi yanada jonli va ta’sirchan ko‘rinish oladi.

Asarda dramatizmning yana bir muhim jihati — bu ijtimoiy adolatsizlik va ma’naviy sinovlardir. Qahramonlar ko‘pincha adolatsiz vaziyatlarga duch keladilar, biroq har kim bu holatga turlicha munosabat bildiradi. Kimdir sinadi, kimdir esa aksincha, yanada chiniqadi. Bu esa yozuvchining inson tabiatiga chuqur nazar tashlaganini ko‘rsatadi.

Davr dramatizmi, ayniqsa, insoniy munosabatlar tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Oila, qo‘ni-qo‘shnichilik, do‘stlik kabi ijtimoiy aloqalar sinovdan o‘tadi. Murakkab sharoitda kimning asl qiyofasi ochilishi, kimning esa soxta qadriyatlar ortiga yashiringani ayon bo‘ladi. Bu esa asarning ijtimoiy-falsafiy mazmunini yanada boyitadi. Yozuvchi dramatizmni kuchaytirishda kontrast usulidan ham samarali foydalanadi. Masalan, tinch hayot orzusi bilan urush haqiqatining qarama-qarshiligi, insoniylik bilan shafqatsizlikning to‘qnashuvi asarda kuchli badiiy ta’sir uyg‘otadi. Bu qarama-qarshiliklar orqali davrning murakkabligi yanada aniqroq ochib beriladi.

Shuningdek, romanda vaqt kategoriyasi ham dramatizmni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi. O‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlik, xotiralar orqali berilgan lavhalar qahramonlarning ruhiy holatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa asarning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi. Umuman olganda, “Ikki eshik orasi” romanida davr dramatizmi inson taqdiri, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy muhit orqali kompleks tarzda yoritilgan. Yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy umumlashtirish orqali o‘quvchiga chuqur ta’sir etuvchi asar yaratishga erishgan.

Xulosa. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyotida inson taqdiri, ma’naviy qadriyatlar va tarixiy davr ruhiyatini chuqur badiiy talqin etgan asarlardan biridir. Mazkur tadqiqot jarayonida romanda aks etgan ona obrazi va davr dramatizmi masalalari tahlil qilinib, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritildi. Ona obrazi asarda nafaqat oilaviy qadriyatlar ifodachisi, balki jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida tasvirlangan. Uning sabr-toqati, fidoyiligi, ruhiy matonati orqali yozuvchi o‘zbek ayolining yuksak fazilatlarini umumlashtirgan badiiy timsol yaratgan. Ona obrazi romanning g‘oyaviy markazida turib, boshqa obrazlar va voqealar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, asarda aks etgan davr dramatizmi inson va zamon o‘rtasidagi murakkab munosabatlar orqali ochib berilgan. Urush va urushdan keyingi davrning og‘ir sinovlari qahramonlar taqdirida o‘z aksini topgan bo‘lib, bu jarayon yozuvchi tomonidan chuqur psixologik tahlil asosida yoritilgan. Natijada asarda nafaqat tarixiy voqelik, balki inson ruhiyatidagi keskin o‘zgarishlar ham haqqoniy tasvirlangan. “Ikki eshik orasi” romani badiiy jihatdan mukammal, mazmunan esa chuqur falsafiy asar bo‘lib, unda ona obrazi va davr dramatizmi o‘zaro uyg‘unlikda ifodalangan. Bu esa asarning nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini ham belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qo‘chqorov R. Badiiy mahorat asoslari. – Toshkent.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.
6. O‘zbek adabiy tanqidchiligi materiallari (turli ilmiy maqolalar to‘plami).

Dilbar AVLAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Til va adabiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

MUALLIF VA QAHRAMON ONGINING O‘ZARO MUNOSABATI, KONFLIKT VA G‘OYA EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Intellektual roman janriga mansub asarlarda o‘z aksini topgan va asarning yaralishi uning voqealanishida muhim turtki bo‘lgan, muallif va qahramon ongining o‘zaro munosabatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari asosida maskur romanlarda izchil ravishda o‘rin olgan qahramon va muallifning ichki kechinmalari yoxud tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari, inson ongining murakkab jarayonlari, konflikt va g‘oya evolyutsiyasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *intellektual romon, muallif va qahramon ongining munosabati, ichki tafakkur, o‘zaro konflekt, g‘oya, evolyutsiya.*

Аннотация: в статье теоретически анализируется взаимосвязь между сознанием автора и героя, которая находит отражение в произведениях, относящихся к жанру интеллектуального романа, и является важным стимулом для создания произведения. Исследование, основанное на примерах узбекской и мировой литературы, проливает свет на внутренние переживания или специфические особенности мышления героя и автора, сложные процессы человеческого разума, конфликты и эволюцию идей, которые постоянно присутствуют в романах интеллектуального жанра.

Ключевые слова: *интеллектуальный роман, взаимоотношения между сознанием автора и главного героя, внутренние мысли, взаимный конфликт, идея, эволюция.*

Annotation: the article theoretically analyzes the relationship between the author and the hero’s consciousness, which is reflected in works belonging to the genre of the intellectual novel and is an important impetus for the creation of the work. The study, based on examples of Uzbek and world literature, sheds light on the internal experiences or specific features of the thinking of the hero and the author, complex processes of the human mind, conflict and the evolution of ideas, which are consistently present in the novels of the intellectual novel.

Key words: *intellectual novel, relationship between the author and the protagonist’s consciousness, inner thought, mutual conflict, idea, evolution.*

Intellektual roman — badiiy adabiyotning murakkab va chuqur mazmunga ega janrlaridan biri bo‘lib, unda inson tafakkuri, ong jarayonlari va falsafiy qarashlari markaziy o‘rin egallaydi. Bu turdagi romanlarda voqealar rivojidan ko‘ra, qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayot haqidagi mulohazalari muhimroq hisoblanadi.

Intellektual romanlarda muallif ko‘pincha insonning mavjudligi, hayotning ma’nosi, axloqiy tanlov va haqiqat masalalarini ko‘taradi. Asar qahramonlari oddiy harakat qiluvchi obrazlar emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi va o‘zini anglashga intiluvchi shaxslardir. Shu sababli bunday romanlarni o‘qish o‘quvchidan ham chuqur fikrlash va e’tibor talab qiladi. Bunday asarlarni biz badiiy tafakkurning murakkab shakllaridan biri deb olsak , unda inson ongining chuqur qatlamlari, ichki kechinmalar va falsafiy izlanishlar markaziy o‘rin egallashini tushunib yetamiz.

Intellektual romanlarda muallif va qahramon o‘rtasidagi munosabat an’anaviy epik asarlardagidan farqli ravishda ancha murakkab va ko‘p qatlamlidir. Muallif ko‘pincha o‘z falsafiy qarashlarini bevosita emas, balki qahramon tafakkuri orqali ifodalaydi. Natijada qahramon ongida yuz berayotgan ichki dialoglar, shubhalar, qarama-qarshiliklar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu jarayonda muallif va qahramon ongining chegaralari ba’zan bir-biriga tutashib ketadi, ba’zan esa keskin farqlanadi. Mazkur janrda yozilgan asarlar orasida jinoyat va jazo muhim o‘rin tutadi. Ushbu roman muallifi Fyodor Dostoyevskiy inson ruhiyatini chuqur tahlil qilib, axloqiy va falsafiy muammolarni yoritgan. Shuningdek, Jarayon asarida Franz Kafka insonning jamiyat va tizim oldidagi ojizligini falsafiy ruhda tasvirlaydi.

Jarayon — XX asr jahon adabiyotidagi eng mashhur va murakkab intellektual romanlardan biri hisoblanadi. Asar yozuvchining vafotidan keyin nashr etilgan bo‘lsada

bugungi kunda absurd adabiyot hamda falsafiy romanlar orasida alohida o‘rin egallaydi. Roman syujeti juda g‘ayrioddiy: bosh qahramon Yozef K. bir kuni hech qanday aniq sabab ko‘rsatilmasdan hibsga olinadi. Biroq u qamoqqa tashlanmaydi, balki “erkin” holda yurishda davom etadi. Shunga qaramay, u noma’lum sud tizimi tomonidan ayblanadi va o‘zini oqlashga urinadi. Asar davomida Yozef K. sudning mohiyatini, o‘z aybini va unga qo‘yilgan ayblovning sababini tushunishga harakat qiladi, lekin hech qachon aniq javob topa olmaydi.

Roman voqealari tashqi harakatlardan ko‘ra ko‘proq qahramonning ichki holati, qo‘rquvi, iztirobi va tushunmovchiliklari orqali ochiladi. Kafka bu asarda insonning zamonaviy jamiyatdagi begonalashuvi, byurokratik tizimlar oldidagi ojizligi va hayotning ma’nosizligi kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Sud tizimi esa real tashkilot emas, balki inson ongidagi qo‘rquv, aybdorlik hissi va tushunarsiz kuchlarning ramzi sifatida talqin qilinadi. Asarda muallif va qahramon ongining o‘zaro aloqasi juda kuchli. Yozef K.ning ichki monologlari orqali Kafka insonning o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi murakkabliklarni ko‘rsatadi. Qahramon tobora ko‘proq tushunarsiz vaziyatga tushib borar ekan, uning ongida xavotir, ishonchsizlik va umidsizlik kuchayadi. Bu esa intellektual romanlarga xos bo‘lgan ichki konfliktning asosiy shaklidir. Roman oxirida Yozef K. o‘z aybini bilmagan holda qatl etiladi. Bu yakun asarning eng muhim falsafiy xulosalaridan birini beradi: inson ba’zan o‘zi tushunmaydigan tizimlar va kuchlar oldida mutlaqo ojiz bo‘lib qoladi. Shu orqali Kafka inson erkinligi, adolat va haqiqat tushunchalarini shubha ostiga qo‘yadi.

Jarayon romanida Franz Kafka insonning begonalashuvi, tushunarsiz tizimlar qarshisidagi ojizligi va ichki qo‘rquvlarini absurd holatlar orqali tasvirlaydi. Asar qahramoni Yozef K. boshidan kechirayotgan voqealar tashqi reallikdan ko‘ra ko‘proq inson ongidagi xavotir va noaniqliklarning timsolidir. Bu yerda ham muallifning ichki dunyosi va falsafiy qarashlari qahramon ongida o‘z aksini topadi.

Jinoyat va jazo romanida intellektuallik, qahramon va muallif munosabati, konflikt hamda g‘oya evolyutsiyasi masalalari murakkab badiiy tizimda ifodalangan bo‘lib, ularni ilmiy-adabiy yondashuv asosida tahlil qilish muhimdir.

Avvalo, asardagi intellektuallik masalasi Rodion Raskolnikov obrazi orqali ochiladi. Raskolnikovning “buyuk insonlar” nazariyasi Napoleon Bonapart kabi tarixiy shaxslar faoliyatidan ilhomlangan bo‘lib, individualistik qarashlarga yaqin turadi. Biroq bu nazariya sof falsafiy emas, balki ijtimoiy-psixologik ziddiyat mahsuli sifatida talqin qilinadi. Adabiyotshunoslar ta’kidlashicha, Dostoevsky bu yerda ratsionalizmni tanqid qilib, inson ongining chegaralanganligini ko‘rsatadi[1].

Qahramon va muallif munosabati polifonik (ko‘p ovozli) uslub orqali namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha Mikhail Bakhtin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra Dostoevsky asarlarida muallif ovozi qahramon ovozidan ustun qo‘yilmaydi[2]. Shunday ekan, Raskolnikov g‘oyalari bevosita muallif fikri emas, balki mustaqil ideologik pozitsiya sifatida beriladi. Bu yondashuv oldingi matndagi “muallif qahramonni sinovdan o‘tkazadi” degan soddalashtirilgan fikrni aniqlashtirishni talab etadi: aslida muallif ochiq hukm chiqarmaydi, balki turli qarashlarning to‘qnashuvini tashkil qiladi.

Konflikt masalasida ham aniqlik kiritish zarur. Asarda asosiy konflikt faqat ichki (psixologik) emas, balki ichki va tashqi ziddiyatlar birligidan iborat. Raskolnikovning vijdoni bilan kurashi ichki konfliktni tashkil etsa, uning Porfiry Petrovich bilan intellektual qarama-qarshiligi tashqi konfliktning muhim ko‘rinishidir. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit — qashshoqlik, tengsizlik — ham konfliktning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi[3].

G‘oya evolyutsiyasi masalasida ham muayyan tuzatish kiritish lozim. Raskolnikovning qarashlari oddiy “noto‘g‘ri g‘oyadan to‘g‘ri g‘oyaga” o‘tish tarzida emas, balki murakkab dialektik jarayon sifatida rivojlanadi. Dastlab u o‘z nazariyasiga qat’iy ishonsa-da, jinoyatdan keyin yuzaga kelgan ruhiy inqiroz bu nazariyaning amaliy jihatdan barbod bo‘lishini ko‘rsatadi. Sofiya Marmeladova obrazi esa axloqiy va diniy qadriyatlarning timsoli sifatida g‘oya evolyutsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha, bu jarayon nasroniylikdagi tavba va ruhiy tiklanish konsepsiyasi bilan bog‘liqdir[4]. Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanida Raskolnikov obrazi orqali inson ongidagi axloqiy kurashni tasvirlaydi. Bu yerda muallif qahramon ongiga chuqur kirib boradi, uning ichki monologlari orqali jamiyat, adolat va jinoyat haqidagi murakkab savollarni o‘rtaga tashlaydi. Xuddi shunday, Jarayon asarida Franz Kafka insonning noma’lum kuchlar qarshisidagi ojizligi va ongiy iztiroblarini qahramon

1 Frank, J. Dostoevsky: A Writer in His Time. Princeton University Press.
2 Bakhtin, M. Problems of Dostoevsky’s *Poetics*. University of Minnesota Press 1984.
3 Jackson, R. L. The Art of Dostoevsky. Princeton University Press 1990.
4 Terras, V. A Karamazov Companion: Commentary on the Genesis, Language, and Style of Dostoevsky’s Novel. University of Wisconsin Press 1967.

tafakkuri orqali ochib beradi. Jinoyat va jazo asarida bosh qahramon Raskolnikovning ichki monologlari orqali inson ongidagi ziddiyatlar, axloqiy tanlov va ruhiy iztiroblar yoritiladi. Bu yerda muallif Fyodor Dostoyevskiy o‘z falsafiy qarashlarini bevosita qahramon tafakkuri orqali ifodalaydi. Raskolnikovning “buyuk insonlar” haqidagi nazariyasi va uning amaliy oqibatlari yozuvchi ongidagi ijtimoiy va axloqiy muammolarning badiiy ifodasidir. Demak, muallif va qahramon o‘rtasidagi ongiy aloqadorlik asar konfliktining shakllanishida muhim omil bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, “Jinoyat va jazo” romanida intellektuallik tanqidi, polifonik tuzilma, ko‘p qatlamli konflikt va murakkab g‘oya evolyutsiyasi o‘zaro uyg‘unlashgan. Asarni ilmiy asosda tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Dostoevsky insonni faqat ijtimoiy yoki mantiqiy mavjudot sifatida emas, balki chuqur ruhiy va axloqiy olam egasi sifatida talqin etadi.

O‘zbek adabiyotida ham intellektual roman unsurlari kuzatiladi. Xususan, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Ulug‘bek Hamdam asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar va hayotiy-falsafiy mushohadalar muhim o‘rin egallaydi. Muallif qahramonlarining ichki dunyosini tasvirlash orqali o‘quvchini chuqur o‘yga chorlaydi. Masalan O‘tkir hoshimovning “Dunyoning ishlari” romani unda ona obrazi orqali insoniy tuyg‘ularning chuqur qatlamlarini ochib beriladi. Qahramonlarning farzand va ota-onaga bo‘lgan mehr-muhabbati, kech anglangan qadri orqali o‘quvchi ichki kechinmalarga guvoh bo‘ladi. Bu asarda ruhiyat xotira va sog‘inch orqali tasvirlanadi. Bundan tashqari yozuvchining “Ikki eshik orasi” romanida ham inson hayotining murakkabligi va taqdirini tahlil qiladi. Urush va uning oqibatlari odamlar ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi, qahramonlar doimo yaxshilik va yomonlik, vijdon va manfaat o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘ladi. Ichki kurash va hayotiy falsafa bu asarning asosiy mavzusi hisoblanadi. O‘tkir hoshimovning bir nechta asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi va jamiyat bilan ziddiyati yorqin ko‘rinadi. Inson qalbidagi ikkiyuzlamachilik, iztirob va haqiqat izlash jarayoni muallif tomonidan chuqur tahlil qilinadi. Ruhiyat ziddiyat va izlanish orqali ochiladi. Yoshlar hayoti, sevgi va armonlarni yoritadi. Qahramonlarning orzu-umidlari va ularning barbod bo‘lishi orqali ichki iztirob tasvirlanadi. O‘quvchi qahramon bilan birga ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi. Intellektual roman janri inson ongining murakkab qatlamlarini, ichki kechinmalar va tafakkur jarayonlarini chuqur tahlil etishi bilan ajralib turadi. Bu jihat ayniqsa o‘zbek adabiyotida Ulug‘bek Hamdam ijodida yorqin namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida muallif va qahramon ongining o‘zaro uyg‘unligi, ruhiy iztiroblar va falsafiy izlanishlar markaziy o‘rin egallaydi.

Masalan, Muvozanat romanida inson hayotidagi ichki va tashqi muvozanat masalasi falsafiy jihatdan yoritiladi. Asar qahramonining o‘z-o‘zi bilan kurashi, hayot mazmunini anglashga bo‘lgan intilishi muallif tafakkurining bevosita ifodasidir. Bu yerda voqealar rivoji tashqi harakatdan ko‘ra ko‘proq qahramonning ichki monologlari, o‘y-fikrlari orqali beriladi. Natijada o‘quvchi qahramon ruhiyati bilan birga muallifning ham falsafiy qarashlarini his qiladi. Yozuvchining Isyon va itoat asarida esa insonning ijtimoiy muhit va shaxsiy e’tiqod o‘rtasidagi ziddiyati chuqur tahlil qilinadi. Bu roman intellektual janrga xos ravishda inson ongidagi qarama-qarshiliklar, tanlov va ichki isyon masalalarini yoritadi. Qahramonning har bir qarori uning ichki kechinmalari bilan bog‘liq holda ochiladi va bu jarayonda muallifning dunyoqarashi ham namoyon bo‘ladi. Ulug‘bek Hamdam asarlarida konflikt ko‘pincha tashqi voqealardan emas, balki insonning o‘z ichki dunyosida kechayotgan kurashlardan kelib chiqadi. Bu esa intellektual romanlarga xos bo‘lgan muhim belgidir. Qahramon va muallif ongining o‘zaro tutashuvi orqali asarda g‘oya bosqichma-bosqich rivojlanadi, inson ruhiyati esa murakkab, ko‘p qatlamli jarayon sifatida tasvirlanadi. Shunday qilib, Ulug‘bek Hamdam ijodi intellektual roman janrining o‘zbek adabiyotidagi muhim namunalaridan biri bo‘lib, unda muallif va qahramon ongining o‘zaro munosabati, ichki kechinmalar va falsafiy mushohadalar asosiy badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Intellektual romanlarda inson ongining murakkab jarayonlari — xotira, tafakkur, ong oqimi, ichki nutq kabi elementlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar orqali konflikt rivojlanadi va g‘oya evolyutsiyasi yuz beradi. Ya’ni, qahramon dastlab muayyan qarashga ega bo‘lsa, voqealar va ichki kechinmalar ta’sirida uning fikrlari o‘zgarib boradi. Shu tariqa asarda nafaqat tashqi voqealar, balki ichki o‘zgarishlar ham asosiy dramatik kuchga aylanadi. Badiiy adabiyot inson ruhiyati, jamiyat va hayotiy haqiqatlarni aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Har bir asarda muallifning dunyoqarashi, estetik qarashlari va hayotga munosabati muayyan obrazlar, syujet va badiiy vositalar orqali namoyon bo‘ladi[5]. Shu nuqtayi nazardan, muallif va qahramon ongining o‘zaro munosabati, konflikt va g‘oya evolyutsiyasi masalalari adabiy tahlilning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

5 Mikhail Bakhtin. Estetika slovesnogo tvorchestva

G‘oya evolyutsiyasi — asar davomida muallif ilgari surgan fikrning rivojlanishi va chuqurlashib borishi. Bu jarayon odatda quyidagicha kechadi: Boshlanish — muammo yoki savol qo‘yiladi. Rivojlanish — konfliktlar orqali turli qarashlar to‘qnashadi. Cho‘qqi (kulminatsiya) — eng keskin nuqta. Yechim — muallif g‘oyasi aniqroq ochiladi. Natijada: qahramon o‘zgaradi (yoki fojiaga uchraydi), muallifning asosiy fikri shakllanadi. Avvalo, muallif va qahramon ongining o‘zaro munosabatiga to‘xtalish lozim. Muallif ongi — bu asarning yaratuvchisiga xos bo‘lgan fikr, qarash va baholar yig‘indisidir. Qahramon ongi esa asar ichida yashovchi obrazning ichki kechinmalari, fikrlari va ruhiy holatini ifodalaydi. Ko‘pincha muallif o‘z g‘oyalarini bevosita emas, balki qahramonlar orqali ifodalaydi. Ba’zi hollarda qahramon muallif qarashlarining bevosita ifodachisi bo‘lsa, boshqa vaziyatlarda u muallifga qarshi turuvchi, mustaqil fikr yurituvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Aynan mana shu murakkab munosabat asarning hayotiyligini, ishonarliligini oshiradi. Ikkinchi muhim jihat — konflikt, ya’ni ziddiyatdir. Konflikt badiiy asarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, syujet rivojini ta’minlaydi. U qahramonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik, qahramon va jamiyat o‘rtasidagi kelishmovchilik yoki insonning o‘z ichki olamidagi kurash ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Ichki konflikt qahramonning ruhiy iztiroblarini, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlarini ochib bersa, tashqi konflikt voqealar rivojini keskinlashtiradi. Har qanday holatda ham konflikt muallif g‘oyasini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Uchinchi masala — g‘oya evolyutsiyasidir. Badiiy asarda g‘oya birdaniga to‘liq ochilmaydi, balki syujet davomida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Asar boshida muammo yoki savol qo‘yiladi, keyin esa turli voqealar va konfliktlar orqali u tobora chuqurlashib boradi. Kulminatsion nuqtasida g‘oya eng yuqori darajada keskinlashadi va nihoyat yechim bosqichida muallifning asosiy fikri aniq shaklga ega bo‘ladi. Shu jarayonda qahramonning ruhiy o‘sishi yoki inqirozi ham kuzatiladi, bu esa g‘oya evolyutsiyasining muhim ko‘rsatkichidir.

Xulosa qilib aytganda, intellektual roman — bu o‘quvchini nafaqat voqealar bilan tanishtiruvchi, balki uni chuqur o‘yga toldiruvchi, hayotiy va falsafiy savollar ustida mushohada yuritishga undovchi muhim adabiy janr hisoblanadi. intellektual romanlarda muallif va qahramon ongining o‘zaro munosabatlari asarning badiiy va falsafiy qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu munosabat orqali inson tafakkurining murakkabligi, ichki ziddiyatlari va ma’naviy izlanishlari chuqur ochib beriladi. Natijada intellektual roman o‘quvchini faqat voqealar bilan emas, balki chuqur fikrlash va tahlil qilish jarayoniga ham jalb etadi. Muallif va qahramon ongining o‘zaro aloqasi badiiy asarning ichki mazmunini belgilasa, konflikt uning harakatini ta’minlaydi, g‘oya evolyutsiyasi esa asarning ma’naviy-falsafiy mohiyatini ochib beradi. Ushbu uch omil o‘zaro uyg‘unlashganda, haqiqiy badiiy mukammallik yuzaga keladi. Dostoevskiy inson intellekti va axloqiy qarorlarini dialektik tarzda rivojlantirsa, Kafka inson tafakkurini absurd va tizimli cheklovlar bilan ko‘rsatadi. Dostoevskiyda muallif polifoniya orqali qahramon g‘oyasini mustaqil taqdim etsa, Kafkada muallif qahramonni absurd tizimga joylashtirib, uning fikr va harakatlarini nazorat qiladi. Shu bilan, birinchi asar ruhiy va axloqiy tiklanish imkoniyatini, ikkinchisi esa tizim oldidagi insonning mag‘lubiyatini asosiy mavzu sifatida ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Frank, J. *Dostoevsky: A Writer in His Time*. Princeton University Press.
2. Bakhtin, M. *Problems of Dostoevsky’s Poetics*. University of Minnesota Press, 1984.
3. Jackson, R. L. *The Art of Dostoevsky*. Princeton University Press, 1990.
4. Terras, V. *A Karamazov Companion: Commentary on the Genesis, Language, and Style of Dostoevsky’s Novel*. University of Wisconsin Press, 1967.
5. Mikhail Bakhtin. Estetika slovesnogo tvorchestva
6. Quronov, D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent.
7. Karimov, N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent.
8. Omon Muxtor. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2005.
9. Karimov B. *O‘zbek adabiyotida badiiy tafakkur taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 2012.
10. Normatov U. *Zamonaviy o‘zbek nasri*. – Toshkent: Sharq, 2015.

Gulnur TRAKBAYEVA,
TMC instituti
trakbayevagulnur39@gmail.com

TASAVVUF VA INSON RUHIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada tasavvuf ta'limotining inson ruhiyati shakllanishiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tasavvufda insonning ichki dunyosini ifodalovchi nafs, qalb va ruh tushunchalarining psixologik mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, zikr, murakaba va tazkiya kabi tasavvufiy amaliyotlarning insonning emotsional barqarorligi, o'zini anglash va ma'naviy kamolotga erishishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda tasavvufiy qarashlar zamonaviy psixologiya yo'nalishlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning inson ruhiy rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *tasavvuf, inson ruhiyati, nafs, qalb, ruh, zikr, murakaba, tazkiya, ma'naviy kamolot, psixologiya, o'zini anglash, ruhiy barqarorlik.*

Аннотация: в данной статье анализируется влияние суфийского учения на формирование психики человека с научно-теоретической точки зрения. Раскрывается психологическая сущность таких понятий суфизма, как нафс, сердце и дух, отражающих внутренний мир личности. Также рассматривается роль суфийских практик — зикр, муракаба и тазкия — в обеспечении эмоциональной устойчивости, самопознания и духовного совершенствования человека. В исследовании суфийские взгляды сопоставляются с современными направлениями психологии и обосновывается их значение в развитии человеческой психики.

Ключевые слова: *суфизм, психика человека, нафс, сердце, дух, зикр, муракаба, тазкия, духовное развитие, психология, самопознание, эмоциональная устойчивость.*

Annotation: this article analyzes the influence of Sufism on the formation of human psychology from a scientific and theoretical perspective. The psychological essence of key Sufi concepts such as nafs, heart, and soul, which represent the inner world of a person, is examined. The study also highlights the role of Sufi practices including dhikr, muraqaba, and tazkiya in achieving emotional stability, self-awareness, and spiritual development. Furthermore, Sufi views are comparatively analyzed with modern psychological approaches, and their significance in human psychological development is scientifically substantiated.

Key words: *sufism, human psychology, nafs, heart, soul, dhikr, muraqaba, tazkiya, spiritual development, psychology, self-awareness, emotional stability.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida inson ruhiyati bilan bog'liq muammolar tobora dolzarb tus olmoqda. Texnologik taraqqiyot, tezkor axborot oqimi, ijtimoiy bosim va turli hayotiy ziddiyatlar insonning ichki dunyosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ruhiy beqarorlik, stress, ma'naviy bo'shliq va o'zini anglash muammolari kuchaymoqda. Bunday sharoitda inson ruhiyatini chuqur o'rganish, uning ichki muvozanatini tiklashga xizmat qiluvchi manbalarni ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan tasavvuf ta'limoti inson ruhiyatini anglash va uni kamolga yetkazishning muhim ma'naviy-psixologik tizimi sifatida e'tiborni tortadi.

Tasavvufda inson nafaqat jismoniy va ijtimoiy mavjudot, balki ruhiy kamolot sari intiluvchi murakkab mavjudot sifatida qaraladi. Ushbu ta'limotda insonning ichki dunyosi nafs, qalb va ruh kabi tushunchalar orqali izohlanadi. Mazkur kategoriyalar insonning hissiy holati, fikrlash jarayoni, axloqiy xulqi va ma'naviy rivojlanishini tushuntirishda muhim o'rin egallaydi. Tasavvuf insonning ichki ziddiyatlarini bartaraf etish, ruhiy poklanish va ma'naviy yetuklikka erishish jarayonlarini bosqichma-bosqich yoritadi. Bu jihatlar zamonaviy psixologiyada o'zini anglash, emotsional barqarorlik va shaxsiy rivojlanish kabi tushunchalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Tasavvufiy amaliyotlar inson ruhiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular shaxsning ichki muvozanatini shakllantirishga xizmat qiladi. Zikr, murakaba va tazkiya kabi amaliyotlar insonning fikr va hissiyotlarini boshqarish,

ichki tinchlikka erishish hamda ruhiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Bu jarayonlar psixologik jihatdan diqqatni jamlash, o‘zini nazorat qilish va ichki kuzatuv mexanizmlarini rivojlantiradi. Natijada inson o‘z ruhiy holatini anglay boshlaydi va ma’naviy kamolot sari intiladi. Tasavvuf ta’limotida inson ruhiyatiga kompleks yondashuv mavjud bo‘lib, unda biologik, psixologik va ma’naviy omillar o‘zaro uyg‘un holda qaraladi. Bu esa tasavvufni inson ruhiyatini o‘rganishda muhim nazariy manba sifatida baholash imkonini beradi. Shuningdek, tasavvufiy qarashlarni zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilish inson ruhiyati rivojlanishining yangi jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli tasavvuf va inson ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tasavvuf va inson ruhiyati masalasi Sharq mutafakkirlari asarlarida keng yoritilgan. Abu Hamid G‘azzoliy (1058–1111) o‘zining “Ihyo ulum ad-din” asarida inson qalbi, nafs va ruh tushunchalarini tahlil qilib, ruhiy poklanish orqali inson kamolga yetishini ta’kidlaydi. U nafsning ammora, lawwama va mutmainna bosqichlarini inson ruhiy rivojlanish jarayonlari sifatida izohlaydi. G‘azzoliy qalbni inson ruhiyatining markazi deb hisoblab, zikr va tafakkur orqali ichki barqarorlikka erishish mumkinligini qayd etadi. Tasavvufiy qarashlar Jaloliddin Rumiy (1207–1273) asarlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Uning “Masnaviy” asarida insonning ichki dunyosi, ruhiy izlanish va muhabbat orqali kamolotga erishish g‘oyalari ilgari suriladi. Rumiy insonning ruhiy beqarorligini ichki uyg‘unlikning buzilishi bilan bog‘laydi va ruhiy yuksalish insonning o‘z mohiyatini anglashidan boshlanishini ta’kidlaydi. Markaziy Osiyo tasavvuf maktabining yirik namoyandalaridan Bahouddin Naqshband (1318–1389) ta’limotida insonning ichki hushyorligi va qalb pokligi masalalari yoritilgan. Naqshbandiya tariqatida zikr, qalbni nazorat qilish va nafsni tarbiyalash orqali ruhiy muvozanatga erishish g‘oyalari ilgari suriladi. Bu ta’limot insonning o‘zini boshqarish va emotsional barqarorligini shakllantirishga qaratilgan.

Zamonaviy psixologiya vakillaridan Viktor Frankl (1905–1997) inson ruhiyatining asosini hayot ma’nosini izlash bilan bog‘laydi. Uning logoterapiya nazariyasiga ko‘ra, inson ruhiy barqarorligi ma’naviy qadriyatlarni anglash orqali shakllanadi. Abraham Maslow (1908–1970) esa ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida insonning eng yuqori bosqichi o‘zini ro‘yobga chiqarish ekanligini ta’kidlaydi. Bu qarash tasavvufdagi komil inson g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi. Karl Gustav Jung (1875–1961) inson psixikasida ichki uyg‘unlik va o‘zini anglash jarayonlarini asoslab, ruhiy kamolot masalasini ilmiy jihatdan yoritib beradi. Bu qarashlar tasavvufiy ta’limot bilan yaqinlik kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tasavvuf ta’limotining inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tasavvufiy manbalar hamda zamonaviy psixologik adabiyotlarni o‘rganish asosida nazariy tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod orqali nafs, qalb, ruh, zikr va tazkiya kabi tasavvufiy tushunchalarning mazmuni hamda ularning inson ruhiyati bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida tasavvufiy qarashlar zamonaviy psixologiya nazariyalari bilan solishtirildi. Bu yondashuv orqali tasavvufda ilgari surilgan ruhiy kamolot, o‘zini anglash va ichki muvozanat haqidagi g‘oyalar gumanistik va ekzistensial psixologiya qarashlari bilan taqqoslab o‘rganildi. Mazkur metod tasavvufiy ta’limotning inson ruhiyati rivojlanishidagi ilmiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod asosida inson ruhiyati nafs, qalb va ruh kabi o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Bundan tashqari, interpretativ metod orqali tasavvufiy manbalarda keltirilgan ruhiy kamolotga oid qarashlar psixologik nuqtayi nazardan sharhlab berildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda konseptual umumlashtirish metodi qo‘llanilib, tasavvufiy amaliyotlarning inson ruhiy barqarorligiga ta’siri yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tasavvuf ta’limoti inson ruhiyatini shakllantirishda muhim ma’naviy-psixologik omil hisoblanadi. Tasavvufda ilgari surilgan nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va ruhiy kamolotga erishish g‘oyalari insonning ichki muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Nafs bosqichlari insonning o‘zini nazorat qilish, hissiy holatini boshqarish va ruhiy barqarorlikka erishish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Tasavvufiy amaliyotlar insonning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Zikr va tafakkur jarayonlari diqqatni jamlash, ruhiy tinchlikni ta’minlash hamda stress

darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Murakaba amaliyoti esa insonning o‘z fikr va hissiyotlarini kuzatish, ichki nazoratni shakllantirish hamda o‘zini anglash darajasini oshirishga yordam beradi. Bu jarayonlar insonning ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida tasavvufiy qarashlarning zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unligi ham aniqlandi. Tasavvufda komil inson g‘oyasi shaxsning o‘zini ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, qalb pokligi va ichki uyg‘unlik haqidagi qarashlar emotsional barqarorlik tushunchasiga mos keladi. Natijalar tasavvufiy amaliyotlar insonning ruhiy muvozanatini ta’minlash, ma’naviy kamolotga erishish va ichki ziddiyatlarni bartaraf etishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Tasavvuf ta’limoti inson ruhiyatini chuqur va kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan ma’naviy-psixologik tizim sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tasavvufda insonning ichki dunyosi nafs, qalb va ruh tushunchalari orqali izohlanadi hamda bu tushunchalar shaxsning ruhiy rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va ruhiy kamolotga erishish g‘oyalari insonning o‘zini anglash darajasini oshirish, ichki ziddiyatlarni kamaytirish va ruhiy muvozanatni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida tasavvufiy amaliyotlarning inson ruhiyatiga ijobiy ta’siri aniqlanib, zikr, murakaba va tazkiya kabi jarayonlar shaxsning emotsional barqarorligini mustahkamlashi asoslandi. Ushbu amaliyotlar insonning fikr va hissiyotlarini nazorat qilish, diqqatni jamlash hamda ichki tinchlikka erishish jarayonlarini rivojlantiradi. Natijada insonning ruhiy barqarorligi ortadi, stress va ichki bezovtalik darajasi kamayadi, ma’naviy kamolot sari intilish kuchayadi. Bu esa tasavvufning nafaqat diniy, balki psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tasavvufiy qarashlar zamonaviy psixologiya yo‘nalishlari bilan uyg‘unlikda ekanligi aniqlandi. Tasavvufdagi komil inson konsepsiyasi shaxsning o‘zini ro‘yobga chiqarish g‘oyasiga yaqin bo‘lsa, qalb pokligi va ichki uyg‘unlik tushunchalari emotsional barqarorlik hamda o‘zini boshqarish jarayonlariga mos keladi. Bu holat tasavvufiy ta’limotning inson ruhiyati rivojlanishiga oid universal yondashuvga ega ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tasavvuf inson ruhiyatini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Undagi ruhiy poklanish, o‘zini anglash va ma’naviy kamolot g‘oyalari insonning ichki muvozanatini ta’minlashga, ijobiy psixologik holatni shakllantirishga hamda shaxsning barkamol rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli tasavvufiy merosni inson ruhiyati nuqtayi nazaridan o‘rganish nafaqat falsafiy, balki psixologik jihatdan ham dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘azzoliy, Abu Hamid. Ihyo ulum ad-din. Dor al-Ma’rifa, Qohira, 2005, 1–850 bet.
2. Rumiy, Jaloliddin. Masnaviy ma’naviy. Nashr-e Ney, Tehron, 2011, 1–640 bet.
3. Naqshband, Bahouddin. Risolai Qudsiyya. Movarounnahr, Toshkent, 2003, 1–120 bet.
4. Qushayriy, Abul Qosim. Ar-Risola al-Qushayriyya. Dar al-Kutub al-Ilmiyya, Bayrut, 2001, 1–300 bet.
5. Hujviriy, Ali ibn Usmon. Kashf al-Mahjub. Luzac & Co., London, 1911, 1–200 bet.
6. Frankl, Viktor E. Man’s Search for Meaning. Beacon Press, Boston, 2006, 1–184 bet.
7. Maslow, Abraham H. Motivation and Personality. Harper & Row, New York, 1954, 1–396 bet.
8. Jung, Carl Gustav. Modern Man in Search of a Soul. Harcourt, New York, 1933, 1–288 bet.
9. Fromm, Erich. The Art of Loving. Harper & Brothers, New York, 1956, 1–160 bet.
10. Nasr, Seyyed Hossein. Sufism: An Introduction to the Mystical Tradition of Islam. Oneworld Publications, Oxford, 2007, 1–180 bet.

Sanjar DO‘SMATOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o‘qituvchisi

ARAB ADABIYOTIDA MAQOMA JANRINING RIVOJI

Annotatsiya: mazkur maqolada arab adabiyotida muhim o‘rin tutgan maqoma janrining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Maqomalar o‘zining badiiy-uslubiy xususiyatlari, nasr va she’r uyg‘unligi hamda tilning boy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Ushbu janrning taraqqiyoti Mahmud al- Zamaxshariy ijodi misolida yoritilib, uning maqoma janriga qo‘shgan hissasi tahlil qilinib, maqoma janrining lingvistik va stilistik xususiyatlari hamda arab adabiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *maqoma, arab adabiyoti, badiiy nasr, she’riy unsurlar, adabiy janr, Mahmud al-Zamakhshari, stilistika, lingvistika, adabiy taraqqiyot*

Annotation: this article analyzes the formation and development stages of the maqama genre, which occupies an important place in Arabic literature. Maqamas are distinguished by their artistic and stylistic features, the combination of prose and poetry, as well as the richness of linguistic expression. The development of this genre is examined through the works of Mahmud al-Zamakhshari, and his contribution to the maqama genre is analyzed. The study also considers the linguistic and stylistic characteristics of maqamas and their role in Arabic literature.

Key words: *maqama, Arabic literature, artistic prose, poetic elements, literary genre, Mahmud al-Zamakhshari, stylistics, linguistics, literary development*

Аннотация: в данной статье анализируются этапы формирования и развития жанра макама, занимающего важное место в арабской литературе. Макамы характеризуются своими художественно-стилистическими особенностями, сочетанием прозы и поэзии, а также богатством языковых средств. Развитие данного жанра рассматривается на примере творчества Махмуд аз-Замахшари, анализируется его вклад в развитие жанра макама. Также исследуются лингвистические и стилистические особенности макам и их роль в арабской литературе.

Ключевые слова: *макама, арабская литература, художественная проза, поэтические элементы, литературный жанр, Махмуд аз-Замахшари, стилистика, лингвистика, литературное развитие*

Kirish. Arab adabiyoti jahon adabiy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘p asrlik taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lib, unda turli janrlar shakllanib, o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan. Mazkur janrlar qatorida maqoma alohida o‘rin tutib, o‘zining badiiy-estetik va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maqoma janri nasr va she’riy unsurlarning uyg‘unlashuvi, qofiyali nasr (saj’)dan keng foydalanilishi hamda murakkab stilistik vositalarning qo‘llanishi bilan xarakterlanadi.

Maqoma janrining shakllanishi va rivojlanishi arab tilining boy leksik va grammatik imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda tilning ifodaviy salohiyati yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Ushbu janr orqali mualliflar nafaqat badiiy obrazlar yaratgan, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy masalalarni ham yoritib berganlar. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi maqoma janrining arab adabiyotidagi o‘rni va uning lingvistik hamda stilistik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi maqoma janrining rivojlanish bosqichlarini aniqlash, uning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda arab adabiyotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar. Arab adabiyotida maqoma janrining shakllanishi va rivojlanishi masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar maqomaning badiiy, lingvistik va stilistik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotlarda maqoma janri arab nasrining o‘ziga xos shakli sifatida baholanib, undagi qofiyali nasr (saj’) va badiiy ifoda vositalarining keng qo‘llanilishi alohida ta’kidlanadi. Alohida e’tibor Mahmud al-Zamaxshari ijodiga qaratilib, uning maqoma janrini rivojlantirishdagi o‘rni muhim ilmiy manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotchilar Zamaxshariy asarlarida tilning nozik jihatlari, so‘z o‘yinlari va stilistik vositalarning mahorat bilan qo‘llanganini ta’kidlaydilar.

Tahlillar. Arab adabiyotida maqoma janrining rivojlanishi lingvistik va badiiy xususiyatlarning uyg‘unlashuvi bilan tavsiflanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqomalarda ayniqsa qofiyali nasr (saj’) va badiiy ifoda vositalari keng qo‘llanilib, matnning estetik ta’sirchanligi oshiriladi. Leksik jihatdan maqomalarda sinonimlarning faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Masalan, bir xil ma’noni ifodalash uchun turli so‘zlardan foydalanish matnni boyitadi: *“ilm”*, *“ma’rifa”*, *“hikmat”* kabi so‘zlarning ketma-ket qo‘llanishi fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Bu holat maqoma janrining asosiy lingvistik xususiyatlaridan biridir.

Arab tilidagi saj’ uslubida yozilgan jumlalarda qofiya va ohang muhim rol o‘ynaydi. Mahmud al- Zamaxshariy ijodi misolida ko‘rish mumkinki, uning maqomalarida so‘z o‘yinlari va badiiy vositalar keng qo‘llangan. Masalan, ma’nodosh so‘zlarning ketma-ketligi yoki tovush o‘xshashligiga asoslangan ifodalar orqali matnga badiiylik beriladi. Kinoya va mubolag‘a vositalari orqali esa ijtimoiy va axloqiy masalalar yoritilib, maqoma matnlarida ijtimoiy hayotga oid tasvirlar ham uchraydi. Masalan, kambag‘allik,

ilm izlash yoki jamiyatdagi turli tabaqalar hayoti obrazlar orqali ifodalanadi. Bu esa maqoma janrining nafaqat lingvistik, balki mazmuniy jihatdan ham boy ekanligini ko‘rsatadi.

Arab adabiyotidagi maqoma janrini lingvistik va stilistik jihatdan tahlil qilishda, unda qo‘llanilgan badiiy vositalar va til birliklari muhim o‘rin tutadi. Maqomalarda ayniqsa qofiyali nasr (saj’) keng qo‘llanilib, bu uslub matnga ohangdorlik va estetik ta’sir bag‘ishlaydi. Masalan, arab tilida saj’ uslubiga xos jumlalarda qofiya va tovush uyg‘unligi saqlanadi: *“Talabtu al-‘ilma fa-wajadtu fihi sharafan wa karaman”* (“Men ilm izladim va unda sharaf hamda karam topdim”). Bu misolda *“sharafan”* va *“karaman”* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, matnning badiiyligini oshiradi.

Leksik jihatdan maqomalarda sinonimik qatlam keng qo‘llaniladi. Masalan, bir fikrni ifodalashda *“ilm”* (bilim), *“ma’rifa”* (idrok), *“hikma”* (donolik) kabi so‘zlarning ketma-ket qo‘llanishi matnga chuqurlik beradi va muallifning til boyligini namoyon etadi.

Mahmud al-Zamaxshari ijodi misolida ham bu holatni kuzatish mumkin. Uning asarlarida so‘z o‘yinlari va kinoya keng qo‘llanadi. Masalan, ma’nosi yaqin, ammo turli ohangga ega so‘zlarni birgalikda ishlatish orqali u fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Grammatik jihatdan esa murakkab sintaktik konstruktsiyalar qo‘llaniladi. Masalan, uzun gaplar orqali bir nechta fikrni bitta struktura ichida ifodalash maqoma janriga xos xususiyatdir.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maqoma janri arab adabiyotida o‘ziga xos lingvistik va badiiy tizim sifatida shakllangan. Ushbu janrda tilning ifodaviy imkoniyatlari yuqori darajada namoyon bo‘lib, ayniqsa qofiyali nasr (saj’) va stilistik vositalar keng qo‘llaniladi.

Natijalarga ko‘ra, maqomalarda leksik boylik muhim o‘rin tutadi. Masalan, bir fikrni ifodalashda *“ilm”*, *“ma’rifa”*, *“hikmat”* kabi sinonimik birliklarning ketma-ket qo‘llanishi matnning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Bu esa mualliflarning til boyligidan samarali foydalanganini ko‘rsatadi. Grammatik jihatdan murakkab sintaktik konstruksiyalar ustunlik qiladi. Masalan, saj’ uslubida yozilgan jumlalarda ohangdorlik va qofiyaga e’tibor berilishi matnning ritmini kuchaytiradi. Bunday tuzilmalar maqoma janrining asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahmud al-Zamaxshariy ijodi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, uning maqomalarida so‘z o‘yinlari, kinoya va mubolag‘a kabi stilistik vositalar keng qo‘llangan. Masalan, tovush o‘xshashligiga asoslangan ifodalar yoki ma’nodosh so‘zlar orqali fikrning ta’sirchanligi oshirilgan. Maqoma janrida ijtimoiy va axloqiy masalalar badiiy obrazlar orqali yoritilib, masalan, ilm izlovchi obrazlar yoki jamiyatdagi turli qatlamlar tasviri orqali muayyan g‘oyalar ilgari suriladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari arab adabiyotida maqoma janrining shakllanishi va rivojlanishi murakkab hamda ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu janr o‘zining badiiy-estetik va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turib, arab nasrining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, maqoma janrining asosiy belgilaridan biri – qofiyali nasr (saj’) dan foydalanish, boy leksik qatlam hamda murakkab sintaktik tuzilmalar orqali ifodaning yuqori darajada ta’minlanishidir. Bu xususiyatlar maqoma matnlarining badiiy ta’sirchanligini oshiradi va ularni boshqa janrlardan ajratib turadi.

Mahmud al-Zamaxshariy ijodi misolida maqoma janrining lingvistik va stilistik imkoniyatlari keng ekanligi, unda so‘z o‘yinlari, kinoya va mubolag‘a kabi badiiy vositalar samarali qo‘llanganligi aniqlandi. Bu esa mazkur janrning nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, maqoma janri arab adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallab, uning rivoji tilning boy imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu janrni chuqur o‘rganish arab adabiyoti va lingvistikasining muhim masalalarini yoritishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud al-Zamahshari. Al-Maqamat. – Qohira: Dar al-Kutub, 1982. 256-b.
2. Sanjar , D. . (2025). ZAMAXSHARIYNING ’AL-KASHSHOF’ ASARIDA BADIIY USLUB VA TIL VOSITALARI. *Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali | Journal of science, education, culture and innovation*, *4*(6), 56–60. https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/2590
3. Badi’ al-Zaman al-Hamadhani. Maqamat. – Bayrut: Dar Sadir, 1993. – 214 b.
4. Al-Hariri. Maqamat al-Hariri. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2001. – 312 b.
5. Shawqi Daif. Tarikh al-adab al-‘arabi. – Qohira: Dar al-Ma’arif, 1960. – 368 b.
6. SHAMUSAROV S. G. et al. IDEOLOGICAL AND AESTHETIC EXPLORATION IN CONTEMPORARY REALIST SHORT STORIES (LATE 20TH-EARLY 21ST CENTURIES) //TPM–Testing, Psychometrics, Methodology in Applied Psychology. – 2025. – T. 32. – №. S8 (2025): Posted 05 November. – C. 1912-1921.
7. Kasimova S. TRANSLATION OF EXAMPLES OF EASTERN LITERATURE INTO UZBEKISTAN: ISSUES OF STYLE, CONTENT AND AESTHETIC CONSISTENCY //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 116-119.

Naimaxon SIDDIQOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-pochta: naimasiddiqova034@gmail.com

MAQOLLAR SEMANTIKASI VA UNING SHE'RIYATDA AKS ETISHI
(ERKIN VOHIDOV VA MUHAMMAD YUSUF IJODI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf ijodida maqollarning qo'llanishi tahlil qilinadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining muhim bo'g'ini sifatida she'riy nutqni boyitish, milliy o'zlikni ifodalash, chuqur falsafiy ma'nolarni yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda har ikki shoirning she'riyatga parameologik birliklarning kiritish mahorati o'rganilib, ularning uslubiy va ma'noviy vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, maqollar, paremiologiya, xalq hikmatlari, o'zbek adabiyoti, she'riy nutq, uslub vositalari, milliy o'zlik, madaniy meros, og'zaki ijodi.*

Аннотация: в данной статье анализируется использование пословиц в поэтических произведениях Эркина Вахидова и Мухаммада Юсуфа. Пословицы, как неотъемлемая часть устной народной традиции, играют важную роль в обогащении поэтического языка, выражении национальной идентичности и передаче глубоких философских смыслов. В исследовании рассматривается, как оба поэта включают пословицы в свою поэзию, и освещаются их стилистические и смысловые функции.

Ключевые слова: *Эркин Вахидов, Мухаммад Юсуф, пословицы, паремиология, народная мудрость, узбекская литература, поэтический язык, стилистические приемы, национальная идентичность, культурное наследие, устная традиция.*

Annotation: this article analyzes the use of proverbs in the poetic works of Erkin Vohidov and Muhammad Yusuf. Proverbs, as an essential part of oral folk tradition, play a significant role in enriching poetic language, expressing national identity, and conveying deep philosophical meanings. The study examines how both poets incorporate proverbs into their poetry and highlights their stylistic and semantic functions.

Key words: *Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, proverbs, paremiology, folk wisdom, Uzbek literature, poetic language, stylistic devices, national identity, cultural heritage, oral tradition.*

Kirish. Maqollar xalqning madaniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi xalq hikmatidir [4]. O'zbek adabiyotida maqollar qadimdan kuchli uslub vositasi sifatida qo'llanilgan. Ular nafaqat tilni boyitibgina qolmay, balki adabiy asarlarni yanada ta'sirchan, xalq ma'naviyati bilan o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Badiiy adabiyotda, xususan, Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf she'riyatida maqollarning asl ma'nosi, hissiy ta'sirini saqlab qolgan holda yozma adabiyotga mohirlik bilan singdirilishi kuzatilgan [6]. Parameologik birliklarning badiiy adabiyotga olib kirilishi xalq ma'naviy mulkining uzoq yil yashashiga xizmat qiluvchi muhim vosita hamdir.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgacha parameoligik birliklarning she'riyatda qo'llanilishiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. [10,11]. Xususan, Erkin Vohidov va Muhammad Yusufning she'riy to'plamlari asosiy tadqiqot materiali bo'lib xizmat qilgan mazkur ishlarda parameologik birliklarning badiiy ifodaviy xususiyatlariga urg'u berilgan. Shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan nuqtalar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, mazkur adiblar she'rlarida ko'pincha xalq og'zaki ijodi unsurlari, jumladan, maqol va hikmatli so'zlar to'g'ridan-to'g'ri ko'chirma emas, balki ma'no jihatidan integratsiyalashgan holatda qo'llashgan. Muhammad Yusuf she'riyatida sodda, samimiy va xalqona uslublar ustunlik qiladi [2]. Shu bois asarlarida maqol va xalq donishmandligini ifoda etuvchi so'zlar to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita o'rin olgan bo'lib, ular milliy ruh hamda hissiy ta'sirchanlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, umumiy adabiyotshunoslik paremiologiyani folklorshunoslikning maqollarni lisoniy va uslubiy

birlik sifatida tadqiq qiluvchi muhim tarmog‘i sifatida o‘rganuvchi fan sohasi hisoblaydi [8] Ushbu nazariy fikrlar mazkur tadqiqot uchun metodologik asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi:maqolada qiyosiy-tipologik tahlil usuli qo‘llanildi. Manba sifatida Erkin Vohidov va Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari tanlab olingan. Har ikki shoir ijodida maqollarning bevosita va bilvosita qo‘llanilishini tahlil qilish, ularning ma’no xususiyatlarini solishtirishda qiyosiy yondashuv qo‘llaniladi.

Erkin Vohidov she’riyatidagi maqollar. Erkin Vohidov she’rlariga falsafiy teranlik va badiiy joziba berish uchun ko‘pincha xalq maqollaridan unumli foydalangan. Uning she’riyatida maqollar, odatda, o‘zining turg‘un matn shaklida qo‘llanmaydi. Aksincha, ular semantik va tematik darajada namoyon bo‘lib, misralarning ohoriyligini oshiradi. “*Ruhlar isyoni”* dostoni, *“O‘zbegim” va “Inson”* qasidalari kabi she’rlarida taniqli o‘zbek maqollari bilan kuchli konseptual parallellik namoyon bo‘lib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma emas, balki semantik tahlil orqali aniqlash mumkin.

El uchun
Jon tikkan shoir
El dushmani ataldi.
Hukm o‘qildi.
Bosh egib u
Asta borar hibs tomon.

yoki

Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir
Demak,
Hakim ishi makru
Uning o‘zi
Shaytondir”
Bu so‘zlarni chin deb bildi
Nodon, johil olomon.

Shoir ushbu asarida zulm, adolatsizlik, inson vijdoni muammolarini falsafiy yo‘l bilan tadqiq etadi.Asarning markaziy g‘oyalaridan biri shundaki, adolatsizlik qarshisida jim turish ma’naviy jihatdan unda qatnashish bilan barobardir.Asarda zulm bor, lekin odamlar sukut saqlaydigan, haqiqat ochiq aytilmagan, adolat uchun kurash zaiflashgan holatlar tasvirlangan. Bu holatlar orqali shoir muhim bir fikrni ifodalaydi: inson adolatsizlikni ko‘rsa-da, sukut saqlasa, uning davom etishiga bilvosita hissa qo‘shadi.Ushbu mantiqiy fikr xalqimizning: *“Sukut - rozilik belgisidir”.* Maqoli bilan mazmunan uyg‘un [9]. Bu maqolga ko‘ra, odam nopoklikka qarshi chiqmasa, unga rozi bo‘lgandek bo‘ladi. “Ruhlar isyoni”da bu fikr she’riy-falsafiy shaklda ham ifodalangan: zulm qarshisida sukut saqlash uni bartaraf etmaydi, aksincha davom etishiga imkon beradi. Binobarin, asardagi sukunat oddiy sukunat sifatida emas, balki ma’naviy mas’uliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir, agar inson haqiqatni tan olsa, lekin gapirmasa, bu oddiy befarqlik emas, balki axloqiy burchdan voz kechishdir, deb ta’kidlaydi.

“Inson” qasidasida ham *“Xormisan yo gulmisan, tojdormisan yo qulmisan,*

Cho‘g‘zmisan, bulbulmisan, nodon o‘zing, xushxon o‘zing” misrasi har bir insonning o‘zi to‘la bir olam kabi ekanligini bildiradi. Bu insonning oddiy yoki bir o‘lchovli emasligini, balki fikrlar, his-tuyg‘ular, orzular, tajribalar va ichki ziddiyatlarga to‘la murakkab dunyo ekanligini ko‘rsatadi. Bu g‘oya orqali shoir har bir shaxsning o‘ziga xos ichki hayoti borligini, uni tashqaridan to‘liq anglab bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Koinot bepoyon va sirlarga to‘la bo‘lganidek, insonda ham son-sanoqsiz yashirin ma’nolar, chuqurliklar mavjud. Bu she’riy g‘oya “Har inson — bir dunyo” maqoliga chambarchas bog‘liq. She’r satri ham, *“Mulki olam ichra bir xoqon o‘zing, sulton o‘zing. Koinot sahrosida karvon o‘zing, sarbon o‘zing.”* maqol ham bir xil ma’noni ifodalaydi: har bir insonning ichki dunyosi boy, uni hurmat, sabr, chuqur e’tibor bilan tushunish kerak.

Muhammad Yusuf she’riyatidagi maqollar

Muhammad Yusuf she’riyatida maqollar odatda bevosita keltirilmaydi; aksincha, ular she’rlarining mazmuni va mavzu yo‘nalishi orqali aks etadi. Shoir xalq hikmatini badiiy-hissiy ifodaga aylantiradi. An’anaviy o‘zbek maqollari bilan bog‘liq holda muayyan she’rlar va ularning asosiy satrlari yoki g‘oyalari tahlil qilinganda buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Birinchidan, uning *“Vatanim”* she’rida asosiy g‘oya – Vatan muqaddas va insonning o‘zligidan ajralmas ekanligidir. Muhammad Yusuf bu she’rida Vatanga chuqur sadoqat va ma’naviy bog‘liqlikni ifodalab, uni shaxsiy manfaatdan ham yuksak qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Chunonchi, shoir Vatanni hayotdan ham azizroq, fidoyilikka arziydigan narsa deb ta’riflagan satrlarida bu hissiyot shiddati uning muqaddasligini

ta’kidlaydi. Bu g‘oya “*Vatan muqaddasdir*” maqoliga bevosita mos keladi.

Shoirning “Onajon” she’rida ona cheksiz mehr, fidoyilik, himoya timsoli sifatida tasvirlanadi. Butun she’r davomida ona g‘amxo‘rligi, duosi inson hayoti va farovonligining poydevori sifatida tasvirlangan. Chunonchi, ona duosini qalqon, mehrini cheksiz deb ta’kidlagan satrlarda shoir uning ma’naviy mavqeini yuksaltiradi. Ushbu satrlarda

“ONAJON,
Zor qilib ketma izingga!
O‘lim oldida ham G‘amimni yeysan,
Men-chi, jim, taqdirga Ko‘nishimga boq.”

“*Jannat onalar oyog‘i ostidadir*” maqolini aks ettiradi.

Shuningdek, shoirning “Yaxshi” lirik she’rida ham inson merosining qadri, hayotdagi axloqiy xulq-atvori haqida fikr yuritadi. Uning she’riy dunyoqarashi shuni ko‘rsatadiki, insondan keyin haqiqatda qoladigan narsa moddiy boylik emas, balki ular boshqalarning qalbida va xotirasida qoldiradigan “yaxshi iz”dir.

Ey, do‘stlarim, bu dunyoda
Ortada qolgan iz yaxshi,
Bulbuli yo‘q bahordan
Qumri to’la kuz yaxshi.

Bu g‘oya orqali shoir sharafli yashash, ezgu ishlar qilish hamma narsadan muhimroq ekanini ta’kidlaydi. Bu tushuncha *“Yaxshi nom – eng yaxshi meros”* maqoliga to‘g‘ri keladi [9], unda insonning obro‘-e’tibori va yaxshi nomi uning vafotidan keyin qoldirishi mumkin bo‘lgan eng qimmatli meros ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Maqollar Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf she’riyatida muhim badiiy-semantik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali shoirlar xalqning asrlar davomida shakllangan hikmatlarini she’riy tilga singdiradi va shu orqali o‘z asarlarining hissiy va ifodali kuchini oshiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maqollar nafaqat she’riyatda bevosita qo‘llanilibgina qolmay, balki ma’no va falsafiy saviyalarda ham gavdalanadi. Erkin Vohidov ijodida maqollar, asosan, chuqur falsafiy umumlashmalar, ramziy obrazlar orqali ifodalangan bo‘lsa, Muhammad Yusuf she’riyatida ular yanada sodda, samimiy, xalqqa xos shaklda namoyon bo‘ladi. Har ikki shoir ijodida maqollar milliy o‘zlikni ifodalash, insoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, hayotiy haqiqatlarni ochib berish vositasi sifatida xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maqollar o‘zbek she’riyatining ajralmas qismi bo‘lib, Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf ijodida badiiy tafakkurni boyituvchi, milliy ma’naviyatni mustahkamlovchi, teran ma’naviy ma’nolarni yetkazuvchi qudratli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Saylanma asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma she’rlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Jo‘rayev N. O‘zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
5. Mirzayev T. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Ahmedov B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Sharq, 2005.
7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2013.
8. Tohirov A. Paremiologiya va uning lingvistik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
9. O‘zbek xalq maqollari va matallari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2009.
10. Ismatullayev M. Badiiy matn va xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.
11. Qodirov S. O‘zbek tilshunosligi va uslubshunoslik masalalari. – Toshkent: Fan, 2014.
12. G‘afurov I. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

Madina ABDIYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi
madinaabdiyeva1@gmail.com

O‘ZBEK BADIIY ASARLARIDA RAHBAR NUTQINING PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek badiiy asarlarida rahbar nutqining pragmatik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rahbar nutqining direktiv tabiati, uning yumshatilgan shakllari, kollektiv identifikatsiya vositalari hamda institutsional legitimlikni ifodalovchi lingvistik birliklar aniqlanadi. Badiiy matnlar asosida rahbar nutqining avtoritar, institutsional va demokratik modellari ajratilib, ularning kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari izohlanadi. Tadqiqot natijalari rahbar nutqini direktivlik, mitigatsiya, legitimatsiya va nazorat strategiyalarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *rahbar nutqi, pragmatika, sotsiolingvistika, institutsional diskurs, direktiv nutqiy akt, mitigatsiya, legitimatsiya.*

Annotation: in this article, the pragmatic features of the leader’s speech in Uzbek literary works are analyzed based on a comprehensive approach. The study identifies the directive nature of the leader’s speech, its softened forms, means of collective identification, and linguistic units expressing institutional legitimacy. Based on literary texts, authoritarian, institutional, and democratic models of a leader’s speech are distinguished, and their communicative and social functions are explained. The research results allow us to interpret the leader’s speech as an integrated system of directives, mitigation, legitimization, and control strategies.

Key words: *leader’s speech, pragmatics, sociolinguistics, institutional discourse, directive speech act, mitigation, legitimization.*

Аннотация: в данной статье прагматические особенности речи руководителя в узбекских художественных произведениях анализируются на основе комплексного подхода. В исследовании определяется директивная природа речи руководителя, ее смягченные формы, средства коллективной идентификации и языковые единицы, выражающие институциональную легитимность. На основе художественных текстов выделяются авторитарные, институциональные и демократические модели речи руководителя, объясняются их коммуникативные и социальные функции. Результаты исследования позволяют интерпретировать речь руководителя как интегрированную систему стратегий директивности, митигации, легитимации и контроля.

Ключевые слова: *речь руководителя, прагматика, социолингвистика, институциональный дискурс, директивный речевой акт, митигация, легитимация.*

O‘zbek tilshunosligida nutq hodisasini ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, institutsional diskurs doirasida rahbar nutqini tahlil qilish boshqaruv jarayonlarining lingvistik asoslarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbar nutqi ijtimoiy maqom va kommunikativ maqsad bilan belgilanadigan nutqiy hodisa bo‘lib, u orqali adresat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatiladi hamda ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi [10].

Badiiy adabiyot rahbar nutqini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib, unda real kommunikativ jarayonlar stilizatsiyalangan holda aks etadi. O‘zbek badiiy asarlarida rahbar nutqi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, “O‘tkan kunlar” asarida rahbar nutqi ko‘proq qat’iy direktiv xarakterga ega: “Bu ish kechiktirilmaydi, darhol bajarilsin” kabi konstruksiyalar orqali iyerarxik ustunlik va majburiylik ifodalanadi [5]. Bunday nutq imperativ shaklda berilib, adresat uchun muqobil variantni inkor etadi va avtoritar boshqaruv modelini aks ettiradi.

Shu bilan birga, badiiy matnlarda rahbar nutqining yumshatilgan shakllari ham uchraydi. Masalan, “Ikki eshik orasi”da “Agar imkon bo‘lsa, bu masalani tezroq hal qilsak yaxshi bo‘lardi” kabi nutq birliklari qo‘llanadi [9]. Bu yerda buyruq indirekt shaklga o‘tadi va mitigatsiya strategiyasi orqali yumshatiladi. Natijada kommunikativ bosim kamayadi va hamkorlik muhiti shakllanadi. Bu holat zamonaviy boshqaruv diskursiga xos xususiyatlardan biri sifatida baholanadi.

Rahbar nutqida kollektiv identifikatsiya ham muhim o‘rin tutadi. “Kecha va kunduz” asarida “Biz xalq manfaatini ko‘zlashimiz lozim” kabi nutq birliklari orqali rahbar o‘zini jamoa bilan tenglashtiradi [7]. “Biz” olmoshi orqali rahbarning nutqi shaxsiy emas, balki umumiy manfaatni ifodalovchi vositaga aylanadi. Bu esa nutqning

legitimligini oshiradi va adresat tomonidan qabul qilinishini osonlashtiradi.

Shuningdek, rahbar nutqida buyruqning institutsional asosda ifodalanishi kuzatiladi. “Ufq”da “Rejani bajarishimiz kerak” kabi konstruktsiyalar orqali buyruq shaxsiy emas, balki tizim talabi sifatida ifodalanadi [8]. “Kerak” modalligi buyruqni normativ darajaga ko‘tarib, uni ijtimoiy zarurat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Rahbar nutqining yana bir muhim komponenti — nazorat va sanksiya mexanizmlaridir. “Mehrobdan chayon”da “Kim tartibni buzsa, jazolanadi” kabi nutq birliklari orqali ijtimoiy nazorat amalga oshiriladi [6]. Bunday konstruksiyalar regulyativ diskursni shakllantiradi va ijtimoiy tartibni mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida rahbar nutqining uch asosiy modeli ajratiladi: avtoritar, institutsional va demokratik. Avtoritar model rahbar nutqining eng an’anaviy va qat’iy ko‘rinishi bo‘lib, unda buyrug‘ ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va muqobilsiz tarzda ifodalanadi. Bu modelda imperativ shakllar, qisqa va keskin sintaktik konstruksiyalar ustunlik qiladi. Nutqning asosiy maqsadi — manzilning maqsad-harakatini darhol va shartsiz boshqariladi. Bunday nutqda yumshatish oson qo‘llanilmaydi, chunki kommunikativ munosabatlar qat’iy ierarik asosda quriladi. Rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasida masofa maksimal darajada mumkin va nutq hokimiyatning bevosita ifodasiga aylanadi. Shu sabab avtoritar model diskursida til nazorati va bo‘ysundirish funksiyasini boshqarish. Bu model ko‘proq an’anaviy jamiyatlarga yoki kuchli markazlashgan boshqaruv tizimlariga xos bo‘lib, unda shaxsiy tashabbus emas, balki intizom va buyruqqa bo‘ysunish muhim kasb etadi institutsional modelda modallik vositalari orqali normativlik ustun bo‘ladi; demokratik modelda esa yumshatish va hamkorlik strategiyalari yetakchilik qiladi. Bu modellarning shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi [11].

Institutsional model esa rahbar nutqining yanada murakkablashgan va normativlashgan shaklda namoyon bo‘ladi. Bu modelda buyrug‘ to‘g‘ridan-to‘g‘ri imperativ shaklda emas, “kerak”, “lozim”, “zarur”, “talab qilish” kabi modallik balki boshqarish orqali amalga oshiriladi. Buyurtma shaxsiy irodaning sifatida emas, balki tizim, qoida yoki me’yor talabi sifatida talqin etiladi. Bu esa rahbariyatning legitimlik nutqiga va manzilat qabul qilinishini osonlashtirish. Institutsional modelda rahbar shaxs sifatida emas, balki belgilangan tizimning ishonchli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sabab nutqda depersonalizatsiya, umumlashtirish va normativlik kuchayadi. Bu model zamonaviy tashkilotlar, davlat boshqaruvi va rasmiy diskurslarga xos bo‘lib, unda kommunikativ jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Demokratik model boshqaruv nutqining zamonaviy, kommunikativ boshqaruvi eng ko‘p va ijtimoiy samarali tarzda bo‘ladi. Bu modelda rahbar nutqi qat’iy buyruq berishdan ko‘ra, manzil bilan hamkorlik asosida muloqot yo‘qotiladi. Ya’ni rahbar nutqi boshqarish vositasi bo‘lish bilan birga, motivatsiya, ishontirish va jamoaviylikni shakllantiradi.

Shunday qilib, rahbar nutqi til vositalari orqali amalga oshiriladigan murakkab ijtimoiy mexanizm bo‘lib, u boshqaruv jarayonining lingvistik asosini tashkil etadi. U orqali hokimiyat amalga oshiriladi, ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi va jamoaviy faoliyat muvofiqlashtiriladi. Rahbar nutqini badiiy matnlar asosida o‘rganish esa uning pragmatik va sotsiolingvistik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zMU, 2013.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1992.
4. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2005.
6. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2006.
7. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2004.
8. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1988.
9. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2010.
10. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost, konsepty, diskurs. – Moskva, 2002.
11. Sheigal E.I. Semiotika politicheskogo diskursa. – Moskva, 2000.
12. Chernyavskaya V.E. Diskurs vlasti i vlast diskursa. – Moskva, 2013.

Maftuna NARZULLOYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
maftunshohnur@gmail.com

BADIIY KOMPOZITSIYADA MAKTUBNING ESTETIK VA FUNKSIONAL O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy adabiyotda epistolyar janrning kompozitsion va narratologik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda maktub badiiy matn tarkibida nafaqat kommunikativ vosita, balki diegetik darajalar o'zgarishini ta'minlovchi muhim struktural unsur sifatida o'rganiladi. Janet Gurkin Altman, Gérard Genette hamda M. M. Baxtin nazariyalari asosida epistolyar shaklning kommunikativ, narrativ va polifonik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, maktub monologik, dialogik va polilogik modellar orqali tasniflanib, uning badiiy matnda ko'p qatlamli ma'no hosil qilishi asoslab beriladi. "O'tkan kunlar" va "Yosh Verterning iztiroblari" kabi asarlar misolida epistolyar elementlarning syujet va psixologik ifodadagi o'rni ko'rsatiladi. Natijada, maktubning badiiy asarda estetik va semantik yukni kuchaytiruvchi, narrativ strukturaning murakkablashuviga xizmat qiluvchi vosita ekani xulosalanadi.

Kalit so'zlar: *epistolyar janr, maktub, narratologiya, diegetik darajalar, epistolyarlik, polifoniya, kommunikativ struktura, badiiy kompozitsiya, epistolyar roman.*

Аннотация: в данной статье анализируются композиционные и нарратологические функции эпистолярного жанра в художественной литературе. Письмо рассматривается не только как коммуникативное средство, но и как важный структурный элемент, обеспечивающий переход между различными диегетическими уровнями текста. На основе теоретических подходов Джанет Гуркин Альтман, Жерара Женетта и М. М. Бахтина исследуются коммуникативные, повествовательные и полифонические особенности эпистолярной формы. Также письма классифицируются на монологические, диалогические и полилогические модели, что подчеркивает их роль в создании многослойного смысла художественного текста. На примере произведений *«Ўткан кунлар»* и *«Страдания юного Вертера»* раскрывается функция эпистолярных элементов в развитии сюжета и психологическом изображении персонажей. В заключение делается вывод о том, что письмо выступает как эстетическое и семантическое средство, усиливающее сложность нарратива и обогащающее структуру художественного произведения.

Ключевые слова: *эпистолярный жанр, письмо, нарратология, диегетические уровни, эпистолярность, полифония, коммуникативная структура, художественная композиция, эпистолярный роман.*

Annotation: this article analyzes the compositional and narratological functions of the epistolary genre in literary discourse. It explores the letter as not only a communicative tool but also as a significant structural device that facilitates shifts in diegetic levels within a literary text. Based on the theoretical frameworks of Janet Gurkin Altman, Gérard Genette, and M. M. Bakhtin, the study examines the communicative, narrative, and polyphonic features of epistolary form. The article further classifies letters into monologic, dialogic, and polylogic models, emphasizing their role in creating multilayered meanings in literary works. Through examples such as *O'tkan kunlar* and *The Sorrows of Young Werther*, the paper demonstrates the function of epistolary elements in shaping both plot development and psychological expression. Ultimately, it concludes that the letter serves as an aesthetic and semantic enhancer that increases narrative complexity and enriches literary structure.

Key words: *epistolary genre, letter, narratology, diegetic levels, epistolarity, polyphony, communicative structure, literary composition, epistolary novel.*

Kirish

Badiiy adabiyotda epistolyar janr o'zining tarixiy ildizlari va funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Maktub shakli nafaqat kommunikativ vosita, balki badiiy matn strukturasini tashkil etuvchi muhim kompozitsion element sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada epistolyar janrning narratologik va estetik xususiyatlari, diegetik darajalar o'zgarishi hamda polifonik struktura bilan aloqasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Janet Gurkin Altman, Gérard Genette va M. M. Baxtin nazariyalari asos qilib olinadi.

Metodologiya

Tadqiqotda narratologik tahlil, struktural-semiotik yondashuv hamda qiyosiy adabiyotshunoslik metodlari qo'llanildi. Epistolyar matnlar monologik, dialogik va polilogik modellarga ajratilib tahlil qilindi. Shuningdek, diegetik darajalar nazariyasi asosida matn ichki strukturasining o'zgarish dinamikasi o'rganildi. Asosiy nazariy baza sifatida Altman, Genette va Baxtin konsepsiyalari tanlandi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktub badiiy matnda uch asosiy funksiyani bajaradi: kommunikativ jarayonni masofa va kechikish asosida tashkil etadi Diegetik darajalar o'zgarishini ta'minlaydi; Polifonik struktura orqali ko'p ovozlilikni yuzaga chiqaradi.

Monologik modelda (masalan, *Yosh Verterning iztiroblari*) subyektivlik ustun bo'lsa, dialogik va polilogik

modellarda (masalan, *O‘tkan kunlar*, Sherlock Holmes hikoyalari) ko‘p qatlamli narrativ struktura shakllanadi.

Muhokama

Badiiy adabiyot san’atida epistolyar janr o‘zining tarixiga va funksiyalariga ega janr hisoblanadi. Bunda epistolyar matnlar, ya’ni maktublar doimiy faqat bir xil vazifani emas balki asardagi badiiy bo‘yoqdorlikni oshiruvchi bir qancha funsiyalarni bajaruvchi quroldir. “Epistolyarity” atamasini ilk bor qo‘llagan va ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy izlanish olib borgan olim bu Altman hisoblanadi. Janet Gurkin Altman o‘zining “Epistolarity: Approaches to a Form” nomli asarida epistolyar shaklni tahlil qilar ekan, uni oddiy badiiy uslub emas, balki murakkab kommunikativ-estetik tizim sifatida talqin qiladi. U “epistolarity” tushunchasini quyidagicha izohlab o‘tadi: *“Epistolarity may be defined as the use of the letter form to create meaning through the interplay of absence and presence, distance and communication.” [1]* Ushbu ta’rif epistolyar matnning markazida turgan asosiy paradoksni borlik va yo‘qlik, masofa va aloqa o‘rtasidagi nozik tushunchalarni tasvirlab beradi. Asarda maktublar kompozitsion jihatdan modellarga ajratiladi. Monologik modelda asar asosan bir shaxsning yozgan maktublaridan iborat bo‘ladi (“Yosh Verterning iztiroblari”, “Qizimga maktublar”, Javobsiz xatlar”). Dialogik model, ya’ni ikki kishi o‘rtasida yozilgan maktublar (“Hijronim mingdir mening”, “Bonu”), hamda polilogik model-bir nechta qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro yozishmalarning asarda namoyish etilishi (“O‘tgan kunlar”, “Sherlock Holms hikoyalari”, “O‘nta negr bolasi”).

Bu yondashuvni Gérard Genette narratologik konsepsiyasi bilan bog‘lasak, maktub diegetik darajalar o‘zgarishini ta’minlovchi muhim struktural unsur sifatida namoyon bo‘ladi[5]. Ya’ni maktub asosiy (ekstradiegetik) rivoyat oqimini uzib, intradiegetik darajada qahramonning bevosita nutqi va subyektiv tajribasini yuzaga chiqaradi. Natijada matn ko‘p qatlamli narrativ tuzilishga ega bo‘ladi.

Shuningdek, Mikhail Bakhtin tomonidan ilgari surilgan polifoniya nazariyasi nuqtayi nazaridan epistolyar shakl turli mustaqil ovozlarning bir matnda uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilinadi. Har bir maktub alohida ideologik va emotsional pozitsiyani ifodalaydi, bu esa badiiy matnda ko‘p ovozlilikni kuchaytiradi.

Natijada epistolyar shakl uch asosiy xususiyat bilan ajralib turadi: birinchidan, u kommunikativ jarayonni masofa va kechikish asosida quradi; ikkinchidan, diegetik darajalar almashinuvi orqali narrativ struktura murakkablashadi; uchinchidan, ko‘p ovozlilik (polifoniya) orqali qahramonlarning mustaqil pozitsiyalari yuzaga chiqadi. Shu jihatdan maktub badiiy-kompozitsion vosita sifatida nafaqat syujetni harakatlantiradi, balki asarning estetik va semantik chuqurligini ham belgilaydi.

Badiiy matn strukturasida maktub ko‘pincha diegetik darajalar o‘zgarishini yuzaga keltiruvchi muhim kompozitsion vosita sifatida talqin qilinadi. Narratologiyada “diegezis” tushunchasi hikoya qilinayotgan voqealar olami va uning ichki qatlamlarini anglatadi. Gérard Genette ta’kidlaganidek, badiiy matnda ekstradiegetik (asosiy rivoyat darajasi) va intradiegetik (hikoya ichidagi hikoya) qatlamlar o‘zaro aloqada mavjud bo‘ladi. Maktub esa aynan shu qatlamlar o‘rtasida o‘tishni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi: u asosiy narrativ oqimni to‘xtatib, qahramonning ichki nutqi yoki yozma bayoni orqali yangi diegetik makonni yuzaga keltiradi. Natijada matn ko‘p qatlamli (polifonik) tus oladi va o‘quvchi turli nutq subyektlari pozitsiyasini bevosita qabul qiladi. Masalan, O‘tkan kunlar asarida Otabek va Kumush o‘rtasidagi yozishmalar asosiy narrativdan ajralib, intradiegetik qatlamni shakllantiradi. Ushbu maktublar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va ijtimoiy ziddiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadi, bu esa o‘quvchini tashqi voqealar bayonidan ichki psixologik makonga olib o‘tadi. Xuddi shunday, “Yosh Verterning iztiroblari” romanida epistolyar shakl ustuvor bo‘lib, barcha voqealar qahramon yozgan maktublar orqali beriladi[3]. Bu holatda narrativ to‘liq intradiegetik darajaga ko‘chadi va hikoya subyekti bilan o‘quvchi o‘rtasidagi masofa qisqaradi. “…xat janri orqali murojaat qilishda muallifning ruhiy kechinmalarini chin qalbdan zo‘r kuch bilan izhor qilish imkoniyati tug‘iladi” deb maktubning funksiyasiga namunalar keltirib o‘tadi. Marhabo Qo‘chqorova[4].

Xulosa. Shunday qilib, maktub badiiy asarda nafaqat kommunikativ birlik, balki narrativ strukturaning muhim elementi sifatida diegetik darajalar o‘rtasidagi chegaralarni harakatga keltiradi, hikoya qatlamlarini murakkablashtiradi va estetik ta’sir kuchini oshiradi. Epistolyar janr badiiy adabiyotda nafaqat syujetni harakatlantiruvchi vosita, balki narrativ strukturaning murakkablashuvini ta’minlovchi muhim kompozitsion elementdir. U diegetik darajalar almashinuvi, kommunikativ masofa va polifonik ifoda orqali matnning badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Shu bois maktub badiiy asarda ko‘p funksiyali narratologik birlik sifatida qaraladi.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. Gérard Genette. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Translated by Jane E. Lewin. — Ithaca: Cornell University Press, 1980.

2. Qodiriy, A. *O‘tkan kunlar*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969.

3. Johann Wolfgang von Goethe. *The Sorrows of Young Werther*. Oxford University Press, 2008.

Azamat XOLIQOV,
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi
xoliqovazamat90@gmail.com

“OY” KONSEPTINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada “oy” konsepti o‘zbek badiiy matnini shakllantiruvchi tasviriy vositalardan biri ekanligi, badiiy matnda o‘xshatishlar uchun etalon vazifalarida kelishi, badiiy san’atlarni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik vosita ekanligi va boshqa o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: *to’lin oy, maqol, hilol, o‘xshatish, pafos.*

Аннотация: данная статья основана на том факте, что понятие «месяц» является одним из образных средств, формирующих узбекский литературный текст, служит ориентиром для аналогий в литературном тексте, является лингвопоэтическим инструментом, создающим художественные произведения, и обладает другими уникальными лингвопоэтическими свойствами.

Ключевые слова: *полнолуние, пословица, полумесяц, сравнение, пафос.*

Annotation: this article is based on the fact that the concept of “month” is one of the figurative means that shapes the Uzbek literary text, that it serves as a benchmark for analogies in the literary text, that it is a linguo-poetic tool that creates artistic works, and that it has other unique linguo-poetic properties.

Key words: *full moon, proverb, crescent, simile, pathos.*

Badiiy matn turli obrazlar uyg‘unligiga ko‘ra yaratiladi. Shuning uchun uning tarkibida leksemalar xilma-xilligi kuzatiladi. Ushbu maqolamizda badiiy nutqdagi oy leksemasining poetik va lingvistik tahlili amalga oshirilmoqda. Bilamizki, matnda tabiiy narsalar, xususan, *oy, moh, qamar, hilol* kabi sinonim leksemalar va ular bilan bog‘liq tasviriy ifodalar o‘ziga xos pafos bag‘ishlaydi.

Adabiyot insonning ma’naviy bo‘shlig‘ini to‘ldiruvchi omillardan biridir. Bu jarayonni amalga oshirishda adabiyot vakillari o‘z asarlarida turli xil obrazlarga murojaat qilishadi. Shunisi e’tiborga loyiqki, bunday tasvirlar orasida *oy, moh, qamar, hilol* tasvirlarining muhim xususiyati bor. Bu tabiat jismlari yerni yoritish, insonlar uchun yorug‘lik timsoli hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy til bilan aytganda yerning yo‘ldoshi vazifasini bajaradi.

Tabiatning bu obyekti mumtoz adabiyotdan tortib, hozirgi davr adabiyot vakillarining asarlarini bezashga xizmat qiladi. Lutfiy, Gadoiy, Navoiy kabi mumtoz adabiyot namoyandalaridan tortib, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Faxriyor, Muhammad Yusuf kabi zamonaviy adabiyot vakillari ijodida *oy, moh, qamar, hilol* tasvirlaridan keng foydalanganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, har bir ijodkor asarida *oy, moh, qamar, hilol* ramzlari turli ma’nolarga va talqinlarga ega. Odatda, barcha ijodkorlar o‘z badiiy asarlarida tasvirlardan mafkuraviy maqsadlarda foydalanadilar. Bu badiiy tasvirlar qahramonlarning kechinmalarini, yashash sharoitlarini va atrof-muhitga munosabatini ifodalaydi. Natijada har bir tasvir ma’lum bir badiiy yukni ko‘taradi.

“Oy” konseptining obrazli (tasvir) qatlami esa ko‘pincha metaforik lingvistik iboralar, idiomalar, maqollar, boshqa til birliklari orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek tilida “oy” komponentli xalq og‘zaki ijodi namunlarida biri maqollarda turli ma’nolar qurshovi bo‘lib, xalq donishmandligi orqali ta’sirchanlikka erishilgan. Masalan, *“Oy tunda kerak, Aql kunda kerak”* maqolida xalqimiz aqlni va aql egalarini yuksak darajada madh etadi, ularning hayotdagi yutuqlarini ko‘rsatadi, aqlsizlik, johillik, nodonlik, farosatsizlikni qoralab, aqlni oyga qiyoslaydi. Ayrim maqollarda baxil kishilarning naqadar pastkash ekanligi, o‘zlari birovga bir nima berish u yoqda tursin, birov birovga bir nima bersa ham ichlari achishi, o‘lgan-tirilganlariga qaramay mol-dunyo to‘plashlari, ammo bu mol-dunyoni birovdan tugul o‘zlaridan ham qizg‘anishlari va bunday illatning yomon oqibatlari ko‘rsatish maqsadi ifodalangan maqollarda oy konsepti bilan bog‘lab tushuntiriladi: *“Baxilning qo‘lida Oy bo‘lsa, olam(ni) yoritmas”; “Baxil ilojini topsa, Oyni ham puflab o‘chiradi”* (“U kamoli ziqnaligidan, oyning yorug‘i behudaga isrof bo‘lib ketayapti-ku, degan o‘y bilan uni o‘chirgisi keladi”, demoqchi). *“Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘”* maqolida yomon kunlar o‘tib ketadi, yaxshi kunlar ham yetib keladi. Yo‘qlik, muhtojlikda qiynalgan kunlaringda senga ta’na qilganlar valdiragancha qolaveradilar. Bunday ta’nalarni o‘zingga olma, o‘ksinma, umidsizlanma, aksincha dadil bo‘l, qilayotgan ishingni davom ettiraver”, degan ma’noda mazkur maqol bilan qiyin ahvolda qolgan odamga tasalli beradilar. O‘tmishda mehnatkash xalq og‘ir musibatlarni, kambag‘allik, faqirlik, qashshoqlik, yo‘qsillik va bularning oqibatida kelib chiqadigan och-yalang‘ochlikni o‘z boshidan kechirgan. Buni ota-bobolardan qolib kelayotgan bir qancha maqollarning mazmunidan ham bilib olsa bo‘ladi: *“Ochga Oy shirmoy ko‘rinar”; “Adashganga yulduz Oyday ko‘rinar, Och qolganga go‘ja moyday ko‘rinar”* (Mazkur maqolning birinchi qismida: “Adashgan odamga kichkinagina yulduz ham kattakon Oydek bo‘lib ko‘rinadi (ya’ni, son-sanoqsiz yulduzlar orasida u o‘ziga kerakli yulduzni ko‘rib qolsa, bu yulduz unga xaloskorday tuyuladi)”. *“Epini topgan - Oyga uchar, Epini topmagan - so‘z bichar”* maqol bilan umuman har bir ishning zarur tomonlarini bilib, o‘zlashtirib, o‘rganib olishga da’vat etiladi. *“Oyning ham dog‘lari bor”* maqolida hech narsa mukammal yoki ideal emasligi, *“Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi”* maqolida har bir aybni sir saqlash mumkin emasligi, *“Oy borib, omon qayt”* maqoli kimgadir xavfsiz sayohat tilash uchun oy leksemasidan foydalanilgan. Xullas, oy komponentli maqollardan yana ko‘plab keltirish mumkin: *“O‘zgani oy bilsang, o‘zingni soy bil”*, *“Oy ona emish, bolasi – yulduz”*, *“Oy tun chirog‘i”* . *“Oy botsa ham,*

boy yotmas”, *“Hatto oy ham zararsiz emas”*, *“Bulutning qadri yo‘q, oy yonida”, “It hurisa ham - Oy seskanmas”, “Oydinda it huraveradi, Osmonda Oy yuraveradi”* va boshqalar [1]. “Oy” tushunchasi o‘zbek tilida yuqori darajada obrazli qatlamga ega.

O‘zbek adabiyotida “oy” tushunchasi asosan ijobiy ma’nolarda qo‘llanilib, go‘zallik, tanholik va boshqa individual hissiyotlarni ifoda etadi. Jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonida *yangi oy* va *mehr olamoroy* epitetlari orqali Farhodga ishora qiladi. “Layli va Majnun” dostonining nasriy bayonida *“Shuning uchun uning ismi barot va qadr kechasidagi **to‘lin oydek** jilvalanardi. Layli shu uyda **oydek** o‘tirardi, Yig‘in guli Layli esa talabalar orasida yulduzlar ichra **oydek** o‘tirardi”* matn parchalarida oy bilan bog‘liq o‘xshatishlar va “Hiloliya” asarida ham Oy ramzi keltirilib, *yarim oy* yangi davlatning, yangi hukumatning boshlanishini ifoda etib, so‘z o‘yinlari va badiiy vositalar orqali shoir yangi hukumatga bo‘lgan hurmati va sadoqatini ifodalaydi. Umuman olganda, mumtoz matnlarda *“qoshi hiloldek egik”, “qoshi hilol”, “yuzi oydek”, “qamar siymo”, “orazi shams-u qamarim”* tashbehlarini[2] ko‘plab uchratish mumkin. Buni Lutfiy ijodidan keltirilgan misralar ham isbot etadi: *“Quyosh **oydek** yuzungning xijlatidin, Qochib, to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur. // Yuzung nogah ko‘rib **Oydek** sog‘indim, Magar hush-u xirad mendin ketibdur”.*

Keyingi davr badiiy matnlarida ham oy bilan bog‘liq tasvirlar uchraydi. Masalan, “O‘tkan kunlar”da Kumush portreti chizgilarida “*to‘lg‘an oydek*” o‘xshatilishi keltiriladi: *“…**to‘lg‘an oydek** g‘uborsiz oq yuzi biroz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi...”.* “Kecha va kunduz”dagi iqtibosda yosh sevishganlar o‘y-xayollari, his-tuyg‘ulari “oy” konsepti orqali muallif tomonidan yanada badiiylashtirilgan: *“…Aravakash … **Ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi oyni o‘ylar** va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi... …**U ham ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o‘ylar** va yuzlari anorday qizarardi...”. “Ko‘kdagi oy”* so‘z birikmasi va *“yerdagi oy”* tasviri orqali Zebi obrazi anglashiladi, asar qahramoni O‘lmas uchun Zebi go‘zal, tanho qiz ekanligi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, *oy* va *toy* so‘zlari nasriy saj uchun vosita bo‘lgan.

Shoir Faxriyor tomonidan yozilgan atigi to‘rtta so‘zdan iborat to‘rt qatorli she’r. Ammo bu so‘zlarning kamligi misralarni ma’no bilan boyitadi. Oyning shakli tirnoqqa o‘xshagani uchun shoir oyni tirnoqqa, ya’ni “tirnoqqa zor” iboraga ishora qilib bolaga o‘xshatgan. Ko‘rinishidan, bu misralarda farzandsiz ayol, tunlarni bedor o‘tkazadigan, butun joy qorong‘udek bo‘lgan va faqat Oy uning qalbini umid bilan yoritadigan ayol tasvirlangan:

Oy
Tirnoq
Ayol
Zorlik

Shuningdek, Faxriyorning ikki so‘zdan iborat *“oy bolta”* she’rini tahlilga tortib, “oy bolta” anglatgan mazmunni chaqish uchun tasavvurlar kengayib borishi, natijada she’rni bir qancha ma’noda tushunish mumkin, chunki yangi oy chiqib, uning to‘lish davri inson umri uchun bir “bolta”dir. Negaki har bir yangi oyning chiqishi insonni yana bir oyga yoki bir yilga qaritadi. Ijodkor she’rlarida oy bilan bog‘liq noodatiy tasvirlar yaratganligiga guvoh bo‘lish mumkin: *“oy – arshi a’loning farishtalar yopmay ketgan tuynugi”*, *“homilador oy”*, *“oy po‘stlari archilib, zanglab qolgan zangori olma”*, *“oy tirnoq ayol zorlik”, “oyuzuk”* [3] kabi bir misrali yoki faqat 1-2 so‘zdan iborat she’rlari borki, ular oy bilan bog‘liq o‘ziga xos ma’no-mazmunlar ifodalanadi.

O‘zbek shoiri Muhammad Yusuf “Biz baxtli bo‘lamiz” she’rida *“Har kecha osmonda **oy** chiqqanda meni kuting”* satri orqali *“Oyni birlashish ramzi”* sifatida anglash mumkin. Sevishganlar oyli kechalarda uchrashishiga ishora qiladi. Shoirning “Zebi, Zebi…” she’rida Oy go‘zal qizlarning go‘zal chehralari bilan taqqoslanadi:

Osmonda suzib yurgan Oy,
Sening to‘la qizlaring bor.
Surxon deb nomlangan tomonda
Oy qizlari bor.

I.Mirzoning “Gunoh” she’rida oyning boshqa bir tasviri “”siniq oy” sifatlanishini ko‘rish mumkin: Siniq oy sarg‘ayib kezarkan ko‘kda, Tomirlarda shu’lalar sharpasin ilg‘ab.... S.Yeseninning she’rida osmondagi Oy ham onaizor itga bolalarini eslatadi. Shoir zimdan itning oppoq bolalar tuqqanini bildirib o‘tganligini bilish mumkin.

Yozuvchi Temur To‘raboyevning “Teorema” nomli tetralogiyasida qo‘llanilgan “Tun tumor taqdi” iborasi oy bilan bog‘liq badiiy ifodasi alohida bir badiiy topilmadir. Bu asarda barcha so‘zlar “T” harfi bilan boshlanadi. “Kechasi osmonga oy chiqdi” mazmuni “T” harfi yordamida, ya’ni “Tun tumor taqdi” shaklida o‘xshatish orqali ifodalangan [4]. Bu esa adabiy tajriba o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotda ramziylik va ramziy va badiiy ifodalardan foydalanish asarlarni yanada jozibador va maftunkor qilishga, shuningdek, o‘quvchining e’tiborini kengroq jalb qilishga yordam beradi. Oy tasvirlari qanday qo‘llanilishiga qarab biz ijodkorning badiiy mahoratini anglashimiz va u bilan bog‘liq keng ma’nodagi talqinlarga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 448-b.

2.Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.

3.Фахриёр. Аёлғу. – Тошкент: Шарқ, 2000.

4.https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2014/06/140617_latin_uzwebistan_uzbek_writer_turabekov.

Mohinur ABDIYEVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: mohinurabdiyeva@gmail.com

HUDUDIY MIKROTOPONIMLARNING YASALISH MODELLARI VA TOPOFORMANTLAR ROLI

Annotatsiya: mazkur maqolada Dehqonobod tumani hududida uchraydigan mikrotoponimlar materiallari asosida so‘z yasalishi jarayonlari va qo‘shimchalarning funksional roli tahlil qilinadi. Tahlil natijasida mikrotoponimlarning affiksatsiya, kompozitsiya, semantik kengayish va onomastik transpozitsiya asosida shakllanishi aniqlanadi. Shuningdek, -li, -lik, -tepa, -soy, -quduq, -dara, -gaza, -buloq kabi topoformantlarning hududiy nomlash tizimidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *mikrotoponim, topoformant, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik derivatsiya, o‘zbek onomastikasi.*

Аннотация: в данной статье на основе материалов микротопонимов, встречающихся на территории Дехканабадского района, анализируются процессы словообразования и функциональная роль аффиксов. В результате анализа установлено, что микротопонимы формируются на основе аффиксации, композиции, семантического расширения и ономастической транспозиции. Также раскрывается роль таких топоформантов, как -li, -lik, -tepa, -soy, -quduq, -dara, -gaza, -buloq в системе территориального наименования.

Ключевые слова: *микротопоним, топоформант, аффиксация, композиция, семантическая деривация, узбекская ономастика.*

Annotation: this article analyzes word-formation processes and the functional role of affixes based on the materials of microtoponyms found in the territory of Dehqonobod district. The analysis reveals that microtoponyms are formed through affixation, composition, semantic expansion, and onomastic transposition. It also highlights the role of topoformants such as -li, -lik, -tepa, -soy, -quduq, -dara, -gaza, and -buloq in the territorial naming system.

Key words: *microtoponym, topoformant, affixation, composition, semantic derivation, Uzbek onomastics.*

Toponimika tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, mikrotoponimlar mahalliy aholi tafakkuri, tarixiy xotirasi va geografik tasavvurlarini aks ettiradi. Mikrotoponimlar kichik obyektlarni — tepalik, soy, quduq, dara, jar, botqoq, yaylov, qishloq kabi joy nomlarini ifodalaydi. Toponim va mikrotoponimlarda yasalish hodisasi Suyun Qorayevning “Toponimika”, To‘ra Nafasovning “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”, Ixtiyor Ermatovning “Sirdaryo toponimlari, T.Ernazarovning “Nomshunoslik masalalari”, S.Tursunovning “Surxondaryo viloyati toponimlari” kitoblarida tahlil qilingan. Mazkur adabiyotlarda toponimlarga nom berishda eng samarali va keng tarqalgan affiksatsiya va kompozitsiya usullari qayd etilgan. Biz ushbu maqolada yuqorida sanab o‘tilgan adabiyotlar asosida Dehqonobod tumani mikrotoponimlarining yasalish xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Hududiy materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, (Bo‘ston, Guliston, Qizilcha, Katta dara, Ajriqsoy, Archali, Oqtosh, Qoratepa, Mingchuqur, Uch quduq, Qumgaza, Qul dara va boshqalar) mikrotoponimlar shakllanishida har ikki usul ham muhim ahamiyatga ega.

Qo‘shimchalar yordamida hosil qilingan mikrotoponimlar

– li qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha “ega bo‘lgan”, “mavjud”, “xususiyatga ega” ma’nosini bildiradi va mikrotoponimlarda tabiiy belgini ifodalaydi. Misollar: Terakli, Archali, Cho‘michli, Qo‘ziquloqli, Shamolli, Beliboyli

Masalan:

Terakli — terak daraxtlari mavjud hudud;

Archali — archa o‘sadigan joy;

Shamolli — shamol kuchli esadigan hudud.

Shunday qilib, -li qo‘shimchasi geografik obyektning dominant belgisini nominativlashtiradi

— lik qo‘shimchasi. Mazkur qo‘shimcha joyning umumiy xususiyatini yoki maydonni bildiradi. Misollar: Botqoqlik, Chuqurlik, Tepalik. Bu qo‘shimcha orqali obyektning relyef xususiyati umumlashtiriladi.

Kichraytirish affiksi (-cha). -cha formantli shakl hozirgi o‘zbek tilining qo‘shimchasi bo‘lib, ko‘pincha bir joy nomining boshqasiga nisbatan kichkinaligini ifodalash bilan birga kichik obyektlarning nomlari ekanligini anglatadi [5:25] Qizilcha. Bu yerda -cha qo‘shimchasi hajmiy kichiklikni yoki ikkilamchi obyektni bildiradi.

Topoformantlar — geografik obyekt turini bildiruvchi komponentlardir. Ular ko‘pincha mustaqil leksema bo‘lib, qo‘shma mikrotoponim tarkibida ikkinchi komponent sifatida keladi.


Mikrotoponimlarning katta qismi kompozitsiya — ya’ni ikki yoki undan ortiq leksemalarning qo‘shilishi orqali shakllangan. Bu jarayon nominativ birliklarning semantik aniqligini oshiradi va obyektning asosiy

belgisini aniqlashtiradi. Hududiy materiallar asosida mikrotoponimlarning quyidagi struktur modellari aniqlandi:

Hududiy materiallarda quyidagi topoformantlar faol ishlatilgan:

Soy — bu tog‘ va adirlardan boshlanadigan, doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq yoki soy bo‘yidagi vodiy (qayir) hisoblanadi. Shuningdek, oqar suvlar ta’sirida hosil bo‘lgan tor va uzun relyef shakli ham soy deyiladi [7:545]. O‘zbek tilining izohli lug‘ati bo‘yicha, bu atama suv yo‘lini anglatadi: Ajriqsoy, Ichaksoy, Kiyiksoy, Torsoy

Dara — tog‘ oralig‘idagi yo‘l, jarlik. Ikki tog‘ oralig‘idagi uzun, nisbatan tor, chuqur joy [6:556]. Katta dara, Halpa dara, Jinni dara, Qul dara



Affikslar va topoformantlar mikrotoponimlarda quyidagi vazifalarni bajaradi:

obyekt turini ko‘rsatadi (soy, dara, quduq);
relyef xususiyatini bildiradi (tepa, chuqur);
tabiiy belgi yoki flora-faunani ifodalaydi (-li, -zor);
hajm va miqdorni bildiradi (katta, kichik, uch, ming);
tarixiy yoki etnik qatlamni saqlaydi.

Natijada mikrotoponimlar nafaqat geografik belgi, balki lingvokulturologik ma’lumot tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mikrotoponimlarning yasalishida kompozitsion model eng barqaror va mahsuldor struktur tip hisoblanadi. Bunda ikki yoki undan ortiq leksemalarning qo‘shilishi orqali hosil qilingan nomlar obyektning muhim belgilarini aniq va ravshan ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, rang, son va shaxs nomlari mikrotoponimlarning nominativ tizimida asosiy semantik markaz vazifasini bajarib, obyektning tashqi belgisi, miqdoriy xususiyati yoki tarixiy-ijtimoiy bog‘liqligini aks ettiradi. Mikrotoponimlar hududning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayotini o‘zida mujassam etgan muhim lingvistik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali hududning relyefi, ekologik xususiyatlari, aholi faoliyati hamda etnik tarkibi haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shu bilan birga, ayrim mikrotoponimlar predikativ model asosida shakllangan bo‘lib, bu hol ularning xalq og‘zaki ijodi, tarixiy voqealar va an’anaviy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mikrotoponimlar nafaqat geografik nomlash vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O‘zbek toponimikasi asoslari. — Toshkent, 2013.
2. Qorayev S. Toponimika. — Toshkent, 2006.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. — Toshkent, 2009.
4. Mirzayev T. Mikrotoponimlar va ularning tasnifi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2018.
5. Ermatov I. Sirdaryo toponimlari. Monografiya. — T.: “INNOVATSIYA ZIYO”, 2024. 88-b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680-b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680-b.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680-b.

Yoshin HAKIMOV,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Jurnalistika fakulteti, Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

HARBIY MEDIAKONTENTLAR ATTRAKTIVLIGIDA MUHIM ELEMENTLAR

Annotatsiya: maqolada axborot tarqatish borasida raqobat keskin ortgan bugungi sharoitda va zamonaviy davrdagi raqamli muhitda harbiy mavzudagi mediakontentlarning iste’molchilar e’tiborini tortish – attraktivlik muammolari o’rganilgan hamda ushbu masalaga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *harbiy, mediakontent, attraktivlik, element, nashr, sayt, ijtimoiy tarmoq.*

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы привлечения внимания потребителей и аттрактивности медиаконтента на военную тематику в современных условиях резко возросшей конкуренции в сфере распространения информации и цифровой среде, а также приводятся рекомендации по данному вопросу.

Ключевые слова: *военный, медиаконтент, аттрактивность, элемент, издания, сайт, социальная сеть.*

Annotation: the article examines the issues of attracting consumer attention to military-themed media content in today’s conditions of sharply increased competition in information dissemination and the modern digital environment, and provides recommendations on this matter.

Key words: *military, media content, attractiveness, element, publication, site, social network.*

Harbiy mediakontent – harbiy sohani yoritishga qaratilgan axborot mahsulotlari majmui. “Attraksiya” (lotincha “attrahere” – jalb qilish, diqqatni o‘ziga tortish) tilshunoslikka psixologiyadan kirib kelgan, atama psixologik ilmiy adabiyotlarga 1950-yillarda kiritilgan. Psixologiyaga oid atamalar lug‘atida: “Attraksiya” – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirishi, o‘zaro moyillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir”, deya ta’rif berilgan [1].

Jurnalistikada “attraktivlik” mediakontentlarning iste’molchilar diqqat-e’tiborini o‘ziga tortishi, jozibadorligiga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbekistonda “attraktivlik” tushunchasi bo‘yicha tilshunoslik yoki pedagogik-psixologik tadqiqotlar aniq atamali, keng ma’lumot bilan muntazam ravishda yo‘lga qo‘yilgan holda e’lon qilinmagan. Ammo ilm-fan sohasi rivojlanib, yoshlar tajribasi, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy fikr muhiti ta’sirida bilvosita shu mavzu bilan bog‘liq ayrim ilmiy ishlar olib borilgan va olib borilyapti. Jumladan, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nargiza To‘xliyeva matn attraktivligi bo‘yicha izlanishlar qilgan [2].

Xorijda attraksiya hodisasini D. Byorn, J. Klor, Ye. Aronson, R. Jons, U. Griffit, R. Kendall, T. Nyukomb va boshqa olimlar o‘rgangan [3].

Rossiyada XX asrning 80-yillarida L. Y. Gozman attraksiya muammosini tadqiq etgan. Uning ta’kidlashicha, “jozibadorlikka hissiy komponent ustunlik qiladigan boshqa shaxsga ijtimoiy munosabatning o‘ziga xos turi sifatida qarash mumkin”[4].

Harbiy mediakontentlar attraktivligi hali to‘liq o‘rganilmagan. Aslida kontent attraktivligi foydalanuvchini birinchi soniyalardanoq qiziqtirish va o‘zida ushlab qolish talabiga asoslanib, uni nafaqat harbiy, balki boshqa mazmundagi kontentlarga nisbatan ham tatbiq etish mumkin. Bunda kontentdagi har bir element o‘ziga xos strategik vazifani bajaradi. Jumladan, rukn, sarlavha, kirish, matnni tartibga keltirish (verstka), dizayn kabilar asosiy elementlar bo‘lib, kontent attraktivligida ham, tugalligida ham muhim.

1. Rukn – nashr kontentlarida tartib va izchillik ta’minlanishiga ko‘mak beradi. U kontentni tizimlashtiradi va foydalanuvchiga mazmundan nimani kutish mumkinligini ko‘rsatadi. Nashr arxitektonikasi hisoblanuvchi rukn bosma nashrning “xaritasidir”. Nashrda doimiy qo‘yib boriluvchi ruknlar o‘quvchida o‘ziga xos ko‘nikma hosil qiladi va brendga bo‘lgan sadoqatni oshiradi. Shuningdek, u

ma’lumotni toifalarga ajratish orqali foydalanuvchiga kerakli mavzuni tez topishga yordam beradi (masalan, “Siyosat”, “Adabiyot”, “Madaniyat”, “Sport”).

Harbiy sohaga ixtisoslashgan nashrlar o‘ziga xos maqsadli auditoriyaga ega bo‘lib, kontent attraktivligida aniqlik va intizom vizual joziba bilan birlashishi kerak. Bu turdagi nashrlar uchun elementlarning o‘ziga xosligi, harbiy nashrlarda ruknlar o‘quvchida ma’lumotga nisbatan ishonch paydo qilishi kerak. Masalan:

Sohaviylik: “Jangovar tayyorgarlik”, “Armiya va yoshlar”, “Qurol-aslahalar sharhi”, “Tarix saboqlari” kabi ruknlar kontentni maqsadli auditoriyaga yo‘naltiradi.

• **Identifikatsiya:** Har bir ruknning o‘ziga xos grafik belgisi (piktogramma yoki ramzi) bo‘lishi o‘quvchiga navigatsiyada yordam beradi.

2. Sarlavha – kontentning birinchi ta’sir kuchi yoki diqqatni jalb qilish “chirog‘i”. Sarlavha kontentning 80% muvaffaqiyatidir. Uning asosiy vazifasi – o‘quvchini “to‘xtatib qolish”. Ya’ni potensial foydalanuvchi o‘ziga ma’qul kontentni qidirayotganda, o‘zini qiziqtirgan nom ostidagi mazmunni ko‘rish uchun to‘xtasin, qidiruvni davom ettirib, o‘tib ketmasin. Ayniqsa, harbiy nashrlardagi sarlavhalar, xoh u bosma, xoh elektron nashrda bo‘lsin, odatdagi sarlavhalardan ko‘ra yorqinroq va kutilmagan bo‘lishi kerak. Kommunikativ yo‘nalishi aniq ifodalangan attraktiv sarlavhalar sohaviy nashr o‘ziga xosligining muhim xususiyati bo‘lib, bu harbiy kontent matnining ta’sir ko‘lami kafolati sanaladi. Harbiy kontentda sarlavhalar haddan tashqari badiiylikdan ko‘ra, konkretlikni xush ko‘radi.

3. Kirish (lid) – sarlavhadan keyin keladigan, voqeaning eng muhim tafsilotlarini jamlagan birinchi xatboshi. Lid odatda, “Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun? Qanday?” degan savollarga javob beradi va o‘quvchini asosiy matnga yetaklab kiradi. Bu bilan lid o‘quvchini sarlavhadan asosiy matnga o‘tkazuvchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bunda birinchi xatboshidayoq o‘quvchining muammosi tilga olinishi yoki unga axborotdan nima foyda olishi tushuntirilishi kerak. Bundan tashqari, emotsional bog‘lanishni ta’minlaydi. Ya’ni kirish qism auditoriya bilan hissiy aloqa o‘rnatish va “bu ma’lumot men uchun” degan fikrni uyg‘otishga xizmat qiladi. Optimal lid hajmi 30–40 so‘z atrofida bo‘lib, u o‘quvchida maqolaning davomini o‘qishga qiziqish uyg‘otishi lozim. Ya’ni lid voqea joyidan reportaj kayfiyatini berishi yoki muammoning strategik ahamiyatini darhol ochib berishi kerak. Bundan tashqari, harbiy atamalar va faktlarning to‘g‘ri qo‘llanishi o‘quvchida muallifning professionalligiga nisbatan shubha qoldirmasin.

4. Dizayn – vizual jozibadorlik. Dizayn nafaqat chiroyli ko‘rinish, balki ma’lumotni yetkazish usuli hamdir. Harbiy nashr dizaynida “harbiy estetika” muhim.

• **Ranglar va shriftlar:** matnda to‘q yashil, ko‘k yoki kulrang tusdagi, jiddiy va o‘qishga oson bo‘lgan shriftlar tavsiya etiladi.

• **Fotosuratlar va infografika:** harbiy texnika sxemalari, taktik xaritalar va jangovar holatdagi dinamik suratlar matndan ko‘ra ko‘proq ma’lumot beradi.

• **Tartib:** verstkada qat’iy geometrik shakllar va modulli tizimdan foydalanish armiyadagi tartib-intizom ruhini aks ettiradi.

Raqamli muhitda bosma nashrlardan farqli ravishda, harbiy yo‘nalishdagi sayt va ijtimoiy tarmoqlar “dinamik” va “tezkor” formatni ko‘proq talab qiladi. Bu yerda attraktivlikning asosiy quroli – dizayn va algoritmlarga moslashish. Raqamli muhitda ushbu elementlarning vazifalari o‘zgaradi va biz uni quyidagicha tartiblashni tavsiya etamiz:

1. Rukn (heshteg va navigatsiya). Saytda va ijtimoiy tarmoqlarda ruknlar nafaqat tartib, balki qidiruv (SEO) tizimi uchun ham xizmat qiladi.

• **Saytda:** “Tezkor xabarlar”, “Armiya va yoshlar”, “Ko‘hna tarix” kabi menyu bo‘limlari qo‘yilishi mumkin.

• **Ijtimoiy tarmoqda:** ruknlar heshteglar (#MatbuotXizmati, #MudofaaVazirligi) yoki Instagram’dagi highlights (muhim voqealar to‘plami) ko‘rinishida bo‘ladi. Bu foydalanuvchiga kerakli ma’lumotni 1-2 soniyada topish imkonini beradi.

2. Sarlavha. Raqamli muhitda sarlavhaning birinchi 3-4 so‘zi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

• **Saytda:** sarlavhada kalit so‘zlar bo‘lishi shart (masalan: “Yangi bronetransportyorlar sinovdan o‘tkazildi”).

• **Ijtimoiy tarmoqlarda:** sarlavha vizual tasvirning (rasm yoki video) ustiga yoziladi. U qisqa, ammo “nega buni ko‘rishim kerak?” degan savolga javob berishi lozim.

3. Kirish. Ijtimoiy tarmoqlarda lid – bu postning birinchi ikki qatori.

• **Diqqatni tutish:** agar birinchi jumla qiziq bo‘lmasa, foydalanuvchi “davomini o‘qish” tugmasini bosmaydi. Harbiy sohada lid tezkor fakt yoki hayratlanarli raqam bilan boshlanishi foydali.

• **Call to Action (CTA):** lidning oxirida yoki post yakunida o‘quvchini fikr bildirishga yoki saytga o‘tishga undovchi chaqiriq bo‘lishi attraktivlikni oshiradi.

4. Dizayn. Sayt va ijtimoiy tarmoqlarda dizayn “jonli” bo‘lishi kerak.

Vertikal format: bugun kontentlarning 80% dan ortig‘i telefonda ko‘riladi. Shu sababli infografika va videolar 9:16 (vertikal) formatda bo‘lishi attraktivlikni keskin oshiradi.

• **Dinamika:** harbiy texnikaning harakati, mashg‘ulotlardan qisqa Reels/Shorts videolar statik rasmdan 5-10 baravar ko‘proq auditoriyani jalb qiladi.

• **Infografika:** murakkab harbiy raqamlarni matnda emas, balki yorqin va tushunarli vizual kartalar yoki ikonkalar orqali berish kerak.

Ta’kidlash lozimki, harbiy mavzudagi materiallarga qiziqish u qadar yuqori emas. Filologiya fanlari doktori, dotsent A. Safarov buning sabablarini quyidagicha izohlaydi:

1. Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalish bo‘lgani uchun materiallar rasmiy xarakter kasb etadi.

2. Auditoriyaga notanish bo‘lgan atama va nomlar ko‘p ishlatiladi.

3. Maxfiy va xizmat doirasidagi ma’lumotlar tufayli mavzu chuqur ochib berilmaydi.

4. Asosan, harbiy OAV mavzuni yoritadi va auditoriyasi ham ko‘proq harbiy xizmatchilarni tashkil etadi.

5. Harbiylashgan idoralar faoliyati yopiq xarakterga ega bo‘lgani sababli axborot olish imkoniyati kam.

6. Jurnalistlarda harbiy mavzuga qiziqish yuqori emas.

7. Jurnalistlarda ixtisoslashuv yetishmaydi [5].

Muallif o‘z tadqiqotida muammoga bir qator yechimlar ham taklif qilgan. Jumladan, harbiy jurnalistikaga ixtisoslashuvni shakllantirish, noharbiy OAVda, xususan, elektron OAV, ijtimoiy tarmoqlarda harbiy mavzuni yoritish sifatini oshirish, harbiylashgan idoralar axborot xizmatlari faoliyatini takomillashtirish va OAV bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ko‘proq tadbirlar o‘tkazish (brifing, matbuot anjumani, media tur va h.k), poligonlarda kechadigan amaliy o‘quv mashg‘ulotlariga jurnalistlarni muntazam jalb etish, ekstremal, urush va to‘qnashuvlar sharoitlarida jurnalistlarning qanday harakatlanishi bo‘yicha poligonlarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda, raqobat ortgan sharoitda axborotni yetkazib berish alohida talabga aylangan. Attraktivlik aynan shu jabhada maydonga chiqadi. Filologiya fanlari nomzodi Zuhriddin Isomiddinov ta’kidlaganidek, “Axborotni “umuman olganda” berish emas, uni odamlarga yetkazish muhim” [6].

Harbiy mediakontentlar attraktivligini oshirishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tajribalardan foydalanish ham maqsadga erishishda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://idum.uz/uz/archives/9908 Мурожаат санаси: 2025, 26, 10, 21:58

2. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nargiza To‘xliyeva, dissertatsiya mavzusi: “Axboriy janrlar matnini optimallashtirishda tahrir va attraktiv usullarning o‘rni”, –Toshkent, O‘zJOKU 2024.

3. Вербина Г.Г. Факторы, формирующие аттракцию // Проблемы современного педагогического образования. 2019. №63-2. С. 305–308.

4. Гозман Л.Я. Психология эмоциональных отношений. –М.: Изд-во МГУ, 1987. С. 175.

5. Alijon Safarov, “Harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv”, o‘quv qo‘llanma, –Toshkent, 2024, “Grand Kondor Print”, 5-6-b.

6. Isomiddinov Z. “Axborot”da axborot // Ma’rifat gulshani. – №36. 6-sentabr.

Zafar MAXMUDOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasi assistenti
E-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘RGANISHDA ANATOMIYA, BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARINING TIBBIYOT UNIVERSITETI TALABALARINING BILIM OLISHIGA TA’SIRI: IJOBIY VA SALBIY JIHATLAR TAHLILI

Annotatsiya: mazkur tezisda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda anatomiya, biologiya va kimyo fanlarining integratsion ta’siri tahlil qilingan. Ushbu fanlarning talabalarning bilim olish jarayoniga ijobiy va salbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, fanlararo bog‘liqlik asosida terminologik savodxonlikni oshirish, klinik tafakkurni rivojlantirish va ortiqcha yuklama muammolarini kamaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *lotin tili, tibbiy terminologiya, anatomiya, biologiya, kimyo, fanlararo integratsiya, kasbiy kompetensiya*.

Аннотация: в данной диссертации проанализировано интегративное влияние анатомии, биологии и химии на преподавание латыни и медицинской терминологии. В статье рассматриваются положительные и отрицательные аспекты этих предметов в процессе обучения студентов. Также представлены научные выводы по повышению терминологической грамотности, развитию клинического мышления и снижению проблем перегрузки на основе междисциплинарной связи.

Ключевые слова: *латынь, медицинская терминология, анатомия, биология, химия, междисциплинарная интеграция, профессиональная компетентность.*

Annotation: this thesis analyzes the integrative impact of anatomy, biology, and chemistry on the teaching of Latin and medical terminology. The positive and negative aspects of these subjects on the learning process of students are highlighted. The study also provides scientific conclusions on improving terminological literacy, developing clinical thinking, and reducing overload problems based on interdisciplinary connections.

Key words: *latin, medical terminology, anatomy, biology, chemistry, interdisciplinary integration, professional competence*.

Kirish. Tibbiyot ta’limi fanlararo integratsiyaga asoslangan murakkab tizim hisoblanadi [1]. Lotin tili va tibbiy terminologiya fani anatomiya, biologiya va kimyo fanlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu fanlar birgalikda talabalarning kasbiy bilimlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [2].

Biroq ushbu integratsiya jarayoni faqat ijobiy emas, balki ayrim qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin [3]. Shu sababli ularning foydali va zararli jihatlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari bilan kichik tadqiqot o‘tkazib, bir qancha ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda fanlararo integratsiyaning samarasini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayoni Samarqand davlat tibbiyot universiteti bazasida, bevosita lotin tili fanini o‘rganayotgan talabalar guruhlari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot jarayoni kompleks yondashuv va IMRAD standarti asosida tashkil etildi [4]. Metodologik asos sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili va sotsiologik so‘rovnoma usullaridan foydalanildi [5].

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi usullar majmuasidan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili va nazariy yondashuv: tadqiqotning dastlabki bosqichida tibbiyot ta’limida fanlararo bog‘liqlikning nazariy asoslari va xalqaro tajribalar o‘rganildi. Bunda anatomiya, biologiya va kimyo fanlarining terminologik bazasi hamda ularning lotin tili fani bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil qilindi.

2. Pedagogik kuzatuv va monitoring: o‘quv jarayonida talabalarning dars davomidagi faolligi, terminlarni o‘zlashtirish sur’ati va fanlararo bog‘liqlikni amaliyotda qo‘llash darajasi pedagogik kuzatuv usuli

orqali nazorat qilindi. Bu usul yordamida talabalarda fanlar o‘rtasida yuzaga keladigan mantiqiy chalkashliklar va tushunmovchiliklar bevosita qayd etildi.

3. Sotsiologik so‘rovnoma: talabalarning fanga bo‘lgan munosabati va ulardagi psixologik holatni aniqlash maqsadida maxsus anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi. So‘rovnomada quyidagi jihatlarga e’tibor qaratildi:

- *Fanlararo integratsiyaning terminlarni tushunishga ta’siri;*
- *O‘quv yuklamasining darajasi va charchoq hissi;*
- *Vaqtni taqsimlash bilan bog‘liq muammolar.*

4. Qiyosiy tahlil usuli: tadqiqot davomida talabalarning o‘zlashtirish natijalari muntazam ravishda solishtirib borildi. Bunda integratsiyalashgan ta’lim usuli qo‘llanilgan va an’anaviy dars o‘tilgan guruhlarning ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Bu usul integratsiyaning ham foydali, ham zararli jihatlarini obyektiv baholash imkonini berdi.

Ushbu usullar yordamida to‘plangan ma’lumotlar talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va o‘quv jarayonidagi ortiqcha yuklamalarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar va talabalar o‘rtasidagi so‘rovnomalar natijasida lotin tili hamda tibbiy terminologiya fanini o‘zlashtirishda fundamental fanlarning ta’siri ikki yo‘nalishda – ijobiy va salbiy (muammoli) jihatlar bo‘yicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari integratsiyaning talabalarda klinik tafakkurni shakllantirishdagi rolini tasdiqladi [2, 6]. Shu bilan birga, vaqt defitsiti va metodik chalkashliklar o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi [3].

1. Fanlararo integratsiyaning foydali jihatlari: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, anatomiya, biologiya va kimyo fanlari lotin tili kursining asosi bo‘lib xizmat qiladi:

Terminlarni anglash darajasi: anatomiya fani orqali talabalar lotincha terminlarni shunchaki so‘z sifatida emas, balki aniq anatomik tuzilmalar sifatida tasavvur qila boshlaydi, bu esa eslab qolish samaradorligini oshiradi.

Mantiqiy bog‘liqlik: biologik jarayonlar va kimyoviy moddalarning lotincha nomlanishini o‘rganish talabalarga dori vositalari va tirik organizmdagi o‘zgarishlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kasbiy kompetensiya: fanlararo bog‘liqlikning mustahkamlanishi talabalarda ilk kurslardanoq klinik tafakkurning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Zararli jihatlar va yuzaga kelgan muammolar: integratsiya jarayoni har doim ham silliq kechmaydi. Tadqiqot davomida talabalar o‘zlashtirishiga xalaqit beruvchi bir qator salbiy omillar ham aniqlandi:

Kognitiv yuklama: bir vaqtning o‘zida bir necha fundamental fanlardan o‘ta ko‘p miqdordagi yangi terminlarni yodlash zarurati talabalarda fanlararo yuklamaning haddan tashqari ortib ketishiga sabab bo‘ladi.

Psixologik omillar: ma’lumotlar oqimining ko‘pligi talabalarda tez charchash, surunkali toliqish va natijada fanni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Metodik chalkashliklar: ayrim hollarda turli fanlarda terminlarning turlicha talqin qilinishi yoki urg‘u berilishi talabalarda mantiqiy chalkashliklarni yuzaga keltiradi.

Vaqt defitsiti: fanlarning murakkabligi sababli talabalar orasida vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash va asosiy e’tiborni ikkinchi darajali masalalarga qaratish muammosi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari integratsiyaning “ikki tomoni o‘tkir qilich” ekanligini tasdiqladi – u bilimni chuqurlashtiradi, biroq tizimsiz yondashuv talaba uchun ortiqcha yuk bo‘lib qolishi mumkin.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitishda bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi. Xususan, anatomiya va biologiya fanlari bilan o‘rnatilgan uzviy bog‘liqlik talabalarga murakkab terminlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni vizual va mantiqiy jihatdan chuqur anglashga yordam beradi. Kimyo fani esa o‘z navbatida, tibbiy terminologiyaning farmakologik asoslarini mustahkamlashda muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Olingan natijalar ko‘rsatadiki, anatomiya fani vizualizatsiya orqali lotincha terminlarni yod olishni osonlashtiradi [6]. O‘qitish jarayonini optimallashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi [7].

Biroq, integratsiya jarayoniga faqat bir tomonlama ijobiy yondashish yetarli emas. Tadqiqot tahlillari shuni tasdiqladiki, ortiqcha integratsiya yoki noto‘g‘ri tanlangan metodik yondashuv talabalarda bilim yuklamasining keskin oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, dars samaradorligini pasaytirib, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi.

Shu sababli, o‘qitish jarayonini optimallashtirish

uchun quyidagi tamoyillarga qat’iy rioya qilish zarur deb hisoblanadi:

- *Ma’lumotlarni uzatishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qilish;*
- *Murakkab tushunchalarni tushuntirishda soddalashtirilgan terminologik yondashuvdan foydalanish;*
- *Talabalarning darsga jalb qilinishini oshirish uchun vizual va interfaol metodlarni keng qo‘llash;*
- *Fanlar orasidagi yuklamani to‘g‘ri taqsimlash, ya’ni fanlararo muvozanatni saqlash.*

Ushbu metodik yondashuvlar nafaqat o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni kamaytiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Anatomiya, biologiya va kimyo fanlari lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rganishda shunchaki qo‘shimcha fanlar emas, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya talabalarda anatomik tuzilmalarni aniq tasavvur qilish, dori moddalari va biologik jarayonlarning mantiqiy bog‘liqligini tushunish hamda klinik tafakkurni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, fanlararo integratsiya jarayoni “ikki tomoni o‘tkir qilich” kabi xususiyatga ega ekanligi aniqlandi: tizimsiz yondashuv talabalarda ortiqcha o‘quv yuklamasini keltirib chiqaradi.

Terminlarning ko‘pligi va vaqtning noto‘g‘ri taqsimlanishi natijasida talabalarda motivatsiyaning pasayishi, surunkali charchoq va fanlar o‘rtasida mantiqiy chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin.

Umuman olganda, integratsiyalashgan ta’lim lotin tili kursining samaradorligini oshiradi, biroq u ilmiy asoslangan va boshqariladigan metodika asosida amalga oshirilishi shart.

Takliflar. Tadqiqot natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Bosqichma-bosqich yondashuv: o‘quv dasturlarida terminologik yuklamani talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab bosqichma-bosqich taqsimlash lozim.

Metodik soddalashtirish: murakkab lotincha terminlarni o‘qitishda talabalarning ortiqcha zo‘riqishini oldini olish uchun soddalashtirilgan terminologik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Vizualizatsiya va IT-texnologiyalar: talabalarda terminlarni quruq yodlash emas, balki ularni ko‘z oldiga keltirish (vizualizatsiya) ko‘nikmasini oshirish uchun interfaol va multimedia vositalarini keng joriy etish zarur.

Fanlararo muvozanatni saqlash: anatomiya, kimyo va biologiya fanlari o‘qituvchilari bilan hamkorlikda “yagona terminologik lug‘at” va integratsiyalashgan dars ishlanmalarini yaratish, bu orqali darslar orasidagi takroriylik va chalkashliklarni kamaytirish tavsiya etiladi.

Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash: talabalar o‘rtasida vaqtni boshqarish (time-management) ko‘nikmalarini shakllantirish va lotin tili darslarida o‘yin texnologiyalarini qo‘llash orqali charchoq hissini kamaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahmedov A., Rasulov B. *Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari.* – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. 145-b.

2.Umarov H.T., Maxmudov Z.M., Safarova U.A. *Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari.* – Toshkent: “Hilol Media”, 2023.380-b. (Tibbiyot universitetlari talabalari uchun darslik).

3.Murodova D. J. *Fanlararo integratsiya: Tibbiyot ta’limida kognitiv yuklama muammolari.* // O‘zbekiston pedagogika jurnali. – Samarqand, 2021. №3. 22–28-betlar.

4.Ismoilov S. I. *Tibbiyotda ilmiy tadqiqot asoslari va IMRAD standarti.* – Buxoro, 2019. 110-b.

5.Isroilova M.N. *Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari.* – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016.180-b. (Tibbiyot oliygohi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma).

6.Sodiqov Q. S. *Odam anatomiyasi: terminologik lug‘at va o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017.560-b.

7.Yuldashev M., Karimova G. *Tillar o‘qitishda innovatsion va axborot texnologiyalarining o‘rni.* – Samarqand: SamDTU nashriyoti, 2023. 88-b.

Feruza YAKUBOVA,
O‘zJOKU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
feruza1471@gmail.com



O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA TAFAKKUR VA TIL KOMPETENSIYASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida tafakkur (kognitiv faoliyat) va til kompetensiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Til o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik birliklarni o‘zlashtirish, balki tafakkur strukturalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq ekani asoslab beriladi. Zamonaviy lingvodidaktika, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik doirasida til kompetensiyasining tarkibiy qismlari – lingvistik, kommunikativ, pragmatik va diskursiv kompetensiyalar tafakkur jarayonlari bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqiladi. Tilni o‘qitishda tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, xususan, muammoli ta’lim, interaktiv metodlar va diskursiv mashqlar samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, til kompetensiyasi, lingvodidaktika, kommunikativ kompetensiya, nutq faoliyati, o‘zbek tilini o‘qitish*

Аннотация: в данной статье анализируется научно-теоретическая взаимосвязь между мышлением (познательной деятельностью) и языковой компетенцией в процессе обучения узбекскому языку. Утверждается, что процесс изучения языка тесно связан не только с овладением языковыми единицами, но и с формированием и развитием мыслительных структур. В рамках современной лингводидактики, психолингвистики и когнитивной лингвистики рассматриваются компоненты языковой компетенции – языковая, коммуникативная, прагматическая и дискурсивная компетенции – в их взаимосвязи с мыслительными процессами. Научно освещается эффективность методических подходов, направленных на развитие мышления в обучении языку, в частности, проблемно-ориентированного обучения, интерактивных методов и дискурсивных упражнений.

Ключевые слова: *мышление, языковая компетенция, лингводидактика, коммуникативная компетенция, речевая деятельность, обучение узбекскому языку*

Annotation: this article scientifically and theoretically analyzes the organic connection between thinking (cognitive activity) and language competence in the process of teaching the Uzbek language. It is substantiated that the process of language learning is not only the acquisition of linguistic units but is also closely related to the formation and development of thinking structures. Within the scope of modern linguodidactics, psycholinguistics, and cognitive linguistics, the components of language competence – linguistic, communicative, pragmatic, and discursive competencies – are considered in interrelation with cognitive processes. Methodological approaches aimed at developing thinking in language teaching, in particular problem-based learning, interactive methods, and discursive exercises, are revealed on a scientific basis.

Key words: *thinking, language competence, linguodidactics, communicative competence, speech activity, teaching the Uzbek language thinking, language competence, linguodidactics, communicative competence, speech activity, teaching the Uzbek language*

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat insoniyat tafakkuri tarixida eng muhim ilmiy muammolardan biri sifatida qaralib kelinadi. Ayniqsa, tilni o‘qitish jarayonida bu ikki tushunchaning o‘zaro bog‘liqligini chuqur anglash lingvodidaktikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi globallashuv sharoitida til o‘rgatish faqat grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va kommunikativ faoliyatda erkin ishtirok etishini ta’minlashni talab etadi. Shu bois, o‘zbek tilini o‘qitishda tafakkur va til kompetensiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Tafakkur va til kompetensiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi zamonaviy lingvistika, psixolingvistika hamda lingvodidaktikaning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Inson nutq faoliyati nafaqat til birliklarini mexanik ravishda o‘zlashtirish, balki murakkab kognitiv jarayonlar — idrok, tafakkur, xotira, tasavvur va mantiqiy operatsiyalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois tilni o‘rganish jarayoni doimo tafakkur rivoji bilan birgalikda kechadi va bu ikki hodisa o‘zaro determinatsion xarakter kasb etadi. Psixolingvistik tadqiqotlar, xususan, L.S. Vigotskiy, A.A. Leontyev, J. Piaget kabi olimlarning ilmiy qarashlari til va tafakkur o‘rtasidagi dialektik birlikni asoslab beradi. Vigotskiy fikriga ko‘ra, tafakkur nutq orqali ijtimoiylashadi, nutq esa tafakkur orqali mazmun kasb etadi.

Sh. Safarovga ko‘ra: “Kommunikativ kompetensiya til birliklarini nafaqat bilish, balki ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatidir” [8. 78] Bu esa til kompetensiyasining shakllanishi bevosita tafakkur faoliyati bilan bog‘liqligini anglatadi.

Til kompetensiyasi deganda shaxsning til tizimi birliklarini bilishi, ularni nutq jarayonida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llay olishi tushuniladi. Bu tushuncha faqat grammatik bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki kommunikativ, pragmatik va diskursiv ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu jihat til kompetensiyasini tafakkur bilan chambarchas bog‘laydi. Chunki nutq yaratish jarayoni — bu fikrni shakllantirish, uni strukturaga solish va lingvistik vositalar orqali ifodalash demakdir. Demak, inson qanchalik chuqur, mantiqiy va tizimli fikrlasa, uning nutqi ham shunchalik mukammal va mazmunli bo‘ladi.

A. Nurmonov tomonidan ilgari surilgan “til birliklarining o‘zlashtirilishi faqat yodlash emas, balki tafakkur faoliyati mahsulidir” [6. 78] degan fikr aynan shu jarayonni ochib beradi. Bu yerda asosiy urg‘u shunga qaratiladiki, tilni o‘rganish passiv jarayon emas, balki faol tafakkur operatsiyalarini talab

qiluvchi murakkab intellektual faoliyatdir. Talaba yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni o‘zlashtirar ekan, ularni ongida qayta ishlaydi, mavjud bilimlari bilan solishtiradi, umumlashtiradi va muayyan tizimga soladi. Bu jarayon analitik, sintetik va mantiqiy tafakkur operatsiyalari orqali amalga oshadi.

Analitik tafakkur til o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u grammatik strukturalarni tushunishda namoyon bo‘ladi. Masalan, gap tarkibini tahlil qilish, so‘z turkumlarini ajratish, sintaktik bog‘lanishlarni aniqlash analitik tafakkur mahsulidir. Talaba murakkab gapni qismlarga ajratib, uning tarkibiy elementlarini aniqlay olmasa, u gap mazmunini to‘liq anglay olmaydi. Shu sababli grammatik bilimlarni o‘zlashtirish bevosita tahliliy fikrlash darajasiga bog‘liqdir.

Mantiqiy tafakkur esa nutq tuzish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Fikrni izchil, asosli va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish uchun inson sabab-oqibat munosabatlarini anglay olishi, umumiydan xususiyga yoki aksincha, xususiydan umumiyga o‘ta olishi zarur. Masalan, matn yaratishda kirish, asosiy qism va xulosa o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash mantiqiy tafakkur rivojiga bog‘liq. Agar bu ko‘nikma yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, nutq parokanda, izchil bo‘lmagan holga keladi.

Kreativ tafakkur esa nutq yaratishda, ayniqsa, erkin va ijodiy ifoda jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda shaxs yangi fikrlar yaratadi, mavjud til birliklarini noodatiy tarzda qo‘llaydi, metaforalar, taqqoslashlar va boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Kreativ tafakkuri rivojlangan shaxsning nutqi obrazli, ta’sirchan va esda qolarli bo‘ladi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, til kompetensiyasi tafakkur jarayonlarining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi. Tafakkur rivojlanmagan sharoitda til o‘zlashtirish yuzaki, mexanik xarakter kasb etadi. Aksincha, tafakkur faol rivojlangan muhitda tilni o‘zlashtirish chuqur, ongli va barqaror bo‘ladi.

O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida aynan shu bog‘liqlikni inobatga olish metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’lim tizimida ko‘pincha grammatik qoidalarni yodlashga urg‘u berilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvodidaktika tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ilgari suradi. Bu yondashuvlar talabani passiv bilim oluvchidan faol fikrlovchi subyektga aylantirishni ko‘zda tutadi.

Muammoli ta’lim shunday yondashuvlardan biri bo‘lib, unda talabalarga tayyor bilim berilmaydi, balki muayyan muammoli vaziyat yaratiladi. Talaba bu vaziyatni hal qilish jarayonida mustaqil fikrlaydi, izlanadi va xulosa chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi bo‘yicha muammoli topshiriq berilganda, talaba so‘zlarning nozik semantik farqlarini anglashga majbur bo‘ladi. Bu esa uning analitik va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Interaktiv metodlar, xususan, bahs-munozara, debat, “aqliy hujum” usullari ham tafakkurni faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bahs jarayonida talaba o‘z fikrini asoslash, dalillar keltirish, qarshi fikrlarni tahlil qilishga o‘rganadi. Bu jarayon mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bilan birga, nutqning aniqligi va ta’sirchanligini oshiradi. “Aqliy hujum” usuli esa kreativ tafakkurni rag‘batlantiradi, chunki bunda har qanday g‘oya qadrlanadi va erkin fikr almashinuvi yuzaga keladi.

Diskursiv mashqlar til va tafakkur integratsiyasining yana bir muhim vositasi hisoblanadi. Matn ustida ishlash, uning mazmunini tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratish, muallif pozitsiyasini aniqlash kabi mashqlar talabaning chuqur fikrlashini talab etadi. Bu jarayonda talaba nafaqat matnni tushunadi, balki uni qayta talqin qiladi, o‘z fikrini shakllantiradi. Natijada uning diskursiv kompetensiyasi rivojlanadi.

H. Jamolxonov tomonidan ta’kidlanganidek, tilni o‘qitish jarayoni tafakkurni rivojlantirish bilan uyg‘un holda olib borilgandagina samarali natija beradi. [3] Bu fikr zamonaviy ta’lim paradigmasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi — bilim berish emas, balki fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek tilini o‘qitishda tafakkur va til kompetensiyasini integrativ tarzda rivojlantirish zarur. Bu jarayon quyidagi metodik prinsiplarga asoslanishi lozim:

- faoliyatga yo‘naltirilganlik,
- kommunikativlik,
- muammolilik,
- interaktivlik,
- refleksivlik.

Har bir dars talabaning fikrlash faoliyatini rag‘batlantiruvchi tarzda tashkil etilishi, unda mustaqil izlanish, tahlil va xulosa chiqarish imkoniyati yaratilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur va til kompetensiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zbek tilini o‘qitish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tilni o‘rganish jarayoni tafakkur rivoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish talabalarning nafaqat lingvistik, balki intellektual salohiyatini ham oshiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida til o‘qitish metodikasi tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim Milliy o‘quv dasturlari. – Toshkent, 2021. 252-bet.
2. Eraliyeva D.O. Ta’limda til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan, 2019. 97-b.
3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanmasi. 1-qism. –T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
4. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. –T.: Mumtoz so‘z. 2017. 60-bet.
5. Mahmudov, N. Til va tafakkur. — Toshkent: Fan, 2002
6. Nurmonov A. Lingvistik tadqiq metodologiyasi va metodlari. –Toshkent, 2011.
7. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim Milliy o‘quv dasturlari. – Toshkent, 2021. 252-bet.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т., 2008. Б. 245.

Madinabonu MADIYOROVA,
Ma'mun universiteti Filologiya fakulteti,
G'arb tillari va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi
Xiva, O'zbekiston
E-mail: madinabonumadiyorova@gmail.com

TARJIMA NAZARIYASIDA DISKURS VA LINGVOPRAGMATIK YONDASHUVDA KOMMUNIKATIV MA'NONI, AUDITORIYA OMILI VA MADANIY KONTEKSTNI UZATISH

Annotatsiya: maqolada tarjima nazariyasida diskurs yondashuvi va lingvopragmatik qarashlarning o'rni tahlil qilinadi. Tarjima jarayoni so'zlarni mexanik almashtirish emas, balki matnning kommunikativ maqsadi, auditoriya ehtiyoji, nutq vaziyati va madaniy kontekstini qayta yaratish ekani asoslab beriladi. Tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy, diskursiv va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilib, ingliz va o'zbek tillaridagi namunalar asosida kommunikativ ma'no uzatishning asosiy strategiyalari ko'rsatildi. Natijada tarjimaning diskurs-pragmatik transfer modeli taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: *diskurs, tarjima nazariyasi, kommunikativ ma'no, lingvopragmatika, auditoriya, matn maqsadi, madaniy kontekst, pragmatik ekvivalentlik, tarjima strategiyasi, nutq vaziyati.*

Аннотация: в статье анализируется место дискурсивного и лингвопрагматического подходов в теории перевода. Обосновывается, что перевод представляет собой не механическую замену слов, а передачу коммуникативной цели, адресатной направленности, речевой ситуации и культурного контекста текста. На основе сравнительного, описательного, дискурсивного и прагматического анализа английских и узбекских примеров выявлены основные стратегии передачи коммуникативного смысла. В результате предложена модель дискурсивно-прагматического трансфера в переводе.

Ключевые слова: *дискурс, теория перевода, коммуникативный смысл, лингвопрагматика, аудитория, цель текста, культурный контекст, прагматическая эквивалентность, переводческая стратегия, речевая ситуация.*

Annotation: this article examines the role of discourse-oriented and linguopragmatic approaches in translation theory. It argues that translation is not a mechanical replacement of words but a reconstruction of communicative purpose, audience design, speech situation, and cultural context. Using comparative, descriptive, discourse, and pragmatic analysis of English and Uzbek examples, the study identifies the main strategies for transferring communicative meaning. As a result, a discourse-pragmatic transfer model is proposed as a practical framework for translation analysis and decision-making.

Key words: *discourse, translation theory, communicative meaning, linguopragmatics, audience, text purpose, cultural context, pragmatic equivalence, translation strategy, speech situation.*

Kirish. Tarjima nazariyasining rivojlanish tarixiga nazar tashlanganda, dastlabki bosqichlarda asosiy e'tibor ko'proq so'z, so'z birikmasi va gap darajasidagi muvofiqlikka qaratilgani ko'rinadi. Bunday yondashuv ma'lum ma'noda zarur bo'lsa-da, u real kommunikatsiyada matnning qanday ishlashi, kimga qaratilgani, qanday sharoitda yaratilgani va qaysi ijtimoiy-madaniy kodlar bilan bog'langanini to'liq ochib bera olmaydi. Zamonaviy tarjimashunoslik esa tarjima birligini kichik til birligidan butun diskursga, ya'ni matnning ishlab chiqilishi, qabul qilinishi va talqin qilinishini belgilovchi kommunikativ hodisaga qadar kengaytirdi.

Diskurs yondashuvi tarjimani matnlararo ko'chirish emas, balki ma'no, niyat, ta'sir va ijtimoiy funksiyani yangi muhitda qayta qurish jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan tarjimon nafaqat til tizimlarini, balki nutq vaziyatini, janr konvensiyalarini, muallif pozitsiyasini, auditoriya tayyorgarligini, oldingi bilimlarni va madaniy konnotatsiyalarni ham hisobga olishi lozim. Agar bular e'tibordan chetda qolsa, grammatik jihatdan to'g'ri ko'ringan tarjima ham kommunikativ jihatdan zaif, hatto maqsadga nomuvofiq bo'lib qolishi mumkin.

Lingvopragmatik yondashuv aynan shu masalalarni nazariy jihatdan izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv til birliklarining ma'nosini faqat lug'aviy va grammatik belgilari orqali emas, balki qo'llanish maqsadi, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat, illokutiv kuch, presuppozitsiya, implikatura va madaniy signal tizimi orqali ochib beradi. Demak, tarjimon uchun *nima aytilgan?* savoli bilan bir qatorda *nima uchun aytilgan?, kimga aytilgan?, qanday ta'sir ko'zlangan?* kabi savollar ham markaziy o'ringa chiqadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida turli janrdagi matnlar – ilmiy, publitsistik, reklama, institutsional, turistik, diniy-ma'rifiy va raqamli platforma matnlari – auditoriya markazli va madaniyatlararo sezgir

tarjimani talab qilmoqda. Shuning uchun tarjimaga diskursiv va lingvopragmatik nuqtayi nazardan yondashish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Mazkur ishda aynan kommunikativ ma'no uzatish masalasi markazga qo'yilib, tarjima faqat so'zlarni o'zgartirish emasligi ilmiy dalillar va tahliliy misollar asosida ko'rsatiladi.

Tadqiqotning maqsadi tarjima nazariyasida diskurs va lingvopragmatik yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish, kommunikativ ma'noni uzatishda auditoriya, matn maqsadi va madaniy kontekstning rolini aniqlash hamda bu omillarni hisobga oluvchi amaliy modelni taklif etishdan iborat. Shunga muvofiq ravishda quyidagi vazifalar belgilandi: diskurs yondashuvi mohiyatini tavsiflash; tarjimani kommunikativ hodisa sifatida izohlash; lingvopragmatik indikatorlarni ajratish; ingliz va o'zbek tillaridagi namunalarda strategik o'zgarishlarni tahlil qilish; diskurs-pragmatik transfer modeli asosiy bosqichlarini ishlab chiqish.

Tarjima nazariyasining zamonaviy bosqichi ko'p yo'nalishli tus olgan bo'lib, unda ekvivalentlik, funksionalizm, diskurs tahlili, pragmatika, kognitiv yondashuv va madaniyatshunoslik bir-birini to'ldirib boradi. Nida va Taber tarjimada formal muvofiqlik bilan bir qatorda dinamik ekvivalentlikni ilgari surib, qabul qiluvchining reaksiyasini markazga olib chiqdilar. Bu qarash keyinchalik auditoriya va qabul qiluvchining rolini hisobga oluvchi lingvopragmatik izlanishlar uchun muhim tayanch vazifasini bajardi. Larson ma'no markazli tarjima konsepsiyasida til shaklidan ko'ra uzatilayotgan mazmun va funksiyaning ustuvorligini ko'rsatib berdi.

Hatim va Mason tarjimani diskurslararo vositachilik deb talqin qilib, matnni aloqa vaziyati, ideologiya, registr, janr va uslubiy belgilarsiz tushunib bo'lmasligini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvida tarjimon *til almashtiruvchi* emas, balki kommunikativ muvozanatni tiklovchi faol interpretator sifatida namoyon bo'ladi. House esa tarjima sifatini funksional-pragmatik mezonlar bilan baholash zarurligini ko'rsatib, ochiq va yashirin tarjima farqlari orqali matnning kommunikativ statusi qanchalik saqlanishini tahlil qiladi. Nordning skoposga tayangan yondashuvi matn maqsadi va tarjima buyurtmasini strategik qarorlarning markaziga qo'yadi.

Diskurs nazariyasi doirasida Halliday va Hasan kogezion vositalar, matn ichki bog'liqligi hamda tema-rema rivojini matn yaxlitligini ta'minlovchi omillar sifatida tavsiflaydi. Fairclough va van Dijk esa diskursni tilning ijtimoiy amaliyot bilan uzviy bog'liq ko'rinishi deb izohlab, matn ortidagi hokimiyat, ideologiya va ijtimoiy ramzlarni tahlil qilishga e'tibor qaratadilar. Bu qarashlar tarjimaga tatbiq etilganda matn faqat kod emas, balki ijtimoiy harakat va pozitsiyalash vositasi ekani ayon bo'ladi. Shunday ekan, tarjima diskursiv munosabatlarni ham maqsad tilida qayta qurishi kerak.

Pragmatika sohasida Austin va Searle nutq aktlari nazariyasi orqali gapning ma'nosi uning illokutiv kuchi va perlokutiv ta'siri bilan chambarchas bog'liq ekanini isbotladilar. Graysning kooperativ prinsipi va implikatura nazariyasi esa matnda aytilgan va nazarda tutilgan ma'no o'rtasidagi murakkab munosabatni ochib berdi. Tarjimada aynan shu yashirin qatlamlarni uzatish qiyin bo'lib, diskurs va lingvopragmatika integratsiyasi bunday muammolarni yechishda samarali nazariy instrument sifatida maydonga chiqadi.

O'zbek tarjimashunosligi doirasida G'. Salomov, I. G'afurov, O. Mo'minov, N. Qambarov, Q. Musayev kabi olimlar tarjimaning ekvivalentlik, uslub, madaniyat va mahorat bilan bog'liq jihatlarini yoritib, milliy tarjima maktabining ilmiy asoslarini shakllantirdilar. Ayniqsa, G'. Salomovning "Til va tarjima", "Tarjima nazariyasiga kirish", "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi asarlarida tarjimaning shakliy emas, mazmuniy va badiiy-estetik tomonlariga alohida urg'u beriladi. I. G'afurov, O. Mo'minov va N. Qambarovlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada tarjimaning til, madaniyat va kommunikatsiya bilan aloqasi kengroq sharhlanadi.

Shunga qaramay, mahalliy adabiyotlarda tarjimani diskurs va lingvopragmatik mezonlar integratsiyasida, ayniqsa auditoriya dizayni, matn maqsadi va madaniy kontekst birligi asosida izohlovchi tizimli model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko'plab ishlarda pragmatika alohida, diskurs esa alohida yoritiladi; biroq ularning tarjima qarorlariga birgalikdagi ta'siri kamroq konseptuallashtirilgan. Mazkur maqolaning nazariy yangiligi aynan shu bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgani bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqot sifat jihatdan nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda tavsifiy, qiyosiy, diskursiv, lingvopragmatik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi ijtimoiy-kommunikativ vazifasi turlicha bo'lgan namunaviy matn birliklari tanlandi. Ular orasida institutsional ogohlantirishlar, reklama va targ'ibot matnlari, xizmat ko'rsatish sohasidagi murojaatlar, madaniy tanishtiruv iboralari hamda xushmuomalalik markerlarini ifodalovchi gaplar mavjud. Namunalar matn maqsadi, auditoriya darajasi va madaniy yuklamasi aniq ko'rinadigan birliklardan saralab olindi.

Tadqiqotning metodik asosi quyidagi bosqichlarda tashkil etildi. Birinchi bosqichda har bir matn birligining janri, funksiyasi, kommunikativ vazifasi va ehtimoliy qabul qiluvchisi belgilandi. Ikkinchi bosqichda undagi asosiy lingvopragmatik markerlar – murojaat shakli, modal ma'no, implikatura, xushmuomalalik darajasi, baholash komponenti, emotsional ton, presuppozitsiya va madaniy ishoralar ajratib olindi. Uchinchi bosqichda mavjud yoki ehtimoliy tarjima variantlari qiyoslanib, ularning qaysi biri kommunikativ maqsadga yaqinroq ekani aniqlashtirildi. To'rtinchi bosqichda kuzatilgan qonuniyatlar umumlashtirilib, amaliy model shakllantirildi.

Tahlilda tarjima sifatini an'anaviy *to'g'ri yoki noto'g'ri* mezoni asosida emas, balki kommunikativ adekvatlik mezonlari asosida baholash tamoyili qabul qilindi.

Buning uchun to'rtta indikator ishlab chiqildi: 1) ma'no saqlanishi; 2) pragmatik kuch saqlanishi; 3) auditoriyaga moslashuv darajasi; 4) madaniy kontekstning funksional tiklanishi. Agar matnning lug'aviy mazmuni uzatilgan bo'lsa-yu, lekin undagi muloyimlik, urg'u, reklamaviy joziba, ogohlantiruvchi ton yoki ijtimoiy masofa yo'qolgan bo'lsa, bunday tarjima qisman adekvat, ammo to'liq kommunikativ ekvivalent deb baholanmadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida bir xil mazmunning turli uslubiy shakllarda ifodalanishi ham inobatga olindi. Masalan, buyruq, iltimos, taklif va tavsiya shakllarining tarjimada qanday tonal siljish keltirib chiqarishi tekshirildi. Xuddi shuningdek, kulturologik jihatdan belgilangan so'zlar va ijobiy emotsional baholash elementlari uchun turli strategiyalar – kalka, transpozitsiya, izohlash, funksional almashtirish, eksplisitlashtirish va adaptatsiya –sinovdan o'tkazildi.

Tahlil natijalari birinchi navbatda shuni ko'rsatadiki, tarjimaning muvaffaqiyati ko'p hollarda alohida so'zlar muvofiqligiga emas, balki diskursiv funksiyalarni qay darajada qayta tiklay olishiga bog'liq. Bir xil lug'aviy mazmun har xil nutq vaziyatida turlicha pragmatik kuchga ega bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *Please keep off the grass* birikmasi shaklan iltimos ko'rinishida bo'lsa-da, jamoat joyidagi ogohlantiruvchi institutsional diskursda u me'yoriy ta'qiq vazifasini bajaradi. Uni so'zma-so'z "Iltimos, o't ustiga chiqmang" deb berish mumkin, ammo o'zbek jamoat yozuvidagi odatiy normaga ko'ra "Maysazor ustiga chiqmang" varianti funksional jihatdan samaraliroqdir. Bu yerda so'zlar soni kamayadi, lekin matnning institutsional kuchi saqlanadi.

Ikkinchi natija shundan iboratki, auditoriya omili tarjima strategiyasini belgilovchi markaziy omillardan biridir. Aynan bir mazmun mutaxassis auditoriya, keng jamoatchilik, turistlar, bolalar yoki xalqaro foydalanuvchilar uchun turlicha shakllantirilishi mumkin. Agar manba matnda presuppozitsiya yuqori bo'lsa, ya'ni o'quvchi oldindan ma'lum bilimga ega deb qabul qilinsa, tarjimada bu bilim mavjud emasligi sababli eksplisitlashtirish zarur bo'ladi. Aksincha, agar maqsad auditoriya uchun ortiqcha izoh matnning ritmini buzsa, tarjimon ixchamroq va semantik yuklamasi kuchliroq birlikni tanlashi lozim.

Uchinchi muhim natija madaniy kontekstning tarjimada ko'pincha yashirin, ammo hal qiluvchi rol o'ynashidir. Reklama, turistik tanishtiruv, marosimiy murojaat yoki diniy-ma'rifiy matnlarda madaniy baho va emotsional rangdorlik kuchli bo'ladi. Ingliz tilidagi *Discover the timeless spirit of the city* iborasidagi timeless spirit birikmasi faqat "abadiy ruh" deb emas, balki maqsadli auditoriyada uyg'otiladigan estetik taassurot nuqtayi nazaridan "shaharning asrlar oshib kelayotgan ruhi" yoki "shaharning boqiy ruhi" kabi variantlar orqali samaraliroq berilishi mumkin. Bunda muhim narsa lug'aviy yaqinlik emas, balki diskursiv ta'sirni qayta yaratishdir.

To'rtinchi natija sifatida xushmuomalalik va ijtimoiy masofa ko'rsatkichlari tarjimada ko'pincha sintaktik transformatsiyalar orqali uzatilishi kuzatildi. Ingliz tilidagi *Would you mind waiting a moment?* Rasmiy xushmuomalalik strategiyasini ifodalaydi. Uning o'zbekcha tarjimasi "Bir oz kutib tura olasizmi?" yoki "Iltimos, bir oz kutib turing" ko'rinishida tanlanishi mumkin. Birinchi variant dialogik va yumshoqroq; ikkinchisi xizmat ko'rsatish muassasasidagi standart murojaat uchun tabiiyroq. Demak, illokutiv kuchni saqlash ba'zan grammatik tur o'zgarishini, ba'zan esa to'g'ridan to'g'ri modal qayta qurishni talab qiladi.

Beshinchi natija sifatida diskursda kogezion vositalarning tarjima sifatiga bevosita ta'siri aniqlandi. Manba matndagi bog'lovchilar, ko'rsatish birliklari, mavzu rivoji va informatsion urg'u saqlanmasa, ma'no qisman o'tgan bo'lsa ham, matn qabul qilinishi qiyinlashadi. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada nominal zichlikning yuqoriligi sababli gaplarni sintaktik jihatdan qayta taqsimlashga ehtiyoj tug'iladi. Bunday transformatsiya diskurs yaxlitligini buzmasa, aksincha, maqsad tilidagi o'qilishi qulay va pragmatik jihatdan tabiiy matnni ta'minlaydi.

Umumlashtirilgan holda aytganda, natijalar tarjimada kommunikativ ma'no uch qatlamda ko'chirilishini ko'rsatadi: birinchisi – propozitsional mazmun, ya'ni nima haqida gap ketayotgani; ikkinchisi – interaksion mazmun, ya'ni muallif bilan auditoriya o'rtasidagi munosabat; uchinchisi – diskursiv-funksional mazmun, ya'ni matnning ijtimoiy vazifasi va stilistik energiyasi. Ushbu qatlamlardan birining yo'qolishi tarjima adekvatligini pasaytiradi. Shuning uchun diskurs-pragmatik integratsiya tarjima tahlilida nafaqat foydali, balki zarur metodologik tamoyil sifatida ko'rinadi.

Olingan natijalar tarjimaga faqat ekvivalentlik nuqtayi nazaridan qarash yetarli emasligini yana bir bor ko'rsatadi. Albatta, ekvivalentlik tarjimashunoslikning bazaviy tushunchasi bo'lib qolaveradi, biroq u turli qatlamlarda namoyon bo'ladi. Agar ekvivalentlik faqat lug'aviy moslik bilan cheklansa, tarjima kommunikativ vazifani yo'qotishi mumkin. Diskurs va lingvopragmatika esa ekvivalentlikni kengaytirib, uni *ta'sir, funksiya, adresatga moslik* va *madaniy maqbullik* mezonlari bilan boyitadi. Shu ma'noda maqola natijalari funksionalizm, skopos nazariyasi va ma'no markazli tarjima yondashuvi bilan hamohangdir, lekin ularni diskursiv tahlil vositalari bilan birlashtiradi.

Muhokama doirasida ayniqsa ikki masalaga urg'u berish maqsadga muvofiq. Birinchidan, tarjimonning roli. Diskurs-pragmatik yondashuv tarjimonni passiv ko'chiruvchi emas, balki qaror qabul qiluvchi faol kommunikator sifatida ko'radi. U matnning yashirin tuzilishini ochadi, kommunikativ markazni aniqlaydi, maqsad tilidagi qabul sharoitini taxmin qiladi va kerak bo'lganda matnni qayta kompozitsiyalaydi.

Bunday faoliyat yuqori kasbiy kompetensiya, matnlararo sezgirlik va kulturologik bilimni talab qiladi. Ikkinchidan, tarjima sifatini baholash mezonlari. Agar baholash faqat so‘zlarning muvofiqligiga asoslanadigan bo‘lsa, kommunikativ jihatdan muvaffaqiyatli, biroq shaklan erkinroq variantlar nohaq ravishda *chekinish* sifatida ko‘rinadi. Holbuki, real kommunikatsiyada aynan shunday variantlar ko‘proq samarali bo‘ladi.

Natijalar shuningdek, turli janrlarda diskurs-pragmatik omillarning ulushi bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ilmiy matnda terminologik aniqlik va mantiqiy bog‘liqlik ustuvor bo‘lsa, reklama matnida emotsional va persuasiv signal kuchliroq bo‘ladi; turistik yoki tanishtiruv diskursida esa obrazlilik, ijobiy baholash va madaniy joziba muhim o‘rin tutadi. Shu sababli tarjima strategiyasi universal bo‘lishi mumkin emas. Tarjimon har safar janr, maqsad va auditoriya kombinatsiyasiga mos operatsion qaror qabul qilishi kerak. Maqolada taklif etilgan besh bosqichli model aynan shunday differensial yondashuv uchun amaliy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Maqola ko‘proq nazariy-analitik xususiyatga ega bo‘lgani uchun keng hajmdagi korpus va statistik verifikatsiya bilan mustahkamlanmagan. Kelgusida ommaviy axborot vositalari, turistik broshyuralar, rasmiy platformalar, universitet veb-saytlari yoki reklama matnlari asosidagi ikki tilli korpusda ushbu modelni sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, auditoriya qabulini empirik ravishda o‘rganish – masalan, fokus-guruhlar, so‘rovnoma yoki tajriba orqali diskurs-pragmatik adekvatlikni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Shunday bo‘lsa-da, olib borilgan tahlil tarjima amaliyotida uchraydigan ko‘plab tipik xatolarni tushuntirishga yordam beradi. Masalan, matnning haddan tashqari literal talqini, muloyimlik darajasining tushib ketishi, reklama va targ‘ibot matnlarida ta’sirchanlikning yo‘qolishi, institutsional matnlarda esa me’yoriylikning susayishi ko‘pincha diskurs va pragmatika e’tibordan chetda qolgani bilan izohlanadi. Demak, tarjimon tayyorlash tizimida ushbu kompetensiyalarni alohida modul sifatida rivojlantirish zarur.

Janrlararo qiyos shuni ko‘rsatadiki, diskurs-pragmatik mezonlar universalligi bilan birga ularning og‘irlik darajasi har bir kommunikativ maydonda boshqacha taqsimlanadi. Ilmiy matnda matnning ishonchliligi, terminologik barqarorligi va dalillash zanjiri buzilmasligi birinchi o‘rinda turadi. Reklama, targ‘ibot yoki turistik tanishtiruv diskursida esa ayni shu mezonlar ikkinchi planga o‘tib, ijobiy baholash, adresatni jalb etish, ritm va obrazlilik oldinga chiqadi. Demak, tarjimon har bir matnni umumiy til tizimi doirasida emas, balki maxsus diskurs qoidalari va kutilayotgan qabul modeli doirasida tahlil qilishi zarur.

Alohida e’tibor talab qiladigan sohalardan biri raqamli platformalar va foydalanuvchi interfeyslari tarjimasidir. Bunday matnlarda hajm cheklovi, tez idrok etilish talabi va foydalanuvchi harakatiga bevosita ta’sir qilish funksiyasi kuchli bo‘ladi. Ingliz tilidagi Continue, Submit, Learn more, Terms apply kabi birliklarni faqat lug‘aviy moslik asosida berish ko‘pincha yetarli emas; ular foydalanuvchi tajribasi, ekrandagi joylashuv va funksional aniq ko‘rsatma bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Shu bois diskurs-pragmatik yondashuv zamonaviy lokalizatsiya amaliyoti uchun ham bevosita ahamiyatga ega.

Tarjimon tayyorlash metodikasida ham ushbu yondashuvning amaliy salohiyati katta. Talabalarni faqat leksik-ekvivalent juftliklar bilan ishlashga o‘rgatish ularning real matn bilan ishlash kompetensiyasini cheklab qo‘yadi. O‘quv jarayonida janrni aniqlash, maqsad auditoriyani tavsiflash, presuppozitsiya va implikaturani topish, xushmuomalalik va baholash markerlarini qiyoslash, bir matn uchun bir necha pragmatik variant ishlab chiqish kabi mashqlar muntazam qo‘llansa, tarjimonning tahliliy fikrlashi sezilarli kuchayadi. Bu esa nazariy bilimni amaliy qarorga aylantirishda muhim vosita bo‘ladi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari rivojlanayotgan hozirgi davrda diskurs va pragmatika mezonlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mashina tarjimasi ko‘pincha propozitsional ma’noni tez va qoniqarli darajada uzatsa-da, auditoriya ehtiyoji, muloyimlik darajasi, yashirin implikatura yoki madaniy joziba kabi qatlamlarni yetarlicha sezmaydi. Inson tarjimoni aynan shu nuqtalarda ustunlikka ega. Demak, kelajakdagi tarjimashunoslik tadqiqotlari inson va mashina tarjimasining diskurs-pragmatik farqlarini tizimli ravishda o‘rganishi lozim.

Bundan tashqari, diskurs-pragmatik tahlil tarjima tanqidini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Tarjima tanqidchisi matnni faqat aslga yaqin yoki aslga uzoq deb baholash bilan cheklanmasdan, qaysi kommunikativ qatlam muvaffaqiyatli ko‘chganini va qaysi qatlam yo‘qotilganini aniq ko‘rsata oladi. Bunday yondashuv tarjima sifatiga nisbatan nozikroq, ko‘p mezonli va amaliy tavsiyalar berishga qodir tahliliy modelni yaratadi.

Nazariy jihatdan qaralganda, diskurs va pragmatika integratsiyasi tarjima jarayonini uch tomonlama munosabat sifatida ochib beradi: manba matn – tarjimon interpretatsiyasi – maqsad auditoriya qabul qilishi. Shu uchlikdan faqat birinchi bo‘g‘inga e’tibor qaratish tarjimani tor semantik doiraga qamab qo‘yadi. Ikkinchi va uchinchi bo‘g‘inlarni hisobga olish esa tarjimonning izchil refleksiyasini, variantlar orasidan asosli tanlov qilishini va o‘z qarorini ilmiy mezonlar bilan izohlashini talab qiladi. Mazkur maqolada taklif etilgan model aynan shu refleksiv tarjima amaliyotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan esa diskurs-pragmatik yondashuv, ayniqsa, xalqaro universitet kommunikatsiyasi, turizm, xizmat ko‘rsatish, davlat xizmatlari va ko‘p tilli veb-platformalar uchun katta ahamiyatga ega. Bu sohalarda foydalanuvchi yoki o‘quvchi odatda, matnni chuqur tahlil qilib o‘tirmaydi; u tez, aniq va o‘ziga mos signal kutadi.

Shuning uchun tarjimaning muvaffaqiyati ko‘pincha grammatik to‘g‘rilikdan ko‘ra, tez anglashiladigan va ishonch uyg‘otadigan nutq dizayniga bog‘liq bo‘ladi. Bu holat diskurs va lingvopragmatikaning tarjima amaliyotidagi real qiymatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amaliy kuzatishlar asosida tarjimon uchun qisqa tekshiruv ro‘yxatini tuzish mumkin. Ushbu chek-list manba matn bilan ishlashdan oldin va yakuniy variantni topshirishdan avval qo‘llansa, diskurs-pragmatik yo‘qotishlar sezilarli kamayadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, tarjima jarayoni faqat til birliklarini almashtirish emas, balki diskursiv tuzilma, kommunikativ niyat, auditoriya kutishi va madaniy kontekstni maqsad tilida qayta tashkil etish jarayonidir. Diskurs yondashuvi tarjimani matnning qanday ishlashini tahlil qilishga, lingvopragmatik yondashuv esa matnning nima maqsadda va qanday ta’sir bilan ishlashini aniqlashga yordam beradi. Ushbu ikki yondashuv integratsiyasi tarjima nazariyasining izoh imkoniyatlarini kengaytiradi va amaliy qarorlar uchun aniqroq mezon beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kommunikativ ma’no uzatishda to‘rtta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega: matn maqsadi, auditoriya profili, pragmatik kuch va madaniy kontekst. Shu omillarni hisobga oluvchi besh bosqichli diskurs-pragmatik transfer modeli tarjima tahlilini tizimlashtirish va tarjima variantlarini asoslash uchun qulay vosita sifatida tavsiya etiladi. Model janrni aniqlash, illokutiv kuchni baholash, auditoriyani belgilash, madaniy signalni qayta ishlash va til vositalarini qayta qurish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: birinchidan, tarjimon tayyorlash dasturlarida diskurs tahlili va pragmatika integrallashgan maxsus modullar joriy etilishi; ikkinchidan, turli janrlarga oid ikki tilli o‘quv korpuslari yaratilib, unda kommunikativ adekvatlik mezonlari bilan izohlangan namuna tarjimalar berilishi; uchinchidan, tarjima sifatini baholash mezonlariga auditoriya qabulini va madaniy moslikni aks ettiruvchi indikatorlar kiritilishi; to‘rtinchidan, rasmiy, turistik, reklama va raqamli platforma matnlarini tarjima qilishda “so‘zma-so‘zlik” emas, “kommunikativ ekvivalentlik” tamoyili ustuvor qo‘llanishi lozim.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun diskurs-pragmatik modelni korpus lingvistikasi, kognitiv tarjimashunoslik va sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari bilan bog‘lash istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rinadi. Ayniqsa, mashina tarjimasida auditoriya, stilistik ton va madaniy presuppozitsiya ko‘pincha yetarli darajada aks etmasligi sababli, ushbu maqolada taklif etilgan mezonlar inson tarjimasi bilan avtomatik tarjimani qiyosiy tahlil qilishda ham qo‘l kelishi mumkin. Shunday qilib, diskurs va lingvopragmatika zamonaviy tarjima nazariyasida markaziy, amaliy va metodologik jihatdan samarali tayanchlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2018.
3. Bassnett S. Translation Studies. 4th ed. – London; New York: Routledge, 2014.
4. Bell R. T. Translation and Translating: Theory and Practice. – London: Longman, 1991.
5. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992.
6. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012.
7. Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
8. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976.
9. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. – London; New York: Longman, 1990.
10. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2015.
11. Larson M. L. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. 2nd ed. – Lanham: University Press of America, 1998.
12. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 4th ed. London; – New York: Routledge, 2016.
13. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
14. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E. J. Brill, 1969.
15. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome, 1997.
16. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966.
17. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
18. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
19. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
20. Sapayeva F. D. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. – Toshkent: Cho‘lpon, 2016.
21. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
22. van Dijk T. A. Discourse as Structure and Process. – London: Sage, 1997.
23. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London; New York: Routledge, 1995.

Dilfuza SHAKIROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi;
Anvar MUSOYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

TARJIMA VA LINGVISTIK INTERFERENSIYA: TILLARARO TA’SIR MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik interferensiya hodisasi va uning tillararo ta’sir bilan bog‘liq muammolari tahlil qilinadi. Interferensiya, asosan, bir til (ko‘pincha ona tili)ning boshqa tilga ta’siri natijasida yuzaga kelib, tarjima sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada lingvistik interferensiyaning asosiy turlari – leksik, grammatik va uslubiy xatolar misollar asosida yoritiladi. Tarjima jarayonida interferensiyani kamaytirish yo‘llari va samarali strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tarjimonlar va chet til o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *tarjima, lingvistik interferensiya, tillararo ta’sir, leksik xatolar, grammatik xatolar, tarjima jarayoni, lingvistika, ekvivalentlik.*

Annotation: this article analyzes the phenomenon of linguistic interference in the translation process and the problems associated with cross-linguistic influence. Interference mainly occurs due to the influence of one language (usually the native language) on another, which negatively affects the quality of translation. The article discusses the main types of linguistic interference – lexical, grammatical, and stylistic errors – illustrated with examples. It also examines ways to reduce interference and effective translation strategies. The results of the study are of significant importance for translators and foreign language learners.

Key words: *translation, linguistic interference, cross-linguistic influence, lexical errors, grammatical errors, translation process, linguistics, equivalence*

Аннотация: в данной статье анализируется явление лингвистической интерференции в процессе перевода и проблемы, связанные с межъязыковым влиянием. Интерференция в основном возникает под воздействием одного языка (чаще всего родного) на другой, что негативно влияет на качество перевода. В статье рассматриваются основные виды лингвистической интерференции – лексические, грамматические и стилистические ошибки, проиллюстрированные примерами. Также изучаются способы снижения интерференции и эффективные стратегии перевода. Результаты исследования имеют важное значение для переводчиков и изучающих иностранные языки.

Ключевые слова: *перевод, лингвистическая интерференция, межъязыковое влияние, лексические ошибки, грамматические ошибки, процесс перевода, лингвистика, эквивалентность*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari natijasida turli tillar o‘rtasidagi aloqalar kengayib, tarjima faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarjima nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik muammolar, xususan, lingvistik interferensiya masalasi alohida e’tiborni talab etadi.

Lingvistik interferensiya bir til tizimining boshqa tilga ta’siri natijasida yuzaga kelib, ayniqsa ingliz tilidan o‘zbek tiliga yoki aksincha, tarjima jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi *“I have 20 years”* jumlasini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarzda *“Menda 20 yil bor”* deb tarjima qilish noto‘g‘ri bo‘lib, to‘g‘ri variant *“Men 20 yoshdaman”* shaklida ifodalanadi. Bunday xatolar ona tilining ta’siri natijasida yuzaga keladi va tarjima sifatini pasaytiradi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi grammatik va leksik farqlar ham interferensiyani kuchaytiradi. Ingliz tilida qat’iy so‘z tartibi (SVO) mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida so‘z tartibi nisbatan erkin hisoblanadi. Bu esa tarjima jarayonida gap tuzilishida xatolarga olib kelishi mumkin. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi xorijiy tillari misolida lingvistik interferensiya muammolarini tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda tarjima jarayonida ularni kamaytirish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqotda tarjima va lingvistika sohasidagi yetakchi olimlar – Eugene Nida, Peter Newmark, Mona Baker, Jeremy Munday va Susan Bassnettning ilmiy ishlari asos qilib olindi. Lingvistika yo‘nalishida Noam Chomsky va Rod Ellis tadqiqotlari hamda Larry Selinkerning interferensiyaga oid qarashlari muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotda tavsifiy, taqqoslash va misoliy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik farqlar tahlil qilinib, interferensiya holatlari real misollar asosida o‘rganildi.

Tahlillar. Tarjima jarayonida lingvistik interferensiya ko‘pincha ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar natijasida yuzaga keladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interferensiya asosan, leksik, grammatik va uslubiy darajalarda namoyon bo‘ladi. Leksik darajada tarjimonlar ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjimaga murojaat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *“make a decision”* birikmasi *“qaror qilmoq”* tarzida tarjima qilinishi kerak bo‘lsa-da, ba’zan *“qaror yasamoq”* shaklida noto‘g‘ri qo‘llanadi. Bu holat ona tilining yoki so‘z shakliga haddan tashqari tayanish natijasidir. Grammatik darajada esa ingliz tilidagi qat’iy so‘z tartibi (SVO) o‘zbek tiliga noto‘g‘ri ko‘chiriladi. Masalan, *“She reads a book”* gapini *“U o‘qiydi kitob”* tarzida tarjima qilish interferensiya natijasidir, to‘g‘ri variant esa *“U kitob o‘qiydi”* bo‘ladi.

Uslubiy jihatdan ham interferensiya kuzatiladi va ingliz tilidagi rasmiy yoki norasmiy uslub farqlari o‘zbek tiliga to‘liq mos kelmasligi sababli tarjimada uslubiy nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Umuman olganda, tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, lingvistik interferensiya tarjima sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va u asosan, tillararo strukturaviy hamda madaniy farqlar bilan bog‘liq. Ushbu muammoni kamaytirish uchun tarjimonlardan har ikki til tizimini chuqur bilish va kontekstga mos yondashuv talab etiladi.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari lingvistik interferensiyaning tarjima jarayonida tizimli va ko‘p darajali hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Interferensiya asosan, leksik, grammatik va uslubiy sathlarda namoyon bo‘lib, uning yuzaga kelishi ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi strukturaviy hamda tipologik farqlar bilan izohlanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, leksik interferensiya ko‘pincha ekvivalent birliklarni noto‘g‘ri tanlash yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish natijasida yuzaga keladi. Grammatik interferensiya esa gap tuzilishi va sintaktik modellarning bir tildan ikkinchisiga bevosita ko‘chirilishi bilan bog‘liq. Uslubiy interferensiya holatlarida esa nutqning funksional uslubi va kommunikativ maqsadi yetarlicha inobatga olinmaydi. Tadqiqot natijalari interferensiya darajasi tarjimonning lingvistik kompetensiyasi, tarjima tajribasi hamda kontekstni tahlil qilish ko‘nikmalariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Interferensiyani minimallashtirish uchun kontrastiv tahlil usulidan foydalanish, ekvivalentlik tamoyillariga rioya qilish hamda kommunikativ-pragmatik yondashuvni qo‘llash samarali ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, olingan natijalar lingvistik interferensiya tarjima sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda uni kamaytirish tarjimonning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalariga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari tarjima jarayonida lingvistik interferensiya muhim va dolzarb muammo ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tillararo ta’sir natijasida yuzaga keladigan leksik, grammatik va uslubiy xatolar tarjima sifatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda matnning mazmuni va kommunikativ qiymatini pasaytiradi.

Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi strukturaviy hamda tipologik farqlar interferensiyaning asosiy manbai ekanligi aniqlandi. Interferensiya darajasi tarjimonning lingvistik kompetensiyasi, tajribasi va kontekstni to‘g‘ri tahlil qilish qobiliyatiga bevosita bog‘liqligi ilmiy asosda ko‘rsatib berildi. Lingvistik interferensiyani kamaytirish uchun kontrastiv tahlil, ekvivalentlik tamoyillariga amal qilish hamda kommunikativ-pragmatik yondashuvlardan foydalanish zarurligi asoslab berildi. Bundan tashqari, tarjimonlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish tarjima sifatini oshirishning muhim omili ekanligi qayd etildi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari lingvistik interferensiyani chuqur o‘rganish va uni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, Marhabo, and Rahmatov Fahriddin Valijonovich. “SO‘Z KO‘CHMA MA‘NOLARINING IFODALANISHI-METAFORA, METONIMIYA. “ *Continuing education: international experience, innovation, and transformation* 1.2 (2025): 34–40.
2. Nida Eugene. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. 331 p.
3. Newmark Peter. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. 292 p.
4. Baker Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. 304 p.
5. Munday Jeremy. Introducing Translation Studies. – London: Routledge, 2001. 222 p.
6. Qizi, Sodikova Dinora Ilhom, et al. “AI-Driven NLP and Blockchain-Enabled Linguistic Analytics: Integrative Approaches for Fair, Transparent Literary Translation of George Orwell’s Works.” *2025 International Conference on Electrical Engineering and Informatics (ICEEI)*. IEEE, 2025.

Dildora KOMILOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi
Dilfuza ARAMXODJAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

TARIX YO‘NALISHIDA INGLIZCHA TERMINOLOGIYA TARJIMASI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI (SDG 4 ASOSIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix yo‘nalishida inglizcha terminologiyani o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Xususan, tarixiy tushunchalarning semantik xususiyatlari, terminlarning ko‘p ma’noliligi, kontekstga bog‘liqligi hamda milliy-madaniy tafovutlar tarjimada qiyinchiliklar tug‘dirishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo‘lgan SDG 4 – sifatli ta’limni ta’minlash nuqtai nazaridan tarixiy terminologiyani to‘g‘ri va izchil tarjima qilishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy terminologiya, tarjima muammolari, madaniy tafovutlar, SDG 4, sifatli ta’lim, terminologik standartlash, tarjima strategiyalari.*

Annotation: this article analyzes the problems that arise in the process of translating English terminology in the field of history into Uzbek and proposes possible solutions. In particular, it highlights the semantic features of historical concepts, the polysemy of terms, their context dependence, and the role of cultural differences in creating translation difficulties. The article also emphasizes the importance of accurate and consistent translation of historical terminology from the perspective of SDG 4 – Quality Education, one of the Sustainable Development Goals of the United Nations.

Keywords: *historical terminology, translation problems, cultural differences, SDG 4, quality education, terminological standardization, translation strategies*

Аннотация: в данной статье анализируются проблемы, возникающие в процессе перевода английской терминологии в области истории на узбекский язык, а также предлагаются пути их решения. В частности, рассматриваются семантические особенности исторических понятий, многозначность терминов, их зависимость от контекста, а также культурные различия, создающие трудности при переводе. В статье также подчеркивается значение точного и последовательного перевода исторической терминологии с точки зрения ЦУР 4 – обеспечения качественного образования, одной из Целей устойчивого развития Организации Объединённых Наций.

Ключевые слова: *историческая терминология, проблемы перевода, культурные различия, ЦУР 4, качественное образование, терминологическая стандартизация, переводческие стратегии.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida fan va ta’lim sohalarida xalqaro hamkorlikning kengayib borishi turli tillar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani ta’minlashni muhim vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, tarix fani kabi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda terminologiyaning aniq va to‘g‘ri tarjima qilinishi ilmiy mazmunning to‘liq yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili xalqaro ilmiy muloqot tili sifatida tarixiy terminlarning asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda, bu esa ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tarixiy terminologiya o‘zining murakkab semantik tuzilishi, ko‘p ma’noliligi va madaniy kontekstga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ingliz tilidagi tarixiy atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ko‘plab lingvistik va ekstralingvistik muammolar paydo bo‘ladi. Xususan, ayrim terminlarning o‘zbek tilida muqobili mavjud emasligi, tarixiy hodisalar va tushunchalarning milliy xususiyatlarga bog‘liqligi tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Natijada noto‘g‘ri yoki noaniq tarjimalar ilmiy mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur masala Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri – SDG 4, ya’ni sifatli ta’limni ta’minlash bilan ham bevosita bog‘liqdir. Sifatli ta’limni shakllantirishda ilmiy adabiyotlarning aniq va tushunarli bo‘lishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy terminologiyani to‘g‘ri tarjima qilish nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb masala sifatida qaraladi. Ushbu maqolaning maqsadi tarix yo‘nalishida inglizcha terminologiyani tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Tarixiy terminologiyani tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikda muhim o‘rin tutadi. Eugene Nida nazariyalarida mazmunni aniq yetkazish, Peter Newmark yondashuvida esa kontekst va aniqlik muhimligi ta’kidlanadi. Lawrence Venuti esa madaniy moslashtirish (domestikatsiya) va asl shaklni saqlash (foreignizatsiya) strategiyalarini ilgari suradi. Terminologiya sohasida Maria

Teresa Cabré terminlarning tizimliligi va standartlashuviga urg‘u beradi. O‘zbek tilshunosligida Shavkat Rahmatullayev va Abduvali Abduazizov ilmiy terminlarni rivojlantirish zarurligini qayd etgan.

Tahlillar. Tarix yo‘nalishida inglizcha terminologiyani o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni bir qator lingvistik va madaniy muammolar bilan tavsiflanadi. Avvalo, tarixiy terminlarning ko‘p ma’noliligi (polisemiyasi) muhim qiyinchiliklardan biridir. Masalan, *“state”* termini turli kontekstlarda *“davlat”, “holat”* yoki *“tuzum”* ma’nolarida qo‘llanilishi mumkin. Shu bois tarjimada kontekstni chuqur tahlil qilish zarur bo‘ladi.

Ikkinchi muhim muammo – terminlarning kontekstga bog‘liqligidir. Tarixiy matnlarda bir xil termin turli davr yoki hududga qarab turlicha mazmun kasb etadi. Masalan, *“revolution”* termini ayrim hollarda siyosiy to‘ntarish, boshqa holatda esa ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar majmuini anglatadi. Bu esa tarjimondan tarixiy bilim va tahliliy yondashuvni talab qiladi.

Uchinchi jihat – milliy-madaniy tafovutlardir. Ayrim inglizcha tarixiy tushunchalar o‘zbek tilida to‘liq ekvivalentga ega emas. Bunday hollarda izohli tarjima, transliteratsiya yoki kombinatsiyalashgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, *“feudalism”* termini *“feodalizm”* shaklida olinadi, biroq uning mazmunini tushuntirish ham zarur bo‘lishi mumkin.

Terminologik izchillikning yetishmasligi ham muammolardan biridir. Turli manbalarda bir xil terminning turlicha tarjima qilinishi ilmiy kommunikatsiyada chalkashliklarga olib keladi. Shu sababli terminlarni standartlashtirish, yagona lug‘at va terminologik bazalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechimlar taklif etiladi. Jumladan, kontekstual va semantik tahlilni kuchaytirish, zamonaviy tarjima strategiyalaridan foydalanish, terminologik lug‘atlar va elektron resurslarni keng qo‘llash zarur. Bundan tashqari, tarix va tilshunoslik fanlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish ham samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadi – sifatli ta’lim (SDG 4) bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, aniq va izchil tarjima o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda talabalar va tadqiqotchilar uchun tushunarli ilmiy muhit yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarix yo‘nalishida inglizcha terminologiyani tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar – ko‘p ma’nolilik, kontekstga bog‘liqlik, milliy-madaniy tafovutlar hamda terminologik izchillikning yetishmasligi – tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar hisobga olinmaganda, ilmiy mazmunning noto‘g‘ri talqin qilinishi va tushunmovchiliklar yuzaga kelishi aniqlangan. Tahlillar asosida samarali tarjima uchun quyidagi natijalarga erishildi: tarixiy terminlarni tarjima qilishda kontekstual va semantik yondashuv ustuvor bo‘lishi zarur; izohli tarjima va kombinatsiyalashgan usullar murakkab tushunchalarni aniq yetkazishda samarali hisoblanadi; yagona terminologik standart va lug‘atlardan foydalanish ilmiy izchillikni ta’minlaydi. Elektron resurslar va zamonaviy tarjima vositalaridan foydalanish tarjima jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishi isbotlandi.

Bundan tashqari, fanlararo yondashuv – ya’ni tarixiy bilimlar va lingvistik kompetensiyaning uyg‘unligi – yuqori sifatli tarjima uchun muhim omil ekani aniqlandi. Ushbu natijalar SDG 4, ya’ni sifatli ta’lim maqsadlariga mos ravishda, o‘quv jarayonida aniq va tushunarli terminologiyani qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot tarix yo‘nalishida inglizcha terminologiyani o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy terminlarning ko‘p ma’noliligi, kontekstga bog‘liqligi hamda milliy-madaniy tafovutlar tarjima jarayonini murakkablashtiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, terminologik izchillikning yetishmasligi ilmiy muloqotda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, tarixiy terminlarni tarjima qilishda kontekstual va semantik yondashuvni ustuvor qo‘llash, izohli tarjima usullaridan foydalanish hamda terminologiyani standartlashtirish zarurligi asoslab berildi. Zamonaviy elektron resurslar va lug‘atlardan foydalanish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish tarjima sifatini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Tarixiy terminologiyani aniq va izchil tarjima qilish nafaqat ilmiy izlanishlar samaradorligini oshiradi, balki ta’lim jarayonining sifatini ham yaxshilaydi. Bu esa BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, sifatli ta’lim (SDG 4)ni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, M. “Equity and Accessibility in Education Systems: A Global Perspective on Sdg 4 Implementation.” *International Journal of Formal Education* 4.12 (2025): 41–46.
2. Eugene Nida. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill,1964. 331 p.
3. Peter Newmark. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. 292 p.
4. Lawrence Venuti. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995. 353 p.
5. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.320-b.
6. Abduvali Abduazizov. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 280-b.

Sohiba ZAKIROVA,
O‘zDJTU nemis tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA NEMIS TILINI O‘QITISH JARAYONIDA KOMPENSATOR KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ikkinchi chet tili sifatida nemis tilini o‘qitish jarayonida kompensator kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion metodlari tahlil qilinadi. Kompensator kompetensiya o‘quvchilarning til bilimlari yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda ham muloqotni davom ettirish qobiliyatini anglatadi va kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kommunikativ, interaktiv, muammoli va raqamli ta’lim metodlarining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ko‘p tillilik sharoitida o‘quvchilarning mavjud til tajribasidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kompensator kompetensiya, innovatsion metodlar, nemis tili, ikkinchi chet tili, kommunikativ yondashuv, raqamli ta’lim*

Annotation: this article analyzes innovative methods for developing compensatory competence in the process of teaching German as a second foreign language. Compensatory competence refers to the ability of students to continue communication even in situations where their language skills are insufficient and is an important component of communicative competence. The study highlights the role of modern pedagogical approaches, in particular, communicative, interactive, problem-based and digital learning methods. It also considers the issues of effective use of students’ existing language experience in multilingual situations.

Key words: *compensatory competence, innovative methods, German, second foreign language, communicative approach, digital education*

Аннотация: в данной статье анализируются инновационные методы развития компенсаторной компетенции в процессе обучения немецкому языку как второму иностранному. Компенсаторная компетенция — это способность учащихся продолжать общение даже в ситуациях, когда их языковые навыки недостаточны, и является важной составляющей коммуникативной компетенции. В исследовании подчеркивается роль современных педагогических подходов, в частности, коммуникативных, интерактивных, проблемно-ориентированных и цифровых методов обучения.

Ключевые слова: *компенсаторная компетентность, инновационные методы, немецкий язык, второй иностранный язык, коммуникативный подход, цифровое образование*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘qitishda yangi yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish jarayoni esa o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, o‘quvchilardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik va strategik fikrlashni talab qiladi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha kommunikativ qiyinchiliklarga duch keladi. Lug‘at boyligining yetishmasligi, grammatik bilimlarning cheklanganligi yoki talaffuzdagi muammolar muloqot jarayonini qiyinlashtiradi. Bunday vaziyatlarda kompensator kompetensiya muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kompetensiya yordamida o‘quvchilar turli strategiyalar orqali o‘z fikrini yetkazishda davom etadi. Kommunikativ kompetensiya nazariyasi Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda kompensator kompetensiya muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi. Mazkur maqolaning maqsadi — nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda kompensator kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion metodlarini tahlil qilishdir. Shuningdek, ushbu metodlarning samaradorligini amaliy misollar orqali yoritish ham ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Kompensator kompetensiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy chet tillarni o‘qitish metodikasida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor Dell Hymes (1972) tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga borib taqaladi. Keyinchalik Michael Canale va Merrill Swain (1980) kompensator kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida aniqlab berdilar. Ellen Bialystok (1990) kompensator strategiyalarni o‘quvchilarning til bilimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etuvchi vosita sifatida izohlaydi. Zoltán Dörnyei (2001) esa ushbu strategiyalarning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda innovatsion metodlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Rod Ellis (2003) interaktiv usullar orqali til o‘rganishni samarali deb hisoblaydi.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga asoslanadi.

Asosiy yondashuvlar sifatida kommunikativ, kognitiv va neyrolingvodidaktik yondashuvlar tanlandi. Kommunikativ yondashuv Dell Hymes hamda Michael Canale va Merrill Swain nazariyalariga asoslanib, o‘quvchilarni real muloqotga jalb etishni nazarda tutadi. Kognitiv yondashuv Rod Ellis (2003) asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va strategiyalarni ongli qo‘llashiga e’tibor qaratadi. Neyrolingvodidaktik yondashuv Claude Germain va Joan Netten tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda takrorlash, emotsional muhit va og‘zaki nutq ustuvor hisoblanadi.

Innovatsion metodlar sifatida quyidagilar qo‘llanildi:

– raqamli platformalar (online mashqlar);

– rolli o‘yinlar;

– muammoli vaziyatlar;

– interaktiv topshiriqlar.

Tadqiqot usullari: kuzatuv, tajriba, tahlil va amaliy mashg‘ulotlar. Ushbu metodlar o‘quvchilarda kompensator kompetensiyani samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish jarayonida kompensator kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o‘quvchilarga til vositalari yetarli bo‘lmagan holatlarda ham muloqotni davom ettirish imkonini beradi va ularning kommunikativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsion metodlar esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida kommunikativ metod yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu metodda asosiy e’tibor tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga qaratiladi. Masalan, o‘quvchilar do‘konda xarid qilish yoki sayohat vaqtida yo‘l so‘rash kabi vaziyatlarni sahnalashtiradi. Agar ular kerakli so‘zni bilmasa, boshqa usullar bilan fikrini ifodalashga harakat qiladi. Bu esa kompensator strategiyalarni tabiiy ravishda rivojlantiradi.[1]

Innovatsion metodlardan yana biri — raqamli texnologiyalarni qo‘llashdir. Bugungi kunda turli mobil ilovalar, onlayn platformalar va virtual darslar o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, video materiallarni ko‘rish jarayonida o‘quvchi tushunmagan so‘zlarni kontekst orqali anglashga harakat qiladi. Bu esa uning mantiqiy fikrlashini va taxmin qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchi yangi so‘zlarni bilmasa ham umumiy mazmunni tushunishga harakat qiladi, bu esa kompensator kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichidir. Muammoli o‘qitish metodi ham innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu metodda o‘quvchilarga real hayotga yaqin muammolar beriladi. Masalan, “siz chet davlatda yo‘qolib qoldingiz va yordam so‘rashingiz kerak” kabi vaziyatlarda o‘quvchi mavjud bilimlariga tayanib, turli strategiyalarni qo‘llaydi. U kerakli so‘zni bilmasa, uni boshqa so‘zlar bilan tushuntiradi yoki jestlardan foydalanadi. Bu esa uning kompensator kompetensiyasini rivojlantiradi.

Kollaborativ o‘qitish, ya’ni guruhda ishlash ham muhim innovatsion metodlardan biridir. O‘quvchilar birgalikda ishlash jarayonida fikr almashadi, bir-biriga yordam beradi va yangi strategiyalarni o‘rganadi. Masalan, guruhli muhokama davomida o‘quvchi o‘z fikrini to‘liq ifoda eta olmasa, boshqa o‘quvchilar yordamida uni to‘ldiradi. Bu esa muloqotni uzmaslikka yordam beradi.[2]

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlardan foydalanish kompensator kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilar interaktiv mashg‘ulotlar orqali tilni faol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar va bu ularning kommunikativ faolligini oshiradi. Xususan, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni real hayotga yaqin sharoitda fikr bildirishga undaydi. Bu jarayonda ular kompensator strategiyalardan faol foydalanadilar. Natijada, o‘quvchilarda nutq erkinligi shakllanadi. Zoltán Dörnyei (2001) ta’kidlaganidek, innovatsion metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, Ellen Bialystok (1990) nazariyasiga ko‘ra, strategiyalardan foydalanish til o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Xulosa.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda kompensator kompetensiyani rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o‘quvchilarga til bilimlari yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda ham samarali muloqot qilish imkonini beradi va ularning kommunikativ faoliyatini rivojlantiradi. Mazkur maqolada innovatsion metodlarning ahamiyati yoritildi. Kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, muammoli o‘qitish va guruhli ishlash kabi metodlar kompensator kompetensiyani shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat til bilimlarini, balki strategik fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.. Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlardan foydalanish kompensator kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бим И.Л. – *Теория и практика обучения иностранным языкам* (2002) – https://www.elibrary.ru
2. Пассов Е.И. – *Коммуникативный метод обучения иностранным языкам* (2010) – https://нэб.рф
3. Зимняя И.А. – *Психология обучения иностранным языкам* (2001) – https://www.elibrary.ru
4. Dell Hymes – On Communicative Competence (1972) – https://www.jstor.org
5. Neuner G. – Mehrsprachigkeitsdidaktik (2004) – https://www.goethe.de
6. Krumm H.-J. – Deutsch als Fremdsprache (2010) – https://www.degruyter.com
7. Funk H., Kuhn C. – Methoden im Deutschunterricht (2012) – https://www.klett-sprachen.de

Soxiba NORMURODOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Tillar kafedrasi stajyor-assistenti
E-mail: normurodovasoxiba387@gmail.com

LOTIN TILI FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YUZASIDAN AMALIY ISHLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada tibbiy oliy ta’lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida elektron darslik asosida tashkil etilgan ta’lim modeli sinovdan o‘tkazilib, uning talabalarning bilim darajasiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, elektron darslik, lotin tili, tibbiy terminologiya, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: в статье рассматривается эффективность использования инновационных образовательных технологий при преподавании латинского языка и медицинской терминологии в медицинских вузах. В ходе исследования была протестирована образовательная модель, построенная на основе электронного учебника, и проанализировано ее влияние на уровень знаний учащихся. Полученные результаты показали, что применение инновационных технологий повышает качество образования.

Ключевые слова: инновационные технологии, электронный учебник, латынь, медицинская терминология, эффективность обучения.

Annotation: this article examines the effectiveness of using innovative educational technologies in teaching Latin and medical terminology in medical higher education institutions. In the course of the research, an educational model based on an electronic textbook was tested and its impact on the level of knowledge of students was analyzed. The results obtained showed that the use of innovative technologies increases the quality of Education.

Key words: *innovative technology, electronic textbook, Latin, medical terminology, educational effectiveness.*

Kirish. *“Bilimga yetaklovchi yagona yo‘l – bu faoliyatdir”.* Bernard Shou. Zamonaviy ta’lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’sirida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari o‘rnini innovatsion yondashuvlar egallab bormoqda. Lotin tili va tibbiy terminologiya fani tibbiyot yo‘nalishidagi talabalar uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Biroq ushbu fan murakkab grammatik tuzilishi va terminologik xususiyatlari sababli talabalar tomonidan qiyin o‘zlashtiriladi. Shu bois uni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – lotin tili fanini o‘qitishda elektron darslik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini aniqlashdir. Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya deganda ta’lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangilik kiritish, o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi [1].

Kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog‘liq yangi axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosi sifatida sifat jihatidan yangi axborot-ta’lim muhitini yaratish imkonini berdi. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni doimiy o‘zgarib turadigan dunyoda hayotga tayyorlashdir. Innovatsiyaning maqsadi – an’anaviy tizimga nisbatan talaba shaxsini sifat jihatidan o‘zgartirishdir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: *Nazariy tahlil* – innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi; *Tajriba-sinov usuli* – Samarqand davlat tibbiyot universitetida elektron darslik asosida darslar tashkil etildi; *Taqqoslash metodi* – innovatsion va an’anaviy o‘qitish natijalari solishtirildi; *Statistik tahlil* – talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari baholandi. Tajriba 2024-2025 o‘quv yili davomida 6 ta guruhda o‘tkazildi. Tajriba guruhlari elektron darslikdan foydalangan holda o‘qitildi, nazorat guruhlari esa an’anaviy usulda ta’lim oldi.

Pedagogika fanida innovatsiyalar, innovatsion ta’lim, innovatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyat faol muhokama mavzusiga aylanib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng umumiy ma’noda innovatsiya yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon shaklida o‘zida mujassamlangan innovatsiyaning yakuniy natijasidir. Innovatsiya deganda nafaqat innovatsiyalarni yaratish va tarqatish, balki faoliyat tarzi, fikrlash uslubidagi o‘zgarishlar bilan birga bo‘lgan muhim xususiyatga ega bo‘lgan o‘zgarishlar tushuniladi. Pedagogik innovatsiya – pedagogik faoliyatdagi yangilik, ta’lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasini o‘zgartirish, ularning samaradorligini oshirish [2].

Innovatsion ta’limga oid zamonaviy adabiyotlarda ushbu hodisaning murakkabligi va ko‘p qirraliligi qayd etilgan. Innovatsion ta’lim ko‘rsatkichlari quyidagilardan

iborat: o‘quvchining intellektual, shaxsiy va ma’naviy rivojlanishining yuqori darajasini ta’minlash; ilmiy fikrlash uslubi malakalarini egallash uchun sharoit yaratish; ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sohalardagi innovatsiyalar metodologiyasini o‘rganish.

Innovatsion ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri professionallikdir. Kasbiylik tushunchasi bitiruvchining ajralmas sifatiga aylanadi va professionallik deganda quyidagilar tushuniladi: kasbiy muammolarni hal qilishda ma’lum mahorat darajasi; o‘z kasbi doirasida ishonchli, muammosiz ishlash qobiliyati; nostandart vaziyatlarda ijodkorlik, samarali yechimlarni izlash; yuqori intellektual va shaxsiy rivojlanish darajasi; asosiy malaka va malakalarning mavjudligidir [2].

Dars o‘tish davomida innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, dars samaradorligini oshirishga bo‘lgan xohish va harakatlar “Dars vaqtida elektron darslikdan foydalanish keraklimi?” degan haqli savolni yuzaga keltiradi. Turli zamonaviy adabiyotlarni ko‘zdan kechirib, shart degan qarorni qabul qilishga to‘g‘ri keldi. Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi lotin tili va tibbiy terminologiya fanida han elektron darsliklardan foydalanish kerak. Chunki,

1. Elektron darslik orqali talaba tezda kerakli materialni topa oladi (qidiruv funksiyasi, havolalar, qo‘shimcha resurslar orqali).

2. Matn bilan birga audio, video, rasm, grafiklar orqali darsni jonlantirish mumkin. Ayniqsa, talaffuz, matn tushunish yoki tarixiy til o‘rganishda foydali.

3. Testlar, mashqlar, o‘yinlar – bu talabani faol ishtirokchi qiladi, natijada o‘zlashtirish darajasi ortadi.

4. Elektron darsliklar telefon, planshet, kompyuter orqali istalgan joyda ochiladi. O‘qituvchi ham darsni turli formatda taqdim etish imkoniga ega bo‘ladi.

5. Elektron darslik tezda yangilanadi, yangi ma’lumotlar qo‘shiladi – bu bosma darslikdan ancha samarali. Bunday imkoniyatlardan foydalanmaslik o‘qituvchi kasbini xor qilishdir.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: elektron darslikdan foydalangan talabalar mavzuni tezroq o‘zlashtirdi; interfaol mashqlar va testlar bilimni mustahkamlashga xizmat qildi; vizual va audio materiallar terminlarni eslab qolish darajasini oshirdi; mustaqil ta’lim ko‘nikmalari rivojlandi. Taqqoslash natijasida tajriba guruhlarida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, talabalarning mavzuni va tibbiy terminlarni oson va tez o‘rganishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish uchun bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarning nazariyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish jarayonini zamonaviylashtirish va soddalashtirish maqsadida kafedra asistenti Z.M.Maxmudov tomonidan zamonaviy elektron darslik yaratildi. Bu darslikning afzalligi chop etilgan darslikdagi kabi ma’lumotlarni talaba o‘zi o‘qishi mumkin. Bundan tashqari har bir dars uchun video dars joylashtirilgan bo‘lib, bu talabaga mavzuni tushunish imkonini 60%ga osonlashtiradi. Darslikda har bir mashqni bajarish va tekshirish jarayoni innovatsion usullar bilan ko‘rsatilganligi talabaning vaqtdan unumli foydalanishini ta’minlab hamda terminlarni yodlash, termin elementlarni turli kombinatsiyalarda to‘g‘ri qo‘llash imkonini yaratadi. Darslikdagi qadimiy tibbiy kitoblardan olingan lotincha matnlarning mavjudligi talabaning lotin tilidagi uzun jumla va matnlarni o‘qiy olish, tarjima qilish, turli grammatik kategoriyalar: otlar va sifatlardagi kelishik, rod, son; fe’llardagi zamon, mayl, nisbat, shaxs tushunchalarning ishlatilishini tushunishini ta’minlaydi. Shuningdek, darslikda har bir mavzudan keyin test topshiriqlari berilgan bo‘lib, bu talabaning mavzuni tushunganlik darajasini aniqlash, o‘zini nazorat qilish qobiliyatini oshiradi. Albatta, talabani nazorat qilib turish, to‘g‘ri va maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi. Chunki, talaba tayyor mashqlar javobini ko‘chirib kelmasligini, o‘z ustida ishlamaslik, yalqovlik, o‘zi bo‘larchilik kayfiyatida bo‘lmasligini tushunib yetishi kerak [3].

Talabalar tomonidan elektron darslik bilan ishlashda noqulaylik va texnik muammolar kelib chiqmasligi uchun elektron darslikning shaxsiy kompyuterlar uchun va android tizimda ishlovchi uyali aloqa vositalari uchun ham versiyalari yaratilgan.

Darslik 2024-yilda yaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. 2024-yilning mart oyidan boshlab ayrim guruhlarda tajriba-sinov tariqasida foydalanib ko‘rildi. 2024-2025- o‘quv yilida 6 ta guruhda ushbu darslik bilan ishlash yo‘lga qo‘yildi. O‘quv yili yarmida va yakunida boshqa guruhlar bilan taqqoslab ko‘rildi. Taqqoslash natijasida sifat ko‘rsatgichi sezilarli darajada yaxshilandi. Ko‘pchilik talabalar darslik imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanganligini sezish mumkin. Navbatdagi o‘quv yilida ham tajriba-sinov ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘tgan o‘quv yilining natijalari matematik statistik tahlil jarayoni amalga oshirilmoqda. Tez fursatlarda aniqlik kiritiladi va joriy o‘quv yilida kamchiliklar bartaraf etib boriladi.

Muhokama. Olingan natijalar innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi. Elektron darsliklar ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi: texnik vositalarga bog‘liqlik; talabalar tomonidan noto‘g‘ri foydalanish ehtimoli; ekran oldida uzoq ishlashning salbiy ta’siri. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi nazoratini kuchaytirish, aralash (blended learning) modeldan foydalanish maqsadga muvofiq. Lotin tili elektron darsligining talabalar tomonidan samarali o‘zlashtirilishiga qo‘shadigan foydalarini quyidagicha izohlash mumkin bo‘ladi:

1. Elektron darslikda matn, audio, video va interaktiv mashqlarning borligi Vizuallikni oshiradi. Bu talabaning

eslab qolish qobiliyatini oshiradi, ayniqsa talaffuz, grammatik qoidalar va so‘z yodlashda.

2. Talaba istalgan joyda va vaqtda darsni ochib o‘qishi mumkin. Bu esa moslashuvchanlik va individual o‘rganishni o‘rgatadi. Har bir talaba o‘z tezligida o‘rganishi mumkin, bu esa bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

3. Elektron darslikdagi testlar avtomatik baholanadi. Oqibatda, talaba xatolarini darhol ko‘rib, ularni tahlil qilib, takror xatoga yo‘l qo‘ymaslikni o‘rganadi.

4. Interaktiv elementlar (testlar, mashqlar) o‘quvchini darsga qiziqtiradi. Bu esa doimiy mashg‘ulot va takrorlashni rag‘batlantiradi.

5. Elektron darslik qo‘shimcha materiallar (lug‘atlar, mashqlar, matnlar) bilan ta’minlangan. Bu darsni chuqurroq o‘rganish va mustahkamlash imkonini beradi.

6. Elektron darslikdan foydalanish orqali talaba kompyuter texnologiyalari savodxonligini ham oshira boradi.

Darslik mutlaqo ideal holatda demoqchi emasmiz. Elektron darslikning talabaning o‘zlashtirishiga mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlari ham mavjud. Masalan:

1. Uzoq vaqt ekran qarshisida o‘qish ko‘zning charchashi, bosh og‘rig‘i va diqqatning pasayishiga olib kelishi mumkin.

2. Elektron darslik odatda yakka tartibda o‘rganiladi. Bu esa talabaning jonli muhokama, savol-javob va guruhda ishlash ko‘nikmalarini cheklashi mumkin.

3. Qurilma (kompyuter, telefon) yoki internet bo‘lmasa, elektron darslikdan foydalanish imkoni yo‘q. Shuningdek, texnologiyalarga haddan ortiq bog‘lanish e’tiborni chalg‘itadi (masalan, dars vaqtida ijtimoiy tarmoqqa kirish).

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida har bir talabaga darslik bilan ishlash tushuntirib o‘tilgan.

Xulosa. Lotin tili fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Elektron darsliklar yordamida talabalar bilimini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin. Kelgusida mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘qituvchining maqsadi shogirdlar kamolini ko‘rish, bo‘lg‘usi tibbiyot xodimlarining bilimli va zukko bo‘lishlari yo‘lida o‘z hissasini qo‘shish ekanligi shubhasiz. Talabalarning bilish kompetensiyalarini oshirish maqsadida kafedramizda ham o‘qituvchilar ko‘plab amaliy yangiliklar, innovatsion ishlanmalar yaratishmoqda, yaratish ustida ish olib borishmoqda. Lotin tili kabi an’anaviy va qoidalar asosida o‘rganiladigan fanlarda elektron darslik o‘quv jarayonini jonlantirishga, yodlashni osonlashtirishga va mustaqil ishlashni quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Aytib o‘tish zarurki, elektron darslikdan noto‘g‘ri foydalanilsa yoki imkoniyatlar yetarli bo‘lmasa, ular talabaning o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi**.** Shuning uchun, **e**lektron darslikni an’anaviy o‘qitish bilan birga olib borish, talaba bilan doimiy aloqa saqlash, tashkiliy va texnik sharoitni to‘g‘ri yaratish **–** bu muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Biz yaratgan ishlanmalar ham kelajakda qaysidir talabaga yoki talabalar guruhiga foydali bo‘lishligiga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taylaqov N.I. *Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari*. – Toshkent, 2002.
2. Safarova R. *Oliy ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent, 2019.
3. Passov E.I. *Kommunikativ metodika asoslari*. – Moskva, 2010.
4. Shodikulova A.Z. (2021). Computer technologies in education. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education*.
5. Maxmudov Z.M. (2023). Innovative technologies in teaching Latin. *Multidisciplinary Journal*.
6. Allen J.H., Greenough J.B. *New Latin Grammar*. – Boston, 2001.
7. Wheelock F.M. *Wheelock’s Latin*. – New York, 2011.
8. Shabanov J. *Chet tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar*. – Toshkent: TDShI, 2009. 82-b.
9. Jalolov J. *Chet tilini o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 434-b.
10. Umarov H.T. va boshqalar. *Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari*. – Toshkent: Hilol Media, 2023. 382-b.
11. Maxmudov Z., Sharipov B., Bo‘riyev D. (2023). Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and Innovation in the Education System*, 2(1), 5-10.
12. Махмудов З.М., Шарипов Б.С. Talabalar bilimini oshirishda psixo-emotsional yondashuv. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 112.
13. Maxmudov Z.M., Normurodova S.M. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga ta’siri. *Research Focus*, 2(6), 132–136. https://doi.org/10.5281/zenodo.8034739
14. Sharipov B., Makhmudov Z., Buriyev D. (2023). Teaching Latin in English-medium groups. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(1), 21-25.
15. Mardanovich M.Z., Mokhigul O. (2024). Personality in teaching Latin. *Journal of Universal Science Research*, 2(1), 425-435.
16. Qurbonova Z., Maxmudov Z. (2023). Klinik terminlar qo‘llanilishi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(3), 23-27.
17. Sharipov B., Makhmudov Z., Buriyev D. (2023). Latin language in medical terminology. *Theoretical Aspects in Pedagogical Sciences*, 2(1), 16-20.

Nigora NORMURATOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)
E-mail:nigoraaaab@gmail.com

SADRIDDIN AYNIY NASRIDA XRONOTOP VA UNING BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Sadriddin Ayniy nasriy asarlarida xronotop tushunchasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Xususan, roman, qissa va memuar janrlarida makon va zamon uyg‘unligining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda tarixiy, ijtimoiy, geografik va psixologik xronotop turlari aniqlanib, ularning badiiy vazifasi misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida xronotopning sujet rivoji, obrazlar tizimi va tarixiy-madaniy muhitni ifodalashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *xronotop, makon va zamon, roman, qissa, memuar, tarixiy xronotop, ijtimoiy xronotop, psixologik xronotop, badiiy tahlil*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация хронотопа в прозе Sadriddin Ayniy. Особое внимание уделяется специфике взаимодействия пространства и времени в жанрах романа, повести и мемуара. В исследовании выделяются исторический, социальный, географический и психологический типы хронотопа, раскрывается их художественная функция на основе текстовых примеров. Также обосновывается роль хронотопа в развитии сюжета, формировании системы образов и передаче историко-культурной среды.

Ключевые слова: *хронотоп, пространство и время, роман, повесть, мемуар, исторический хронотоп, социальный хронотоп, психологический хронотоп, художественный анализ*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of the chronotope in the prose works of Sadriddin Ayniy. Particular attention is paid to the interaction of space and time in the genres of novel, novella, and memoir. The study identifies historical, social, geographical, and psychological types of chronotope and explains their artistic functions through textual examples. It also highlights the role of the chronotope in plot development, character formation, and the representation of historical and cultural context.

Key words: *chronotope, space and time, novel, novella, memoir, historical chronotope, social chronotope, psychological chronotope, literary analysis*

Kirish. Badiiy adabiyotda makon va zamonning o‘zaro uyg‘unligi muhim estetik va mazmuniy kategoriya hisoblanadi. Ushbu uyg‘unlikni ifodalovchi “xronotop” tushunchasi ilk bor Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u badiiy matnda vaqt va makonning ajralmas birligini anglatadi. Xronotop nafaqat voqealar rivojlanadigan muhitni belgilaydi, balki asarning g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar tizimi va sujet qurilishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur tushuncha zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim nazariy vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyo adabiyotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar badiiy tafakkurda yangi ifoda shakllarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ana shunday murakkab tarixiy jarayonlar fonida Sadriddin Ayniy ijodi alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘z asarlarida jamiyat hayotidagi keskin burilishlarni, inson taqdiri va ijtimoiy munosabatlarni realistik asosda yoritib, makon va zamon uyg‘unligini o‘ziga xos badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Ayniqsa, uning roman, qissa va memuar janridagi asarlarida xronotopning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lib, ular asarning badiiy strukturasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy qism. Adabiyotshunoslikda makon va zamonning o‘zaro uyg‘unligi “xronotop” tushunchasi orqali ifodalanadi. Ushbu termin Mixail Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, bu tushuncha badiiy asarda zamon va makonning uzviy birligi sifatida talqin etiladi. “Adabiyotda san’atkorlik bilan ifodalangan vaqt va makon munosabatlarining muhim o‘zaro bog‘liqligini biz xronotop deb ataymiz (so‘zma-so‘z tarjimada — ‘vaqtmakon’). Bu atama dastlab matematika va tabiiy fanlarda qo‘llanilgan va nisbiylik nazariyasi (Enshtein) asosida kiritilgan va asoslangan.

Biz uchun uning nisbiylik nazariyasidagi maxsus ma’nosi ahamiyatli emas; biz uni adabiyotshunoslikka deyarli metafora sifatida ko‘chiramiz (deyarli, lekin to‘liq emas). Muhimi shundaki, unda vaqt va makonning ajralmasligi ifodalangan (vaqt makonning to‘rtinchi o‘lchovi sifatida). Xronotopni biz adabiyotning formal-mundarijaviy kategoriyasi sifatida tushunamiz (bu yerda xronotopni madaniyatning boshqa sohalarida tahlil qilmaymiz)”. (Существенную взаимосвязь временных и пространственных отношений, художественно освоенных в литературе, мы будем называть хронотопом (что значит в дословном переводе — «времяпространство»). Термин этот употребляется в математическом естествознании и был введен и обоснован на почве теории относительности (Эйнштейна). Для нас не важен тот специальный смысл, который он имеет в теории относительности, мы перенесем его сюда — в литературоведение — почти как метафору (почти, но не совсем); нам важно выражение в нем неразрывности пространства и времени (время как четвертое измерение пространства). Хронотоп мы понимаем как формально-содержательную категорию литературы (мы не касаемся здесь хронотопа в других сферах культуры). [1] Mazkur termin Eynshtein tomonidan asoslangan nisbiylik nazariyasi doirasida qo‘llangan bo‘lsa-da, adabiyotshunoslikda u to‘g‘ridan to‘g‘ri ilmiy tushuncha sifatida emas, balki istioraviy ma’noda qabul qilinadi. Ya’ni bu yerda makon va zamon bir-biridan ajralmas holda tasavvur etiladi. Shu jihatdan xronotop badiiy asarning shakl va mazmun birligini ta’minlovchi muhim kategoriya sifatida e’tirof etiladi.

Mixail Baxtin o‘z tadqiqotlarida xronotopning adabiyotdagi o‘rnini tarixiy-poetik jarayonlar bilan bog‘liq holda keng yoritadi. U antik davr “yunon romanlari”dan tortib, uyg‘onish davri adabiyotigacha bo‘lgan manbalarni tahlil qilib, turli davr va janrlarda xronotopning o‘ziga xos shakllanishini ko‘rsatib beradi. Bu esa mazkur tushunchaning universalligini va badiiy tafakkurdagi muhim nazariy vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Xronotop tushunchasining kombinatsion xususiyati uning faqat roman janriga xos emasligini, balki boshqa adabiy janrlarni tahlil qilishda ham samarali qo‘llanishini ko‘rsatadi. Jumladan, she’riyat, hikoya va qissa kabi janrlarda ham makon va zamonning o‘zaro munosabatini tahlil qilish orqali asarning badiiy mohiyatini chuqurroq anglash mumkin. Shu bois xronotop nafaqat epik asarlar, balki lirika va kichik nasriy janrlar poetikasini o‘rganishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning nasriy asarlaridagi xronotoplar tahlil qilinadi. Ayniyning romanlari, qissalari va yagona memuar asarida badiiy uslubni boyituvchi xronotoplar mavjud bo‘lib, ular har bir asarning o‘ziga xos vazifasini bajaradi. Xronotoplar asar obrazlarini shakllantirish, syujetni rivojlantirish va o‘quvchiga muayyan tarixiy-madaniy muhitni his qilish imkonini beradi. Tahlil natijasida xronotoplarni uch asosiy turga ajratish mumkin:

1.Romanlar xronotopi – uzoq davom etuvchi voqea oqimi, tarixiy va ijtimoiy muhitning batafsil tasviri.

2.Qissalar xronotopi – qisqa voqea shakli, ma’lum bir vaziyat va obrazni markazga qo‘yadi.

3.Memuar xronotopi – shaxsiy xotira va voqealarning xronologik ketma-ketligi, tarixiy haqiqat bilan badiiy tasvir uyg‘unligi.

Roman xronotopi. Sadriddin Ayniyning romanlaridagi xronotoplar nafaqat vaqt va makon birligi sifatida, balki badiiy ifoda vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ular syujetni rivojlantirish, voqealarni mantiqan bog‘lash va o‘quvchida muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga xizmat qiladi. “Doxunda” va “Qullar” romanlaridagi xronotoplar turlicha va o‘ziga xosdir. Roman voqealarida ko‘plab geografik nomlar keltirilgan bo‘lib, ular asarning tarixiy va ijtimoiy muhitini aniq ifodalashga yordam beradi. Voqealar 19-asr oxirlaridan amirlik davrining tugatilishi va undan keyingi davrlarni qamrab oladi, bu esa xronotopning tarixiy va badiiy vazifasini yanada boyitadi. Bu romanlar xronotop jihatidan tarixiy, ijtimoiy, psixologik va geografik elementlarni birlashtiradi. Bu esa voqealarni realistik va badiiy tarzda tasvirlash, syujetni rivojlantirish va o‘quvchiga tarixiy-madaniy muhitni his qilish imkonini beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tarixiy xronotopning shakllanishi uchun, avvalo, aniq belgilangan tarixiy davrning mavjudligi muhim shart hisoblanadi. Aynan shu davr doirasida badiiy voqealar tizimi shakllanib, makon va zamon uyg‘unligi orqali asarning mazmuniy va g‘oyaviy qatlamlari yoritiladi. “Таким же исключительно конкретным и локализованным было и историческое время, в эпосе и трагедии еще тесно переплетавшееся с мифологическим”. [1] (Xuddi shuningdek, tarixiy vaqt ham nihoyatda aniq va muayyan makon bilan chegaralangan holda namoyon bo‘lgan bo‘lib, u epik va tragediya janrlarida hali ham mifologik vaqt bilan chambarchas tarzda uyg‘unlashgan edi). Mazkur fikr Baxtinning xronotop

nazariyasida tarixiy vaqtning badiiy talqiniga oid muhim jihatni ifodalaydi. Unda tarixiy vaqt abstrakt yoki umumlashtirilgan tushuncha sifatida emas, balki aniq voqelik, muayyan makon va tarixiy sharoit bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Sadriddin Ayniy romanlarida zamon masalasi aniq va tarixiy jihatdan belgilangan holda tasvirlanadi. Xususan, “Doxunda” va “Qullar” kabi asarlarda voqealar rivoji muayyan tarixiy davr — amirlik tuzumi sharoitiga bog‘langan bo‘lib, aynan shu davr badiiy makon-zamon uyg‘unligini, ya’ni xronotopni tashkil etadi. Mazkur holat adib ijodida tarixiy voqelikni realistik asosda aks ettirishga xizmat qiladi. Chunki realistik romanlarga xos jihat sifatida voqealar aniq zamon va makonda kechadi, ijtimoiy muhit esa tarixiy sharoit bilan uzviy aloqada yoritiladi. Shu bois Ayniyning mazkur asarlarida amirlik davri nafaqat fon vazifasini bajaradi, balki qahramonlar taqdiri, ijtimoiy munosabatlar va g‘oyaviy mazmunni belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. “Doxunda” romanidan parchani olaylik: “Yodgorni qassobxonadan keltirib, regxonaning yonidagi obxonaga qamadilar. U umrining eng qattiq va chidab bo‘lmaydigan kunlarini ana shu obxonada o‘tkazdi. Ayniqsa, 1918-yilning mart–aprel oylarida u yerda tirik qolish va minut sayin bo‘layotgan fojialarga shohid bo‘lishga har qanday kishining asabi bardosh bermas edi”. [4.224b]

Mazkur voqea aniq tarixiy xronotopning namunasini tashkil etadi. Avvalo, matnda 1918-yilning mart–aprel oylariga ishora qilinishi bilan, tarixiy vaqt aniq belgilangan. Bu davr amirlik tuzumining tugashi va inqilobiy o‘zgarishlar bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy xronotopni belgilovchi muhim mezon hisoblanadi.

Ikkinchidan, voqeaning makoni – Regxona yonidagi obxona – aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, bu tarixiy xronotopning muhim elementi sifatida makon va vaqt uyg‘unligini ta’minlaydi. Tarixiy xronotop faqat zamon bilan chegaralanmay, u voqelikning sodir bo‘layotgan makoni bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur.

Shuningdek, voqelik va ijtimoiy sharoitning tasviri – Yodgorning tirik qolish uchun qiynalishi va fojialarga guvoh bo‘lishi – o‘sha davrning ijtimoiy va siyosiy holatini ochib beradi.

Nihoyat, voqealarning realistik tarzda tasvirlanishi ularni tarixiy muhit bilan mustahkam bog‘laydi, bu esa realistik romanlarga xos xronotopning yorqin namoyishi sifatida baholanishi mumkin. Shu tariqa, berilgan epizod nafaqat tarixiy davr va makon uyg‘unligini ko‘rsatadi, balki adibning tarixiy voqealarni realistik badiiy talqin qilish uslubini ham namoyish etadi.

Ijtimoiy xronotop – bu Ayniyning nasriy asarlarida badiiy g‘oya va mazmunni ochib berishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladigan xronotop turidir. U voqealar rivojini nafaqat vaqt va makon bilan, balki ijtimoiy munosabatlar, jamiyatdagi sinfiy tuzilmalar, qahramonlarning ijtimoiy pozitsiyasi va ularning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi orqali ham shakllantiradi. Ayniqsa, “Qullar” romanida ijtimoiy xronotop yanada ravshan va muvofiq tarzda ifodalangan. “Sadriddin Ayniý bosqinchilar, boylar, qullar, xizmatkorlar, quloqlar, komsomollar, kommunistlar, ellik yashar pioner (Normurod), kolxozchilar kabi xalqning turli tabaqa vakillarini juda mahorat bilan ifodalaydi. Ayniqsa, qahramonlar o‘rtasidagi dialoglar, tarixiy davr koloriti, o‘tmish foni professional qalam bilan chizilgan. Aytish mumkinki, Sadriddin Ayniýning “Qullar” va boshqa asarlarida qo‘llanilgan badiiy priyomlar, tasviriy vositalar, yozuvchilik texnikasini jiddiy, puxta egallash uchun ham katta adabiy maktab bo‘la oladi”. [3]

Sadriddin Ayniyning “Qullar” romanida xalqning turli tabaqa vakillari – bosqinchilar, boylar, qullar, xizmatkorlar, kolxozchilar, komsomol va kommunistlar – badiiy ravishda tasvirlangan. Bu tasvirlar ijtimoiy xronotopni shakllantiruvchi asosiy element hisoblanadi. Har bir qahramonning ijtimoiy pozitsiyasi va jamiyat bilan aloqasi voqealarni yanada aniq qiladi. Shu tariqa, ijtimoiy xronotop orqali o‘quvchi jamiyatdagi sinfiy tafovutlar va ijtimoiy munosabatlarni idrok etadi. “Qullar” romanidan: “To‘g‘risini aytsam, bizning qishloq, deyarli joyimiz, yovon otarlik yerimiz ham yo‘q. Biz eski qullarning avlodimiz. Qorayog‘och qishlog‘ining bir chekkasidagi qum bosgan bir yerda, “G‘ulomon” ko‘chasida, ota-bobomiz ozod bo‘lgan chog‘larida o‘zlari uchun yasagan chayladay uylarda tirikchilik qilamiz. Biz boylar-da chorakorlik, mardikorlik, chorvadorlik, cho‘ponlik qilib kun kechiramiz, ba’zilarimiz cho‘ldan yantoq, shuvoq tashiymiz, shu bilan o‘lmagudek ovqat qilamiz”. [3.224-b]

Ushbu parcha qahramonlarning kundalik hayoti, ijtimoiy mavqei va jamiyatdagi past tabaqaga mansubligini aniq ochib beradi. Qorayog‘och qishlog‘i va G‘ulomon ko‘chasi kabi makonlar hamda voqealarning realistik tasviri ijtimoiy xronotopni yanada ravshanlashtiradi. Qahramonlarning turmushi, kasblari va kundalik mashg‘ulotlari orqali o‘quvchi jamiyatdagi sinflararo tafovutlar, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy sharoitlarni to‘liq idrok etadi.

Geografik xronotop. Sadriddin Ayniy romanlarida makon asosan, tarixiy-geografik aniqlikka ega bo‘lib, voqealar Buxoro amirligi hududi hamda unga tutash mintaqalarda kechadi. Xususan, “Doxunda” va “Qullar” romanlarida tasvirlangan voqeliklar aynan shu hududdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. Bu esa asarlarda xronotopning real tarixiy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. “Qullar” romanining xronotopiga doir ilmiy qarashlarda uning ko‘lamdorligi alohida ta’kidlanadi. Jumladan, adabiyotshunos olim G‘ayrat Murodov bu haqida shunday deydi: “Qullar” xronotopi – keng va serqirra. Unda bir asrdan ko‘proq tarixiy vaqt, ulkan badiiy hudud (Afg‘oniston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston) o‘z ifodasini topgan”.[2.86-b]

Shu orqali yozuvchi tarixiy o‘zgarishlarni nafaqat vaqt davomida, balki turli makonlar kesimida ham chuqur ochib beradi.

Psixologik xronotop — badiiy asarda vaqt va makonning qahramon ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi bilan uyg‘un holda tasvirlanishini anglatadi. Psixologik xronotop Sadriddin Ayniy romanlarida turlicha badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Jumladan, “Doxunda” romanida u ko‘p o‘rinda tabiat va atrof-muhit tasviri bilan uyg‘un holda berilib, qahramon ruhiy kechinmalari tashqi manzara orqali ochib beriladi. “Qullar” romanida esa psixologik xronotop ijtimoiy zulm va adolatsizlik sharoitida shakllangan inson ruhiyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lib, qahramonlarning ichki iztiroblari tarixiy-ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada tasvirlanadi.

“Doxunda” romanida psixologik xronotop badiiy tasvirning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, “Lapar aytish” sarlavhasi ostidagi qismda voqeaga kirish tabiat manzaralari orqali berilishi bejiz emas. “Yoz kunlari, oftob bosh ustidan o‘tadigan chog‘lar. Qiyom payti tekis vohalarda kunning issig‘iga chidash qiyin bo‘lsa ham, tog‘ havosi bahor kunlaridagi kabi salqin va yoqimli. Saraton bo‘lishiga qaramasdan, tog‘da sabzalar, sebargalar yam-yashil, turli-tuman gullar rang-barang ochilgan, kakliklar to‘da-to‘da bo‘lib kakirlashib, tog‘ bag‘ridan cho‘qqilarga qarab yo‘rg‘alamoqda; bulbullar chaqchaqlashib, daraxtdan daraxtga uchmoqda; buloq suvlari toshdan toshga urilib, shildirab, qushlar sayrashiga jo‘r bo‘lmoqda; bo‘liq o‘tdan to‘yib olgan qo‘ylar soyalarda uxlamoqda; qo‘zilar bir-birlari bilan shoxlashib o‘ynamoqda; cho‘pon bolalar bel olishib kurashmoqda; hurkkan kiyiklar cho‘qqilardan turib, hayron-hayron boqmoqda… har kim, har narsa va butun tabiat xursand va shod”. [5.115-b]

Asar boshida keltirilgan yozgi tog‘ manzarasi — salqin havo, yam-yashil o‘tloqlar, qushlar sayrashi, buloqlar shildirashi kabi detallar — nafaqat makon va zamonning aniq tasvirini yaratadi, balki qahramonlarning ichki ruhiy holatini tayyorlovchi fon vazifasini ham bajaradi. Mazkur tasviriy qatlamdan so‘ng qahramonlarning lapar aytishi va ular qalbida ilk muhabbat tuyg‘ularining uyg‘onishi tasodifiy emas, balki mantiqiy-badiiy bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Yozuvchi tabiatning uyg‘un va shod manzarasi orqali Yodgor va Gulnor obrazlarining ichki kechinmalarini bilvosita ifodalaydi. Ya’ni tashqi makondagi go‘zallik va uyg‘unlik qahramonlar ruhiyatida kechayotgan hissiy uyg‘onish bilan parallellik hosil qiladi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur epizodda psixologik xronotop tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik asosida shakllanadi. Tabiat manzarasi voqeaga kirish vositasi bo‘lish bilan birga, qahramonlarning ichki dunyosini ochib beruvchi poetik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Natijada vaqt va makon unsurlari inson ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashib, psixologik xronotopning mukammal badiiy ifodasini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijasida Sadriddin Ayniy nasriy asarlarida xronotop muhim badiiy-estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Yozuvchi asarlarida makon va zamon uyg‘unligi nafaqat voqealar rivojini ta’minlovchi omil, balki obrazlar tizimini shakllantiruvchi, g‘oyaviy mazmunni ochib beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. M. Бахтин. Формы времени и хронотопа в романе
2. МУРОДОВ Ғайрат. ТАРИХИЙ РОМАН: МУШТАРАКЛИК ВА ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР УЙҒУНЛИГИ МУАММОЛАРИ, филология фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси. –Toshkent, 2018. 86-bet.
3. Marhabo Qo‘chqorova. Садриддин Айнийнинг “Қуллар” романи: “қуллик” ва “тарихий давр” талқини.
4. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 2- tom. –T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. 224-bet.
5. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 3- tom. –T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. 115-bet.

Ozodaxon ABDUSALOMOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
oabdusalomova186@gmail.com,

QO‘L HARAKATI BILAN BOG‘LIQ NOVERBAL VOSITALARNING LISONIY-KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: bugunga qadar tilshunoslikda noverbal vositalarning tadqiq etilganligi bir qator professor olimlarning ilmiy ishlarida kuzatiladi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘l harakati ishtirokidagi imo-ishoralar alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ushbu maqolada qo‘l harakati bilan bog’liq paralingvistik vositalarning muloqot jarayonini yuzaga chiqarishi, turli madaniy hamda pragmatik ma’nolarni ifodalashi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘l harakati, paralingvizm, imo-ishora, noverbal vosita, kommunikativ akt, pragmatik ma’no.*

Аннотация: на сегодняшний день изучение невербальных средств в лингвистике отражено в ряде научных работ профессоров и исследователей. Тем не менее, жесты рук как отдельный объект исследования до сих пор не получили специализированного изучения. В данной статье представлены взгляды на то, как паралингвистические средства, связанные с движениями рук, формируют процесс коммуникации, а также выражают различные культурные и прагматические значения.

Ключевые слова: *жесты рук, паралингвистика, мимика, невербальное средство, коммуникативный акт, прагматическое значение.*

Annotation: to date, the study of nonverbal means in linguistics has been reflected in numerous scientific works by professors and researchers. Nevertheless, hand gestures have not been examined as a specialized object of research. This article presents perspectives on how paralinguistic means associated with hand movements shape the communication process and convey various cultural and pragmatic meanings.

Key words: *hand gestures, paralinguistics, gesture, nonverbal means, communicative act, pragmatic meaning.*

Kirish.

So‘nggi yillarda tilshunoslik sohasida yangicha ilmiy yondashuvlar bo‘y ko‘rsata boshladi. Tilshunos olimlar tilni inson bilan bog’liq, doimiy rivojlanishda kechadigan jarayon ekanligini anglagan holda “inson omili”ga e’tiborni kuchaytirdilar. Shu barobarda sohaga yangidan yangi yo‘nalishlar kirib kela boshladi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, psixolingvistika, paralingvistika kabilar shular jumlasidandir.

Ma’lumki, tilning asosiy funksiyasi kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv, muloqotni tashkil etishdan iborat. Muloqot esa o‘z navbatida, lisoniy(verbal) va nolisoniy(noverbal) ko‘rinishda bo‘ladi. Lisoniy muloqot muayyan axborotni so‘zlar orqali yuzaga chiqarsa, nolisoniy aloqada esa inson tana a’zolari harakati, mimikasi, turli ramz, belgi va ishoralar yetakchilik qiladi. Tilshunoslikda bular ekstralingvistik yoki paralingvistik vositalar deb ham yuritiladi.

Tana ifodalarini, umumiy paralingvizmlarni o‘rganish bilan bog‘liq ilk yirik ilmiy ish sifatida Charlz Darvinning 1872-yilda nashr etilgan “Inson va hayvonlarda emotsiyalarning ifodalanishi” (“The expression of emotion of Man and Animals”) asari e’tirof etiladi. Darvin inson tanasi — yuz, gavda va qo‘llar orqali qanday qilib turli xil emotsional ma’lumotlarni ifoda etishini batafsil bayon qilgan[1:587].

Bugunga qadar o‘zbek tilshunos olimlaridan A.Nurmonov, M.Saidxonov, Z.Akbarova, M.Xamdamova, M.Qurbonov va boshqalar paralingvistika masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bordilar. Olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda maqolada qo‘l harakati asosida amalga oshuvchi paralingvizmlarning kommunikatsiyani ta’minlashdagi o‘rni, ularning madaniyatlararo turli ma’no ifodalashi va bu bevosita inson tafakkuri bilan bog‘liq hodisa ekanligi borasida fikrlar bayon etilgan. Maqolada qiyosiy, tavsifiy hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism.

Qo‘l harakati orqali axborot uzatish o‘zbeklarda faol usullardan sanaladi. Agar qozoqlarda qo‘l ishoralari ancha umumiy va erkin, mimika esa jonli va yorqin bo‘lsa, o‘zbeklarda barmoq harakatlari ancha nozik holda ishlatilib, ta’sirchanlik ifodalaydi [3:132].

Haqiqatan ham qo‘l va uning qismlari kommunikativ aktni hosil qilibgina qolmay, balki adresant orqali adresatga uzatilayotgan informatsiyaning jonli, ishonchli va albatta ta’sirli bo‘lishligini ta’minlaydi. Qolaversa, qo‘l harakati bilan bog‘liq paralingvizmlar, umuman, inson tana a’zolari ishtirokidagi imo-ishoralarda vaziyat bilan aloqador bo‘lgan pragmatik ma’nolar ham sezilib turadi.

Qo‘lning harakatlanish imkoniyatlari boshga qaraganda keng bo‘lgani sababli va qo‘lning partativ, ya’ni butun-bo‘lak tushunchalarini ifodalovchi birliklari mavjudligi hamda ularning harakati ham ishora fe’llarini hosil qilishini e’tiborga olsak, qo‘l organi bilan hosil bo‘lgan birliklar ko‘p ekanini e’tirof etishimiz kerak [2:133].

Qo‘lning ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini suhbatdoshga qarab yo‘naltirish, nuqtash unga nisbatan tahdid, kuchli bosim o‘tkazilayotganini anglatadi. Misol:

Ko‘zlaringni o‘yib olaman! – dedi barmog‘ini Samadboyga nuqtab .(Abulqosim Mamarasulov” “Jarima” hikoya). Shu o‘rinda aytish kerakki, paralingvizmlar nutq bilan parallel holatda ham qo‘llanadi va u ifodalanayotgan gap mazmunining ta’sir kuchini ikki hissa oshirishga xizmat qiladi.

Kishining qaltisroq gapni aytmoqchi bo‘lib og‘iz juftlaganini yoki nozik davralarda nutq so‘zlash uchun tadorik olishi va shu orqali ichki hayajonni boshqarishi kabi pragmatik ma’nolarni qo‘llarni musht holatda og‘izga olib borib yo‘talish yoki bir tomoq qirib qo‘yish ishoralari orqali anglash mumkin. Misol: *Sen katta bo‘lsang, men sendan ham kattaroqman, – ko‘nglidan o‘tdi Mixail to‘raning… – Lekin, – mushtiga bir yo‘talib oldi Mixail to‘ra, o‘zlari ham shunga o‘xshashroq bir va’da beruvdilar shekilli! (X.To‘xtaboyev “Qasoskorning oltin boshi”)*

…shu so‘zlarni aytishi bilan o‘g‘li adasining biqiniga turtib, sal tuzukroq so‘z ayting, deb shivirladi. Avazbek amaki mushtiga yo‘talib olib, yana gap boshladi. (X.To‘xtaboyev “Qiz talashgan o‘smirlar”)

Qo‘l barmoqlarini bir-biriga ishqalash, o‘ynash, kaftlar bilan yuzni yopib olish, barmoqlar bilan sochni aylantirish, bosh quyi solingan, ko‘zlar yerga qadalgan holatda bosh barmoqni og‘izga olib borib tishlash kabi noverbal vositalar genderologik xususiyatga ega bo‘lib, ayollardagi uyalish, hayajon, xijolat tortish kabi his-tuyg‘ularni ifoda etadi.

Barmoqlarning stol yuzasiga chertish harakatida intensivlik darajasining o‘zgarishi turli semantik nozikliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, barmoqlarni tez va qattiq chertish shaxsning sabrsizlik, asabiylik, bezovtalik, ichki taranglik kabi ruhiy kechinmalarini ifoda etadi. Shuningdek, xuddi shu tempdagi ishora o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini jamlash, tartibni saqlash maqsadida ham ishlatiladi. Aksincha, barmoqlar bilan sekin va yengil chertish harakati o‘ychanlik va beparvolikni bildiradi. Misol: *…xayol surib qoldi, qo‘li bilan stolni chertib: – Ha, isbotlamoq zarur, – deya qaytardi so‘zlarini donalab. (S.Karomatov “Oltin qum”)*

Paralingvistik vositalar turli xalqlarning madaniy jihatlarini ham aks ettiradi. “Verbal vositalar singari noverbal vositalarni qo‘llashda ham milliy o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, shunday imo-ishoralar borki, ular sof milliy xarakterga ega bo‘lib, milliy xususiyatlar kasb etishi mumkin”[5:4].

O‘ng yoki chap qo‘l kafti bilan peshonaga urish so‘zlovchining ma’lum voqea-hodisadan qattiq afsuslanish, pushaymonlik, qilingan xatoni anglab yetish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Misol: – *Turmayman. Menga qara, Murshida, men turolmayman, ichimda... tosh bor, O‘shanda shum xabarni eshitgandan keyin, peshonamga bir shapati urib, – u peshonasiga tars etib urib ham qo‘ydi, – peshonamga shunday bir urib, “men qotilman!” dedimu, yiqildim. (A.Muxtor “Taqdir kimning qo‘lida” hikoya)* Xuddi mana shu ishora esa inglizlarda shaxsning o‘z xatti-harakati yoki so‘zidan qoniqishini ko‘rsatadi.

Bosh, ko‘rsatkich hamda o‘rta barmoqlarni juftlagan holda suhbatdoshga qarata yo‘naltirish ko‘pincha salbiy ma’no ifodalab, jimlik saqlash, tartibli bo‘lishni anglatadi. Arab xalqlari madaniyatida esa ushbu ishora xizmat ko‘rsatish jarayonlarida faol bo‘lib “Biroz kuting”, “Sabr qiling” mazmunini ifodalaydi.

Ko‘rsatkich barmoqni chakkaga olib borib burash o‘zbeklarda befahm, ahmoq ma’nosini anglatsa, gollandiyaliklar madaniyatida bu ishora suhbatdoshining aql-zakovatini yuqori baholash maqsadida ishlatiladi.

O‘zbek madaniyatida bosh barmoq yuqoriga ko‘tarilsa, “zo‘r” ma’nosini anglatadi, Gretsiyada esa u “ovozingni o‘chir” degan ma’noni ifodalaydi, ya’ni bu imo-ishora suhbatni davom ettirishni istamaslikni anglatadi. Nemislar bu ishorani “bir” raqam sifatida qabul qilishadi va hisoblashda ishlatishadi. Shuningdek, urugvayliklar va eronliklar ushbu ishorani tahqirlash va haqoratlash ma’nosida tushunib, suhbat davomida qo‘llamaslikka harakat qilishadi. Sababi ushbu ishora intim xarakterdagi harakatlarni amalga oshirish istagini anglatadi. Bundan tashqari, amerikaliklar ushbu jestdan taksi to‘xtatish uchun foydalanishadi[4:92].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida keltirib o‘tilgan noverbal vositalar kommunikatsiya jarayonini uyushtiribgina qolmay, inson ongi, tafakkuridagi axborotlarni, turli madaniy semalarni o‘z ichiga olgan imo-ishoralarni vizual tarzda aks ettiradi. Shuningdek, til va tafakkur tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekan, paralingvistik vositalar ham bevosita inson ongi, uning kognitiv faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kelly S.D., Tran Q.A.N. Exploring the emotional functions of co-speech hand gesture in language and communication // Topics in Cognitive Science. 2025. – Vol. 17. – P. 586-608. https://doi.org/10.1111/tops.12657

2. Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. Монография. – Тошкент:Tamaddun, 2022.

3. Сыдыкбекова Ф. Особенности коммуникативного поведения киргизов// Национально-культурная специфика речевого общения народов СССР. –М.:Наука, 1982.

4. Xasanova G. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillari instituti, 2023.

5. Yarashova N. Noverbal vositalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Factor press, 2023.

Visolaxon QAYUMOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
visolaqayumova@gmail.com,

O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘xshatishlar lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilinadi. Ularning semantik, stilistik hamda madaniy xususiyatlari yoritilib, badiiy matndagi ifoda imkoniyatlari ochib beriladi. Xususan, o‘xshatishlar orqali milliy dunyoqarash, estetik qarashlar va xalq tafakkurining aks etishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida o‘xshatishlarning til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi muhim birlik ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, lingvomadaniyat, lingvokulturologiya, badiiy nutq, obrazlilik, tafakkur, madaniyat*

Аннотация: в данной статье рассматриваются сравнения как лингвокультурные единицы. Анализируются их семантические, стилистические и культурные особенности, а также раскрываются выразительные возможности в художественном тексте. Особое внимание уделяется отражению национального мировоззрения, эстетических представлений и мышления народа через сравнения. В результате исследования установлено, что сравнения являются важными единицами, отражающими взаимосвязь языка и культуры.

Ключевые слова: *сравнение, лингвокультура, лингвокультурология, художественная речь, образность, мышление, культура*

Annotation: this article analyzes similes as linguocultural units. Their semantic, stylistic, and cultural features are examined, and their expressive potential in literary texts is revealed. Special attention is paid to the reflection of national worldview, aesthetic values, and human thinking through similes. The study concludes that similes are important units expressing the close relationship between language and culture.

Key words: *simile, linguoculture, linguoculturology, literary language, imagery, thinking, culture*

Kirish. Kognitiv faoliyat, ya’ni bilish jarayoni, insonning ongli va ongsiz holatlaridagi barcha idrok, tushuncha va tafakkur shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon insonning ijtimoiy, madaniy va lisoniy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shuning natijasi o‘laroq, tilshunoslikning yangi “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Sotsiolingvistika”, “Lingvokognitologiya” kabi sohalari o‘rtaga chiqdi. XX asr so‘nggi va XXI asr tilshunosligida til antropologik hodisa sifatida tan olinib, asosiy e’tibor lisoniy hodisalarni insonning kognitiv tabiati hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan birgalikda tadqiq etishga qaratildi. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish o‘zbek mentaliteti, milliy ongining o‘ziga xosliklari, qadriyatlari tizimi mohiyatini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi[1].

Asosiy qism. Har bir xalqning qadim davrdan to bugungi kunga qadar milliy-madaniy rivojlanish bosqichida tafakkur ifodasi, voqea-hodisalarni tasavvur qilish va ularni bir narsadan boshqa bir ma’lum narsaga qiyoslanishi natijasida o‘xshatishlar paydo bo‘ladi. Natijada bu barchaga ma’lum bo‘lgach, ommalashib, xalq tiliga o‘rnashib, muloqot uchun til birligi vazifasini o‘taydi. O‘xshatishlar muayyan xalqning tafakkur tizimini va milliy dunyoqarashga asoslangan tasavvurini tamsil etadi.Ya’ni inson qarshisidan chiqqan va mohiyatan mavhumroq bo‘lgan tushunchalarga o‘z ong zahirasidagi boshqa bir narsaga taqqoslash orqali oydinlik kiritadi. Shubhasiz, bunda milliylik, mentalitet asosiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar haqida tadqiqotni boshlab bergan olim M.Mukarramov hisoblanadi. Olim bu san’at turini uch asosdan iboratligi, o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz o‘xshatishning sharti ekanligini ta’kidlaydi[2]. O‘xshatishning badiiy funksiyasi nutqning badiiy-

1 Usmanov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. diss. – T., 2020

2 Lafasova M. O‘xshatishlar ning antroposentrik paradigmada o‘rganilishi . Til va adabiyot.uz .Ilmiy-metodik jurnal 2024-y 7-son

obrazliligini oshirish, shu orqali kishida estetik ta’sir uyg‘otishdir.

S.L.Neveleva Paninidan boshlab qadimgi hind poetik traktlarida o‘xshatish tarkibini to‘rt asosdan iborat ekanligini ko‘rsatadi: subyekt (nima o‘xshatilyapti), obyekt (nima bilan o‘xshatilyapti), o‘xshash belgi va o‘xshatish shakli (vositasi).

Professor N. Mahmudov o‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi yorqinroq aks etishini bejizga ta’kidlab o‘tmagan.O.S.Axmanovaning “Tilshunoslik terminlari lug‘ati”da lisoniy o‘xshatishga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘xshatish (ingl. simile, fr. comparaison, nem. Gleichnis, isp. simil.) – bir predmetni boshqasiga ular o‘rtasidagi umumiy bo‘lgan xususiyat asosida qiyoslash”[3].

Ba’zi tadqiqotlarda lingvokulturologiyani turg‘un o‘xshatishlar, lingvopoetikani esa individual-muallif o‘xshatishlari qiziqtirishi aytiladi. Ammo bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Har ikki turdagi “o‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir”[4].

Tilshunoslikda odatda, qiyosning ikki turi farqlanadi, bunda qiyoslashning maqsadidan kelib chiqiladi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, qo‘li paxtadan yumshoq), qiyoslash o‘xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, qo‘li paxtaday yumshoq). Aytish joizki, sof qiyosga qaraganda o‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega[5].O‘xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdir[6].

Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi[7].

O‘xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar turlicha:

1. Affikslar: -day(-dek), - simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan

2. So‘zlar vositasida, sifat (o‘xshash, teng), ko‘makchi (kabi, singari, qadar), bog‘lovchi (go‘yo, go‘yoki), olmosh (o‘zi), ravish (aynan).

3. Izohlovchi izohlanmish munosabatida.

Professor, tilshunos olim N. Mahmudov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rt unsurga ajratadi va ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi. “...o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘xshatishlar ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘plab ilmiy yo‘nalishlar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Mantiq va psixologiyada, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda uni tahlil qilishning uzoq an’analari mavjud bo‘lib, qator olimlarning ishlarida o‘xshatishlar turli jihatdan tahlil qilingan. M.Mukarramov, R.Qo‘ng‘urov, D.Xudoyberganovalarning tadqiqotlarida semantik-stilistik, sintaktik-shakliy, semantik-grammatik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa, N.Mahmudov o‘zining “O‘xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli” nomli maqolasida birinchilardan bo‘lib, lisoniy universaliyalar qatoriga kiruvchi o‘xshatishlarning lingvomadaniy jihatlariga e’tibor qaratdi. O‘xshatishlar tadqiqi borasida N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarning izohli lug‘ati”da 500 dan ortiq o‘xshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan. Yana bir muvaffaqiyatli tadqiqotlardan biri F.Usmonovning “O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek millatiga xos olamning lisoniy manzarasini namoyish etuvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi asoslangan; turg‘un o‘xshatishlar orqali madaniy axborotni tashuvchi lingvomadaniy kodlar iyerarxiyasi aniqlangan;

3 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 444.

4 Usmonova SH. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2019.102-bet.

5 Mahmudov N. O‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.160-161

6 Shomaqsudov A., Rasulov I., … O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983.229-bet.

7 Маҳмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. –Ташкент, 1984.259-б.

turg‘un o‘xshatishlarda olamning turli unsurlariga oid aksiologik munosabat va milliy – madaniy konnotatsiya reallashuvi izohlab berilgan; o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar vositasida ifodalanuvchi o‘zbek madaniyati tayanch qadriyatlari izohlangan[8].

O‘xshatish ma’lum komponentlardan tashkil topgan. Ushbu komponentlar miqdori borasidagi turli fikrlar mavjudligini e’tiborga olib, biz M.Mukarramovning fikrlariga qo‘shilamiz. Bizningcha, o‘xshatishda uch komponent asosga olinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa va hodisa o‘zining biror muhim belgi xususiyatlari bilan taqqoslanadi[9].

An’anaviy tilshunoslik o‘xshatishni ko‘proq “nutq bezagi”, “stilistik figura” sifatida o‘rgangan. Zamonaviy tilshunoslikda, xususan, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyada o‘xshatish shunchaki “bezak” emas, balki dunyoqarashni aks ettiruvchi tafakkur hodisasi sifatida qaralmoqda. Biz dunyoni qiyoslash orqali idrok etamiz va o‘xshatishlar ana shu idrokning tildagi ifodasidir. Masalan, o‘zbek tilidagi “oydek yuz” o‘xshatishi go‘zallik mezoni sifatida oy obrazining muhim o‘rin tutishini anglatadi. Bu esa milliy madaniyatda tabiat unsurlarining estetik ideal sifatida qabul qilinishini bildiradi.

“…Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.”

Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she’ridan olingan quyidagi parchada ham vatan va undagi go‘zalliklar haqida so‘z boradi. “Chiroylidir go‘yo yosh kelin” shoirning ta’rifida go‘zallik “yosh kelin” obrazida, “go‘yo” o‘xshatishi orqali berilgan.O‘zbek madaniyatida “yosh kelin” – eng go‘zal, pok, orasta, bezakli holatdagi ayol timsoli.Bu obraz orqali go‘zallikning eng yuqori darajasi ifodalanadi. Daryo (suv) – poklik, tozalik, yangilanish; yuvish – go‘zallikni yanada orttirish, tabiat bilan hamohanglikni bildiradi. Demak, go‘zallik tasviri milliy madaniyat bilan uzviy bog‘langan. Yuqoridagi misralar lingvokulturologik jihatdan: o‘zbek xalqining go‘zallik haqidagi tasavvurini, – kelin obrazi orqali ayol idealini,

– tabiat va inson uyg‘unligini ifodalaydi.

Xurshid Davronning “Vatan devorlari” she’ridan:

“Zilzilani kutgan asbobdek,

Sergak bo‘lsin doimo yurak…” misrasida “-dek” qo‘shimchasi orqali o‘xshatish hosil qilingan. “Zilzilani kutgan asbobdek” – yurakning doimiy sergakligi kuchli va kutilmagan hodisaga tayyor holatga qiyoslanadi. Lingvokulturologik jihatdan “zilzila” – inson hayotida xavf-xatar, kutilmagan ofat timsoli, asbob – doimiy sezgir, harakatga tayyor vosita. Bu o‘xshatish xalq ongida xavfga tayyor turish, hushyorlik madaniyatini aks ettiradi. O‘zbek tilida “yurak” ko‘pincha “vijdon”, “hissiyot”, “jasorat” bilan bog‘lanadi. “Sergak bo‘lsin doimo yurak”— bu doimiy hushyorlik, ehtiyotkorlik, va ongli yashash g‘oyasini ifodalaydi. Bu qadriyat Sharq madaniyatida ehtiyotkorlik, sabr va ogohlik kabi tushunchalar bilan bog‘liq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlar tilning muhim lingvomadaniy birliklaridan biri bo‘lib, ular orqali xalqning milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Ularni chuqur o‘rganish lingvokulturologiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada aniqroq ochib beradi.

8 Usmanov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. diss. – T., 2020

9 Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish: – T.: “Fan” nashriyoti, 1976. 88-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. diss. – T., 2020
2. Lafasova M. O‘xshatishlarning antroposentrik paradigmada o‘rganilishi . Til va adabiyot.uz .Ilmiy-metodik jurnal 2024-y 7-son
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 444.
4. Usmonova SH. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2019. 102-bet.
5. Mahmudov N. O‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so’z, 2017.60-161-betlar
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., … O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983.229-bet.
7. Маҳмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. –Ташкент, 1984. -Б 259.
8. Mukarramov M. O’zbek tilida o’xshatish: – T.: “Fan” nashriyoti, 1976. 88-bet.

Zulxumor SHUKUROVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti



O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA METAFORALARNING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va rus tillarida metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Metaforalarning shakllanish mexanizmlari, ularning konseptual asoslari hamda nutqdagi funksional imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida ikki tilga xos umumiy (universal) va milliy-madaniy jihatlar aniqlanadi. Shuningdek, metaforalarning kommunikativ ta’siri va til egalarining dunyoqarashini aks ettirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *metafora, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, konseptual metafora, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, diskurs*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ когнитивно-прагматических особенностей метафор в узбекском и русском языках. Рассматриваются механизмы формирования метафор, их концептуальная основа и функциональные возможности в речи. В результате исследования выявляются универсальные и национально-культурные особенности метафор в двух языках. Особое внимание уделяется роли метафоры в отражении языковой картины мира и её коммуникативному воздействию.

Ключевые слова: *метафора, когнитивная лингвистика, прагматика, концептуальная метафора, сравнительный анализ, лингвокультурология, дискурс*

Annotation: this article presents a comparative analysis of cognitive and pragmatic aspects of metaphors in Uzbek and Russian languages. It examines the mechanisms of metaphor formation, their conceptual basis, and functional roles in speech. The study identifies both universal and culture-specific features of metaphors in the two languages. Special attention is paid to the role of metaphors in shaping linguistic worldview and their communicative impact.

Key words: *metaphor, cognitive linguistics, pragmatics, conceptual metaphor, comparative analysis, linguoculturology, discourse*

Kirish. Metafora tilshunoslikda nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkurining muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik metaforani konseptual tizimning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, turli tillarda metaforalarning o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbek va rus tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ularning metaforik tizimida umumiylik va farqlilik mavjud. Bu esa til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganish imkonini beradi.

Nazariy asoslar

Kognitiv tilshunoslikda metafora “bir konseptual sohani boshqa bir soha orqali anglash” jarayoni sifatida talqin qilinadi (Lakoff, Johnson, 1980). Bu jarayon konseptual metafora deb ataladi. Masalan, “Hayot – yo‘l” metaforasi inson hayotini yo‘l sifatida idrok etishga asoslanadi.

E.S. Kubryakova fikricha, til inson bilimlarining aks ettiruvchisi bo‘lib, metafora ushbu bilimlarni strukturalash vositasi hisoblanadi (Кубрякова, 2004). V.N. Teliya esa metaforani milliy-madaniy tajribani ifodalovchi vosita sifatida baholaydi (Телия, 1996).

Metaforalarning o‘xshash jihatlari

O‘zbek va rus tillarida metaforalarning bir qator universal xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq.

1. Konseptual umumiylik

Har ikki tilda quyidagi metaforik modellar keng tarqalgan:

Hayot – yo‘l (hayot yo‘li / жизненный путь)
Vaqt – harakat (vaqt uchadi / время летит)
His-tuyg‘ular – issiqlik (iliq munosabat / тёплые чувства)

Bu holat inson tajribasining universal ekanligini ko‘rsatadi.

2. Antroposentriklik

Metaforalar inson markazida quriladi. Masalan:

“tili o‘tkir” / “острый язык”

Bu yerda inson a’zolari orqali abstrakt sifat ifodalanmoqda.

3. Emotsional-ekspressivlik

Har ikki tilda metaforalar nutqni obrazli va ta’sirchan qiladi. Ular baholash, his-tuyg‘u va munosabatni ifodalaydi.

Metaforalarning farqli jihatlari

1. Milliy-madaniy xususiyatlar

O‘zbek tilida metaforalar ko‘proq: tabiat, oila, an’ana bilan bog‘liq bo‘lsa, rus tilida: sanoat, ijtimoiy hayot, tarixiy tajriba bilan bog‘liq obrazlar ustun.

Masalan:

o‘zbek tilida: “ko‘ngli dengizdek”
rus tilida: “железный характер”

2. Obraz tanlashdagi farqlar

O‘zbek tilida yumshoq, poetik obrazlar ko‘p uchrasa, rus tilida qat’iy va materialga asoslangan obrazlar ko‘p.

3. Ifoda uslubi

O‘zbek nutqida bilvosita va muloyim ifoda ustun:

“gapni aylantirib aytish”

Rus nutqida esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda:

“прямо сказать”

Pragmatik tahlil

Metafora nutqda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kommunikativ ta’sirni oshiradi
- nutqni ixchamlashtiradi
- baholashni ifodalaydi

A.N. Baranov ta’kidlaganidek, metafora ayniqsa siyosiy diskursda manipulyativ vosita sifatida faol qo‘llanadi (Баранов, 2004).

Masalan:

“siyosiy maydon” / “политическая арена”

Bu metafora siyosatni kurash maydoni sifatida talqin qiladi.

Diskursiv tahlil. Metaforalar turli diskurslarda turlicha vazifalarni bajaradi:

Badiiy diskurs obrazlilik va estetik ta’sirni kuchaytiradi.

Siyosiy diskurs ideologik ta’sir ko‘rsatadi.

OAV diskursi auditoriyani jalb qiladi.

Chudinov (2001) fikricha, metafora ommaviy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot o‘zbek va rus tillarida metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish orqali muhim ilmiy natijalarga erishish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, metafora har ikkala til tizimida ham faqat badiiy tasvir vositasi sifatida emas, balki inson tafakkurining konseptual tuzilishini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Avvalo, o‘zbek va rus tillaridagi metaforalarning o‘xshash jihatlari ularning umumiy kognitiv asosga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa insonning borliqni idrok etish jarayoni, tajribasi va tafakkur mexanizmlarining universalligidan dalolat beradi. Har ikkala tilda ham abstrakt tushunchalar konkret obrazlar orqali ifodalanadi, ya’ni konseptual metafora modeli asosida shakllanadi. “Hayot – yo‘l”, “Vaqt – harakat”, “His-tuyg‘ular – issiqlik” kabi metaforik modellar buning yaqqol isboti hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari mavjudligini ham ko‘rsatdi. O‘zbek tilida metaforalar ko‘proq an’anaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, tabiat va kundalik turmush bilan bog‘liq holda shakllansa, rus tilida ular ijtimoiy-siyosiy hayot, tarixiy tajriba hamda texnik-moddiy olam bilan uzviy aloqador holda namoyon bo‘ladi. Bu esa har bir xalqning o‘ziga xos lingvokulturologik manzarasini aks ettiradi.

Pragmatik jihatdan qaralganda, metaforalar nutqning ta’sirchanligini oshirish, kommunikativ maqsadni samarali yetkazish, baholash va emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilida metaforalar ko‘proq muloyimlik, hurmat va bilvosita ifoda orqali ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, rus tilida ular ko‘pincha aniq, keskin va to‘g‘ridan to‘g‘ri baholash vositasi sifatida ishlatiladi. Bu esa nutq madaniyati va kommunikativ strategiyalardagi farqlar bilan izohlanadi.

Shuningdek, metaforalar turli diskurslarda turlicha funksional yuklama bajarishi aniqlandi. Xususan, badiiy diskursda ular estetik ta’sirni kuchaytirsa, siyosiy va ommaviy axborot vositalari diskursida manipulyativ va ideologik vosita sifatida faol qo‘llanadi. Bu esa metaforaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va psixologik hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘zbek va rus tillaridagi metaforalarni qiyosiy o‘rganish til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish, milliy dunyoqarashning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik hamda pragmatika sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusida metaforalarni korpus lingvistikasi asosida, real nutq materiallari yordamida va turli diskurslar kesimida yanada kengroq o‘rganish, shuningdek, ularning psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlarini tadqiq etish ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Баранов А.Н. Политическая метафора: когнитивный аспект. – М.: Наука, 2004.
3. Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры. – Екатеринбург, 2001.
4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004.
5. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004.
6. Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. – СПб.: Наука, 1993.
7. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
9. Чудинов А.П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации. – Екатеринбург, 2003.
10. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Университет, 2006.
11. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
12. Маҳмудов Н. Тил ва тафаккур. – Т.: Фан, 2003.
13. Нурмонов А. Тилшунослик назарияси. – Т.: Шарқ, 2008.
14. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик асослари. – Т.: Фан, 2006.
15. Йўлдошев Б. Матн лингвистикаси. – Т.: Фан, 2009.

Xolidaxon QODIROVA,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti,
qodirovaxolidaxon1999@gmail.com

INGLIZ YOSHLARI RAQAMLI DISKURSIDA NUTQIY ETIKET TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ingliz yoshlari raqamli kommunikatsiyasida nutqiy etiket tamoyillari hamda internet diskurs materiallari tahlil ostiga olinadi. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, xabar jo‘natuvchi ilovalar va onlayn platformalarda yoshlar tomonidan foydalaniladigan muloqot shakllari, frazalar, emotiv birliklar va ularning kommunikativ vazifalari ham ko‘rib chiqiladi. An’anaviy muloqot qoidalari raqamli muhitda farq qilishi, qisqalik va tezkorlik kabi omillar, interaktivlik hamda multimodal vositalar orqali namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli kommunikatsiya, nutqiy etiket, yoshlar diskursi, internet diskurs markerlari, lingvopragmatika, onlayn muloqot, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikativ strategiyalar.*

Annotation: this article analyzes the principles of speech etiquette and internet discourse markers in the digital communication of modern English youth. The study also examines the forms of communication, phrases, emotive units, and their communicative functions used by young people on social networks, messaging applications, and online platforms. It is argued that traditional rules of communication differ in the digital environment and are manifested through such factors as brevity and rapidity, interactivity, and the use of multimodal means.

Key words: *digital communication, speech etiquette, youth discourse, internet discourse markers, linguopragmatics, online communication, social networks, communicative strategies.*

Аннотация: в данной статье анализируются принципы речевого этикета и интернет-дискурсивные маркеры в цифровой коммуникации современной английской молодежи. Также рассматриваются формы общения, фразы, эмотивные единицы и их коммуникативные функции, используемые молодежью в социальных сетях, мессенджерах и на онлайн-платформах. Обосновывается, что традиционные правила общения в цифровой среде претерпевают изменения и проявляются через такие факторы, как краткость и оперативность, интерактивность, а также использование мультимодальных средств.

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, речевой этикет, молодежный дискурс, интернет-дискурсивные маркеры, лингвопрагматика, онлайн-общение, социальные сети, коммуникативные стратегии.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar va internet kommunikatsiyasining jadal rivoj topishi ijtimoiy munosabatlar tizimiga, xususan, yoshlar nutqiy xulq-atvoriga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiylashuvi, ta’lim olish jarayonlari, o‘zini namoyon etishi hamda o‘z ijtimoiy “men”ini shakllantirishi ko‘p jihatdan virtual makonda yuz bermoqda. Shu sababdan ham, nutqiy etiket masalasi endilikda faqat an’anaviy yuzma-yuz suhbat jarayonidagina emas, balki raqamli kommunikatsiya kontekstida ham tadqiq etilishi zarur bo‘lgan e’tiborga molik ilmiy izlanishlardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shaxsning real hayotdagi xushmuomalalik va odob-axloq ko‘rsatkichlariga qay darajada amal qilishi uning virtual makondagi xulqida ham aks etadi. Xususan, kundalik muloqotda muloyimlik va etiket tamoyillariga rioya etuvchi shaxs bu kabi fazilatlarni onlayn suhbatlashuvda ham namoyish etish ehtimoli yuqoridir. J.Culpeper va V.Tantuccining ta’kidlashicha, suhbat ishtirokchilari o‘rtasida mazmunli va samarali virtual kommunikatsiyani netiket (internet etiketi) madaniyatini shakllantirish va hamkorlik faoliyatining sifatini oshirish orqali erishish mumkin. *Netiket* – bu raqamli makonda amal qilinadigan ijtimoiy-pragmatik me’yorlar tizimi bo‘lib, u an’anaviy xushmuomalalik tamoyillarining onlayn muhitga moslashgan shaklidir.

Raqamli kommunikatsiyani N.Baym yozma va og‘zaki nutq oralig‘idagi gibrid kommunikativ makon sifatida tavsiflaydi. Uning ta’kidlashicha, onlayn diskurs yozma shaklda bo‘lsa-da, u og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan spontanlik, interaktivlik va emotsionallik kabi jihatlarni o‘zida saqlaydi. Ijtimoiy tarmoq platformalarida muloqot qilayotganda foydalanuvchilar turli ko‘rinishdagi multimodal vositalar orqali etiket mezonlariga amal qilishga harakat qiladilar.

Natija va muhokamalar. Raqamli muloqot zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning asosiy platformasiga aylangan bo‘lib, u texnologik vosita, vaqt omili va interaktivlik darajasiga ko‘ra bir necha turli shakllarda olib boriladi. N.Baym raqamli kommunikatsiyaning xususiyatlaridan bo‘lmish – interaktivlik, auditoriya ko‘lami, saqlanish va tarqaluvchanlik haqida o‘z asarida so‘z yuritadi. Unda

yozishicha, vaqt omiliga ko‘ra raqamli muloqotni asosiy ikki turga ajratish mumkin:

Sinxron kommunikatsiya – ishtirokchilarning bir vaqtning o‘zida muloqot jarayonida ishtirok etishini talab etadi. Unga videoqo‘ng‘iroqlar (Zoom, Skype kabi dasturlar yordamida amalga oshiriladigan), jonli suhbatlar, onlayn o‘yin ichidagi ovozli muloqot kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

S.Herring kompyuter vositasidagi muloqotni (computer mediated communication) o‘rganib chiqar ekan, sinxron diskurs og‘zaki nutqqa yaqin bo‘lgan pragmatik xususiyatlarini o‘zida saqlashini uqtiradi. Bu turdagi aloqa jarayonida suhbatdoshdan kelgan suhbat so‘roviga tezlik bilan javob berish xushmuomalalikning muhim omillaridan biri sanaladi.

Asinxron kommunikatsiya – kommunikantning suhbat so‘roviga javobi vaqt jihatdan kechiktirilgan bo‘ladi. Misol tariqasida, emaillar, forum postlari va WhatsApp, Telegram, Snapchat kabi ijtimoiy tarmoqlaridagi yo‘llangan xabarlarga kechiktirilgan javoblarni aytish mumkin.

Baymning ta’kidlashicha, raqamli platformalar vaqtni elastik qilgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda ular kommunikantning javob tezligi va muloqotga imkoni borligi (*availability*) haqidagi ijtimoiy kutishlarni ham vujudga keltiradi. Chunonchi, ijtimoiy aloqa dasturlaridagi mavjud bo‘lgan “*seen*” (xabar ko‘rildi yoki o‘qildi) yoki “read receipt” (xabar yetib borgani haqidagi bildirishnoma) funksiyalari kommunikativ jarayonga metapragmatik signal sifatida kiradi.

Brown va Levinsonlarning xushmuomalalik nazariyasi har qanday muloqot ishtirokchilarining “yuz”i, ya’ni ijtimoiy qadr-qimmati va erkinligini himoyalashga qaratilgandir. Ijtimoiy platformadagi “*seen*” funksiyasi quyidagicha pragmatik vaziyatni yuzaga keltiradi:

Xabar o‘qilganligi tasdiqlandi lekin adresat hali ham javob bermadi.

Bu vaziyatni suhbatdoshning “ijobiy yuz”iga nisbatan tahdid sifatida talqin etish mumkin, chunki u suhbatdoshga nisbatan e’tiborsizlik yoki qiziqmaslik belgisi sifatida qabul qilinadi.

Are we still meeting at 7 ?
(Seen 5.53p.m)
(No reply)

COLT (Corpus of London Teenage Language) korpusi materiallarida ingliz yoshlari o‘rtasida tezkor reaksiya va diskurs markerlari ko‘pligi qayd etilgan. Yosh avlod doimiy aloqada bo‘lishni xohlaydi va e’tiborsizlikka tezkor javob bildiradi:

Why are you airing me?
He asked a question and he got aired.

Airing (xabarni o‘qib javob bermaslik) frazasi ingliz yoshlari diskursida keng qo‘llanadi va ijtimoiy e’tiborlikni anglatadi. Lingvokulturologik jihatdan bu yoshlar submadaniyatida e’tibor va doimiy aloqaning salmoqli o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Javobsizlik, lingvopragmatik nuqtayi nazarga ko‘ra, sukut orqali amalga oshirilgan kommunikativ aktdir va pragmatik signal sifatida xizmat qiladi. Ba’zan adresatning javobni kechiktirish holati salbiy xushmuomalalik tamoyili bo‘lishi ham mumkin – suhbatdoshga rad javobini bermaslik orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan mojaroning oldini olish. Ammo yoshlar diskursida bu ko‘pincha aksincha qabul qilinadi.

Og‘zaki diskursda yoshlar orasida nutqqa javob bermaslik holatida quyidagicha munosabat bildiriladi:

She left me hanging.

“Left me hanging” iborasi orqali nutqda javobsizlik tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy noqulaylikka nisbatan ishora qilinadi. Mazkur iboraning raqamli diskursda *“left on read”* kabi muqobil ko‘rinishi mumkin.

Nutqiy beparvolikni ifodalovchi yana bir *“don’t snake me like that”* bo‘lib, *snake* fe’li kontekstda “xiyonat qilish”, “sodiqlikni buzish” mazmunlariga ega. Lingvopragmatik jihatdan bu ibora suhbatdoshning xatti-harakatini baholovchi akt sanalib, u nafaqat informativ mazmunni, balki kuchli ijtimoiy-emotsional pozitsiyani ham ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar raqamli diskursida nutqiy etiket tamoyillari o‘ziga xos pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi. Raqamli muloqotda muloqotning qisqa, tezkor va interaktiv xarakterga egaligi nutqiy etiket vositalarining soddalashuvi va norasmiy ko‘rinishga aylanishiga olib keladi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, internet diskurs markerlari yoshlar muloqotida kommunikativ aloqani tashkil etish, muloqotni davom ettirish, emotsional munosabatlarni tartibga solish va ifodalash hamda suhbatdoshlar orasidagi yaqinlikni ta’minlash kabi qator muhim ahamiyatli vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Androutsopoulos, J. (2015). Networked multilingualism: Some language practices on Facebook and their implications. *International Journal of Bilingualism, 19*(2), 185–205
2. Baym, N. K. (2015*).* Personal connections in the digital age (2nd ed.). Polity Press.
3. Crystal, D. (2011). Internet linguistics: A student guide. Routledge.
4. Culpeper, J., & Tantucci, V. (2021). The principle of (im)politeness reciprocity. Journal of Pragmatics.

ZARIFA QILICHOVA,
SamDChTI tayanch doktoranti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING CHET TILLARNI O‘QITISHDAGI SAMARALI METODLARI

Annotatsiya:globallashgan dunyoda samarali xorijiy tillarni o‘qitishga bo‘lgan talab ortib borayotgani bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari zimmasiga innovatsion va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan metodologiyalarni qo‘llash bo‘yicha katta mas’uliyat yukladi.Ushbu maqolada chet tillarini o‘rgatishning asosiy yondashuvlari, jumladan, Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), Blended learning (BL) o‘qitish usullari o‘rganiladi.Shuningdek, ushbu maqolada o‘quv jarayonida autentik materiallardan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi.Bundan tashqari, tadqiqotlar tahlili va til o‘rgatishdagi qiyinchiliklar va samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan natijalarni o‘z ichiga oladi.Natijalar shuni ta’kidlaydiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, tanqidiy fikrlash va mustaqilligini oshiradi, natijada tilni o‘zlashtirish natijalarini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: *chet tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, autentik materiallar, aralash ta’lim, CLT, TBLT.*

Annotation:the increasing demand for effective foreign language instruction in a globalized world has placed significant responsibility on future English teachers to adopt innovative and learner-centered methodologies. This article explores key approaches to teaching foreign languages, including Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), blended learning, and differentiated instruction. It also highlights the importance of utilizing authentic materials. Furthermore, the study proposes a research methodology and includes identifying challenges and effective strategies in language teaching. The findings emphasize that integrating modern pedagogical approaches enhances learners’ communicative competence, critical thinking, and autonomy, ultimately improving language acquisition outcomes.

Key words: *foreign language teaching, communicative competence, blended learning, authentic materials, CLT, TBLT.*

Аннотация: в условиях глобализации растущий спрос на эффективное преподавание иностранных языков возлагает большую ответственность на будущих преподавателей английского языка за применение инновационных и ориентированных на ученика методик. В данной статье рассматриваются основные подходы к преподаванию иностранных языков, включая коммуникативное обучение языку (CLT), обучение языку на основе заданий (TBLT), интегрированное обучение содержанию и языку (CLIL) и смешанное обучение (BL). Также подчеркивается важность использования аутентичных материалов в процессе обучения. Кроме того, в статье представлен анализ исследований и результаты, направленные на выявление проблем и эффективных стратегий в преподавании языка. Результаты показывают, что интеграция современных педагогических подходов повышает коммуникативную компетентность, критическое мышление и самостоятельность учащихся, что в конечном итоге улучшает результаты усвоения языка.

Ключевые слова: *преподавание иностранных языков, коммуникативная компетентность, аутентичные материалы, смешанное обучение, CLT, TBLT.*

Kirish. XXI asrda globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli chet tillarini o‘qitish sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, ingliz tili global lingua frankaga aylanib, uni samarali o‘qitishni butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida ustuvor yo‘nalishga aylantirdi. Shuning uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ham nazariy bilimlar, ham zamonaviy pedagogik tendensiyalarni aks ettiruvchi amaliy o‘qitish strategiyalarini chuqur o‘zlashtirishi lozim.

An’anaviy o‘qitish metodlari, xususan grammatik-tarjima yondashuvi uzoq vaqt davomida samarali deb hisoblangan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ular o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yetarli emasligi aniqlangan. Zamonaviy pedagogika esa o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yuvchi, interaktiv va innovatsion metodlarga asoslanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat tilni mukammal bilishi, balki uni samarali o‘qitish metodlarini ham egallashi lozim. Shu sababli ushbu maqolada zamonaviy o‘qitish metodlari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Til o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘plab samarali yondashuvlarni aniqlagan. Richards va Rodgers [1, 25-b] til o‘qitish metodlarini tarixiy rivojlanish nuqtayi nazaridan tahlil qilib, kommunikativ yondashuvni eng samarali metodlardan biri sifatida ko‘rsatadi. Harmer [2, 78-b] esa interaktiv metodlarning o‘quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Nunan [3, 45-b] tomonidan ishlab chiqilgan task-based learning yondashuvi o‘quvchilarning real vazifalarni bajarish orqali tilni o‘rganishini nazarda tutadi. Ushbu metod o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tomlinson differensial ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini asoslab beradi. Marsh [5, 12-b] esa CLIL metodini taklif qilib, tilni boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda blended learning metodiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu metod an’anaviy va raqamli ta’limni birlashtirib, o‘quvchilarga moslashuvchan o‘rganish imkonini yaratadi.

Asosiy qism. Samarali o‘qitish metodlari

Communicative language teaching – bu real hayotda o‘zaro muloqotga kirishishga urg‘u beradigan til o‘rgatish usuli. CLT ning

asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, u nafaqat grammatik bilimlarni, balki turli xil real hayot kontekstlarida tildan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv yordamida talabalar tilni umumiy grammatik qoidalar to‘plami sifatida emas, balkim mazmunli muloqot sifatida o‘zlashtirish orqali til o‘rganish jarayonini samarali bo‘lishiga zamin yaratishadi.

CLT ning asosiy tamoyillaridan biri haqiqiy materiallar va real hayot ssenariylaridan foydalanishdir.Bu shuni anglatadiki, chet tili o‘qituvchilari faqat darslik mashqlariga tayanib qolish o‘rniga o‘quvchilarga sinfdan tashqarida duch kelishi mumkin bo‘lgan mavzulardagi materiallardan foydalanishlari mumkin. Bu talabalarga o‘rganayotgan narsalarining dolzarbligini ko‘rishga va o‘z ko‘nikmalarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yordam beradi.

Yana bir asosiy tamoyil o‘quvchiga qaratilgan faoliyatga e’tibor qaratishdir. CLT sinfida talabalar o‘z o‘rganishlarida faol rol o‘ynashga da’vat etiladi.Bu ko‘pincha o‘quvchilarning tengdoshlari bilan muloqot qilish uchun tildan maqsadli foydalanishni talab qiladigan guruh ishlari, rolli o‘yinlar, juftlik faoliyati va muhokamalarni o‘z ichiga oladi.O‘qituvchi sifatida pedagoglar ushbu jarayonda talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va kerak bo‘lganda yordam ko‘rsatuvchi vositachi sifatida harakat qilishadi.

Hashimi va boshqalar [7, 256-b] **Task-Based Language Teaching (TBLT)** maqsadni amalga oshirish yoki topshiriqni bajarish uchun qayta ishlash borasidagi materiallarni talabalarga taqdim etish orqali ularning bilimlarni samarali o‘zlashtirishlari mumkinligini ta’kidladi.Bu odatdagi vazifalarga o‘xshaydi: odamlar har kuni qahva tayyorlash, xabar yozish, kimdir bilan telefonda gaplashish kabi ishlarni bajaradilar, TBLT talabalarga shu kabi topshiriqlarni berish va undan keyin uni hal qilish uchun o‘sha tildan foydalanishga intilish tushuniladi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodi – bu chet tilini o‘rganish va fan mazmunini (tarix, biologiya, texnologiya) parallel ravishda o‘zlashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvdir. Asosiy g‘oya tilni maqsad emas, balki bilim olish vositasi sifatida qo‘llash orqali real hayotiy kontekstda o‘quvchilarning ham akademik, ham kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

4C Tamoyili [6, 41-b]: CLIL darslari to‘rtta komponentga asoslanadi:

1. Content (Mazmun): Fanni o‘rganish va tushunish.
2. Communication (Muloqot): Tilni o‘rganish va qo‘llash.
3. Cognition (Kognitiv rivojlanish): Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Bu komponent fikrlash jarayonlari bilan bog‘liq, ya’ni o‘quvchilar mustaqil fikrlashni o‘rganadi.
4. Culture (Madaniyat): Madaniyatlararo tushunishni shakllantirish.

Blended learning (aralash ta’lim) — raqamli vositalar va resurslarni an’anaviy dars metodlari bilan birlashtiradi. O‘quvchilar odatda, o‘qish vaqtining bir qismini sinfda, bir qismini esa onlayn o‘tkazadilar. Ushbu model orqali o‘quvchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan sur’atda ta’lim oladilar va shu bilan birga, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan bevosita muloqotdan bahramand bo‘ladilar.

Aralash ta’lim afzalliklari

1. Moslashuvchanlik (Flexibility). Blended learning o‘quvchilarga o‘z vaqtida va o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi.
2. Individual yondashuv (Personalization). Har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojiga mos ta’lim beriladi.
3. Talaba markazli ta’lim. O‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘ladi.
4. Texnologik ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘quvchilar turli platformalar bilan ishlashni o‘rganadi (Google Classroom, Moodle, Zoom, Quizizz, Kahoot). Bu esa ularning raqamli savodxonligini oshiradi.
5. Darslarning qiziqarli va interaktiv bo‘lishi, masalan, dars davomida video, audio, animatsiyalar, onlayn testlar va o‘yinlarda foydalanish natijasida motivatsiya oshadi.
6. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi (Learner autonomy) O‘quvchilar o‘zlari izlanadi, resurslardan foydalanadi va shu orqali o‘z bilimini boshqaradi.

Autentik materiallar — bu o‘rganilayotgan til egalari tomonidan haqiqiy hayotiy vaziyatlar uchun yaratilgan, ta’lim maqsadlariga maxsus moslashtirilmagan materiallardir (gazetalar, filmlar, menyular, qo‘shiqlar). Ular til o‘rganuvchilarni haqiqiy madaniy muhitga olib kiradi, motivatsiyani oshiradi va nutqni tushunishni (listening/reading) rivojlantiradi.

Xulosa. Chet tilini samarali o‘qitish uchun innovatsion metodikalar, texnologik integratsiya va refleksiv amaliyot uyg‘unligi talab etiladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari turli xil o‘quv muhitlariga moslashishga va o‘z o‘qitish strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishga tayyor bo‘lishlari kerak.

CLT, TBLT, CLIL va aralash ta’lim kabi yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar muloqot kompetensiyasi va uzluksiz ta’limni rivojlantiradigan dinamik va qiziqarli sinf xonalarini yaratishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
2. Harmer J. *How to Teach English*. – Harlow: Pearson Longman, 2007.
3. Nunan D. *Task-Based Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
4. Tomlinson C. A. *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*? – Alexandria: ASCD, 2001.
5. Marsh D. *CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential*. – Brussels: European Commission, 2002.
6. Coyle D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
7. Hashimi M., Zainol Abidin M. J., Ahmad F. The effectiveness of task-based language teaching in improving students’ speaking skills // *International Journal of Linguistics*. 2012. – Vol. 4(3). – pp. 256–271.

Hulkar RASULOVA,
Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi tayanch doktoranti

TALABALARDA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING TARKIBIY VA OPERATSION KOMPONENTLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada talaba ijtimoiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, jamoa, uni o'rab turgan atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo'lishi kerakligi, pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtayi nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *kompetentlik, ijtimoiy bilim, individual qobiliyat, kasbiy faoliyat,* tarkibiy komponent, operatsion component.

Аннотация: в данной статье определяются и изучаются различные аспекты и компоненты, позволяющие студенту обладать социальными знаниями и навыками, опытом принятия решений в различных ситуациях и быть готовым к эффективному взаимодействию с обществом и окружающей средой, что позволяет более полно и глубоко изучать компетентность в работе педагогов-ученых с педагогической точки зрения.

Ключевые слова: *компетентность, социальные знания, индивидуальные способности, профессиональная деятельность, структурный компонент, операциональный компонент.*

Annotation: this article highlights the need for a student to have social knowledge and skills, to have experience in making decisions in various situations, and to be ready to effectively communicate with the community and the environment around him. Various aspects and components that allow for a more extensive and thorough study of competence from a pedagogical point of view in the work of educators and scientists have been isolated and studied.

Key words: *competence, social knowledge, individual abilities, professional activity, structural component, operational component.*

Kirish. Zamonaviy vaziyatda ijtimoiy kompetentlik yoshlarning oliy ma'lumot olishida rivojlanadi. Talabalar jamoasi yosh o'spirin hayotidagi muhim davrdir. Oliy ta'lim samaradorligini oshirish, kasbiy va ijtimoiy kompetentligi zamonaviy milliy jamiyatini rivojlantirish uchun strategik resurslarni o'z ichiga olgan yosh mutaxassislarni tayyorlash va sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy sohada samarali hamkorlikni, kasbiy va ijtimoiy sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanishni ta'minlaydi.

So'z boshida ta'kidlanganidek, ijtimoiy kompetentlik – bu insonning individual fazilatlarining murakkab dinamik integral tizimi bo'lib, uning umumiy qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar va qoidalar, qadriyatlar, shuningdek, jamiyat pozitsiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy muhitda harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydi. Talaba ijtimoiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, jamoa, uni o'rab turgan atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan.

S.E.Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan: o'qish, o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik; bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun biror-bir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

L.M.Dolgova, P.V.Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalar"dan farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi.

"Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi", – deb ta'kidlaydi L.M.Dolgova.

V.V.Bashevning ta'kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi. Qo'llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar bo'yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar).

Jamiyatni o'rganish sohasida samarali faoliyat ko'rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo'lishi kerak, ya'ni kompetentli odam:

1) o'zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi;

2) boshqa odamlar bilan muloqot o'rnata olishi;

3) qarorlar qabul qila olishi;

4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo'yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;

5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar

natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, subyektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Eng umumlashtirilgan holda ta’riflaydigan bo‘lsak, kompetentlik – individning umuman, jamiyatda va xususan, kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi obyektlar va subyektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma’lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

M.P.Choshanovning fikricha, kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi: kompetentli odamning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular bu bilimlarni doimo yangilab turadilar; kompetentlik mazmunli (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko‘nikmalar) komponentlariga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tavsifi hisoblanadi; kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

A.K.Markova muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo‘ladi, deb hisoblaydi, ya’ni: “Inson umuman olganda, o‘z kasbining ustasi bo‘lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo‘lmasligi mumkin”[4].

S.N.Krasnokutskayaning fikriga ko‘ra, oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy vakolatlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

· kasbiy faoliyatga tayyorlik: ish odob-axloq qoidalarini bilish; kasbiy layoqatini rejalashtirishga ega bo‘lish, ish qidirish meta-laridan foydalanish; mehnat faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslarini, xodimlarning ish haqini tashkil etish va qo‘llash usullarini bilish; lavozimga ko‘tarilish uchun marketing va o‘z-o‘zini marketing ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

· o‘z oilasini yaratishga tayyorlik: oila qonunchiligi hamda nikoh va oilaviy munosabatlar psixologiyasini bilish; bolalarni tarbiyalashda pedagogik madaniyat asoslari; uy xo‘jaligi ko‘nikmalari;

· Mamlakat fuqarosi bo‘lishga tayyorlik: ijtimoiy institutlar va tuzilmalar, ijtimoiy guruhlar, ularning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z xatti-harakatlari to‘g‘risida tahlil qilish bilimlari[6].

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy kompetentligi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Tarkibiy komponenti – ijtimoiy bilimdir.

2. Operatsion komponent, ya’ni amaliy komponent – ijtimoiy va kasbiy faoliyatning ijtimoiy texnologiyalariga ega bo‘lish, ya’ni bu ijtimoiy ko‘nikmalar va orttirilgan malakalar.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligi mezonlari orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

1. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va uning qadriyatlarga munosabatlari, bu qadriyatlarni tanlay bilishi, ularni asoslash va umume’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlar nuqtayi nazaridan, shuningdek, ularning ijtimoiy mavqeyi nuqtayi nazaridan baholash qobiliyatini namoyon qilishi; shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy xulq-atvorining aniq maqsadlari va ijtimoiy yo‘nalishini belgilashda.

2. Metodologiya, kategoriyalik, refleksivlik, proyektivlik va konstruktivlik aniq ijtimoiy bilimlarning empirik ko‘rsatkichlariga aylanadi. Shaxs o‘ziga xos sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, xilma-xillikda birlikni ko‘rishi, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishi kerak.

3. Mavzuning dolzarbligi shaxsning turli sohalarda mustaqil tanlov qilish, ushbu tanlov uchun javobgar bo‘lish, harakat va muloqotning innovatsion ijtimoiy ahamiyatga ega variantlarini modellashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi; o‘zini o‘zi boshqarish, havaskorlik faoliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalashda subyektivlik natijasi shaxsning mustaqilligi hisoblanadi.

4. Ijtimoiy kompetentlikning amaliy tarkibiy qismi – hayotning turli sohalarida texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishda, ijtimoiy xulq-atvorni tashkil etish va konstruktivlikda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv hamda transformativ sharoitga moslashuv va faoliyatli individuallashuv o‘rtasida muvozanat barqaror shakllangandagina amalga oshishi mumkin. Natijada shaxsning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o‘z sa’y-harakatlarini jamoaning sa’y-harakatlari bilan bog‘lash qobiliyati bo‘lishi kerak, ya’ni belgilangan maqsadlarga erishish uchun innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim[5]. Teskari jarayon – bu shaxsning qadriyatlari va bilimlari, talabalarning imkoniyatlari va uning haqiqiy ijtimoiy mavqei o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lganda, ijtimoiy qobiliyatsizlik kuzatiladi. Qobiliyatsizlik qadriyat shakllanmaganida, oila, jamoa, jamiyat, davlat, mamlakat hayotiga befarqlikda namoyon bo‘ladi; o‘zaro ish jarayonida ishlay olmaslikda, ya’ni talaba aniqrog‘i, mavjud bo‘lgan ijtimoiy imkoniyatlardan qanday foydalanishni aniq bilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Sharq, 2020.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.186-b.
3. Белкин А.С. Витагенное образование. Гипотеза. Концепция. Реализация. – Екатеринбург, 2000. 120 с.
4. “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” moduli bo‘yicha O‘QUV-USLUBIY MAJMUA. – Buxoro, 2024.
5. Рожков М.И. Юногогика. Педагогическое обеспечение работы с молодежью. – Ярославль: ЯГПУ им. К.Д.Ушинского, 2007. 312 с.
6. Загородников А. Н. Управление общественными связями в бизнесе // Учебник. – М.: Крокус, 2013 (гл .3 “SWOT-анализ: сущность, цель, содержание”).

Nigora XAMIDOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti
nnigora1996@gmail.com

EKSPERIMENTAL FONETIKANING ZAMONAVIY METODLARI: PRAAT DASTURIDA AKUSTIK VA PROSODIK TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada eksperimental fonetikaning nazariy asoslari va akustik tahlil usullari yoritiladi. Nutqning prosodik parametrlari (F0, davomiylik, intensivlik, tembr, formantlar) tahlil qilinadi hamda Praat dasturining segmentatsiya, vizualizatsiya va grafik tahlil imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Natijalar nutq texnologiyalari va qiyosiy fonetik tadqiqotlar uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: *eksperimental fonetika, prosodiya, intonatsiya, akustik tahlil, Praat, fundamental chastota (F0), formant tahlili, spektral tahlil, nutq signali, prosodik markaz, akustik-parametrik o‘lchovlar, intonatsion kontur.*

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические основы экспериментальной фонетики и методы акустического анализа. Анализируются просодические параметры речи (F0, длительность, интенсивность, тембр, форманты), а также возможности программы Praat для сегментации и визуализации. Результаты важны для речевых технологий и сравнительных фонетических исследований.

Ключевые слова: *экспериментальная фонетика; просодия; интонация; акустический анализ; Praat; фундаментальная частота (F0); формантный анализ; спектральный анализ; речевой сигнал; просодический центр; акустико-параметрические измерения; интонационный контур.*

Annotation: the article examines the theoretical foundations of experimental phonetics and acoustic analysis methods. It analyzes key prosodic parameters (F0, duration, intensity, timbre, formants) and highlights Praat software for segmentation and visualization. The findings are significant for speech technologies and comparative phonetic studies.

Key words: *experimental phonetics; prosody; intonation; acoustic analysis; Praat; fundamental frequency (F0); formant analysis; spectral analysis; speech signal; prosodic prominence; acoustic-parametric measurement; intonation contour.*

Kirish. Eksperimental fonetika zamonaviy tilshunoslikda nutq jarayonlarini obyektiv o‘rganish imkonini beruvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Fonetika fani tarixan tovush tizimi, talaffuz, urg‘u, prosodiya va intonatsiya kabi elementlarni o‘rganish bilan shug‘ullanib kelgan bo‘lsa-da, uning eksperimental bosqichi tovush hodisalarini aniq o‘lchovlar va texnik vositalar orqali tahlil qilishni ta’minladi. Ingliz tilshunosi Genri Svit fonetikaning amaliy ahamiyatini alohida ta’kidlab, “har qanday tilni samarali o‘qitish uchun fonetikani tushunish zarur” – degan edi [11]. Ushbu fikr fonetikaning o‘qitish metodikasigagina emas, balki uning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga ham zamin yaratdi, chunki til o‘rganish jarayonida fonetik hodisalarni chuqur va aniq tahlil qilish zaruriyati fan oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi.

Eksperimental fonetika mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, tovush jarayonlarini subyektiv kuzatishlardan farqli ravishda obyektiv, aniq va qayta tekshiriladigan natijalar asosida o‘rganishga imkon yaratdi. Bu yondashuv fonetika fanini nazariy tavsifdan tajribaviy tahlil bosqichiga olib chiqdi.

Eksperimental fonetika tushunchasi asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tajribaviy yondashuvlar tilshunoslikka kirib kelgan davrda shakllandi. Rus filologi V.A. Artyomov fikrlariga ko‘ra esa “eksperimental metodlarning qo‘llanilishi fonetikani tilshunoslik fanlari tizimidagi eng aniq sohalardan biriga aylantirdi”[2]. Mazkur metodlar turli tillarning tovush tizimini, artikulyatsion tuzilishini, shuningdek, intonatsion xususiyatlarini ishonchli tarzda tavsiflash imkonini berdi. Artyomov misol sifatida V.A. Bogoroditskiy va L.V. Shcherba rahbarligidagi laboratoriyalarni, shuningdek, 1-Moskva davlat chet tillar pedagogika instituti qoshidagi eksperimental fonetika va nutq psixologiyasi laboratoriyasini keltiradi. Mazkur markazlarda olib borilgan tadqiqotlar eksperimental fonetikaning ilmiy maqomini mustahkamlab, nutq jarayonini akustik va fiziologik darajada tahlil qilish imkoniyatini kengaytirdi.

O‘zbek fonetika maktabida ham eksperimental yo‘nalish muhim o‘rin egallagan. H. Jamolxonovning ta’rificha, “nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulatsion jihatlari pnevmograf, ossilograf, fonograf, spektrograf kabi maxsus asboblar yordamida tadqiq qilinadi” [6:22]. Bu vositalar yordamida tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandlik, kuch, tembr, spektr, cho‘ziqlik darajasi) hamda ularning artikulyatsion xususiyatlari aniqlanadi. Shu tariqa, eksperimental fonetika tovush tizimini fizik, fiziologik va perseptiv (idrokiy) darajalarda kompleks o‘rganishga imkon yaratadi.

Eksperimental fonetikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri nutq ishlab chiqarish jarayonini o‘rganishdir. Bu jarayon insonning nutq apparati orqali artikulyatsion harakatlarning fiziologik va akustik uyg‘unligini ta’minlaydi. A. Abduazizovning fikricha, “hozirgi fonetika talaffuzni aniqlashda ikki metoddan foydalanadi: subyektiv va obyektiv metodlar” [1:14]. Subyektiv metod tovushning akustik xususiyatlarini eshitish orqali baholashga asoslanadi, obyektiv metod esa maxsus texnik vositalar yordamida nutq tovushlarini fizik jihatdan o‘lchaydi. Olimning qayd etishicha, “nutqning artikulyatsion-akustik xususiyatlarini apparatlar yordamida tekshirish tilning fonetik tizimini ancha chuqur va aniqlik bilan tasniflash imkonini beradi” [1:14].

Eksperimental fonetikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri – intonatsiya bo‘lib, u nutqning ritmik-melodik tuzilmasini

tashkil etuvchi muhim prosodik komponentdir. Intonatsiya orqali so‘zlovchi nafaqat ma’lumot uzatadi, balki o‘zining emotsional holati, kommunikativ niyati va nutqiy munosabatini ham ifodalaydi. Shu bois, intonatsiya nutqning semantik, pragmatik va ekspressiv jihatlarini yoritishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Fonologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi intonatsiya – bu axborot tuzilishi, morfosintaktik tuzilma, fonologik hodisalar va pragmatik funksiyalar kesishgan nuqtada joylashgan, ko‘p qatlamli va ko‘p o‘lchovli tizimdir[13].

J. Hodgetts intonatsiyani uchta fonologik va tizimli o‘zgaruvchi orqali tushuntiradi: tonality (intonatsion birlik yoki fraza), tone (ohangning ko‘tarilishi va pasayishi) va tonicity (urg‘u yadrosining joylashuvi). Tonality intonatsion birliklar yoki frazalarni anglatadi va ular jismoniy hamda kognitiv omillar bilan chegaralanadi. Masalan, so‘zlovchi nutq davomida nafas olish zaruriyatiga ega bo‘lsa yoki fikr ifodasi tugallansa, intonatsion birlik ham yakunlanadi. Bu jarayon ko‘pincha ohangning pasayishi va tezlikning sekinlashishi orqali belgilanadi. J. Hodgetts ta’kidlaganidek, bunday chegaralar odatda pauza bilan ham ajratilishi mumkin[5]. Demak, ton nutq davomida ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishini bildirsa, tonallik intonatsion frazada yadroning, ya’ni asosiy urg‘u markazining joylashuvini ifodalaydi.

Britaniya intonatsiya modelida ohang konturlari grammatik va semantik funksiyalarni bajaradi. Grammatik nuqtai nazardan, konturlar nutqning segmentlarga bo‘linishini, ya’ni gap chegaralarini belgilashga xizmat qiladi. Semantik nuqtayi nazardan esa ular tinglovchiga ma’no farqlarini ko‘rsatish vositasi sifatida qo‘llanadi[5]. Demak, amerika lingvistikasida intonatsiya va toneni alohida tushunchalar sifatida ajratish fonologik tahlilni soddalashtirsa-da, Britaniya modeli ularni yaxlit holda ko‘rib chiqib, intonatsiyaning semantik va pragmatik funksiyalarini kengroq izohlash imkonini beradi.

Shuning uchun ham intonatsiya va prosodiyani o‘rganish nafaqat fonetik, balki pragmatik ma’nolarni ochish uchun ham zarur. Bekman va Venditti “prosodiya” terminini “suprasegmental” atamasiga nisbatan muhimroq deb hisoblaydilar. Ularning ta’kidlashicha, “suprasegmental” atamasi segmentlar ustiga qo‘shimcha qatlam sifatida qaraladigan metaforaga asoslanadi, bu esa prosodiyaning til tizimidagi haqiqiy o‘rnini to‘liq aks ettirmaydi. Aslida, prosodiya segmentlardan tashqarida mavjud bo‘lgan alohida qo‘shimcha emas, balki nutqning ichki tuzilishiga chuqur integratsiyalashgan va segmentlarning realizatsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan komponent hisoblanadi[3].

Intonatsion tahlilning asosiy birliklari – bu tone unit (intonatsion birlik yoki intonatsion guruh)dir. Intonatsion birlik chegaralarini aniqlashda tashqi va ichki mezonlar mavjud.

Tashqi mezonlar nuqtayi nazaridan, intonatsion birlik chegaralari quyidagi hodisalar orqali belgilanadi: pauzaning mavjudligi, anakrusis (ya’ni gap boshida keluvchi va tez talaffuz qilinadigan, odatda zaif yoki qisqartirilgan unlilardan tashkil topgan urg‘usiz bo‘g‘inlar ketma-ketligi; ular ko‘pincha yordamchi so‘zlardan iborat bo‘ladi), oxirgi bo‘g‘inning cho‘zilishi, shuningdek urg‘usiz bo‘g‘inlarning balandligi yoki ohang yo‘nalishidagi o‘zgarish [10]. Ichki mezonlarga ko‘ra, intonatsion birlik bir necha qismdan iborat bo‘ladi. Eng muhim qism – bu ohang o‘zgarishi boshlanadigan bo‘g‘in, ya’ni tonik (yadro) bo‘g‘indir. Tilshunoslar intonatsion birlikni qismlarga ajratishda turli yondashuvlarni qo‘llagan, shuning uchun ham atamalar har doim bir xil bo‘lmagan. Masalan, Richards va Schmidt keltirgan soddalashtirilgan sxemada intonatsion birlikning asosiy qismlari ko‘rsatilgan: bunda very so‘zining birinchi bo‘g‘ini onset (intonatsion birlikdagi birinchi urg‘uli bo‘g‘in), story so‘zining birinchi bo‘g‘ini esa tonik bo‘g‘in bo‘lib, so‘zlovchining ovoz ohangi aynan shu joydan pasaya boshlaydi [10].

Shunday qilib, intonatsiya nafaqat nutqning tugallangan yoki davom etayotganini ko‘rsatadi, balki gap turini belgilash, savol va bayonotlarni farqlash, shubha, hayrat kabi hissiy ranglarni ifodalash va tinglovchi uchun ma’lumotni izchil yetkazishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010. 175-b.
2. Артемов В. А. Экспериментальная фонетика. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1956. – 224 с.
3. Beckman M. E., Venditti J. J. Intonation // Goldsmith J. A., Riggle J., Yu A. C. L. (eds.). The Handbook of Phonological Theory. – 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2011. – P. 485–532.
4. Halliday M.A.K., Greaves W.S. Intonation in the Grammar of English. – London: Equinox, 2008.
5. Hodgetts, J. (2020). Pronunciation instruction in English for academic purposes: An investigation of attitudes, beliefs and practices. Cham, Switzerland: Springer Nature Switzerland
6. Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. 22-b.
7. Liu, D. & Reed, M. (2021). Exploring the complexity of the L2 intonation system: An acoustic and eye-tracking study. Frontiers in Communication, 6, 1-15. https://doi.org/10.3389/fcomm.2021.627316
8. Low E. L. Pronunciation for English as an international language: From research to practice. – Oxford: Routledge, 2015. – 266 p.
9. Marwa Said Mustafa El-Garawany, Using Praat to Develop English Majors’ EFL Intonation Production, Journal of Education, December-Part 3- (92)2021, DOI: 10.12816/EDUSOHAG.2021
10. Richards J.C., Schmidt R.W. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. – 4th ed. – Pearson, 2010.
11. Sweet, H. The Practical Study of Languages: A Guide for Teachers and Learners. – London: J. M. Dent & Company, 1899. – 283 p.

Лола МУЛЛАБАЕВА,
Национальный университет Узбекистана имени. М. Улугбека (г.Ташкент)
mullabaevalola@gmail.com

РОЛЬ ОЦЕНОЧНЫХ СУФФИКСОВ В ПРОИЗВОДНЫХ СЛОВАХ ПРИ ОБРАЩЕНИИ И ПРЕДСТАВЛЕНИИ ГЕРОЕВ В РОМАНЕ Ф.М.ДОСТОЕВСКОГО «ИДИОТ»

Аннотация: в статье рассматриваются производные слова, которые в тексте художественного произведения выполняют стилистические функции и служат воплощением авторского замысла в характеристике героев. Автор статьи показывает, что слова матушка, маменька, мамаша, используемые в обращении к собеседнику, выполняют, помимо функции призыва, другие функции, характеризуя речь героев определенного времени, статуса, настроения, отношения к адресату.

Ключевые слова: *суффикс, производное слово, обращение, стилеобразующие функции, культура.*

Annotation: the article examines derivative words that perform stylistic functions in the text of a work of art and serve as the embodiment of the author's intention in characterizing the characters. The author of the article shows that the words mother, mamenka, mamasha, used in addressing the interlocutor, perform, in addition to the function of appeal, other functions, characterizing the speech of heroes of a certain time, status, mood, attitude towards the addressee.

Key words: *suffix, derivative word, address, style–forming functions, culture.*

Annotatsiya: maqolada badiiy asar matnida stilistik funksiyalarni bajaradigan va qahramonlarni tavsiflashda muallif niyatining ifodasi bo'lib xizmat qiladigan hosila so'zlar ko'rib chiqiladi. Maqola muallifi suhbatdoshga murojaat shaklida ishlatiladigan *matyushka, mamenka, mamasha* kabi so'zlar chaqiriq funksiyasidan tashqari boshqa funksiyalarni ham bajarishini, ya'ni qahramonlarning ma'lum davrga mansubligi, ijtimoiy maqomi, kayfiyati va adresatga bo'lgan munosabatini ifodalashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *suffiks, hosila so'z, murojaat, uslubiy (stil hosil qiluvchi) funksiyalar, madaniyat.*

Современный этап развития филологической науки характеризуется тем, что отдельные языковые единицы рассматриваются с разных сторон в зависимости от задач, которые ставит перед собой исследователь. В связи с этим следует заметить, что даже при рассмотрении, например, служебных морфем можно выявить много интересного, а не ограничиваться указанием на место морфемы в слове, на ее словообразовательную функцию, на частотность употребления в словах определенной части речи и тому подобное. Лингвокультурологический ракурс рассмотрения языковых единиц позволяет не только расширить диапазон сведений о служебных морфемах, но и выявить их стилеобразующие признаки в художественном тексте, особенности использования в различных речевых ситуациях для характеристики героев в соответствии с их социальным статусом, эмоциональным состоянием, образованием, сферой общения. Именно лингвокультурологический подход позволил нам установить некоторые признаки социально–характеризующей природы суффиксов в романе Ф.М.Достоевского «Идиот». Поскольку в рамках одной статьи не представляется возможным раскрыть всю панораму стилистического использования суффиксов, мы ограничились представлением материала об употреблении определенных суффиксов в образовании производных слов от исходной лексемы «мать».

Считаем необходимым заметить, что объектом нашего исследования явилась только первая часть романа, где прежде всего интересны взаимоотношения в семействах Иволгиных и Епанчиных, отраженные на речевом уровне в виде диалогов, в которых значимыми для нас явились обращения к супруге главы семейства, приходящейся матерью для своих детей. В характере обращений к матери было установлено следующее: во–первых, в использовании обращения к матери отражен временной фактор, т.е. норма употребления слова, характерная для второй половины 19 века, когда был создан роман; во–вторых, обращения выражены производными словами, где словообразующий суффикс стилистически окрашен; в–третьих, выбор суффикса для производного слова связан с характером героя, его возрастом, отношением к родительнице. Наши выводы подтверждают тезис о функциях обращений, который представлен в «Русской

грамматике – 1980»: «Основная функция обращения – называние того, к кому направлена речь – очень часто сочетается с экспрессивной оценкой, с выражением субъективного отношения говорящего» [1, 164]. Поэтому установление значимости словообразующего суффикса в добавлении к значению слова оценочных показателей обусловило наш интерес в исследовании обращений, выраженных такими производными словами, как: матушка, маменька, *мамаша.*

Как показал материал исследования, непроизводное слово мать используется только в авторской речи или когда какой–то герой рассказывает о ситуации, где присутствовала женщина–родительница. В качестве обращения слово мать в тексте не встречается.

Она была очень похожа на мать, *даже одета была почти так же, как* мать, *от полного нежелания наряжаться.*

Ганя так обрадовался, что почти примирительно, почти нежно смотрел на мать.

– Мать всё, конечно, плачет, сестра злится, а я им прямо сказал, наконец, что я господин своей судьбы…

–… вы не в конюшню, кажется, вошли, господа, здесь моя мать и сестра…

А вот лексема матушка хотя и не достаточно частотна в первой части романа, но она встречается только в речи повествователя.

– Понять не могу долготерпения матушки.

– Ваша матушка…*тоже полгода спустя потом умерла.*

Слово матушка является производным от слова мать, эти слова связаны на основе непосредственной мотивации, поскольку в качестве единственного форманта выступает суффикс –ушк–. В современном русском языке слово матушка в значении «женщина по отношению к своим детям» не используется, данное значение считается устаревшим. Соответственно, суффикс –ушк– в данном слове выступает как показатель лингвокультурной информации, как сигнал того, что в современном социуме оно не употребляется, однако в 19 веке было вполне нормативным и частотным.

На наш взгляд, дающееся в толковом словаре С.И.Ожегова второе значение к слову матушка «обращение к пожилой женщине» и помета (прост.) [2, 303] не подходит для данного слова в приводимом ниже контексте, когда обращение направлено на молодую красавицу Настасью Филипповну.

– Катя, Паша, подите сюда, я замуж выхожу, слышали? За князя, у него полтора миллиона, он князь Мышкин и меня берет! – *Да и с богом,* матушка, *пора! Нечего пропускать–то! –* крикнула Дарья Алексеевна, глубоко потрясенная происшедшим.

В приведенном контексте слово матушка больше соотносимо со словом голубушка, которое как обращение имело довольно широкое распространение в 19 веке. Если обратить внимание на сам суффикс –ушк– в слове, используемом как обращение, то он вносит коннотацию ласкового, доброжелательного отношения к адресату речи. И тогда становится справедливым замечание Д.Э.Розенталя, что в художественном тексте «функция обращения заключается не только в назывании адресата речи, сколько в его характеристике, выражении отношения к нему, общем повышении выразительности речи, в результате чего создаются различные стилистические разновидности обращений» [3,298].

Заметим также, что на сегодняшний день обращение матушка не используется, если только не учитывать его употребление в церковном обиходе по отношению к жене священника. Поэтому, как указывает Д.В.Попов, обращение должно рассматриваться как «единица речевого этикета и как синтаксическая фигура», а при исследовании художественного текста необходимо обращаться к «коммуникативным аспектам обращения», где они выполняют определенные стилистические функции и служат для выражения авторского замысла [4, 48].

Слово маменька, встречающееся в произведении, является производным от слова мама посредством присоединения к основе форманта –еньк–. Суффикс –еньк–, как принято считать, служит для образования уменьшительно–ласкательных существительных. Однако, если обратиться к словарной статье в «Словаре русского языка» С.И.Ожегова, то там слово маменька толкуется как «то же, что мама» и при этом оно снабжено пометой (разг. устар.). Значит, можно считать, что данное слово употребляется в неофициальной обстановке общения, без предварительного обдумывания, при выражении ласкового обращения к матери.

– Вы увлеклись, маменька, *и опять не вытерпели, и вот так–то у нас всегда всё начиналось и разгоралось.*

В приведенном примере слово маменька дано в контексте обращения к ней сына, поэтому можно говорить об уважительном отношении его к матери. Хотя мы помним, насколько трудно было Гане Иволгину сохранять спокойствие, хладнокровие, когда решалась его судьба и он не видел поддержки в своей семье. Безусловно, суффикс –еньк– не вносит в образованное слово уменьшительного оттенка, а указывает на разговорную окраску слова. А само слово маменька, используемое как обращение, подчеркивает «обращенность речи» к кому–либо из окружающей его

среды, служит, по мнению исследователя обращений В.Е.Гольдина, для выделения и идентификации единичного одушевленного объекта «в языке, речи и культуре народа» [5, 98]. Действительно, слово маменька в обращении сына Гани и дочери Варвары к своей родительнице отражают форму этикета, принятого в культуре русского народа.

– Маменька! Клянусь вам в том опять, в чем уже вам давал слово…

– *Вы не уйдете отсюда,* маменька*? – громко спросила Варя.*

В романе производное слово маменька встречается и при описании женщины, к которой автор не испытывает негативных чувств. Хотя разговорная окраска слова придает авторскому употреблению слегка ироничный оттенок.

Маменька их, генеральша Лизавета Прокофьевна, иногда косилась на откровенность их *(дочерей)* аппетита…

Интерес представляет и производное слово мамаша, которое употребляется наряду со словом маменька, и даже в одном контексте с ним.

– *…если она приехала нас звать, то как же она начала обходиться с* мамашей*?.. Так нельзя разговаривать, если себя уважаешь, в доме своего…* Маменька о вас тоже очень беспокоится.

Можно предположить, что для взволнованной речи Варвары, когда в семье обсуждался приезд к ним Настасьи Филипповны, было вполне естественным употребление слов мамаша и маменька как смысловых дублетов, не различающихся стилистическими оттенками. Хотя в словарной статье для слова мамаша используется помета (прост.). Видимо, автор хотел показать, что волнение и восприятие поведения незваной гостьи заставляет Варвару употреблять оба разговорных слова с одинаковой оценочной коннотацией. Для того времени, когда был написан роман, слово мамаша не воспринималось с долей негативности. Это еще раз подтверждает тезис о том, что использование определенных слов, в нашем случае существительного мамаша, отражает нормы употребления в определенных временных рамках, в определенной сфере и ситуации общения. Не случайно младший сын Иволгиных Коля тоже в своей речи использует слово мамаша.

– Князь, мамаша*,* вас к себе просит, – крикнул заглянувший в дверь Коля.

– Варька из самолюбия делает, из хвастовства, чтоб от матери не отстать; ну, а мамаша действительно… я уважаю.

Суффикс –аш– в слове мамаша, которое используется в произведении, не обладает отрицательной коннотацией, не указывает на взрослость и на пожилой возраст женщины, что характерно для современного употребления данного слова. Поэтому можно говорить, что с течением времени отдельные оценочные суффиксы могут менять свое значение или из нейтральных становиться средством оценки в образованных существительных.

И последнее слово, которое используется автором для обозначения матери, не является исконно русским, дается в тексте в своем иностранном обличье и свидетельствует о том, что в высшем дворянском обществе было принято обращаться к матери на французском языке.

– Не торопитесь, ***maman,***– вскричала Аглая, – князь говорит, что он во всех своих признаниях особую мысль имел и неспроста говорил.

– ***Maman,*** да ведь этак очень странно рассказывать, – заметила Аделаида, которая тем временем поправила свой мольберт…

– Конечно, ***maman,*** – сказала Александра,– а теперь лучше бы завтракать; мы есть хотим.

На основании проведенного исследования можно сделать вывод о том, что использование производных слов, обозначающих мать в диалоге и повествовании, обусловлено рядом факторов социального, временного, культурного характера, а сами словообразующие суффиксы придают новым словам оценочно–характеризующее значение.

Литература

1. Русская грамматика. Т.11. Синтаксис. – М., 1980.
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М., 1987.
3. Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка.– М., 1974.
4. Попов Д.В. О функциях обращений в художественном тексте (к постановке проблемы). – Андижан, 2020.
5. Гольдин В.Е. Обращение: теоретические проблемы // Современные направления языкознания: проблемы и решения. – Саратов, 1987.

Ноиба ЮЛДАШЕВА,
Старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков
Карина ДОЛГОПОЛОВА,
THOMPSON INTERNATIONAL SCHOOL

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МИР ЮРИЯ БУЙДЫ

Аннотация: в статье рассматриваются особенности художественного мира рассказов Юрия Буйды. Карнавальность в рассказах Буйды реализуется через систему образов, жанровую структуру и языковые средства, включая гротеск, гиперболу и метаморфозу. Особое внимание уделяется амбивалентности художественного пространства, где соединяются противоположности: жизнь и смерть, комическое и трагическое, возвышенное и низменное. Показано, что данные особенности связаны с архаическим типом мышления и мифологическими представлениями, отражёнными в современной художественной форме.

Ключевые слова: *Юрий Буйда, карнавальность, мифопоэтика, постмодернизм, неомодернизм, гротеск, интертекстуальность, современная русская литература.*

Annotatsiya: ushbu maqola Yuriy Buida hikoyalarining badiiy olamini ko‘rib chiqadi. Buida hikoyalaridagi karnavallik unsurlar obrazlilik, janr tuzilishi va lingvistik vositalar, jumladan grotesk, giperbola va metamorfoz orqali amalga oshiriladi. Qarama-qarshiliklar: hayot va o‘lim, kulgili va fojiali, yuksak va asos birlashadigan badiiy makonning ikkilanishiga alohida e’tibor beriladi. Bu xususiyatlar arxaik tafakkur va mifologik tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy badiiy shaklda o‘z aksini topganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Yuriy Buida, karnavalesk, mifopoetika, postmodernizm, neomodernizm, grotesk, intertekstuallik, zamonaviy rus adabiyoti.*

Annotation: this article examines the artistic world of Yuri Buida’s stories. Carnivalesque elements in Buida’s stories are realized through imagery, genre structure, and linguistic devices, including grotesque, hyperbole, and metamorphosis. Particular attention is paid to the ambivalence of the artistic space, where opposites merge: life and death, the comic and the tragic, the sublime and the base. It is shown that these characteristics are associated with archaic thinking and mythological concepts, reflected in contemporary artistic form.

Key words: *Yuri Buida, carnivalesque, mythopoetics, postmodernism, neomodernism, grotesque, intertextuality, contemporary Russian literature.*

Творчество Юрия Буйды занимает значительное место в современной русской литературе конца XX- начала XXI века. Его произведения привлекают внимание исследователей благодаря оригинальности художественного метода, сочетающего элементы реализма, модернизма и постмодернизма. Современная русская литература уделяет большое внимание внутреннему миру человека, его памяти и жизненному опыту. Одним из писателей, обращающихся к этим темам, является Юрий Буйда. Его произведения отличаются философской глубиной и вниманием к судьбам людей, оказавшихся в сложных жизненных обстоятельствах.

Современные исследования творчества Юрия Буйды демонстрируют устойчивый интерес к его прозе как к феномену в современной литературе. Учёные отмечают синтез мифопоэтики, интертекстуальности, карнавальности и трагикомического мировосприятия. Особое внимание уделяется циклу рассказов «Прусская невеста», где формируется уникальная модель художественного мира, сочетающая реалистическое и фантастическое, комическое и трагическое. Выявим специфику карнавального мироощущения и мифопоэтических элементов в прозе писателя, а также определим их роль в формировании авторской картины мира. Для этого применим методы структурно-семантического, интертекстуального и сравнительно-типологического анализа.

Вопрос о художественном методе Юрия Буйды остаётся дискуссионным. Ряд исследователей относит его творчество к постмодернизму. Так, Н. Л. Лейдерман и М. Н. Липовецкий рассматривают прозу Буйды как пример «постмодернистского квазиисторизма» [4: 478], в котором история становится объектом художественной игры. Как отмечают исследователи, проза Буйды характеризуется «сочетанием низкого и высокого, добра и зла» [2: 177], а также активным использованием интертекстуальности и мифологических мотивов.

И. С. Скоропанова также определяет Буйду как постмодерниста, подчёркивая, что его тексты представляют собой форму историографической метапрозы, где важна не историческая достоверность, а её интерпретация [6: 209].

В то же время существует точка зрения, согласно которой творчество писателя следует рассматривать в рамках неомодернизма. М. В. Безрукавая отмечает усиление субъективного начала и биографизма, характерного для неомодернистской прозы [1: 327].

Исследователи также обращают внимание на карнавальные элементы в текстах Буйды. В частности, отмечается, что «сочетание быта с фантастикой, грубой комики и возвышенного» [5: 126] формирует особую художественную реальность.

The seventh and final feature is reflexive utopianism. Tom Moylan's concept of the "critical dystopia" anticipated a tendency in contemporary American fiction to preserve, even within its most bleak visions, some residual utopian horizon or site of collective resistance. Unlike the sealed pessimism of classical dystopias, which typically end with the protagonist's defeat or compromise, many contemporary American dystopias conclude with gestures toward community, solidarity, or ecological renewal that are deliberately fragile but nonetheless meaningful. This reflexive utopianism reflects what Ernst Bloch called the "principle of hope" — the insistence that even within the darkest social imaginaries, the trace of an alternative possibility must remain legible.

3. Research Methodology

The methodology of this study combines close reading with genre theory and sociological analysis of cultural production. Primary texts analyzed include Atwood's The Handmaid's Tale and The Testaments, Whitehead's The Underground Railroad, Eggers's The Circle, Mandel's Station Eleven, Ma's Severance, and Collins's Hunger Games trilogy. Secondary sources draw on genre theory (Sargent, Moylan, Suvin), political theory (Zuboff, Foucault), and American literary history (Jameson, Dubey). The interpretive framework is broadly materialist and historicist, situating generic transformation within the structural conditions of neoliberal capitalism, digital modernity, and ecological crisis.

Corpus analysis of selected textual features — including narrative focalization, temporal structure, the figuration of state/corporate power, and the representation of collectivity versus individuality — was conducted across the primary texts. This allowed for a systematic comparison of the structural features proposed in the typology above, yielding consistent patterns across texts produced by authors of diverse racial, gender, and class backgrounds. The cross-textual consistency of these patterns suggests that they reflect not merely authorial idiosyncrasy but genuine generic pressures characteristic of the contemporary moment.

CONCLUSION

This study has argued that the dystopian genre in twenty-first-century American fiction has undergone a series of profound and systematic transformations that cannot be adequately accounted for by classical genre theory. The seven transformational features identified here — the dispersal of sovereignty, the racialization of dystopia, the ecological turn, the feminization of dystopian subjectivity, the fragmentation of temporality, generic hybridization, and reflexive utopianism — collectively constitute a new configuration of the genre that reflects the specific conditions of neoliberal capitalism, digital surveillance, ecological emergency, and resurgent identity politics.

These findings carry several significant implications for comparative literary study. First, they suggest the need for a revised theoretical framework for dystopian fiction that moves beyond the Orwell-Huxley paradigm, incorporating feminist, postcolonial, and ecocritical perspectives. Second, they highlight the particular fertility of American literary culture as a site of generic experimentation and social critique, situated as it is at the intersection of global media dominance and acute domestic contradiction. Third, they open productive lines of comparison with dystopian traditions in other national literatures — including Uzbek literature, where writers such as Ahmad A'zam have engaged with related questions of individual freedom, collective memory, and political allegory in ways that resonate with, while also departing significantly from, the American paradigm.

Future research directions suggested by this study include a systematic comparative analysis of American and non-Western dystopian traditions; a closer examination of the relationship between dystopian fiction and digital platform culture; a genre-historical study of the young adult dystopian novel as a distinct sub-field; and an investigation of the relationship between dystopian fiction and contemporary political movements such as climate activism and resurgent feminism. The dystopian genre's capacity for renewal and self-critique, amply demonstrated by the texts examined here, suggests that it will continue to serve as one of the most important sites of literary-political imagination in the decades to come.

REFERENCES

1. Claeys G. Dystopia: A Natural History. — Oxford: Oxford University Press, 2017. — 544 p.
2. Sargent L.T. The Three Faces of Utopianism Revisited // Utopian Studies. — 1994. — Vol. 5, № 1. — P. 1–37.
3. Moylan T. Scraps of the Untainted Sky: Science Fiction, Utopia, Dystopia. — Boulder: Westview Press, 2000. — 340 p.
4. A'zam A. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. — Toshkent: Sharq, 2004. — 188 b.
5. Booker M.K. The Dystopian Impulse in Modern Literature. — Westport: Greenwood Press, 1994. — 199 p.
6. Jameson F. Archaeologies of the Future: The Desire Called Utopia and Other Science Fictions. — London: Verso, 2005. — 431 p.
7. Baccolini R., Moylan T. (eds.). Dark Horizons: Science Fiction and the Dystopian Imagination. — New York: Routledge, 2003. — 261 p.
8. Eggers D. The Circle. — New York: Knopf, 2013. — 497 p.
9. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. — New York: PublicAffairs, 2019. — 691 p.
10. Whitehead C. The Underground Railroad. — New York: Doubleday, 2016. — 306 p.
11. Mandel E.St.J. Station Eleven. — New York: Knopf, 2014. — 333 p.
12. Atwood M. The Testaments. — New York: Nan A. Talese, 2019. — 419 p.
13. Ma L. Severance. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2018. — 292 p.
14. Collins S. The Hunger Games. — New York: Scholastic Press, 2008. — 374 p.
15. Bloch E. The Principle of Hope. Vol. 1 / Trans. N. Plaice, S. Plaice, P. Knight. — Cambridge: MIT Press, 1986. — 528 p.

PEDAGOGIKA



Qayrat MAMBETALIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi amaliyoti" kafedrasi dotsenti v.b.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari keng qamrovda tahlil qilinadi. O'qish savodxonligining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, psixologik, pedagogik va lingvodidaktik jihatlari chuqur ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim yondashuvlari, interaktiv metodlar va metakognitiv strategiyalarning o'qish savodxonligini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, metakognitiv ko'nikmalar, interaktiv metodlar, PIRLS, PISA, kognitiv rivojlanish.*

Аннотация: в статье подробно анализируются теоретико-методологические основы развития читательской грамотности у учащихся начальных классов. Раскрываются сущность, структура и компоненты читательской грамотности, её психологические, педагогические и лингводидактические аспекты. Обосновывается значимость современных подходов, интерактивных методов и метакогнитивных стратегий в формировании читательской грамотности.

Ключевые слова: *читательская грамотность, начальное образование, метакогнитивные навыки, интерактивные методы, PIRLS, PISA.*

Annotation: this article provides an extensive analysis of the theoretical and methodological foundations of developing reading literacy among primary school students. It explores the nature, structure, and components of reading literacy from psychological, pedagogical, and linguodidactic perspectives. The importance of modern approaches, interactive methods, and metacognitive strategies in enhancing reading literacy is also substantiated.

Key words: *reading literacy, primary education, metacognitive skills, interactive methods, PIRLS, PISA.*

Kirish. XXI asr – axborot texnologiyalari va global integratsiya asri ta'lim tizimi oldiga yangi, yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bevosita uning intellektual salohiyati, fuqarolarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda shaxsning fundamental kompetensiyalaridan biri – o'qish savodxonligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'qish savodxonligi shunchaki harflarni tanish va so'zlarni biriktirib o'qish malakasi emas, balki matnni tushunish, tahlil qilish, undagi ma'lumotlardan o'z hayotiy va kasbiy vazifalarini hal etishda foydalana olish, matn mazmuniga tanqidiy munosabat bildirish va o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishni o'z ichiga olgan murakkab, ko'p qirrali hodisadir. Aynan shu sababli, PISA (Programme for International Student Assessment) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi mamlakat ta'lim tizimining sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, shuningdek, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"da o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi, avvalo, ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini

chuqur o‘rganishni va amaliyotga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS va PISA tadqiqotlari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini ta’lim sifati va samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida belgilaydi. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qish savodxonligi rivojlangan o‘quvchilar boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini rivojlantirish strategik vazifa sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish muhim yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.

“O‘qish savodxonligi” (inglizcha “reading literacy”) zamonaviy gumanitar fanlarning, xususan, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika, sotsiologiya va falsafa fanlarining kesishuv nuqtasida joylashgan murakkab va serqirra tushunchadir. Uning mohiyatini to‘liq anglash uchun ushbu tushunchaga turli ilmiy paradigmalar nuqtayi nazaridan yondashish, uning tarixiy evolyutsiyasini kuzatish va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish muhim metodologik ahamiyatga ega.

Dastavval, “savodxonlik” (literacy) va “o‘qish savodxonligi” (reading literacy) tushunchalarini farqlab olish lozim. An’anaviy ma’noda “savodxonlik” deganda o‘qish va yozishning elementar malakalarini egallaganlik tushunilgan. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyoji keskin ortishi bilan bu tushunchaning mazmuni kengayib, “funksional savodxonlik” konsepsiyasi yuzaga keldi. UNESCO ta’rifiga ko‘ra, funksional savodxonlik – bu shaxsning o‘z ijtimoiy muhitida samarali faoliyat yuritishi, o‘zining va jamiyatning rivojlanishi uchun o‘qish va yozish ko‘nikmalaridan foydalana olish qobiliyatidir[1]. “O‘qish savodxonligi” esa funksional savodxonlikning o‘zagini tashkil etuvchi, ammo undan ham kengroq ma’noga ega bo‘lgan hodisadir.

Xalqaro miqyosda o‘qish savodxonligi tushunchasining eng nufuzli va keng qamrovli ta’rifi PIRLS tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, “o‘qish savodxonligi – bu jamiyat tomonidan talab qilinadigan va shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalana olish; o‘qish orqali o‘z bilimlarini yaratish, o‘quvchilar hamjamiyatida ishtirok etish va o‘rganishni davom ettirish qobiliyatidir”[2]. Bu ta’rifda bir nechta muhim jihatlarga urg‘u berilgan: birinchidan, o‘qish passiv ma’lumot qabul qilish emas, balki aktiv ma’no yaratish jarayoni ekanligi; ikkinchidan, o‘qishning ijtimoiy tabiati, ya’ni bilimni boshqalar bilan baham ko‘rish va muhokama qilish muhimligi; uchinchidan, o‘qishning uzluksiz ta’lim va shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni.

Ilmiy adabiyotlarda o‘qish savodxonligi murakkab, ko‘p qirrali fenomen sifatida talqin etiladi. U pedagogika, psixologiya, psixolingvistika va lingvodidaktika fanlari kesishgan nuqtada shakllanadi. Psixolingvistik tadqiqotlar o‘qish jarayonini kognitiv faoliyat sifatida izohlaydi. Dastlabki yondashuvlarda o‘qish “pastdan yuqoriga” modeli asosida tushuntirilgan bo‘lib, bunda harf-tovush munosabatlari orqali ma’no shakllanadi. Keyinchalik “yuqoridan pastga” modeli paydo bo‘lib, unda o‘quvchining oldingi bilimlari va tajribasi asosiy rol o‘ynaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan, o‘qish savodxonligi shaxsning intellektual rivojida muhim o‘rin tutadi. L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘qish va yozma nutq oliy psixik funksiyalarni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. O‘qish jarayoni orqali o‘quvchi yangi bilimlarni egallaydi, tafakkurini rivojlantiradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Bu jarayon faqat individual emas, balki ijtimoiy xarakterga ham ega bo‘lib, bilimlar almashinuvi va kommunikatsiyani ta’minlaydi.

Pedagogik jihatdan o‘qish savodxonligi ta’limning asosiy maqsadi va vositasi sifatida qaraladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini shakllantirish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishining kafolati hisoblanadi. An’anaviy metodikalarda asosan, o‘qish texnikasiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar matnni chuqur tushunish, tahlil qilish va baholashga ustuvorlik beradi. Bu esa o‘quvchini passiv tinglovchidan faol o‘rganuvchiga aylantirishni talab etadi.

O‘qish savodxonligi tarkiban bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi. Kognitiv komponent o‘qishning asosiy jarayonlarini, ya’ni dekodlash, lug‘at boyligi va matnni tushunishni o‘z ichiga oladi. Motivatsion komponent o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va ichki ehtiyojini ifodalaydi. Amaliy komponent turli o‘qish strategiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Metakognitiv komponent esa o‘quvchining o‘z o‘qish faoliyatini nazorat qilish, baholash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Aynan metakognitiv ko‘nikmalar

1 UNESCO. (2004). The Plurality of Literacy and its implications for Policies and Programs. UNESCO Education Sector Position Paper. – Paris: UNESCO. P. 13.]

2 [Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Drucker, K. T. (2012). PIRLS 2011 International Results in Reading. Chestnut Hill, – MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College. P. 11/]

o‘quvchini mustaqil o‘rganuvchiga aylantiradi va uning umrbod ta’lim olishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlari o‘qish savodxonligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Interaktiv metodlar o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi, uning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, savol-javob, muhokama, klaster, insert kabi metodlar orqali o‘quvchilar matn bilan faol ishlashni o‘rganadi. Bundan tashqari, ko‘p turdagi matnlar bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy o‘qish savodxonligining muhim jihatlaridan biridir.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qish savodxonligini samarali rivojlantirish uchun faqat o‘qish texnikasini takomillashtirish yetarli emas. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bois, ta’lim jarayonida metakognitiv strategiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday strategiyalar o‘quvchiga o‘z o‘qish jarayonini anglash, tushunishni nazorat qilish va zarur hollarda strategiyani o‘zgartirish imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxsning intellektual, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qish savodxonligi murakkab, ko‘p komponentli hodisa bo‘lib, u faqat o‘qish texnikasi bilan chegaralanmaydi, balki matnni chuqur tushunish, tahlil qilish, interpretatsiya qilish va baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, o‘qish savodxonligini samarali shakllantirish uchun kognitiv, motivatsion, amaliy-faoliyatli va metakognitiv komponentlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini ta’minlash zarur. Ayniqsa, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchining o‘z o‘qish faoliyatini nazorat qilish, tushunishni monitoring qilish va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchini mustaqil o‘rganuvchiga aylantiradi hamda uning umrbod ta’lim olishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish metodlari ko‘proq o‘qish texnikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, matnni chuqur anglash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, o‘quvchini markazga qo‘yuvchi yondashuvlar hamda faol o‘qitish strategiyalaridan foydalanish zarur. Interaktiv metodlar o‘quvchining faolligini oshiradi, uning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o‘qishga bo‘lgan ijobiy motivatsiyasini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida turli janrdagi matnlar bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy axborot jamiyatida shaxs turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qila olishi va ulardan to‘g‘ri foydalanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish savodxonligi nafaqat ta’limiy, balki hayotiy kompetensiya sifatida ham qaraladi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish tizimli, ilmiy asoslangan va innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va metakognitiv strategiyalardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda yuqori darajadagi o‘qish savodxonligini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning innovatsion modellari, raqamli ta’lim vositalarining ta’siri hamda individual yondashuv asosida differensial o‘qitish metodlarini ishlab chiqish muhim ilmiy yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2004). The Plurality of Literacy and its implications for Policies and Programs. UNESCO Education Sector Position Paper. – Paris: UNESCO. P. 13.

2. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Drucker, K. T. (2012). PIRLS 2011. International Results in Reading. Chestnut Hill, – MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College. P. 11

3. Goodman, K. S. (1967). Reading: A psycholinguistic guessing game. Journal of the Reading Specialist, 6(4), 126–135.

4. Rumelhart, D. E. (1977). Toward an interactive model of reading. In S. Dornic (Ed.), Attention and performance VI (pp. 573-603). – Hillsdale, NJ: Erlbaum.

5. Выготский, Л. С. (1982). Мышление и речь. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 2. – М.: Педагогика. С. 295–310.

Shaxlo SAMANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi 3 kafedrasi
shahlosamanova84@gmail.com

DIDAKTIK O‘YINLAR ASOSIDA 5–6-SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOKOGNITIV VA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada didaktik o‘yinlar asosida 5-6-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq faolligini rivojlantirishning sotsiokognitiv va kommunikativ-pragmatik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘yin faoliyatining o‘quvchilarning nutqiy rivojiga ta’siri, ularning muloqotga kirishish faolligini oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Sotsiokognitiv yondashuv asosida o‘quvchilarning bilimlarni ijtimoiy hamkorlik orqali egallashi, kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida esa til birliklaridan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalari shakllanishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *didaktik o‘yinlar, og‘zaki nutq, nutq faolligi, sotsiokognitiv yondashuv, kommunikativ-pragmatik yondashuv.*

Annotation: this article examines the sociocognitive and communicative-pragmatic mechanisms of enhancing speaking skills of Grade 5-6 learners through didactic games. The study highlights the role of game-based learning in increasing learners’ communicative engagement and communicative language development. Within the sociocognitive framework, learning is viewed as a socially mediated process where interaction and collaboration play a crucial role. From a communicative-pragmatic perspective, learners develop the ability to use language appropriately in real-life situations.

Key words: *didactic games, oral speech, speech activity, sociocognitive approach, communicative-pragmatic approach.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются социокогнитивные и коммуникативно-прагматические механизмы развития устной речевой активности учащихся 5-6 классов на основе дидактических игр. Исследование показывает роль игровой деятельности в повышении коммуникативной активности и развитии устной речи учащихся. В рамках социокогнитивного подхода обучение рассматривается как процесс, основанный на социальном взаимодействии и сотрудничестве. Коммуникативно-прагматический подход акцентирует внимание на умении использовать язык в реальных ситуациях общения. Также анализируется влияние дидактических игр на мотивацию учащихся, снижение психологических барьеров и развитие речевой компетенции.

Ключевые слова: *дидактические игры, устная речь, речевая активность, социокогнитивный подход, коммуникативно-прагматический подход.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 5-6-sinf o‘quvchilarida og‘zaki nutq faolligini shakllantirish til o‘rganish jarayonining markaziy komponenti sifatida qaraladi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari faol muloqotga tayyorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida samarali metodlarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Didaktik o‘yinlar ushbu jarayonda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. O‘yin orqali o‘qitish nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning nutqiy faoliyatini rag‘batlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi hamda o‘rganilayotgan til birliklarini tabiiy kontekstda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur tadqiqotda didaktik o‘yinlar asosida og‘zaki nutq faolligini rivojlantirishning sotsiokognitiv va kommunikativ-pragmatik mexanizmlari tahlil qilinadi. Sotsiokognitiv yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimlari ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda shakllanadi. Bu jarayonda muloqot, hamkorlik va tajriba almashish asosiy omillar hisoblanadi. O‘yin faoliyati esa aynan ushbu omillarni faollashtiradi. Kommunikativ-pragmatik yondashuv esa tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llaniladigan vosita sifatida talqin etadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida turli rollarni bajarish orqali til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Bugungi kunda an’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarning nutq faolligini to‘liq rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmayapti. Shu bois innovatsion va interaktiv metodlarni, jumladan didaktik o‘yinlarni keng joriy etish zarur.

Adabiyotlar tahlili. Til o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashni ta’kidlaydi [1]. Olimlar fikriga ko‘ra, o‘quvchilar tilni faqat grammatik qoidalar orqali emas, balki muloqot jarayonida samarali o‘zlashtiradilar [2]. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchining kognitiv rivoji ijtimoiy muloqot orqali amalga oshadi [3]. “Yaqin rivojlanish

zonasi” konsepsiyasi didaktik o‘yinlarning samaradorligini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘yin jarayonida o‘quvchilar murakkabroq vazifalarni hamkorlikda bajarish orqali yangi bilimlarni egallaydilar. Piaget esa bolalarning kognitiv rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko‘rsatadi [4]. 5–6-sinf o‘quvchilari konkret operatsion bosqichda bo‘lib, ular uchun vizual, interaktiv va faol metodlar samarali hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar aynan ushbu xususiyatlarga mos keladi. Game-based learning nazariyasiga ko‘ra, o‘yinlar orqali o‘rganish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi [5]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlari bilan boyitilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Kommunikativ-pragmatik yondashuvda tilning funksional jihati asosiy o‘rinni egallaydi [6]. O‘quvchilar til birliklarini real vaziyatlarda qo‘llash orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Rol o‘ynash, dialog va muhokama kabi o‘yinlar bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi. Byramning interkultural kommunikativ kompetensiya nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega [7]. Unga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni faqat lingvistik bilimlar bilan cheklanmay, madaniy tushunchalarni ham qamrab oladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda didaktik o‘yinlarning psixologik ta’siri ham o‘rganilgan [8]. O‘yinlar o‘quvchilarda stressni kamaytiradi, ishtirok faolligini oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Didaktik o‘yinlar asosida og‘zaki nutq faolligini rivojlantirish uchun bir qator metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Avvalo, o‘yinlar o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. 5–6-sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli, sodda va interaktiv o‘yinlar samarali hisoblanadi. Birinchidan, rol o‘ynash (role-play) usuli keng qo‘llanishi lozim. Ushbu metod o‘quvchilarga real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Masalan, “Do‘konda”, “Sayohatda” kabi rolli o‘yinlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Ikkinchidan, axborot bo‘shlig‘i (information gap) o‘yinlari samarali hisoblanadi. Bu o‘yinlarda o‘quvchilar bir-biriga kerakli ma’lumotni yetkazish orqali muloqotga kirishadilar. Bu esa ularning nutqiy ehtiyojini shakllantiradi. Uchinchidan, muhokama va debat o‘yinlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Ular o‘z fikrlarini asoslab berishga o‘rganadilar. To‘rtinchidan, o‘yin jarayonida o‘qituvchi fasilitator rolini bajarishi zarur. Ya’ni, u nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Beshinchidan, multimodal vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kommunikativ-pragmatik mexanizmlar esa o‘quvchilarning tilni real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yinlar orqali yaratilgan sun’iy kommunikativ muhit o‘quvchilarga erkin fikr bildirish imkonini beradi. Shuningdek, o‘yinlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. An’anaviy darslarda passiv bo‘lgan o‘quvchilar ham o‘yin jarayonida faol ishtirok etadilar. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, o‘yinlarni noto‘g‘ri tashkil etish dars samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, vaqtni boshqarish ham muhim omil hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali og‘zaki nutq faolligini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta’lim nazariyalarida ko‘p komponentli tizim sifatida qaraladi. Ushbu tizimda sotsiokognitiv va kommunikativ-pragmatik mexanizmlar o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritadi. Sotsiokognitiv yondashuvga ko‘ra, o‘rganish jarayoni ijtimoiy muloqot, hamkorlik va tajriba almashish orqali amalga oshadi. Bu jarayonda o‘quvchilar bilimlarni passiv qabul qilmaydi, balki faol ravishda konstruksiya qiladi. Didaktik o‘yinlar aynan shu konstruktiv faoliyatni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Kommunikativ-pragmatik yondashuv esa tilni funksional tizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda til birliklari ularning shakliga emas, balki kommunikativ vazifasiga ko‘ra o‘rganiladi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida turli kommunikativ rollarni bajarish orqali nutqning maqsadga yo‘naltirilganligini anglaydilar. Masalan, savol berish, fikr bildirish, rozilik yoki norozilik ifodalash kabi nutqiy funksiyalar o‘yin orqali tabiiy ravishda shakllanadi.

Shuningdek, psixolingvistik nuqtai nazardan qaraganda, o‘yin faoliyati o‘quvchilarning nutqiy ishlab chiqarish jarayonini faollashtiradi. O‘yin davomida yuzaga keladigan emotsional holat va ichki motivatsiya nutqni tezroq va erkinroq ifodalashga yordam beradi. Bu esa til o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning affektiv filtrini pasaytiradi, ya’ni ular xatodan qo‘rqmasdan erkin muloqotga kirishadilar. Bu holat ayniqsa boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilari uchun muhimdir. Natijada, o‘yin asosidagi ta’lim nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar 5–6-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq faolligini rivojlantirishda samarali metod hisoblanadi. Ular sotsiokognitiv va kommunikativ-pragmatik mexanizmlar asosida o‘quvchilarning til o‘zlashtirish jarayonini faollashtiradi. O‘yinlar orqali yaratilgan interaktiv muhit o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi va kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bois ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
2. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2001.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
5. Gee J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning. – New York: Palgrave, 2003.

Дилором РИСКУЛОВА,
ЕМУ университет
Кафедра социальных наук, ассистент

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: в статье раскрывается актуальность формирования речевых компетенций у студентов в условиях современного высшего образования. Анализируются ключевые направления работы по развитию связной речи, а также их дидактические и методические особенности. На основе практического опыта преподавания в вузе делается вывод о том, что, несмотря на значительное внимание исследователей к данной проблеме, уровень владения русской речью у студентов остаётся недостаточно сформированным, что требует совершенствования существующих методических подходов.

Ключевые слова: *связная речь, речевая деятельность, коммуникативная компетенция, развитие речи, речевые умения, восприятие речи, обучение русскому языку.*

Annotation: the article highlights the relevance of developing students' speech competencies in the context of modern higher education. It analyzes the key directions of work aimed at developing coherent speech, as well as their didactic and methodological features. Based on practical teaching experience at a university, it is concluded that despite considerable scholarly attention to this issue, the level of students' proficiency in Russian speech remains insufficiently developed, which necessitates the improvement of existing methodological approaches.

Key words: *coherent speech, speech activity, communicative competence, speech development, speech skills, speech perception, teaching Russian.*

Annotatsiya: maqolada zamonaviy oliy ta'lim sharoitida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarbligi yoritilgan. Bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar, shuningdek ularning didaktik va metodik xususiyatlari tahlil qilingan. Oliy ta'limdagi amaliy pedagogik tajribaga asoslanib, ushbu muammoga tadqiqotchilar tomonidan katta e'tibor qaratilayotganiga qaramay, talabalarning rus tilidagi nutq darajasi yetarli darajada shakllanmaganligi va bu mavjud metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *bog'langan nutq, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, nutqni rivojlantirish, nutq ko'nikmalari, nutqni idrok etish, rus tilini o'qitish.*

Развитие связной речи является одной из приоритетных задач современного языкового образования в высшей школе. Связная речь рассматривается как целостное, логически выстроенное и тематически организованное высказывание, включающее систему взаимосвязанных языковых единиц, объединённых единым коммуникативным замыслом. Она отражает уровень сформированности не только языковой, но и когнитивной компетенции обучающихся, поскольку тесно связана с процессами мышления, анализа и обобщения информации.

В современной педагогической и методической науке определены основные тенденции речевого развития студентов, обоснована необходимость интеграции междисциплинарных подходов, выявлены трудности речевого взаимодействия в многоязычной среде, а также предложены различные пути формирования коммуникативной и языковой компетенций. Существенное внимание уделяется классификации типов речевых высказываний, а также психолингвистическим механизмам формирования устной и письменной речи.

Однако результаты педагогической практики в высших учебных заведениях свидетельствуют о том, что уровень развития связной русской речи у значительной части студентов не соответствует современным образовательным требованиям. Это проявляется в недостаточной логичности, последовательности и аргументированности высказываний, ограниченности словарного запаса и трудностях в построении развернутых текстов. В связи с этим особую актуальность приобретает задача не только коррекции речевых ошибок, но и их предупреждения посредством системной и целенаправленной работы.

Одним из эффективных направлений является обучение средствам межфразовой связи, обеспечивающим целостность текста. Формирование у студентов представлений о способах логического и грамматического соединения предложений способствует повышению качества их речевой продукции. Особое значение имеет осознание функций языковых единиц в тексте, а не только в пределах отдельного предложения.

В методике преподавания русского языка значительное место занимает текстоцентрический подход, в рамках которого учебный текст выступает основной единицей обучения. Он служит не только источником языкового материала, но и средством формирования навыков связной речи. Например, при изучении имени существительного важно

рассматривать его роль в организации текста, включая участие в создании связности на уровне сложного синтаксического целого.

Важным аспектом является формирование у студентов понимания уместности повторов как средства текстовой связи. Повтор существительного оправдан в научной и деловой речи, при использовании терминологии, а также в случаях, когда замена местоимением может привести к двусмысленности. Кроме того, повтор может использоваться для сохранения логической целостности текста при наличии вставных конструкций.

Связность речи определяется рядом критериев, среди которых особое место занимают логико-грамматические связи, смысловая цельность и завершённость высказывания. Неотъемлемой характеристикой связной речи является последовательность изложения, обеспечивающая структурную организованность текста. Однако следует отметить, что в образовательной практике формирование данных навыков зачастую носит несистемный характер, что обусловлено недостаточной разработанностью учебно-методических материалов и упражнений.

Как следствие, у студентов наблюдается недостаточная развитость речевых умений, что выражается в бедности словарного запаса, шаблонности выражений и трудностях в построении логически завершённых текстов. В этой связи особую значимость приобретает реализация коммуникативного подхода, ориентированного на развитие речевой деятельности в условиях поликультурной и многоязычной образовательной среды.

Важным компонентом работы с текстом является использование различных стратегий чтения, направленных на развитие навыков осмысленного восприятия информации. Необходимо формировать у студентов умения аудирования, интерпретации текста, а также навыки создания собственных высказываний различных типов и жанров. Особое внимание следует уделять развитию умений работы с информацией: её поиску, отбору, анализу и критической оценке, включая использование современных цифровых ресурсов.

Работа с текстами по специальности способствует расширению активного словарного запаса студентов и формированию профессиональной языковой компетенции. Такие задания стимулируют мыслительную деятельность, развивают гибкость мышления и предотвращают формирование речевых шаблонов. Важно, чтобы студенты могли применять усвоенные языковые средства в различных коммуникативных ситуациях, сохраняя при этом логическую целостность и связность высказывания.

Эффективность обучения во многом зависит от рациональной организации учебного процесса, в частности от сбалансированного сочетания устных и письменных видов деятельности. Существенную роль играет также интеграция различных форм работы, направленных на преодоление трудностей перехода от мысли к речи и наоборот.

Современные тенденции в методике преподавания языка ориентированы на развитие мышления студентов через формирование их речевой деятельности. Это отражается в использовании методов, способствующих развитию аналитических и критических навыков, умения аргументировать свою точку зрения и участвовать в конструктивном диалоге.

В образовательной практике широкое применение находят проектные технологии, мультимедийные презентации и цифровые инструменты обучения. Они позволяют активизировать познавательную деятельность студентов, а также способствуют преодолению психологических барьеров, таких как неуверенность и коммуникативная замкнутость.

Особое значение имеет анализ текста как универсальный метод формирования речевых навыков. Он способствует развитию умений выявлять закономерности, устанавливать причинно-следственные связи, аргументировать свою позицию и соблюдать нормы речевого поведения.

Индивидуальный подход к обучающимся, учитывающий их уровень подготовки и личностные особенности, позволяет более эффективно организовать процесс формирования связной речи.

Таким образом, овладение связной речью является важнейшим условием формирования всесторонне развитой, социально активной личности. Способность грамотно, последовательно и аргументированно выражать свои мысли, соблюдать нормы речевой культуры и эффективно взаимодействовать в коммуникации представляет собой ключевую компетенцию современного специалиста.

Литература

1. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – М., 2003.854

2. Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку. – М.: Дрофа, 2006.

3. Гаврин Г.С. К вопросу о постоянстве лексического состава фразеоло-гических единиц. – «Уч. зам. Пермского гос. пед. ун-та», вып. 25, 1960.

4.Худайкулова Ф.Х. **Культура и языка как взамосоставляющие языкового обучения**. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume – 4_Issue-1_May_2022

Наргиза НАСЫРОВА,
кандидат филологических наук,
доцент Узбекского государственного
университета мировых языков

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация: в статье рассматриваются современные инновационные подходы в системе образования, направленные на формирование профессиональной компетентности обучающихся. Анализируются основные педагогические технологии, способствующие развитию познавательной активности, критического мышления и творческих способностей студентов. Особое внимание уделяется переходу от традиционной модели обучения к деятельностно-ориентированной и личностно-центрированной образовательной парадигме. Обосновывается роль инновационных методов обучения в повышении качества подготовки специалистов в условиях глобализации и информатизации образования.

Ключевые слова: *инновационные технологии, педагогические технологии, компетентность, образовательный процесс, критическое мышление, деятельностный подход, профессиональная подготовка.*

Annotation: the article examines modern innovative approaches in the education system aimed at developing students' professional competence. It analyzes key pedagogical technologies that promote cognitive activity, critical thinking, and creative skills. Special attention is given to the transition from traditional teaching models to activity-based and student-centered educational paradigms. The role of innovative teaching methods in improving the quality of professional training under conditions of globalization and digitalization is substantiated.

Key words: *innovative technologies, pedagogical technologies, competence, educational process, critical thinking, activity-based approach, professional training.*

Annotatsiya: maqolada ta'lim tizimida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Talabalarning bilish faolligi, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. An'anaviy ta'lim modelidan faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasiga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida innovatsion o'qitish usullarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, ta'lim jarayoni, tanqidiy fikrlash, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.*

В современных условиях образование выступает как стратегический ресурс развития личности, общества и государства, определяющий перспективы социально-экономического прогресса. Переход от индустриального к постиндустриальному, а затем к информационному обществу обусловил изменение требований к качеству подготовки специалистов. Сегодня ключевое значение приобретает не только объем знаний, но и способность их эффективного применения в профессиональной и социальной деятельности, что актуализирует внедрение инновационных подходов в образовательный процесс.

Современные образовательные технологии должны основываться на социальном заказе общества, учитывать профессиональные интересы будущих специалистов, а также индивидуальные и личностные особенности обучающихся. В этой связи особую значимость приобретает интеграция инновационных методов обучения с четким пониманием целей и задач профессиональной подготовки.

Применение инновационных методов обучения способствует преодолению традиционных стереотипов в преподавании дисциплин, формированию гибкости мышления и развитию креативных способностей студентов. Активные формы организации учебной деятельности, такие как проектная работа, подготовка публичных выступлений, участие в дискуссиях, коллективное обучение, моделирование проблемных ситуаций, а также создание мультимедийных продуктов (видеоматериалов и презентаций), являются эффективными средствами формирования профессиональных компетенций.

Переход от объяснительно-информационной модели обучения к деятельностно-ориентированной обусловлен активным внедрением информационно-коммуникационных технологий. Использование электронных образовательных ресурсов, цифровых

платформ и мультимедийных средств расширяет возможности самостоятельной познавательной деятельности обучающихся и способствует их личностному развитию.

В современной педагогической практике широко применяются разнообразные инновационные технологии, включая проблемное и игровое обучение, технологии групповой и коллективной деятельности, имитационные методы, кейс-метод, проектную деятельность, обучение в сотрудничестве, а также технологии развития критического и креативного мышления.

Разработка и внедрение инновационных педагогических технологий является закономерным этапом развития образования. Эти технологии характеризуются новым подходом к организации учебно-познавательной деятельности, ориентированным на активное участие обучающихся в образовательном процессе.

Инновационный подход к обучению позволяет организовать образовательный процесс таким образом, чтобы он был не только эффективным, но и мотивирующим. В этом контексте важным является создание образовательной среды, способствующей активному вовлечению обучающихся в процесс познания. Как отмечал Цицерон, истинное обучение возможно тогда, когда возникает эмоциональный отклик, когда «зажигаются глаза слушающего».

Применение таких технологий, как «Кластер» и «ЗХУ» (знаю — хочу узнать — узнал), способствует развитию критического мышления, формированию навыков анализа и систематизации информации, а также стимулирует самостоятельную познавательную деятельность обучающихся.

Важной особенностью инновационных технологий является их ориентация на результат. Основной целью становится не накопление знаний как таковых, а формирование способности применять их в практической деятельности. Данный подход реализуется через деятельностную модель обучения, при которой обучающийся активно включен в процесс познания.

Инновационные технологии изменяют характер взаимодействия между преподавателем и студентом. Преподаватель выступает не только как источник знаний, но и как организатор образовательного процесса, консультант и наставник. Особое значение приобретает этап подготовки учебного занятия, от которого во многом зависит его эффективность.

Таким образом, инновационные образовательные технологии представляют собой систему, ориентированную на личностное развитие обучающихся. Они создают условия для индивидуализации обучения с учетом психологических, когнитивных и физиологических особенностей студентов, включая уровень внимания, особенности памяти, темп усвоения материала и другие факторы.

Проведённый теоретический анализ и обобщение педагогической практики позволяют утверждать, что инновационные технологии обучения существенно расширяют возможности образовательного процесса. Они обеспечивают активное вовлечение студентов в учебно-познавательную деятельность, способствуют развитию самостоятельности, критического мышления, коммуникативных навыков и творческого потенциала. Благодаря этому обучающиеся становятся не пассивными получателями информации, а активными субъектами образовательного процесса.

Особую значимость приобретает переход от традиционной объяснительно-иллюстративной модели обучения к деятельностно-ориентированной и личностно-центрированной парадигме. Данный переход предполагает изменение роли преподавателя, который выступает не только как носитель знаний, но и как организатор образовательной среды, наставник и консультант, направляющий процесс самостоятельного познания студентов. В свою очередь, обучающиеся получают возможность самостоятельно конструировать знания, анализировать информацию и применять её в практических ситуациях.

Таким образом, можно сделать вывод, что инновационные педагогические технологии выполняют системообразующую роль в модернизации образования. Их внедрение обеспечивает не только повышение уровня профессиональной подготовки специалистов, но и способствует всестороннему развитию личности обучающегося, формированию его готовности к эффективной деятельности в условиях современного общества.

Перспективы дальнейшего исследования связаны с более глубоким изучением механизмов внедрения инновационных технологий в различные уровни образования, разработкой эффективных методических моделей их применения, а также оценкой их влияния на качество образовательных результатов и профессиональную успешность выпускников.

Литература

1. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – М., 2003.854

2. Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку. – М.: Дрофа, 2006.

3. Гаврин Г.С. К вопросу о постоянстве лексического состава фразеоло-гических единиц. – «Уч. зам. Пермского гос. пед. ун-та», вып. 25, 1960.

4. Короглу Х. Персидско-русский словарь пословиц и поговорок. – Тегеран: Готенберг,1993.

Махсудахон ПАРПИЕВА,
Ферганская область,
Ферганский государственный технический университет,
старший преподаватель
кафедры узбекского языка и обучения языков
maqsudaparpiyeva@gmail.com

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ДУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ КАК ФАКТОРА ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ РАБОЧИХ И ИНЖЕНЕРНЫХ КАДРОВ

Аннотация: статья посвящена анализу дуальной системы профессионального обучения как инструмента подготовки квалифицированных специалистов, востребованных на рынке труда Узбекистана. Отмечается роль тесного взаимодействия вузов и производственных предприятий для формирования практических компетенций, востребованных на современном высокотехнологичном рынке труда.

Ключевые слова: *дуальное обучение, профессиональное образование, инженерные кадры, практическая компетенция, Узбекистан, рынок труда.*

Annotation: the article analyzes the dual system of vocational education as an effective tool for training qualified specialists in demand on the labor market of Uzbekistan. Particular attention is paid to the role of close cooperation between higher education institutions and industrial enterprises in the formation of practical competencies required in today's high-tech labor market. The dual model enables the integration of theoretical knowledge with real production experience, increases graduates' employability, and improves the quality of professional training. The paper highlights the advantages and necessary conditions for the successful implementation of dual education programs in Uzbekistan, emphasizing their importance for the development of engineering and technical personnel.

Key words: *dual education, vocational education, engineering personnel, practical competencies, Uzbekistan, labor market.*

Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekiston mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash vositasi sifatida dual kasbiy ta'lim tizimi tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi yaqin hamkorlikning kasbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Dual ta'lim modeli nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish hamda muhandislik va texnik kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash imkonini beradi. Maqolada O'zbekistonda dual ta'lim tizimini joriy etishning afzalliklari va muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *dual ta'lim, kasbiy ta'lim, muhandislik kadrlar, amaliy kompetensiya, O'zbekiston, mehnat bozori.*

Быстрорастущая экономика Узбекистана формирует высокий спрос на квалифицированных специалистов технического и инженерного профиля. В условиях активного внедрения современных технологий и производственных инноваций такие кадры становятся ключевым ресурсом для развития предприятий и регионов. Однако образовательные программы вузов не всегда успевают адаптироваться к изменяющимся требованиям работодателей. Наблюдая за экономикой и промышленностью развитых стран, мы можем увидеть, насколько важную роль играют профессиональные кадры в развитии той или иной сферы. В Узбекистане также требуется современный подход к процессу подготовки молодых кадров в сфере текстильной промышленности.

Высокий спрос на инженеров-механиков, инженеров-технологов, инженеров-химиков, инженеров-системотехников, дизайнеров и маркетологов, участвующих во всей цепочке производства - от первичной переработки хлопка до изготовления готовой продукции. Однако подготовка таких кадров по традиционной системе образования не отвечает современным требованиям рынка труда.

Одним из наиболее эффективных решений является дуальная система профессионального обучения, предполагающая сочетание теоретического образования в вузе с практическим обучением на производстве [1]. В международной практике дуальные программы (apprenticeships) доказали свою эффективность в обеспечении трудоустройства молодых специалистов и развитии профессиональных компетенций [3].

Слово «дуальный» происходит от латинского слова и означает нечто, состоящее из двух частей. Дуальное образование – это система, которая позволяет студенту совмещать обучение с работой в организации, соответствующей его специализации. В этом случае молодые люди тратят 2–3 дня на получение теоретических знаний в учебном заведении и 3–4 дня – на приобретение практических навыков в реальных производственных процессах на предприятиях и в организациях.

В Узбекистане с 2022 года по инициативе Президента Шавката Мирзиёева внедряется новая система дуального обучения в вузах. Она предполагает партнёрство университетов с промышленными предприятиями и бизнес-

структурами, формирование практико-ориентированных учебных задач, наставничество со стороны специалистов-практиков и повышение уровня подготовки инженерных и технических кадров. Пресс-туры Министерства высшего образования, науки и инноваций позволяют наблюдать реализацию этих механизмов на практике [1].

Согласно постановлению Кабинета Министров от 16 января текущего года «О мерах по организации дуального образования в системе высшего образования», начиная с 2025/2026 учебного года в системе высшего образования будет поэтапно внедряться система дуального образования и будет создана система дуального образования «Обладатель профессии». Данным постановлением также утверждено Положение о порядке организации дуального образования в системе высшего образования. Положение устанавливает механизмы организации процесса дуального образования, координации теоретической и практической подготовки, взаимодействия высших учебных заведений с производственными предприятиями. Необходимо отметить, что целью внедрения дуального образования в нашей республике является, прежде всего, подготовка квалифицированных и современных профессиональных кадров среднего звена во всех отраслях экономики, создание широких возможностей для поддержки интереса молодежи к получению профессий и специальностей.

Преимущества и ключевые условия дуального обучения

Преимущества дуальной системы включают:

– максимальную приближенность образовательного процесса к реальным производственным требованиям;

– высокий уровень трудоустройства выпускников;

– развитие разносторонних профессиональных и общекультурных компетенций;

– стимулирование бизнеса к инвестициям в образование;

– гарантированное трудоустройство после завершения обучения.

Для успешной реализации необходимо:

– интеграция теоретического и практического обучения (30 % теория / 70 % практика);

– погружение студентов в производственный процесс;

– методическая поддержка и наставничество со стороны предприятий;

– модернизация образовательных программ с учётом требований рынка труда и цифровых компетенций [2; 3; 7].

Дуальная система профессионального обучения в Узбекистане представляет собой перспективный инструмент подготовки квалифицированных инженерных и рабочих кадров. Опыт зарубежных стран, российские пилотные проекты и инициатива Президента Узбекистана показывают, что успешная реализация модели требует:

1. модернизации образовательных программ с учётом практических потребностей предприятий;

2. активного участия работодателей на всех этапах подготовки;

3. устойчивой институциональной инфраструктуры, обеспечивающей качество практического обучения.

Таким образом, внедрение дуальной системы профессионального обучения в Узбекистане является стратегически важным направлением модернизации высшего и профессионального образования. Сочетание теоретической подготовки в образовательных учреждениях и практического обучения на предприятиях позволяет значительно повысить качество подготовки инженерных и рабочих кадров, их адаптацию к реальным условиям производства и требованиям современного рынка труда. Успешная реализация дуального обучения требует активного участия работодателей, модернизации образовательных программ, а также создания устойчивой нормативно-институциональной базы. В перспективе развитие дуальной системы будет способствовать формированию конкурентоспособного человеческого капитала и обеспечению устойчивого социально-экономического развития Республики Узбекистан.

Литература

1. Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Пресс-тур по внедрению дуальной системы обучения в вузах. – Ташкент, 2022.

2. Кривоносов А. М., Басовский Д. А. Возможности дуальной модели образования на примере СПб ГБПОУ «Колледж строительной индустрии и городского хозяйства» // Вестник колледжа строительной индустрии и городского хозяйства. 2017. С. 6–9.

3. OECD. Vocational Education and Training Systems in Nine Countries — Germany / OECD Publishing. 2025. — Режим доступа: https://www.oecd.org (дата обращения: 03.12.2025).

4. OECD. Vocational education and training in Switzerland / OECD Publishing. 2025. — Режим доступа: [https://www.oecd.org] (https://www.oecd.org) (дата обращения: 03.12.2025).

5. Euler D. Germany's dual vocational training system: possibilities for and limitations to transferability / Bertelsmann Stiftung. — 2016/2017. — Режим доступа: https://www.bertelsmann-stiftung.de (дата обращения: 03.12.2025).

6. Strebel A. Creating Apprenticeships in Switzerland: the case of the cableway mechanics. 2021. — Режим доступа: https://www.dcdualvet.org (дата обращения: 03.12.2025).

7. International Labour Organization (ILO). Digital transformation of apprenticeship systems: Emerging opportunities and barriers. — 2022. — Режим доступа: https://www.ilo.org (дата обращения: 03.12.2025).

8. Cedefop. The changing nature and role of vocational education and training in Europe. 2018. — Режим доступа: https://www.cedefop.europa.eu (дата обращения: 03.12.2025).



PSIXOLOGIYA

Raxmboy YARMATOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari doktori, professori
r.b.yarmatov@gmail.com

RAHBAR SHAXSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Ijtimoiy muloqot, empatiya, konfliktlarni hal qilish, stressga chidamlilik kabi omillar rahbarlik faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston va xorijiy tajribalar solishtirilib, yetakchi metodlar, jumladan, treninglar, coaching, mentorlik va rolli o‘yinlar orqali kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Psixologik barqarorlikni oshirish rahbarlarning samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: *rahbar, ijtimoiy-psixologik kompetensiya, trening, coaching, empatiya, kommunikatsiya.*

Annotation: this article analyzes modern methods for developing the socio-psychological competence of leaders. Key factors such as social communication, empathy, conflict resolution, and stress tolerance are highlighted as essential in leadership. The study compares experiences from Uzbekistan and foreign practices, exploring training, coaching, mentoring, and role-playing as key development tools. Psychological stability is emphasized as a vital factor in improving leadership effectiveness.

Key words: *leadership, socio-psychological competence, training, coaching, empathy, communication.*

Аннотация: в статье рассматриваются современные методы формирования социально-психологической компетентности руководителя. Такими важными аспектами являются социальная коммуникация, эмпатия, разрешение конфликтов и устойчивость к стрессу. В рамках исследования проводится сравнение узбекского и зарубежного опыта, анализируются такие методы развития, как тренинги, коучинг, наставничество и ролевые игры. Психологическая устойчивость определяется как важнейший фактор эффективности руководителя.

Ключевые слова: *руководитель, социально-психологическая компетентность, тренинг, коучинг, эмпатия, коммуникация.*

Zamonaviy tashkilotlar bugungi kunda rahbarlardan faqatgina an’anaviy boshqaruv ko‘nikmalari, ya’ni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va resurslarni taqsimlash kabi funksiyalarni emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik kompetensiyani ham egallagan bo‘lishlarini talab qilmoqda. Bu tendensiya global miqyosda kuzatilmoqda va inson kapitaliga asoslangan boshqaruv konsepsiyasi doirasida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya deganda rahbarning o‘z jamoasi bilan samarali muloqot qilish, empatiya, faol tinglash, stressni boshqarish, konfliktsiyalarni hal qilish, hissiy barqarorlikni saqlab qolish va yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirish kabi ko‘nikmalari tushuniladi. Mashhur amerikalik psixolog Daniel Goleman (1998) o‘zining “Emotional Intelligence” asarida rahbarlikdagi muvaffaqiyatning 80 foizi aynan emotsional va ijtimoiy qobiliyatlar bilan bog‘liqligini asoslab bergan. Goleman ta’kidlaganidek, yuqori IQ (intellektual koeffitsiyent) muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo‘lsa-da, yetakchilikdagi haqiqiy farqni EI (emotsional intellekt) darajasi belgilaydi [1]. Ushbu qarashlar zamonaviy HR boshqaruv tizimlarida keng qo‘llanilib, jamoani boshqarish, xodimlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish va tashkilot madaniyatini rivojlantirishda asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar mavjud. Xususan, Toirova (2022) tomonidan respublikadagi turli sohalarda faoliyat yurituvchi rahbarlar ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lgan rahbarlar o‘z jamoalarida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda, xodimlar motivatsiyasini oshirishda va ishdagi stress omillarini kamaytirishda sezilarli darajada samarali natijalarga erishmoqda [2: 55-60]. Bu esa ijtimoiy kompetensiyaning rahbarlik faoliyatidagi real ahamiyatini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy psixologik va pedagogik metodlardan foydalanilmoqda. Jumladan, interaktiv treninglar rahbarlarga nazariy bilimlarni amaliy holatlarda qo‘llash imkonini beradi. Bu mashg‘ulotlar orqali rahbarlar

turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirib, konfliktlarni hal qilish, emotsional reaksiyalarni boshqarish, samarali jamoa muloqotini olib borish bo‘yicha real ko‘nikmalarni egallaydilar. Treninglar guruhiy muhokama, rolli o‘yinlar, “case-study” va “feedback” sessiyalarini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, coaching metodikasi orqali rahbarning shaxsiy refleksiyasi, o‘zini tahlil qilish qobiliyati va maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Coaching – bu psixologik qo‘llab-quvvatlashga asoslangan, rahbarning ichki resurslarini safarbar etishga qaratilgan o‘ziga xos metoddir. Bu jarayonda rahbar o‘z muammolarini chuqurroq anglaydi, imkoniyatlarini tahlil qiladi va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rganadi. Shuningdek, 360-darajali baholash usuli orqali rahbar o‘z faoliyatiga atrofdagilarning (rahbarlari, hamkasblari, bo‘ysunuvchilari) bahosini olish orqali o‘zini anglash darajasini chuqurlashtiradi. Bu yondashuv nafaqat obyektiv tahlil, balki o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi [3]. 360-darajali baholash jahon amaliyotida keng qo‘llaniladi va ko‘plab ilg‘or kompaniyalar ushbu tizimdan foydalanib, rahbarlik sifatini baholashda yuqori natijalarga erishmoqda.

Xorijiy tajribada rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirishda mentorlik tizimi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim nafaqat yangi rahbarlarni kasbiy jihatdan tayyorlash, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya kabi mamlakatlarda mentorlik jarayoni strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida qaraladi. Ushbu tizim orqali tajribali rahbarlar yangi yetakchilarni nafaqat bilim va tajriba bilan ta’minlaydi, balki ularni ijtimoiy ko‘nikmalar, liderlik etikasi, emotsional barqarorlik kabi muhim kompetensiyalarni egallashga ham yo‘naltiradi. Masalan, AQShda faoliyat yurituvchi Korn Ferry instituti tomonidan olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mentorlik dasturlarida qatnashgan rahbarlar o‘z kasbiy faoliyatida 25 foizga yuqori natijalarga erishgan. Bu faqatgina moddiy yoki lavozaviy o‘sish emas, balki ularning rahbarlik sifati, tashabbuskorlik darajasi, qaror qabul qilishdagi aniqligi va ijtimoiy ta’sir kuchining ortganini anglatadi [4]. Mentorlik ta’siri ostida ishlagan rahbarlar muammoli vaziyatlarda murosaga kelish, jamoadagi nizolarni boshqarish, xodimlarga motivatsiya berish kabi ko‘nikmalarni yanada puxta egallaganliklari aniqlangan.

Bunday yondashuv ayniqsa, o‘zgaruvchan mehnat bozori va tezkor raqobat sharoitida o‘zini yangilab boradigan, doimiy o‘rganishga ochiq, zamonaviy yetakchilarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mentorlik jarayonida tajriba va maslahat almashinuvi orqali shogirdlar nafaqat texnik yoki strategik bilimlarga ega bo‘lishadi, balki rahbar sifatida insoniy qadriyatlar, empatiya, mas’uliyat, madaniy sezuvchanlik kabi jihatlar bo‘yicha ham o‘sishadi. Shu jihatdan qaraganda, mentorlik faqatgina individual taraqqiyotga emas, balki umumiy tashkilot madaniyati va samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, tashkilotda bilimlar almashinuvi, avlodlar uzviyligi, doimiy o‘qitish va o‘zini rivojlantirishga asoslangan innovatsion muhit shakllanadi. Mentorlik tizimining samaradorligi xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lib, ko‘plab ilg‘or kompaniyalar (Google, Microsoft, IBM, PwC va boshqalar) ushbu metodikani boshqaruv siyosatining ajralmas qismi sifatida qo‘llashmoqda.

O‘zbekistonda esa mentorlik tizimi endigina shakllanayotgan bosqichda bo‘lsa-da, ayrim sohalarda, jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida ijobiy natijalar bera boshladi. Xususan, sog‘liqni saqlash muassasalarida tajribali vrachlarning yosh mutaxassislarga mentorlik qilishi orqali nafaqat kasbiy mahorat, balki psixologik tayyorgarlik ham oshirilayotgani kuzatilmoqda. Hasanovaning (2023) tadqiqotida keltirilishicha, mentorlik orqali rivojlangan rahbarlar jamoa ichidagi muammoli vaziyatlarga nisbatan sezgirlik bilan yondashishni va samimiy muloqotni rivojlantirishni o‘rganishgan [5:23-27]. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv metodlarida rolli o‘yinlar va simulyatsion mashg‘ulotlar orqali rahbarlarning emotsional va ijtimoiy tayyorgarlik darajasi oshirilmoqda. Bunday amaliy yondashuvlar rahbarlarni murakkab, ziddiyatli holatlarga tayyorlash, qaror qabul qilishda tezkorlik, empatiya, stressga bardoshlilik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa, davlat boshqaruvi, xalqaro diplomatiya, kompaniya boshqaruvi kabi yuqori bosim ostida ishlanadigan sohalarda dolzarbdir.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda G‘arb tajribasida keng qo‘llanilayotgan mindfulness texnikalari – ya’ni ongli hushyorlik, ichki holatni kuzatish va hissiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar – rahbarlar uchun samarali psixologik tayyorgarlik vositasiga aylangan. Bu yo‘nalishda amerikalik psixolog Jon Kabat-Zinn tomonidan ishlab chiqilgan mindful leadership (ongli liderlik) modeli ayniqsa diqqatga loyiqdir. Mazkur model asosida rahbarlar o‘z ichki dunyosi, stress omillariga nisbatan munosabati, shuningdek, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarni ongli boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishadi [11: 144-156]. Hozirda ushbu model Google, Intel, General Mills kabi yirik

kompaniyalarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda. Biroq O‘zbekiston kabi madaniy jihatdan o‘ziga xos jamiyatlarda, ayniqsa kollektivizm, murosaga intilish, kattalarni hurmat qilish, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lgan sharoitda, G‘arbda ishlab chiqilgan individualistik yondashuvlarni bevosita qo‘llash samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini shakllantirishda ushbu madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda, moslashtirilgan, milliy qadriyatlarga uyg‘un metodlarni ishlab chiqish dolzarbdir. Bu esa nafaqat rahbarlarning shaxsiy yuksalishini, balki jamoadagi ijtimoiy barqarorlik va tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini shakllantirish bugungi kunda nafaqat alohida bir shaxsning muvaffaqiyati, balki butun tashkilotning samaradorligi va barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar — bu rahbarning jamoa bilan samarali muloqot o‘rnatishi, turli shaxslar bilan ijobiy munosabatlar shakllantirishi, muammoli vaziyatlarda murosaga kelish qobiliyati, empatiya va stressga chidamlilik darajasi kabi murakkab va ko‘p qirrali ko‘nikmalar majmuasidir. Mazkur kompetensiyalar yaxshi shakllanganda, rahbar o‘z jamoasida sog‘lom psixologik muhitni yaratib, xodimlarning motivatsiyasini oshirishi, ularda ishonch uyg‘otishi va mehnat unumdorligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda uzluksiz o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash, teskari aloqa olish, coaching va mentoring, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, madaniy o‘ziga xosliklar va mahalliy tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o‘quv dasturlar bu jarayonda yuqori samara beradi. Shu bilan birga, xalqaro ilg‘or tajribalarni ham sinchkovlik bilan o‘rganish, ularni mahalliy ijtimoiy-psixologik sharoitga moslashtirish orqali mukammal yondashuvlarni shakllantirish mumkin. Shunday qilib, rahbarlar ijtimoiy-psixologik jihatdan barkamol bo‘lsa, ular o‘z jamoalariga nafaqat samaradorlik, balki barqaror taraqqiyot, ijodiy yondashuv va insoniy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv tamoyillarini ham olib kiradilar. Bu esa uzoq muddatli muvaffaqiyat va raqobatbardoshlikning asosiy garovidir. Shu sababli, har bir tashkilot rahbariyati ijtimoiy-psixologik kompetensiyani shakllantirishni strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman D. (1998). Working with Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books.
2. Toirova M.Rahbar shaxsida ijtimoiy kompetensiyaning o‘rni. Ijtimoiy fanlar jurnali. 2022.4(2), 55–60.
3. Alimo‘v R.Ijtimoiy psixologik baholashda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti.2021.
4. Korn Ferry Institute (2020). Mentorship and Leadership Success.
5. Xasanova Z.O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida mentorlik yondashuvlari. Psixologik tadqiqotlar. 2023. 3(1), 23–27.
6. Kabat-Zinn J. (2005). Wherever You Go, There You Are: Mindfulness Meditation in Everyday Life. Hachette Books.
7. Toirova M.Rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini aniqlash bo‘yicha empirik tadqiqot natijalari. // Psixologiya va Hayot ilmiy-amaliy jurnali. 2022. №3, 56–61-betlar
8. Boyatzis R.E. & McKee A. (2005). Resonant Leadership: Renewing Yourself and Connecting with Others Through Mindfulness, Hope, and Compassion. Harvard Business School Press.
9. Korn Ferry Institute (2020). The Value of Mentorship in Leadership Development. www.kornferry.com
10. Xasanova D. (2023). Ta’lim tizimida mentorlik amaliyotining joriy etilishi va natijalari. // O‘zbekiston Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali, №2, 44–49-betlar.
11. Kabat-Zinn J. (2003). Mindfulness-Based Interventions in Context: Past, Present, and Future. Clinical Psychology: Science and Practice, 10(2), 144–156.
12. Salovey P. & Mayer J.D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, Vol. 9(3), 185–211.
13. Карпова Е.В. (2019). Социально-психологическая компетентность руководителя как фактор управления коллективом. // Психология и управление, №1, с. 37–42.
14. Sodiqova G. (2021). Rahbar shaxsining kommunikativ kompetensiyasi va uni shakllantirish yo‘llari. // Ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 71–75-betlar.
15. Robbins S.P. & Judge T.A. (2019). Organizational Behavior (18th ed)

Shokhsanam TURGUNOVA,
Teacher
Department of Applied Aspects of English language,
Uzbekistan State university of World languages

THE PHENOMENON OF SPEAKING ANXIETY AMONG UNIVERSITY STUDENTS: A PSYCHOLINGUISTIC PERSPECTIVE

Annotation: in contemporary language education, communicative competence is widely recognized as a fundamental outcome of successful learning. However, many university students experience significant psychological barriers when attempting to speak in a foreign language, even when they possess sufficient linguistic knowledge. This article explores the phenomenon of speaking anxiety from both psychological and linguistic perspectives, emphasizing the role of emotional, cognitive, and social factors. Drawing on research from Second Language Acquisition and Psycholinguistics, the paper analyzes the causes and consequences of speaking anxiety and proposes pedagogical strategies aimed at reducing its impact.

Key words: *speaking anxiety, foreign language learning, affective factors, communicative competence, motivation.*

Аннотация: в современном языковом образовании коммуникативная компетентность широко признана как основополагающий результат успешного обучения. Однако многие студенты университетов сталкиваются со значительными психологическими барьерами при попытке говорить на иностранном языке, даже обладая достаточными языковыми знаниями. В данной статье рассматривается феномен тревожности при разговорной речи как с психологической, так и с лингвистической точек зрения, с акцентом на роль эмоциональных, когнитивных и социальных факторов. Опираясь на исследования в области усвоения второго языка и психолингвистики, в статье анализируются причины и последствия тревожности при разговорной речи и предлагаются педагогические стратегии, направленные на снижение ее влияния.

Ключевые слова: *тревожность при разговорной речи, изучение иностранного языка, аффективные факторы, коммуникативная компетентность, мотивация.*

Annotatsiya: zamonaviy til ta’limida kommunikativ kompetensiya muvaffaqiyatli o’rganishning asosiy natijasi sifatida keng tan olingan. Biroq, ko’plab universitet talabalari, hatto yetarli til bilimiga ega bo’lsalar ham, chet tilida gapirishga urinishda jiddiy psixologik to’siqlarga duch kelishadi. Ushbu maqolada nutq xavotiri hodisasi ham psixologik, ham lingvistik nuqtai nazardan o’rganiladi, hissiy, kognitiv va ijtimoiy omillarning rolini ta’kidlaydi. Ikkinchi tilni o’zlashtirish va psixolingvistik tadqiqotlarga tayanib, maqolada nutq xavotirining sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi va uning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: *nutq xavotiri, chet tilini o’rganish, affektiv omillar, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya.*

Introduction

In modern language education, the ability to communicate effectively in a foreign language has become a key academic and professional requirement. Universities increasingly emphasize speaking skills as a central component of communicative competence. Despite this emphasis, a large number of students remain hesitant to engage in oral communication activities. This issue is particularly noticeable in English as a Foreign Language (EFL) contexts, where students often demonstrate adequate knowledge of grammar and vocabulary but struggle to express themselves verbally.

This gap between competence and performance has been widely explored in Second Language Acquisition research. One of the primary explanations lies in psychological factors, particularly speaking anxiety. Students frequently experience fear, tension, and self-doubt when required to speak, which prevents them from actively participating in classroom interactions. Understanding this phenomenon is essential for improving both teaching practices and learning outcomes.

Theoretical Background

The process of language learning is not purely cognitive but is deeply influenced by emotional and psychological variables. One of the most influential frameworks explaining this relationship is the Affective Filter Hypothesis. This theory suggests that emotional factors such as anxiety, motivation, and self-confidence act as a filter that can either facilitate or block language acquisition. When learners feel anxious or stressed, their ability to process input and produce output is significantly reduced.

Another important theoretical concept is self-efficacy, introduced by Albert Bandura. Self-efficacy refers to an individual’s belief in their ability to successfully perform a task. In language learning, students with high self-efficacy are more likely to take risks and engage in communication, while those with low self-efficacy tend to avoid speaking situations. This avoidance further reinforces their anxiety and limits their progress. Additionally, motivation plays a crucial role in language learning. Learners who are intrinsically motivated are more likely to overcome anxiety and actively participate in speaking tasks. Therefore, the interaction between motivation and anxiety is a key factor influencing communicative behavior.

Causes of Speaking Anxiety

Speaking anxiety among university students is a

multifaceted issue influenced by various interrelated factors. One of the most significant causes is the fear of making mistakes. In many traditional educational settings, accuracy is prioritized over fluency, leading students to associate errors with failure. This mindset discourages risk-taking and prevents learners from practicing speaking.

Fear of negative evaluation also plays a critical role. Students are often concerned about how they are perceived by their peers and teachers. The possibility of being judged or criticized creates psychological pressure, which inhibits spontaneous communication. This fear is especially strong in classroom environments where students are required to speak in front of others. Another important factor is the lack of exposure to authentic language use. Many students have limited opportunities to practice speaking outside the classroom. As a result, they do not develop the automaticity and fluency needed for effective communication. This lack of practice increases their anxiety when they are required to speak.

Perfectionism further exacerbates the problem. Some learners set unrealistically high standards for themselves and avoid speaking unless they can produce flawless sentences. This tendency reduces participation and limits opportunities for improvement. Over time, avoidance behavior becomes habitual, making it more difficult to overcome anxiety.

Research Insights

Empirical research consistently demonstrates the negative impact of speaking anxiety on language learning outcomes. Studies show that students with high levels of anxiety tend to participate less frequently in classroom discussions. This reduced participation limits their exposure to meaningful practice, which is essential for developing communicative competence.

Another important finding is that speaking anxiety is context-dependent. Students may feel more comfortable speaking in small groups or informal settings but experience increased anxiety in formal presentations or examinations. This suggests that classroom environment and task design play a crucial role in shaping students' emotional experiences.

Strategies to Overcome Speaking Anxiety

Addressing speaking anxiety requires a comprehensive and student-centered approach. One of the most effective strategies is creating a supportive classroom environment where mistakes are viewed as a natural part of the learning process. Teachers should encourage students to take risks and emphasize communication over perfection. Collaborative learning activities such as pair work and group discussions can significantly reduce anxiety. These activities provide a less intimidating context for communication, allowing students to practice speaking in a more relaxed setting. Over time, this helps build confidence and improve fluency.

Providing constructive feedback is essential for building self-confidence. Teachers should focus on students' progress and strengths rather than only correcting errors. Positive reinforcement encourages learners to continue participating and improves their overall performance. Gamification is another effective strategy for reducing anxiety. Game-based activities create a fun and interactive learning environment, shifting the focus from performance to participation. This reduces stress and increases engagement.

Additionally, the use of technology can support language learning by providing opportunities for practice in low-pressure environments. Online platforms, language learning apps, and virtual communication tools allow students to practice speaking without the fear of immediate judgment.

Discussion

Speaking anxiety is a complex phenomenon that cannot be explained solely in linguistic terms. It is deeply rooted in psychological, cognitive, and social factors. Therefore, an interdisciplinary approach that combines insights from linguistics and psychology is essential for understanding and addressing this issue.

Teachers play a crucial role in reducing speaking anxiety. Their attitudes, teaching methods, and feedback significantly influence students' confidence and willingness to participate. By creating a supportive and inclusive learning environment, teachers can help students overcome their fears and develop communicative competence.

Conclusion

Speaking anxiety remains a significant barrier in foreign language education, particularly among university students. Despite having sufficient linguistic knowledge, many learners struggle to express themselves due to psychological constraints. This highlights the importance of addressing emotional factors alongside traditional language instruction. Reducing speaking anxiety requires a combination of effective teaching strategies, including supportive classroom environments, increased opportunities for interaction, and positive feedback. By focusing on both cognitive and emotional aspects of learning, educators can help students develop confidence and improve their speaking skills.

References:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. – New York: Freeman.
2. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
3. Dörnyei, Z. (2005). The Psychology of the Language Learner. Lawrence Erlbaum.
4. Gardner, R. C. (2004). Attitude/Motivation Test Battery. University of Western Ontario.

KICHIK TADQIQOT









Durdona BAHRONOVA,
SamDU magistranti

SADDI ISKANDARIY DOSTONIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklarning lisoniy tabiati hamda ularning asar syujetidagi funksional-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Badiiy matnda atoqli otlar, xususan, antroponim va toponimlarning o‘rni, ularning uslubiy va estetik yuklamalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, muallifning nom tanlash mahorati va bu birliklarning doston g‘oyaviy mazmunini ochib berishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *onomastika, antroponim, toponim, semantika, Alisher Navoiy, lisoniy manzara, funksional xususiyat, epik doston, badiiy mahorat.*

Annotation: this article explores the linguistic nature of onomastic units in Alisher Navoi’s Epic “Saddi Iskandarius” as well as their functional-semantic properties in the plot of the work. The artistic text analyzes the role of proverbial nouns, in particular, anthroponyms and toponyms, their methodological and aesthetic loading from a scientific point of view. It also highlights the author’s skill in choosing a name and the importance of these units in revealing the ideological content of the saga.

Key words: *onomastics, anthroponymy, toponymy, semantics, Alisher Navoi, linguistic landscape, functional feature, epic epic epic, artistic skill.*

Аннотация: в данной статье исследуется языковая природа ономастических единиц в эпосе Алишера Навои “Садди Александрийский”, а также их функционально-семантические особенности в сюжете произведения. Роль именитых существительных, в частности антропонимов и топонимов, их стилистическая и эстетическая нагрузка в художественном тексте анализируются с научной точки зрения. Освещается также мастерство автора в выборе имени и значение этих единиц в раскрытии идейного содержания эпоса.

Ключевые слова: *ономастика, антропоним, топоним, семантика, Алишер Навои, языковой ландшафт, функциональная характеристика, эпический эпос, художественное мастерство.*

Alisher Navoiy ijodining gultoji hisoblangan “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni – “Saddi Iskandariy” nafaqat falsafiy-didaktik ko‘lami, balki g‘oyat boy lisoniy xazinasi bilan ham ajralib turadi. Asar matnida qo‘llangan onomastik birliklar, jumladan, antroponim (shaxs nomlari) va toponimlar (joy nomlari) dostonning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilashda, qahramonlar xarakterini individuallashtirishda hamda tarixiy-geografik makon tasvirini jonlantirishda muhim lingvistik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Onomastika – tilshunoslikning maxsus sohasi sifatida atoqli otlarning kelib chiqishi va matndagi qo‘llanish qonuniyatlarini o‘rganar ekan, “Saddi Iskandariy”dagi onomastik qatlamni tadqiq etish mumtoz matnning semantik ko‘lamini chuqur anglashga imkon beradi. Navoiy ushbu dostonda tarixiy shaxslar, afsonaviy obrazlar va geografik obyektlar nomlaridan shunchaki atovchi vosita sifatida foydalanib qolmay, ularga teran ramziy va funksional vazifalar yuklaydi. Bu esa asarning o‘ziga xos leksik-semantik sathini shakllantiradi. Ushbu maqolada aynan onomastik birliklarning matn tuzilishidagi o‘rni va ularning semantik mahsuldorligini tahlil qilishni maqsad qilganmiz, zero atoqli otlar badiiy matnning estetik mazmunini zichlashtirishda asosiy lisoniy markerlar hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotdagi onomastik birliklarni o‘rganish o‘zbek tilshunosligida E.Begmatov, N.Ulug‘ov kabi yetakchi olimlarning tadqiqotlarida markaziy o‘rin egallaydi. Alisher Navoiy asarlari tili va undagi nomlar tizimi turli davrlarda leksikologik va lingvopoetik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan “Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklarning funksional-semantik tabiati tizimli tadqiqot obyekti sifatida hali yetarlicha e’tiborga olinmagan [1,12].

Tadqiqot jarayonida tasvirlash, qiyosiy-tarixiy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Doston matnidan ajratib olingan antroponim va toponimlar ularning semantik tarkibi hamda asardagi badiiy vazifasiga ko‘ra tasniflandi. Metodologik asos sifatida atoqli otlarning nominativ (nomlash), informativ (ma’lumot berish) va estetik funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish tamoyili tanlab olindi. Bu yondashuv asardagi har bir onomastik birlikning kontekstual ma’nosini aniq belgilashga xizmat qiladi [2, 45]. Shaxs nomlarining etimologik asoslari bilan doston badiiyatidagi obrazlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritish tadqiqotimizning markaziy yo‘nalishini tashkil etadi.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklarni tahlil qilish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, Navoiy qo‘llagan atoqli otlar asar syujetining kompozitsion yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, antroponimlar tizimida Iskandar, Arastu, Suqrot kabi ismlar shunchaki tarixiy shaxslarni anglatib qolmay, balki “adolatli shoh” va “donishmand vazir” konsepsiyasining lisoniy timsollariga aylangan. Ushbu ismlar doston matnida turli epitet-aniqlovchilar bilan birga qo‘llanib, personajning ijtimoiy

va ma’naviy maqomini yanada yuksaltiradi [3, 88]. Shuningdek, asardagi toponimlar (Yunan, Rum, Mag‘rib, Chin) Iskandarning jahongirlik yurishlari geografiyasini chizish bilan bir qatorda, olamning lisoniy manzarasini ham namoyon etadi. Navoiy joy nomlarini tanlashda asarning epik miqyosiga mos keladigan makonlarni mahorat bilan silsilaga soladi.

1-jadval.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklarning strukturaviy tasnifi

Onomastik birlik turi	Miqdoriy ulushi (taxminiy %)	Asosiy vakillar	Funksional vazifalar
Antroponimlar	65%	Iskandar, Faylaqus, Arastu	Obraz yaratish, personajni individuallashtirish
Toponimlar	25%	Rum, Chin, Bobil, Mag‘rib	Voqealar sodir bo‘ladigan makonni aniqlashtirish
Etnonimlar	10%	Turk, Hind, Mo‘g‘ul	Xalqlar va qabilalarning o‘ziga xosligini ko‘rsatish

Semantik jihatdan qaralganda, doston onomastikasi oddiy nominativlikdan (nomlashdan) ko‘ra ko‘proq ramziylikka moyillik kasb etadi. Har bir nom ortida muallifning muayyan falsafiy-estetik qarashi yashiringan. Masalan, Iskandar nomi dostonning turli o‘rinlarida “Zulqarnayn” tarzida qo‘llanishi uning nafaqat dunyoviy hokimiyatini, balki diniy-tarixiy maqomini ham ta’kidlaydi [3, 112].

Quyidagi jadvalda onomastik birliklarning funksional-semantik tavsifi aks ettirilgan:

2-jadval.

Onomastik birliklarning funksional-semantik tavsifi

Birlik turi	Semantik xususiyati	Misollar	Matndagi o‘rni
Sifatlovchi-nomlar	Shaxsning ichki olamini ochadi	Arastuyi dono, Suqroti hakim	Obrazning ma’naviy intellektual salohiyatini yoritish
Simvolik nomlar	G‘oyaviy xususiyatni anglatadi	Iskandar (Adolat), Doro (Zulm)	G‘oyaviy zidlanishni (antiteza) ta’minlash
Tarixiy toponimlar	Voqelikka real tus beradi	Iskandariya, Maqduniya	Tarixiylik va badiiylik muhitini yaratish

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy tili onomastikasi o‘ta murakkab va serqatlam lisoniy tizim bo‘lib, u kitobxonda muayyan tarixiy-madaniy assotsiatsiyalarni uyg‘otishga yordam beradi. Atoqli otlar matn sathida nafaqat nominativ birlik, balki dostonning falsafiy qatlamlarini bog‘lab turuvchi asosiy lingvistik tayanch vazifasini o‘taydi.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklar asarning shunchaki leksik qatlami bo‘lib qolmay, balki uning badiiy-falsafiy matosini belgilovchi asosiy lingvistik komponentlardir. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, antroponimlar doston qahramonlarini individual tavsiflashda va ularning ijtimoiy-ma’naviy mavqeyini ko‘rsatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ismlarning semantik ko‘lami orqali Navoiy insoniy fazilatlarni kontrast (zidlash) usulida mahorat bilan ifoda etgan. Toponimlar esa dostonning epik olamini saqlagan holda, uni real tarixiy va geografik zamin bilan bog‘laydi, bu esa asar syujetiga hayotiylik baxsh etadi.

Dostondagi onomastik qatlamning funksional-semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Navoiy atoqli otlarga ma’no yuklashda ularning etimologiyasi, xalq xotirasidagi o‘rni va matniy talablardan kelib chiqqan holda yondashgan. Ushbu birliklarni o‘rganish nafaqat navoiyshunoslik, balki o‘zbek onomastikasi va lingvopoetikasi uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni kengaytirib, dostonning boshqa onomastik qatlamlarini (masalan, kosmonimlar yoki teonimlarni) ham tahlilga tortish o‘zbek mumtoz adabiyotining lisoniy boyligini yanada to‘laroq ochishga xizmat qiladi. Umumlashtirib aytganda, “Saddi Iskandariy” onomastikasi – bu buyuk mutafakkir dunyoqarashi, bilim doirasi va yuksak badiiy mahoratining lisoniy ko‘zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Ўзбек тили ономастикаси. – Тошкент: Фан, 1991. –156 б
2. Навоий Алишер. Садди Искандарий (Мукаммал асарлар тўплами, 11-жилд) Тошкент: Фан, 1993. – 624 б.
3. Ulug‘ov N. O‘zbek onomastikalarining termin izohli lug‘ati. – Namangan: NamDU, 2020. 180-b.
4. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 110 б.

Munavvar SAIDMURODOVA,
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., prof v.b
Yulduz KARIMOVA
E-mail: munavvarasaidmurodova@gmail.com

“SHAYBONIYXON” DOSTONIDA BOBUR MIRZO OBRAZINING BADIIY-ESTETIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada “Shayboniyxon” dostonida Bobur Mirzo obrazining badiiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy shaxsning epik obrazga aylanish jarayoni, uning xarakter xususiyatlari va badiiy ifoda vositalari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi masalasi yoritilgan. Natijada Bobur Mirzo obrazining epik tafakkurdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Bobur Mirzo, epik asar, badiiy obraz, estetik talqin, tarixiy shaxs, folklor.*

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of Babur Mirzo’s image in the epic “Shaybanikhan.” The study examines the transformation of a historical figure into a literary character and highlights the harmony between historical reality and artistic imagination. The research reveals the significance of Babur Mirzo’s image in epic literature.

Key words: *Babur Mirzo, epic, artistic image, aesthetic interpretation, historical figure.*

Annotasyon: bu makalede “Şeybânî Han” destanında Babur Mirza imgesinin sanatsal ve estetik yorumu incelenmektedir. Çalışmada tarihî şahsiyetin edebî bir karaktere dönüşüm süreci analiz edilmiştir.

Anahtar Kelimeler: *Babur Mirza, epik eser, sanatsal imge, tarihî* şahsiyet.

Kirish. O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni badiiy talqin qilish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, epik asarlarda real tarixiy voqealar muallifning estetik qarashlari asosida qayta yaratiladi. “Shayboniyxon” dostoni ana shunday asarlardan bo‘lib, unda tarixiy shaxslar obrazlari o‘ziga xos badiiy talqinda namoyon bo‘ladi[1].

Bobur Mirzo obrazi ushbu dostonning muhim komponentlaridan biri bo‘lib, uning talqini orqali muallifning ideologik va estetik qarashlari ifodalanadi.

Adabiyotlar sharhi. Bobur Mirzo shaxsiyati va faoliyati ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Uning hayoti va qarashlari, ayniqsa, “Boburnoma” asari orqali chuqur o‘rganilgan.

Folklorshunoslikda epik tafakkur va tarixiy obrazlar masalasi ham keng yoritilgan bo‘lib, unda badiiy obraz yaratish qonuniyatlari izohlangan. Biroq aynan “Shayboniyxon” dostonida Bobur obrazi maxsus tadqiq etilmagan.

O‘tmish mavzusidagi asarlarda tarixiy shaxslar, ayniqsa hukmdorlar va sarkardalar obrazi, ko‘pincha davr mafkurasi va xalq kayfiyati asosida yaratiladi. Shayboniyxon davrida yaratilgan “Shayboniyxon” dostoni ham shunday asarlardan biri bo‘lib, unda tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unlashgan. Biroq bu dostonning muhim jihati shundaki, unda Bobur salbiy obrazda tasvirlangan, bu esa tarixiy voqealarga to‘la mos kelmaydi.

Folklorshunos olim Umrzoq Jumanazarov aytganlaridek, doston XV asr oxiri – XVI asr boshlarida, ya’ni Shayboniyxonning faol siyosiy va harbiy faoliyati avj olgan davrda yaratilgan.Doston syujeti ikki asosga qurilgan: birinchisi tarixiy haqiqatga suyanadi, ikkinchisi esa xalq og‘zaki ijodining ertakona uslublarini o‘zida jamlaydi. Bu ikki asos – tarixiylik va badiiylik – dostonning mazmuniy ko‘lamini kengaytirgan bo‘lsa-da, ayrim tarixiy shaxslar, xususan, Bobur obrazining talqinida haqiqatdan chekinishga olib kelgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” si – bu nafaqat yirik adabiy asar, balki tarixiy davrning bevosita guvohnomasi hamdir.

Shunga qaramay, “Shayboniyxon” dostonida Bobur zulmkor, g‘arazli, adolatsiz shaxs sifatida tasvirlanadi. Doston Shayboniyxon hukmronligi davrida yaratilgani bois, dushman sifatida ko‘rilgan shaxslar (jumladan, Bobur) salbiy qiyofada tasvirlangan. Ushbu fikrlarni aniq dalillaydigan bo‘lsak, professor Yulduz Karimovaning tadqiqotlariga qaraganda “tarixchi olim Bo‘riboy Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” kitobida ta’kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida 844-raqamda saqlanayotgan, Shayboniyxonning shaxsiy kotibi Mirza Muhammad munshiy tomonidan ko‘chirilgan Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”si …ba’zi varaqlarini (3a, 24a, 31a va b.q.) Muhammad Shayboniyxon o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan”[2]ekan. Bu

1 Саримсоқов Б. Совет даври ўзбек фолклорини ўрганиш масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. 1- сон. 30–36- бетлар.

2 Karimova Y. Shayboniyxon dostonida Bobur Mirzo obrazi talqini.

ma’lumotlardan ham bilishimiz mumkinki, Shayboniyxon o‘zi va sulolasi haqida yozilgan yozma adabiyotdagi asarlar bilan ham, baxshilar tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan ham qiziqqan va ayrimlarini o‘z dastxati bilan ko‘chirgan.

Asarning asosiy g‘oyasi – Shayboniyxon obrazini ideallashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, dostonning ikkinchi qismida bu tendensiya yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur qism, asosan, badiiy to‘qimalarga boy bo‘lib, unda to‘qima obrazlar, ertak syujetlari va real hayotga mos kelmaydigan joy nomlari uchraydi. Bu holatning sababi shundaki, Shayboniyxon vafotidan so‘ng baxshilar dostonni qanday davom ettirishni bilmay, asarga ertakona elementlar va afsonaviy voqealarni qo‘shishga majbur bo‘lganlar. Shuningdek, dostonning ushbu qismida Bobur obrazi umuman ishtirok etmaydi, bu esa voqealarning tarixiy asosdan uzoqlashganini ko‘rsatadi.

Og‘zaki ijodning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u tarixiy voqealarni to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirishga emas, balki xalq his-tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun dostonlarda tarixiy shaxslar obrazi ko‘pincha badiiy ehtiyojlarga, davr mafkurasiga yoki siyosiy kayfiyatlarga bo‘ysundirilgan holda talqin qilinadi. Bobur obrazining “Shayboniyxon” dostonida salbiy tus olishi ham ayni shu jarayon mahsulidir.

“Shayboniyxon” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim namunalaridan biri bo‘lib, unda Shayboniyxonning ijobiy obrazini yaratish orqali xalqning tarixiy xotirasi va qadriyatlari ifodalangan[3]. Biroq, Bobur obrazining salbiy talqini tarixiy haqiqatdan ko‘ra, siyosiy va mafkuraviy omillar bilan belgilangani ayon. Bu esa bizni folklor asarlarini tahlil qilishda tarixiylik va badiiylikni farqlashga, voqealarning zamonaviy va tarixiy kontekstini chuqur anglashga undaydi. “Shayboniyxon” dostonidagi dramatik syujet, ertakona motivlar va siyosiy talqinlar bizga real tarixni emas, balki bir davrning mafkuraviy qiyofasini taqdim etadi. U Shayboniyxonni ko‘klarga ko‘taradi, Boburni esa qoralaydi – ammo bu nisbiy yondashuv orqali emas, balki ochiq tarafkashlik bilan amalga oshiriladi.

Garchi doston syujeti real voqealardan ko‘ra, baxshilarning xayoliy fantaziyalariga qurilgan bo‘lsa-da, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti haqida kitobxonga qaysidir ma’noda ma’lumot beradi va oddiy mehnatkash xalqning odil hukmdor haqidagi ideallarini o‘zida ifoda etadi.

“Shayboniyxon” turkumidagi xalq og‘zaki ijodi namunalarida Bobur obrazi salbiy talqinda beriladi: u o‘z yurtini tark etgan, qat’iyatsiz va so‘zida turmaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunday talqin, avvalo, asarning ideologik yo‘nalishi va tarixiy voqealarning xalq tasavvurida qayta ishlanishi bilan bog‘liqdir. Folklor matnlarida voqelik ko‘pincha badiiy-estetik hamda siyosiy pozitsiya nuqtayi nazaridan talqin qilinadi; natijada tarixiy shaxs obrazi ma’lum maqsad asosida ideallashtiriladi yoki aksincha, qoralab ko‘rsatiladi.

Holbuki, tarixiy manbalar, xususan, Boburnoma hamda zamonaviy bobur shunoslik tadqiqotlari Bobur shaxsiyatining mutlaqo boshqa qirralarini namoyon etadi. Unda Bobur murakkab siyosiy kurashlar sharoitida yashagan, taxt uchun kurashgan, mag‘lubiyatlarga uchragan bo‘lsa-da, har safar kuch to‘plab, yana maydonga qayta olgan qat’iyatli va uzoqni ko‘zlagan davlat arbobi sifatida gavdalanadi. Uning Movarounnahrni tark etishi qo‘rqoqlik emas, balki mavjud siyosiy sharoitda strategik chekinish va kuchlarni qayta jamlash maqsadida amalga oshirilgan tarixiy zarurat edi.

Gulbadanbegimning otasi haqidagi fikrlaridan ham Bobur Mirzoning vatani uchun jonini bergan, hatto vaqti kelsa o‘limga tik qaragan, iymoni, e’tiqodi butun buyuk jangchi, sarkarda, odil podshoh qiyofalarini ko‘rishimiz mumkin. Hindistonda buyuk imperiyaga asos solishga harakat qilgan chog‘larda ham uning naqadar adolat ko‘rsatganini tarix guvohligida anglash mumkin.

Yuqoridagi manbalar va ilmiy mulohazalarga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, Bobur obrazini folklordagi ayrim biryoqlama talqinlar asosida emas, balki tarixiy manbalar, zamondoshlar guvohligi va ilmiy tadqiqotlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Gulbadanbegimning esdaliklari hamda olimlarning tahlillari Bobur Mirzoning qo‘rqoq yoki qat’iyatsiz emas, aksincha, Vatan va e’tiqod yo‘lida jonini tikishga tayyor bo‘lgan buyuk sarkarda va odil hukmdor ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

3 Жуманазаров. У. Ўзбек фолклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991. Б.60

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Саримсоқов Б. Совет даври ўзбек фолклорини ўрганиш масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. 1- сон. 30–36- бетлар.

2.Жуманазаров. У. Ўзбек фолклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991. Б.60

3.Ўзбек халқ оғзаки ижоди ёдгорликлари. – Тошкент: «Мадад ошийони», 2025. Нашрга тайёрловчилар: Йўлдош Раҳматов, Мунис Жўраева. Б. 37.

4.“Boburnoma”, P.Qodirov yulduzcha nashr 1989-yil 189–190-b

Marjona ZIYADULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
E-mail: ziyadullayevamarjona23@gmail.com

TO‘LQIN HAYIT ASARLARIDA TEMURIYLAR DAVRI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalqining o‘ziga xos boy tarixi va buyuk ajdodlari merosini asrab-avaylashda tarixiy asarlarning o‘rni yoritilgan. Unda zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzuda samarali ijod qilgan adiblardan biri To‘lqin Hayit asarlari tahlil qilinadi. Xususan, yozuvchining Temuriylar davriga bag‘ishlangan asarlarida tarixiy shaxslar obrazi, davr muhitining siyosiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda milliy g‘oyalar badiiy mahorat bilan ifodalangani yoritiladi. Shuningdek, asarlarida Amir Temur va Temuriylar davrining Markaziy Osiyo tarixidagi madaniy-ma’naviy taraqqiyot bosqichi sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada tarixiy asarlarning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘ljoy oqa, tarixiy mavzu,“Temur tuzuklari”, “Amir Temur tarixi”, “Tarixlar sirasi”, “Ravzat us-safo”, tarixiy obraz, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat.*

Annotation: this article highlights the role of historical works in preserving the unique rich history of the Uzbek people and the heritage of their great ancestors. It analyzes the works of Tolqin Hayit, one of the most effective writers in modern Uzbek literature on historical themes. In particular, the writer’s works dedicated to the Timurid era highlight the artistic expression of the image of historical figures, the political and social characteristics of the environment of the era, and national ideas. Also, the significance of the Timurid era and the Timurid era as a stage of cultural and spiritual development in the history of Central Asia is revealed in his works. The article substantiates the role of historical works in educating the younger generation in the spirit of patriotism and understanding national identity.

Key words: *Uljoy aqa, historical theme, “Temur tuzuklari”, “Tarixlar sirasi”, “Ravzat us-safo”, historical image, artistic texture, historical truth.*

Аннотация: в данной статье освещается роль исторических произведений в сохранении самобытной богатой истории узбекского народа и наследия его великих предков. Анализируются произведения Тўлқин Хайит — одного из наиболее значимых авторов современной узбекской литературы, работающих в исторической тематике. В частности, в произведениях писателя, посвящённых эпохе Тимуридская эпоха, раскрываются художественное воплощение образов исторических личностей, политические и социальные особенности среды того времени, а также национальные идеи. Также в его произведениях показано значение эпохи Тимуридов как важного этапа культурного и духовного развития в истории Центральной Азии. В статье обосновывается роль исторических произведений в воспитании молодого поколения в духе патриотизма и осознания национальной идентичности.

Ключевые слова: *Улжой ака, историческая тематика, «Темур тузуклари», «Тарихлар сираси», «Равзат ус-сафо», исторический образ, художественная ткань, историческая правда.*

Har bir millatning kelajagi uchun xalqning boy tarixi, o‘tmishdagi buyuk merosi bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining ham o‘ziga xos faxrlansa arzigulik tarixi bor. Tarix sarvaraqlarida bitilgan buyuk ajdodlar jasorati adabiy, badiiy manbalar orqali bugungi kun yoshlariga yetib kelmoqda. Tarixiy asarlar har qanday xalqning tarixiy xotirasini, o‘zligini saqlab qolishda muhim vosita sanaladi. O‘zbek adabiyotida ham bunday yuksak vazifani sidqi dildan bajargan va avloddan avlodga yetkazishda davom etayotgan bir qancha yozuvchi, tarixchi, shoir-u manbashunos olimlarning xizmati katta. Ularning asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy yodgorliklari, milliy an’ana va qadriyatlari, buyuk ajdodlarimizning hayoti, ularning mardonavor ko‘rsatgan jasoratlari badiiy obrazlar orqali yoritiladi. O‘z navbatida bunday asarlar tarixiy mavzudagi asarlar hisoblanadi. Tarixiy mavzudagi asarlar yozishda o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadigan yozuvchilarimizdan biri ustoz To‘lqin Hayit hisoblanadi. “Turon tunlari”, “Boyvachchaning qizi”, “Qora Shahzoda”, “Amir Temur haqida hikoyalar”, “Odamning yaxshisi”, “Bahouddin Naqshband”, “Vafo malikasi yoxud Amir Temur va O‘ljoy oqa qismati”, “Buyuk salohiyat sohibi”, “Amir Temur xazinasi”, “Amir Temur qalbida chaqnagan nur”, “Temuriy ijodkorlar” kabi bir qator tarixiy asarlarning muallifidir. Tarixiy mavzudagi romanlari, hikoyalari orasida Temuriylar davriga bag‘ishlangan asarlari alohida o‘rin egallaydi. Ustoz To‘lqin Hayit asarlari orqali nafaqat tarixiy shaxslarni gavdalantiradi, balki ularning ma’naviy olami, voqealarning rivoji orqali o‘sha davrning muammolari, siyosiy kurashlari hamda milliy g‘oyalarini ham chuqur tahlil qiladi va u o‘zining tarixiy asarlarida Temuriylar davrini chuqur, badiiy va ta’sirli ifodalagan. Xususan, Temuriylar davrining muhiti va o‘sha davrning siyosiy boshqaruv tizimini ham yaqqol namayon etadi. Bilamizki, Temuriylar davri, Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan davr, Markaziy Osiyo tarixida eng yuksak madaniy-ma’naviy taraqqiyot bosqichi sifatida baholanadi. Amir Temur bolalik yillaridan nomdor shayx-u domla, muallimlarning e’tiboriga tushgan. Amir Temur buyuk hukmdor sarkarda bo‘lib yetishishida avvallambor uning otasi Muhammad Tarag‘ayning xissasi alohidadir. Shohlarga xos xatti harakatlar, qat’iyat, keskinlik bolalik davridan shakllangani ham bejiz emas. To‘lqin Hayitning “Amir Temur xazinasi”, “Amir Temur haqida hikoyalar” hamda Muhammad Ali bilan hammualliflikda yozilgan “Amir Temur qalbida chaqnagan nur” kabi asarlari Temuriylar davrining turli qirralarini o‘zida mujassam etgan. Tarixiy asarlar yozishdagi eng ishonchli manba birinchi navbatda, buyuk shaxsning o‘zi tomonidan yozilgan manba yoxud zamondoshlari tomonidan

yozib qoldirilgan manbalar haqiqiy manba hisoblanadi. Xuddi shunday ekan, Amir Temur va Temuriylar davri haqidagi ishonchli ma'lumotlar Amir Temurning "Temur tuzuklari", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Hofiz Abro'ning "Tarixlar sirasi", Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharofiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning alohida-alohida "Zafarnoma" asrlari orqali olishimiz mumkin. Tarixiy asarlarni, xususan Temuriylar davrini yozmoqchi bo'lgan istalgan yozuvchi, ijodkorlar avvalambor shu manbalarni obdon o'rganib chiqadi. To'lqin Hayitning asrlarini ham badiiylik bilan birgalikda haqiqatga ancha yaqin hujjatli asrlar sirasiga kiritsak mubolag'a bo'lmaydi.

Ustoz To'lqin Hayitning "Temuriy ijodkorlar" asari Temuriylar davrida qalam tebratgan, buyuk sohibqironning nazariga tushgan ijodkorlarning faoliyatlari mo'jazgina risolasida bayon etilgan. Mazkur asarida ustoz Temuriylar davridagi ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at sohasi vakillarining hayoti, faoliyati va ular yaratgan asarlarni badiiy talqin qiladi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida buyuk zotlarning ijodini o'rganish va yosh avlodga o'rgatish kerakligi xususida quyidagi fikrlarni ta'kidalaydi; " Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iborat. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman."[1] Darhaqiqatdan, ustozning "Temuriy ijodkorlar" risolasi ham mana shunday ustuvor vazifani bajarishga musharraf bo'ldi.Ustozning bu risolasiga kiritilgan temuriy ijodkorlar faqat amirzodalar emas, balki yuksak ma'naviyat sohiblari ham hisoblangan. Bundan tashqari sohibqiron Amir Temur ham adabiyotga nasr va nazmni sevguvchi shaxs bo'lgan. G'azal mulkining sultoni, mutafakkir Mir Alisher Navoiy bobomiz ham bu haqida alohida to'xtalib iliq fikrlar aytgan. "Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek, bir bayt o'qug'oni ming bayt aytqoncha bor".[2] Ya'nikim, Amir Temur ham nazm va nasrni o'qisa, boshqalarning ming marotaba o'qiganidan, uning bir bayt o'qigani ancha yaxshi chiqadi deb olqishlaydi. Kezi kelganda, sohibqironda ham shoirlik iqtidoridan ham anchagina xabari borligi, Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ba'zi o'rinlarda bu aniq isbotlangan. Amir Husaynga yozgan maktublaridan birida bayt yo'llaganligi buning yorqin isbotidir.

"Yorga yetkur, sabo, kim makr qilmishdir manga,
Qildi ersa kimga makr, qaytadur bir kun anga"

baytini yo'llaganligi "Temur tuzuklari"da qayd etilgan. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Temuriylar davrida adabiyot va san'atga alohida nazarda qaralgan, san'at va adabiyot namoyondalariga boshqacha bir nazar, iltifot bilan qarashgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temurdan to u kishining Hindistondagi so'nggi avlodi Bahodirshoh II davrigacha Temuriy amirzodalar orasidan o'ttiz uchdan ortiq temuriy ijodkorlar yetishib chiqqan. Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat adabiyot ravnaq topdi balki me'morchilik, rassomlik, naqqoshlik kabi san'at turlari ham e'zozda bo'lgan va ular ham o'z navbatida ijodkor shaxslar hisoblangan.

Uzoq o'tmishga nazar tashlasak, sharq ayollarining davlat boshqaruvi, ma'naviyati, madaniyatining yuksalishida o'ziga xos qo'shgan hissasida, ularning jasurligi, dona va salohiyatliligi, ayollik iffati va farzandlar tarbiyasidagi o'rni haqida yetib kelgan tarixiy ma'lumotlarga guvoh bo'lamiz. Shunday jasoratli ayollardan biri bo'lgan temuriy malika O'ljoy turkon haqida ham badiiy asarlar, tarixiy manbalar orqali iliq fikrlar yetib kelgan, ammo bunday ma'lumotlar sanoqli va to'la emas. Ammo imkon qadar ayrim asarlarda, tarixiy manbalarda biroz bo'lsada tushunchalar mavjud. Shunday ajoyib asarlardan biri "Vafo malikasi yoxud Amir Temur va O'ljay oqa qismati" nomli asardir. Ushbu asarda Amir Temurning O'ljoy oqa bilan qanday tanishganligi ularning hayot yo'llari, qismati badiiy talqin etilgan. Ustozning tarixiy asarlari orqali Temuriylar davrining turli qirralarini badiiy va hayotiy ifodalagan. Ustoz yuqorida keltirilgan asarlarida tarixiy haqiqatni buzmasdan, uni badiiy jihatdan chuqur ifodalagan holda o'zining xos kitobxonlariga yetkazadi. Ustozning Temuriylar haqidagi qarashlari, tarixiy shaxslar tasviri va madaniyat talqini zamonaviy o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallaydi.

Umuman olganda, To'lqin Hayitning yuqorida tahlilga olgan hikoyalarimizdan ham ko'rinib turibdiki, har bir asarning dunyoga kelishida qandaydir tarixiy haqiqatlar, o'tmishning biz ko'ra olmagan jihatlari bo'ladi. Ana shunday tomonlarini, ustoz kabi tarixiy asarlar yozuvchilari ularni badiiy tilda kitobxonga yetkazib beradi. Badiiy adabiyotga tarixning kirib kelishi har bir kishida o'tmishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Tarix va badiiyatning uyg'unlashuvini Temuriylar davri misolida ustoz To'lqin Hayitning asarlari orqali kuzatishimiz mumkin.

1 Тўлқин Хайит Темурий ижодкорлар Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент – 2016
2 Тўлқин Хайит "Темурий ижодкорлар" – 8-б Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент – 2016

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Амир Темур. «Темур тузуклари» (форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.144-б.
2.Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992.120-б.
3.Тўлқин Ҳайит, Муҳаммад Али "Амир Темур қалбида чақнаган нур"229 –Тошкент, 2016.
4.To'lqin Hayit "Temuriy ijodkorlar" –Toshkent; G'afur G'ulom, 2016.
5.To'lqin Hayit "Amir Temur haqida hikoyalar" – Toshkent; "O'zbekiston"-2009.

Xurshida MAMMATJONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs magistranti
E-mail: xmammatjonova@gmail.com

NAIM KARIMOV TADQIQOTLARIDA CHO‘LPON SHE’RIYATI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada akademik Naim Karimovning Cho‘lpon ijodini tadqiq etishdagi metodologik yondashuvlari, xususan, shoir shaxsi va she’riyatiga berilgan yangicha talqinlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Naim Karimov tomonidan 2000-yillardan boshlab Davlat xavfsizlik xizmati arxivlaridan topilgan materiallarning shoir lirikasi poetikasini yoritishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Cho‘lponning qatag‘on qurboni sifatidagi so‘nggi kunlari va uning she’riyatidagi “ozodlik” g‘oyasining biografik asoslari ilmiy dalillangan.

Kalit so‘zlar: *Naim Karimov, Cho‘lpon, arxiv materiallari, NKVD, biografik metod, qatag‘on, “Kecha va Kunduz”, lirik qahramon, jadid adabiyoti, raqamli transformatsiya.*

Annotation: this article analyzes the methodological approaches of academician Naim Karimov in the study of Cholpon’s work, in particular, new interpretations of the poet’s personality and poetry based on archival materials. The study highlights the importance of materials found by Naim Karimov in the archives of the State Security Service since the 2000s in illuminating the poetics of the poet’s lyrics. Also, the last days of Cholpon as a victim of repression and the biographical foundations of the idea of “freedom” in his poetry are scientifically substantiated.

Key words: *Naim Karimov, Cholpon, archival materials, NKVD, biographical method, repression, “Night and Day”, lyrical hero, Jadid literature, digital transformation.*

Kirish. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida yangi she’riyat maktabini yaratgan, millatning dardini va ozodlikka bo‘lgan tashnaligini lirik satrlarga muhrlagan ijodkor edi. Biroq uzoq yillar davomida sho‘ro mafkurasi uni “millatchi” sifatida tamg‘alab, asarlarini ta’qiqlab keldi. Faqat mustaqillik yillaridagina Cho‘lpon ijodini xolis o‘rganish imkoniyati tug‘ildi. Bu jarayonda samarali ijod qilgan akademik Naim Karimovning o‘rni beqiyosdir.

Naim Karimov hayotining asosiy qismini arxivlarning sovuq xonalarida qatag‘on qurbonlari hayotiga oid hujjatlarni o‘rganishga bag‘ishladi. Olimning maqsadi nafaqat shoirni oqlash, balki uning she’riyati har bir misrasining tarixiy haqiqatga bog‘liqligini isbotlash edi. Cho‘lpon 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olingan va 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan bo‘lib, bu faktlar aynan olimning izlanishlari orqali tiniqlashdi [1].

Metodlar. Ushbu tadqiqot akademik Naim Karimovning cho‘lponshunoslikka oid merosini o‘rganishda kompleks va multidisiplinar sifat (qualitative) yondashuviga tayanadi. Tadqiqot metodologiyasi adabiy faktlarni texnik aniqlik va huquqiy me’yorlar darajasida tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Quyida maqolada qo‘llanilgan asosiy metodlar tizimi batafsil bayon etilgan:

Biografik-hujjatli “Merojli” tahlil. Naim Karimov adabiyot hodisalarini tarixiy voqealar, badiiy asarni esa yozuvchi hayoti bilan uzviy aloqada o‘rganishni asosiy tamoyil deb bildi. Ushbu metod geodeziya fanidagi “punktlarni joyiga biriktirish” (demarkatsiya) jarayoniga o‘xshab, shoirning har bir lirik misrasini uning hayotidagi aniq biografik “koordinatalar” (vaqt va makon nuqtalari) bilan bog‘laydi.

Arxiv-qidiruv va huquqiy ekspertiza metodi. Tadqiqotda arxiv materiallari (tergov bayonnomalari, qamoqqa olish qarorlari) xuddi ko‘chmas mulk kadastridagi “huquqni belgilovchi hujjatlar” kabi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Bu metod shoirning 1937-yilda yo‘q qilingan asarlari va unga qo‘yilgan nohaq ayblovlarni fosh etishda, ya’ni shoirning “ma’naviy mulk huquqi”ni qayta tiklashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Adabiy “Kadastr” va Tizimli-inventarizatsiya metodi. Cho‘lponning parokanda bo‘lgan adabiy merosini to‘plashda kadastr tizimidagi “texnik xatlov” (inventarizatsiya) tamoyillariga amal qilindi. Naim Karimov shoirning vaqtli matbuotda (“Sho‘ro”, “Yangi Sharq”, “Yangi Turkiston”) e’lon qilingan asarlarini tizimlashtirdi.

Estetik-germenevtik va “Valuatsiya” (Baholash) metodi. Germenevtika metodi orqali shoir lirikasi poetikasidagi ramzlar va “qatlar orasiga berkingan” ma’nolarni o‘qish amalga oshirildi. Bu jarayon Cho‘lpon she’riyatining sho‘ro davridagi “soxta mafkuraviy bahosi”ni inkor etib, uning istiqlol davridagi haqiqiy “milliy qiymati”ni belgilab berdi [1, 2].

Natijalar. Naim Karimovning Cho‘lpon hayoti va ijodi yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijasida o‘zbek adabiyotshunosligi quyidagi fundamental yangiliklar va faktlar bilan boyidi:

- *Siyosiy qatag‘on mexanizmi:* olim arxiv hujjatlari asosida ziyolilarni yo‘q qilish ro‘yxatlari bevosita Stalin, Molotov, Kaganovich va Voroshilov “to‘rtligi” tomonidan shakllantirilganini isbotladi.
- *Tergovdagi matonat:* Cho‘lponning so‘nggi tergov jarayonidagi mardona tutumi, uning milliy mustaqillik g‘oyasidan hatto o‘lim tahdidi ostida ham voz kechmaganligi olim tomonidan e’lon qilingan protokollarda o‘z aksini topdi. Bu hujjatlar shoirning “Jo‘r” kabi to‘plamlari nima uchun yo‘q qilinganini (qatag‘onlik shamoli tuzog‘iga ilinganligini) tushuntirib berdi.

Cho‘lponning ma’rifatparvarlik faoliyati va moddiy ko‘mak faktlari. Naim Karimov shoirning faqat qalam tebratibgina qolmay, balki millat yoshlarining kelajagi uchun amalga oshirgan xizmatlarini ochib berdi:

- *7500 so‘mlik himmat:* 1922-yilda Germaniyaning Ziroat akademiyasida o‘qiyotgan o‘zbek talabasi Abdulvohid Murodovga ko‘mak berish maqsadida Cho‘lpon o‘z jamg‘armasidan o‘sha davr uchun ulkan mablag‘ — 7500 so‘m ajratganligi olimning eng muhim topilmalaridan biridir. Bu fakt Cho‘lponni shunchaki shoir emas, balki millat fidoiysi sifatida gavdalantiradi.
- *Oilaviy shajara va merosxo‘rlar:* olim shoirning qizlari Fozila (1906) va Foiqa (1903) hamda uning nabiralari hozirda Namanganda yashayotganligi kabi biografik ma’lumotlarni ilmiy iste’molga kiritdi.

Adabiy merosning “Raqamli xatlov”i (Digital Inventory). Cho‘lponshunoslikdagi natijalar hozirgi kunda ko‘chmas mulk tizimidagi “96% xaritalash” natijalariga o‘xshash ko‘lamga ega.

- *10 jildli meros:* Naim Karimov shoirning barcha tarqoq asarlarini, xususan, “Hamlet” tarjimasini (bu asar o‘zbek tarjima san’atining shoh namunasi hisoblanadi) hamda uning “Adabiyot nadir?”, “Sho‘ro hukumati va sadoi nafisa” kabi tanqidiy maqolalarini to‘plab, 10 jild hajmidagi original va tarjima asarlar bazasini yaratishda ishtirok etdi.
- *Davlat mukofoti:* olimning sa’y-harakatlari bilan 1991-yil 25-sentabrda Cho‘lponning “Yana oldim sozimni” kitobi uchun Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Xalqaro miqyosdagi talqinlar. tadqiqot natijalari o‘zbek chegarasidan chiqib, xalqaro maydonga yoyildi:

- *Xalqaro akademik markazlar:* Cho‘lpon she’riyati poetikasi bugungi kunda Tokio universiteti, Istanbul universiteti va Ankara Haci Bayram Veli universitetlarida global jadidchilik kontekstida o‘rganilmoqda.
- *Turk tilidagi nashrlar:* Naim Karimovning “Cho‘lpon” biografik romani Turkiyada “Cho‘lpon yili” doirasida turk tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. 2008-yilda Parijda chop etilgan “O‘zbekiston she’riyati antologiyasi”da ham shoir asarlari fransuz kitobxonlariga havola qilindi [3, 4].

Munozara. Mustaqillik davri cho‘lponshunosligining natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu davr adabiyotshunosligi shunchaki xronologik bosqich emas, balki milliy estetik tafakkurning tubdan yangilanish jarayonidir. Tadqiqot natijalarini metodologik va nazariy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda muhokama qilish lozim:

Mafkuraviy qoliplardan estetik erkinlikka o‘tish. Sho‘ro davri tanqidchiligida Cho‘lpon ijodi “sinfiy kurash” va “partiyaviylik” prinsiplari asosida tahlil qilingan bo‘lsa, istiqlol yillarida adabiyot “hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan millat ijodiy dahosining samarasi” sifatida talqin etila boshlandi. Munozaramizning o‘zagi shundaki, endilikda Cho‘lpon lirikasi insonni “ishchi kuchi” yoki “ishlab chiqaruvchi” deb emas, balki “alohida inson shaxsining ma’naviyatini mukammallashtiruvchi” murakkab fenomen deb biladi. Bu yondashuv adabiyotni “ijodkorning ko‘ngil ishiga” aylantirdi,

bu esa cho‘lponshunoslikning germenevtik asosini tashkil etadi [6].

Arxiv materiallarining “Huquqiy hujjat” sifatida ahamiyati. Natijalarda qayd etilganidek, 2000-yillardan keyin Davlat xavfsizlik xizmati (sobiq KGB/NKVD) arxivlarining ochilishi cho‘lponshunoslikda biografik metodning yangi bosqichini yaratdi. Akademik Naim Karimovning Cho‘lpon hayoti va fojeasini arxiv hujjatlari bilan bog‘lab o‘rganishi shuni isbotladiki, shoirning har bir misrasi real tarixiy iztirob mahsulidir. Bizningcha, bu arxiv materiallari xuddi ko‘chmas mulk kadastridagi “mulk huquqining qonuniyligini ta’minlovchi” hujjatlar kabi shoirning oqlanishida bosh omil bo‘ldi. Arxivlardagi “dahshatli hujjatlar” Cho‘lponni millatchilikda ayblagan sho‘ro tanqidchilari da’volarini yo‘qqa chiqardi va uni milliy istiqlol g‘oyasining bayroqdori sifatida qayta baholashga imkon berdi [7].

Germenevtik va poetik tahlil sintezi. Munozara jarayonida Cho‘lpon asarlaridagi “dekorativ til” va ramziylik masalasi alohida o‘rin tutadi. Masalan, shoirning “Binafsha” yoki “Ko‘ngil” obrazlari ostiga berkingan mazmunni germenevtika metodi orqali o‘qish mumkin. Germenevtik interpretatsiya shoirning individual ruhiy dunyosiga, uning “ko‘klarga berkingan Yer qizi” kabi xayolot dunyosidagi obrazlariga kirib borishda asosiy vosita bo‘ldi. Poetik tahlil doirasida esa lirik subyektning shakllanishi, “rolli lirika” (muallif-roviy-men) tizimining murakkabligi cho‘lponshunoslikni jahon darajasidagi nazariy-poetik tadqiqotlar darajasiga olib chiqdi [8].

Raqamli transformatsiya va adabiy merosning tizimlashuvi. Hozirgi kunda ko‘chmas mulk tizimida 96% yer maydonlarining xaritalashtirilgani kabi Cho‘lponshunoslikda ham shoirning 10 jild hajmdagi asarlarining tizimlashtirilishi “adabiy inventarizatsiya” jarayonini yakuniga yetkazmoqda. Naim Karimovning Cho‘lpon hayotiga doir yangi biografik faktlari (oilasi, moddiy yordamlari, tarjima san’ati) uning shaxsiyati buyukligini yangi qirralardan ochib berdi. Bu jarayonni “tiniqlashayotgan cho‘lponshunoslik” deb atash mumkin.

Xalqaro cho‘lponshunoslik: qiyosiy tahlil. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Cho‘lpon ijodi bugun Tokio, Parij va Istanbul universitetlarida global jadidchilik kontekstida o‘rganilmoqda. Bu esa o‘zbek cho‘lponshunosligining metodologik bazasi endilikda xalqaro komparativistika (qiyosiy adabiyotshunoslik) talablariga moslashib, milliy adabiyotni jahon adabiy jarayonining uzviy qismi sifatida baholashga xizmat qilayotganidan dalolat beradi [5].

Xulosa. Akademik Naim Karimov mustaqillik davri o‘zbek cho‘lponshunosligining haqiqiy me’mori bo‘lib, uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarni ijodkorning shaxsiy taqdiri va arxiv hujjatlaridan ajratilgan holda xolis tahlil qilib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, olim arxiv materiallari orqali Cho‘lponning milliy g‘oyalariga berilgan nohaq baholarni rad etdi va uni “millat iztirobi” darajasiga ko‘tardi. Naim Karimovning 2023-yildagi vafotidan so‘ng ham uning ilmiy merosi yangi avlod tadqiqotchilari uchun asosiy “kompas” vazifasini o‘tab qoladi [9, 10].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. – Toshkent: Xazina, 1994.
2. Karimov N. Cho‘lpon. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Karimov N. Arxiv sirlari: Cho‘lpon hayoti hujjatlarda. – Toshkent, 2000.
4. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni (N. Karimov nashrga tayyorlagan). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
5. Karimov N. Usmon Nosirning so‘nggi kunlari. – Toshkent: Sharq, 1994.
6. Cho‘lpon. Kecha va kunduz (roman). – Toshkent: Sharq, 1995.
7. Quronov D. Cho‘lpon lirikasi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
8. G‘aniyev I. Cho‘lpon ijodida Sharq va G‘arb aloqalari. – Toshkent, 2012.
9. Karim B. Cho‘lponning tiniq olami. – Toshkent, 2009.
10. Naim Karimov. Cho‘lpon (biografik roman, turk tilidagi nashri). – Ankara, 2021.

Muhayyo JO‘RAYEVA,
TerDPI magistranti

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “JANNATI ODAMLAR” ASARIDA BOLALAR ICHKI DUNYOSI VA XARAKTERINI YORITISH VOSITALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jannati odamlar” asarida bolalar ichki dunyosi va xarakterini yoritish masalasi ilmiy-tahliliy asosda tadqiq etiladi. Asarda bolalar ruhiyati, ularning ma’naviy kechinmalari, hayotiy tanlovlari hamda vijdoniy kurashi qanday badiiy vositalar orqali ifodalangani tahlil qilinadi. Xususan, ichki monolog, dialog, psixologik tasvir, ramziy obrazlar va muallif nutqining bolalar xarakterini ochishdagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, asarda bolalar obrazi orqali ilgari surilgan axloqiy-estetik g‘oyalar hamda tarbiyaviy jihatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari “Jannati odamlar” asarining bolalar adabiyotida psixologik realizm namunasi sifatidagi ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, psixologik realizm, ichki monolog, dialog, xarakter, badiiy vosita.*

Аннотация: в данной статье на научно-аналитической основе исследуются способы раскрытия внутреннего мира и характера детей в произведении Худайберди Тохтабаева «Райские люди». Анализируются художественные средства, с помощью которых автор передаёт духовные переживания детей, их жизненные выборы и нравственные поиски. Особое внимание уделяется роли внутреннего монолога, диалогов, психологического изображения, символических образов и авторской речи в формировании детских характеров. Также раскрывается воспитательное и эстетическое значение произведения. Результаты исследования позволяют обосновать место произведения «Райские люди» как образца психологического реализма в узбекской детской литературе.

Ключевые слова: *детская литература, психологический реализм, внутренний монолог, диалог, характер, художественные средства.*

Annotation: this article provides a scientific and analytical study of the artistic means used to depict the inner world and character of children in the work *“Jannati Odamlar”* (“Heavenly People”) by Khudoyberdi Tokhtaboev. The research examines how children’s spiritual experiences, moral reflections, and life choices are conveyed through literary techniques. Particular attention is paid to the role of inner monologue, dialogue, psychological description, symbolic imagery, and the author’s narrative voice in revealing children’s character development. The educational and aesthetic significance of the work is also highlighted. The findings of the study substantiate the importance of *“Jannati Odamlar”* as a notable example of psychological realism in Uzbek children’s literature.

Key words: *children’s literature, psychological realism, inner monologue, dialogue, character, literary devices.*

O‘zbek adabiyotida bolalar va o‘smirlar ruhiyatini chuqur anglab, ularning ichki dunyosini hayotiy va samimiy tarzda badiiy ifodalagan ijodkorlardan biri Xudoyberdi To‘xtaboyevdir. Adib asarlarida bolalar adabiyotiga xos soddalik bilan birga, katta yoshdagi kitobxonni ham befarq qoldirmaydigan falsafiy umumlashmalar mavjud. “Jannati odamlar” asari ana shunday ko‘p qatlamli, mazmunan boy asarlardan biri bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, ma’naviy poklik va halollik muammolari badiiy talqin etilgan. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotida bolalar ruhiyati va ichki dunyosini chuqur tahlil qilgan ijodkorlardan biridir. Adib asarlarida bola faqat voqealar ishtirokchisi emas, balki mustaqil fikrlovchi, hayotni anglay oladigan shaxs sifatida tasvirlanadi. “Jannati odamlar” asari ham ana shu tamoyil asosida yaratilgan bo‘lib, unda bolalar xarakteri va ma’naviy qiyofasi turli badiiy vositalar orqali ochib berilgan.

“Jannati odamlar” nomi asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi asosiy kalit tushunchadir. An’anaviy diniy tasavvurlarda jannat oxirat bilan bog‘liq tushuncha bo‘lsa, Xudoyberdi To‘xtaboyev bu timsolni hayotiy-falsafiy ma’noda talqin qiladi. Uning nazarida jannat — bu inson qalbidagi poklik, vijdon erkinligi, halol yashash va ezgulikka intilishdir. Demak, “jannati odamlar” — bu mansabi yoki boyligi bilan emas, balki ma’naviy qiyofasi bilan yuksak bo‘lgan insonlardir. Muallif shu orqali o‘quvchini chuqur falsafiy xulosaga yetaklaydi: jannatni uzoqdan izlash shart emas, u insonning o‘zida, uning xulqi va qarashlarida mujassam bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv asarni oddiy voqeaband hikoyadan falsafiy-badiiy asar darajasiga ko‘taradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarda bolalar ruhiyatini psixologik jihatdan chuqur ochadi. Qahramonlarning har bir harakati, qarori va fikri ularning ichki dunyosini, ehtiroslarini va ma’naviy kechinmalarini aks ettiradi. Masalan, bola yolg‘on yoki adolatsiz voqeaga duch kelganda, uning ichki ikkilanishlari, vijdoniy kurashi tafsilotlar bilan beriladi. Shu orqali o‘quvchi qahramonlarning hayotiy tajribasini his qilishi va ular bilan empatiya qilish imkoniga ega bo‘ladi. Ichki monolog – asarda bolalar xarakterini ochishda eng samarali vositalardan biri. Qahramonlarning o‘z-o‘zi bilan suhbatlari, ichki savollar va ikkilanishlari o‘quvchiga bolalarning ruhiy olamiga chuqur kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, monologlar bolalarning ijtimoiy muhitga munosabati, qadriyatlar bilan tanishishi va o‘zini anglash jarayonlarini ko‘rsatadi. Bolalar va kattalar o‘rtasidagi muloqotlar qahramonlarning xarakterini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Dialoglar orqali o‘quvchi bola dunyoqarashi, odob-axloqi va ichki noroziliklarini tushunadi. Shu bilan birga, muloqot bolalarning ma’naviy fazilatlarini, mas’uliyat hissini va adolatga intilishini yoritadi. Asarda ramziy obrazlar bolalar dunyosini boyitadi. Masalan, “jannat” tushunchasi bola

tasavvurida halollik, poklik, vijdon va ezgulik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy tasvirlar (tabiat manzarasi, holatlar, harakatlar) bolalarning ruhiy kechinmalarini jonli va ko‘rinarli qiladi. Bolalar obrazlari orqali asar axloqiy-estetik g‘oyalarni ham ilgari suradi: halollik, vijdon bilan yashash, mehr-muruvvat va adolat. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Shu yo‘l bilan o‘quvchi ichki dunyo va xarakter haqida mulohaza qilishi, o‘zini ham tahlil qilishi mumkin.

“Jannati odamlar” asarida markaziy o‘rinda inson va uning vijdoni masalasi turadi. Muallif jamiyatdagi turli ijtimoiy muhitlar fonida insonning o‘zligini saqlab qolishi, halollik yo‘lidan chekinmasligi naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Asarda halol mehnat, pok niyat, sofdillik, adolat kabi umuminsoniy qadriyatlar yetakchi g‘oya sifatida ilgari suriladi. Bolalar ichki dunyosi ularning kundalik hayoti, atrof-muhitga munosabati va ichki kechinmalari orqali yoritiladi. Muallif bolalarni ideallashtirmaydi, balki ularning quvonch, iztirob, ikkilanish kabi ruhiy holatlarini tabiiy tarzda tasvirlaydi. Bu holat bolalar obrazining hayotiyligini ta’minlaydi. Bolalar ruhiyatini ochishda ichki monolog muhim vosita hisoblanadi. Qahramonning o‘z-o‘zi bilan suhbatlari orqali uning vijdoniy kurashi, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘l o‘rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar ifodalanadi. Psixologik detallarning mohirona qo‘llanishi asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Asarda dialoglar bolalar xarakterini ochishda yetakchi rol o‘ynaydi. Bolalar va kattalar o‘rtasidagi suhbatlar orqali bolaning dunyoqarashi, hayotga munosabati va ichki noroziliklari namoyon bo‘ladi. Dialoglarning tabiiyligi obrazlarning ishonarliligini kuchaytiradi.

Yozuvchi asarni didaktik nasihatga aylantirib yubormaydi. Aksincha, u hayotiy voqealar, obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali g‘oyani tabiiy tarzda ochib beradi. Natijada o‘quvchi tayyor xulosa emas, balki mustaqil fikrlashga undaladi. Bu holat asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Asardagi obrazlar real hayotdan olingan bo‘lib, ular sun’iy ideallashtirilmagan. Qahramonlar hayotdagi oddiy odamlar – ular quvonadi, iztirob chekadi, ba’zan adashadi, ammo vijdon oldidagi mas’uliyatni unutmaydi. Aynan shu jihat ularni “jannati odamlar” darajasiga ko‘taradi. Muallif obrazlarni yaratishda ularning ichki dunyosiga chuqur e’tibor qaratadi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki kurashlari psixologik aniqlik bilan tasvirlanadi. Insonning o‘z nafsi, manfaat va vijdoni o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar asarda asosiy konfliktlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, asarda salbiy qiyofalar ham mavjud bo‘lib, ular orqali jamiyatdagi riyo, manfaatparastlik, yolg‘onchilik kabi illatlar fosh etiladi. Biroq muallif bu obrazlarni keskin qoralamaydi, balki ularning xatti-harakatlari orqali o‘quvchini xulosa chiqarishga undaydi.

“Jannati odamlar” asarida shaxs va jamiyat munosabati muhim masala sifatida ko‘tariladi. Inson jamiyat ta’sirida shakllansa-da, o‘z e’tiqodi va vijdonini yo‘qotmasligi kerakligi asarning asosiy falsafiy xulosalaridan biridir. Muallif ayrim holatlarda jamiyat bosimi, noto‘g‘ri qarashlar insonni ma’naviy tanazzulga olib kelishini ko‘rsatadi. Bunga qarshi qo‘yilgan kuch esa – mustahkam e’tiqod va halol yashash istagidir. Bu jihatdan asar zamonaviy hayot uchun ham dolzarbdir. Chunki hozirgi globallashuv davrida moddiy manfaatlar ko‘pincha ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yilmoqda. To‘xtaboyev esa bu holatga badiiy munosabat bildirib, ma’naviy poklikni eng oliy boylik sifatida talqin qiladi.

Asarning tili sodda, ravon va obrazli. To‘xtaboyev murakkab g‘oyalarni oddiy, xalqona iboralar orqali ifodalay olgan. Bu esa asarning keng kitobxonlar ommasi tomonidan oson qabul qilinishiga xizmat qiladi. Dialoglar jonli, hayotiy bo‘lib, qahramonlarning xarakterini ochishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Muallif badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanadi. Ramziy obrazlar, qarama-qarshiliklar, ichki monologlar asarning badiiy qiymatini oshiradi. Ayniqsa, inson qalbidagi kurashni tasvirlashda psixologik detallarning mohirona qo‘llanishi To‘xtaboyev ijodiga xos jihatlardan biridir.

“Jannati odamlar” asari, avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga ega. U yosh avlodni halollik, vijdon, adolat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Asar o‘quvchini faqat yaxshilik qilishga emas, balki yaxshilikni anglab, ongli ravishda tanlashga undaydi. Shu bilan birga, asar kattalar uchun ham muhim hayotiy saboqlarni beradi. U insonni o‘z hayotiga tanqidiy nazar bilan qarashga, ma’naviy qadriyatlarni qayta baholashga chorlaydi. Demak, “Jannati odamlar” yosh chegarasidan qat’i nazar, har bir kitobxon uchun muhim ma’naviy ozuqa bo‘la oladi.

“Jannat” tushunchasi asarda ramziy ma’noda qo‘llanilib, bolalar tafakkurida halollik va adolat timsoliga aylanadi. Asar yosh avlodni vijdon bilan yashashga, ezgulikka intilishga chorlaydi. “Jannati odamlar” asarida bolalar ichki dunyosi va xarakteri turli badiiy vositalar orqali chuqur va ta’sirchan yoritilgan. Ichki monolog, dialog, psixologik tasvir va ramziy obrazlar asarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jannati odamlar” asari o‘zbek adabiyotida inson va ma’naviyat masalasini yuksak badiiy darajada yoritgan muhim asarlardan biridir. Unda jannat tushunchasi axloqiy-me’yoriy mezon sifatida talqin qilinib, inson qalbidagi poklik bilan bog‘lanadi. Asar o‘quvchini ezgulikka, halollikka va vijdon bilan yashashga da’vat etadi. Shu bois “Jannati odamlar” asari nafaqat adabiy-badiiy, balki ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan asar sifatida baholanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To‘xtaboyev X. Jannati odamlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 19__.
2.To‘xtaboyev X. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 19__.
3.Yo‘ldoshev Q. Hozirgi o‘zbek adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 2012.
4.Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
5.Rasulov A. Badiiy asar tahlili va talqin. – Toshkent: Fan, 2005.
6.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7.Normatov U. Adabiy tafakkur va badiiy mahorat. – Toshkent: Sharq, 2007.
8.Boltaboyev H. Bolalar adabiyoti va tarbiya masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

Farangiz BOZOROVA,
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

ABDULLA QAHHOR VA O‘RXON KAMOL HIKOYALARIDA SO‘Z QO‘LLASH VA DETALLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqola Abdulla Qahhor va Orhan Kemal hikoyalarida so‘z qo‘llash va detallardan foydalanish mahoratini tahlil qiladi. Ishda adabiyotshunoslik nazariyasi asosida so‘z tanlash, leksik birliklarning badiiy vazifasi, dialoglar va milliy kolorit orqali obraz yaratish jarayoni o‘rganiladi. Maqolada har ikki yozuvchining individual uslubi, ortiqcha tafsilotdan qochish, kam so‘z bilan katta ma’no ifodalash, shuningdek, detal va ijtimoiy realizm vositalaridan foydalanish jihatlari solishtiriladi. Natijada maqola hikoyada so‘z va detal ishlatish orqali badiiy ifoda va ijtimoiy muhitni aks ettirishning samarali usullarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: *hikoya janri, so‘z tanlash, badiiy detal, realizm, dialog, obraz yaratish, milliy kolorit, ijtimoiy muhit*

Аннотация: данная статья анализирует мастерство использования слов и деталей в рассказах Абдуллы Каххора и Орхана Кемаля. В работе на основе литературоведческой теории изучаются выбор слов, художественная функция лексических единиц, процесс создания образа через диалоги и национальный колорит. В статье сравниваются индивидуальные стили обоих писателей, умение избегать излишних подробностей, выражать глубокий смысл минимальными средствами, а также использование деталей и средств социального реализма. В итоге статья раскрывает эффективные методы отражения художественного выражения и социальной среды через слова и детали в рассказе.

Ключевые слова: *Абдулла Каххор, Орхан Кемаль, жанр рассказа, выбор слов, художественная деталь, реализм, диалог, создание образа, национальный колорит, социальная среда*

Annotation: this article analyzes the mastery of word choice and the use of details in the short stories of Abdulla Qahhor and Orhan Kemal. Based on literary theory, the study examines word selection, the artistic function of lexical units, and the process of character creation through dialogue and national color. The article compares the individual styles of both writers, their avoidance of excessive description, their ability to express deep meaning with minimal words, and their use of detail and social realism. As a result, the study highlights effective ways of reflecting artistic expression and the social environment through the use of words and details in short stories.

Key words: *short story genre, word choice, artistic detail, realism, dialogue, character creation, national color, social environment*

Kirish. Adabiyotshunoslikda so‘zdan foydalanish eng muhim va nozik jihatlardan biri hisoblanadi. Har bir ijodkor o‘z ijod namunalarida ma’lum bir voqeani bayon etadi,balki uni kitobxonga qay shaklda yetkaza olishni ham o‘ylaydi. Bu jarayonda so‘z qo‘llash, ya’ni leksik birliklardan to‘g‘ri foydalanish juda muhim. Negaki, so‘z faqatgina aloqa vositasi emas, balki obraz yaratish, muhitni tasvirlash, qahramon xarakterini ochib berish, muallif g‘oyasini tushunishga yordam beradi. Har bir ijodkorning so‘z qo‘llash uslubi bordir. Birilari sodda va xalqona ifodani ustun qo‘ysa, birilari murakkab va badiiy bezaklarga boy tilni afzal ko‘radi. Shu sababli ijodkor so‘zning lug‘aviy ma’nosi emas, balki ohangi va kitobxonga ko‘rsatadigan ta’sirini ham inobatga oladilar. Hikoya janri adabiyotshunoslikda eng kichik janr turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hikoya janrida so‘z qo‘llash masalasi alohida ahamiyatga ega. Negaki, u hajman kichik bo‘lsa-da, ortiqcha tafsilot berilmaydi, mahorat bilan qo‘llanilgan birgina so‘z ortiqcha izohlarsiz, lo‘nda va ta’sirchan ifodalashi lozim. Ya’ni kam so‘z bilan katta ma’no berish lozim. Undagi har bir jumla, hatto har bir so‘z matndan olib tashlansa, mazmunga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan darajada mazmunga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan darajada ahamiyatli bo‘lishi kerak. Buyuk ijodkor Abdulla Qahhor so‘z qo‘llash haqida shunday deydi: (“Semiz kitobning yuragi yaxshi tepmaydi; Asar qovog‘ari chaqqanday semiz; Xomsemiz asar ustidan asfalt qiladigan mashina o‘tkazish kerak; Yozuvchining boshqa hunarlardan farqi yozuvchi o‘zidan-o‘zi operatsiya qiladi; yozganini qisqartirib tashlay oladi”).[3] Yozuvchining bu gaplari yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir.

Muhokama va natijalar. Abdulla Qahhor va O‘rxon Kamol hikoyalarida so‘z qo‘llash mahorati masalasi o‘ziga xos badiiy – estetik xususiyatga ega bo‘lib bu ikki yozuvchi ijodida tilning imkoniyatlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning hikoyalarida so‘z nafaqat voqealarni bayon etish vosiytasi, obraz yaratish, ijtimoiy muhitni aks ettirish va muallif g‘oyasini ifodalashning asosiy quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyalarida so‘zlar sodda, aniq va xalqchil. Yozuvchi ortiqcha tasvir va murakkab iboralardan qochib, qisqa va lo‘nda jumlalar orqali katta ma’noni ifodalashga erishadi. U har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llanadi va muayyan badiiy vazifani bajaradi. Qahhor hikoyalarida iboralar maqol va matallar ham keng qo‘llaniladi. Bu esa hikoyaga milliy ruh bag‘ishlab, uni o‘quvchiga yanada yaqin qiladi. Yozuvchiga so‘z tanlashda real hayot tiliga yaqinlashadi, shu orqali obrazlarning tabiiyligini ta’minlaydi. Uning hikoyalarida har bir qahramon o‘ziga xos nutq bilan ajralib turadi, bu esa so‘z qo‘llash orqali xarakter yaratishning yorqin namunasidir. Buyuk ijodkor Said Ahmad “Abdulla Qahhor chinakamiga so‘z zargari edi. Kichik bir hikoyasi ham soat mexanizmidek aniq detallardan tashkil topardi”[3] deb aytadi. Demak, Abdulla Qahhor hikoyada detallarga alohida e’tibor qaratgan.

“Detal”(fr.detail-tafsilot,mayda-chuyda)_badiiy detal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalivchi, g‘oyaviy badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo detal badiiy voqelikni yaratish

vositasi ashyosi bo‘lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo‘lgan tarzda gavdalantiradi.[4] Qahhorning “Dahshat” hikoyasi atrof-muhit tasviri bilan boshlanadi. Bunda yozuvchi tabiat detalidan foydalanadi. Hikoyaning boshida kuzak shamoli, yaydoq daraxtlar shoxidagi chiyillash va g‘uvillash, tomlardagi ovozlar va harakatlar tasvirlanadi. Bu tasvir orqali yozuvchi Olim dodxohning uyi tasvirini beradi. Tabiatda bu hodis bir kun yoki ikki kun bo‘lishi mumkin, uchinchi kun quyosh chiqadi. Ammo dodxohning uyidagi holat doim shu ahvolda. Bunda yozuvchi tabiat detali orqali uyidagi atmosferani ko‘rsatib beradi. “O‘tmishdan ertaklar” avtobiografik qissasi orqali ham kichik bir detallar orqali katta badiiy voqealarni ochib bergan. “Chinoq” detali orqali buni yaqqol namunasini ko‘rishimiz mumkin. “...-juvon dadamga hinoq deb laqab qo‘ydi, hammadan ham shu kulgili bo‘ldi: ayam shuncha yil turib dadamning qulog‘i kemtik ekanligini ko‘rmagan ekan...”[1] Bu jumla orqali yozuvchi oddiy voqeani emas, balki ayollarni ma’naviy dunyosini ruhiy olamini ko‘rsatib beradi. Ayol buni shuncha yil mobaynida ko‘rmagani e’tiborsizlik emas, ayoldagi muhabbat, sadoqat va hurmat shunchalik yuqoriki, ayol bu kabi holatlar ular orasida kichikligicha qolaveradi. “Anor” hikoyasiga e’tibor qaratganimizda Turobjon va uning xotini o‘rtasidagi uy hayoti va insoniy munosabatlarni jonli tarzda ochib beradi. Hikoyada qahramonlarning harakatlari, ruhiy holatlari va atrof-muhitning detallari orqali voqea realistik va hissiyotli tarzda tasvirlangan. Masalam, Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, yaktagining yengi yirtilishi, jo‘xori to‘kilishi kabi kichik detallar uning kayfiyati va hayajonini o‘quvchiga ko‘rsatib beradi. Hikoyadagi buyumlar ham ramziy ma’noga ega. Yozuvchi bu oddiy elementlar orqali oila hayotining oddiy (kambag‘allikda) umr kechirishini tasvirlaydi. Hikoyada Turobjon xotiniga shunday deydi: “Jigarlaring ezilib ketsin”. Bu orqali biz qahramonlarning hissiy holatini ko‘rishimiz mumkin. Turobjonning so‘zi xotiniga bo‘lgan achchiqlanish, alam va hayratning birlashmasi sifatida chiqadi. Shu bilan birga u nafaqat xotinining his-tuyg‘ularini, balki Turobjonning o‘z ichki hislarini ham ochib beradi. Qahramon o‘zining ichki kechinmalarini bevosita so‘z orqali ifoda qilmaydi, ramziy ifoda orqali his qildiradi. O‘rxon Kamol hikoyalarida esa so‘z qo‘llash mahorati realizm va ijtimoiy hayotni chuqur aks ettirish bilan bog‘liq holda aks etadi. Uning tilida sodda va tabiiy nutq ustun bo‘lib, u ko‘proq jonli dialoglar orqali voqeani ochib beradi. Dialoglar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy mavqeyi aniq ifodalanadi. Yozuvchi har bir qahramon uchun mos til vositalarini tanlaydi, natijada har bir obraz o‘ziga xos nutq uslubiga ega bo‘ladi. O‘rxon Kamol asarlarida ham ortiqcha bezakdorlikdan qochish kuzatiladi. U sodda, lekin ta’sirchan so‘zlar orqali o‘quvchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mehnatkashlar, kambag‘allar hayotini tasvirlashda ishlatilgan so‘zlar ijtimoiy realizmni kuchaytiradi. Yozuvchi til orqali ijtimoiy tengsizlik, insoniy muammolar va hayotiy kurashlarni ochib beradi. Bu esa uning so‘z tanlashdagi aniqligi va mahoratini ko‘rsatadi. Makon tasvirlari xarakterlarning kambag‘alligi yoki ijtimoiy maqomini bevosita aks ettiradi. Masalan, bir xonadagi singan stul yoki oshxonadagi bo‘sh qozon, xarakterning hayotiy kurashini uzun tavsiflarsiz ko‘rsatadi. O‘rxon Kamol hikoyalarida detal faqat bezak emas; u jamiyatni realistik ko‘rsatishning eng asosiy tamoyilidir. Muallif, “kichik odam” deb ataydigan ishchi, dehqon va chekka mahallalarda yashovchi insonlarni tasvirlayotganda, bu detallardan sinfiy va ruhiy tahlil vositasi sifatida foydalanadi.

“Ekmek kavgasi” (“Non uchun kurash) hikoyasida “zanglagan tunuka qutilar”, “yalangoyoq bolalar”, “Kampirlarning yamoq kiyimlari” va yana bir qancha detallar orqali kambag‘allarning og‘ir hayoti, urush paytidagi ijtimoiy muhit-qashshoqlik va ochlikni ochib bergan. Hikoyada hayvonlar orqali buni yanada real va ishonarli tasvirlagan.”...Bazen bir kemik parçası yüzünden insanlarla köpekler ara sında da kavgalar oluyordu. Dumanı tüten yağlı bir kemik parçasını teneke kutusuna sokmaya uğraşan bir kocakarının yanı na sinirli bir erkek köpek ı! Slıllacık sokuluyor, usta bir pençe vu ruşuyla kemiği düşürüyor, kocakarı dönene kadar, ağzında kemik parçasıyla fırlıyor, kocakarıysa, dişsiz ağzıyla karanlık karan lık oluyordu:“Allah kahretsin e mi! İki gözün kör olsun e mi !”[2] (Ba’zan bir parcha suyak sabab odamlar bilan itlar o‘rtasida ham janjallar chiqardi. Tutuni chiqib turgan yog‘li bir suyakni tunuka qutiga solmoqchi bo‘lib turgan bir kampirning yoniga asabiy bir it sezdirmay yaqinlashardi. U mohirona panja zarbasi bilan suyakni tushirib yuborar, kampir o‘girilib qaraguncha og‘zida suyak bo‘lagi bilan qochib ketardi. Kampir esa tishsiz og‘zi bilan g‘azablanib qarg‘ardi:— “Xudo ursin seni! Ikki ko‘zing ko‘r bo‘lsin!”) Umuman olganda, O‘rxon Kamol detalni har jihatdan maqsadli ishlatadi: u xarakterning ruhiy va sinfiy holatini ko‘rsatadi, hikoyaning realizmini oshiradi va davr ijtimoiy muhitini o‘quvchiga yetkazadi. Detallar u uchun sahna yaratish va o‘quvchida his-tuyg‘u uyg‘otishning eng samarali vositasidir.

Xulosa. Har ikki yozuvchi ijodida ham umumiy jihat – ortiqcha tavsif va murakkabligidan qochish, kam so‘z bilan katta ma’noni ifodalashga intilishdir. Shuningdek, har ikki adib hikoyalarida dialoglar muhim o‘rin turadi va ular orqali obrazlar ochiladi. Biroq farqli jihatlari ham bor. Abdulla Qahhor ko‘proq kinoya va yumor orqali so‘zning yashirin ma’nosini ochsa, O‘rxon Kamol esa ijtimoiy realizmni kuchliroq aks ettirishga e’tibor qaratadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. “Anor”. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
2. Kemal,O.(2012). Ekmek kavgası. (18.baskı). Everest Yayınları
3. Kibriyo Qahhorova, Otayor Nahanov. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987
4. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, 2024.
5. Ülkü Eliuz. Orhan Kemal eserlerinde yapı ve izlek. Doktora tezi.

Abdixoliqxoja ROZIQOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
roziqovabduxoliqxoja@gmail.com

SAID AHMAD QISSALARIDA TOPONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya:mazkur maqolada Said Ahmad qissalarida uchraydigan toponimlarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ishda yozuvchi asarlarida qo‘llanilgan joy nomlarining badiiy-estetik vazifasi, ularning matn mazmunini ochishdagi o‘rni hamda obraz va voqealar tizimi bilan uzviy bog‘liqligi o‘rganiladi. Toponimlarning milliy-madaniy ma’no yuklashi, tarixiy va ijtimoiy kontekstni ifodalashdagi ahamiyati ham yoritiladi. Shuningdek, ularning qahramonlar ruhiyati, muhit tasviri va muallif g‘oyasini yetkazishdagi lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy matnda toponimlarning nafaqat nominativ, balki estetik va semantik funksiyaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Said Ahmad, qissa, toponim (joy nomi), lingvopoetika, badiiy matn, uslubiy vazifa, onomastika, lisoniy obraz, badiiy mahorat, konnotativ ma’no.*

Аннотация: данное исследование посвящено анализу лингвопоэтических особенностей топонимов в повестях Саида Ахмада. В работе рассматриваются художественно-эстетические функции географических названий, их роль в раскрытии содержания текста, а также их неразрывная связь с системой образов и сюжетом. Освещается значимость топонимов в передаче национально-культурных смыслов, исторического и социального контекста. Кроме того, анализируются лингвопоэтические возможности топонимов в отражении психологии героев, описании среды и донесении авторского замысла. Результаты исследования подтверждают, что в художественном тексте топонимы выполняют не только номинативную, но и глубокую эстетическую и семантическую функции.

Ключевые слова: *Саид Ахмад, повесть, топоним (географическое название), лингвопоэтика, художественный текст, стилистическая функция, ономастика, языковой образ, художественное мастерство, коннотативное значение.*

Annotation: this study is devoted to the analysis of the linguopoetic features of toponyms in the novellas of Said Ahmad. The research examines the artistic and aesthetic functions of place names, their role in unfolding the textual content, and their integral connection with the system of characters and events. The significance of toponyms in conveying national-cultural nuances, as well as historical and social contexts, is highlighted. Furthermore, the study analyzes the linguopoetic potential of toponyms in reflecting character psychology, depicting the setting, and delivering the author’s message. The findings demonstrate that in literary texts, toponyms fulfill not only a nominative function but also profound aesthetic and semantic roles.

Key words: *Said Ahmad, novella, toponym (place name), linguopoetics, literary text, stylistic function, onomastics, linguistic image, artistic skill, connotative meaning.*

Kirish. Badiiy adabiyot tilining eng muhim tarkibiy unsurlaridan biri — bu toponimlar, ya’ni joy nomlaridir. Toponimlar nafaqat geografik makonni ifodalash vositasi, balki badiiy matnda muayyan obraz, kayfiyat, tarixiy-madaniy muhit hamda muallifning estetik qarashlarini aks ettiruvchi lingvopoetik birlik sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, o‘zbek adabiyotida toponimlarning qo‘llanishi va ularning badiiy funksiyasini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Said Ahmad ijodida ham toponimlar muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Adibning qissalarida uchraydigan joy nomlari voqealar rivojiga xizmat qilish bilan birga, asarning umumiy badiiy-estetik qimmatini oshiradi, obrazlar xarakterini ochishda, milliy ruhni ifodalashda va tarixiy haqiqatni tasvirlashda faol ishtirok etadi. Said Ahmad qissalaridagi toponimlar ko‘pincha xalqona ruh, milliy mentalitet va real hayotiy manzaralarni aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Toponimlarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tutash nuqtasida amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, bunda joy nomlarining semantikasi, stilistik funksiyasi, konnotativ ma’nolari hamda badiiy matndagi o‘rni alohida e’tiborga olinadi. Said Ahmad qissalarida qo‘llangan toponimlar ham ana shu jihatlar asosida o‘rganilganda, ular oddiy nomlash vositasi emas, balki chuqur ma’no yukiga ega bo‘lgan badiiy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqola natijalari o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika yo‘nalishini rivojlantirishga, badiiy matn tahlilining yangi qirralarini ochishga hamda Said Ahmad ijodining til xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalar tahlili hamda tadqiqot usullari. Said Ahmad qissalarida uchraydigan toponimlar yozuvchi badiiy olamining muhim lingvopoetik komponenti bo‘lib, ular asar voqealarini makon jihatdan aniq belgilash bilan birga, milliy tarix, madaniyat va til qatlamlarini ham yoritadi. Ijodkor qissalarida Qo‘qon, Chirchiq, Toshkent, Termiz, Xo‘jand, Marg‘ulon, G‘ishtko‘pri, Buvayda, Qo‘shtegirmon, Ultarma, Olchin va bosqa joy nomlarini kuzatish mumkin. Har bir joy

nomi o‘zining etimologik ildizlari orqali muayyan semantik yukni tashiydi va shu jihatdan badiiy matnda obrazlilikni kuchaytiradi.

Avvalo, Qo‘qon toponimi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu nomning kelib chiqishi qadimgi turkiy shakllarga borib taqaladi. Ayrim manbalarda u “xo‘qand” shaklida uchrab, “go‘zal”, “yoqimli maskan” ma’nolarini bildirishi qayd etiladi. Qo‘qon tarixan Farg‘ona vodiysining muhim siyosiy va madaniy markazi bo‘lgani bois, bu nom Said Ahmad qissalarida nafaqat geografik makon, balki tarixiy xotira va milliy o‘zlik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Masalan, *Agar magazin mudiri oyog‘ini tirasa, Qo‘qon yoki Chirchiq poyabzal fabrikasidan olingan molni ro‘para qiladi.*[1:7]

Sirdaryoda ham xuddi shunaqa faloqat yuz bergan. Dovondan o‘tib Qo‘qon tomon ketayotganda xayoli qochib mashinani boshqarolmay qolgan, mashina bir necha marta dumalab ketgan. Uni boshqa mashinaga sudratib, ustaxonaga olib borishgan.[2:24]

Xo‘jand toponimi fors-tojik tilidagi “xo‘ja” (olim, ulug‘ inson) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “xo‘jalar shahri” degan ma’noni bildiradi. Bu nom o‘zida ilm-fan, ma’naviyat va tarixiy madaniyat izlarini mujassam etadi. Yozuvchi bu kabi toponimlar orqali badiiy matnga ma’naviy rang-baranglik olib kiradi.

Masalan, *Xo‘jandda daryodan o‘tishingiz bilan “Chorux Darron” degan toshloq adirga ro‘baro‘ kelasiz.*[2:4]

G‘ishtko‘prik nomi aniq va shaffof semantik tuzilishga ega: “g‘isht” va “ko‘prik”. Bu esa “g‘ishtdan qurilgan ko‘prik” degan ma’noni anglatadi. Ushbu toponim real hayotiy predmet asosida shakllangan bo‘lib, badiiy matnda konkretlik va realistik tasvirni kuchaytiradi.

Masalan, *Samovarchi, oshga hozir guruch solaman, bir cho‘qimgina yeb ketinglar, deb shuncha tavallo qildi, ko‘nmadik. Soat ikkida Qo‘qonning G‘ishtko‘prigida Adham Hamdam bilan Anvar Muqimov, Yo‘ldosh Sulaymon hamda hofiz Qobiljon Yusupovlar bizni kutadi, shunga ulgurib bormasak bo‘lmaydi, dedim.*[2:34]

Ultarma toponimi xalq tiliga xos shakllanishga ega bo‘lib, “o‘tar joy”, “kechuv” ma’nolarini bildiruvchi “o‘tar” ildizi bilan bog‘lanadi. Bu esa mazkur joyning transport yoki yo‘l bilan bog‘liq ahamiyatini ko‘rsatadi.

Masalan, *U tug‘ilib o‘sgan Qo‘shtegirmon, Ultarma qishloqlari shundoqqina biqinimizda. Hozir sizlar bilan gaplashib o‘tirgan joyimiz Olchin qishlog‘imizda tomga chiqib qarasak Asror bobo yurgan ko‘chalar, guzarlar ko‘rinib turadi.* [2:7]

Olchin esa qadimgi turkiy qabila nomi bo‘lib, etnonim asosida shakllangan toponim hisoblanadi. Bu nom orqali hududning etnik tarkibi va tarixiy ildizlari ifodalanadi.

Masalan, *Shunday mehribon, buyuk istiqbol va’da qilgan ustozlarning yuziga oyoq qo‘yib, Olchinga qaytib keldim. Sizning pulga ochligingiz, pulga toymasligingiz mening kelajagimga zavol bo‘ldi. Siz uchun “Olchin” bir mamlakat edi.* [2:28]

Umuman olganda, Said Ahmad qissalarida qo‘llangan toponimlar lingvopoetik birlik sifatida nafaqat makonni belgilaydi, balki o‘zida tarixiy-etimologik ma’no, milliy madaniyat va xalq tafakkurini mujassam etadi. Har bir joy nomi badiiy matnda o‘ziga xos semantik va estetik vazifani bajarib, asarning mazmuniy va obrazli qatlamini boyitadi.

Xulosa. Said Ahmad qissalarida qo‘llangan toponimlar badiiy matnning muhim lingvopoetik unsuri sifatida namoyon bo‘lib, ular asarning mazmuniy va estetik qatlamini boyitishda faol ishtirok etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, adib tomonidan tanlangan joy nomlari tasodifiy emas, balki muayyan badiiy maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llanadi. Ular voqea rivojlanadigan makonni aniqlashtirish bilan birga, obrazlarning ruhiy holatini ochish, milliy koloritni yaratish hamda tarixiy-haqiqiylikni ta’minlash vazifalarini bajaradi. Toponimlarning lingvopoetik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular semantik jihatdan boy, ko‘p qatlamli ma’noga ega bo‘lib, matnda qo‘shimcha konnotativ yukni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, xalqona ruhdagi joy nomlari orqali muallif milliy mentalitetni, urf-odat va qadriyatlarni jonli tasvirlaydi. Bu esa o‘quvchida asarga nisbatan ishonch, yaqinlik va estetik zavq uyg‘otadi.

Shuningdek, Said Ahmad qissalaridagi toponimlar obraz yaratishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.Ular orqali qahramonlarning ijtimoiy muhiti, yashash tarzi va dunyoqarashi yanada aniqroq ifodalanadi. Ayrim hollarda esa toponimlar ramziy ma’no kasb etib, badiiy g‘oyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Said Ahmad qissalarida toponimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki badiiy-estetik yuklamaga ega bo‘lgan lingvopoetik vosita sifatida qo‘llanadi. Ularning tahlili adib ijodining til xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda o‘zbek badiiy matnida joy nomlarining funksional imkoniyatlari keng ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Said Ahmad. “G‘ildirak” qissasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. www.ziyo.uz.com.

2.Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

3. Said Ahmad. Umrim bayoni. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2008.

4. Karomatov A. “O‘zbek adabiyotida toponimlarning poetik funksiyasi”. Toshkent, 2018.

5. Zunnunova M. “Adabiy matnda toponimlarning lingvopoetik xususiyatlari”. Filologiya fanlari doktori diss., Toshkent, 2017.

Shaxnoza O‘ROQOVA,
BuxDU Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
Shaxnozaoroqova3@gmail.com

MAYSARANING ISHI DRAMASIDAGI DISKURSIV STRUKTURALAR VA SEMIOTIK MODELLAR: POSTSTRUKTURAL TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada “Maysaraning ishi” komediyasi an’anaviy sovet adabiyotshunosligi qoliplaridan chiqib, poststrukturalistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asardagi ijtimoiy tabaqalanish semiotik belgilar tizimi sifatida, hokimiyat munosabatlari esa diskursiv amaliyotlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Hamzaning dramaturgiya sohasidagi yangi odimlari haqida fikrlar beriladi. Tahlillar aniq dalillar orqali isbotlanadi. Maqolada M.Rahimov, S.Mamajonov, S.Husayn, S.Meliyev, B.Yo‘ldoshovning fikrlari keltiriladi

Kalit so‘zlar: *poststrukturalizm, dekonstruksiya, semiotika, diskurs, hokimiyat, “Maysaraning ishi”, iyerarxiya, matnlararolik.*

Annotation: this article analyzes the comedy “Maysaraning Ishi” (The Mischief of Maysara) from a post-structuralist perspective, moving beyond the traditional frameworks of Soviet literary criticism. Furthermore, the article explores Hamza’s innovative strides in dramaturgy, analyzing his work through the lenses of realism and character development. To enhance the scholarly value of the research, the analysis is supported by evidence and the perspectives of prominent Hamza scholars, including M. Rahimov, S. Mamajonov, S. Husayn, S. Meliyev, and B. Yuldoshov.

Key words: *post-structuralism, deconstruction, semiotics, discourse, power, “The Mischief of Maysara”, hierarchy, intertextuality.*

Аннотация: в данной статье комедия «Проделки Майсары» анализируется с позиции постструктурализма, выходя за рамки традиционных канонов советского литературоведения. Социальное расслоение в произведении рассматривается как система семиотических знаков, а властные отношения — как дискурсивные практики. Также освещаются новаторские шаги Хамзы в области драматургии. Для повышения научной ценности статьи в ней широко использованы мнения известных хамзаведов, таких как М. Рахимов, С. Мамажонов, С. Хусайн, С. Мелиев и Б. Юлдашев. Все выводы подкрепляются конкретными доказательствами.

Ключевые слова: *постструктурализм, деконструкция, семиотика, дискурс, власть, «Проделки Майсары», иерархия, интертекстуальность.*

Kirish. O‘zbek adabiyotining ilk davri va yigirmanchi yillar teatr san’atining jonlangan davri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida dramaturgiya yo‘nalishida Hamza yaratgan asarlar adabiy tanqidchilar diqqat markazida bo‘ldi. Hamza dramaturgiyasi haqida 1939-yilda tanqidchi Sotti Husayn shunday yozgan edi: “Hamza “teatrni keng xalq ommasiga tez yaqinlashtirish uchun o‘z asarlarida ko‘proq o‘zbek xalq teatri materiallaridan xalq o‘yinlari, qiziqchilik, ajoyib ertaklardan keng suratda foydalandi... Og‘ir sahna sharoitida rejissyor, aktyor, yozuvchi bo‘lib ishladi. Hamza sotsialistik realistik, revolyutsion romantik xususiyatlarni, boshlang‘ich darajada bo‘lsa-da, birlashtira olgan yozuvchidir... Hamzaning sahna tili bobida birinchi marta qilgan ishlari hozirgacha o‘z qimmatini saqlaydi...” [8,47]. Hamza yaratgan dramatik asarlar S.Husaynning ta’kidlashicha, yigirmanchi yillarning oxiri va o‘ttizinchi yillarning birinchi yarmidagi o‘zbek dramaturgiyasining ko‘tarilish davrida Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Burungi saylovlar” pyesalari katta ahamiyatga ega bo‘lganidek, Hamza maktabining shogirdlari Komil Yashin, Sobir Abdulla, Zinnat Fatxullin, Umarjon Ismoilov, Nazir Safarov singari talantli yoshlar pleyadasi qalamiga mansub asarlar ham faol ishtirok etdi.

“Paranji sirlari”, “Maysaraning ishi” kabi asarlari Respublikaning muzikali drama teatrlarini ommaga tanitgan. “Maysaraning ishi” pyesasi asosida opera librettosi yozilgan. U librettoni Hamza o‘zi tarbiyalab katta qilgan shoir, dramaturg sifatidagi shogirdi Sobir Abdulla va bastakor Sulaymon Yudakovlar yozgan. Hamzaning dramatik asarlari jahon sahnalarida ijro etilgan. M.Rahmonov taqdim etgan ma’lumotlar real hayotda o‘z aksini topgan. S.Mamajonov: “Hamzaning “Maysaraning ishi” komediyasida shunday xususiyat bor. Unda dramaturgning g‘oyaviy niyatiga xizmat qilmaydigan, asardagi bosh masala bilan jips bog‘lanmagan birorta personaj yo‘q. Bu hol asar kompozitsiyasining mukammalligidan dalolat beradi. Ushbu holat Hamzaning komediya janri sirlarini chuqur o‘rganganligini ko‘rsatadi” – deb, fikrini asoslaydi. S.Meliyev bugungi kunda ham

Hamzani o‘zbek dramaturgiyasining ham boshlang‘ichi, ham so‘nggisi deb biladi. S.Meliyev Hamzaning dramatik asarlarini Behbudiyning “Padarkush”, A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Xoji Muin, Abdulla Badriy pyesalari bilan qiyoslash noto‘g‘ri, Hamza dramaturgiyasida dialog, dramatik yechimlar, pishiq va baquvvat ishlangan deb hisoblaydi. “Maysaraning ishi” dagi syujet, personajlar, komik holatlar ancha mukammal yaratilgan deb ta’kidlaydi. Bu pyesadagi kuchli yumor, askiya, kesatiqlar shu davrdagi boshqa asarlarda uchramaydi deb asarga yuqori baho beradi. ”Maysaraning ishi” pyesasini komediya-del-arte, Molerning eng yaxshi komediyalariga tenglashtiradi. O‘zbek dramaturgiyasining dunyoga kelishi, adabiy tur sifatida ko‘payishi, rivojlanishi va taraqqiy etishida shak-shubhasiz Hamzaning o‘rni beqiyosligi haqida professor Yo‘ldosh Solijonov “Haqiqat izlagan adib” nomli maqolasida shunday yozadi: “Garchi, dramaning ilk namunasi Behbudiy tomonidan yozilgan bo‘lsa ham bu adabiy turning barcha janrlarida yetuk asarlar yaratish uning zimmasiga tushdi. Yana shunisi muhimki, u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib dramatik trilogiya (“Loshmon fojiasi”, 1916–1919), dramatik tetralogiya (“Farg‘ona fojiasi”,1918–1920), she’riy dramalar (“Saylov oldidan”, “El quzg‘unlari”)ni adabiyotimiz xazinasiga olib kirdi. Bu faktlar o‘zbek dramaturgiyasining tom ma’nodagi asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy bo‘lganligini yana bir bor tasdiqlaydi”[8,47]. “Maysaraning ishi” dramasi umumiy ma’noda jadid dramaturgiyasida ayollarga boshqa bir rakursdan qaradi, o‘zbek ayoli qiyofasining hali yozma adabiyotga kiritilmagan qiyofasini olib kirdi. Bilvosita ushbu dramatik asar tahliliga yuzlanar ekanmiz, “Maysaraning ishi” dramasi uzoq yillar davomida faqat sinfiy kurash va boylar ustidan kulish sifatida talqin qilib kelinganini aytib o‘tish kerak. Maqolaning maqsadi – asardagi “hokimiyat” va “bo‘ysunuvchi” o‘rtasidagi an’anaviy iyerarxiyaning tildagi in’ikosini dekonstruksiya qilish va Maysara obrazini passiv obyektdan faol “ma’no yaratuvchi” subyektga aylanish jarayonini ko‘rsatib berishdir.

Poststrukturalizm maktabi vakillari Mishel Fuko va Jak Derrida g‘oyalariga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tuzilma tilda aks etadi. “Maysaraning ishi” dramasidagi ijtimoiy munosabatlar tahlilida R. Bartning semiotik modellari va Fukoning “hokimiyat-bilim” konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy iyerarxiyaning semiotikasi

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” komediyasi o‘zbek dramaturgiyasining klassik namunasi bo‘lish bilan birga, o‘zida murakkab ijtimoiy-lingvistik iyerarxiyalarni mujassam etgan. Poststrukturalizm nazariyasiga ko‘ra, matn barqaror ma’noga ega emas, balki u “ma’nolar oqimi”dir. Ushbu maqolada “Maysaraning ishi” dramasidagi ijtimoiy tuzilmalar Rolan Bartning semiotik modellari va Mishel Fukoning diskurs konsepsiyasi asosida qayta ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, asardagi Maysara obrazi shunchaki hiylakor ayol emas, balki mavjud ijtimoiy “matn”ni dekonstruksiya qiluvchi va yangi ma’no tizimini yaratuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Poststruktural sharh: Jak Derrida iyerarxiyalar har doim ham barqaror emasligini ta’kidlaydi. Qozikalon kiyimi va unvoni bilan “buyuk” edi. Sandiq ichidagi zulmatda esa u o‘zining barcha semiotik belgilaridan (salla, chopon, hurmat) mahrum bo‘ladi. Bu yerda biz **“belgining bo‘shashishi”** (semiotic slippage) holatini ko‘ramiz: unvon bor, lekin u o‘z egasini himoya qila olmaydi.

Tilning manipulyatsiyasi: Maysaraning “yolg‘on” matni

Maysara personajlar bilan muloqotda tildan shunchaki ma’lumot beruvchi vosita emas, balki haqiqatni quruvchi (constructive) kuch sifatida foydalanadi.

Matndan parcha: Mulla Ro‘zi: Men yer yuziga podsho bo‘lsam, bu diloromning har qadamiga ming-ming odam bolasini so‘yar edim. Nima deb o‘tiribsan, ilohim, o‘zi yolg‘iz kirsin-da. (turib ko‘rsatib) Shunday qilib, oyog‘iga o‘zimni tashlab oshipta qilay, oh, oh!

Maysara: (Choy ko‘tarib kirar, Ro‘zi bir turib, Maysarani ko‘rib xijolatdan xo‘rsinib o‘tirar.) Janoblari bir piyola choy ichib tursinlar, men olib kiray!

Mulla Ro‘zi: Tez bo‘l-ey, men baloni ichay! (Maysaraga) Shunday qilingki, o‘ldik-ku.

Shu paytda eshik qattiq taqillar, ikkovi ham g‘oyat cho‘chiydilar.

Maysara: Voy o‘lay, sho‘rim qursin! (Qo‘lni qo‘lga urar.)

Mulla Ro‘zi: (shoshib) Nima bo‘ldi, ayajon-aaa?

Maysara: Yer yutgur, kelib qoldi, shekilli. Nima qilaman, xudo urdi meni! (Yana taqillar.) Ana, xuddi o‘zi, voy xudo-yey[17,54]

Mishel Fuko aytganidek, “Haqiqat — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan diskursiv qoidalar majmuidir”. Maysara yangi qoidalar o‘ylab topadi va boylar bu qoidalarga amal qilishga majbur bo‘ladilar. Maysara — bu yerda **“Muallif ”** rolida. U o‘zining hiyla-nayrangi orqali shunday matn yaratadiki, unda hokimiyat vakillari shunchaki “qo‘g‘irchoq” (signifier) vazifasini bajaradi. Dramada Maysara obrazi an’anaviy xalq og‘zaki ijodidagi Barchinoy, Malikayi Ayyor. Gulanor, To‘maris kabi mard, shijoatli, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi donishmand ayollar obrazining tasvirini olib kiradi. Dramada Qozikalon, uning o‘g‘li, A’lam va Rais kabi obrazlar ma’lum bir “hokimiyat diskursi”ni ifodalaydi. Ularning nutqi – buyruq, shariat qonunlari va rasmiyatchilik ustiga qurilgan. Bir qarashda munofiqlik diskursining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib ifodalanadi. Bu poststrukturalizmda “markaz” tushunchasiga mos keladi. Maysara va Cho‘pon, Oyxon

esa bu tizimning “chekkasi” (periferiya) sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, asar davomida Maysara bu iyerarxiyani tildan foydalangan holda buzib yuboradi. U boylarning o‘z tilidan ularga qarshi qurol sifatida foydalanadi (masalan, shariat va qonun masalalarida). Bu sahnalarda Maysara donolik diskursi, adolat semiotikasi sifatida o‘rtada turadi.

An’anaviy jamiyatda ayol kishi “gapiriladigan” obyekt edi. Maysara esa “gapiradigan” va o‘z “matni”ni yaratadigan personajga aylanadi. Ayni paytda u boshqa personajlarni harakatlantiruvchi, eng katta yuk tashuvchi persona bo‘lib xizmat qiladi. U yaratgan hiyla-nayranglar aslida o‘ziga xos “ssenariy” bo‘lib, u boshqa barcha personajlarni obrazlarni boshqarish orqali o‘zining bu “matn”i ichiga kiritadi. Bu yerda biz “Muallifning o‘limi” (Bart) tushunchasiga duch kelamiz: qishloq hokimlari o‘zlarini vaziyat muallifi deb o‘ylashsa-da, aslida ular o‘zlari bilmagan holda Maysara tomonidan yozilgan matnning ijrochilariga aylanib qolishadi. Poststrukturalizmda belgi (sign) har doim ham barqaror emas. Dramada Qozikalon va A’lam obrazlari o‘z unvonlari orqali “mutlaq haqiqat” va “shariat” belgilarini o‘zlashtirib olishgan.

Dekonstruksiya: Maysara ularni sandiqqa qamab qo‘yganda, ularning ijtimoiy maqomi (unvoni) va jismoniy holati o‘rtasidagi ziddiyat yuzaga keladi. Sandiq ichidagi “qozi” endi hukm chiqaruvchi emas, balki kulgi obyektiga aylangan “matn”dir.

Tahlil: bu sahnada hokimiyatning kiyim va unvon kabi tashqi belgilarga qanchalik bog‘liqligi fosh etiladi. Agar kiyim (belgi) olib tashlansa, hokimiyatning o‘zi ham yo‘qoladi. Mishel Fuko nazariyasiga ko‘ra, kimning tili ustun bo‘lsa, o‘sha haqiqatni belgilaydi.

Maysaraning diskursi: Maysara boylar bilan gaplashganda ularning o‘z leksikasidan (shariat, qonun, rasm-rusum) foydalanadi. U tildagi “yoriqlar”ni topadi. Masalan, u qonunni buzmaydi, aksincha qonunni shunday talqin qiladiki, natijada qonun himoyachilarining o‘zi tuzoqqa tushadi. Bu yerda Maysara passiv personajdan “faol dekodlovchi”ga aylanadi. U jamiyat tomonidan o‘rnatilgan “kodlar”ni buzadi va ularni qayta formatlaydi.

Asardagi sandiq voqeasi va kiyimlar almashishi – klassik semiotik almashinuvdir. Unvon va kiyim (signifiant) o‘zining asl ma’nosidan (signifié) ajraladi. Qozikalon yoki A’lam kiyimsiz yoki sandiq ichida qolganida, ularning ijtimoiy “belgi”lik funksiyasi yo‘qoladi. Bu esa hokimiyatning qanchalik o‘tkinchi va sun’iy ekanligini isbotlovchi dekonstruktiv holatdir.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” komediyasini poststrukturalistik nuqtayi nazardan tahlil qilish asarning badiiy qimmatini an’anaviy “sinfiy kurash” qoliplaridan olib chiqib, kengroq falsafiy-lingvistik tekislikda namoyon etadi. Dramadagi Qozikalon, A’lam va Rais kabi personajlar tildan hukmronlik vositasi sifatida foydalansalar-da, Maysara ularning bu diskursiv ustunligini dekonstruksiya qiladi va hokimiyatning nutqdagi zaif nuqtalarini fosh etadi. Asardagi kiyim-kechak, unvon va sandiq kabi vizual va moddiy belgilar (semiotik modellar) barqaror emasligini ko‘rsatadi. Masalan, sandiqqa qamalgan Qozikalon o‘zining ijtimoiy “belgi”lik funksiyasini (unvon va hurmat) yo‘qotib, shunchaki kulgi obyektiga aylanadi, bu esa hokimiyatning sun’iyligini isbotlaydi. Maysara obrazi passiv obyektdan o‘z “matni”ni yaratuvchi, voqealar ssenariysini boshqaruvchi faol “Muallif” darajasiga ko‘tariladi. U jamiyat tomonidan o‘rnatilgan iyerarxik kodlarni buzadi va ularni adolat semantikasi asosida qayta formatlaydi. Umuman olganda, “Maysaraning ishi” dramasining zamonaviy metodologiyalar asosida o‘rganilishi, Hamza ijodining jahon adabiy jarayonlari (masalan, Molyer komediyalari yoki komediya-del-arte) bilan hamnafasligini va bugungi kun kitobxoni uchun ham dolzarb bo‘lgan yashirin ma’no qatlamlariga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акимов.Н Этенограмма творческой конференции драматургов и театралън хдеятелей О путях развития советской комедии /1948/ – М., 14-15 июня 1948
2. Abdusamatov.H Drama nazariyasi –Toshkent:“G‘afur Gulom nomidagi adabiyot va san’at” nashriyoti, 2000. 285-bet
3. Alimuhamedov.A Antik adabiyoti tarixi –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1969 169-bet.
4. Boboyev.T Adabiyotshunoslik asoslari –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002 513-bet
5. Davronov Azimjon Soliyevich “Hamzashunoslik tarixi va uning tadrijiy takomili “Bookmany print” –Toshkent, 2024
6. Hotamov N, Sarimsoqov B Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1963.160 -bet.
7. Imomov.B, Jo‘rayev.Q, Hakimova.H O‘zbek dramaturgiyasi tarixi –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995.170-bet
8. Jalilov.G‘ Hamza dramaturgiyasi va folklori O‘zbekiston SSR. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1988.50-bet.
9. Jo‘raqulov.U Hududsiz jilva. –Toshkent:“Fan” nashriyoti, 2006. 204-bet.
10. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar (Dramalar, maqolalar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.

Shahnoza RAJABOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistri

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA GAP QURILISHI VA SINTAKTIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatida gap qurilishi va sintaktik birliklarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarlardagi sintaktik tuzilmalar, ularning badiiy ifodaviyligi va o‘quvchiga yetkazadigan estetik ta’siri o‘rganiladi. Maqolada zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari va badiiy tahlil metodlari qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, she’riyat, gap qurilishi, sintaktik birlik, badiiy ifodaviylik, estetik ta’sir, tilshunoslik.*

Annotation: this article analyzes the sentence structure and syntactic units in the poetry of Abdulla Oripov. The syntactic constructions in his works, their artistic expressiveness, and the aesthetic impact on the reader are examined. The article employs contemporary linguistic approaches and methods of literary analysis.

Key words: *Abdulla Oripov, poetry, sentence structure, syntactic unit, artistic expressiveness, aesthetic impact, linguistics*

Аннотация: в данной статье анализируются структура предложения и синтаксические единицы в поэзии Абдуллы Орипова. Исследуются синтаксические конструкции в его произведениях, их художественная выразительность и эстетическое воздействие на читателя. В статье применяются современные лингвистические подходы и методы литературного анализа.

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, поэзия, структура предложения, синтаксическая единица, художественная выразительность, эстетическое воздействие, лингвистика*

Kirish. Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lib, uning she’riyati til va shaklning noan’anaviy, zamonaviy ifodasini aks ettiradi. Oripovning she’riy asarlarida gap qurilishi va sintaktik birliklar nafaqat ma’noni yetkazish vositasi, balki badiiy estetik ta’sir yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

She’riyatda sintaktik tuzilmalar yordamida yozuvchi hissiyotlarni, fikr va kayfiyatlarni o‘quvchiga yetkazadi. Gaplarning uzunligi, murakkabligi yoki sodda tuzilishi, ular orasidagi bog‘lanish va ritm she’riyatning estetik xususiyatini belgilaydi. Shu sababli gap qurilishi va sintaktik birliklarni o‘rganish badiiy tahlil va tilshunoslik uchun dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Oripovning she’riyatida sintaktik birliklar nafaqat semantik va grammatik funksiyani bajaradi, balki badiiy ifodaviylik va ritmni shakllantiradi. Shu jihatdan ushbu mavzu o‘zbek adabiyotshunosligi va lingvistika tadqiqotlari uchun muhimdir.

Metodlar. Maqolada tahliliy va komparativ metodlardan foydalanilgan. Tahliliy metod yordamida Oripovning she’riy asarlaridagi gap qurilishi va sintaktik birliklar o‘rganildi. Gaplarning tuzilishi, ularning uzunligi, murakkabligi va semantik bog‘lanishlari tahlil qilindi. Taqqoslash metod orqali turli she’rlardagi sintaktik birliklar solishtirildi, ularning ifodaviy va ritmik xususiyatlari aniqlandi.

Shuningdek, kontekstual metod qo‘llanilib, gap qurilishining badiiy ma’nosi va she’riyatdagi estetik funksiyasi jamiyatdagi adabiy jarayon bilan bog‘landi. Sistemali yondashuv orqali sintaktik birliklar, gap qurilishi va badiiy ritm birgalikda o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, maqolada komparativ (taqqoslash) metod ishlatildi. Bu metod orqali turli she’rlar va mavzular bo‘yicha sintaktik birliklar solishtirildi, ularning ifodaviy va ritmik xususiyatlari aniqlandi. Masalan, murakkab va sodda gaplarning badiiy ta’siri, ritmik uyg‘unligi va o‘quvchiga yetkazadigan estetik hissi taqqoslandi.

Kontekstual metod yordamida gap tuzilishi va sintaktik birliklar she’riyatning jamiyatdagi roliga bog‘landi. Shu metod yozuvchining g‘oyaviy niyati, hissiy tajribasi va zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rni bilan bog‘lanish imkonini berdi. Sistemali yondashuv orqali sintaktik birliklar, gap qurilishi, badiiy ritm va she’riyatning estetik xususiyatlari birgalikda o‘rganildi. Shu metod yordamida barcha elementlarning o‘zaro bog‘liqligi va she’riyatdagi umumiy ta’sir mexanizmi aniqlandi. Zamonaviy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan interdisiplinar metodlardan ham foydalanilgan. Lingvistika, adabiyotshunoslik va estetika yondashuvlari birlashtirilib, gap tuzilishi va sintaktik birliklarning badiiy va g‘oyaviy funksiyalari tahlil qilindi. Shu orqali she’riyatning estetik, semantik va ritmik jihatlari bir vaqtning o‘zida o‘rganildi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Abdulla Oripov she’riyatida gaplar murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular orqali yozuvchi hissiyot va kayfiyatni aniq yetkazadi. Murakkab sintaktik birliklar she’riyatga ritm va ohang bag‘ishlaydi, o‘quvchida estetik ta’sir uyg‘otadi. Shuningdek, sodda gaplar orqali yozuvchi tushunarli va ixcham ifoda yaratadi. Bu she’riyatni o‘quvchi uchun

yengil qabul qilinadigan qiladi, ammo uning badiiy estetik ta'sirini kamaytirmaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Oripovning she'riyatida gap qurilishi va sintaktik birliklar badiiy ifodaviylikni shakllantirishda, ritm va estetik tuyg'ularni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Murakkab sintaktik birliklar yordamida yozuvchi hissiyot va kayfiyatni chuqurroq ifodalaydi. Bunday gaplar ko'pincha metaforik yoki obrazli ifodalar bilan birlashtirilib, o'quvchida estetik tajriba yaratadi. Masalan, Oripov she'rlaridagi ko'p qatlamli gaplar orqali vaqt, tarix va milliy qadriyatlar g'oyasi kuchaytiriladi. Sodda sintaktik birliklar esa tushunarli va ixcham ifoda yaratadi, o'quvchida she'riyatni tez qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sodda va murakkab sintaksisning uyg'unligi she'riyatga ritm va ohang beradi, bu esa badiiy estetik ta'sirni oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Oripov she'riyatida gap qurilishi va sintaktik birliklar nafaqat grammatik funksiyani bajaradi, balki badiiy obraz yaratish, hissiyot va kayfiyatni yetkazish, ritm va ohangni shakllantirishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatdiki, Oripovning she'riyati zamonaviy o'zbek tilining sintaktik xususiyatlarini boyitib, adabiyot va lingvistika sohasida qo'llaniladigan ilg'or yondashuvlar uchun asos yaratadi. Shu bilan birga, badiiy sintaksis va ritmning uyg'unligi o'quvchi estetik tajribasini oshiradi va milliy she'riyatning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, gap qurilishi va sintaktik birliklar orqali yozuvchi nafaqat badiiy ifodaviylikni, balki o'quvchi ongida hissiy rezonansni ham yaratadi. Shu jihatdan, sintaktik tuzilmalarning o'rganilishi lingvistik va adabiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Mulohaza

Tahlil asosida mulohaza qilish mumkinki, Abdulla Oripov she'riyatida sintaktik birliklar nafaqat grammatik vosita, balki badiiy obraz yaratish va o'quvchiga hissiy ta'sir yetkazish vositasi sifatida ishlatiladi. Gaplar tuzilishi, ularning murakkabligi yoki soddaligi she'riyat ritmi va ohangini belgilaydi. Shuningdek, mulohaza shuni ko'rsatadiki, Oripovning she'riyatida murakkab sintaktik birliklar yozuvchining estetik va g'oyaviy niyatini kuchaytiradi, sodda sintaktik birliklar esa o'quvchi uchun tushunarli bo'lishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, sintaktik birliklarning o'zaro bog'liqligi va ritmik uyg'unligi she'riyatning badiiy qadriyatini oshiradi.

Natijalar va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, gap qurilishi va sintaktik birliklarni o'rganish nafaqat lingvistika, balki adabiyotshunoslik uchun ham muhimdir. Mulohaza shuni ko'rsatadiki, Oripovning she'riyati sintaktik xilma-xillik va ritmik uyg'unlik orqali o'zbek she'riyatining badiiy estetik qadriyatini oshiradi. Gap qurilishi va sintaktik birliklarning o'zaro bog'liqligi she'riyatda ritm, ohang va obrazning uyg'unligini ta'minlaydi, bu esa o'quvchida hissiy va estetik tajriba yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov she'riyatida gap qurilishi va sintaktik birliklar badiiy ifodaviylik va ritmni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yozuvchining hissiy va g'oyaviy niyatlarini o'quvchiga yetkazadi.

Tavsiyalar:

- Abdulla Oripov she'riyatida gap qurilishi va sintaktik birliklarni chuqur o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish.
- O'quv dasturlarida she'riyatdagi sintaktik tuzilmalarni o'rganish bo'yicha maxsus bo'limlarni kiritish, bu orqali o'quvchilarda ritm va badiiy ifodaviylikni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.
- Murakkab va sodda sintaktik birliklarning badiiy va estetik funksiyalarini ko'rsatadigan amaliy materiallar yaratish, bu esa tilshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlarini boyitadi.
- Zamonaviy raqamli platformalar orqali she'riyatni targ'ib qilish, elektron kitoblar, onlayn teatr va multimedia loyihalari yordamida yosh avlodga yetkazish.
- Lingvistik va adabiy tahlillarni interdisiplinar yondashuvlar bilan davom ettirish, ya'ni lingvistika, adabiyotshunoslik va estetik tadqiqotlarni birlashtirish.

Shunday qilib, gap qurilishi va sintaktik birliklarni o'rganish nafaqat badiiy va lingvistik jihatdan muhim, balki o'quvchilarni milliy va zamonaviy she'riyatga qiziqtirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur o'rganish va zamonaviy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov, A. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: Sharq, 2015. 280-bet
2. Karimov, F. O'zbek she'riyati va sintaksis. – Toshkent: Fan, 2012. 310-bet
3. Axmedov, M. Badiiy ifodaviylik va gap tuzilishi. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 270-bet
4. Qodirov, S. She'riyat va lingvistika. – Toshkent: Sharq, 2011. 250-bet
5. Yoqubov, D. Adabiy til va sintaktik birliklar. – Toshkent: Fan, 2018. 300-bet
6. Tursunov, A. Zamonaviy o'zbek she'riyati. – Toshkent: Akademnashr, 2020. 260-bet

Marjona TURSUNPO‘LATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
70230104 – Adabiyotshunoslik (adabiyotshunoslik nazariyasi) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
marjonatursunpulatova1999@gmail.com

ZAMONAVIY O‘ZBEK ROMANLARIDA AVTOBIOGRAFIKLIK, PSIXOLOGIZM VA RAMZIYLIK MASALASI

(X. Do‘stmuhammadning o‘yin romani misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek romanlarining umumiy badiiy xususiyatlari, xususan avtobiografiklik, ijtimoiy-maishiy muhit tasviri, psixologizm hamda ramziy va modernistik ifoda usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda roman janrining ko‘p qirrali tabiati yoritilib, uning inson hayoti, shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitni badiiy aks ettirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Shuningdek, maqolada ushbu umumiy xususiyatlar Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” romani misolida ko‘rib chiqiladi. Asarda bolalik xotiralari, mahalla hayoti va o‘yinlar orqali insonning hayotga kirib borish jarayoni badiiy talqin etilishi ko‘rsatib beriladi. Maqola roman janrining zamonaviy adabiyotdagi o‘rni va uning poetik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *roman janri, zamonaviy roman, avtobiografiklik, ijtimoiy-maishiy muhit, psixologizm, ramziylik, modernizm, bolalik xotiralari, mahalla hayoti, badiiy tasvir, shaxs shakllanishi.*

Annotation: this article analyzes the general artistic features of modern Uzbek novels, specifically autobiographical nature, depiction of the socio-domestic environment, psychologism, as well as symbolic and modernist methods of expression. The study highlights the multifaceted nature of the novel genre and substantiates its role in the artistic reflection of human life, personality formation, and the social environment.

The article also examines these common features using Khurshid Dostmuhammad’s novel «The Game» as an example. The work shows the artistic interpretation of the process of a person entering life through childhood memories, neighborhood life and games. The article serves to deepen the understanding of the role of the novel genre in modern literature and its poetic potential.

Key words: *novel genre, modern novel, autobiography, social and domestic environment, psychologism, symbolism, modernism, childhood memories, neighborhood life, artistic image, personality formation.*

Аннотация: в данной статье анализируются общие художественные особенности современных узбекских романов, в частности, автобиографичность, изображение социально-бытовой среды, психологизм, а также символические и модернистские методы выражения. В исследовании освещается многогранная природа жанра романа, обосновывается его роль в художественном отражении жизни человека, формирования личности и социальной среды.

В статье также рассматриваются эти общие черты на примере романа Хуршида Дустмухаммада «Игра.» В произведении показывается художественная интерпретация процесса вхождения человека в жизнь через детские воспоминания, жизнь махалли и игры. Статья способствует более глубокому пониманию роли жанра романа в современной литературе и его поэтических возможностей.

Ключевые слова: *жанр романа, современный роман, автобиографичность, социально-бытовая среда, психологизм, символизм, модернизм, воспоминания о детстве, жизнь махалли, художественный образ, формирование личности.*

Kirish. Roman janri adabiyotning eng murakkab va ko‘p qirrali epik shakllaridan biri hisoblanadi. U inson hayotini keng qamrovda, turli ijtimoiy, ma’naviy va psixologik jihatlari bilan birgalikda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan janrdir. Shu bois roman nafaqat badiiy ijodda, balki adabiyotshunoslikda ham eng ko‘p o‘rganilgan janrlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jahon adabiyotshunosligida roman janrining mohiyati va xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, Georg Lukas [1:149] romanni inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi epik shakl sifatida baholaydi. Mixail Bahtin[2:238] esa roman janrining dialogik tabiatini ta’kidlab, unda turli qarashlar va ovozlar uyg‘unlashishini asoslab beradi. Bu nazariy qarashlar roman janrining keng imkoniyatlarini ochib beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham roman janri alohida tadqiq etilgan bo‘lib, uning poetik xususiyatlari, kompozitsiyasi va badiiy imkoniyatlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Zamonaviy o‘zbek romanlarida, ayniqsa, inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajriba uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi.

Asosiy qism. Avtobiografik xususiyat zamonaviy romanlarning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday asarlarda muallif o‘z hayoti, shaxsiy kuzatishlari va xotiralariga tayanib voqealarni tasvirlaydi. Natijada asarda aks etgan voqea-hodisalar sun’iy emas, balki hayotiy va ishonarli tus oladi. Avtobiogafik romanlar – muallifning shaxsiy hayoti va kechinmalariga asoslangan, badiiy to‘qima bilan boyitilgan janrdir. Bu asarlarda ijodkor o‘z o‘tmishini tahlil qilib, davr ruhiyatini shaxsiy prizma orqali ochib beradi. O‘zbek adabiyotida Oybekning “Bolalik”, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar”, zamonaviy adabiyotda Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” kabi asarlari ushbu janrning yorqin namunasi bo‘lib, inson psixologiyasi va tarixiy haqiqatni birlashtiradi.

Avtobiografik romanlarning asosiy xususiyatlari:

Shaxsiy kechinmalar: muallif o‘z hayotidagi voqealar, tuyg‘ular va kechinmalarni ochiq bayon qiladi.

Badiiy to‘qima: hujjatli xarakterga ega bo‘lsa-da, voqealar badiiy bo‘yoqlar, dialoglar va tasviriy vositalar bilan boyitiladi.

Davr ruhiyati: shaxsiy hayot orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy muhit ko‘rsatib beriladi.

Xotira va tahlil: muallif o‘tmishga nazar tashlab, o‘z harakatlariga baho beradi, xulosa chiqaradi.

Avtobiografik romanlarda ko‘pincha bolalik davri, ilk ijtimoiy tajribalar, insonning shakllanish jarayoni markazga chiqadi. Bu esa o‘quvchiga qahramon hayotini ichkaridan kuzatish, uning ruhiy o‘sishini bosqichma-bosqich anglash imkonini beradi. Shu jihatdan bunday romanlar nafaqat badiiy, balki ma’naviy-psixologik ahamiyatga ham ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, avtobiografiklik asarga samimiylik va tabiiylik baxsh etadi. Muallif o‘z boshidan kechirgan yoki bevosita guvoh bo‘lgan voqealarni tasvirlagani uchun obrazlar va muhit real hayotga yaqin bo‘ladi. Natijada kitobxon asarni o‘qish jarayonida o‘z hayoti bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ladi: “Yettinchi xalta ko‘chada yetti qo‘shni ayollar, ayollarga qo‘shilib-ergashib bolalar biri-birinikiga kirib chiqaverishadi. Kimning uyida nima gap-so‘z, kim uyidan qayoqqa yo‘l oldi, bozorga nima ko‘tarib-qo‘ltiqlab borib, u yoqdan nimalar toshmalab kelyapti, nima qanchadan sotgani-yu, kartoshka, piyozni necha so‘m-necha tiyindan xarid qilganigacha, qaysi qo‘shni go‘shtni davlat do‘konidan oladi-yu, qaysilari Kallaxonadagi qassoblarga mijoz tushganigacha – hamma hammanikidan boxabar. Kimning oshxonasida qaysi taomning jiz-bizi tayyorlanayotgani mo‘ridan ko‘tarilayotgan tutun aralash anvoyi hidlar fosh qilib turadi”.[3:12]

Zamonaviy avtobiografik va psixologik romanlarda ijtimoiy-maishiy muhit tasviri muhim o‘rin tutadi. Bunday asarlarda voqealar nafaqat qahramon shaxsiy hayoti, balki u yashayotgan jamiyat, mahalla va kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. Shu orqali roman muayyan tarixiy davrning ijtimoiy manzarasini ham aks ettiradi.

Romanlardagi ijtimoiy-maishiylik, ayniqsa mahalla hayoti, qo‘shnichilik munosabatlari, urf-odatlar va kundalik turmush detallarining tasviri asosiy o‘rin egallaydi. Bu esa asarga milliy kolorit bag‘ishlab, uni o‘quvchiga yaqin va tushunarli qiladi. Oddiy hayotiy voqealar orqali katta ijtimoiy ma’nolar ifodalanadi: Bunday muhit tasviri qahramonlarning xarakterini ochishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki insonning fe’l-atvori, dunyoqarashi va xatti-harakatlari u yashayotgan muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli romanlarda ijtimoiy muhit tasviri qahramon psixologiyasini ochib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu holat Fazliddinning dadasi televizor olib kelganligi va butun mahallaning ularnikiga chiqib, barchalari birgalikda film tomosha qilishlari orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy romanlarning eng muhim jihatlaridan biri — qahramon ichki dunyosining chuqur psixologik tahlil qilinishidir. Bunday asarlarda voqealar tashqi harakatlar bilan emas, balki qahramonning his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari va ichki kechinmalari orqali ochib beriladi.

Romanlardagi psixologik holat inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlar, bolalikdan kattalik sari o‘tish davridagi hissiy o‘zgarishlar hamda shaxsning ichki ziddiyatlari asosiy tasvir obyekti bo‘ladi. Bu esa o‘quvchiga qahramonning faqat tashqi harakatlarini emas, balki uning ichki olamini ham chuqur anglash imkonini beradi. “O‘yin” romani qahramoni Fazliddindagi o‘rgarishlar, ya’ni xayol suradigan, chuqur o‘yga toladigan holatlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Shuningdek, bunday romanlarda ichki monolog, xotiralar va ong oqimi kabi badiiy usullar keng qo‘llaniladi. Bu usullar qahramon ruhiyatini tabiiy va ishonarli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Natijada roman nafaqat voqealar bayoni, balki inson ruhiy olamining badiiy tahliliga aylanadi.

Zamonaviy romanlarda ramziy ifoda usuli muhim badiiy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Bunday asarlarda oddiy hayotiy voqealar yoki detallar orqali chuqur ma’naviy va falsafiy ma’nolar ifodalanadi. Ramziy obrazlar yordamida muallif inson hayoti, jamiyat va taqdir haqidagi umumiy xulosalarni badiiy tarzda yetkazadi.

Ramziylik roman mazmunini yanada kengaytirib, uni faqat voqealar tasviri darajasidan yuqori — falsafiy tafakkur darajasiga olib chiqadi. Shu orqali o‘quvchi asardagi “yashirin ma’no”ni anglashga intiladi va badiiy matnni chuqurroq idrok etadi. “O‘yin” romanidagi arqonning oxiri yo‘qligi ham mana shunday ramziylik kasb etadi.[3:289]

Bundan tashqari, bunday romanlarda modernistik xususiyatlar ham kuzatiladi. Ya’ni voqealar an’anaviy izchillikda emas, balki xotiralar, ichki kechinmalar va assotsiativ bog‘lanishlar orqali berilishi mumkin. Bu esa asarga murakkab tuzilma va ko‘p qatlamli mazmun bag‘ishlaydi.

Shu jihatdan ramziy va modernistik romanlar o‘quvchidan faol fikrlashni talab qiladi hamda badiiy matnni tahlil qilish jarayonini yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek romanlarida avtobiografiklik, ijtimoiy-maishiy muhit tasviri, psixologik tahlil hamda ramziy va modernistik xususiyatlar uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar roman janrining ko‘p qirrali va murakkab badiiy tizim ekanini ko‘rsatadi.

Bunday romanlar inson hayotining eng nozik jihatlarini — bolalik xotiralari, shaxs shakllanishi, ijtimoiy muhit ta’siri va ichki kechinmalarni chuqur badiiy ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu orqali ular nafaqat badiiy asar, balki ma’naviy-psixologik tajriba sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Ushbu umumiy xususiyatlar Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” romanida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda bolalik dunyosi, mahalla hayoti va o‘yinlar orqali insonning katta hayotga kirib borish jarayoni tasvirlanadi. Bu esa romanni avtobiografik-psixologik, ijtimoiy-maishiy va ramziy xususiyatlarga ega zamonaviy roman sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лукач Г. Теория романа. – М.: Прогресс, 1975.
2. Бахтин М. Слово в романе // Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975.
3. Xurshid Do‘stmuhammad, “O‘yin”. Yangi asr avlodi, 2022-y.

O‘g‘iloy ABDURAYIMOVA,
JDPU 2-bosqich magistranti.
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD)
Gulbahor QURBONOVA

O‘ZBEK FANTASTIKASIDA AXLOQIY-TARBIYAVIY KONSEPSIYALAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek ilmiy-fantastik adabiyotining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati Hojiakbar Shayxovning “Olmos jilosi” qissasi misolida tahlil qilingan. Natijalar fantastik asarlarning pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek fantastikasi, Hojiakbar Shayxov, “Olmos jilosi”, axloqiy tarbiya, badiiy tahlil, ma’naviyat.*

Аннотация: в статье на примере повести Ходжиакбара Шайхова «Блеск алмаза» проанализировано нравственно-воспитательное значение узбекской научно-фантастической литературы. Полученные результаты служат раскрытию педагогического и воспитательного потенциала фантастических произведений.

Ключевые слова: *узбекская фантастика, Ходжиакбар Шайхов, «Блеск алмаза», нравственное воспитание, художественный анализ, духовность.*

Annotation: this article analyzes the moral and educational significance of Uzbek science fiction literature through the example of Hojiakbar Shaykhov’s novella The Luster of the Diamond. The findings serve to reveal the pedagogical and educational potential of science fiction works.

Key words: *uzbek science fiction, Hojiakbar Shaykhov, The Luster of the Diamond, moral education, literary analysis, spirituality.*

Bugungi jadallashib borayotgan fan-texnika inqiloblari-yu globallashuv sharoitida ham inson ma’naviyati, uning axloqiy-tarbiyaviy qiyofasi hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Buning isboti o‘laroq, o‘zbek fantast yozuvchilari ham o‘z asarlari orqali o‘quvchilarni shunchaki o‘zga sayyoralar, parallel olamlar, koinot g‘aroyibotlari, kelajak mo‘jizalari bilangina hayratlantirishni emas, balki ularda axloqiy tanlov, ijtimoiy mas’uliyat va milliy o‘zlikka asoslangan tarbiyani singdirishni maqsad qilib olgan, desak yanglishmaymiz.

Jahon adabiyotidagi fantastik adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda uzoq koinotdagi sirli tilsimotlar, aql bovar qilmas kashfiyotlar, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan sarguzashtlar-u zamonlar osha sayohatlar o‘quvchi hayratiga sabab bo‘lsa, o‘zbek fantastik asarlari yuqoridagilar bilan birgalikda tarbiyaviy-axloqiy qarashlarning uyg‘unlashgani bilan ajralib turadi. O‘zbek fantastika janri tabiatiga ko‘ra, g‘ayritabiiy va ilohiy kuchlar yoki ilmiy gipotezalarga asoslansa-da, uning tub asosida “inson” va ‘insoniyat muammosi” yotadi. O‘zbek fantastik asarlariga didaktik tamoyillarning kirib kelishi ham tasodifiy hodisa emas. Buni quyidagi ikkita omil bilan asoslashimiz mumkin: birinchidan, Sharq mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan “nasihatomuzlik”, ya’ni didaktizm an’analarining ta’siri va mantiqiy davomi bo‘lsa, ikkinchidan, jadid adabiyoti vakillari tomonidan ilgari surilgan “adabiyot – ma’rifat quroli” tamoyilining zamonaviy ko‘rinishidir.

O‘zbek fantastik asarlaridagi didaktik elementlar to‘g‘ridan to‘g‘ri pand-nasihat aytishdangina iborat bo‘lmay, ularning asosan, quyidagi uch sathda namoyon bo‘lishini ko‘rib o‘tamiz:

1.Ekstremal holatda, ya’ni qiyin va g‘ayritabiiy sharoitda qahramonlarning asl insoniy fazilatlari yoki illatlari sinovdan o‘tkaziladi, bu sinov natijasida o‘quvchida har qanday og‘ir sharoitda ham inson to‘g‘ri qaror qabul qilishga harakat qilishi, o‘zligi va o‘z maqsadlaridan og‘ishmasligi, aksi bo‘lsa, uning natijasi qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi xulosalar paydo bo‘ladi. Buni Hojiakbar Shayxovning besh qissadan iborat bo‘lgan “Olmos jilosi” asarining qahramonlari misolida ko‘rib o‘tamiz. Asarni o‘qir ekanmiz, nafaqat Olmos Azizov, balki ekipajning boshqa a’zolari ham turli ekstremal holatlarga yuzlangani va undan chiqib ketishda ba’zan yurak va aql, ba’zan jasorat va qo‘rqoqlik, ba’zan esa sabr va qanoatsizlik o‘rtasida kechgan murosasizliklarini kuzatamiz. Asardagi birinchi qissa “Alanga”dayoq Olmos Azizov aynan shunday holatga tushadi. Kosmik Markazning Sotsial va Kriminal Tadqiqotlar instituti tomonidan oliy darajali fazogir Azizov bundan ancha avval yuborilgan ekspeditsiya a’zolari bangilikka ruju qo‘ygan deya tahmin qilingan Verga sayyorasiga vaziyatni o‘rganish va uni bartaraf etish maqsadida yuboriladi. Vergaga yetib kelgan fazogir besh kishidan iborat bo‘lgan ekipaj tarkibi va ularning vazifalarini, ularni o‘ziga tobora qaram qilib borayotgan “Qora ilon g‘ori” va uning tilsimini ipidan ignasigacha

o‘rganib chiqadi. Afsuski, bu kuzatuvlar davomida Olmos Azizovning o‘zi ham qora ilon tarqatayotgan “piromaniya” (yun. olovga qiziqish, olovdan zavqlanish) ruhiy kasalligiga chalinadi, natijada, Azizovda ham konning boshqa xodimlari kabi “qora ilon” g‘origa tez-tez borish, narsalarni sababsiz yondirib, olovni tomosha qilishga bo‘lgan mayl ortib ketadi va u ham o‘zining asosiy vazifasini unutishiga bir bahiya qolganida bu ishlarning oxiri nima bilan tugashi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: *“...Oqibatda kon xodimlari, shu jumladan, Sotsial va kriminal tadqiqotlar institutining vakili Azizov ham qattiq jazoga tortilib, sharmandalarcha yerga jo‘natiladi. Bu voqea keyinchalik butun jahonga gap-so‘z bo‘ladi. Azizov kamtarin, vazmin, lekin arzimagan xatoga yo‘l qo‘ysang ham aslo kechirmaydigan talabchan rahbari Saidbekovning oldida, institutning boshqa mas’ul xodimlari va do‘stlari qarshisida mulzam bo‘lib turishini ko‘z oldiga keltirdi-yu, badanidagi tuklari tikka bo‘lib ketdi. Beixtiyor o‘rnidan sapchib turdi. Nima qilish kerak?.. Nahotki bu sharmandalikning oldini olish mumkin emas?!...”*[1] Olmos Azizovni shunday keskin holat va ruhiy qaramlikdan hech bir dori-darmon yoki elektron tibbiy mashinalar emas, balki “ko‘pchilik oldida mulzam bo‘lish”, “butun dunyoga sharmanda bo‘lish” hissigina olib chiqadi, bu his uning ruhiy holatini nazorat qilishga, o‘z tafakkurini, aql-idrokini jilovlay olishga undaydi. Bu holat bevosita o‘zbek didaktikasidagi “yuz xotir”, “or va nomus” kabi tushunchalarning fantastik muhitga ko‘chishi deyishimiz mumkin.

2.*Antroposentrik mas’uliyat* o‘zbek fantastik asarlarida didaktik elementlarni namoyish etiluvchi asosiy sath hisoblanadi. Bunda inson koinotning ongli egasi sifatida o‘zining har bir qadami, har bir kashfiyoti va har bir qarori uchun butun koinot va kelajak avlod oldidagi mas’uliyati shunchaki ijtimoiy vazifa emas, balki javobgarlikdir.

Olmos Azizovning “Rene jumbog‘i”ni hal etish uchun tashkil etilgan sayohati davomida ham aql bovar qilmaydigan darajada g‘alati tabiatga ega bo‘lgan sayyorani tadqiq etish va uning jumbog‘ini hal etish uchun fazogirlarga kuch bergan asosiy omil ham aynan insoniyat oldidagi burch va mas’uliyat hissi edi. Azizovdan avval o‘zining ikki hamrohi bilan “Foton” kemasida bu sayyoraga tashrif buyurgan Buyuk Britaniyalik astronavt Bill Rene o‘z ekspeditsiyasining sirli tarzdagi muvaffaqiyatsiz yakunlanishidan avval sayyoraga qachonlardir kelishi mumkin bo‘lgan fazogirlarga quyidagicha murojaatnoma qoldiradi: *“...Modomiki shunday ekan, modomiki qismatimiz mushtarak tus olgan ekan, bizning quyidagi maslahatlarimizni jon-dilingiz bilan o‘qib chiqasiz degan umiddamiz. Zotan, ular bunday og‘ir sharoitda ham Ona Yer va insoniyat oldidagi o‘z burchingizni to‘la tushunib ish tutishingizga imkon beradi...”*[2] Ha, chin insoniy fazilatlarni o‘zida jam etgan har qanday inson kurrai zaminning qay burchagida bo‘lmasin o‘z zimmasiga yuklangan Ona Yer va insoniyat oldidagi burchini also unutmaydi va boshqalarga ham bu haqda bot-bot eslatib turishdan aslo hayiqmaydi.

Asar qamrovidagi har beshala qissada ham qahramonlarning u yoki bu o‘rinlardagi antropotsentrik mas’uliyat hissi tufayli oqilona qarorlari, to‘g‘ri tanlovlari va muammolarga yechim topa olganlarini kuzatamiz. Olmos Azizovni Verga sayyorasidagi shunday mushkul muammoni hal qilishida, Rene jumbog‘ining sirini topishida, Reya sayyorasidagi mavjudodlar bilan muloqot o‘rnatish uchun qilgan harakatlarida, hamma-hammasida insoniy burch masalasi yotadi.

3.*Ilmiy-texnik taraqqiyotning axloqiy chegaralarini belgilash* orqali ham ijodkor fan-texnika taraqqiyoti zamonasidagi yosh avlodning kashfiyotlarga bo‘lgan tarbiyaviy-axloqiy munosabatlari qanday bo‘lishi kerak ekanligiga zimdan ishora qilib o‘tadi. Insoniyat ilk bora robotlarni yaratganidayoq o‘zlariga o‘xshab fikrlash qobilyatiga ega “sun’iy ong egasi”ni yaratishga kirishdi. Endi bevosita robotlarni shunchaki yordamchi asbob deb hisoblash yoki unga ongli mavjudod sifatida qarash o‘rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keldi. Albatta, G‘arb adabiyotidan farqli ravishda sharq fantastik adabiyotida bunday kontrastlikka didaktik nuqtayi nazardan yechim berilgan. Buni quyidagi jumlalar misolida ham ko‘rishiiz mumkin: *“— Darvoqe, Beganas haqida... — Adam Azizovga iltijoli bir nigoh bilan qaradi. — Esingizdami, komandir, siz mendan uning sxemasiga ba’zi o‘zgarishlar kiritishimni iltimos qilgandingiz... Kechiring-ku, lekin men bunday qilolmadim. Biz Beganas bilan ikki yildan beri bir ekspeditsiyadamiz. Tushunyapsizmi, qo‘lim bormadi...”*[3] Xalqimizda “Ko‘z ko‘zga tushsa, mehr tushadi” yoki “ko‘z ko‘zga tushsa, ko‘ngil taniydi” kabi iboralar bor va bu iboralar asosan insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi, lekin inson va robot o‘rtasidagi bundayin “ko‘zi qiymaslik”, “qo‘li bormaslik” adabiyotimizdagi yangicha tasvir bo‘ldi deya olamiz. Adam uchun Beganas shunchaki bir uyum temir emas, balki ikki yillik hamroh, qadrdon do‘st ham edi.

Azizov robotlar haqida o‘ylar ekan, insoniyatni ko‘pdan beri qiynab kelayotgan masala: *“Agar robot o‘z -o‘zini anglasa, tafakkur qila olsa, uni insonlar qo‘l ostida quldek ishlatish nechog‘lik to‘g‘ri. Bu quldorlikning zamonaviy ko‘rinishi emasmi?”* kabi savollarga javob izlashga harakat qiladi. Ayni mavzudagi eng so‘nggi tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayrim huquqshunoslar va mutaxassislarning fikricha, insonlarda robotlarga nisbatan mulkchilik huquqi

1 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

2 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

3 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

mavjud bo‘lib, robotlar insonlar tomonidan yaratilgan va sotib olingan mulk hisoblanadi, ularni ishlatish maishiy texnikalarni ishlatishdek gap. Bundan tashqari, quldorlik – bu ozod iroda va erkin tafakkurga ega bo‘lgan ongli mavjudotning majburan bo‘ysundirilishi, robotlar esa faqat dasturiy sxema va algoritmlar asosida ishlab, ularga iroda yoki azob chekish kabi tushunchalar begona.

Ayrim falsafiy qarashlar kelajakda “Robot quldorligi” xavfi mavjud ekanligini ta’kidlashadi, ya’ni sun’iy intellekt shu zaylda rivojlanib borsa va robotlar o‘zlarining erk va irodasini anglab, erkinlikni afzal ko‘rsa, uni majburan ishlatishni ilmiy-texnik taraqqiyotning axloqiy chegarasida quldorlikka tenglashtirilishi mumkin. Ijodkor Hojiakbar Shayxov fantastik qissasida uzoq kelajakni tasvirlar ekan, o‘z qahramonining ichki kechinmalari orqali shunday didaktik masalalarga ham urg‘u berib o‘tadi: “Azizov g‘orga kiraverishda to‘xtadi. U Beganas haqida o‘ylardi. Insonning sodiq quli, ajoyib robot! Qiziq, nega endi odamlar uni aynan shunday bunyod etishgan? Komandir ilgari ham bu savolni o‘ziga ko‘p bergan, lekin javobi haqida bosh qotirishga vaqti bo‘lmagandi. Qadimda yashab o‘tgan donishmandlardan biri, har bir odamning tabiatida qullik mavjud, degan ekan. Nahotki quldorlik ham insonga xos abadiy xislat bo‘lsa? Axir, ular hamma og‘ir jismoniy ishlarni Beganasning zimmasiga yuklaganlari yetmasdan, asabiylashgan kezlarida uni urishib, jerkishadi, ko‘ngillarini bo‘shatish uchun zaxarlarini sochishadi. Bechora robot hammasini ko‘taradi. Qullik va quldorlik deganlari mana shuning o‘zi emasmi? Bu tipdagi robotlar nahotki mangu qullikka mahkum etilgan bo‘lsa? Aslida-ku, tarixda qullikning abadiylashuviga qullarning o‘zlari aybdor bo‘lishgan. Negaki, vaqtida qullik zanjirlarini uzib tashlashmagan. Nahotki Beganasga o‘xshagan robotlar ham...”[4] Insonlar robotlarni nafaqat ishlatishi, balki o‘zlarining salbiy emotsiyalarini ham ularga yo‘naltirishlari ularning oddiy asbob, shu bilan birgalikda “hissiy kamsitish”, “g‘azabdan xalos bo‘lish” qurbonlari bo‘lib qolishlarini ta’kidlab o‘tadi va bu “inson” degan nom uchun emas, balki “sharaf” uchun mutlaqo zid ekanligini xulosalab beradi.

4 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

O‘zbek fantastik asarlarining yana bir xarakterli jihati shundaki, garchi bu asarlarda uzoq kelajak haqida so‘z borsa-da, ularning zamiridagi axloqiy muammolarning real hayotga ham daxldor ekanligini xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgan maqollar orqali ko‘rsatib beradi. Janr taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, mualliflar an’anaviy maqollardan foydalanish bilan bir qatorda o‘zlari ham asarda tasvirlangan zamona zayli yoki vaziyatga mos bo‘lgan maqol va matallar yaratishadi. Fantastik asarlarda maqollardan foydalanishdan maqsad ma’lum bir xalqning qadriyatlarini anglatish, biror qahramonning nutqida keltirish orqali uning donoligi yoki an’analarga sodiq ekanligini ko‘rsatish xayoliy vaziyatlar orqali real hayotdagi haqiqatlarni ta’kidlash kabilardan iborat. “Olmos jilosi”ga to‘xtaladigan bo‘lsak, ijodkor kosmosning eng olis nuqtalaridagi kosmonavtlar yoki robotlar tilidan o‘zbek xalq maqollarining bir qanchasini keltirib o‘tadi. Quyidagi maqol fazogir Adam tomonidan sersavol robot Beganasga qarata aytiladi: *“— Tortinma, Beganas. So‘rab o‘rgangan – olim, so‘ramagan – o‘ziga zolim, deb bejiz aytishmagan qadimda yashab o‘tgan dono ajdodlarimiz”.*[5] *“Nonushtani o‘zing ye, tushlikni do‘sting bilan baham ko‘r, kechki ovqatni dushmaningga ber”,*[6] – degan naql esa oshpazlik ishlariga mas’ul bo‘lgan Beganas tilidan aytiladi va bu orqali ijodkor hattoki robotlarning ham dasturiy ta’minotida xalqimizga xos bo‘lgan donolik, mulohazakorlik kabi sifatlarning aksi bor ekanligini ko‘rsatib beradi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek fantastik adabiyoti, xususan, Hojiakbar Shayxovning “Olmos jilosi” asari shunchaki koinot bo‘ylab sayohat yoki texnik mo‘jizalar bayoni emas, balki chuqur axloqiy-tarbiyaviy mushohadalar maydoni hamdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek fantastikasi o‘quvchi-yoshlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ularning ma’naviy dunyosini boyitishda ham muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

5 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

6 Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. «Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat yashaydi». – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Hojiakbar Shayxov. Olmos jilosi: ilmiy-fantastik qissalar. – Toshkent, 2024. Mutolaa ilovasi.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. «Pedagogika antologiyasi». – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Yo‘ldoshev Q. «Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari». – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Zunnunov A. «Adabiyot o‘qitish metodikasi». – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Aziza SAFAROVA,
Termiz davlat universiteti
magistratura bo‘limi
adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti

ILMIY FANTASTIKA JANRIDA XRONOTOP (SA’DULLO QURONOVNING “GALAKTIKADA BIR KUN” (1-KITOB) ILMIY-FANTASTIK QISSASI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada ilmiy fantastika janrida xronotop tushunchasi tahlil qilinadi.Bunda Sa’dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” (1-kitob) qissasidan foydalanildi.Natijada asarda makon va vaqt qatlamlari, xronotopning funksional va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari aniqlandi. Kosmik kenglik, yopiq makon, kutubxona-sayyora, uchar kemalar va yaqin kelajak zamoni orqali xronotopning dramatik, bilimga yo‘naltirilgan va ogohlantiruvchi funksiyalari ochib berildi.Ushbu izlanish ilmiy fantastikada xronotopni ko‘p qatlamli kategoriya sifatida tasvirlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ilmiy fantastika, xronotop, kosmik makon, vaqt, kosmos.

Аннотация: в данной статье анализируется концепция хронотопа в жанре научной фантастики. В качестве примера использован рассказ «День в Галактике» (Книга 1) Садулло Куранова. В результате исследования выявлены слои пространства и времени, функционально-идеологически-художественные особенности хронотопа. Драматическая, познавательная и предупреждающая функции хронотопа раскрываются через бескрайние просторы космоса, замкнутое пространство, планету-библиотеку, летающие корабли и время недалекого будущего. Данное исследование позволяет описать хронотоп в научной фантастике как многослойную категорию.

Ключевые слова: научная фантастика, хронотоп, космос, время, космос

Annotation: this article analyzes the concept of chronotope in the science fiction genre. The story “A Day in the Galaxy” (Book 1) by Sa’dullo Quranov was used. As a result, the layers of space and time, the functional and ideological-artistic features of the chronotope were identified in the work. The dramatic, knowledge-oriented and warning functions of the chronotope were revealed through the vastness of space, closed space, library-planet, flying ships and the time of the near future. This research allows us to describe the chronotope in science fiction as a multilayered category.

Key words: science fiction, chronotope, outer space, time, cosmos.

Kirish. Adabiyotshunoslikda xronotop (makon va zamon) masalasi doimo dolzarb bo‘lgan. Xronotop so‘zi yunoncha bo‘lib, chronos – zamon, topos – makon demakdir. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada zamon – makon degan ma’noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelinadi”[1]. Ushbu termin badiiy adabiyotga fizika va matematika kabi aniq fanlar doirasidan kirib kelgan bo‘lib, XX asrning 30-yillarida Mixail Baxtin tomonidan adabiyotshunoslik kontekstida ilmiy muomalaga kiritilgan. Xronotop adabiyotda shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida ham e’tirof etiladi. Xronotopning ham bir necha turlari mavjud: real xronotop, fantastik xronotop, ijtimoiy xronotop va boshqalar. “Makon va zamon (fazo va vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; fazo (makon) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt (zamon) dunyoda sodir bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ket ro‘y berish va davomiyligini ifodalaydi”[2]. Demak, makon voqealar kechadigan muhit, zamon esa ushbu voqealarning ketma-ket sodir bo‘lish jarayonidir. Xronotopsiz badiiy asarning mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki syujet, kompozitsiya va obrazlar poetikasi aynan makon va zamon orqali ma’lum bir yaxlitlikka erishadi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy fantastika janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Negaki, bu janrda xronotop asosiy unsurlardan biri sifatida ishtirok etadi. O‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika janrida makon va zamon masalasi yetarli darajada tadqiq etilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolada Sa’dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” (1-kitob) ilmiy-fantastik qissasi misolida makon va zamonning badiiy-falsafiy funksiyalari tahlil etiladi.

Metodlar. Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Struktur-semantik tahlil: asardagi makon va vaqt birliklarining badiiy tuzilishi va ularning semantik yukini aniqlash;


2. Xronotopik tahlil: M. Baxtin nazariyasiga tayangan holda makon va zamonning o‘zaro uyg‘unligi, janr va syujet shakllanishidagi rolini tahlil qilish;

3. Germenevtik tahlil: asarni sharhlash, tushuntirish.

Natijalar. Bilamizki, ilmiy fantastikada ilm-fan, kashfiyotlar hamda inson tafakkuri markaziy o‘rinda turadi. “Galaktikada bir kun” qissasini tahlil etish davomida buni yaqqolroq tushunish imkoni mavjud. Qissa 12 yoshli

1 Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. Ilmiy-nazariy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent, 2015..
2 Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. –Toshkent, 2010.271-b..

Ahmad ismli bolaning Salmir sayyorasini salmirlik do‘sti Margol bilan birgalikda halokatdan qutqarib qolgani haqida. Dastlab asardagi makon masalasiga to‘xtalamiz. Makon sifatida Yer, Galaktika tizimi, turli sayyoralar, Salmir sayyorasi, noma’lum yulduzlar, uchar kema tanlab olingan bo‘lib, ularning har biri o‘zining vazifasiga egadir:



Ahmadning ixtirochilar tanlovida ishtiroki esa **tanlov xronotopi** orqali voqealarning boshlanish nuqtasi vazifasini bajaradi. Agar Ahmad bu tanlovda ishtirok etmasa edi, hech qachon galaktika bo‘ylab sayohat qilmasdi. Salmir sayyorasi esa ekologik ogohlantiruvchi makon sifatida insoniyatning kelajakdagi mas’uliyatini ko‘rsatadi. Bir tomondan u Yerning kelajakdagi ko‘rinishiga ham o‘xshab ketadi. Salmir sayyorasida ekologik vaziyat ancha og‘ir holda (daryolar qurigan, yashil tabiat yo‘qolgan, toza havo sun’iy yo‘l bilan hosil qilinadi), agar sayyora yadrosi tiklanmasa, 50 mlrd aholining hayotiga ham yakun yasaladi. “Ko‘kkezar” uchar kemasi ham ma’lum bir ma’noda ko‘chib yuruvchi makon sifatida ishtirok etadi. U maqsadlarni amalga oshirish uchun asosiy vositalardan biri. Ahmad sarguzashtlari davomida yerto‘laga tushib qoladi. **Yerto‘la xronotopi** qahramonning ichki shakllanishini aks ettiruvchi transformatsion makon sifatida namoyon bo‘ladi. Ahmad bu yerda qo‘rquvni his qilish o‘rniga, tashlab yuborilgan eski kitoblardagi ma’lumotlar o‘rganib chiqilganligi haqida, bilimni saqlash masalasi ustida tashvishlanadi. Yerto‘la qorong‘ilikdan keyin, albatta, yorug‘lik kelishidan ham darak beradi. Koinot xaritasini izlash paytida qahramonlarimiz Kutubxona-sayyoraga ham tashrif buyurishadi. Bu sayyora bilim o‘chog‘i makoni vazifasini bajaradi. Sayyoradan istalgan ma’lumotni topish imkoni mavjud. Makon sifatida sayyora harakat emas, balki anglash va izlanish markazi bo‘lib, syujetda konfliktni bilim bilan hal qilish imkoniyatini beradi.Keyingi masala xronotopning ikkinchi bo‘lagi vaqtdir. Asardagi voqealar 2036-yil 25-iyun kuni sodir bo‘ladi va Ahmad voqealar tugagach yana shu kunda qayta uyg‘onadi. Ilmiy fantastik asarlarda voqealar odatiy vaqtda ketma-ket sodir bo‘lmaydi. Qahramon goh o‘tmish bo‘ylab sayohat qilishi, goh kelajakda kezishi mumkin. Ilmiy fantastika ko‘proq kelajakka yo‘nalgan janrdir. Qissada “Ko‘kkezar” uchar kemasi uzoq masofalarni qisqa vaqt ichida bosib o‘tish imkonini beradi (masalan, Marsga 3 yil o‘rniga 3 daqiqada borish). Bu vaqt-makonga nisbiylik xronotopini ochib beradi va syujet dramatizmini kuchaytiradi. Bir qarashda, tanlangan vaqt uzoq kelajak bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin aslida bugungi kun haqida ham muallif tomonidan ishoralar berib boriladi. Masalan, ekologik vaziyatning og‘irlashuvi, tabiatga e’tiborsizlik, iqlim o‘zgarishi kabi ijtimoiy dolzarb muammolar haqida so‘z boradi. Asarda, shuningdek, vaqt tuynugi tushunchasini ham uchratamiz.

Munozara. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy fantastikada xronotop chiziqli va siklik vaqt, kosmik kenglik, yopiq makon, bilim makoni va uchar kema orqali ko‘p qatlamli kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Baxtin nazariyasidagi realistik roman xronotopidan farqli ravishda, ilmiy fantastikada makon global xarakterga ega, vaqt esa ehtimoliy model sifatida ishlatiladi.

Xulosa.1. Ilmiy fantastikada xronotop makon va vaqtning ko‘p qatlamli tizimi sifatida namoyon bo‘ladi;

2. Salmir va Yer, yerto‘la, kutubxona-sayyora, “Ko‘kkezar” kemasi xronotopning g‘oyaviy va dramatik funksiyalarini aks ettiradi;

3. Ahmadning sarguzashtlari va koinot xaritasini izlash jarayoni xronotop orqali qahramonning ilmiy tafakkurini va harakatini markaziy o‘ringa qo‘yadi;

4. Ushbu tadqiqot ilmiy fantastikada xronotop tushunchasini ko‘p qatlamli kategoriya sifatida ochib beradi va o‘zbek ilmiy fantastikasi tadqiqotlarida yangi nazariy yo‘nalish yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. –Toshkent, 2010. 271-bet.
2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. Ilmiy-nazariy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy maqolalar. –Toshkent, 2015.
3. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent, 2010.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Navoiy universiteti”. – Toshkent, 2018.
5. Quronov S. Galaktikada bir kun. Qissa. –Toshkent: “Akademnashr”, 2025.

Sarvinoz RAXIMOVA,
Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs magistranti

O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATIDA G‘IJDUVON KULOLCHILIK MAKTABINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada kulolchilik hunarining kelib chiqishi, tarixi, hunarning qadimiy markazlaridan biri G‘ijduvon maktabining o‘ziga xos uslublari, badiiy jihatlari, an’analari yoritilgan. Hunarmandchilik maktabining mashhur namoyandalari va hunarmandchilikka qo‘shgan hissalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *kulolchilik tarixi, kulolchilik maktablari, an’anaviy uslublar, hunarmand ustalar, badiiy bezaklar.*

Аннотация: в *давной статье рассматриваются истоки и история гончарного ремеслаб уникальные методы, художественные аспекты и традиции Гиждуванской школы-одного из древнейших центров данного искусства. Также освещаются выдние представители этой ремесленной школы и их вклад в развитие народного промысла.*

Ключевые слова: *история гончарного ремесла, школь гончарного искусства, традиционные стили, мастера-ремесленники, художественные орнаменты.*

Annotation: this article explores the origins and history of pottery, as well as the unique styles, artistic features, and traditions of the Gijduvan school, one of the ancient centers of the craft. It also highlights the renowned representatives of this school of craftsmanship and their contributions to the development of the art.

Key words: *history of pottery, potterys schools, traditional styles, master craftsmen, artistic ornament.*

Milliy hunarmandchilik ajdodlardan bizga meros va qadriyatlarni o‘zida saqlagan ma’naviy boyligimiz sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir”. [1] Kulolchilik hunari insoniyat tomonidan ularning ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratilgan eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. Kulolchilik san’atining kelib chiqishi neolit davriga to‘g‘ri keladi, o‘sha paytda dastlabki jamiyatlar ovqat pishirish, saqlash va diniy marosimlar uchun idishlar yasashni boshlagan. [2] Bora-bora bu hunar estetik jihatdan mukammallashib borgan. Hunarmandchilikning ibtidosi – kulolchilik; loydan yaratilgan mo‘jiza – kulolchilikda yasaladigan turli buyumlar [3] An’anaviy hunarmandchilikning bu turi loydan turli xil maishiy buyumlar yasash, ularni turli xil naqshlar orqali bezash va pishirish kabi bir nechta jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu hunar dastavval insoniyatning turmush tarzidagi ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Davrlar o‘tib esa bu soha takomillashib, estetik va badiiy jihatdan qiymati oshishi natijasida xalq amaliy san’atining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Kulolchilikda yaratilgan har bir mahsulot insoniyatga beminnat xizmat qilib qolmay, balki xalqning tarixiy tajribasini, dunyoqarashini, an’anasi, urf-odatlarini va estetik didini o‘zida mujassam qiladigan madaniy meros sifatida qaraladi. O‘zbekiston hududida kulolchilik qadimdan rivojlanib, har bir hududda o‘ziga xos naqshlari, bezaklari,yasalish tartibi, ranglar va anglatadigan ma’no nozikligi bilan ham ajralib turadi. Kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va boshqa hududlar kulolchilik maktablarida o‘ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari hamda koloroti bilan farqlanadi.[4] Oddiy loydan yuksak san’at asarlarining yaratilishi har bir kishi uchun qiziq jarayon, ayniqsa, kulolchilikda Buxoro vohasining G‘ijduvon kulolchilik maktabining muhim jihatlari e’tiborga sazovordir. Arxeologik manbalarga ko‘ra, bu hududda kulolchilik miloddan avvalgi davrlardan boshlangan. Bu hududda ishlab chiqarilgan buyumlar tabiiy bo‘yoqlari, o‘ziga xos bezaklari, pishirish uslubi hamda mustahkamligi bilan ajralib turadi. G‘ijduvon kulolchilik maktabi hozirga qadar ustoz-shogird an’anasi asosida saqlanib, bizgacha yetib kelgan. G‘ijduvonda kulolchilik boshqa hududlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turgan: tabiiy ranglarning ustunligi bilan (jigarrang, qora, sariq, yashil ranglar, ko‘k), bezaklarning soddaligi va uyg‘unligi bilan, buyumlarning kundalik hayotga mo‘ljallanganligi bilan.

G‘ijduvon kulolchiligida asosan, kosa, piyola, lagan, xum, tog‘ora, oftoba singari buyumlar ishlab chiqarilgan va bu buyumlar oshxona va xo‘jalik ehtiyojlarida foydalanilgan. Buyumlarni yasash jarayoni bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: qum tanlanadi, uch xil element: toza tuproq, gil, qamish o‘simligining boshog‘i (G‘.shevada lux) asosida loy qilinadi, charxda shakl beriladi, tabiiy havoda quritiladi, bezak beriladi, sir surtiladi, pishiriladi.

Sopol buyumlarni bezashda asosan, tabiiy minerallardan tayyorlangan bo‘yoqlarga tayaniladi. Ya’ni bo‘yoqlar rangli tuproqlardan tayyorlaniladi, bu tuproqlar O‘zbekistonning turli joylaridan olib kelinadi. Masalan, qizil rang Navoiy viloyatining Qarnab tog‘laridan, sariq rang Buxoro viloyatining Gazli hududidan, oq rang Toshkent shahar Angren hududidan, qolgan ranglar metall oksidlaridan tayyorlanadi. Sopol pishirilishidan oldin unga kistlar

(echki junida tayyorlangan mo‘yqalam) yordamida turli naqshlar chiziladi. Har naqsh va chizgilar qo‘l mehnatiga asoslanadi. Turli xil naqshlardan foydalaniladi, masalan, dumi tovus, lolagul, ko‘zagul, hashbargak, du doira, se doira, qadimgi eron islimiysi, grek myandrasi, hindi ilon, morak naqshi, geometrik naqshlar, chiziqli naqshlar, guldor naqshlar, dumaloq va halqa ko‘rinishidagi naqshlar, shox-shabbalar va turli o‘simliklar, hayvonlar naqshi va sir bilan chiziladigan naqshlar G‘ijduvon kulolchilik maktabining o‘ziga xos ramziga va xarakter-xususiyatiga ega bo‘lgan qadimiy naqshlaridan sanaladi. Grek myandrasi – Iskandar Zulqarnayn davridan yetib kelgan naqsh turi, Eron islimiysi – Buyuk Ipak Yo‘li izini tasvirlovchi G‘ijduvon kulolchilik maktabining asrlar oshib, hozirgacha foydalanib va xarakter- xususiyatini yo‘qotmay kelayotgan naqsh turlaridan biri sanaladi. Yuqoridagi naqshlarning barchasi chizgilarning go‘zalligi, ranglarning jilosi va chuqur ramziy ma’noga ega ekanligi bilan ham xaridorlar va yurtimiz mehmonlarining hurmatini va e’tiborini qozonib kelgan. G‘ijduvon kulolchiligida 80 dan ortiq shakllar va 200 dan ortiq naqshlar mavjud. Bu naqshlarning yanada serjilo va xaridorgir bo‘lishi avvalo ranglarning xilma - xilligiga va to‘g‘ri tanlay bilishga bog‘liq. G‘ijduvonlik ustalar “kalam” uslubida ish olib borib, o‘z mahsulotlarini tegishli bezaklar bilan bezaganlar: to‘q jigarrang fonda bir necha qavat yashil, qalin sariq va ko‘k hamda to‘q qizil rangli bezaklar. [5] Rishton kulolchilik maktabida asosan, to‘q ranglar: ko‘k va yashil, to‘q jigarrang kabi ko‘zga tashlanadigan ranglar ustun bo‘lgan. Hududlardagi kulolchilik maktablari buyumlarga ko‘proq qanday naqsh va ranglardan foydalanganligi bilan ham ajralib turadi.

G‘ijduvon kulolchilik maktabining taniqli namoyandalaridan biri Narzullayevlar sulolasi sanaladi. 6-avlod vakili bo‘lgan Alisher Narzullayev kulolchilikda qadimgi sharq an’analarini davom ettirgan holda kulolchilik hunarini yanada takomillashtirib, keyingi avlod vakillari uchun munosib o‘rnak bo‘lib, sohaning sir - asrorlarini shogirdlariga o‘rgatib kelmoqda. Narzullayevlar kulolchilik oilasi mohir kulollar sifatida ko‘plab mamlakatlarga tanilgan. Jumladan, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Amerika, Luksemburg davlatlarida festival va konkurslarda ishtirok etib, g‘olib bo‘lishgan. G‘ijduvon kulolchiligining 400–500 yillik qadimgi namunalari Moskvadagi “Sharq xalqlari’’ muzeyida hamda O‘zbekiston muzeylarida saqlanishi kulolchilik hunariga bo‘lgan yuksak e’tibordan dalolat beradi. G‘ijduvon kulolchilik maktabida asosiy e’tibor an’anaviylikni saqlagan holda, usta kulollardan saqlanib qolgan naqshlar, ranglar, pishirish, sir olish jarayonida uy hayvonlaridan foydalanish hozirgi kunga qadar davom etayotgan an’analardan hisoblanadi. Sir olish jarayoni ham ana shu an’anaviylik asosida olib boriladi. G‘ijduvon kulolchiligida qo‘llanadigan asbob-uskunalar, ish jarayoni, xomashyo va tayyor mahsulot nomlarini ifodalovchi hududiy shevaga xos kasb-hunar leksikasidan tashkil topgan. G‘iduvon kulolchiligidagi terminlar adabiy tildagi umumiy leksik birliklar bilan semantik jihatdan mushtarak bo‘lsa-da, shevada ularning ma’nosi toraygan, kasbiylashgan va terminlashgan holda ishlatiladi, bu holat hududiy kasb-hunar leksikasining mustaqil leksik qatlam sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Masalan, sopolni silliqlovchi – mola, buyumning og‘iz qismini taxlovchi – labgir, oyoq shaklini beruvchi uskuna – kachkort, loyni ho‘llash uchun suv to‘ldirilgan idish – suvdon, sopol pishirish uchun pech – o‘choq va b.

Xususan, S. Usmonov kasb-hunar leksikasiga quyidagicha tavsif beradi: “Kasb-hunar leksikasi hozirgi turmushda ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishi, turi bo‘lgan predmetlarni emas, balki unutilib ketgan yoki unutilib borayotgan o‘tmishning tarqoq va kuchsiz, hozirgi sanoat imkoniyatlari oldida qoloq bo‘lgan ishlab chiqarish qurollari, ishlab chiqarish jarayonlari nomlaridan iboratdir”. Shu jihati bilan ham ahamiyatlidir. [6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, kasb-hunar leksikasi allaqachon tarixiy so‘zlar qatoriga kirgan yoki unutilib borayotgan so‘zlar emas, ular rivojlanayotgan, yangilanayotgan, zamon talabiga mos ishlab chiqarish terminlaridir. Bu hunarni tom ma’noda o‘rganish, an’anaviy usullarni va hududiy shevalarni o‘z holicha saqlab qolish, kelgusi kelajak avlod uchun sohaviy bilimlar va terminlardan xabardor bo‘lishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 157-158-betlar.

2.Qudratov J.X. **Kulolchilik san’atining tarixi, uning o‘zgarishlari va rivojlanish jarayonlari** // Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024. №9.

3.Ahmadova U.Sh. *Hunarmandlar nutqi perifrazalarining sotsiopragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari*: filol. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2026.

4.Alimova S. O‘zbek kulolchilik va sopol san’ati: an’ana va zamonaviylik. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2018.

5.Berdiyev N.O. *Badiiy kulolchilikning tarixiy rivojlanishi va taraqqiyoti* // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – Plano (Texas, USA), 2023.

6.Усмонов С. “Ўзбек тили терминологиясининг баъзи масалалари”. – Тошкент: Ўкитувчи, 1964. Б.16.

Umida SANAQULOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Ulug‘bek SATTOROV,
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor



O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA TOPONIMIK RIVOYATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi hisoblangan toponimik rivoyatlarning janr xususiyatlari, tasnifi, badiiy va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimik rivoyatlarning xalq tafakkuri, tarixiy xotira va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *toponim, rivoyat, folklor, og‘zaki ijod, tarixiy xotira, etnografiya, afsona.*

Аннотация: в данной статье анализируются жанровые особенности топонимических преданий в узбекском устном народном творчестве, их классификация, художественное и историческое значение. Особое внимание уделяется взаимосвязи топонимических преданий с народным мышлением, исторической памятью и культурным наследием.

Ключевые слова: *топоним, предание, фольклор, устное творчество, историческая память, этнография.*

Annotation: article examines the genre features, classification, and cultural significance of toponymic legends in Uzbek folklore. It highlights their role in preserving historical memory, reflecting national identity, and shaping the worldview of the people.

Key words: *toponym, legend, folklore, oral tradition, historical memory, ethnography.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllanib kelgan boy madaniy meros hisoblanadi. Ushbu meros tarkibida rivoyatlar alohida o‘rin egallaydi. Rivoyatlarning muhim turlaridan biri – toponimik rivoyatlar bo‘lib, ular geografik obyektlar nomining kelib chiqishini izohlashga xizmat qiladi. Toponimik rivoyatlar xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, unda tarixiy voqealar, afsonaviy tasavvurlar va hayotiy tajribalar mujassamdir [3]. Shu sababli, ularni o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tarix, tilshunoslik va etnografiya uchun ham muhimdir.

Toponimika – geografik nomlarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Toponimik rivoyatlar esa ana shu nomlarning xalq og‘zaki ijodidagi izohidir [1]. Rivoyatlar odatda real voqelik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular vaqt o‘tishi bilan badiiylashadi va xalq fantaziyasi bilan boyiydi. Natijada toponimik rivoyatlar yarim tarixiy, yarim badiiy shaklga ega bo‘ladi.

Folklorshunos U.Sattorovning ta’kidlashicha, toponimik afsona va rivoyatlarni tasniflar ekan ularni asosiy olti guruhga ajratadi:

1) yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va aholi yashaydigan joylarning vujudga kelishi haqidagi afsona va rivoyatlar;

2) mamlakatimiz hududining geografik tuzilishi va relyefining ko‘rinishini izohlovchi afsona va rivoyatlar;

3) tabiiy va tarixiy obidalarning qurilishi to‘g‘risidagi afsona va rivoyatlar;

4) urug‘-qabilalarning joylashishi va migratsiyasi haqida ma’lumot beruvchi afsona va rivoyatlar;

5) ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun olib borgan kurashini aks ettiruvchi afsona va rivoyatlar;

6) muqaddas qadamjolar va mozorlarning vujudga kelishi to‘g‘risidagi afsona va rivoyatlar [2].

Ko‘rinadiki, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va aholi manzillarning paydo bo‘lishini izohlashga qaratilgan afsona va rivoyatlar tadqiqotchi tasnifining birinchi guruhini tashkil etgan.

Toponimik rivoyatlar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. *Izohlovchi xarakter*. Ularning asosiy vazifasi – joy nomining kelib chiqishini tushuntirishdir. Har bir rivoyatda sabab va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud.

2. *Tarixiylik va realizm.* Ko‘plab rivoyatlar real tarixiy voqealar asosida shakllangan. Masalan, qadimiy shaharlar yoki qishloqlar nomi u yerda sodir bo‘lgan muhim hodisalar bilan bog‘lanadi.

3. *Badiiylik*. Rivoyatlar qisqa, lo‘nda, lekin obrazli ifoda bilan ajralib turadi. Unda dramatizm va ta’sirchanlik kuchli bo‘ladi.

4. *Afsonaviylik.* Ba’zi rivoyatlarda mo‘jizaviy hodisalar, sehrli kuchlar yoki g‘ayritabiiy voqealar uchraydi.

1-jadval. Toponimik rivoyatlarning xususiyatlari

№	Xususiyat nomi	Tavsifi
1	Izohlovchilik	Joy nomining kelib chiqishini tushuntiradi
2	Tarixiylik	Real voqealar asosida shakllanadi
3	Badiiylik	Obrazli va ta’sirchan ifodaga ega
4	Afsonaviylik	Mo‘jizaviy elementlar mavjud
5	Qisqalik	Lo‘nda va ixcham shaklda bayon etiladi

Shunday qilib, 1-jadvalda toponimik rivoyatlarning asosiy belgilari tizimli ravishda keltirilgan. Shuningdek o‘zbek folklorida toponimik rivoyatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlar. Bunday rivoyatlarda joy nomi mashhur shaxslar nomi bilan bog‘lanadi. Bu orqali xalq o‘z tarixiy qahramonlarini yodda saqlaydi.

2. Tabiiy-geografik asosdagi rivoyatlar. Joy nomlari tabiat hodisalari – tog‘, daryo, iqlim yoki landshaft bilan bog‘liq holda izohlanadi.

3. Afsonaviy rivoyatlar. Bu turdagi rivoyatlarda joy nomining kelib chiqishi mo‘jizaviy voqealar bilan tushuntiriladi.

4. Ijtimoiy-maishiy rivoyatlar. Ular xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va kasb-hunari bilan bog‘liq holda shakllanadi.

1-rasm. Toponimik rivoyatlarning tasnifi (diagramma)



Diagrammada (1-rasm) o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi toponimik rivoyatlarning asosiy turlari tizimli ravishda tasvirlangan. Diagrammaning markazida “Toponimik rivoyatlar” tushunchasi berilib, undan to‘rtta asosiy yo‘nalish ajralib chiqadi.

- Birinchi yo‘nalish – tarixiy rivoyatlar bo‘lib, ular joy nomlarining kelib chiqishini mashhur shaxslar, hukmdorlar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘lab tushuntiradi. Bu turdagi rivoyatlar xalqning tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.
- Ikkinchi yo‘nalish – tabiiy-geografik rivoyatlar hisoblanadi. Ushbu rivoyatlar tog‘, daryo, ko‘l kabi tabiiy obyektlarning xususiyatlari asosida shakllanadi. Bunda joy nomi hududning tabiiy sharoiti bilan bevosita bog‘lanadi.
- Uchinchi yo‘nalish – afsonaviy rivoyatlar bo‘lib, ular mo‘jizaviy hodisalar, sehrli kuchlar yoki g‘ayritabiiy voqealar orqali joy nomining kelib chiqishini izohlaydi. Bu rivoyatlarda xalqning mifologik tasavvurlari aks etadi.
- To‘rtinchi yo‘nalish – ijtimoiy-maishiy rivoyatlar bo‘lib, ular xalqning urf-odatlari, an’analari va kasb-hunari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Bu turdagi rivoyatlar jamiyat hayotining turli jihatlarini yoritadi.

Umuman olganda, diagramma toponimik rivoyatlarning tasnifini aniq va tizimli ko‘rinishda ifodalab, ularning mazmuniy va funksional jihatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi

Shunday qilib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi toponimik rivoyatlar quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- Milliy ruhning kuchli ifodalanishi
- Tarixiy va badiiy unsurlarning uyg‘unligi
- Hududiy variantlarning mavjudligi
- Qisqa va mazmunli shaklda ifodalanishi
- Og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tishi

Shuningdek, bu rivoyatlar xalqning geografik muhit bilan bog‘liqligini ham aks ettiradi.

2 -Jadval. Toponimik rivoyatlarning ilmiy ahamiyati

Toponimik rivoyatlar turli fanlar uchun muhim manba hisoblanadi:		
Tarix uchun	Tilshunoslik uchun	Etnografiya uchun
Qadimgi voqealar, urushlar va migratsiyalar haqida ma’lumot beradi	Toponimlar orqali qadimgi til qatlamlari va so‘zlarning etimologiyasi o‘rganiladi	Xalqning urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi haqida ma’lumot beradi; o‘zbek toponimik rivoyatlarining o‘ziga xosligi

Xulosa qilib aytganda, toponimik rivoyatlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lib, ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Ularni o‘rganish milliy o‘zlikni anglash va tarixiy merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida toponimik rivoyatlarni chuqur ilmiy tadqiq etish, ularni yozib olish va tizimlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сатторов У.Ф. Своеобразные интерпретации эволюционных мотивов в топонимических легендах//Вестник науки и образования – М., 2019. – С.35–38.

2. Sattorov U. O‘zbek xalq toponimik nasrining tasnifi va poetikasi. Filol.fan. dokt. Diss. – Toshkent, 2023. 76-77-b.

3. Tirkasheva S. Toponimik rivoyatlar haqida xalq orasidagi ayrim ma’lumotlar//Innovative development of science. – Boston (USA). 2025-07-22. Pp. 129–132

Munisa RAZOQBERDIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
E-mail: mrazoqberdieva@gmail.com

O‘ZBEK-TOJIK ADABIYOTIDA “ARBA’INCHILIK” AN’ANALARI
(Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodi misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan “Arba’in” yoki “Chihil hadis” an’anasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning o‘zbek va tojik adabiyotidagi o‘rni tadqiq qilinadi. Ayniqsa, fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Abdurahmon Jomiy va o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk shoiri Alisher Navoiy ijodida mazkur janrning namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, arba’in asarlarining ma’naviy-axloqiy ahamiyati, tasavvufiy g‘oyalarni targ‘ib etishdagi o‘rni va ikki xalq adabiyoti o‘rtasidagi adabiy aloqalarni mustahkamlashdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *arba’in, chihil hadis, hadis adabiyoti, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ma’naviyat, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, o‘zbek-tojik adabiy aloqalari.*

Annotation: this article examines the formation, stages of development, and the role of the “Arba’in” or “Chihil Hadith” tradition, which is widespread in classical Eastern literature, within Uzbek and Tajik literature. Particular attention is given to a scholarly analysis of how this genre is manifested in the works of the prominent representative of Persian-Tajik literature, Abdurahmon Jami, and the great poet of Uzbek classical literature, Alisher Navoi. Furthermore, the article highlights the spiritual and moral significance of arba’in works, their role in promoting Sufi ideas, and their contribution to strengthening literary relations between the two nations.

Key words: *arba’in, chihil hadith, hadith literature, classical literature, Sufism, spirituality, Abdurahmon Jami, Alisher Navoi, Uzbek-Tajik literary relations.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются формирование, этапы развития и роль традиции «арбаин» или «чихил хадис», широко распространённой в классической восточной литературе, в узбекской и таджикской литературе. Особое внимание уделяется научному анализу проявления данного жанра в творчестве выдающегося представителя персидско-таджикской литературы Абдурахмана Джами и великого поэта узбекской классической литературы Алишера Навои. Также в статье раскрываются духовно-нравственное значение произведений жанра арбаин, их роль в распространении суфийских идей и вклад в укрепление литературных связей между двумя народами.

Ключевые слова: *арбаин, чихил хадис, хадисная литература, классическая литература, суфизм, духовность, Абдурахман Джами, Алишер Навои, узбекско-таджикские литературные связи.*

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida diniy-ma’rifiy mazmundagi asarlar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, islom dini va uning axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalari adabiyotda keng ifoda topgan. Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan janrlardan biri **“Arba’in”** janridir. “Arba’in” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “qirq” ma’nosini anglatadi. Bu janrning asosida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislaridan qirqtasini tanlab jamlash va ularni sharhlash an’anasi yotadi. Islom ulamolari va shoirlari ushbu an’anani diniy bilimlarni ommaga yetkazishning samarali usuli sifatida qabul qilganlar. Sharq adabiyotida “arba’inchilik” an’anasi arab adabiyotida shakllanib, keyinchalik fors va turkiy adabiyotlarda ham keng rivojlangan. Xususan, XV asrda yashab ijod qilgan ikki buyuk mutafakkir — Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy bu an’anani yanada takomillashtirganlar.

Arba’inchilik an’anasining tarixi va rivojlanishi. Arba’inchilik an’anasi islom madaniyatida hadis ilmlari bilan chambarchas bog‘liq. Payg‘ambarimiz (s.a.v.)dan rivoyat qilingan bir hadisda: *“Kim ummatim uchun din ishlariga oid qirq hadisni jamlasa, Alloh uni qiyomat kuni ulamolar va faqihlar qatorida tiriltiradi”* mazmunidagi fikr keltiriladi. Aynan shu hadis ulamolar va shoirlarni qirq hadisni jamlab, ularni sharhlashga undagan. Natijada islom dunyosida “Arba’in”, “Chihil hadis”, “Qirq hadis” kabi asarlar yuzaga kelgan. Dastlab bu asarlar ilmiy va diniy xarakterga ega bo‘lgan. Keyinchalik esa ular badiiy adabiyotda ham keng qo‘llanila boshlagan. Shoirlar hadislarni she’riy

shaklda ifoda etish orqali ularning mazmunini xalqqa yanada tushunarli va ta’sirchan qilib yetkazishga harakat qilganlar. Arba’inchilik an’anasi fors adabiyotida ham keng tarqalgan bo‘lib, bu sohada Abdurahmon Jomiyning xizmati beqiyosdir.

Abdurahmon Jomiy ijodida arba’inchilik an’anasi . Abdurahmon Jomiy XV asrning yirik fors-tojik shoiri, mutafakkiri va tasavvuf ulamolaridan biri hisoblanadi. U o‘z ijodida diniy, falsafiy va axloqiy mavzularga alohida e’tibor qaratgan. Jomiyning **“Chihil hadis”** asari arba’in janrining eng mashhur namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning qirqta hadisi tanlab olingan va ular she’riy shaklda bayon qilingan. Jomiy hadislarni tanlashda asosan inson kamolotiga xizmat qiladigan axloqiy mazmundagi hadislarga murojaat qiladi. Masalan, ilmning fazilati, adolat, sabr, kamtarlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlar asarning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Shoir hadislarning mazmunini sodda va ravon tilda ifoda etib, ularni keng omma uchun tushunarli qilgan. Shu sababli Jomiyning “Chihil hadis” asari nafaqat diniy, balki adabiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.Jomiy asari keyinchalik ko‘plab shoirlarga ilhom manbai bo‘lgan. Ayniqsa, uning shogirdi va do‘sti Alisher Navoiy ushbu an’anani turkiy adabiyotda davom ettirgan.

Alisher Navoiy ijodida arba’inchilik. Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining eng buyuk namoyandasi hisoblanadi. U nafaqat shoir, balki davlat arbobi, mutafakkir va ma’rifatparvar sifatida ham tanilgan. Navoiy Abdurahmon Jomiyning ijodiga katta hurmat bilan qaragan va uni ustoz deb bilgan. Shu sababli u Jomiyning “Chihil hadis” asariga ergashib, turkiy tilda **“Arba’in”** asarini yaratgan. Navoiyning “Arba’in” asarida ham Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning qirqta hadisi keltirilgan. Shoir har bir hadisning mazmunini ruboiylar orqali badiiy tarzda ifoda etadi.Bu asarning eng muhim jihati shundaki, Navoiy hadislarni turkiy tilda bayon etib, ularni turkiy xalqlar orasida keng tarqalishiga xizmat qilgan.Shu tariqa u diniy-ma’rifiy bilimlarni ommaga yetkazishda muhim rol o‘ynagan. Navoiy asarida ham insonparvarlik, adolat, mehr-shafqat, ilmga intilish, kamtarlik kabi fazilatlar asosiy o‘rin tutadi.**Jomiy va Navoiy asarlarining qiyosiy tahlili .** Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlari o‘rtasida bir qator umumiy jihatlar mavjud.Birinchi navbatda, har ikki asar Payg‘ambar hadislariga asoslangan. Shuningdek, ularning asosiy maqsadi insonni ma’naviy kamolotga yetaklashdan iborat. Ikkinchidan, har ikki shoir hadislarni badiiy shaklda ifoda etish orqali ularning mazmunini xalqqa tushunarli tarzda yetkazishga harakat qilgan. Biroq ayrim farqlar ham kuzatiladi.Jomiy asarini fors tilida yozgan bo‘lsa, Navoiy uni turkiy tilda yaratgan. Bu esa arba’in janrining turli xalqlar adabiyotida keng tarqalishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, Navoiy o‘z asarida turkiy badiiy an’analarni qo‘llab, asarga milliy ruh baxsh etgan.

Arba’in asarlarining ma’naviy ahamiyati . Arba’in asarlari nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ular insonni ezgulikka, halollikka va axloqiy poklikka chorlaydi.Bu asarlarda asosan quyidagi g‘oyalar targ‘ib qilinadi:

- ilmga intilish
- adolatli bo‘lish
- rostgo‘ylik
- sabr-toqat
- kamtarlik
- insonlarga mehr-shafqat ko‘rsatish

Shu sababli arba’in asarlari asrlar davomida insonlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Arba’inchilik an’anasi Sharq adabiyotida muhim o‘rin tutadigan diniy-didaktik janrlardan biri hisoblanadi. Bu janr orqali islom axloqi va ma’naviy qadriyatlari keng ommaga yetkazilgan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida mazkur janr yanada rivojlanib, fors va turkiy adabiyotlarda mustahkam o‘rin egallagan. Ularning asarlari nafaqat adabiy meros, balki ma’naviy tarbiya manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shu bois arba’inchilik an’anasini o‘rganish o‘zbek va tojik adabiy aloqalarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy . Arba’in. –Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti, 2000.
2. Abdurahmon Jomiy. Chihil hadis. Dushanbe: Irfon nashriyoti, 1985.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2009.
4. Bertels Ye.E. Navoiy va Sharq adabiyoti. – Moskva, 1965.
5. Hayitov A. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2016.
6. Valixo‘jayev B. Navoiyshunoslik asoslari. – Toshkent, 2001.
7. Karimov B. Mumtoz adabiyot tarixi. – Toshkent, 2010.

Gulmira ASQAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistri

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONINING BADIIY KONSEPSIYASI VA G‘OYAVIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayoni tahlil qilinadi. Badiiy konsepsiyalar va g‘oyaviy yo‘nalishlar, ularning shakllanishi va jamiyatdagi roli o‘rganiladi. Maqolada zamonaviy adabiy jarayonlar, milliy qadriyatlar va badiiy ijodning g‘oyaviy funksiyalari ilmiy yondashuv bilan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *mustaqillik davri, o‘zbek adabiyoti, milliy o‘zlik, badiiy konsepsiya, g‘oyaviy yo‘nalish, madaniyat, ijtimoiy ong*

Annotation: this article analyzes the process of understanding national identity in Uzbek literature during the period of independence. Artistic concepts and ideological directions, their formation, and their role in society are studied. The article examines contemporary literary processes, national values, and the ideological functions of artistic creativity using a scientific approach.

Key words: *period of independence, Uzbek literature, national identity, artistic concept, ideological direction, culture, social consciousness*

Аннотация: в данной статье анализируется процесс осознания национальной идентичности в узбекской литературе периода независимости. Рассматриваются художественные концепции и идеологические направления, их формирование и роль в обществе. Статья изучает современные литературные процессы, национальные ценности и идеологические функции художественного творчества с научной точки зрения.

Ключевые слова: *период независимости, узбекская литература, национальная идентичность, художественная концепция, идеологическое направление, культура, общественное сознание*

Kirish. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayoni yangi sifat va mazmun kasb etdi. 1991-yildan keyingi davrda adabiyotda milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar va madaniy an’analarni qayta talqin qilish jarayoni kuchaydi. Shu davrda yozilgan asarlar orqali adabiyot nafaqat estetik zavq bag‘ishlash, balki milliy o‘zlikni shakllantirish va mustahkamlash vositasi sifatida faol ishlay boshladi.

Mustaqillik davri adabiy jarayoni o‘zining g‘oyaviy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yozuvchilar milliy tarix, ona tili, urf-odatlar va xalq an’analarini badiiy tarzda aks ettirib, milliy ong va identitetni mustahkamlashga intildi. Shu bilan birga, adabiyotda insoniy qadriyatlar, erkinlik, shaxs huquqlari, ijtimoiy adolat kabi mavzular ko‘plab asarlarda markaziy o‘rin oldi. Tarixiy va zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik davri adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayoni faqat tarixiy va madaniy nuqtayi nazardan emas, balki badiiy konsepsiyalar, obrazlar va mavzular orqali amalga oshirilgan. Shu sababli, bu jarayonni o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Metodlar

Maqolada tahliliy, komparativ va interdisipliner metodlar ishlatildi. Tahliliy metod yordamida mustaqillik davri adabiy asarlari o‘rganilib, milliy o‘zlik va g‘oyaviy yo‘nalishlar tahlil qilindi. Taqqoslash metod orqali turli yozuvchilar va asarlar o‘rtasida milliy konsepsiyalar va g‘oyaviy yondashuvlar solishtirildi. Shuningdek, sistemali yondashuv qo‘llanilib, adabiy jarayonning badiiy, g‘oyaviy va ijtimoiy jihatlari birgalikda o‘rganildi. Interdisipliner yondashuv esa adabiyot, tarix va madaniyatshunoslik elementlarini birlashtirib, milliy o‘zlikning shakllanish jarayonini chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan kontekstual tahlil metodidan ham foydalanildi. Bu metod orqali asarlar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy kontekst bilan bog‘lanib tahlil qilindi, shuningdek, ularning milliy o‘zlik va g‘oyaviy maqsadlarini aniqlash imkonini berdi. Sistemali yondashuv ham qo‘llanildi, ya’ni adabiy jarayonning badiiy, g‘oyaviy va ijtimoiy jihatlari birgalikda o‘rganildi. Shu orqali milliy o‘zlikni anglash jarayonining kompleks xarakteri aniqlanib, uning jamiyat va madaniyatga ta’siri tizimli ravishda tasvirlandi.

Zamonaviy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan interdisipliner metodlardan ham foydalanildi. Adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va madaniyatshunoslik yondashuvlari birlashtirilib, milliy o‘zlikni anglash jarayonining turli kontekstlari o‘rganildi. Shu orqali asarlar nafaqat estetik va badiiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham tahlil qilindi.

Shuningdek, maqolada kontekstual tahlil metodidan foydalangan holda, adabiy asarlarni mustaqillik davrining

ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog‘lab tahlil qilindi. Bu metod yozuvchilarning g‘oyaviy yondashuvlarini va milliy o‘zlik konsepsiyalarini jamiyatdagi voqelik bilan bog‘lash imkonini berdi.

Ushbu metodlar kombinatsiyasi maqolaga mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayonini badiiy konsepsiyalar va g‘oyaviy yo‘nalishlar bilan kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi. Shu bilan birga, turli adabiy manbalarni va zamonaviy tahlillarni qo‘llash badiiy ijodning estetik, g‘oyaviy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayoni bir necha asosiy yo‘nalishda amalga oshdi. Avvalo, tarixiy va madaniy merosni qayta talqin qilish. Ko‘plab yozuvchilar qadimiy tarixiy voqealarni, xalq qahramonlarini va an’analarni badiiy shaklda ifodalaydi, bu esa milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, milliy o‘zlikning g‘oyaviy aspekti shakllandi. Mustaqillik davri adabiy asarlarida erkinlik, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy adolat kabi mavzular markaziy o‘rin oldi. Shu bilan birga, yozuvchilar milliy qadriyatlar va universal insoniy g‘oyalarni uyg‘unlashtirishga intildi.

Uchinchidan, badiiy konsepsiyalar yordamida adabiyot jamiyatdagi ijtimoiy ongni rivojlantirdi. O‘quvchilar va tomoshabinlar asarlar orqali milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarni anglaydi, bu esa jamiyatda milliy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Mulohaza

Tahlillar asosida mulohaza qilish mumkinki, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayoni nafaqat badiiy obrazlar, balki g‘oyaviy konsepsiyalar orqali amalga oshirildi. Yozuvchilar milliy tarix, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni badiiy shaklda ifodalash orqali jamiyatning ma’naviy ongini rivojlantirdi. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyoti turli g‘oyaviy yo‘nalishlarni birlashtirib, milliy o‘zlik va global qadriyatlar o‘rtasida uyg‘unlik yaratishga intildi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar badiiy asarlarning ta’sirini oshirdi va yosh avlodni milliy madaniyat bilan tanishtirish imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik davri adabiyoti milliy o‘zlikni anglashning badiiy konsepsiyasi va g‘oyaviy yo‘nalishlari orqali jamiyatning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, mulohaza shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik davri adabiyoti turli g‘oyaviy yo‘nalishlarni birlashtirib, milliy qadriyatlar va global insoniy g‘oyalarni uyg‘unlashtirishga intilgan. Bu jarayonda badiiy asarlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlagan, balki ijtimoiy, axloqiy va pedagogik funksiyalarni ham bajargan. Masalan, zamonaviy proza va she’riyatda milliy o‘zlik va shaxsiy erkinlik mavzulari bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlatilgan, bu esa o‘quvchilar va tomoshabinlarda milliy g‘urur va ijtimoiy sezgirlikni rivojlantirgan.

Xulosa va tavsiyalar

Shuningdek, mustaqillik davri adabiyoti tarixiy voqealarni, xalq qahramonlarini va milliy urf-odatlarni qayta talqin qilish orqali milliy ongni shakllantirgan. Zamonaviy asarlarda milliy qadriyatlar va global g‘oyalarni uyg‘unlashtirish, shaxsiy erkinlik, adolat va ijtimoiy mas’uliyat kabi mavzular markaziy o‘rin egallagan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar badiiy ijodning ta’sirini kengaytirib, yosh avlodning milliy madaniyat va tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam bergan.

Tavsiyalar:

- Mustaqillik davri adabiyotini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish, milliy o‘zlikni anglash jarayonini yosh avlodda shakllantirishga alohida e’tibor qaratish.
- Milliy madaniyat va tarixiy qadriyatlarni o‘rganish uchun adabiyotdan keng foydalanish, maktab va universitet dasturlarida bu mavzuga alohida bo‘limlarni kiritish.
- Badiiy asarlarni zamonaviy texnologiyalar orqali keng auditoriyaga yetkazish, elektron kitoblar, onlayn teatr va film loyihalari orqali targ‘ib qilish.
- Adabiy asarlar orqali milliy va global g‘oyalarni uyg‘unlashtirishni davom ettirish, ijtimoiy ongni va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qilish.
- Milliy o‘zlik konsepsiyasini badiiy ijodda rivojlantirish va yangi g‘oyaviy yo‘nalishlar yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti milliy o‘zlikni anglash jarayonida badiiy konsepsiyalar va g‘oyaviy yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirgan holda jamiyatning ma’naviy, estetik va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, badiiy ijodni rivojlantirish, zamonaviy metod va texnologiyalar yordamida targ‘ib qilish va milliy qadriyatlarni saqlash har bir jamiyat uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, O. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2014. 320-bet
2. Axmedov, M. Milliy o‘zlik va badiiy ijod. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 280-bet
3. Qodirov, S. O‘zbek adabiyoti va ma’naviyat. – Toshkent: Sharq, 2012. 250-b.
4. Yoqubov, D. Adabiyot va milliy identitet. – Toshkent: Fan, 2018. 300-bet
5. Tursunov, A. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va g‘oyaviy yo‘nalishlar. – Toshkent: Akademnashr, 2020. 270-bet.

Gulirayxon XOLIQJONOVA,
Universitety of Business and Science,
Magistratura 2-kurs talabasi,
gulirayxonxoliqjanova@gmail.com

AMERIKA ADABIYOTIDA TARIXIY ROMAN SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI VA 20-ASR BOSHLARI)

Annotatsiya: ushbu maqolada Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi va ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy roman tushunchasining nazariy asoslari, badiiy xususiyatlari hamda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabat yoritiladi. Shuningdek, Amerika yozuvchilarining tarixiy voqealarni talqin etishdagi yondashuvlari va ularning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Natijalar tarixiy roman janrining jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni aks ettirish va tarixni ommalashtirishdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy roman, Amerika adabiyoti, XIX asr oxiri, XX asr boshlari, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat, milliy identitet, adabiy jarayon.*

Annotation: this article analyzes the formation of the historical novel genre in American literature, especially its stages of development in the late 19th and early 20th centuries. The study highlights the theoretical foundations of the concept of the historical novel, its artistic features, and the relationship between historical truth and artistic texture. It also examines the approaches of American writers to interpreting historical events and their role in the formation of national identity. The results show the important role of the historical novel genre in reflecting socio-cultural processes in society and popularizing history.

Key words: *historical novel, American literature, late 19th century, early 20th century, artistic texture, historical truth, national identity, literary process*

Аннотация: в данной статье анализируется формирование жанра исторического романа в американской литературе, особенно этапы его развития в конце XIX и начале XX веков. Исследование освещает теоретические основы концепции исторического романа, его художественные особенности и взаимосвязь между исторической правдой и художественной текстурой. Также рассматриваются подходы американских писателей к интерпретации исторических событий и их роль в формировании национальной идентичности. Результаты показывают важную роль жанра исторического романа в отражении социокультурных процессов в обществе и популяризации истории.

Ключевые слова: *исторический роман, американская литература, конец XIX века, начало XX века, художественная составляющая, историческая правда, национальная идентичность, литературный процесс.*

Kirish. Amerika adabiyoti jahon adabiyotining muhim qismi bo‘lib, unda tarixiy roman janri alohida o‘rin egallaydi. Ushbu janr o‘tmish voqealarini badiiy tasvirlash bilan birga jamiyatning tarixiy xotirasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, sanoatlashuv va milliy o‘zlikni anglash jarayonlari tarixiy roman rivojiga kuchli turtki berdi.

Tarixiy roman o‘zida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirgan murakkab janr bo‘lib, yozuvchilar real voqealarni zamonaviy talqinda aks ettiradilar. Bu jarayon Amerika tarixidagi fuqarolar urushi, mustamlakachilik davri va G‘arbni o‘zlashtirish kabi voqealar bilan uzviy bog‘liqdir.

Maqolaning dolzarbligi tarixiy roman orqali Amerika jamiyatining tarixiy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini chuqur anglash imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi — mazkur janrning shakllanish bosqichlarini aniqlash, xususiyatlarini tahlil qilish va rivojiga ta’sir etgan omillarni o‘rganishdir. Shu bois tarixiy-adabiy tahlil va qiyosiy metodlardan foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi va rivojlanishi ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar janrning nazariy asoslari, badiiy xususiyatlari hamda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar ushbu janr rivojida muhim omil bo‘lgan.

Georg Lukács tarixiy roman nazariyasini asoslab, uni realistik adabiyotning muhim shakli sifatida baholaydi. Uning fikricha, tarixiy roman jamiyat taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini badiiy shaklda ochib beradi[1]. Walter Scott esa tarixiy roman janrining asoschisi sifatida tarixiy voqealarni badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashtirish

orqali yangi adabiy model yaratdi va bu model Amerika adabiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi[2].

Perry Miller tarixiy romanlarni milliy o‘zlikni shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarixiy asarlar orqali jamiyat o‘z o‘tmishini qayta anglaydi va milliy identitet mustahkamlanadi. Sacvan Bercovitch esa tarixiy romanlarni ideologik va madaniy kontekstda o‘rganib, ularning jamiyatda muayyan g‘oyalarni shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi[3]. Richard Slotkin esa tarixiy romanlarni milliy mifologiya va kollektiv xotira bilan bog‘liq holda tahlil qilib, ayniqsa “frontier” tushunchasining ahamiyatini ochib beradi[4].

Mazkur nazariy qarashlar tarixiy roman janrining ko‘p qirrali va murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois uni o‘rganishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanish zarur. Tadqiqotda tarixiy-adabiy tahlil metodi orqali janrning shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli olimlarning qarashlari solishtirilib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, madaniy-tarixiy yondashuv asosida tarixiy romanlarning jamiyatdagi o‘rni va milliy identitetni shakllantirishdagi roli tahlil qilindi[5]. Interdisiplinar yondashuv orqali esa adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tarix, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari yutuqlaridan foydalanildi.Ushbu metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi va rivojlanishini har tomonlama yoritish imkonini beradi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot davomida Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va badiiy xususiyatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarixiy roman mustaqil janr sifatida shakllanib, milliy ong va tarixiy xotirani ifodalovchi muhim vositaga aylangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu jarayon fuqarolar urushi oqibatlari, G‘arbga kengayish, sanoatlashuv va milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Yozuvchilar tarixiy voqealarni tasvirlash orqali zamonaviy ijtimoiy muammolarni ham badiiy talqin qilganlar. Shu bilan birga, tarixiy romanlarda realizm va romantizm unsurlarining uyg‘unlashuvi muhim rol o‘ynagan: realizm voqealarning haqqoniyligini ta’minlagan bo‘lsa, romantizm obrazlarning dramatik va idealistik talqinini kuchaytirgan[6].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarixiy romanlarda mustamlakachilik davri, mustaqillik uchun kurash va G‘arbni o‘zlashtirish jarayonlari asosiy mavzu sifatida yoritilgan. Bu orqali jamiyatning tarixiy taraqqiyoti va milliy identiteti aks ettirilgan. Qahramon obrazi markaziy o‘rin egallab, tarixiy voqealar shaxsiy kechinmalar orqali ochib berilgan.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yozuvchilarning tarixiy mavzularga murojaatini kuchaytirib, janrning nafaqat estetik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama davomida tarixiy fakt va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi janrning asosiy xususiyati sifatida namoyon bo‘ldi. Ba’zi asarlarda voqealar hujjatli aniqlikda berilgan bo‘lsa, boshqalarida ijodiy talqin ustunlik qiladi. Bu esa tarixiy romanlarni badiiy va ilmiy tafakkur o‘rtasidagi ko‘prikka aylantiradi.

Shuningdek, milliy o‘zlikni anglash masalasi muhim mavzu sifatida ajralib turadi. Qahramon obrazi orqali tarixiy jarayonlar yoritilib, insonning ichki kechinmalari va axloqiy tanlovlari ochib beriladi. Realizm va romantizm uyg‘unligi esa janrning badiiy uslubini shakllantirgan.

Tarixiy romanlar o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish va tarixga qiziqishni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ayrim hollarda tarixiy faktlarning subyektiv talqini uchrashi mumkinligi sababli tanqidiy yondashuv zarur. Umuman, tarixiy roman Amerika adabiyotining muhim va barqaror janrlaridan biri sifatida shakllangan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu janr dastlab milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash ehtiyoji asosida yuzaga kelib, keyinchalik mustaqil adabiy yo‘nalishga aylangan. Tahlillar realizm va romantizm uyg‘unligi tarixiy roman rivojida muhim rol o‘ynaganini tasdiqlaydi. Bu janrda milliy tarix, mustaqillik uchun kurash va jamiyat shakllanishi kabi mavzular asosiy o‘rin egallab, qahramon obrazi orqali tarixiy jarayonlar chuqur yoritilgan. Shuningdek, tarixiy romanlar o‘quvchilarda tarixiy ongni shakllantirish, milliy qadriyatlarni anglash va tarixga qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ayrim hollarda badiiy talqin tarixiy aniqlikka ta’sir qilishi mumkin. Umuman, tarixiy roman Amerika adabiyotining muhim janrlaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Rise of the American Novel — Lionel Trilling. – New York: Harcourt, Brace & World, 1950.
2. The American Historical Novel — George Dekker. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. American Realism and Naturalism: Howells to London — Donald Pizer. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.

Hikoyat BOBOQULOVA,
Navoiy Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

G‘OYIBIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN SO‘Z TURKUMLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya:mazkur maqolada xalqona ruhdagi “O‘ttiz ikki tuxum qissasi” asaridagi turdosh otlarning semantik, morfologik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘simlik nomlari orqali ifodalangan turdosh otlar ramziy ma’noda insoniy fazilatlar va ijtimoiy tushunchalarni aks ettirishdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *turdosh ot, umumiy ot, jamlovchi ot, majoziy ma’no, semantika, morfologik shakl, xalqona asar.*

Аннотация: в данной статье анализируются семантические, морфологические и стилистические особенности нарицательных имен существительных в народном по духу произведении «Сказание о тридцати двух яйцах» («O‘ttiz ikki tuxum qissasi»). Также освещается роль нарицательных существительных, выраженных названиями растений, в отражении человеческих качеств и социальных понятий через призму символических значений.

Ключевые слова: *нарицательное имя существительное, общее имя, собирательное существительное, иносказательное значение, семантика, морфологическая форма, народное произведение.*

Annotation: this article analyzes the semantic, morphological, and stylistic characteristics of common nouns in the folk-style literary work “The Tale of Thirty-Two Eggs” (O‘ttiz ikki tuxum qissasi). Furthermore, it highlights the role of common nouns representing plant names in reflecting human virtues and social concepts through symbolic and metaphorical meanings.

Key words: *common noun, general noun, collective noun, figurative meaning, semantics, morphological form, folk-style work.*

G‘oyibiy ijodi o‘zbek tasavvuf adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning she’rlari, pand-nasihat ruhidagi hikmatlari diniy-falsafiy qarashlari, ijtimoiy hayotga munosabat hamda axloqiy tarbiya g‘oyalarini o‘zida mujassam etadi. Shu jihatdan unda diniy-falsafiy va ijtimoiy leksika alohida ahamiyat kasb etadi.Quyida shoir ijodiyotining lingvistik tadrijini birgina qissa namunasida batafsil yoritamiz.Shoirning “O‘ttiz ikki tuxum qissasi” xalq tafakkuri va tilining uyg‘un ifodasidir. Asarda o‘simlik va donlarning o‘zaro bahsi orqali insoniy fazilatlar, mehnat, kibr va shukronalik g‘oyalari ilgari suriladi.Asar tili xalq tili asosida shakllangan bo‘lib, unda sodda, ammo obrazli ifodalar, dialogik nutq, ko‘p ma’nolilik (polisemiya) kabi xususiyatlar keng qo‘llangan.Asarning asosiy leksik yadrosi — don va o‘simlik nomlari: arpa, bug‘doy, jo‘xori, sholi, mosh, kunji, g‘o‘za va boshqalar.Bu so‘zlar turdosh otlar turkumiga kiradi va umumiy, jamlovchi ma’no bildiradi.Asarda o‘simlik va donlarning (bug‘doy, arpa, sholi, jo‘xori, kunji, g‘o‘za va boshqalar) insoniy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar timsolida jonlantirilgan bahsi tasvirlanadi.Rivoyatga ko‘ra, Hazrati Odam (a.s.) “o‘ttiz ikki tuxum” ekkan.Ekilgan har donlar va o‘simliklar ramziy ma’noda “insoniyatning turli fazilatlari”sifatida talqin etiladi. Bahs avval jo‘xori bilan bug‘doy o‘rtasida boshlanadi.Jo‘xori mag‘rurlik bilan o‘zini ulug‘ desa, bug‘doy uning fikrlariga qarshilik qiladi. Keyin bu tortishuvga arpa, sholi, moshi, kunji, g‘o‘za va boshqalar ham qo‘shiladi. “O‘ttiz ikki tuxum” qissasi xalq og‘zaki ijodi asosidagi majoziy-satirik asar bo‘lib, unda don va o‘simlik nomlari orqali ijtimoiy va axloqiy tushunchalar ifoda etilgan. Shu bois, asardagi otlarning lisoniy tabiati, xususan turdosh otlarning qo‘llanishi alohida tahlilni talab etadi.

Ot – shaxs va predmetning nomini bildiruvchi mustaqil so‘z turkumi. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlar Kim? Nima? Kimlar? Nimalar? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. U boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

> ot yasalish xususiyatiga ega:
> son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega:
> egalik ko‘rsatkichiga ega:
> kelishik shakllari bilan o‘zgaradi;
> gapda barcha gap bo‘laklari vazifasida keladi.

Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma’nosiga ko‘ra, atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi.Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko‘rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

Ot turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega:

1. Son kategoriyasi;
2. Egalik kategoriyasi;
3. Kelishik kategoriyasi.

Otlar gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Ammo o‘rni bilan sifatlovchi, izohlovchi, kesim yoki atov, undalma kabi leksik birlik bo‘lib kelishi ham mumkin. Ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma’nosiga ega bo‘lib, kelishik qo‘shimchalari otning otga yoki otning fe’lga tobeligini ifodalaydi: bosh kelishik – kitob, qaratgich kelishik – kitobning, tushum kelishigi – kitobni, jo‘nalish kelishigi – kitobga, o‘rin-payt kelishigi – kitobda, chiqish kelishigi – kitobdan. (Zulfiyaning kitobi, kitobni sevadi) kabi. Ot so‘z yasalish xususiyatlariga ega. Ot va so‘z turkumi faol so‘z yasalish usullari morfologik, sintaktik usullarda yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, quvonch (morfologik usul bilan); belbog‘, ko‘zoynak, baxt-saodat, ota-ona (sintaktik usul); Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, inson, daryo, shahar, kitob, daftar. Turdosh otlar quyidagi ma’no guruhlarga mansubligi bilan o‘zaro farqlanadi:

Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va ko‘rish mumkin bo‘lgan otlar hisoblanadi. Masalan: bug‘doy, paxta, mosh, jo‘xori.

Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo‘lgan otlardir. Ular ham ko‘plik affikslari bilan qo‘llanmaydigan otlar bo‘lib, ularga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda turlicha ma’no bo‘yog‘i yuzaga keladi. Masalan: sevgi, sezgi, qayg‘u, alam, qadr, oriyat.

Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o‘zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: kitob, gul, daraxt kabi. Birlik shaklida bo‘lib, bir xil turdagi narsaning to‘dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir:

Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: daraxt, kitob, qalam. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og‘irlik, suyuqlik o‘lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: paxta, bug‘doy guruch, kabilar. Quyida esa asardan keltirilgan namunalar otning tasnifi bo`yicha batafsil yoritilgan.

Jo‘xori aytdi: “Avval men borib men,
Bo‘yin uzun, soqoli oq erur men.

O‘shal holda *Bug‘doy* dedi: “Ahmaq,
Sanam paydo bo‘labsan mo‘jizi haq.

Jo‘xori va bug‘doy so‘zlari aniq, sanalmaydigan ot bo‘lib, *bosh kelishikda, sodda tub, egalik qo‘shimchasisiz, ega vazifasida qo‘llangan.*

Johori aytdi: “Nobat o‘tdi bizdan,
Yuring *Bug‘doy og‘a*, taklif sizdan!”.

Fasohat tili birla aytdi arpa:
“Ki *bug‘doy,* qil-mading hech bizga sarpa.

Deydi Bug‘doy*: “Arpa*, nedur hurushing,
Shari’at oldida bo‘lsin urushing.

Yuqorida Bug‘doy og‘a va bug‘doy, Arpa leksemasi *undalma* vazifasida kelgan. Undalma – nutqda murojaat qilish, biror shaxs, predmet yoki hodisaga e’tibor qaratish uchun ishlatiladigan chaqiriq ma’nosidagi so‘z yoki so‘z birikmasidir. Odatda, undalma gapning boshqa bo‘laklariga sintaktik jihatdan bog‘lanmaydi, mustaqil holda keladi.

Yig‘ilib etdilar jangu taloshi,
Bu tomash-da ko‘ring *Noyba, Moshi.*

Hammasi aytdilar *Bug‘doyga:* “Sizdan!
Izingizdan ijozat bo‘lsa bizdan.

Noyba, moshi so‘zlari matn talabi bilan, inversiya holatda qo‘llangan bo‘lib, *tushum kelishigidagi, sodda tub, egalik qo‘shimchalarisiz, vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib kelgan.*

Bug‘doyga leksik birligi esa, *jo‘nalish kelishigidagi, sodda tub, egalik qo‘shimchalarisiz,vositali to‘ldiruvchi* vazifasida qo‘llangan.

Asarda keltirilgan bir uyaga mansub narsa otlari lingvistik ahamiyat kasb etmasdan, aksiologik ramziylikka ham ega. “Kim peshvo, rahnamo?” degan savolga javob izlab yo‘lga chiqqan o‘ttiz ikki urug‘ oxir-oqibat g‘o‘zani (paxtani) eng ulug‘ deb tan oladilar. Chunki g‘o‘zadan inson liboslari tayyorlanadi, u esa modomiki, oriyat, sharm-hayo, ibodat bilan bog‘liqligi bois ulug‘ ne’mat hisoblanadi.Bundan tashqari,

Bug‘doy — tiriklik,rizq manbai (ozuqa)
Arpa — kuch, soddalik va sabr -bardosh timsoli
“Sholi”, “Mosh”, “Kunji”, “G‘o‘za” – ijtimoiy tiplar ramzi
Sholi — mehnatkash, ammo e’tiborsiz sinf vakili;
Mosh — ilm ahli
Kunji — to‘y, marosim, osh-ovqat ramzi;
G‘o‘za — barchaning foydasiga xizmat qiluvchi, eng “pok” va “mehnat” ramzi.G‘o‘za oxir-oqibat peshvo deb tan olinadi — bu orqali muallif mehnatsevarlik, fidoyilik, kibrdan yiroqlik g‘oyasini ilgari suradi.Turdosh otlar jonlantirish (personifikatsiya) vositasi bilan inson sifatlarini oladi; bu ularning badiiy yukini oshiradi.Har bir ot dialog shaklida qo‘llanib, ijtimoiy tiplarni ifodalaydi.

Shunday qilib, asar insonni shukr, tavozu, mehnatsevarlik va Alloh ato etgan ne’matlarni qadrlash ruhida tarbiyalaydi. Har bir mavjudotning o‘z o‘rni, vazifasi va hikmati bor. Kibr emas, halollik, saxovat va mehnat orqali ulug‘likka erishiladi.“O‘ttiz ikki tuxum qissasi” asarida turdosh otlar faqat grammatik birlik emas, balki semantik va ma’naviy obraz sifatida ham qo‘llangan.Ular orqali xalq tafakkuridagi qadriyatlar — mehnatsevarlik, qanoat, kibrdan yiroqlik, fidoyilik ifoda etilgan.Demak, bu asarda turdosh otlar lingvopoetik vosita sifatida nafaqat tildagi birlik, balki ma’naviy-axloqiy konsepsiyani ifodalovchi element vazifasini bajargan.Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu asar jonlantirilgan otlar tizimi, xalqona leksika, sinonimik qatlam va stilistik vositalar bilan alohida ahamiyatga ega.Asarda til unsurlari faqat kommunikativ vazifani emas, balki ma’naviy-falsafiy yukni ham bajaradi.Tildagi turdosh otlar, semantik ko‘chishlar, stilistik jonlantirish vositalari orqali xalqning axloqiy qadriyatlari ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, SH.Rahmatullayev. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» 1992-yil.
2. A.Abduazizov. «O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi» –Toshkent, 1992-yil
3.Shayx Mahmud G‘oyibiy.Ka’ba yiqmakdir, ko‘ngilni vayron aylamak.—Toshkent, 2017
4.Vinogradov V.V. Badiiy adabiyot tili haqida. – M., 1971. 45-b.
5.Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T., 2008. 78-b.
6.Leontyev A.A. Psixolingvistika asoslari. – M., 1997. 112-b.
7.Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi nazariyasi. – T., 2012. 56-b.
8.Tilshunoslikka kirish. — T.: O‘qituvchi, 2015. 58-bet.

Sevinch ORTIQOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
sevinchortiqova50@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Firuza MURODOVA,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)



O'ZBEK IZOHLI LUG'ATLARIDA HARBIY LEKSIKOLOGIYANING TIZIMLASHTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek izohli lug'atlarida harbiy leksikaning tizimlashtirish tamoyillari tahlil qilinadi. Maqolada harbiy terminlarning lug'atdagi o'rni, ularning semantik guruhlanishi hamda tildagi funksional vazifasi o'rganilgan. Shuningdek, izohli lug'atlar orqali harbiy terminlarning normativlashuvi, til tizimidagi barqarorligi va ilmiy muomaladagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida o'zbek tilining harbiy leksikasini tartibga solish, yangilanish jarayonlarini tizimlashtirish va maxsus lug'atlar yaratish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *harbiy leksika, izohli lug'at, tizimlashtirish, terminologiya, semantika, normativlashuv.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются принципы систематизации военной лексики в узбекских толковых словарях. Анализируется место военных терминов в лексической системе языка, их семантическая классификация и функции. Кроме того, освещаются вопросы нормализации военной терминологии, её стабильность в языковой системе и роль в научном обороте. В результате исследования обосновывается необходимость дальнейшего совершенствования и создания специализированных военных словарей узбекского языка.

Ключевые слова: *военная лексика, толковый словарь, систематизация, терминология, семантика, нормализация.*

Annotation: this article examines the principles of systematizing military vocabulary in Uzbek explanatory dictionaries. The study analyzes the place of military terms in the lexical system of the language, their semantic classification, and functional roles. Additionally, it highlights the issues of normalization of military terminology, its stability within the linguistic system, and its importance in scientific usage. The research justifies the need for further refinement and the creation of specialized military dictionaries of the Uzbek language.

Key words: *military lexicon, explanatory dictionary, systematization, terminology, semantics, normalization.*

O'zbek tilining boy leksik qatlamini tashkil etuvchi sohalardan biri — bu harbiy leksikadir. Harbiy leksika xalqning mudofaa tarixi, qahramonlik an'analari, urush tajribasi va zamonaviy harbiy islohotlarini o'zida aks ettiradi.Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi davrda o'zbek tilining terminologik tizimi faol rivojlanmoqda. Harbiy terminlarning izohli lug'atlar orqali tizimlashtirilishi, semantik tahlili va normativ shaklga keltirilishi til siyosati hamda ilmiy leksikografiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — o'zbek izohli lug'atlarida harbiy leksik birliklarning tizimlashtirilish tamoyillarini aniqlash va ularning semantik guruhlanishini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida harbiy terminlarning lug'atlarda qanday tartibda berilganligi, ularning izohlanish uslubi, sinonimik va antonimik munosabatlari, shuningdek, semantik maydonlar asosida guruhlanish holati o'rganiladi.

Tadqiqotning obyekti — "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2006–2008-yillar nashri) tanlandi. Mazkur nashr o'zbek tilining eng mukammal leksik manbalaridan biri bo'lib, unda 80 mingdan ortiq so'z va iboralar jamlangan.

Tadqiqotning predmeti — harbiy leksik birliklarning semantik (so'zlarning ma'no tuzilishi, asosiy va ko'chma ma'nolari, sinonim-antonim munosabatlari hamda terminlarning ma'no kengayishi), morfologik (harbiy terminlarning tuzilish shakli) va funksional (terminlarning adabiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik yoki harbiy matnlarda qanday qo'llanilishi, uslubiy imkoniyatlari) xususiyatlari.

Tadqiqot usullari — tavsifiy (izohli lug'atlardagi harbiy leksik birliklarni aniqlash, ularning shakl va ma'nosini izohlash, tizimlashtirish), qiyosiy-tahliliy (o'zbek tilidagi harbiy terminlar boshqa tillardagi muqobillari bilan qiyoslanadi), komponent tahlil (harbiy terminlarning ma'no tuzilmasini aniqlash, ularning semantik komponentlarini tahlil qilish), semantik maydon usuli (o'zaro bog'liq harbiy terminlarni ma'no maydonlari bo'yicha guruhlash).

Leksikologiya tildagi so'z boyligini o'rganadigan bo'lim bo'lib, u so'zlarning ma'no tizimi, shakliy va semantik o'zaro aloqasini o'rganadi. Harbiy leksikologiya esa shu tizimning maxsus bir bo'lagi sifatida shakllanadi. Unda harbiy hayot, jangovar faoliyat, qurol-aslaha, taktik va strategik jarayonlarga oid so'zlar tizimi o'rganiladi. Harbiy terminologiya asosan, tarixiy voqealar, siyosiy tizim, xalqaro harbiy hamkorlik va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun harbiy leksika doimiy ravishda yangilanib, tilning terminologik fondini boyitadi. Tilshunoslar T. Jo'rayev, A. Karimov, R. Jumaniyozovlarning asarlarida harbiy terminologiyaning shakllanish manbalari va tizimliligi haqida muhim ilmiy fikrlar bildirilgan. Ularning ta'kidlashicha, harbiy terminlar xalq tili, tarixiy manbalar, arabcha, forscha va ruscha so'zlar orqali boyigan.

Izohli lug'atlar tilning eng muhim manbasi hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2006–2008) o'zbek tilining umumxalq boyligini to'liq qamrab olib, unda 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasi izohlangan. Lug'atda harbiy leksik birliklar

ham keng yoritilgan. Harbiy so‘zlar tematik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1. Qurol-aslaha nomlari (avtomat, miltiq, zambarak, jazoyil, manjaniq);

2. Harbiy amallar va jarayonlar (jang, manyovr, istehkom, himoya, hujum);

3. Harbiy lavozimlar va unvonlar (sarkarda, qo‘mondon, leytenant, askar);

4. Harbiy inshootlar va joy nomlari (front, jabha, istehkom, garnizon);

5. Tashkiliy-huquqiy terminlar (mudofaa, safarbarlik, harbiy xizmat).

Tizimlashtirishning *asosiy tamoyili* — semantik maydon tamoyilidir. Bu usulda so‘zlar ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liq tarmoqlarga ajratiladi. Masalan, “jang” maydoniga “hujum”, “himoya”, “zarba”, “harb-zarb” kabi so‘zlar kiradi.

Ikkinchi tamoyil — etimologik va tarixiy yondashuvdir. Lug‘atda arabcha (jang, harb, istehkom), forscha (sipoh, lashkar), ruscha (kalibr, avtomat, general) manbali terminlar izoh bilan berilgan.

Uchinchi tamoyil — normativlashuv tamoyilidir. Harbiy so‘zlar adabiy til me’yorlariga mos shaklda rasmiylashtirilgan. Bu o‘zbek tilida terminlarning yagona va barqaror tizimini ta’minlaydi.

O‘zbek izohli lug‘atlarida harbiy leksikaning semantik tarkibi ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi:

1. Aniq denotativ ma’noga ega birliklar — bu to‘g‘ridan to‘g‘ri predmet yoki hodisani bildiruvchi so‘zlar (miltiq, istehkom, aviatsiya).

2. Ko‘chma yoki ramziy ma’noga ega birliklar — harbiy so‘zlar badiiy nutqda ramziy ma’no kasb etadi (“hayot jangi”, “ruh istehkomi” va h.k.).

Morfologik jihatdan harbiy terminlar asosan, ot so‘z turkumiga mansub. Ularning ko‘pchiligi affiksal so‘z yasash orqali hosil bo‘lgan: “jangari”, “mudofaa”, “himoyachi”, “qurollanish” va boshqalar. Shuningdek, lug‘atdagi ba’zi terminlar internatsional tusga ega. Masalan: “ballistika”, “aviatsiya”, “manövra”, “kalibr”. Bu terminlar xalqaro leksik qatlamdan o‘zbek tiliga kirib, fonetik jihatdan moslashtirilgan.

Harbiy leksika — bu harbiy ish, mudofaa, qurollanish, strategiya va harbiy texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus so‘z va atamalar tizimidir. Bunday leksika har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va harbiy an’analarini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli harbiy terminlar izohli lug‘atlar orqali nafaqat tilshunoslar, balki tarixchilar, adabiyotshunoslar, sotsiologlar hamda harbiy mutaxassislar uchun qimmatli manba hisoblanadi. Masalan, “jangovar ruh”, “front orti”, “harbiy intizom”, “qurol-yarog‘”, “mudofaa”, “strategiya” kabi so‘zlar oddiy harbiy atamalardir, lekin ular o‘zbek xalqining tarixiy urush davrlaridagi hayoti, mentaliteti va ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu atamalar orqali o‘tmishdagi harbiy madaniyat va milliy himoya tizimi haqida ham ma’lumot olish mumkin. Bugungi kunda o‘zbek tilida harbiy terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish yo‘lida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayrim olimlar o‘z ishlarida harbiy terminlarning lug‘aviy xususiyatlarini tahlil qilgan. Ammo maxsus “O‘zbek harbiy terminlari izohli lug‘ati” hali to‘liq shaklda yaratilmagan. Masalan, rus tilida “Военный энциклопедический словарь”, ingliz tilida esa “Dictionary of Military Terms” kabi manbalar mavjud bo‘lib, ular har bir terminni aniqlik bilan izohlaydi, tarixiy misollar keltiradi. O‘zbek tilida ham shunday keng qamrovli lug‘at yaratilsa, u nafaqat harbiy ta’lim muassasalari, balki universitetlarning filologiya, tarix va tarjima fakultetlari uchun ham foydali manba bo‘ladi. Zamon bilan birga harbiy soha ham yangilanmoqda. Hozirgi kunda raqamli urush, dron, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt asosidagi razvedka, raketa mudofaa tizimi, GPS-navigatsiya, robotlashtirilgan askar kabi yangi tushunchalar paydo bo‘ldi: “Dron” — uchuvchisiz boshqariladigan uchish apparati. Ilgari bu atama o‘zbek tilida yo‘q edi, hozir esa keng qo‘llanmoqda; “Kiberxavfsizlik” — axborot tizimlarini himoya qilishga oid yangi harbiy soha.

“Raketa tizimi”, “aerokosmik mudofaa”, “raqamli razvedka” kabi iboralar esa ilgari mavjud bo‘lmagan, zamonaviy texnologiyalar bilan kirib kelgan terminlardir.Bunday neologizmlar harbiy lug‘atni boyitadi, ammo ularning o‘zbekcha muqobillarini aniqlab, yagona tizimda tartibga solish zarur. Harbiy terminlarni to‘plash, izohlash va tizimlashtirish o‘zbek leksikografiyasi (lug‘at tuzish fani) uchun katta ahamiyatga ega. Bu ish nafaqat til boyligini saqlash, balki milliy terminologik siyosatni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Masalan, “qurol-aslaha” yoki “jangovar tayyorgarlik” kabi so‘zlar tarixiy lug‘atlardan olingan bo‘lishi mumkin, ammo “drone hujumi” yoki “raqamli mudofaa tizimi” kabi yangi terminlar izohli lug‘atlarga kiritilmasa, kelajak avlod ularning asl ma’nosini to‘liq anglamasligi mumkin.

O‘zbek izohli lug‘atlarida harbiy leksikaning tizimlashtirilishi — milliy leksikologiya va leksikografiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da harbiy terminlar semantik, tarixiy va normativ tamoyillar asosida joylashtirilgan. Harbiy leksika nafaqat tilning boyligini oshiradi, balki xalqning madaniy xotirasi, tarixiy qadriyati va vatanparvarlik ruhini ifodalaydi. Kelajakda harbiy terminologiyani maxsus izohli lug‘atlar orqali yanada chuqurroq tizimlashtirish, yangi terminlar bazasini yaratish va elektron platformalarda e’lon qilish o‘zbek leksikografiyasining strategik vazifasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov, O. Terminologiya va izohli lug‘at yaratish tamoyillari. – Toshkent, 2021.
2. Jumaniyozov, R. Til va madaniyat uyg‘unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Karimov, A. Harbiy terminlarning shakllanishi va qo‘llanilishi. – “Til va adabiyot”, 2020, №3.
4. Mirzayev, M. O‘zbek leksikologiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018.
5. Murodova, F. J. Harbiy vatanparvarlik nutqida ayrim leksik birliklarning qo‘llanishi. “Ilm sarchashmalari”. № 3, 2024.
6. Murodova, F. J. O‘zbek tilida harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi haqida. – Qo‘qon: “Filologiyaning dolzarb masalalari”, 2024.
7. Qodirova, D. O‘zbek tilida yangi terminlar tizimi. – “Filologiya masalalari”, 2023, №2.
8. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildlik. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2006–2008.

Muhayyo XUDOYBERDIYEVA,
Turon universiteti magistranti
Xudoyberdiyevamuhayyo92@gmail.com

ONOMASTIK LUG‘ATLARNING TAVSIFI VA TASNIFI

Annotatsiya: bu maqolada onomastik lug‘atlar va ularning turlari, onomastik lug‘atlarning mavzuviy guruhiga kiruvchi antroponimik lug‘atlar, unda antroponimik birliklarning berilishi, shu turdagi lug‘atlarning o‘zaro farqlari, izohlanish tamoyillari haqida fikr yuritilgan va antroponimik lug‘atlarning mazmuni manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, onomastik lug‘at, antroponim, xotin-qiz ismlari, izohli, etimologik.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются ономастические словари и их типы, антропонимические словари, входящие в тематическую группу ономастических словарей, представление в них антропонимических единиц, различия между словарями этого типа и принципы толкования, а также предпринимается попытка проанализировать содержание антропонимических словарей на основе источников.

Ключевые слова: *словарь, ономастический словарь, антропоним, женские имена, пояснительный, этимологический*

Annotation: this article discusses onomastic dictionaries and their types, anthroponymic dictionaries, which are part of the thematic group of onomastic dictionaries, the presentation of anthroponymic units in them, the differences between dictionaries of this type, and the principles of interpretation, and attempts to analyze the content of anthroponymic dictionaries based on sources.

Key words: *dictionary, onomastic dictionary, anthroponym, female names, explanatory, etymological*

Leksikografiya tilshunoslikning lug‘at va uning turlari, u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi sohasidir. Lug‘atlar ensiklopedik va filologik turga bo‘linsa-da, yaratilgan maqsadiga ko‘ra uning turlari juda ko‘pdir. Shunday lug‘atlarning bir turi onomastik lug‘atlar deb nomlanadi, chunki bunday lug‘atlarda toponim, gidronim, antroponim, oronim, ornitonim, oykonim, etnonim, poetonim va boshqa onomastik birliklar alifbo tartibida keltirilib, ularning ma’nosi izohlanadi, orfografik normasi qayd etiladi.

Zamaxshariy lug‘atshunos sifatida dastlab arab leksikografiyasining mavzuviy prinsipi (so‘zlarni lug‘atda mavzuviy guruhlar bo‘yicha joylashtirish) asosida “Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh” (tog‘, manzil va suvlar) nomli toponimik asarini yaratadi. Bu asarda arab tili leksikasiga oid geografik nomlar mavzuviy guruhlarga ajratib izohlangan. Mavzuviy guruh ichida so‘zlar alifbo prinsipi asosida joylashtirilgan [1]. Bu lug‘atdan ma’lum bo‘ladiki, onomastik lug‘atlar har qaysi davrda ham muhim hisoblangan.

O‘zbek tilida nashr etilgan onomastik lug‘atlarga e’tibor berilsa, bu lug‘atlarda onomastik birliklarning imlo, izohli, ko‘rsatkich, o‘quv va etimologik lug‘atlari yaratilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Onomastik lug‘atlarning yana bir ko‘rinishlari borki, ularning nomlanishida “lug‘at” so‘zi aks etmagan. Ammo lug‘at tuzish tamoyillari asosida tuzilib nashr etilgan. Jumladan, Y.Menajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov, E.Begmatov “Ismingizning ma’nosi nima?” (1968), E.Begmatov “O‘zbek ismlari” (1991), “Ism chiroyi” (1994), “O‘zbek ismlari ma’nosi” (2010), B.O‘rinboyevning “Jizzax viloyati toponimlari” (1992), Q.Hakimovning “Jizzax viloyati toponimlari” (2014), M.Mirakmalov va M.Avezovlarning “Vobkent tumani toponimlari” (2017), “Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari” (2020), S. Qorayevning “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” (2005), S.Qorayev “Geografik nomlar ma’nosi” (1978), B.O‘rinboyev “Jizzax toponimlarining ta’biri” (2007), Z.Ziyotov “Turon qavmlari” (2008), B.O‘rinboyev “Asrlardek barhayot nomlar” (2003), T.Nafasov “Qashqadaryo qishloqnomasi “ (2009) va boshqalar.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘zbek onomastik lug‘atlarining turlari ko‘p va keng qamrovli. Ammo bu lug‘atlar onomastik birliklarning keng tarqalgan turlari asosida tuzilgan va nashr etilgan. Vaholanki, bu turdagi lug‘atlarning yanada ko‘plab turlari yaratilishi lozim. Jumladan, onomastik morfem lug‘at, onomastik yasalish lug‘ati, o‘zlashma onomastik birliklar lug‘ati va boshqalar.

Izlanishlarimiz va soha manbalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilshunosligida nashr etilgan onomastik lug‘atlarni yaratilgan maqsadiga ko‘ra beshta katta guruhga bo‘lib tasnif qilishni ma’qul ko‘rdik. Bular:

I. *Onomastik izohli lug‘at.* Bu tur lug‘atda ma’lum bir onomastik birliklar izohi keltiriladi. Bunday lug‘atlarni yaratilish manbasiga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin: a) ma’lum bir til onomastik fondidagi onomastik birliklar izohli lug‘ati (1) toponimik izohli lug‘at; 2) antroponimik izohli lug‘at; 3) poetonimlar izohli lug‘ati va boshqalar); b) badiiy matndagi onomastik birliklar izohli lug‘ati (masalan, ma’lum bir ijodkorning asari yoki asarlaridagi onomastik birliklar izohli keltirilgan lug‘at).

II. *Onomastik imlo lug‘ati.* Bunda onomastik birlik turiga ko‘ra ularning imlosi ko‘rsatiladi. O‘zbek tilida imlo lug‘atlari yaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda bunday lug‘atlarga ehtiyoj kattadir. Uning quyidagi turlari yaratilgan. a) *toponimik (geografik) imlo lug‘at* (H.Hasanov, S.Qorayev). b) *antroponimik imlo lug‘at* (E.Begmatov) va boshqalar.

III. Onomastik etimologik lug‘at. Onomastik birliklarning bu tur lug‘atida nomlarning kelib chiqish tarixi, transformatsiyasi, variantlari va boshqa elementlari keltiriladi. “O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati” (T.J.Enazarov va boshqalar, 2019).

IV. Onomastik ko‘rsatkich lug‘ati. Ma’lum bir hududdagi yoki matndagi nomlarning alifbo yoki mavzuviy turlarga ajratilgan holda berilishi. Masalan, “Hududiy nomlar ko‘rsatkichi lug‘ati (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari)” (M.Saparniyazova, N.Ahmedova, 2022).

V. Onomastik izohli-tavsiyaviy lug‘ati. Bu turdagi lug‘at yaqin yillarda tuzilgan bo‘lib, unda hozirgi vaqtda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan tashkilot, korxona va muassasa yoki boshqa nomlarning lingvistik manzarasini yaratish maqsad qilinadi. Nomlarni leksikografik tavsiflash orqali o‘zbek tili nomlash texnologiyasiga doir yutuqlarni ko‘rsatish, undagi mavjud kamchiliklar aniqlash, nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha muayyan tavsiyalar beriladi. Mazkur lug‘at oraliq turdagi, ya’ni ham lingvistika, ham biznes reklamasiga doir lug‘at hisoblanib, ayrim yangicha tamoyillari bilan mavjud lug‘atlardan farqlanadi [2]. Jumladan, “Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati” (D.Xudoyberganova, 2021).

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida onomatik lug‘atlarning ko‘p turlari yaratilgan. Jumladan, “birgina toponimik lug‘atlarning o‘ndan ortiq turi” [3] va antroponimik lug‘atlarning ham juda ko‘p turlari yaratilgan. Maqolamizda **Antroponimik lug‘atlarning ayrim turlari haqida fikr-mulohazalarimizni keltirmoqdamiz.** Bunday lug‘atlarda kishi ismlari, laqablar va taxalluslar izohlanadi. O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar quyidagi **antroponimik** lug‘atlar yaratilib, nashr etilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bunday lug‘atlarning yaratilishida E.Begmatovning hissasi katta. Chunki olimning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (1972), “O‘zbek ismlari” (1991), “Ism chiroyi” (1994), “O‘zbek ismlari ma’nosi” (2010), E.Begmatov, S.Kenjayeva “O‘zbek ismlari ma’nosi” (2007); N.Mo‘minova “Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi antroponimlarning izohli lug‘ati” (2021), X.Jabborov, Y.Djurayeva “O‘zbek xotin-qizlari ismlarining ma’nosini bilasizmi?” (2025) va boshqalar. Bu lug‘atlardan oxirgi ikkitasi boshqa shu turdagi lug‘atlardan tubdan farq qiladi. Chunki N.Mo‘minovaning lug‘atida[4] Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi 443 ta antroponim (kishi ismlar) larga izohlar berilgan. Asarda qo‘llangan antroponimlar, ya’ni Muhammad payg‘ambarning ajdodi va avlodlari, payg‘ambarlar, ularning ajdod-avlodlari, xalifalar, avliyolar, farishtalar nomlari, badiiy, an’anaviy, to‘qima, real, ijodkorlar, Eron shohlari, temuriylar, mo‘g‘ul hukmdorlari, taxalluslar, laqab va unvonlardan yasalgan shaxslarning ismlari jamlangan. Lug‘atda ismlarining qaysi tilga mansubligi va ma’nolari ko‘rsatilgan. Asardagi har bir antroponimga asar matnidan misollar tanlanib izohlangan. Lug‘atdan namuna:

АББОСХОН**//ABBOSXON** [а.+ўз.] – **qovog‘i soliq, badjahl, beshafqat yoki dovyurak, jangovar. Muhammad (s.a.v.) tog‘asining nomi; xon–podshoh, hukmdor, hokim, ya’ni ulg‘ayib ulug‘ martabalar sohibi, elboshi.** Eroniylar shohi. *Eroniylarni podshohi Abbosxon bila jang qildi; vaqti bo‘lub Abdulmo‘minxon o‘z o‘g‘lini saltanat taxtiga o‘tquzdi. Muxammadqulixon jo‘sh muning ulug‘ bobosi, oni Zominda qatl ayladi. Andin keyin Jonixon saltanatga o‘lturdi* (STT–37).

X.Jabborov, Y.Djurayevalarning “O‘zbek xotin-qizlari ismlarining ma’nosini bilasizmi?” izohli lug‘atida 5124 ta xotin-qizlar ismi berilib, ma’nosi izohlanganligi (shundan 136 ta xotin-qizlar ismi E.Begmatovning “O‘zbek ismlari izohi” lug‘atida keltirilmagan), lug‘at tuzuvchilar tomonidan yozma manbalar va xalq so‘zlashuv nutqidan yozib olinganligi, izohlanganligi qayd etilgan. Shuningdek, lug‘at tuzilishi va tarkibiga ko‘ra boshqa lug‘atlardan farq qilib, ismlar an’anaviy tarzda emas, balki qaysi tilga mansubligiga ko‘ra, ya’ni o‘zbekcha, arabcha, forscha-tojikcha, arabcha+o‘zbekcha, o‘zbekcha+fors-tojikcha, arabcha+fors-tojikcha va turli tillardan o‘zlashgan ismlar kabi guruhlanib, qat’iy alifbo tartibida berilib ma’nosi izohlangan. Lug‘atda ham qizlarga, ham o‘g‘il bolalarga qo‘yilgan xotin-qiz ismlari, tarkibi turli tillarga oid bo‘lgan qo‘shma ismlar hozirgi kunda o‘zbek tilining leksik qatlamiga singib ketgan bo‘lsa-da, bunday ismlar tarkibiy qismining har qaysisi ta’kidlanib, shunga asosan guruhlangan. Ba’zi kelib chiqishi munozarali ismlarga oydinlik kiritilgan, jamlangan ismlarning ko‘pchiligi uchun *gul, dil, oy, nur, nor, suluv, moh, jamol, jahon, buvi, bibi, beka, begim, bonu, momo, xon, xonim, xol, niso* kabi antropoindikatorlar asos vazifasini bajarganligi dalillangan [5]. Lug‘atdan namuna:

I. O‘ZBEKCHA ISMLAR

ATLAS – nafis, muloyim, yoqimli; nodir.

ARDOQ – hurmat, e’zoz, izzat- ikromga sazovor farzand. Shakllari:

Ardog‘oy, Ardoqbibi, Ardoqbeka.

AVAZOY – marhum farzandlar evaziga berilgan oy kabi ko‘hlik qiz. (10-bet).

II. ARABCHA ISMLAR

ABIRA – xushbo‘y, yoqimli, yoqimtoy.

ABHAR – bo‘tako‘z, bo‘tako‘zdek go‘zal, zebo.

ADABIYA – adabiyot, go‘zallik [nafosat] farzandi [qizi] // Badiiy adabiyot kabi dilrabo, maftun etuvchi qiz (49-bet).

Shunday qilib, o‘zbek onomastik leksikografiyasida shu kunga qadar antroponimik, toponimik, etnonimik, ortonimik, poetonimik birliklarning leksikografik talqinini yaratishda muayyan ishlar amalga oshirilgan, nashr etilgan bo‘lsa-da, ammo onomastik birliklarning ko‘lamdorligi va ayrim lingvistik me’yorlarga ko‘ra kosmonimlar, xromonimlar, geortonimlar, ideonimlar kabi bir qancha onomastik lug‘atlar hamda onomastik morfem lug‘at, onomastik yasalish lug‘ati, o‘zlashma onomastik birliklar lug‘ati va boshqalarni yaratish, nashr etish o‘zbek lug‘atshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Normamatov S. Leksikografiya asoslari. –Toshkent, 2021. 33-b.

2.Xudoyberganova D. Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent, 2021. 128-b.

3.Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastik leksikografiyasi va toponimik lug‘at turlari haqida. O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Qarshi, 2012. 38-b.

4.Mo‘minova N. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asaridagi antroponimlarning izohli lug‘ati. – Qarshi: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2021. 160-b.

5.Jabborov X., Djurayeva Y. O‘zbek xotin-qizlari ismlarining ma’nosini bilasizmi? – Toshkent: Ideal press, 2025. 250-b.

Sabrina NURMATOVA,
SamDU magistranti

“QORA” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARGA AJRALISH TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqola “qora” leksemasi ishtirok etgan iboralarning leksik-semantik ma’nolariga ko‘ra guruhlarga ajralishi haqida bo‘lib, o‘zida “qora” komponentli frazemalarning leksik maydon nazariyasi, markaz va periferiya qismlarga ajralish tamoyillari tahlilini mujassamlashtirgan. Maqolada bayon etilgan fikrlar hamda berilgan tasnif badiiy asarlar misolida mustahkamlangan.

Kalit so‘zlar: *“qora” leksemasi, frazema, frazeologiya sohasi, uzual hamda okkazional ma’nolar, markaz, periferiya.*

Annotation: this article examines the classification of expressions containing the lexeme “black” according to their lexical-semantic meanings and presents an analysis based on lexical field theory, including the principles of division into central and peripheral components of phraseological units with the “black” element. The ideas discussed in the article and the proposed classification are supported with examples from literary works.

Keywords: *the lexeme “black,” phraseological unit, phraseology, usual and occasional meanings, center, periphery.*

Аннотация: в данной статье рассматривается классификация выражений с лексемой «чёрный» по их лексико-семантическим значениям, а также представлен анализ фразеологических единиц с компонентом «чёрный» на основе теории лексического поля, включая принципы их деления на центральные и периферийные элементы. Изложенные в статье положения и предложенная классификация подтверждаются примерами из художественных произведений.

Ключевые слова: *лексема «чёрный», фразеологическая единица, фразеология, узуальные и окказиональные значения, центр, периферия.*

“Qora” leksemasi azaldan “oq”ning ziddi ma’nosida qo‘llanilib keluvchi, sifat so‘z turkumiga oid lug‘aviy birlik bo‘lib, shu kunga qadar ko‘pgina tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Nafaqat jahon, balki o‘zbek tilshunosligida ham rang bildiruvchi leksemalar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar talaygina. Jumladan, Ibrohim Haqqulning “Qora rang – muborak rang”, “Yana qora rang talqini haqida” nomli maqolalari ahamiyatga molikdir. Ammo hech bir ishda “qora” komponentli frazemalar tadqiqi va tasnifini uchratmadik.

“Qora” so‘zi “O‘TIL” da 13 xil ma’noda tasnif etilgan [12]. Frazeologizm jihatdan “qora” tarkibli birliklar ham ushbu lug‘atdan o‘rin olgan. Bunday birliklar lingvomadaniy ahamiyatga molik bo‘lib, madaniy tilshunoslik yo‘nalishida ham o‘rganiladi.

Lingvistik jihatdan “qora” rang-tus bildiruvchi leksema bo‘lib, turkiy xalqlarda ba’zan salbiy, ba’zan esa ijobiy ma’nolarni ifodalovchi birliklar tarkibida asosiy komponent sifatida ishtirok etadi. Uning uzual va okkazional ma’nolari kontekst bilan birgalikda o‘rganilgandagina ochiqlanadi. “Qora” ishtirok etgan frazemalarda ushbu so‘z markaz vazifasini bajaradi hamda salbiy baholash, og‘irlik va mashaqqat, qayg‘u va ruhiy tushkunlik kabi turli xil emotsional hamda psixologik holatlarni ifodalaydi. Bunday iboralar ma’nosini ular tarkibidagi komponentlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri izohi bilan emas, balki umumlashgan semantikasiga ko‘ra aniqlab olish mumkin. Shuning uchun ham “qora” komponentli frazemalarni ular ifodalagan okkazional ma’nolariga ko‘ra bir qancha guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

I. Salbiy baho ottenkasiga ega bo‘lgan frazemalar: ichi qora, baxti qora, qora kiymoq, qora yer bo‘lmoq.

“Ichi qora” frazemasi “O‘TIL”da “o‘zganing muvaffaqiyatini ko‘rolmaydigan; yaxshilik, muvaffaqiyat tilamaydigan” deb izohlangan hamda variantdoshlari sifatida “dili qora”, “ko‘ngli qora”, yuragi qora” kabilar berilgan [12]. “O‘TFL” da esa “yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo

ko‘rmaydigan” ma’nosiga ega ekanligi ta’kidlangan [11]. “Ichi qora” o‘zgalarga yomonlik tilovchi, faqat o‘zini o‘ylovchi xudbin va razil kimsalarga nisbatan qo‘llaniluvchi iboradir. Islom dinida, Qur’on va hadislarda ham bunday shaxslar aslo najot topmasligi bayon etilgan. Badiiy adabiyot namunalari bo‘lmish she’r, hikoya va romanlar va hatto xalq og‘zaki ijodida ham bunday ibora ishtirok etgan o‘rinlarni ko‘plab uchratish mumkin:

Kimdir pok bo‘lgali ichadi qasam,
Lekin ichi qora, shaytonga hamdam,
Ular sizga faqat orttiradi g‘am,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad [12].

Ushbu misolda berilgan ibora shaxs xarakter-xususiyatini bildirib kelgan bo‘lib, bunday shaxslar shaytonga yo‘ldosh ekanligi ta’kidlangan. “Baxti qora” iborasi “O‘TIL”da berilmagan, ammo “O‘TFL”da “hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o‘tadigan” deb izohlangan. Varianti sifatida: “baxt(i) qaro”, “baxt(i) qoraligi” kabilar berilgan [11].

Gapirsam keladi gapning ma’quli,
Mard o‘g‘lonning pirga bo‘lar doxili,
Qaramayin ketabergin orqangga,
Baxtim qora yaramayman, shekilli [5].

Berilgan misoldan ham ma’lumki, ushbu ibora omadi chopmagan, taqdiri yomon, ma’lum bir vaziyatda noqulay ahvolda qolgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Dostonda Xolbekaning holdan toyib, yurishga boshqa madori qolmay, manzilgacha yetib bora olmasligi, Kuntug‘mish bilan yelkama-yelka bo‘la olmasligiga ko‘zi yetib, o‘z ahvoliga nisbatan “baxti qora” iborasini qo‘llaydi. “Baxti qora” iborasi “toleyi past”, “peshonasi sho‘r” kabi iboralar bilan sinonimik qatorni hosil qiladi.

1. “Qora kiymoq” frazemasi biror kim olamdan o‘tganda marhum yaqinlarining kiyimiga nisbatan qo‘llaniladigan ibora bo‘lib, bu jarayon hudud hamda urf-odatga bog‘liq. Masalan, poytaxtimiz Toshkent va uning atroflarida qora rangli libos kiyib motam tutish an’anaga aylangan. Ushbu ibora “O‘TIL”da “a’za, motam libosini kiymoq” tarzida izohlangan [12]. “O‘TFL”da esa izohi berilmagan. “Erkaklardan bo‘shalgan xonaga ayollar kira boshladi. Yuzlab saroy xonimlari yig‘lab kelishdi. Bulardan so‘ng kelgan yuzlab xalq ayollari – qizlar, kelinlar, kampirlar –tim qora kiyinib, faryod bilan havoni zirillatdilar” [6]. Ushbu misolda ham asar qahramoni Navoiy o‘limi munosabati bilan motam ma’nosida qora rangli libos kiygan xalq holati shu ibora orqali bayon etilgan.

“Qora yer bo‘lmoq” “vafot etmoq”, “qazo qilmoq”, “o‘lmoq” ma’nolarni beradigan uslubiy bo‘yoqdor frazema hisoblanadi. “Qora yerga kirmoq” varianti sanaladi. “O‘TIL”da “o‘lmoq”, “yerga kirmoq” ma’nolarini bildirishi ta’kidlangan [12]. “O‘TFL”da izohi berilmagan. Kimsanoy u yoqda, kuyov bo‘lmay qora yer bo‘lgur na o‘ligini ko‘rsatadi, na tirigini” [1]. Berilgan misolda “qora yer bo‘lmoq” iborasi qarg‘ish ottenkasiga ega bo‘lib, qahramon ruhiy holatini yoritib berish uchun qo‘llanilgan.

II. Ruhiy-psixologik holatni ifodalovchi frazemalar: ko‘ziga oq-qora ko‘rinmaslik; tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik; yuzi qora (bo‘lmoq); qon-qora qaqshamoq; og‘ziga oq it kirib, qora it chiqmoq; oq yuziga qora surmoq.

“Ko‘ziga oq-qora ko‘rinmaslik” iborasi ruhiy jihatdan asabiy hamda jahli chiqqan insonning holatini ifodalash uchun qo‘llaniladigan frazema bo‘lib, “O‘TIL”da izohi berilmagan. “O‘TFL”da esa “ko‘ziga ko‘rinmaslik”ning varianti sifatida berilgan bo‘lib, “hisoblashmaslik, o‘ylab-netib o‘tirmaslik” deb izohlangan [11]. Sinonimi sifatida “ko‘ziga hech narsa ko‘rinmaslik”, “ko‘z oldi qoraymoq” iboralari keltiriladi. “G‘azabdan, og‘riqdan tutaqqan olimning ko‘z oldi qoraydi” [6]. Ushbu jumlada ishtirok etgan iborani “ko‘ziga oq-qora ko‘rinmaslik” bilan almashtirib qo‘llash mumkin. G‘azab ta’sirida kayfiyatning salbiy tomonga o‘zgarishi shunday ibora orqali tasvirlangan.

“Tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik” “O‘TIL”da berilmagan. “O‘TFL”da esa “kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq” deb izohlangan hamda ma’nodoshlari sifatida “o‘zini qayerga qo‘yishni bilmaslik”, “o‘zini qo‘ygani joy topolmaslik”, “o‘zini qayoqqa urishni bilmaslik”, “o‘tirgani joy topolmaslik” kabilar keltirilgan [11]. “Bemahalda Muhammadamin nimaga kerak bo‘lib qoldi?... Buvinisa xolaning ko‘zlaridan uyqu qochgan, tikilgani qora, tinchigani chora topolmaydi” [3]. Ushbu ibora ruhiy jihatdan bezovta, tashvishli va xavotirli insonning holatiga nisbatan qo‘llaniladi. Asarda ham Buvinisa xolaning tashvishi, o‘g‘li Muhammadaminga qayg‘urib, o‘zini qo‘yarga joy topa olmayotgan vaziyatini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Iboraning birinchi qismida qatnashgan “qora” leksemasi “biror

narsa”, “arzimagan buyum” yoki “ermak” ma’nolarini ifodalagan.

“Yuzi qora (bo‘lmoq)” “O‘TIL”da berilmagan. “O‘TFL”da “nojo‘ya xatti-harakatlari bilan izzat-obro‘sini yo‘qotgan, el-yurt dashnomiga uchragan” deb izohlangan [11]. “Yuzi qora bo‘lmoq” harakatga nisbatan qo‘llaniladigan ibora hisoblanadi. “Men sabab bo‘ldim, xonim aya! Hazratimni men nechun uyg‘otdim?!

Uyg‘otmasam o‘sha joyga kechroq borar edilar-ku! Men yuzi qora sabab bo‘ldim bu o‘limga” [9]. Ushbu misolda keltirilgan ibora o‘zini aybdor hisoblab, shu ayb tufayli yuzi qora bo‘lgan obraz tilidan qo‘llanilgan. Qilgan ishi xato bo‘lgani tufayli o‘z shaxsiga nisbatan “yuzi qora” frazemasidan foydalangan obraz endi noiloj holatda ekanligi, vaqtni ortga qaytara olmasligidan pushaymonda ekanligi tasvirlangan.

“Qon qora qaqshamoq” “O‘TIL”da berilmagan. “O‘TFL”da esa “behad iztirob chekmoq” ma’nosida izohlangan. Varianti sifatida “qon qaqshamoq”, “qaqshab qolmoq” iboralari keltirilgan [11]. “Axir musulmon komil bir mo‘tabar kishini qon qora qaqshatib, mol-mulkini tortib olayotgan bir zo‘ravonning avvalgi Qo‘chqorga nimasi o‘xshar edi!” [7]. Keltirilgan misolda o‘zga shaxsdan aziyat chekkan, yomonlik ko‘rgan, “qaqshab qolgan” bir musulmon obrazini gavdalantirish uchun “qon qora qaqshamoq” iborasidan foydalanilgan.

“Og‘ziga oq it kirib, qora it chiqmoq” “O‘TIL”da berilmagan. “O‘TFL”da “har xil haqorat so‘zlarni aytmoq” deb izohlangan [11]. “Ismathoji boshida Xayri opani, keyin o‘sha yerdagilarni qattiq urishdi. Hammasining kapalagi uchib, bo‘zrayib qoldilar. “Yo‘qollaring, hammangning basharang qursin!” - deb og‘ziga oq it kirib, qora it chiqdi” [8]. Keltirilgan misolda ham “Yamoqchi ko‘chdi” asari qahramoni Ismathojining ruhiy-psixologik holati, jumladan, o‘ta jahldor va g‘azabdan o‘zini bosa olmay, og‘ziga kelgan neki so‘z bo‘lsa, o‘ylamay-netmay aytib yuborish jarayoni tasvirlangan. Ayni paytda obraz vulgar so‘zlar, ya’ni so‘kish va qarg‘ishga oid leksemalarni qo‘llagani jumla mazmuni orqali ham anglashilib turibdi.

“Oq yuziga qora surmoq” “O‘TIL”da berilmagan. “O‘TFL”da “nohaq ravishda badnom qilishga urinmoq” tarzida izohlangan [11]. “Sobirov tunov kuni kechasi Boymat bilan kayf qilishganda Nasimjonning O‘ktam to‘g‘risidagi bo‘htonini aytib berdi va oxirida jahl bilan dedi: “Bo‘sh kelma, oq yuzingga qora suryapti u. Dumini munday burab qo‘y, ortiq akillamasin!” [7]. “Oq yuziga qora surmoq” iborasi tuhmat, ig‘vo va nayrang bilan boshqaga ayb to‘nkash, aybsiz insonni ham aybdor qilib ko‘rsatish ma’nolarini ifodalaydi. Frazemadagi “oq yuz” qismi sinekdoxa asosida ma’no ko‘chishini yuzaga keltirgan bo‘lib, qism orqali butunni, ya’ni yuz tana a’zosi orqali to‘liq tanani, shaxsni va uning xarakter-xususiyatini ifodalagan.

Umuman olganda, “qora” komponentli frazeologizmlar nafaqat salbiy, balki ijobiy ma’nolarda ham qo‘llaniladi. Ta’kidlash joizki, iboralar tarkibidagi har bir so‘z ma’nosi alohida izohlanmay, balki barcha a’zolar yaxlit holda tahlil etiladi. Shu sababli tarkibida “qora” leksemasi bo‘lsa-da, ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan iboralar ham talaygina. Milliy madaniyat mahsuli bo‘lgan bunday birliklar til egalari tomonidan, ayniqsa, so‘z ustalari hisoblangan shoir va yozuvchilar tomonidan sermahsul holda qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdulla Qahhor. Chinor. – Toshkent, 1987.
2.Anorboyev S. Oqsoy. – Toshkent, 1961.
3.Fayziy R. Cho‘lga bahor keldi. – Toshkent, 2013.
4.Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
5.Kuntug‘mish. – Toshkent, 2014.
6.Oybek. Navoiy. – Toshkent, 2004.
7.Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. – Toshkent, 1976.
8.Oydin. Yamoqchi ko‘chdi. – Toshkent, 1931.
9.Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 2015.
10.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologizmlar lug‘ati. – Toshkent, 2022.
11.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2023.
12.@ziyo.uz.com kutubxonasi. Abdulla Oripov. Saylanma.

Durdona MUTALIPOVA,
Andijon davlat universiteti
lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

DO‘ST SEMALARINING TARIXIY VARIANTLARI (MA’NO KENGAYISHI VA TORAYISH HODISALARI), BUGUNGI KUNDA “DO‘ST” KONSEPTI

Annotatsiya: ushbu maqolada “do‘st” konseptining tarixiy variantlari, ularning ma’no torayish va kengayish hodisalari, bugungi kundagi “do‘st” konsepti tavsifga tortilgan.

Kalit so‘zlar va iboralar: *do‘st, do‘sti sodiq, do‘stingdan top, mol do‘sti, do‘st tortmoq, do‘sti-yor, virtual do‘stlik.*

Аннотация: в данной статье описываются исторические варианты концепта «друг», явления сужения и расширения их значений, а также понимание концепта «друг»

Ключевые слова: *друг, верный друг, пусть тебя предаст твой верный друг, друг по интересам (материальный друг) , друг-соратник, виртуальная дружба.*

Annotation: this article describes the historical variants of the concept of “friend”, the phenomena of their narrowing and expanding meaning, and the concept of “friend” today.

Key words: *friend, loyal friend, find a friend, a friend of goods, attract a friend, friend-friend, virtual friendship*

Dunyo yaralibdiki, inson zoti rivojlanishda. Insonlar hayot tarzlarini o‘zgartirishni xohlar, har zamon yangilikka intilib yashar ekanlar til va til hodisalari ham jarayonda bo‘laveradi. Vaqt ta’sirida bir til egalari bir-birlarini to‘liq anglay olmas ekanlar. Uzoq o‘tmish emas o‘tgan asr misolida buni ko‘rib chiqsak. Do‘st so‘zining izohli lug‘atda berilgan ma’nolarining ayrimlari bugungi kun uchun begona.

1. Do‘st – shafqatli o‘rtoq, yor, oshno mahbub(a) ***Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o‘rtoq.*** Zid. Dushman. Qadrdon-do‘st. Chin dost, Qiyomatli do‘st. Vafodor do‘st.

2. Yaqin, tanish, oshno.

3.Do‘stingdan top. Do‘sti, yaqin kishisi biror yomonlik qilganda aytiladigan ibora.

4. Do‘sti sodiq. Vafodor, sadoqatli do‘st.

5. Mol do‘sti oldi-berdi munosabatlarida orttirilgan do‘st, biror narsada ilinji bo‘lgan yuzaki do‘st.

6. Murojaat qilish shakli. Xo‘sh, taqsir, nega xomushsiz? E aziz do‘stim salgina qiynalibroq qoldim. N. Safarov. Hayot maktabi.

7. Diniy tasavvufda: Alloho, ey Xudo. Har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: “Hey do‘st, shaydullo, banomi Ollo, sadaqa raddi balo, bakavli rasuli Xudo”. A. Qahhor, Bemor

8. Do‘st tortmoq 1. “do‘st” deb Xudoga yolvormoq. 2. Ko‘chma, qichqirmoq, sayramoq.

9. Do‘st – ***(O‘ cho‘ziq, undalma sifatida). Tasanno, ofarin ma’nolarini bildiradi.***

10. Do‘st-yor. Do‘stlar va yorlar, hamdamlar.

Bular do‘st so‘zining 1982-yildagi izohli lug‘atda berilgan variantlari. Bularning ayrimlari bugungi kun uchun butunlay notanish. Masalan: Do‘stingdan top — bu qarg‘ish sifatida ishlatilgan ibora bugungi kunda kam ishlatiladigan iboralardan. Do‘st insonlar uchun yo‘lchi yulduzday yo‘lini yoritib senga madad beruvchi hamroh. Undan hamisha yaxshilik kutadi odam. Dushmanlardan kelgan yomonlik odamni hayron qoldirmaydi, azoblari ham o‘tkinchi bo‘ladi, odamlar oson qabul qiladilar. Ammo do‘stidan kelgan ozgina xato insonni umr bo‘yi azoblaydi, o‘yga toldiradi. Har safar yangilanadigan yara kabi insonga yo‘ldoshlik qiladi. Shuning uchun ham bu ibora qattiq qarg‘ish ma’nosida ishlatilgan.

Masalan:

Ishonib siringni aytguvchi faqat,
Do‘stlar borligidan boshi osmon bo‘l!
Do‘stingdan top, degan so‘zga yo‘q toqat,
Do‘st top deb, do‘st top deb, deb yurgan inson bo‘l! (Muhammad Ali, Do‘stlar davrasi)

Niqobingizni yeching bas asl yuzingiz oshkor
Asl yuzingiz oshkor, do‘stingdan top deganlarin bugun anglab yetyapman.
Siz kovlagan chohdan yo Rab, bir-bir hatlab o‘tyapman. (Bekzod Eshonov qo‘shig‘i)

Do‘st tortdi bugungi kun uchun notanish iboralardan biri. Ham “oh tortdi” ham “uh tortdi” sifatida ishlatilgan. Insonlar bir narsadan rosa xursand bo‘lganlarida, hayajonlanganlarida yuragiday hissiyotni chuqur “oh” bilan ifodalaydilar. Eskidan bunday paytlarda “yo do‘st” so‘zidan foydalanilgan. Do‘st tasavvufda Allohni ifodalagan. Aslida ham har bir inson uchun haqiqiy do‘st bu Alloh. Bandalariga har holatda rizq beruvchi, har qancha xatosi bo‘lmasin ularni afv qilishga tayyor yagona zot bu Alloh. Shuning uchun ham insonlar xursand bo‘lganlarida “Do‘st tortgan” shukr ma’nosida tushunilgan. Yana bir xafagarchilikda, asabiylashganda ishlatilgan “do‘st tortdi” bu tavba ma’nosida ishlatilgan. Insonlarga o‘zlari tushgan holatdan Allohga tavba qilibgina chiqib keta olishlarini anglaganlari holda “Astag‘firulloh” deganday “do‘st tortgan”lar. Misol uchun”: U odatining aksicha do‘st tortti-da, yuqoriga qaradi. S. Anarboyev, Oq-soy; 2. Ko‘chma, qichqirmoq, sayramoq. “Rohat”ni eshitib Tantiboyvachcha “ezib yubordingiz jonidan deb qichqirdi va bangilar kabi bir “do‘st!” tortdi” Oybek. Tanlangan asarlar.

So‘zlashuv uslubi o‘tgan asrlarda bugungiga nisbatan ancha boy va mazmundor bo‘lgan. Hozir an’anviy, milliy so‘zlashuv uslubimiz globallashuv ta’sirida ommaviy madaniyatsizlikka uchradi. Misol uchun: hol-ahvol so‘rash ham noodatiy va samimiyatdan yiroq “Nima gap” so‘zi bilan almashdi. Bunga javoban yana ham ziqnalarcha “zo‘r” ma’nosidagi “OK” dan foydalanyapmiz. Imkon bo‘lsa hech kim bilan salomlashishni istamaydigan yoshlar shu so‘zlarni ham ayaydilar bir-biridan. Ammo urush-janjal, so‘kish so‘zlari rus, ingliz tillari hisobiga ancha boyidi. Avvalgiday “oh” yoki “uh” tortishlar ham yo‘q, o‘rnida ishlatiladigan qorishiq so‘kish so‘zlarining ma’nosini aksariyat odamlar bilmaydilar ham. Murojaatda notanish odamlarga nisbatan ham do‘st, birodar, og‘ayni kabi samimiy, insonlarni birlashtiriladigan so‘zlardan foydalanilgan. Bundan tashqari ofarin, tasanno ma’nolarida ham do‘st so‘zidan foydalanilgan. Misol uchun:

Do‘st kam bo‘lmang! Bog‘larni qoplaydi zavq-u, shavq,
Qarsak, keksalar og‘zida: “Do‘st!”, “Barakalla!”.

Uyg‘un, Tong qo‘shig‘i

Do‘st yorlar ahil bo‘lsa cho‘lda oltin undirar. “Mushtum”. Do‘st-yorlar yig‘ilib, chog‘ir ichib, musiqa va raqslar bilan tong ottiradilar. Oybek, Navoiy.

Insonlarni tanigan-tanimaganlarga nisbatan “do‘st”, deya murojaat qilishlari bir millat, bir oila ekanligiga ishoradir. Shu birgina “Do‘st” konsepti orqali millatimizning dunyoqrashi, fikrlashi, samimiyati-yu, odamgarchiligi haqida fikr bildirish mumkin ekan. Ota-onasining vafotidan so‘ng ularning do‘stini ziyorat qilish faqat o‘zbeklarga xos odatlardan biridir. Turkiy xalqlarning bag‘rikengligi barcha bilan do‘stona munosabatda bo‘la olishi hech kimga sir emas. Ammo bugungi raqamlashtirilgan zamonda “do‘st” ham “do‘stlik” virtual holga keldi. Hozir insonlar o‘zlari shaxsan tanish bo‘lmagan minglab odamlar bilan “do‘st”. Do‘stlik avvallari bebaho, noyob qadriyat edi, hozirgi elektronlashtirilgan dunyomizda bu qadriyat bahosi aniq raqamlar bilan ko‘rsatiladi. Qanchalik ko‘p hikoyalaringizga “yoqtiraman” belgisini qoldirsa shunchalik sizning yaqin do‘stingiz bo‘ladi. Birdaniga yuzlab minglab, hatto millionlab odamlar bilan virtual hayotda do‘stlashaman deb haqiqiy hayotda birorta odam bilan sodiq do‘st bo‘la olmayapti yoshlar. Buni ta’sirida yoshlar orasida o‘zini juda yolg‘iz va keraksiz his qilishlar, arzimagan muammolarni deb o‘z joniga qasd qilishlar, hayotini ekran qarshisida o‘tkazib yuborishlar ko‘paymoqda. Odam taftini odam oladi, deganda qanchalik haq ekan eskilar. Yuzma-yuz so‘zlashish, yonma-yon muammolarga yechim topish, birgalikda bir ishni hal qilish insonga ancha yengillik va ishonch beradi. Ko‘ngilga xotirjamlik soladi yolg‘iz emasman deya tasalli oladi. Shu bois ham haqiqiy do‘stlik bilan virtual do‘stlik bir-biriga taqqoslab bo‘lmaydigan tushunchalardandir. So‘zning o‘zi bilan ma’nolarini ham o‘zida mujassam etgan qadriyatlarini ham eskirtirib yuboryapmiz. Milliyligimizni va o‘zligimizni unutyapmiz. Zero, Hazrat Umar ibn Hattob (r.a.) aytganlaridek: “O‘zingga sodiq do‘stlar tanla, ular panohida yashaysan. Chunki ular farovon kunlaringda ziynat, qiyinchilikda qolganingda qalqondir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Moskva: “Rus tili” nashriyoti, 1981.
2. Muhammad Ali, Do‘stlar davrasi
3. S. Anarboyev, Oq-soy (1961-yil)
4. Oybek. Tanlangan asarlar. (1936-1968-yil)
5. Uyg‘un, Tong qo‘shig‘i (1931-yil)
6. Oybek, Navoiy. (1942-yil)

Hadicha NEMATILLAYEVA,
O‘zJOKU magistranti
hadichaergashava.12@gmail.com



ONLAYN NASHRLARDA MATN USLUBINING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada onlayn nashrlarda jurnalistik matn uslubining transformatsiyasi lingvistik va funksional-stilistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli media sharoitida tezkorlik, interaktivlik va multimediaviylik ta’sirida kompozitsion zichlashuv, sintaktik soddalashuv hamda pragmatik kuchayish matnning asosiy transformatsion belgilariga aylangani ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *onlayn nashr, matn uslubi, transformatsiya, raqamli diskurs, lingvopragmatika, interaktivlik.*

Аннотация: в статье рассматривается трансформация стиля журналистского текста в онлайн-изданиях с лингвистической и функционально-стилистической точек зрения. Обосновывается, что в условиях цифровой медиасреды оперативность, интерактивность и мультимедийность приводят к композиционному сжатию, синтаксической упрощенности и усилению прагматической направленности текста.

Ключевые слова: *онлайн-издание, стиль текста, трансформация, цифровой дискурс, лингвопрагматика, интерактивность.*

Annotation: this article explores the transformation of journalistic text style in online media from linguistic and functional-stylistic perspectives. It argues that within digital media environments, immediacy, interactivity, and multimedia integration result in compositional compression, syntactic simplification, and increased pragmatic intensity of texts.

Key words: *online media, text style, transformation, digital discourse, linguopragmatics, interactivity.*

Kirish. Raqamli media muhitining shakllanishi jurnalistik matnning nafaqat tarqatilish mexanizmini, balki uning lingvistik va stilistik tabiatini ham tubdan o‘zgartirdi. Onlayn nashrlarda axborot real vaqt rejimida yangilanadi, auditoriya e’tibori uchun raqobat kuchli va iste’mol jarayoni fragmentar xarakterga ega. Mazkur sharoit matnning kompozitsion qurilishi, sintaktik tuzilishi va pragmatik yo‘naltirilganligida transformatsion o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

An’anaviy bosma OAV da matn mantiqiy izchillik va nisbatan betaraf bayon tamoyiliga tayangan bo‘lsa, onlayn diskursda qisqa gaplar, ekspressiv sarlavhalar, savol va murojaat shakllari, baholovchi leksika ustuvorlik kasb etmoqda. Tezkorlik va interaktivlik matnni biryoqlama xabardan ko‘ra dialogik, auditoriyaga yo‘naltirilgan kommunikativ birlikka aylantiradi. Multimediaviylik esa matnni vizual va audio komponentlar bilan integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantiradi, biroq interpretatsion markaz ko‘pincha lingvistik vositalar orqali belgilanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — onlayn nashrlarda jurnalistik matn uslubining transformatsiya xususiyatlarini lingvistik va funksional-stilistik jihatdan aniqlash hamda raqamli diskurs sharoitida yuzaga kelayotgan yangi uslubiy modelni ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot natijasida onlayn matn uslubi klassik publitsistik modelning soddalashtirilgan ko‘rinishi emas, balki zamonaviy kommunikativ muhit talablariga mos ravishda qayta shakllangan strategik uslubiy tizim ekani asoslanadi.

Asosiy qism. Media lingvistika nuqtayi nazaridan jurnalistik matn publitsistik uslub doirasida shakllanadigan, ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni yetkazishga xizmat qiluvchi kommunikativ birlik hisoblanadi. An’anaviy nazariyada publitsistik uslubning asosiy belgilariga aniqlik, mantiqiy izchillik, ijtimoiylik va ta’sirchanlik kiritiladi. Biroq raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu belgilar transformatsiyaga uchramoqda.

Diskurs nazariyasida matn faqat lingvistik struktura emas, balki ijtimoiy-kognitiv jarayon sifatida talqin etiladi. T. van Dijkning ta’kidlashicha, yangilik matni semantik makrostrukturaga ega bo‘lib, uning asosiy mazmuni sarlavha va kirish qismida jamlanadi. Raqamli muhitda esa bu makrostrukturaviy zichlashuv yanada kuchayadi. Internet platformasi matnni tezkor idrok, skanerlash usulida o‘qish va fragmentar qabul qilish sharoitiga moslashtiradi.

Shuningdek, M. McLuhan ilgari surgan “vosita xabarning o‘zidir” tamoyiliga ko‘ra, kommunikatsiya vositasi mazmun shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Onlayn jurnalistikada platformaning o‘zi — mobil interfeys, giperhavola tizimi, interaktivlik — matnning kompozitsion va sintaktik qurilishini belgilovchi omilga aylanadi.

Raqamli jurnalistika sharoitida matn tuzilishi, avvalo, kompozitsion darajada o‘zgaradi. An’anaviy bosma matbuotda maqola odatda, keng kirish bilan boshlanib, voqeaning sabablari, tarixiy konteksti va qo‘shimcha fon ma’lumotlari izchil tarzda bayon etilar edi. Onlayn

nashrlarda esa vaqt omili, tezkorlik talabi va auditoriya e’tiborining qisqaligi sababli axborot maksimal darajada siqilgan shaklda taqdim etiladi. Asosiy fakt sarlavha va dastlabki ikki abzasda jamlanadi, tafsilotlar esa keyingi qismga suriladi yoki havolalar orqali beriladi.

Kun.uz materiallari tahlili bu tendensiyani aniq tasdiqlaydi. Masalan, “Elektr energiyasi tariflari o‘zgarishi mumkin — vazirlik izoh berdi” sarlavhasida bir vaqtning o‘zida muammo (tariflar), ehtimollik (mumkin modalligi) va rasmiy manba (vazirlik) ifodalangan. Keyingi jumlada — “Energetika vazirligi elektr energiyasi tariflari bo‘yicha jamoatchilik orasida tarqalgan xabarlarga munosabat bildirdi” — voqeaning mazmuni aniqlashtiriladi. Tarixiy fon yoki keng sharh berilmaydi; agar qo‘shimcha kontekst zarur bo‘lsa, “Avvalroq bu haqda xabar bergan edik” kabi havolali birliklar qo‘llanadi. Bu holat N. Qosimova ta’riflagan gipertekstual modelning amaliy ko‘rinishidir — matn yopiq va yakunlangan shaklda emas, balki boshqa materiallar bilan bog‘langan ochiq tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Sintaktik darajada ham sezilarli o‘zgarish kuzatiladi. F.A. Mo‘minov jurnalistika tilining asosiy xususiyati aniqlik va soddalik ekanini ta’kidlaydi. Raqamli muhitda bu talab yanada kuchayadi. Kun.uz materiallarida murakkab qo‘shma gaplardan ko‘ra segmentatsiyalangan sodda konstruksiyalar ustunlik qiladi. Masalan: “Hodisa kecha soat 18:30 atrofida yuz bergan. Jabrlanganlar bor. Holat yuzasidan tergov harakatlari olib borilmoqda.” Mazmunan bog‘liq bo‘lgan ushbu gaplar grammatik jihatdan mustaqil shaklda berilgan. Bu segmentatsiya axborotni bloklarga ajratadi, vizual o‘qishni yengillashtiradi va mobil formatga moslashuvni ta’minlaydi. Marshall McLuhan ilgari surgan “vosita xabarning o‘zidir” tamoyili aynan shu jarayonda o‘z ifodasini topadi — platformaning o‘zi matn shakliga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Onlayn diskursda sarlavha kommunikativ markaz vazifasini bajaradi. T. van Dijk yangilik matnining makrostrukturasi sarlavha orqali belgilanadi, deb ta’kidlaydi. Raqamli muhitda esa bu yanada kuchayadi. “Yangi qaror kimlarga ta’sir qiladi?” kabi savol shaklidagi sarlavha o‘quvchini javob izlashga undaydi va konativ funksiyani bajaradi. “Narxlar oshmoqda, daromadlar esa o‘zgarmayapti” konstruksiyasi esa semantik kontrast orqali diqqatni jalb etadi. “Navbatdagi o‘zgarish: yana yangi tartib” misolida “yana” so‘zi implikativ ma’no hosil qilib, yashirin baholovchi fon yaratadi. D. Teshabayeva konvergent jurnalistikada sarlavhaning ta’sirchanligi auditoriya e’tiborini boshqarish mexanizmi ekanini ta’kidlaydi; Kun.uz amaliyoti bu nazariy fikrni tasdiqlaydi.

Ekspressiv va baholovchi leksikaning kuchayishi ham raqamli diskursning muhim belgilaridan biridir. “Keskin pasayish kuzatildi”, “Kutilmagan qaror e’lon qilindi”, “Dolzarb masala yana kun tartibida” kabi birliklarda sifatlar faktni neytral tarzda qayd etmaydi, balki uni ma’lum interpretativ doirada taqdim etadi. H. Grice implikatura nazariyasida yashirin ma’no qatlamini ta’kidlaganidek, bunday birliklar o‘quvchini muayyan talqin yo‘nalishiga olib kiradi. Raqamli muhitda auditoriya e’tiborini tez jalb qilish zarurati sababli ekspressivlik darajasi bosma matbuotga nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘ladi.

Dialogiklik va interaktivlik esa onlayn jurnalistik matnning ajralmas xususiyatiga aylangan. Roman Jakobson tasniflagan konativ va fatik funksiyalar bu yerda faol ishlaydi. “Siz bu haqda nima deb o‘ylaysiz?” yoki “Fikringizni izohlarda qoldiring” kabi murojaatlar o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. “Avvalroq bu haqda xabar bergan edik” kabi jumlalar esa materialni avvalgi xabarlar bilan bog‘lab, gipertekstual izchillikni ta’minlaydi. Natijada matn chiziqli rivojlanishdan voz kechib, tarmoqli va ko‘p yo‘nalishli tuzilishga ega bo‘ladi. O‘rganilgan materiallarda sarlavhalarda modallik va baholovchi birliklarning ustuvorligi, segmentatsiyalangan sodda gaplarning keng qo‘llanishi hamda giperhavolali kontekstning mavjudligi kuzatildi. Bu holat onlayn jurnalistikada uslubiy transformatsiya tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, onlayn nashrlarda jurnalistik matn uslubi an’anaviy publitsistik modeldan farqli ravishda kompozitsion zichlashuv, sintaktik soddalashuv, sarlavhaning pragmatik markazga aylanishi hamda dialogik va gipertekstual elementlarning kuchayishi orqali transformatsiyalanmoqda. Kun.uz materiallari misolida matn chiziqli axborot shaklidan auditoriya markazli, interaktiv va intensiv kommunikativ tizimga o‘tgani aniqlandi. Demak, raqamli jurnalistikada matn uslubi soddalashtirilgan emas, balki yangi media sharoitga mos ravishda qayta strukturalangan strategik diskurs sifatida shakllanmoqda; shu bois uni baholashda lingvopragmatik va funksional-stilistik yondashuvni kompleks qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mo‘minov F.A. Jahon jurnalistikasi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
2.Qosimova N.S. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. – Toshkent, 2012.
3.Teshabayeva D. Multimedia jurnalistikasi va konvergent tahririyat. – Toshkent, 2013.
4.Van Dijk T.A. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.
5.McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.
6.Grice H.P. Logic and Conversation. – In: Syntax and Semantics. – New York: Academic Press, 1975.
7.Jakobson R. Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.

Gulbahor NAZAROVA,
Buxoro davlat universiteti, DSc,
Gulnora SHAMSIDDINOVA,
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

LEKSIK TRANSFORMATSIYALAR VA ULARNING TARJIMADA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarjima jarayonida qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalar, ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Transformatsiyalarning konkretlashtirish, umumlashtirish, anatomik tarjima, kompensatsiya, qo‘shib va tushirib qoldirish, sababni natija bilan almashtirish kabi turlari tahlil qilingan.Tarjima jarayonida har bir usulning bajaradigan vazifasi, ularning lingvistik, pragmatik va semantik ahamiyati izohlangan. Maqolada o‘zbek va ingliz tilidagi shakl va mazmundagi farqlarni hisobga olib, transformatsiyalarning tarjimada amaliy qo‘llanilishiga e’tibor qaratilgan. Transformatsiyalarning har bir turi qachon va nima maqsadda qo‘llanilishi,tarjima jarayonidagi natijalari misollar bilan izohlangan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi grammatik shakl va ma’no farqlari misolida transformatsiyalarning tarjima jarayonidagi mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *leksik transformatsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, sababni natija bilan almashtirish, kompensatsiya, qo‘shish, tushirib qoldirish*

Аннотация: в этой статье рассматриваются лексические преобразования, используемые в процессе перевода, их виды и особенности. Были проанализированы такие типы преобразований, как конкретизация, обобщение, анатомический перевод, компенсация, сложение и вычитание, замена причины следствием.В процессе перевода объясняется функция, которую выполняет каждый из методов, их лингвистическое, прагматическое и семантическое значение.В статье основное внимание уделяется практическому применению преобразований в переводе, учитывая различия в форме и содержании в узбекском и английском языках.Когда и с какой целью применяется каждый вид преобразований, их результаты в процессе перевода объясняются примерами.На примере различий грамматических форм и значений в английском и узбекском языках освещена сущность преобразований в процессе перевода.

Ключевые слова: *лексическая трансформация, конкретизация, обобщение, антонимический перевод, замена причины результатом, компенсация, дополнение, отбрасывание*

Annotation: this article covers the lexical transformations used in the translation process, their types and specific features. Types of transformations have been analyzed, such as concretization, generalization, anatomical translation, compensation, addition and dropping, replacement of the cause by the result. The task that each method performs in the translation process, their linguistic, pragmatic and semantic significance is explained. The article focuses on the practical application of transformations in translation, taking into account differences in form and content in Uzbek and English. When and for what purpose each type of transformation is applied, its results in the translation process are explained by examples. On the example of grammatical form and meaning differences in English and Uzbek, the essence of transformations in the translation process is covered.

Keywords: *lexical transformation, concretization, generalization, antonymic translation, replacement of cause by result, compensation, addition, dropping*

Kirish. Transformatsiya – tilshunoslikda bu ma’lum bir til birliklarini (so‘z, ibora, gap) boshqa bir tilga yoki o‘sha tilning o‘zida boshqa shaklga o‘tkazish jarayonida ularning grammatik tuzilishi, leksik tarkibi yoki semantik mazmunini o‘zgartirish, almashtirish usullaridan biridir. Transformatsiyalar til tizimlari o‘rtasidagi tuzilma, ma’no va uslub farqlarini moslashtirish, qolaversa, matnni o‘quvchi uchun tushunarli va tabiiy qilish maqsadida qo‘llanadi. Transformatsiyalarning asosiy turlaridan biri leksik transformatsiyalar hisoblanib, tarjima jarayonida keng qo‘llaniladi. Zamonaviy dunyoda xalqlar o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy aloqalar yanada kengaymoqda.

Bu o‘z navbatida, tarjima faoliyati rivojini talab qiladi, chunki tarjima jarayonining asosiy vazifasi bir tilda yaratilgan ma’lumotni boshqa tilga aniq yetkazishdir. Tarjimada ma’noni so‘zma-so‘z yetkazish kifoya qilmaydi, aksincha, matn mazmunini madaniy tafovutlar, stilistik bo‘yoqlar va pragmatik xususiyatlari bilan ifodalash talab etiladi. Matn mazmunini tabiiy va tushunarli tilda yetkazishda leksik transformatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.Nidaga ko‘ra, tarjimaning asosiy maqsadi - manba matn ma’nosini saqlagan holda, maqsad til o‘quvchisiga tabiiy va tushunarli shaklda yetkazishdir, shu sababli tarjimada turli leksik va grammatik transformatsiyalar

qo‘llanadi. E. Nida tarjimaning asosiy vazifasi mazmunni saqlagan holda uni tabiiy shaklda yetkazish ekanligini ta’kidlaydi [12]. Shuningdek, V. N. Komissarov tarjimada transformatsiyalarni matn tabiiyligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida baholaydi [10].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida grammatik, semantik va stilistik, pragmatik jihatdan katta farqlar mavjud. Bu farqlarni bartaraf etish va mazmunni aniq yetkazish uchun tarjimon turli leksik transformatsiya usullaridan foydalanadi. Konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, sababni natija bilan almashtirish, kompensatsiya, qo‘shish va tushirib qoldirish kabi usullar shu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi leksik transformatsiya turlarini tizimli ravishda o‘rganish, ularning tarjima jarayonidagi funksiyalarini aniqlash, ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanilish xususiyatlarini misollar asosida tahlil qilishdir. Shuningdek, leksik transformatsiya tushunchasini va uning tarjima nazariyasidagi ahamiyatini yoritish, hamda har bir transformatsiya turining o‘ziga xos jihatlarini misollar bilan tushuntirish.

Avvalgi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjima nazariyasi bo‘yicha L.S. Barxudarov, N.K. Garbovskiy, V.N.Komissarov kabi olimlar leksik transformatsiyalarning nazariy asoslarini ishlab chiqqandir. O‘zbek tilshunosligida ham tarjima jarayonida so‘z va iboralarning moslashtirilishi, ma’no kengayishi yoki qisqarishi masalalari o‘rganilgan bo‘lsa-da, ingliz–o‘zbek til juftligi misolida leksik transformatsiyalarni tizimli tahlil qilish dolzarbligicha qolmoqda.[57] Shuning uchun ushbu maqola mazkur yo‘nalishda amaliy va nazariy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Asosiy qism. Leksik transformatsiya – bu tarjima jarayonida so‘z yoki iboraning ma’nosini, hajmini yoki ifoda shaklini o‘zgartirish orqali uni boshqa tilga o‘girish jarayonidir. Umuman olganda, leksik transformatsiya tilga xos leksik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaganda, so‘zlarning mazmunini aniq, to‘g‘ri va tabiiy usulda yetkazib berish uchun qo‘llanadi. Komissarov tarjimada transformatsiyalarni leksik, grammatik va leksik-grammatik o‘zgarishlar sifatida tasniflaydi va ularni tarjimaning tabiiyligini ta’minlaydigan asosiy vosita deb hisoblaydi. [15: 200] Bu jarayonda so‘zning umumiy yoki aniq ma’nosi o‘zgartirilishi, boshqa muqobil so‘z bilan almashtirilishi, kengaytirilishi, qisqartirilishi yoki tushirib qoldirilishi mumkin. Quyida leksik transformatsiyaning asosiy turlari keltiriladi.

Leksik transformatsiyalar turlari	Nazariyasi	Misollar
konkretlashtirish	keng ma’noli so‘zni tarjimada aniqroq, tor-roq ma’noli so‘z bilan almashtirilishidir	get → ushlab olmoq
umumlashtirish	Tor ma’noli birlikni umumiy tushuncha bilan berish	apples → mevalar
anatomik tarjima	Mazmunni inkor yoki zid shaklda berish	take it easy → tashvishlanma
modulatsiya	Sabab va natijani almashtirish	He missed class → kechikdi
kompensatsiya	Muqobili yo‘q bo‘lsa, boshqa vosita bilan berish	aka → sir
Tushirib qoldirish	so‘z birikmalari kontekstdan kelib chiqqan holda tushirib qoldiriladi, lekin ma’no qoladi.	I am fine → yaxshiman.

Konkretlashtirish. Leksik transformatsiyaning bu turi asl matndagi keng ma’noli so‘zni tarjimada aniqroq, torroq ma’noli so‘z bilan almashtirilishidir.U ko‘pincha lingvistik, madaniy va ijtimoiy kontekstda yuzaga keladi va so‘zlarning ma’nolarini yanada aniqroq va o‘ziga xos qilib ko‘rsatishga yordam beradi. N.K. Garbovskiyning fikriga ko‘ra, konkretlashtirish “tarjimon umumlashtirish zanjiri bo‘yicha tarjima so‘zi yoki iborasida mavjud bo‘lgan keng qamrovli va unchalik murakkab bo‘lmagan konsepsiyani yanada cheklangan, ammo aniqroq tarkibdagi murakkabroq tushuncha bilan almashtiradigan transformatsion operatsiyadir.”[1: 200]

Konkretlashtirish keng ma’noli yoki ma’nosini aniqlash qiyin bo‘lgan so‘zlarni tarjima qilishda qo‘llaniladi. Bu aksariyat hollarda ingliz tilidagi fe’llarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida qo`llaniladi. Ingliz tilidagi fe’llar asosan, umumiy va noaniq ma’noda ishlatiladi. Bu tarjima jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi fe’llar aniq va konkret ish-harakatni ifodalaydi.

Gap faqat ko‘p ma’noli fe’lning umumiy emas, balki aniq ma’nosini tarjimada berish haqida ham borishi

mumkin. Masalan, *“get”* fe’li, uning quyidagi xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu fe’lning asosiy ma’nosi o‘zbek tilidagi “olmoq” fe’liga to‘g‘ri keladi. Ammo bu fe’lning juda ko‘p ma’nolari bor, bu so‘z o‘zidan keyin kelgan so‘zga qarab, ma’nolari turlicha ifodalanadi. Fe’l ma’nosining kengligi uning qaysi so‘z bilan kelishiga bevosita bog‘liq.

Yordamchi fe’l sifatida bu ingliz tilida eng ko‘p qo‘llanilgani va keng ma’noli bo‘lgani uchun tarjima jarayonida turli transformatsiyalarga uchraydi. *“I got a letter from Dave yesterday.” va “Your cat got a bird this morning”* gaplarining tarjimasini taqqoslasak, yuqorida aytilgan fikrlar o‘z tasdig‘ini topadi. Shunday qilib, birinchi gap *“Men kecha Davedan xat oldim”* va ikkinchi gap *“Sening mushuging bugun ertalab qush ushlab oldi”* deb tarjima qilinadi. Bu fe’l bilan ot, sifat, ravish va boshqa so‘z turkumi qo‘llanishi mumkin va har doim fe’lning ma’nosi shunga qarab o‘zgarib boraveradi. Tarjimada fe’llarning bu xususiyatlarini hisobga olish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlaydi. [2: 110]

Umumlashtirish (generallashtirish) – bu tarjima jarayonida bir nechta aniq leksik birliklarning o‘rniga ularni umumiy yoki kengroq ma’noli so‘zlar bilan ifodalashdir. Ya’ni, tarjimada kontekstdagi aniq va tor ma’noli so‘zlar o‘rniga, ularning umumiy, kengroq tushuniladigan ma’nodoshlari yoki umumiy kategoriya nomlari ishlatiladi.V. N. Komissarovning fikricha, umumlashtirish transformatsiyasi manba tilidagi aniq ma’noli so‘zning tarjima tilida kengroq yoki umumiyroq ma’noga ega birlik bilan berilishidir. Bu transformatsiya ko‘pincha tillar o‘rtasidagi leksik tafovutlarni bartaraf etish uchun qo‘llaniladi. [20] Masalan, *He bought some apples, bananas, and oranges.* Tarjimada umumlashtirish: *“U mevalar sotib oldi”*. Bu yerda *“apples, bananas, oranges”* so‘zi o‘rniga uning umumiy *“mevalar”* so‘zi ishlatilgan. Umumlashtirish qisqartirishning teskarisi bo‘lib, matndagi tor ma’noli so‘zni tarjima tilidagi umumlashtiruvchi so‘z bilan almashtirishni nazarda tutadi.

Antonimik tarjima – bu tarjimada mazmunni saqlab, ijobiy shaklini inkor shaklga yoki inkor shaklni ijobiy shaklga o‘zgartirish orqali amalga oshiriladigan leksik transformatsiyaning bir turidir. Bunda tarjimon asl tildagi leksik birlik (so‘z, ibora va hkz)ni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilmaydi, balki uning zid ma’noli ma’nodoshini tanlab, mazmunni saqlagan holda tarjima qiladi. Bunda tarjima jarayonini so‘zma-so‘z amalga oshirib bo‘lmaydi, balki matn, mantiq va uslubga mos ravishda o‘zgartiriladi. Mazmun saqlanib qolib, grammatik shakl yoki leksik birlik o‘zgaradi. Aksariyat hollarda transformatsiyalarning bu turi stilistik aniqlik, lo‘ndalik yoki emotsional ta’sirni oshirish uchun ishlatiladi. Masalan, *“take it easy– tashvishlanaverma”*, *“I don`t want to cheat – to‘g‘risini aytaman”* deb tarjima qilinishi mumkin [3: 112]

Modulatsiya sababning natija va natijaning sabab bilan almashtirilishidir.Bu transformatsiya turida tarjimada asl matnda ifodalangan sabab o‘rniga natija ko‘rsatiladi yoki natija o‘rniga sabab beriladi. Bunda tarjimon asosiy mazmunni saqlab, so‘zlarning o‘rnini almashtiradi. Ingliz tilida ko‘proq natijadan sababga o‘tish usulidan foydalaniladi, o‘zbek tilida esa aksincha, sababdan natijaga o‘tish ko‘p uchraydi. Shuning uchun tarjimada bu ikki elementning o‘zaro joylashuvi o‘zgartiriladi.

Har bir tilda sabab-natija munosabatlarini ifodalash usullarining farqi bor. So‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha notabiiy yoki mantiqsiz bo‘lishi mumkin Almashtirish orqali tarjima yanada tabiiy, o‘qilishi oson va mantiqiy bog‘langan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida sababning natija bilan almashtirilishi: U kechikdi, shuning uchun darsni o‘tkazib yubordi. (Sabab: kechikish → Natija: *darsni o‘tkazib yuborish*)

Almashtirilgan gap: U darsni o‘tkazib yubordi, chunki kechikdi. Ingliz tilida: Original sentence: *He was late, so he missed the class.* (Cause: being late → Effect: missing the class) Substituted sentence: *He missed the class because he was late.* [4-b.146]

Kompensatsiya. Kompensatsiya leksik transformatsiyasi asl tilidagi leksik birliklarning tarjima qilinayotgan tilida muqobili mavjud bo‘lmaganida qo‘llaniladi. Tarjimada asliyatdagi stilistik usullarning muqobili yoki ekvivalenti yo‘q bo‘lgan hollarda ham kompensatsiya qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu transformatsiyadan asar qahramonlarining nutq xususiyatlari, kamchiliklari, og‘zaki nutqi, savodsizligi tufayli nutqda noto‘g‘ri so‘zlarni qo‘llash kabi holatlarni tarjima qilishda ham ishlatiladi.

Mazkur transformatsiyaning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, tarjima tili ekvivalentligi matnning alohida elementlari, xususan, so‘zlar darajasida emas, balki butun bir matn ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. [5, b. 37] Har bir tilning o‘ziga xos leksik tizimi mavjud bo‘lib, bu leksikaning tarjima jarayonida muqobili ekvivalenti tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo‘lmasligi mumkin. Tarjimada yoki nutqda, asl so‘zning aynan o‘zi yo‘q bo‘lsa, uning ma’nosi boshqa so‘zlar yordamida “to‘ldiriladi” yoki “kompensatsiya qilinadi”. Bu jarayon matnning ma’nosini saqlashga yordam beradi.

Chunonchi, o‘zbek tilidagi *“xatti-harakat”* atamasi inglizchada oddiy *“behavior”* yoki *“character”* so‘zlari bilan ifodalanishi mumkin, ammo to‘liq ma’noni bermaydi. Shuning uchun kompensatsiya sifatida “the way someone conducts themselves” kabi ko‘p so‘zli ifoda ishlatiladi. O‘zbekchadagi *“aka”* so‘zi inglizchada *“brother”* ga to‘g‘ri keladi, lekin ayrim kontekstlarda *“sir”* yoki *“mate”* so‘zlari bilan kompensatsiya qilinishi mumkin, chunki o‘zbek

tilida aka so‘zi faqat qarindoshlik darajasini emas, balki begona shaxsga hurmat yuzasidan murojaat qilishda ham ishlatiladi.

Qo‘shish leksik transformatsiyaning yana bir turi bo‘lib, u mazmunni to‘liq va aniq yetkazish maqsadida asl matnga qo‘shimcha so‘z, ibora yoki izoh kiritilishi bilan ifodalanadi. Bu o‘zgarish grammatik nuqtai nazardan emas, balki leksik va semantik to‘ldirish asosida yuz beradi. Bir tilga xos ibora yoki metafora ikkinchi tilda tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u leksik jihatdan to‘ldiriladi. Masalan, *“he kicked the bucket”. U vafot etdi.* (ya’ni, u olamdan o‘tdi). *“Kick the bucket”* bu ingliz tilida *“o‘lish”* degan ma’noni anglatadi. So‘zma-so‘z tarjima nomaqbul bo‘ladi, shuning uchun ma’naviy izoh bilan tarjima qilinadi. Yoki *she was homesick. U vatani, oilasi, tug‘ilib o‘sgan joyini juda sog‘inib yurardi. “Homesick”* so‘zining o‘zbekchada ekvivalenti yo‘qligi sababli, uning hissiy va semantik mazmuni izohlab beriladi. *“Self-study – mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish”, “spring – bahor kirib keldi”, “identification card – shaxsiyatni tasdiqlovchi hujjat”, “laughed – kulib yubordi”. [*6: 627]

Tushirib qoldirish leksik transformatsiyaning bir turi bo‘lib, bunda gap yoki ifodaning ba’zi so‘z yoki so‘z birikmalari kontekstdan kelib chiqqan holda tushirib qoldiriladi, lekin ma’nosi tushuniladi. Gapda muhim bo‘lmagan yoki kontekstdan aniq tushuniladigan so‘zlar chiqarib tashlanadi. Bu so‘zlar, ayniqsa gapni qisqartirish yoki osonlashtirish uchun tushirib qoldiriladi.So‘zlar yoki so‘z birikmalari o‘rni bo‘sh qoladi, lekin gapning ma’nosi yo‘qolmaydi.Quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:*”It is 3 o’clock – soat 3”, “I am fine – yaxshiman”, “It is summer – yoz” [7, 148]. “He lost his money – U pulini yo‘qotib qo‘ydi”.*

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, leksik transformatsiyalar tarjima jarayonida matn mazmunini to‘liq va tabiiy yetkazishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Umumlashtirish, konkretlashtirish, antonimik tarjima, sababni natija bilan yoki natijani sabab bilan almashtirish, kompensatsiya, qo‘shish va tushirib qoldirish kabi usullar ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi grammatik, semantik hamda uslubiy farqlarni bartaraf etishda samarali natija beradi. Har bir transformatsiya turi o‘ziga xos vazifani bajaradi va tarjimaning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tarjimonlar leksik transformatsiya turlarini chuqur o‘rganib, ularni amaliyotda ongli va maqsadga muvofiq ravishda qo‘llashlari kerak. Tarjima jarayonida transformatsiyaning turini tanlashda matnning turi, uslubi va maqsadli auditoriya ehtiyojlari hisobga olinishi lozim.O‘quvchi uchun tushunarli va tabiiy bo‘lishini ta’minlash maqsadida, ortiqcha so‘zma-so‘z tarjimadan qochish tavsiya qilinadi. Xulosa qilganda, leksik transformatsiyalar faqat nazariy tushuncha bo‘lib qolmay, balki amaliy tarjima jarayonida mazmunning aniqligi va tabiiyligini ta’minlaydigan asosiy vositalardan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Achilov O., Azimova M. Tarjimashunoslik sohasidagi leksik tafovutlar haqida umumiy tushuncha. – [International Scientific and Practical Conference], 2024.627-b.

2.G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012.112-b.

3.G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012.110-b.

4.Jabborova S. Leksik transformatsiya va uning turlari. 2025.148-b. Available at: https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/134082

5.Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvistik jihatlar). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990. 200-b.

6.Komissarov V. N. Tarjima nazariyasi (lingvistik jihatlar). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990. 200-b.

7.Newmark P. Tarjima bo‘yicha darslik. – Shanxay: Shanxay chet tillarini o‘qitish nashriyoti, 1988. 37-b.

8.Nida E. Tarjima faniga tomon. – Leyden: Brill, 1964. 12-b.

9.Rasulov Z., Xikmatova Sh. Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklari – ekvivalentsiz leksika va realiyalarni tarjima qilish usullari. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2024. №3. 200-b.

10.Tarjimada transformatsiya va uning turlari. – Toshkent: Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 2024. – №1. 22-b.

11.Transformatsiya atamasi lingvistika tushuncha sifatida: tarjimada transformatsiyalardan foydalanish turlari, .2024. – №1. 25-b.

12.https://doi.org/10.5281/zenodo.11105505. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), 7-jild, 4-son, aprel 2024. 267-b.

Marjona TAXIROVA,
Kompyuter lingvistikasi 1-bosqich magistranti
marjonaxontaxirova@gmail.com

O‘ZBEK TILI KORPUSI BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGLASHDA LUG‘AT YONDASHUVI

Annotatsiya: korpus lingvistikasida teglash masalalariga doir bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular orasida semantik teglash masalasi alohida qiymatga ega. Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusi birliklarini semantik teglashning nazariy-metodik asoslari, semantik teglash turlari va vazifalari hamda lug‘at asosida teglash yondashuvining metodologik tamoyillari ko‘rib chiqiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida semantik teglash tizimi yaratishning asosiy afzalliklari WordNet, FrameNet kabi xalqaro tizimlar bilan qiyoslanib tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *semantik teglash, korpus lingvistikasi, o‘zbek tili izohli lug‘ati, lug‘at asosida teglash, semantik kategoriya, ontologik model, WordNet, FrameNet.*

Annotation: in corpus linguistics, a number of research works have been carried out on the issues of tagging, among which the issues of semantic tagging are of particular value. This article examines the theoretical and methodological foundations of semantic tagging of units in the Uzbek language corpus, the types and functions of semantic tagging, as well as the methodological principles of the dictionary-based tagging approach. The main advantages of creating a semantic tagging system based on the “Annotated Dictionary of the Uzbek Language” are analyzed in comparison with international systems such as WordNet, FrameNet.

Key words: *semantic annotation, corpus linguistics, explanatory dictionary of the Uzbek language, dictionary-based annotation, semantic category, ontological model, WordNet, FrameNet.*

Аннотация: в корпусной лингвистике проведен ряд исследовательских работ по вопросам тегирования, среди которых особую ценность имеют вопросы семантического тегирования. В данной статье рассматриваются теоретико-методические основы семантического тегирования единиц корпуса узбекского языка, виды и задачи семантического тегирования, а также методологические принципы подхода к тегированию на основе словаря. Основные преимущества создания системы семантической разметки на основе “Толкового словаря узбекского языка” анализируются в сравнении с такими международными системами, как WordNet, FrameNet.

Ключевые слова: *семантическая разметка, корпусная лингвистика, толковый словарь узбекского языка, разметка на основе словаря, семантическая категория, онтологическая модель, WordNet, FrameNet.*

Kirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) va korpus lingvistikasining bir-biriga yaqinlashuvi natijasida matnlar ustida mashina tarafidan avtomatik ishlashni ta’minlovchi vositalar sifatida semantik teglash tizimlari jadal rivojlanib bormoqda. Semantik teglash tilshunoslik tadqiqotlarida yangi imkoniyatlarni ochib, so‘zlarning ma’nolarini kompyuter tomonidan tushunish va tahlil qilish vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

Ingliz, nemis, xitoy va boshqa rivojlangan tillarda semantik teglash bo‘yicha katta tajriba to‘plangan bo‘lsa-da[1], o‘zbek tili uchun bu sohadagi ishlar hali boshlang‘ich bosqichda qolmoqda. Mavjud xalqaro tizimlar – WordNet, FrameNet, asosan, Germaniya yoki Rim tillar oilasi tillarining morfologik va semantik xususiyatlarini hisobga olib yaratilganligi sababli agglutinativ tuzilishga ega o‘zbek tiliga bevosita qo‘llash ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi.


Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida semantik teglash tizimi yaratish ko‘zda tutiladi. Ushbu lug‘at o‘zbek tilining eng to‘liq va ishonchli leksikografik manbai bo‘lib, 85 000 dan ortiq so‘z va iboraning izohlarini o‘z ichiga oladi. Lug‘atda berilgan semantik tavsiflar, so‘z kategoriyalari va ma’no izohlaridan teglash uchun birlamchi ma’lumot bazasi sifatida foydalanish tadqiqotimizning asosiy metodologik yondashuvi hisoblanadi.

Semantik teglash tushunchasi, turlari va vazifalari. Semantik teglash (semantic tagging yoki semantic annotation) — bu matn korpusidagi so‘z yoki iboralarga ularning ma’nosini, kategoriyasini yoki semantik xususiyatini aks ettiruvchi maxsus belgilar

(teglar) qo‘yish jarayonidir. Bu jarayon NLP tizimlariga so‘zlarning kontekstdagi ma’nosini, ularning ontologik mansubligi va semantik munosabatlarini tushunish imkonini beradi.

Semantik tegning ham, boshqa razmetkalarda bo‘lganidek, yagona standart shakli bo‘lmasa ham, harf, raqam yoki faqat raqamdan iborat kodlardan foydalaniladi. Birinchi harf yoki raqam umumiy semantik ma’noni, keyingi belgi esa so‘z ma’nosini yanada maxsuslashtiruvchi kichik semantik guruhni ifodalaydi. Semantik teg nafaqat so‘z, balki ko‘plab birikmalarni ham semantik guruhlarga birlashtiradi, bunday paytda turli birikuvdagi bir ma’noni bildiruvchi birikmalar bitta belgi bilan kodlanadi[2].

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) da semantik teglash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:



1-rasm. Semantik teglash usullari.

Korpus lingvistikasida semantik teglashni morfologik teglashdan (POS-tagging) farqlash muhim. Morfologik teglashda so‘zga faqat grammatik shakl (ot, fe’l, sifat va h.k.) berilsa, semantik teglashda uning ma’nosi, tematik sohasi, ontologik kategoriyasi belgilanadi. Masalan, “archa” so‘ziga morfologik teglashda [OT] belgisi beriladi, semantik teglashda esa [O‘SIMLIK > DARAXT > IGNABARGLI > ARCHA] kabi ierarxik semantik yo‘l ko‘rsatiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda semantik teglashning uchta asosiy turi farqlanadi.

Birinchi tur: qo‘lda teglash. Bu usulda lingvist-ekspertlar matnlardagi har bir so‘z yoki iborani belgilangan semantik sxema asosida qo‘lda teglab chiqadi. Sifati yuqori bo‘lsa-da, juda ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi, shuning uchun katta hajmli korpuslar uchun qo‘llab bo‘lmaydi.

Ikkinchi tur: avtomatik teglash. Maxsus algoritmlar va mashina o‘rganish usullari asosida so‘zlarga teglar avtomatik ravishda beriladi. Ushbu turda qoidaga asoslangan (rule-based), statistik va neyron tarmoqli yondashuvlar qo‘llaniladi.

Uchinchi tur: yarim avtomatik (semi-automatic) teglash. Avtomatik teglash va inson nazoratini birlashtiradi: algoritm tegni taklif qiladi, lingvist tekshirib tasdiqlaydi yoki tuzatadi. Bu tur sifat va samaradorlik o‘rtasida muvozanat ta’minlaydi va hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan yondashuv hisoblanadi.

Semantik teglash bir qator muhim lingvistik va texnologik vazifalarni bajaradi. Lingvistik jihatdan u leksik semantikani formallashtirishga, so‘zlar o‘rtasidagi sinonimiya, antonimiya, gipero-giponimiya munosabatlarini kodlashga va tilning leksik-semantik tizimini mashinabop shaklda tasvirlashga imkon beradi. Texnologik jihatdan esa mashina tarjimasi tizimlarining sifatini oshirish, axborot qidirish va saralash tizimlari uchun semantik indeks yaratish, savol-javob tizimlari va suhbat robotlari uchun ma’no tushunish modullari ishlab chiqish, his-tuyg‘ularni tahlil qilish (sentiment analysis) kabi vazifalarni yechishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligi doirasida V.P.Zaxarov, B.Kutuzov, S.A.Sharovlar bu boradagi ishlarida teg, uning korpusdagi amaliy ahamiyatini atroflicha yoritib berishgan[3]. O‘tgan asrning 80-yillarida SGML (Standard Generalized Markup Language) nomi ostidagi elektron matnlar razmetkasi standarti qabul qilingan edi. Bu standart dastlab tipografiya sanoati uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, tez orada boshqa sohalarda ham qo‘llanila boshlandi.

Lug‘at asosida teglash (lexicon-based tagging) — semantik teglashning qoidaga asoslangan yondashuvlaridan biri bo‘lib, unda ma’lum bir tilning lug‘at manbasi (izohli lug‘at, tezaurus, ontologiya) teglash uchun asosiy ma’lumot bazasi sifatida ishlatiladi. Ushbu yondashuvda har bir lug‘at birligiga belgilangan semantik kategoriyalar va ma’no izohlaridan foydalanib, korpusdagi so‘z shakllari mos semantik teglar bilan boyitiladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘zbek tilshunosligining eng ko‘p qamrovli leksikografik manbai hisoblanadi. Lug‘atda 85 000 dan ortiq so‘z birligiga matn va nutqda qo‘llanilish namunalari bilan birga to‘liq semantik

izohlab berilgan. Ushbu xususiyatlari lug‘atni semantik teglash tizimi uchun asos vazifasini o’taydi.

Xalqaro tizimlar bilan solishtirganda o‘zbek tili izohli lug‘ati asosida teglash bir qator muhim afzalliklarga ega. Birinchidan, til xususiyatlarini to‘liq aks ettiradi: o‘zbek tiliga xos agglutinativ morfologiya, uslubiy va hududiy variantlar, iboralar hisobga olingan. Ikkinchidan, milliy ontologiya asosini tashkil etadi: lug‘atdagi semantik belgilar, tematik guruhlar va izoh tuzilishi o‘zbek tiliga xos semantik kategoriyalar tizimini shakllantirish uchun tabiiy asos beradi. Uchinchidan, ishonchlilik va normativlik: lug‘at davlat standartlari asosida tuzilganligi sababli teglash tizimining normativligi ta’minlanadi.

Mezon	WordNet	FrameNet	O‘TIL
Til	Ingliz (asosan)	Ingliz	O‘zbek tili
Asos	Sinset tarmog‘i	Freym semantika	Izohli lug‘at
So‘z soni	155 000+	13 000+	80 000+
Agglutinativ til	Cheklangan	Cheklangan	To‘liq mos
Milliy ontologiya	Yo‘q	Yo‘q	Ha
Normativlik	Akademik	Akademik	Davlat standarti

1-jadval. Xalqaro teglash tizimlari va O‘zbek tili izohli lug‘ati yondashuvining qiyosiy tahlili.

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, mavjud xalqaro tizimlar agglutinativ tillarga, jumladan o‘zbek tiliga to‘liq moslashtirilmagan. O‘zbek tilining izohli lug‘ati esa til xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy ontologik model yaratish uchun eng mos manba hisoblanadi.

Bugungi kunda WordNet 200 dan ortiq tilda ifodalangan bo‘lib, ko‘p tilli semantik teglash uchun muhim resurs hisoblanadi. Biroq WordNet ingliz tiliga yo‘naltirilganligi va morfologik jihatdan kambag‘al tillar uchun mo‘ljallanganligini hisobga olsak, o‘zbek tili kabi agglutinativ tillarga moslashtirish jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘zbek tilidagi bir o‘zak turli qo‘shimchalar bilan yuzlab so‘z shakllarini hosil qilishi mumkin, bu esa WordNet arxitekturasida alohida yechimni talab etadi.

Xulosa. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, milliy izohli lug‘at asosida semantik teglash tizimi yaratish nafaqat texnik jihatdan mumkin, balki tilning o‘ziga xosligini to‘liq hisobga olishning eng samarali yo‘lidir. O‘zbek tili uchun ham xuddi shu yo‘lni tanlash, ya’ni izohli lug‘at asosida semantik kategoriyalar tizimini shakllantirish va teglash algoritmlarini ishlab chiqish, metodologik jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Izohli lug‘at asosida korpus birliklarini tematik maydon asosida nomlarini ajratib semantik kategoriyalar tizimini shakllantirish lug‘at asosida teglash yondashuvini amalga oshirishda birinchi va eng muhim amaliy qadam hisoblanadi. Bu bosqich keyinchalik ontologik model va teglash algoritmini ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. 3rd ed. — Stanford University Press, 2023.
2. Zaxarov V., Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi – o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023. – B.134.
3. Курс “Корпусная лингвистика» “(А.Б. Кутузов) Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс) - //lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.
4. Elov B. va boshq. NLPda semantik teglash masalalari. //O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi seriyasi. – Toshkent, 2024.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2023.
6. Baker C.F., Fillmore C.J., Lowe J.B. The Berkeley FrameNet Project // COLING-ACL. — 1998. — P. 86–90.

Muhammad SAJID HUSAIN,
FarDu magistranti

URDU VA O‘ZBEK TILLARINING TARIXIY TARAQQIYOTINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada urdu va o‘zbek tillarining tarixiy rivojlanishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo va Hindiston yarimoroli o‘rtasidagi tarixiy aloqalar natijasida har ikki tilda arab va fors tillari orqali kirgan umumiy leksik birliklar shakllanganligi aniqlanadi. Tadqiqot ikki til o‘rtasidagi lingvistik va madaniy o‘xshashliklarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: *urdu tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, leksik o‘zlashmalar, madaniy aloqalar.*

Аннотация: в статье проводится сравнительный анализ исторического развития узбекского и урду языков. Отмечается, что исторические связи между Центральной Азией и Индийским субконтинентом способствовали формированию общих лексических единиц, заимствованных преимущественно из арабского и персидского языков. Исследование выявляет лингвистические и культурные сходства между двумя языками.

Ключевые слова: *язык урду, узбекский язык, сравнительное языкознание, лексические заимствования, культурные связи.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the historical development of the Uzbek and Urdu languages. Historical relations between Central Asia and the Indian subcontinent contributed to the formation of common lexical units, mainly borrowed from Arabic and Persian. The study highlights linguistic and cultural similarities between the two languages.

Key words: *urdu language, Uzbek language, comparative linguistics, lexical borrowings, cultural relations.*

Til jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va madaniy aloqalar ta’sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Tilshunoslikda tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir migratsiya, savdo-iqtisodiy munosabatlar, siyosiy hukmronlik hamda madaniy almashinuv natijasida yuzaga kelishi qayd etiladi. Bunday jarayonlar natijasida tillarda leksik o‘zlashmalar, semantik kengayishlar hamda lingvokulturologik o‘xshashliklar shakllanadi. Shu jihatdan turli til oilalariga mansub bo‘lgan tillar o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni o‘rganish qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek va urdu tillari o‘rtasidagi lingvistik o‘xshashliklar ham aynan tarixiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga kelgan.[1]

O‘zbek tili turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub bo‘lib, uning shakllanishi qadimgi turkiy til davriga borib taqaladi. O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida Chig‘atoy tili muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiy tilning rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Navoiy asarlari orqali turkiy tilning boy imkoniyatlari namoyon etilib, uning ilmiy va adabiy til sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shildi. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi tarixiy taraqqiyot jarayonida arab va fors tillari orqali boyib, ilmiy, diniy va madaniy terminologiyaning shakllanishiga zamin yaratgan.[2]

Urdu tili esa hind-yevropa tillari oilasining hind-oriyan guruhiga mansub bo‘lib, Hindiston yarimorolida mahalliy lahjalar, arab, fors va turkiy tillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan. Ayniqsa, Dehli sultonligi va Boburiylar imperiyasi davrida fors tilining davlat va adabiyot tili sifatida keng qo‘llanilishi urdu tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi tarixiy aloqalar, jumladan, Buyuk Ipak yo‘li, siyosiy va madaniy munosabatlar natijasida o‘zbek va urdu tillarida umumiy leksik qatlam shakllangan. Shu jihatdan o‘zbek va urdu tillarining tarixiy taraqqiyotini qiyosiy jihatdan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.[3]

Urdu va o‘zbek tillaridagi umumiy leksik qatlam asosan, arab va fors tillari orqali shakllangan bo‘lib, bu jarayon asosan, islom madaniyati, ilm-fan hamda tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Masalan, “tarix” so‘zi arab tilidagi tārīkh so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, o‘zbek tilida “tarix”, urdu tilida esa “tarikh” shaklida qo‘llanadi. Ushbu so‘z ilmiy va akademik matnlarda keng qo‘llanadi.[4]

O‘zbek tilida: Biz tarixni o‘rganamiz.

Urdu tilida: Hum tarikh parhte hain.

Yoki “vaqt” so‘zi ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, o‘zbek tilida “vaqt”, urdu tilida “waqt” shaklida ishlatiladi.

O‘zbek tilida: Vaqt eng qimmat boylik hisoblanadi.

Urdu tilida: Waqt ki qadr karna zarur hai.

Shuningdek, “inson” so‘zi ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda umumiy ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbek tilida: Inson jamiyatda yashaydi.

Urdu tilida: Insan muashray mein rehta hai.

1 Comrie B. The World’s Major Languages. — London: Routledge, 2009. 1024 p.
2 Reshetov V. V. Узбекский язык. — Москва: Наука, 1966. 312 с.
3 عبدالحق، مولوی. اردو زبان کی تاریخ. — لاہور: انجمن ترقی اردو، 1961. — 284 ص.
4 Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. — Тошкент: Университет, 2000. 600 б.

Arab tilidan kirib kelgan ilmiy terminlardan yana biri “nazariya” so‘zidir. “Nazariya” arab tilidagi naẓariyya so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda ilmiy matnlarda keng ishlatiladi.

O‘zbek tilida: Bu nazariya ilmiy jihatdan asoslangan.

Urdu tilida: Yeh nazariya ilmi tor par durust hai.

“Natija” so‘zi arab tilidagi natījah so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda bir xil ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbek tilida: Tadqiqot natijasi muhim ahamiyatga ega.

Urdu tilida: Tahqiq ka natija bohat aham hai.

“Tahlil” so‘zi arab tilidagi taḥlīl so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, ilmiy uslubda keng qo‘llanadi.

O‘zbek tilida: Matn lingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Urdu tilida: Matn ka lisani tajziya kiya gaya.

“Maqsad” so‘zi arab tilidagi maqsad so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda faol qo‘llanadi.

O‘zbek tilida: Tadqiqotning asosiy maqsadi aniq belgilandi.

Urdu tilida: Tahqiq ka bunyadi maqsad muqarrar kiya gaya.

“Muhim” so‘zi arab tilidagi muhim so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda keng ishlatiladi.

O‘zbek tilida: Bu masala juda muhim hisoblanadi.

Urdu tilida: Yeh masla bohat muhim hai.

Fors tilidan kirib kelgan so‘zlar ham o‘zbek va urdu tillarida keng qo‘llanadi. Masalan, “jahon” (urdu: jahan) so‘zi fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda “dunyo” ma’nosida ishlatiladi.

O‘zbek tilida: Ikki jahonning egasi Allohdir.

Urdu tilida: Dono jahan ka malik Allah hai.

“Mehmon”[5] so‘zi fors tilidagi mehmaan so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda bir xil ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbek tilida: Mehmon hurmat qilinadi.

Urdu tilida: Mehman ki izzat ki jati hai.

“Do‘st” so‘zi fors tilidagi dōst so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda keng qo‘llanadi.[6]

O‘zbek tilida: Yaxshi do‘st katta boylikdir.

Urdu tilida: Acha dost bari daulat hai.

Ushbu misollar o‘zbek va urdu tillari o‘rtasidagi tarixiy-lingvistik aloqalarning ilmiy dalili sifatida xizmat qiladi. Mazkur birliklar har ikki tilning tarixiy taraqqiyoti hamda madaniy aloqalarining lingvistik natijasi sifatida baholanadi.

Rus tilshunosi V.V. Vinogradovning ta’kidlashicha, tillar o‘rtasidagi leksik o‘zlashmalar tarixiy-madaniy aloqalar natijasida shakllanadi va vaqt o‘tishi bilan milliy til tizimining ajralmas qismiga aylanadi[7]. Shu jihatdan, o‘zbek va urdu tillaridagi umumiy leksik birliklar Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi tarixiy aloqalarning muhim lingvistik natijasi hisoblanadi.

O‘zbek va urdu tillaridagi umumiy leksik birliklar tasodifiy emas, balki Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi uzoq davom etgan siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar natijasidir. Bu birliklar har ikki tilning leksik tizimida mustahkam o‘rin egallab, til taraqqiyotining muhim lingvistik ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilgan fikr va tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek va urdu tillaridagi umumiy leksik birliklar tarixiy, madaniy va ilmiy aloqalar natijasida shakllangan. Arab va fors tillari orqali kirib kelgan bu so‘zlar har ikki tilning lug‘at tarkibida mustahkam o‘rin egallab, ularning lingvistik yaqinligini hamda tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o‘zaro ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

5 Steingass F. A Comprehensive Persian-English Dictionary. — London: Routledge & Kegan Paul Limited, 1892. 1539 p.

6 Platts J. T. A Dictionary of Urdu, Classical Hindi and English. — London: W. H. Allen & Co., 1884. 1250 p.

7 Виноградов В.В. История слов. — Москва: Наука, 1999. 412 с

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. — Тошкент: Фан, 1990. 256 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. — Тошкент: Университет, 2000. 600 б.
3. Mahmud al-Kashgari. Dīwān Lughāt al-Turk. — Tashkent: Fan, 1960.
4. Schmidt R. L. Urdu: An Essential Grammar. — London: Routledge, 1999. 288 p.
5. Platts J. T. A Dictionary of Urdu, Classical Hindi and English. — London: W. H. Allen & Co., 1884. 1250 p.
6. Abdul Haq M. Urdu Grammar. — Karachi: Oxford University Press, 2002. 320 p.
7. Rahman T. From Hindi to Urdu: A Social and Political History. — Karachi: Oxford University Press, 2011. 320 p.
8. Steingass F. A Comprehensive Persian-English Dictionary. — London: Routledge & Kegan Paul Limited, 1892. 1539 p.

Mohinur XO‘JAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti II bosqich magistranti
Xujayevamohinur97@gmail.com



ADABIYOT DARSLARINI RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot darslarini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari, innovatsion metodlar, interaktiv platformalar va multimediya vositalaridan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, o‘qishga qiziqishini oshirish va ta’lim samaradorligini ta’minlashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, adabiyot darsi, innovatsion metodlar, AKT, interaktiv ta’lim, multimediya, elektron resurslar, metodika.*

Annotation: this article explores the theoretical and practical aspects of organizing literature lessons based on digital educational technologies. The possibilities of the digital learning environment, innovative methods, interactive platforms, and the use of multimedia tools are analyzed. In addition, methodological recommendations aimed at developing students’ creative thinking, increasing their interest in reading, and improving the effectiveness of education are proposed.

Keywords: *digital education, literature lesson, innovative methods, ICT, interactive learning, multimedia, electronic resources, methodology.*

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish global tendensiyaga aylangan. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, adabiyot darslarini raqamli muhitda tashkil etish o‘quvchilarning estetik didini, mustaqil fikrlashini va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi hamda interaktiv muhit yaratadi. Shu bois adabiyot darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim tizimida qator ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Avvalo, bunday texnologiyalar ta’lim jarayonining interaktivligini ta’minlaydi. Multimedia vositalari, onlayn platformalar va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, bu esa bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligiga mos ravishda o‘quv materiallarini o‘rganishi mumkin. Bu esa differensial ta’limni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.[1]

Raqamli ta’limning yana bir muhim afzalligi ta’lim resurslarining kengligidir. Internet tarmog‘i orqali turli elektron darsliklar, videomateriallar, ilmiy maqolalar va boshqa manbalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu esa o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar vaqt va makon cheklovlarini bartaraf etadi. O‘quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari zamonaviy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quv jarayonini tashkil etishda elektron vositalar, internet platformalar, sun’iy intellekt elementlari hamda multimedia resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan tizimni anglatadi. Ushbu texnologiyalar an’anaviy ta’lim modelini tubdan o‘zgartirib, uni yanada moslashuvchan, interaktiv va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.

pedagogik natijalarni ta’minlaydi. Avvalo, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, chunki o‘quv materiallari ko‘rgazmali, multimediaviy va interaktiv shaklda taqdim etiladi. Bu esa o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, raqamli vositalar o‘quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada kuchaytiradi, chunki zamonaviy o‘quvchilar raqamli muhitga yaqin va unga qiziqish bildiradi. Bundan tashqari, bunday texnologiyalar individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi, ya’ni har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish sur’atiga mos ravishda ta’lim olishi mumkin.

Metodik nuqtayi nazardan qaralganda, raqamli ta’lim texnologiyalari bir necha o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat murakkab tizimni tashkil etadi. Birinchi navbatda, kommunikativlik va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarning shakllanishini ta’minlaydi.[2]

Shu jihatdan qaraganda, raqamli ta’lim texnologiyalari nafaqat texnik vosita, balki kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyot darslari an’anaviy ravishda badiiy matnlarni o‘qish, tahlil qilish va talqin etishga asoslangan bo‘lsada, raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi ushbu jarayonni yanada boyitish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Zamonaviy yondashuvlarda adabiyot faqat matn bilan cheklanib qolmay, balki multimediaviy, interaktiv va vizual vositalar orqali kengroq qamrovda o‘rganilmoqda.[3]

Raqamli vositalar yordamida badiiy asarlarni o‘rganish



texnologik komponent muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turli platformalar, mobil ilovalar, elektron ta’lim muhitlari va axborot tizimlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu vositalar o‘quv jarayonining texnik asosini yaratadi. Ikkinchi komponent – metodik komponent bo‘lib, u interaktiv o‘qitish usullari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy didaktik strategiyalarni qamrab oladi. Uchinchi komponent mazmuniy komponent bo‘lib, elektron darsliklar, videodarslar, audiomateriallar, animatsiyalar va boshqa raqamli kontentlarni o‘z ichiga oladi. Nihoyat, natijaviy komponent ta’lim jarayonining yakuniy samaradorligini ifodalab, o‘quvchilarda zarur kompetensiyalar – tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, jarayoni yanada jonli va ta’sirchan tus oladi. Masalan, asarlarning audio talqinlari orqali o‘quvchilar matnni tinglab idrok etadi, bu esa ularning eshitish orqali qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Videolavhalar va sahnalashtirilgan epizodlar esa asar mazmunini vizual tarzda tasavvur qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid virtual ekskursiyalar tashkil etish orqali o‘quvchilar muallif shaxsiyati va davr muhitini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2 Richard E. Mayer. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
3 Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2022.

Interaktiv testlar, viktorinalar va onlayn mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlaridan foydalanish (ball tizimi, reyting, mukofotlar) o‘quvchilarda raqobat va qiziqish muhitini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar o‘quvchilarga mustaqil ravishda ijodiy loyihalar yaratish imkonini beradi. Masalan, ular badiiy asar asosida prezentatsiyalar, videoroliklar, podkastlar yoki raqamli hikoyalar tayyorlashi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, dars samaradorligi oshib, o‘quvchilarning adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot darslarida bunday metodlardan foydalanish badiiy asarni chuqurroq anglash, uning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion metodlardan biri sifatida aralash ta’lim (blended learning) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv an’anaviy sinf darslari bilan raqamli ta’lim elementlarini uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Natijada o‘quvchilar dars jarayonida o‘qituvchi bilan bevosita muloqotda bo‘lish bilan birga, mustaqil ravishda elektron resurslar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi.[4]

Shuningdek, “teskari sinf” (flipped classroom) metodik yondoshuvi ham samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodda o‘quvchilar yangi mavzuni darsdan oldin mustaqil ravishda (video, audio yoki elektron materiallar orqali) o‘zlashtiradi, dars jarayonida esa bilimlarni muhokama qilish, tahlil qilish va amaliy qo‘llashga e’tibor qaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya, ya’ni o‘yin elementlari asosida o‘qitish metodikasi (Kahoot, Quizzlet, Mentimetor, Wordwall onlayn platformalari) ham zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ball tizimi, reytinglar, mukofotlar va tanlovlar orqali o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish ortadi hamda ularning faol ishtiroki ta’minlanadi. Bu metod o‘quv jarayoniga raqobat va rag‘bat muhitini olib kiradi.[5]

Raqamli hikoya yaratish (digital storytelling) esa innovatsion metodlar ichida alohida o‘rin tutadi. Bu metod o‘quvchilarga badiiy asar asosida o‘z hikoyalarini multimedia vositalar yordamida (video, audio, prezentatsiya) yaratish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Adabiyot darslarini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, asar mazmunini chuqur anglash hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, falsafiy va ramziy mazmunga ega bo‘lgan “Kichkina shahzoda” asari bunday yondashuvni amaliyotda qo‘llash uchun qulay didaktik material hisoblanadi. Ushbu asar orqali insoniy qadriyatlar, hayot mazmuni, do‘stlik va mas’uliyat kabi tushunchalarni o‘quvchilarga interaktiv usullar yordamida yetkazish ancha samarali hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan adabiyot darsi, odatda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tizimli jarayon bo‘lib, u tayyorlov, asosiy, mustahkamlash va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Har bir bosqich o‘ziga xos metodik vazifalarni bajaradi va o‘zaro uzviy bog‘langan holda ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

Tayyorlov bosqichida o‘qituvchi darsning maqsad va vazifalarini aniq belgilaydi hamda o‘quv jarayonini tashkil etish uchun zarur raqamli resurslarni tanlaydi. Bu bosqichda asarning mazmuni va g‘oyasiga mos ravishda multimedia materiallari tayyorlanadi. Jumladan, muallif hayoti va ijodi haqida qisqa videoroliklar, asar qahramonlari tasvirlangan vizual materiallar hamda asarda tasvirlangan sayyoralar bo‘yicha sxematik xaritalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarga darsdan oldin elektron materiallar yuborish orqali ularning dastlabki tayyorgarligi ta’minlanadi. Bunday yondashuv “teskari sinf” metodini qo‘llash imkonini berib, dars jarayonida vaqtni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Asosiy bosqichda o‘quvchilar bevosita o‘quv faoliyatiga jalb etiladi va asar tahlili amalga oshiriladi. Bu jarayonda interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, ularga asardagi muayyan obrazlar yoki g‘oyalarni tahlil qilish topshiriladi. Masalan, Kichkina shahzoda obrazi

4 https://www.ispring.com/knowledge-hub/blended-learning-a-primer

5 Xikmatullayevna Sh. Gamifikatsiya va mikroo‘quv modullar asosida xorijiy tilni o‘rgatish: o‘rganuvchi motivatsiyasiga ta’siri. – international scientific journal of Biruni. 2025-yil, 4-son.

orqali bolalikning pokligi va beg‘uborligi, Tulki obrazi orqali do‘stlik va sadoqat, Atirgul obrazi orqali esa muhabbat va mas’uliyat masalalari yoritiladi. Har bir guruh o‘z tahlilini raqamli taqdimot shaklida namoyish etishi mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, multimedia vositalari yordamida asarning muhim sahnalari (masalan, Tulki bilan suhbat epizodi) vizual yoki audio shaklda taqdim etilib, o‘quvchilar bilan birga muhokama qilinadi. Bu esa ularning nafaqat bilimini, balki tahliliy va kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Mustahkamlash bosqichida o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash va amaliy qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu bosqichda onlayn testlar, interaktiv mashqlar va viktorinalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Masalan, o‘quvchilarga *“Agar siz Kichkina shahzoda o‘rnida bo‘lganingizda Yer sayyorasi haqida qanday xulosa qilgan bo‘lardingiz?”* mazmunidagi topshiriq berilishi mumkin. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini yozma yoki raqamli shaklda (video, prezentatsiya) ifodalaydi. Bu esa ularning ijodkorlik va tanqidiy tafakkurini shakllantiradi.[6]

Baholash bosqichida esa o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari aniqlanadi. Raqamli ta’lim muhitida baholash jarayoni yanada shaffof va samarali tashkil etiladi, chunki onlayn platformalar orqali natijalarni tezkor tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, o‘zaro baholash va refleksiya (o‘zini o‘zi baholash) metodlari ham keng qo‘llaniladi. O‘quvchilardan dars yakunida asardan olgan saboqlari haqida fikr bildirish so‘raladi, bu esa ularning o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Umuman olganda, nafaqat “Kichkina shahzoda” asarini, balki boshqa adabiy asarlarni raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish adabiyot darslarining samaradorligini ta’minlaydi va o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini hamda ijodiy faolligini oshirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, uning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari tahlili natijasida ushbu tizimning ko‘p komponentli va murakkab tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, texnologik, metodik, mazmuniy va natijaviy komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu komponentlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik o‘quv jarayonining izchilligini, maqsadliligini va natijaviyligini kafolatlaydi.

Adabiyot darslari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar badiiy asarlarni o‘rganish jarayonini sezilarli darajada boyitadi. An’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda multimedia vositalar, interaktiv platformalar va elektron resurslardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning estetik didini shakllantiradi hamda badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, ramziy va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan asarlarni raqamli vositalar yordamida o‘rganish o‘quvchilarda chuqur mushohada yuritish, obrazlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Umuman olganda, adabiyot darslarini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvni amaliyotga keng joriy etish zamonaviy, innovatsion va samarali ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

6 Antuan de Sent-Ekzyuperi. Kichkina shahzoda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Antuan de Sent-Ekzyuper. Kichkina shahzoda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

2.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2022.

3.Richard E. Mayer. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

4.Xikmatullayevna Sh. Gamifikatsiya va mikroo‘quv modullar asosida xorijiy tilni o‘rgatish: o‘rganuvchi motivatsiyasiga ta’siri. – international scientific journal of Biruni. 2025-yil, 4-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi. Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.

6.https://www.ispring.com/knowledge-hub/blended-learning-a-primer

Maxliyo ALLAYAROVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
allayorovamahliyo@gmail.com

ADABIYOT DARSLIKLARIDA AYOL IJODKORLARNI O‘RGATISH METODIKASI
(Nodira va Uvaysiy misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot darsliklarida ayol ijodkorlar merosini o‘qitish metodikasi Nodira va Uvaysiy ijodi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur shoiralar asarlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, Nodira va Uvaysiy ijodining badiiy, ijtimoiy hamda ma’naviy ahamiyati ochib berilib, ularni dars jarayonida o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *chiston, lirika, metodika, interfaol, muxammas.*

Аннотация: в данной статье анализируется методика преподавания наследия женщин-поэтов в учебниках литературы системы общего среднего образования на примере творчества Нодиры и Увайсий. В исследовании освещаются возможности формирования у учащихся эстетического вкуса и развития художественного мышления посредством изучения произведений данных поэтесс. Также раскрываются художественное, социальное и духовное значение творчества Нодиры и Увайсий, обосновываются теоретические и практические аспекты их преподавания в учебном процессе.

Ключевые слова: *чистон, лирика, методика, интерактивный, мухаммас.*

Annotation: this article analyzes the methodology of teaching the literary heritage of women writers in secondary school literature textbooks, based on the works of Nodira and Uvaysiy. The study highlights the possibilities of developing students’ aesthetic taste and enhancing their artistic thinking through the study of these poets’ works. It also reveals the artistic, social, and spiritual significance of Nodira’s and Uvaysiy’s творчество, and substantiates the theoretical and practical aspects of teaching their works in the educational process.

Key words: *chiston, lyrics, methodology, interactive, mukhammas.*

Kirish. Adabiyot hamma zamonda bo‘lgani kabi hozirgi kunda ham insonning ma’naviy va ruhiy yuksalishida alohida o‘rin tutadi. Zero, bu rad qilib bo‘lmaydigan, isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Zotan, jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri barkamol avlod tarbiyasida badiiy adabiyotning xizmatlari beqiyosdir.

Bugungi kunda adabiyotni chinakam san’at darajasida o‘qitishishga erishish o‘qituvchilar uchun eng muhim vazifalardan sanaladi. Vaholanki, kitob va adabiyotni sevgan bola hech qachon yomonlikka moyil bo‘lmaydi. Ayni shu o‘rinda mashhur shoir va yozuvchi Cho‘lponning adabiyot haqidagi quyidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi: “Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar”[1;29-bet] Darhaqiqat, oradan bir asr o‘tsa-da hali hamon bu fikrlar o‘zining qadr-qimmatini, dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Natijalar. Jahon adabiyoti tarixi xotin-qizlar orasidan yetishib chiqib ma’naviyat rivojiga munosib hissa qo‘shgan ko‘pgina iste’dodli qalam sohiblarini biladi. Buning yorqin misolini Sharq adabiyotida ham uchratamiz. Birgina XIX asr bo‘sag‘asi va birinchi yarmida Qo‘qonda Uvaysiy, Dilshod, Mahzuna va Nodiradek taniqli shoiralarning ijod etganligi buning yorqin dalilidir.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot fani darsliklari tubdan yangilanmoqda. O‘zbek mumtoz adabiyotining eng ko‘zga ko‘ringan ayol ijodkorlari hayoti va faoliyati, ijodidan namunalar yangicha yondashuvlar asosida adabiyot darsliklariga kiritilmoqda. Shu jihatdan, ayol ijodkorlar merosini o‘rganish gender tenglik g‘oyalarini singdirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Nodira va Jahon Otin Uvaysiy ijodi orqali o‘quvchilarga ayolning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy kuchi va intellektual salohiyati haqida ibratomuz ma’lumotlar berish mumkin.

Nodira ham iste’dodli shoira, ham madaniyat va adabiyotning homiylaridan biri sifatida ajraiib turadi. U mumtoz adabiyotimizning an’analari hamda umr yo‘ldoshi, iste’dodli shoir Amiriyning kuchli ta’sirida boy adabiy meros qoldirdi, xususan, Umarxon vafotidan so‘ng yigirma yillar davomida mamlakatda yuz berib turgan siyosiy-ijtimoiy voqealarni ziyraklik bilan kuzatib, davlat ahamiyati va xalq manfaatlariga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etdi.

Bu yillarda Qo‘qon xonligi hududlarida yangi obod shahar va qishloqlar, masjidu madrasalar, kutubxonalar, bozor va karvonsaroylar ko‘paydi. Shuning uchun uni zamon ahli “Nodirai davron” deya sharafladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nodira haqida tarixiy-badiiy asarlarda(“Tarixi muhojiron”, “Voqeoti Muhammad Alixon”), dostonlarda(“Haft Gulshan”) ta’rifi tahsinlar aytildi. Zamon shoir va shoiralari unga bag‘ishlab vasfiy qasidalar, g‘azallar bitdilar. Xofizu xonandalar shashmaqom yo‘llarida uning zebo g‘azal, muxammas va firoqnomalarini ijro etdilar. Nodiraning hayoti va adabiy merosi bizning zamonamizda ham unutib yuborilmadi. Asarlaridan ilm-u ijod ahli, keng kitobxonlar ommasi ozmi-ko‘pmi bahramand bo‘lib keldi. Akademik Aziz Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti”, V.Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”, To‘xtasin Jalolovning “O‘zbek shoiralari”, Mahbuba Qodirovaning “XIX asr shoiralari ijodida xalq taqdiri”, “Davr Nodirasi” asarlarida uning adabiy ijodi ancha keng yoritildi. 1963-yili shoiraning ikki jildlik devoni, 1993-yili “Ey, sarvi ravon” nomida g‘azallari majmuasi chop qilindi.

Muhokama. Shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysi bo‘lgan Nodira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topgan. Uning ota-onasi o‘z davrining nufuzli va e’tiborli kishilari bo‘lgan. Shoirayi davronning asl ismi va taxallusi xususida maktab darsliklaridan to oliy ta’lim darsliklarining ayrimlarida Mohlaroyim ekanligi, undan o‘zbek va fors-tojik tillarida “Komila”, “Nodira” va “Maknuna” taxalluslari bilan yaratilgan boy lirik meros qoldirilganligi aytiladi. Ammo Rahmonqul Orzibekovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida: “Biz keyingi yillargacha Nodiraning ismi Mohlaroyim bo‘lgan derdik. Biroq qo‘qonlik olim va tarixchi Po‘latjon Domulla Qayumovning qancha yillar o‘tib, 1998-yili nashr etilgan uch jildlik “Tazkirai Qayyumiy” asarida Nodiraning asl ismi Mohlaroyim emas, balki Komila bo‘lganligi aytiladi. Uning fikricha, Mohlaroyim degani sharafli laqab bo‘lib, o‘rdadagi (xon saroyidagi) aslzoda ayollarni hurmatlab aytiladigan ismdur. Masalan, “Mingoyim, Hokim oyim, Qozoq oyim” kabilar” [2;214-bet] – deya keltirib o‘tadi. Ko‘rinadiki, shoiraning asl ismi va taxallusi fikrlar kontrastini keltirib chiqaradi.

Shoiraning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosi 10 ming misraga yaqin bo‘lib, uning asosini lirika tashkil etadi. Nodira she’riyati muhabbat, sadoqat va vafo g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan. U go‘zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohu fig‘onlarini kuyladi. Shoira o‘zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va orzusi aks etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog‘du ekanligini kuyladi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et!

Nodira ijodida muhabbat tushunchasi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muhabbat shaxsiy tuyg‘ular doirasidan yuqori ko‘tarilib, odamiylikni chuqur idrok qilish vositasiga aylantiriladi.

Jahon Otin Uvaysiy esa XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan iste’dodli shoira hisoblanadi. U to‘rtta devon tuzgan bo‘lsa-da, ularning asl qo‘lyozmalari to‘liq saqlanib qolmagan. Shunga qaramay, Uvaysiy mumtoz o‘zbek she’riyatining deyarli barcha janrlarida samarali ijod qilgan. Shoiraning adabiy merosiga 269 ta g‘azal, 29 ta muxammas, 55 ta musaddas, 1 ta murabba, chistonlar, 3 ta doston va tugallanmagan bir manzuma kiradi. Uvaysiy ijodi g‘oyaviy jihatdan teran, mavzu doirasi esa nihoyatda keng va rang-barangdir. Uning asarlari o‘zining latif mazmuni va badiiy nafisligi bilan xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, hofiz va xonandalar tomonidan maqom hamda xalq kuylariga solinib ijro etib kelinadi. Shoiraning xattotlar tomonidan ko‘chirilgan uchta qo‘lyozma devoni bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Andijon davlat universiteti kutubxonasida saqlanmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek ayol ijodkorlarining merosi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada Nodira va Uvaysiy she’rlari ingliz tilida nashr etildi. Ushbu loyiha O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi hamda ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning muhim sanalariga bag‘ishlab amalga oshirildi. To‘plamdan Uvaysiyning 48 ta she’ri, jumladan, 26 ta g‘azali va chistonlari, shuningdek, Nodiraning bizgacha yetib kelgan barcha g‘azallari o‘rin olgan. Tarjimalar muallifi – ingliz shoiri Endryu Staniland bo‘lib, u O‘zbekistonga tashrifi davomida ushbu shoira ijodi bilan yaqindan tanishib, ularni ingliz tiliga tarjima qilishga ilhomlanganini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, adabiyot darsliklarida Nodira va Uvaysiy kabi ayol ijodkorlar merosini o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki milliy qadriyatlar, sadoqat, vafodorlik va ma’naviy yetuklik kabi tushunchalarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Bugungi kun ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisidan o‘quvchining yuksak ma’naviyati uchun asos bo‘ladigan bir qator an’anaviy metodlar bilan birga turli xil interfaol va kreativ metodlardan samarali foydalana bilish talab etiladi. Biroq bu jarayonning to‘la ro‘yobga chiqishi uchun ayrim muammolarga duch kelinmoqda va adabiyotning kuchi ko‘p hollarda Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda, hanuzgacha “o‘tin yorishga sarflanmoqda”. Bu muammolarning ildizi va yechimi adabiyot darsliklarida berilgan ijodkorlarni qanday o‘qitilishi kerakligi hamda “Qaysi asarni qay tarzda

o‘qitish kerak?” va “Badiiy tahlil nima va qanday amalga oshiriladi?” kabi savollarga javob topa olishimiz va ularni dars jarayoniga tatbiq eta olishimizga borib taqaladi.

Avvalo, Nodira timsolida biz nafaqat shoira, balki davlat arbobi, madaniyat homiysi bo‘lgan ayol obrazini ko‘ramiz. Bu esa tarixiy sharoitda ayollarning faqat oilaviy doira bilan chegaralanmaganini, balki jamiyat boshqaruvi va madaniy hayotda ham faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Xususan adabiyotshunos Mahbuba Qodirova: “Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi xislatlarni ma’rifat, ya’ni Xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharafli xislatlarni o‘z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko‘ngil ganjinasida asramog‘ini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi. Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab beradi”[4], – deya Nodira ijodiga yuksak baho beradi.

Jahon otin Uvaysiy ijodi ayol qalbining yanada nozik, ichki kechinmalarga boy qirralarini ochib beradi. Uning g‘azallarida ayolning ruhiy olami, iztiroblari, orzu-intilishlari teran badiiy ifodalanadi. Bu jihat o‘quvchilarga ayolni faqat ijtimoiy rol orqali emas, balki mustaqil fikrlovchi, his qiluvchi shaxs sifatida anglash va tushunish imkonini beradi.

Jahon otin Uvaysiy o‘z davrida chistonlari (mumtoz adabiyotda she’riy topishmoq chiston (forscha “U nima?”) deb ataladi) bilan mashhur bo‘lgan. Xususan, uning quyidagi chistonini maktab darsliklarida o‘qitish o‘quvchilarda topqirlik va zukkolik, teran fikrlay olish qobilyatini shakllantiradi.

Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar anda aylabdur makon.
Sindurub gumbazni qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig‘liq turarlar bag‘ri qon[5].

Tabiiyki, o‘quvchilarda “Eshigi, derazasi yo‘q”, “ichini bag‘ri qon qizlar makon qilgan” gumbaz nima bo‘lishi mumkin? degan savollar paydo bo‘ladi. O‘qituvchi bunday mazmundagi chistonning yaratilishi sabablarini izohlash kerakligi va ayni bir narsani tasvirlash uchun tanlangan obrazlarda qanday o‘xshashlik va farqlarni kuzatish mumkinligini sharhlab o‘tishi kerak. Shoira anorni bevosita nomlamay, uni quyidagi obrazlar orqali tasvirlaydi: “Gumbaz” – anorning tashqi qobig‘i; “Eshigi, tuynugi yo‘q” – uning yopiq, butun shakli; “Gulgunpo‘sh qizlar” – ichidagi qizil donachalar; “Yuzlariga parda tortig‘liq” – donachalarni o‘rab turgan yupqa parda; “Bag‘ri qon” – anorning qizil rangi. Ushbu tasvirlarda shoiraning tasvir mahorati shundaki, oddiy meva murakkab poetik tizim orqali jonlantiriladi, unga go‘yoki tirik mavjudot – qizlar makon qilgan gumbaz sifatida qaraladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, adabiyot darsliklarida Nodira va jahon Otin Uvaysiy kabi ayol ijodkorlar merosini o‘rganish va o‘rgatish, porloq xotirasini tez-tez esga olib, uni adabiyotimizning mumtoz namoyandasi sifatida olqishlab turmog‘imiz lozim. Adabiyot darsliklarida Nodira va Uvaysiy kabi ayol ijodkorlar merosini o‘rganish o‘quvchilarning nafaqat badiiy-estetik tafakkurini rivojlantiradi, balki ularning ma’naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu shoiralar ijodi orqali o‘quvchilar ayol shaxsining jamiyatdagi o‘rni, uning ruhiy olami, sabr-toqati va ijodiy salohiyati haqida chuqur tasavvurga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ayol ijodkorlar merosini o‘qitish gender tenglik g‘oyalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dars jarayonida badiiy tahlil, qiyoslash, ramziy talqin kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Demak, zamonaviy ta’lim jarayonida ayol ijodkorlar merosini innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish nafaqat adabiyot fanining samaradorligini oshiradi, balki barkamol, tafakkuri keng va ijtimoiy ongli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чўлпон. Адабиёт надир // Ўзбек адабий танқиди (Антология) – Т.: “Turon-Iqbol”, 2011, 29-бет.
2. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX asrlar). – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.272-bet.
3. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 528-bet.
1. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/nodira-1792-1842
2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/jahonotin-uvaysiy-1779-1845

Munisa ABDISALIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi boshlang'ich ta'lim 2-kurs magistranti
munisaabdisalimova75@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni o'yin texnologiyalari asosida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda o'yin metodlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi metodik yondashuvlar ochib beriladi va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: *refleksiya, o'yin texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, refleksiv ko'nikmalar, didaktik o'yinlar, metakognitsiya, interfaol metodlar*.

Annotation: this article analyzes the theoretical and practical aspects of forming reflexive skills in primary school students based on game technologies and highlights the impact of game methods on educational effectiveness. Methodological approaches to the development of reflexive thinking are revealed, and practical recommendations are provided.

Key words: *reflection, game technologies, primary education, reflexive skills, didactic games, metacognition, interactive methods.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования рефлексивных навыков у учащихся начальных классов на основе игровых технологий, а также освещается влияние игровых методов на эффективность обучения. Раскрываются методические подходы к развитию рефлексивного мышления и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: *рефлексия, игровые технологии, начальное образование, рефлексивные навыки, дидактические игры, метакогниция, интерактивные методы.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ustuvor vazifa sifatida belgilab, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchilarning bilish jarayonlari, tafakkur faoliyati hamda shaxsiy sifatlari shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv ko'nikmalarni erta yoshdan rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Refleksiya – bu o'quvchining o'z bilimlari, harakatlari va natijalarini tahlil qilish, xatolarini anglash hamda keyingi faoliyatini rejalashtirish jarayonidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish esa murakkab va tizimli pedagogik yondashuvni talab qiladi. Chunki bu yoshdagi bolalar ko'proq obrazli tafakkurga ega bo'lib, abstrakt tushunchalarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan, xususan, o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati bolalar uchun tabiiy va qiziqarli bo'lib, u orqali ular bilimlarni oson o'zlashtiradi, ijtimoiy tajriba orttiradi hamda o'z faoliyatini baholashga o'rganadi. O'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiyada muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, John Hattie o'zining "Visible Learning" tadqiqotlarida refleksiya va o'z-o'zini baholash o'quvchilarning akademik yutuqlariga eng kuchli ta'sir etuvchi omillardan biri ekanligini ilmiy dalillar asosida ko'rsatadi. Unga ko'ra, o'quvchilar o'z o'qish jarayonini tahlil qilgan sari ularning natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi[1]. Refleksiv fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari David Boud va Rosemary Keogh tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular refleksiyani o'rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, refleksiya faqat natijani baholash emas, balki o'quvchining o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va undan yangi bilim hosil qilish jarayonidir[2].

Shuningdek, Jennifer A. Moon refleksiv o'rganishni tizimli jarayon sifatida izohlab, uning bosqichma-bosqich shakllanishini ko'rsatadi. U refleksiyani rivojlantirish uchun maxsus metodik vositalar, jumladan, savollar tizimi va faol o'qitish usullaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi[3].

O'yin texnologiyalarining ta'limdagi roli zamonaviy tadqiqotlarda alohida o'rganilmoqda. James Paul Gee o'yin asosidagi o'qitish modeli orqali o'quvchilar faol ishtirok etishini, qaror qabul qilishini va o'z harakatlarini tahlil qilishini ta'minlash mumkinligini asoslaydi. Uning fikricha, o'yinlar refleksiv fikrlashni tabiiy ravishda rivojlantiruvchi muhit yaratadi[4].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini o'rganish uchun nazariy tahlil,

1 Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. 392 p.
2 Boud, D., Keogh, R., Walker, D. Reflection: Turning Experience into Learning. – London: Routledge, 2013. 170 p.
3 Moon, J.A. A Handbook of Reflective and Experiential Learning. – London: Routledge, 2004. 296 p.
4 Gee, J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. 256 p.

pedagogik kuzatish va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. O‘yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar orqali o‘quvchilarning refleksiv faoliyati kuzatildi va olingan natijalar taqqoslash hamda umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘z bilimlarini anglash, faoliyatini tahlil qilish va kelgusi harakatlarini rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda refleksiya metakognitiv jarayon sifatida talqin qilinadi. Xususan, John Hattie ta’kidlaganidek, o‘quvchilarning o‘z o‘qish jarayonini baholashi va nazorat qilishi ta’lim samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[5]. Bu esa refleksiv ko‘nikmalarni boshlang‘ich bosqichdan shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. James Paul Gee o‘z tadqiqotlarida o‘yinlar o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, natijalarni tahlil qilish va xatolardan saboq olish imkonini berishini ta’kidlaydi[6]. Masalan, “rol o‘ynash” (role-play) usuli orqali o‘quvchilar muayyan vaziyatda o‘z harakatlarini baholashga o‘rganadilar. Boshlang‘ich sinflarda “Sotuvchi va xaridor” o‘yini tashkil etilganda, o‘quvchilar nafaqat muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali refleksiv fikrlashni ham shakllantiradi.

Refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jennifer A. Moon refleksiv o‘rganishning samarali bo‘lishi uchun o‘quvchilarni faol ishtirokka jalb etuvchi metodlar zarurligini ta’kidlaydi[7]. Masalan, “Xatoni top” o‘yini orqali o‘quvchilarga ataylab noto‘g‘ri bajarilgan topshiriq beriladi va ular ushbu xatoni aniqlash hamda sababini tushuntirishlari kerak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarda tahliliy va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish orqali refleksiv faoliyatni kuchaytiradi. Marc Prensky o‘yin asosidagi ta’lim o‘quvchilarni faol o‘rganishga jalb etishini va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini qayd etadi[8]. Masalan, “Baholovchi” o‘yini orqali o‘quvchilar bir-birining javoblarini baholab, o‘z fikrlarini asoslashga o‘rganadilar. Bu esa o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda tajribaga asoslangan o‘rganish modeli ham muhim o‘rin tutadi. David Kolb tomonidan taklif etilgan modelga ko‘ra, refleksiya o‘rganish siklining ajralmas qismi bo‘lib, har bir tajriba refleksiv tahlil orqali yangi bilimga aylantiriladi[9]. Boshlang‘ich sinflarda bu jarayonni o‘yin shaklida tashkil etish, masalan, “Bugun nimani o‘rgandim?” nomli mini-o‘yin orqali amalga oshirilishi mumkin. Unda o‘quvchilar dars yakunida o‘z o‘rganish natijalarini ifodalaydilar.

Zamonaviy tadqiqotlar refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalarning ham muhimligini ko‘rsatadi. Gregory Schraw refleksiya va metakognitsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab, o‘quvchilar o‘z fikrlash jarayonini anglash orqali samarali o‘rganishini ta’kidlaydi[10]. Masalan, “Savol ber va javob ber” o‘yini orqali o‘quvchilar o‘zlariga savol berish va unga javob topish orqali refleksiv fikrlashni rivojlantiradilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu jarayonni tabiiy, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik va interfaol o‘yinlar orqali o‘quvchilarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va xatolar ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyalariga asoslangan refleksiv yondashuvni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

5 Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. 392 p.
6 Gee, J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. 256 p.
7 Moon, J.A. A Handbook of Reflective and Experiential Learning. – London: Routledge, 2004. 296 p.
8 Prensky, M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2001. 442 p.
9 Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Pearson Education, 2015. 390 p.
10Schraw, G., Dennison, R.S. Assessing Metacognitive Awareness // Contemporary Educational Psychology. 2004. – Vol. 19, No. 4. P. 460–475.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boud, D., Keogh, R., Walker, D. Reflection: Turning Experience into Learning. – London: Routledge, 2013. 170 p.
2. Gee, J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. 256 p.
3. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. 392 p.
4. Ke, F. A Qualitative Meta-Analysis of Computer Games as Learning Tools // Educational Psychology Review. 2009. – Vol. 21, No. 1. P. 1–33.
5. Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Pearson Education, 2015. 390 p.
6. Moon, J.A. A Handbook of Reflective and Experiential Learning. – London: Routledge, 2004. 296 p.
7. Prensky, M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2001. 442 p.
8. Schraw, G., Dennison, R.S. Assessing Metacognitive Awareness // Contemporary Educational Psychology. 2004. – Vol. 19, No. 4. P. 460–475.
9. Slavin, R.E. Educational Psychology: Theory and Practice. – Boston: Pearson Education, 2012. 512 p.

Malika TADJIBAYEVA,
Oriental universiteti
Ta'lim menejmenti yo'nalishi magistranti



O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM SIFATINI RAQAMLI MONITORING QILISHNING HOLATI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va ta'lim sifatini raqamli monitoring qilishning hozirgi holati tahlil qilinadi. Unda HEMIS tizimining joriy etilishi, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlar hamda ularning ta'lim sifatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, infratuzilma, kadrlar salohiyati va metodik muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, raqamlashtirish, ta'lim sifati, raqamli monitoring, HEMIS.*

Аннотация: в статье рассматриваются процессы цифровизации высшего образования в Узбекистане и текущее состояние цифрового мониторинга качества образования. Анализируется внедрение системы HEMIS и реформы в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». Выявлены основные проблемы, связанные с инфраструктурой, кадровым потенциалом и методическим обеспечением, а также предложены пути их решения.

Ключевые слова: *высшее образование, цифровизация, качество образования, цифровой мониторинг, HEMIS.*

Annotation: this article examines the digitalization of higher education in Uzbekistan and the current state of digital monitoring of education quality. It highlights the implementation of the HEMIS system and reforms under the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy. Key challenges related to infrastructure, staff competencies, and methodology are identified, and practical recommendations are proposed.

Key words: *higher education, digitalization, education quality, digital monitoring, HEMIS.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish har bir davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot va mehnat bozori yuqori malakali, raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu bois ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, uning samaradorligini muntazam baholab borish va boshqaruv qarorlarini aniq ma'lumotlar asosida qabul qilish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruvni soddalashtirish va sifatni oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish, masofaviy ta'lim platformalarini kengaytirish va statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Bu jarayonlar ta'lim sifatini raqamli monitoring qilish masalasini dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqdi.

O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish 2017-yildan boshlab jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ta'lim sohasini raqamlashtirish uchun muhim huquqiy asos yaratdi. Ushbu hujjatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlar asosida ta'lim sifatini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.[1]

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF-6079, 2020-yil 5-oktyabr) oliy ta'lim sohasida raqamli transformatsiyani yanada tezlashtirdi. Ushbu strategiyaga ko'ra, 2030-yilga qadar OTMlarda "Smart University" modelini to'liq joriy etish, boshqaruv jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish va AI texnologiyalaridan ta'lim va tadqiqotda keng foydalanish ko'zda tutilgan. Strategiyaning ta'lim sohasiga oid qismida ta'lim sifatini raqamli monitoring qilish tizimini yaratish ham alohida vazifa sifatida keltirilgan.[2]

2019-yilda ishga tushirilgan HEMIS tizimi O'zbekiston oliy ta'limini raqamlashtirish yo'lidagi eng muhim qadam hisoblanadi. Soha mutaxassislaridan biri M.U.Ergashevning tadqiqotiga ko'ra, HEMIS tizimi quyidagi asosiy modullardan iborat: 1) ma'muriy boshqaruv moduli; 2) o'quv jarayoni moduli (talaba ma'lumotlari, dars jadvali, davomat); 3) ilmiy faoliyat moduli; 4) moliyaviy boshqaruv

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral. – https://lex.uz/docs/3107036
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr. – https://lex.uz/docs/5031048

moduli; 5) kadrlar bo‘yicha modul. 2024-yilga kelib tizim 200 dan ortiq OTMni qamrab olgan.[3]

Asosiy qism.

O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirish jarayoni so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, 2017-yildan boshlab ta’lim sohasida modernizatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim tizimini raqamli muhitga moslashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi oliy ta’lim sohasida raqamli transformatsiyani yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu strategiyada oliy ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv modelini shakllantirish, elektron platformalar orqali ma’lumotlarni boshqarish, “Smart University” modelini joriy etish va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar, o‘z navbatida, ta’lim sifatini raqamli monitoring qilish tizimlarini yaratish va takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini raqamlashtirishda HEMIS tizimi alohida ahamiyatga ega. Mazkur tizim oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv faoliyatini yagona elektron platforma asosida tashkil etish imkonini beradi. HEMIS orqali talabalarning o‘quv jarayoni, davomat ko‘rsatkichlari, o‘zlashtirish darajasi, o‘qituvchilarning faoliyati, o‘quv yuklamalari va boshqa muhim ko‘rsatkichlar tizimli ravishda qayd etiladi.

HEMIS tizimining afzalligi shundaki, u ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish, tahlil qilish va ular asosida tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa ta’lim sifatini monitoring qilishning an’anaviy shakllariga nisbatan ancha samarali usul hisoblanadi.

Chunki ilgari sifat monitoringi ko‘proq qog‘oz hujjatlar, davriy hisobotlar va subyektiv kuzatuvlarga asoslangan bo‘lsa, endilikda raqamli ma’lumotlar bazasi orqali aniqlik, tezkorlik va shaffoflik ta’minlanmoqda.

Raqamli monitoringning ijobiy jihatlari:

Raqamli monitoring ta’lim sifati nazoratida bir qator ustunliklarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, u ta’lim jarayonining barcha subyektlari faoliyatini bir tizimda kuzatish imkonini beradi. Ikkinchidan, statistik ma’lumotlar asosida muammolarni erta aniqlash va ularga tezkor choralar ko‘rish mumkin bo‘ladi. Uchinchidan, raqamli monitoring boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslangan holda qabul qilinishiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, bu tizim ta’lim muassasalari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli monitoring xalqaro reytinglar va akkreditatsiya talablariga moslashishda ham muhim vositadir. Chunki zamonaviy xalqaro sifat baholash mexanizmlari ko‘pincha raqamli ko‘rsatkichlar, ochiq statistik bazalar va avtomatlashtirilgan tahliliy tizimlarga tayanadi. Shu ma’noda, O‘zbekistonda raqamli monitoring tizimining rivojlanishi oliy ta’limning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini raqamli monitoring qilish jarayoni jadal rivojlanmoqda va bu ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. HEMIS tizimi, raqamli platformalar, elektron boshqaruv vositalari va davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar mazkur jarayonning institutsional asosini yaratmoqda. Shu bilan birga, infratuzilmaviy nomutanosiblik, kadrlar tayyorgarligi, ma’lumotlar sifati va metodik muammolar tizim samaradorligini to‘liq namoyon etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Kelgusida oliy ta’lim sifatini raqamli monitoring qilish tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va analitik imkoniyatlarini kengaytirish O‘zbekiston oliy ta’limining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, raqamli monitoring nafaqat nazorat vositasi, balki sifatni boshqarish, strategik rejalashtirish va ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

3 Ergashev M.U. (2026). Digitalizing Higher Education: HEMIS. econferencia.com.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral. – https://lex.uz/docs/3107036
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr. – https://lex.uz/docs/5031048
5. Ergashev M.U. (2026). Digitalizing Higher Education: HEMIS. econferencia.com.
6. https://edu.uz
7. Usmonov B. (2025). Digitalization in Uzbekistan’s Higher Education. Academia.edu.

Shahzoda TOSHPO‘LATOVA,
Sh.Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
106 B guruhi talabasi

TA’LIMDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayoni va unda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni, shuningdek, ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berib o‘tilgan.

Maqolada interfaol metodlardan foydalanishning samarasi, oliy ta’lim muassasalarida til darslarining o‘qitilishi xususida atroflicha keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *til, ta’lim, ona tili, adabiyot, fan, kelajak avlod.*

Аннотация: в данной статье представлены рекомендации по образовательному процессу и роли современных информационных технологий в нем, а также по использованию интерактивных методов на уроках родного языка и литературы.

В статье рассматривается эффективность использования интерактивных методов и преподавания языковых курсов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: язык, образование, родной язык, литература, наука, будущее поколение.

Annotation: this article provides recommendations on the educational process on the role of modern information technologies, in it, as well as the use of interactive methods in native language and literature lessons. The article discusses the effectiveness of using interactive methods and teaching language courses in higher educational institutions.

Key words: *language, education, mother, literature, science, future generation.*

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jamiyatimizdagi rivojida tilning, adabiyotning o‘rni beqiyosdir.

Mustaqillik bergan buyuk ne’mat ta’lim va fan oldida turgan muhim vazifalar ustida ishlashimizga, yangicha ruhda ilm-fandagi yuksaklikka erishishimizda qo‘l keldi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da har tamonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi kun tartibiga qo‘yilgan. Bu maqsadni amalga oshirishda ona tili va adabiyot ta’limi muhim o‘rin tutuvchi sohalardan sanaladi. Shuningdek, hozirgi davrda har tomonlama yetuk ilmiy salohiyati yuqori barkamol shaxsni tarbiyalash uchun yurtimizda ta’lim-tarbiyaga qaratilayotgan e’tibor alohida ahamiyatga egadir. Ta’lim bosqichlarida ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o‘ta zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatish yuzasidan zarur ko‘nikma va malakalar bilan ta’minlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni, “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini hayotga joriy qilish to‘g‘risida”gi hamda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlari, ta’lim-tarbiya sohasida keyingi yillarda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning hamda Muhtaram Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari, xorijiy mutaxassislarning, shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdurauf Futrat kabi ulug‘ siymolarning so‘z, so‘z o‘zlashtirish, til sofligi masalalariga bag‘ishlangan muhim fikrlari ta’lim tizimini yanada takomillashtirishda, o‘qitishda sifat va samaradorlik kabilarga alohida e’tibor qaratishda muhim hisoblanadi.

Turli predmetlarni o‘qitishda yangi pedagogik, innovatsion, interfaol texnologiyalarga asoslangan ta’lim, an’anaviy ta’limga qaraganda ancha yuqori samara berishi kun sayin o‘z tasdig‘ini topmoqda. Mazkur texnologiyalar talabalarning bilish imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishi, ularni mustaqil va erkin fikr yuritishida yuqori samara berishining aniqlanishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Adabiyot va til aloqadorligida bevosita integratsiyadan foydalanib dars mashg‘ulotlarini olib borish orqali o‘qituvchi darsda samarali natijalarga erishishi mumkin.

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – *kuchli tomoni,* ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – *kuchsiz tomoni* yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – *imkoniyatlar;* rivojlanish uchun tashqaridagi mavjud imkoniyatlar;

Threats – *xavflar,* tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

SWOT-tahlil jadvali


S	Til va jamiyat sistemadir, ular bir-birini taqozo etadilar, bu munosabatdan sotsiolingvistika yuzaga keladi
W	Jamiyat a'zolarining barchasi tilga ta'sir qiladi, savodxonlik masalasiga urgu passivlashadi…
O	Integratsiya sababli yangi yo'nalishlar yuzaga keladi,
T	Ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona taqlid natijasida milliy tilning sofligini asrash

Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari

Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalariga "Nima uchun?", "Nilufar guli", "Piramida" sxemasi va shu kabilarni kiritish mumkin.

"So'rov" texnologiyasi

MEN BILDIM	
MEN TUSHUNDIM	
MEN AJABLANDIM	
MEN O'YLANIB QOLDIM	
MEN O'RGANDIM	



Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Hozirgi kunda o'qituvchining har tomonlama qobiliyatga ega ekanligi, mashg'ulotlarni tashkil etishda yangi texnologiyalar, tajribalarga tayanishi zamon talabidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining faqat tinglovchi bo'lmay, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi uning fikrlash qobiliyatini o'stirib, mustaqil fikrini ayta olish darajasiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O`zbekiston Respublikasi 2017-2020-yillarga mo`ljallangan "Harakatlar strategiyasi".T."O'zbekiston" 2017-yil.

2. Mirziyoyev Sh. M. Bilimli avlod –buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Ishonch.-2018. – 8 dekabr. 2-bet.

3.Egamberdiyeva N., Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talim va yechim. –Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

4.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent: O'qituvchi. 1996.

5.Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017.

6.Ne'matov H. va boshqalar. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari. –Toshkent, 1993.

Диёрахон ХОЖИРАХМАТОВА,
магистрант Ферганского государственного университета
e-mail: mironshoxjaloldinov@gmail.com;
Научный рукаводитель: **Кувончбек ПУЛАТОВ,**
Доцент ФерГУ

ПРОПАГАНДИСТСКАЯ И АГИТАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1920-1930-Е ГОДЫ: ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: в данной статье анализируется изучение пропагандистской и агитационной политики советской власти в Узбекистане в 1920-1930-е годы в исторической науке. В исследовании проведён сравнительный анализ подходов, представленных в советской, постсоветской и современной зарубежной историографии. На основе историко-сравнительного, системного и историографического методов раскрываются сущность и содержание советской идеологической политики, а также её влияние на общественную жизнь на примере Ферганской долины.

Ключевые слова: *советская идеология, пропаганда, агитация, историография, Ферганская долина, идеологический контроль, политическая коммуникация, общественное сознание.*

Annotatsiya: mazkur maqolada 1920-1930-yillarda O‘zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot va tashviqot siyosatining tarixshunoslikda o‘rganilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet, mustaqillik davri va zamonaviy xorijiy tarixshunoslikdagi yondashuvlar qiyosiy o‘rganilgan. Tarixiy-komparativ, tizimli va tarixshunoslik tahlili metodlari asosida sovet mafkuraviy siyosatining mazmun-mohiyati hamda uning Farg‘ona vodiysi misolida jamiyat hayotiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sovet mafkurasi, targ‘ibot, tashviqot, tarixshunoslik, Farg‘ona vodiysi, ideologik nazorat, siyosiy kommunikatsiya, ijtimoiy ong.*

Annotation: this article analyzes the historiography of the propaganda and agitation policies implemented by the Soviet government in Uzbekistan during the 1920s and 1930s. The study comparatively examines approaches presented in Soviet, post-independence, and contemporary foreign historiography. Using historical-comparative, systematic, and historiographical methods, the research explores the nature and content of Soviet ideological policy and its impact on social life, with particular reference to the Fergana Valley.

Key words: *soviet ideology, propaganda, agitation, historiography, Fergana Valley, ideological control, political communication, public consciousness.*

ВВЕДЕНИЕ

В истории советского государства пропаганда и агитация занимали особое место среди механизмов формирования общественного сознания и политической социализации населения. После установления советской власти в Средней Азии идеологическая деятельность стала одним из важнейших инструментов интеграции национальных республик в единое политическое пространство СССР. В Узбекистане данный процесс сопровождался масштабными социально-экономическими преобразованиями, затронувшими практически все сферы общественной жизни: образование, культуру, религию, средства массовой информации, семейно-бытовые отношения и национальную идентичность.

Следует отметить, что изучение данной проблемы имеет не только историческое, но и современное научное значение. В условиях развития информационного общества и роста роли политических коммуникаций исследование исторического опыта функционирования пропагандистских механизмов позволяет глубже понять процессы формирования общественного мнения, массовой мобилизации и идеологического воздействия на население.

Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых советской модернизации в Центральной Азии, многие аспекты пропагандистской политики до настоящего времени остаются недостаточно изученными. Особенно это касается региональных особенностей реализации идеологических кампаний, специфики восприятия пропаганды различными социальными группами населения и механизмов взаимодействия государственной идеологии с традиционными институтами узбекского общества.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Изучение пропагандистской и агитационной политики советской власти в Узбекистане в 1920-1930-е

годы прошло несколько этапов развития, отражающих изменения в методологических подходах исторической науки и общественно-политической ситуации. Историография данной проблемы характеризуется многослойностью и включает советский, постсоветский и современный зарубежный периоды исследований.

В советской историографии проблема пропаганды и агитации рассматривалась преимущественно через призму марксистско-ленинской методологии. Исследователи акцентировали внимание на роли партийно-государственных структур в процессе социалистического строительства, ликвидации неграмотности, культурной революции и формировании нового общественного сознания. В трудах Б.Гафурова, М.Эгамбердиева, Н.Турсунова, А.Расулова и других авторов пропаганда трактовалась как прогрессивный инструмент модернизации общества и политического воспитания населения. Вместе с тем вопросы идеологического давления, репрессивного характера отдельных кампаний и механизмов контроля над общественным сознанием практически не рассматривались.

После обретения Узбекистаном независимости исследовательские подходы существенно изменились. В работах И.Кодирова, А.Саидова, Р.Мухамедова, А.Мухаммаджонова и других учёных советская пропагандистская система стала анализироваться как инструмент политического контроля и формирования лояльности населения к существующему режиму. Значительное внимание уделялось изучению влияния идеологической политики на национальную идентичность, традиционные ценности, религиозную жизнь и культурное развитие узбекского общества.

Современная отечественная историография характеризуется стремлением к комплексному и междисциплинарному анализу проблемы. В исследованиях Н. Жураевой, Н.Мустафаевой, С.Шадмановой, У.Мансурова, Ф.Нарманова и других авторов рассматриваются различные аспекты советской пропаганды: гендерная политика, антирелигиозные кампании, деятельность печати, культурно-просветительных учреждений, системы образования и здравоохранения. Особое внимание уделяется региональным особенностям реализации идеологической политики, в том числе в Ферганской долине.

Значительный вклад в изучение данной проблемы внесли зарубежные исследователи. Работы А.Халида, Ш.Келлер, М.Камп, Э.Карра, Р.Пайпса и Дж.Хоскинга позволили рассмотреть советскую пропаганду в контексте процессов модернизации, национального строительства и культурной трансформации в Центральной Азии. В отличие от советской историографии, зарубежные авторы уделяют больше внимания механизмам идеологического воздействия, трансформации общественного сознания и взаимодействию власти с традиционными социальными институтами.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБУЖДЕНИЕ

Проведённый анализ научной литературы показывает, что советская историография рассматривала пропагандистскую и агитационную деятельность исключительно в контексте достижений социалистического строительства. В исследованиях данного периода основное внимание уделялось успехам культурной революции, ликвидации неграмотности, развитию образования, формированию социалистического мировоззрения и укреплению партийного руководства обществом.

В работах Б. Гафурова, М. Эгамбердиева, Н. Турсунова, А. Расулова и других исследователей пропаганда характеризовалась как важнейший инструмент модернизации и политического просвещения населения. Авторы подчёркивали роль партийных организаций в распространении коммунистической идеологии и воспитании граждан в духе социалистических ценностей. При этом практически отсутствовал критический анализ методов идеологического воздействия, а репрессивные механизмы и ограничения свободы мысли не рассматривались как предмет самостоятельного исследования.

Следует отметить, что советская историческая наука находилась под непосредственным влиянием партийной идеологии, что существенно ограничивало возможности объективного анализа. В результате пропагандистская политика изображалась как закономерный и прогрессивный процесс, направленный на преодоление социально-экономической отсталости региона. Таким образом, советская историография носила преимущественно апологетический характер и выполняла функцию идеологического сопровождения государственной политики.

Особое место занимают исследования гендерной политики советского государства. Работы Н. Жураевой и М. Камп демонстрируют, что кампания по «освобождению женщин Востока» сопровождалась масштабной агитационно-пропагандистской деятельностью. Через прессу, образовательные учреждения и общественные организации формировались новые представления о роли женщины в обществе. Вместе с тем реализация данной политики нередко сопровождалась сопротивлением со стороны

местного населения и приводила к возникновению социальных конфликтов.

Современные авторы также уделяют внимание вопросам культурной политики и формирования новой социальной идентичности. Установлено, что пропаганда использовалась для создания образа «советского человека», ориентированного на коллективизм, политическую активность и безусловную поддержку государственной политики. Данный процесс сопровождался трансформацией традиционных социальных норм и ценностей.

Если советская историография концентрировалась преимущественно на позитивных аспектах пропагандистской деятельности, то современные исследования рассматривают её как сложное и многоуровневое явление, включавшее как модернизационные, так и репрессивные элементы. Современные авторы всё чаще обращаются к изучению повседневных практик идеологического воздействия, механизмов формирования общественного мнения и процессов адаптации населения к новым политическим реалиям.

Сравнительный анализ отечественной и зарубежной историографии показывает наличие существенных различий в интерпретации советской политики. Зарубежные исследователи чаще рассматривают пропаганду как инструмент политического контроля и культурной трансформации, тогда как многие отечественные авторы стремятся к более сбалансированному анализу её положительных и отрицательных последствий.

Вместе с тем существует ряд недостаточно изученных аспектов проблемы. В частности, требуют дальнейшего исследования региональные особенности реализации пропагандистской политики, роль местных элит в распространении идеологии, механизмы восприятия пропаганды различными социальными группами населения, а также влияние советской агитации на долгосрочные процессы трансформации общественного сознания.

Таким образом, проведённый анализ свидетельствует о том, что изучение пропагандистской и агитационной политики советской власти в Узбекистане остаётся перспективным направлением исторической науки. Современное состояние источниковой базы и расширение методологических возможностей создают условия для дальнейшего углубления исследований и формирования более объективной картины взаимодействия власти и общества в условиях советской модернизации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что пропагандистская и агитационная политика советской власти в Узбекистане в 1920-1930-е годы являлась одним из ключевых инструментов формирования новой общественно-политической системы и интеграции региона в единое идеологическое пространство СССР.

Исходя вышесказанного, надо сказать историография пропагандистской и агитационной политики советской власти в Узбекистане демонстрирует эволюцию от идеологически обусловленных интерпретаций к комплексному и критическому научному анализу. Это создаёт необходимые предпосылки для дальнейшего углубления исследований и формирования более полного представления о характере взаимоотношений между государством, обществом и идеологией в условиях советской модернизации Центральной Азии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Турсунов Н. История культурного строительства в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975.
2. Расулов А. Советская власть и культурное строительство в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1965.
3. Кадыров И. Советская идеология и общественное сознание в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1998.
4. Саидов А. Национальная политика советской власти в Узбекистане. – Ташкент: Адолат, 2000.
5. Мухамедов Р. Советская печать как инструмент идеологического воздействия в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 2002.
6. Рашидов Р. Национально-территориальное размежевание в Средней Азии: исторический анализ. – Ташкент: Университет, 2001.
7. Мустафаева Н. Культурные процессы в Узбекистане в советский период: историографический анализ. – Ташкент: Академия, 2012.
8. Шадманова С. Городская культура и печать в Узбекистане в 1920–1930-е годы. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2015.

Нурхон ЮСУПОВА,
Магистрант Ферганского государственного университета
Email: pugovok555@gmail.com;
Научный рукаводитель: **Кувончбек ПУЛАТОВ,**
Доцент ФерГУ

ГРАДОСТРОИТЕЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ФЕРГАНЕ В 1940-1950-Е ГОДЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: в статье рассматриваются особенности градостроительной политики в Фергане в 1940–1950-е годы. На основе архивных материалов анализируются процессы развития жилищного строительства, коммунального хозяйства, транспортной инфраструктуры и благоустройства города. Выявлены основные достижения и проблемы реализации градостроительных проектов в условиях послевоенного восстановления и индустриализации.

Ключевые слова: *Фергана, градостроительная политика, урбанизация, жилищное строительство, коммунальное хозяйство, благоустройство, индустриализация.*

Annotatsiya: maqolada 1940–1950-yillarda Farg‘onada amalga oshirilgan shaharsozlik siyosatining xususiyatlari tahlil qilinadi. Arxiv materiallari asosida uy-joy qurilishi, kommunal xo‘jalik, transport infratuzilmasi va shahar obodonchiligi masalalari yoritilgan. Shaharsozlik loyihalarini amalga oshirishdagi asosiy yutuq va muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona, shaharsozlik siyosati, urbanizatsiya, uy-joy qurilishi, kommunal xo‘jalik, obodonlashtirish, sanoatlashtirish.*

Annotation: this article examines the features of urban planning policy in Fergana during the 1940s–1950s. Based on archival materials, it analyzes the development of housing construction, public utilities, transport infrastructure, and urban improvement. The study identifies the main achievements and challenges of urban planning projects during the period of post-war reconstruction and industrialization.

Key words: *Fergana, urban planning policy, urbanization, housing construction, public utilities, urban improvement, industrialization.*

ВВЕДЕНИЕ

Во второй половине 1940-х – первой половине 1950-х годов в СССР происходило формирование единой системы управления архитектурно-градостроительной деятельностью, основанной на принципах централизованного планирования, строгой регламентации строительных процессов и подчинения архитектурных решений задачам государственного развития. Городское пространство рассматривалось как важнейший элемент социалистического строительства, а архитектура выступала не только как средство организации жизненной среды, но и как инструмент идеологического воздействия, отражающий политические и культурные приоритеты советского государства. Именно в этот период окончательно сформировалась модель так называемого «социалистического города», в которой особое внимание уделялось развитию промышленности, строительству жилья для рабочих, благоустройству общественных пространств и созданию разветвлённой сети социально-культурных учреждений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Советская историография рассматривала градостроительство преимущественно как одно из важнейших достижений социалистического строительства. В трудах Н.П. Былинкина, К.Н. Афанасьева, А.В. Иконникова, Н.Я. Колли и других исследователей основное внимание уделялось вопросам развития архитектуры социалистического реализма, реконструкции городов, созданию новых промышленных центров и совершенствованию системы расселения. Градостроительная политика характеризовалась как важный инструмент повышения уровня жизни населения и укрепления экономического потенциала государства. Вместе с тем большинство исследований данного периода носило описательный характер и не затрагивало проблемы организационных трудностей, недостатков планирования и противоречий централизованной системы управления.

Значительный вклад в изучение советской архитектуры и урбанизации внесли современные российские исследователи В.Л.Глазычев, О.В.Адамов, С.О.Хан-Магомедов, Е.И.Кириченко и другие авторы. В их работах анализируются особенности формирования советской градостроительной модели, роль государства в управлении пространственным развитием городов, а также взаимосвязь между архитектурой, идеологией и социально-экономическими процессами. Особое внимание уделяется проблемам послевоенного восстановления, массового жилищного строительства и трансформации городской среды в условиях индустриального роста.

В последние десятилетия возрос интерес к региональным исследованиям. В работах узбекских историков, архитекторов и урбанистов рассматриваются вопросы развития городов Узбекистана в советский период, особенности реконструкции исторических

центров, формирования промышленных районов и модернизации коммунальной инфраструктуры. Однако анализ научной литературы показывает, что большинство исследований посвящено Ташкенту, Самарканду и другим крупным городам республики. История градостроительного развития Ферганы в 1940–1950-е годы освещена значительно слабее.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Проведённый анализ архивных материалов показывает, что градостроительная политика в Фергане в конце 1940-х – первой половине 1950-х годов осуществлялась в рамках централизованной советской модели территориального планирования и была тесно связана с задачами послевоенного восстановления, индустриализации и повышения уровня благоустройства городской среды.

Важным результатом градостроительной политики стало расширение жилищного строительства. Согласно архивным данным, в 1946–1950 годах в городе планировалось ввести около 10 тыс. м² жилья. Значительная часть новых жилых объектов предназначалась для работников промышленных предприятий, прежде всего нефтеперерабатывающего завода. В начале 1950-х годов активно развивалось также индивидуальное жилищное строительство. В 1954 году было предусмотрено выделение 285 земельных участков под индивидуальную застройку, что свидетельствует о стремлении местных властей частично решить жилищную проблему за счёт привлечения населения к строительству собственных домов. Однако уже в этот период прослеживаются предпосылки перехода к более централизованным формам массового жилищного строительства.

Существенное внимание уделялось развитию транспортной инфраструктуры. Архивные материалы фиксируют строительство и капитальный ремонт мостов, расширение магистральных улиц, устройство гравийного и асфальтового покрытия дорог. В течение 1953–1954 годов были реконструированы центральные городские магистрали, проведён ремонт десяти проезжих и двадцати пяти пешеходных мостов, а также построены новые транспортные объекты. Несмотря на значительные объёмы работ, выполнение планов часто отставало от намеченных показателей из-за нехватки финансирования, строительных материалов и рабочей силы.

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты свидетельствуют о том, что развитие Ферганы в рассматриваемый период отражало общие тенденции советской градостроительной политики эпохи позднего сталинизма. Государство стремилось обеспечить комплексное развитие городской среды посредством централизованного планирования, сочетая индустриальное строительство с расширением социальной и коммунальной инфраструктуры.

